O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B.K.TUXLIYEV, A.T.AGZAMOV,
B.A. RAXMATULLAYEV

MOLIYA VA SOLIQLAR

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5230100 - «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)», 5231200 - «Sug‘urta ishi», 5231900 - «Korporativ boshqaruv», 5233600 - «Savdo ishi (turlari bo‘yicha)», 5230600 - «Moliya va moliyaviy texnologiyalar», 5231300 - «Budjet nazorati va g‘aznachiligi» va 5232500 - «Logistika (yo‘nalishlar bo‘yicha)» bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2022

UO‘K: 336.1:336.2
KBK 65.26ya73
T 59

B.K.Tuxliyev, A.T.Agzamov, B.A.Raxmatullayev. Moliya va soliqlar. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot» matbaa uyi», 2022. – 600 bet.

ISBN: 978-9943-8913-4-0

Mazkur darslikda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliq tizimi va soliq siyosati, iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida olib borilayotgan hamda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘laydigan boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lash tartiblari kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Darslik oliy ta’limning 200000-«Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq» bilim sohasining 230000- «Iqtisod» ta’lim sohasidagi 5230100 - «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)», 5231200 - «Sug‘urta ishi», 5231900 - «Korporativ boshqaruv», 5233600 - «Savdo ishi (turlari bo‘yicha)», 5230600 - «Moliya va moliyaviy texnologiyalar», 5231300 - «Budjet nazorati va g‘aznachiligi» va 5232500 - «Logistika (yo‘nalishlar bo‘yicha)» bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari va iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari oliy o‘quv yurtlarining bakalavrlari, magistrlari, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar, professor-o‘qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 336.1:336.2
KBK 65.26ya73

Mas’ul muharrir M.P.Eshov – i.f.d., professor.

Taqrizchilar:

S.K.Xudoyqulov – TDIU “Soliqlar va sug‘urta ishi” kafedrasi professori, i.f.d. (DSc);

M.S.Usmanova – TMI , “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi;

R.Raimov – Toshkent viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi boshlig‘i.

ISBN: 978-9943-8913-4-0

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

KIRISH

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlaganidan so‘ng, oldimizda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o‘tishdek murakkab jarayonni boshidan kechirgan rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqildi, uning taktika va strategiyasi aniqlanib, izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va davlat budjeti manfaatlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan. Bunday uyg‘unlikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat budjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bilan birga, soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etmasligiga erishishdan iborat.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning bir qancha dastaklari qatorida respublikamizning soliq mexanizmi oldiga bir tomondan davlat budjetini zarur daromadlar bilan ta’minlash, ikkinchi tomondan esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag‘batlantirish vazifasi qo‘yilgan. Bu vazifalarni bajarish uchun soliq tizimida iqtisodiy islohotlar olib borish bilan soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolini oshirish, ularni budjet tizimiga barqaror tushishini ta’minlashda soliqlarni undirish usullarini qo‘llash mexanizmini takomillashtirish, soliq undirishni optimallashtirish, soliq qarzlarini kamaytirish va qolaversa soliq to‘lovchilardan soliq yukini yengillashtirishni talab etadi.

Keyingi yillarda Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish tartibini soddalashtirish va soliq qonunchiligini takomillashtirishga asosiy e’tibor berilmoqda. Eng avvalo, ular ishlab chiqarishni, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, aholining real daromadlarini va iste’mol talablarini oshirishga

qaratilgan. Shu bilan birga, soliqlar va to‘lovlarni birxillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to‘lashga oid korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol respublikamizda qo‘llaniladigan soliq tizimini xalqaro me’yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarga to‘xtalib, 2018 yilgi soliq tizimini isloh qilish bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tgan edilar: “2018-yilda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechamiz. Chunki islohotlar davrida davlat tizimining uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi uchun budjet barqarorligi suv bilan havodek zarur...eng muhimi soliq tizimi uzoq muddat davomida aniq va tushunarli bo‘lishi kerak, soliq tizimida puxta o‘ylangan uzoq muddatga mo‘ljallangan siyosatni amalga oshirish lozim”[1] .

Prezidentimizning ushbu fikrlarida soliq siyosati budjet barqarorligini ta’minlash bilan birga soliq to‘lovchilar uchun sodda va qulay bo‘lgan soliq tizimini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozimligiga alohida urg‘u berib o‘tmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarda “Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish” ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingan[2]. Shuningdek, “Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamay-

[1]O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo’llagan Murojaatnomasi. Toshkent shahri, 22 dekabr, 2017- yil.
[2]O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni Toshkent sh., 2017 -yil 7- fevral, 1-ilova

tirish” bo‘yicha islohotlarni Harakatlar strategiyasida yana bir ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingan.

Yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlar asosida O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilingan bo‘lib, ushbu konsepsiyada “.....soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi”[3] e’tirof etilgan. Natijada, 2019-yildan, ish haqi fondidan ko‘p bosqichli soliqqa tortish tizimini qisqartirish va yangi tartibni kiritish bilan bog‘liq islohotlarni amalga oshirilishi, shuningdek “fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak”[4] ligi ko‘zda tutilgan edi.

Shuningdek “Yaqinda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, bu yildan boshlab ko‘plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi....

... Soliq kodeksi normalarini har bir soliq xodimi, tadbirkorlar va soliq to‘lovchilar puxta o‘zlashtirishi, buning uchun ularni muntazam ravishda o‘qitish zarur”[5]ligi Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan alohida ta’kidlandi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta’lim muassasasi talabalarining soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi, soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi, soliq to‘lovchilardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, ularning bilimlarini chuqurlashtirish, “Soliqlar va soliqqa tortish” fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini xos il qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni. Toshkent shahri, 2018- yil 29- iyun

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan murojaatnomasi. Toshkent shahri, 28 dekabr, 2018- yil.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasi. Toshkent shahri, 24 yanvar, 2020 -yil

Soliqlar va soliq munosabatlari, soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ni soliqqa tortish masalalari mumtoz iqtisodchi olimlardan T.Gobbs, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, N.Turgenev, D.Yum, A.Laffer, Lorents hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan R.Kempbell, K.Makkonel, V.Terdoxlebov, S.Fisher, A.Voznesenskiy, V.Gluxov, E.Teyt, E.Glazova, T.Yutkina, N.Milyakov, D.Cherniklarning ilmiy izlanishlari va asarlarida bevosita yoki bilvosita yoritilgan. Bundan tashqari respublikasimiz iqtisodchi olimlaridan I.Karimov, Q.Yahyoyev, M.Sharifxo‘jayev, S.G‘ulomov, A.Vahobov, T.Malikov, E.Gadoyev, O.Olimjonov, M.Alimardonov, A.Jo‘rayev, B.Toshmurodova, N.Qo‘ziyeva, F.Shamsutdinov, I.Zavalishina, Sh.Toshmatov, B.Tuxliev, S.Xudoyqulov asarlarida fikr yuritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani yaratish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning soliqlar va soliqqa tortish bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlaridan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va internet tarmog‘i (soliq.uz, hisobot.uz, fm.uz, fmc.uz) ma’lumotlaridan hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi hisobot materiallaridan foydalanildi.

Darslikning ayrim paragraflarini tayyorlashda ustozlarimiz - professorlar M.Almardonov, A.Jo‘rayev, S.Xudoyqulov, shuningdek hamkasbimiz – dotsent Q.To‘qsonovlar ishtirok etishgan.

I BO‘LIM. MOLIYANING IJTIMOIY – IQTISODIY MOHIYATI VA MOLIYAVIY MUNOSABATLAR

1-MAVZU: MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI.

1.1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

“Moliya” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida eng umumiy tarzda “pul mablag‘lari” ma’nosini anglatadi. Bu so‘z ona tilimizda ishlatilishining quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- maqsadli pul fondlarini xos il etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui; pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi (masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliya tizimi);
- biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag‘lari (masalan, korxona moliyasi);
- shunday (moliya) ishlar(i) bilan shug‘ullanuvchi davlat organi (so‘zlashuv tilida)[6].

Arab tilidagi “mol”, ya’ni “boylik, mulk; pul jamg‘armasi”, shuningdek, “moliyat”, ya’ni “pul mablag‘lari; soliq” so‘zlari ham moliyaga daxldordir[7].

O‘zining lug‘aviy ma’nosi jihatidan “moliya” so‘zi fransuzcha “finance”, lotincha “financia” va ruscha “finansi” so‘zlarining ekvivalenti yoki ma’lum ma’noda, sinonimi[8] hisoblanib, eng avvalo, “daromad”, “pul mablag‘lari” yoki “to‘lov” degan ma’nolarda ham ishlatiladi[9]. Moliya davlatning vujudga kelishi va uning resurslarga

---

[6] Qarang: O’zbek tilining izohli lug’ati: 80 000 dan ortiq so’z va so’z birikmasi. J.2. E – M // Tahrir hay’ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq.; O’z.R FA Til va adabiyot in-ti. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 611-b.

[7] Qarang: o’sha manba, 610- va 611-betlar.

[8] Biz bu yerda dunyo xalqlarining turli tillarida shaklan turlicha va mazmunan bir xil ma’noni anglatuvchi so’zlarni nazarda tutayapmiz.

[9] “Moliya” atamasining kelib chiqishi xususida iqtisodiy adabiyotlarda turlicha qarashlar, tasavvurlar mavjud. Ayrim mualliflarning fikricha, bu atama XIII-XIV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida vujudga kelib, keyinroq xalqaro maydonga tarqalgan hamda aholi va davlat o’rtasidagi pul munosabatlari tizimi bilan bog’langan tushunchani o’zida mujassam etgan (Qarang: Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit. Uchebnik / Pod red.prof. V.K.Senchagova, prof.A.I.Arxipova. –M.: Finansi i

bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishi bilan doimiy (uzluksiz) tovar-pul munosabatlari sharoitida paydo bo‘ldi. Davlatning mavjudligi yaratilayotgan iqtisodiy (moddiy) ne’matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bo‘yicha oliy hokimiyat organi (shaxsi) sifatida davlat va takror ishlab chiqarish munosabatlarining boshqa ishtirokchilari (subyektlari) o‘rtasida ma’lum bir munosabatlarning o‘rnatilishini taqoza etadi. Xususan, ana shu munosabatlar “moliya” tushunchasi orqali ifodalangan.

Natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari natural soliqlar va turli ko‘rinishdagi shaxsiy to‘lanmalar xarakteriga ega bo‘lgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o‘zgarishiga olib keldi – ular ko‘proq ravishda pul xarakteriga ega bo‘ldi. Biroq bu munosabatlarning mazmun-mohiyati prinsipial jihatdan keskin o‘zgarmay qolaverdi.

Zamonaviy tasavvurdagi “moliya” tushunchasini davlat xazinasining alohidalashuvi va davlat budjetining vujudga kelishi bosqichiga kiritish mumkin.

Qayd etish lozimki, moliya va moliyaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi tasavvurlar vaqt o‘tishi bilan o‘z ko‘rinishini o‘zgartirib borgan.

Korporativ tipdagi (ustav kapitalining hissali aksionerlik shaklidagi) milliy va transmilliy tashkilotlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq holda tovar ishlab chiqarishning shirik masshtablarda rivojlanishi takror ishlab chiqarish jarayoninning turli ishtirokchilari o‘rtasida pul mablag‘larini jalb qilish, ulardan foydalanish va ularni taqsimlash metodlari hamda usullarining takomillashuviga olib keldi. Tovarlar harakatidan alohidalashgan (ajralgan) pul mablag‘larining harakati masalalari bu taqsimlash jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular bir tomondan, kreditning turli shakllari va ikkinchi

---

statistika, 1999. s.25). Boshqa mualliflarning fikriga qaraganda, bu atama muomalaga 1755 yilda “Respublika xususida olti kitob” asarini nashr ettirgan frantsuz olimi J.Boden tomonidan kiritilgan (Qarang: Finansi. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. M.V.Romanovskogo, O.V.Vrublevskoy, B.M.Sabanti. – M.: Finansi i statistika, 2000. s.44).

tomondan, turli subyektlar o‘rtasida YaIM qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liqdir. Bir vaqtning o‘zida, ularning har biri amaldagi huquqiy normalar yoki ishbilarmonlik aylanmasining tartibiga muvofiq ishlab chiqarilgan mahsulotdan o‘z hissalarini olishga da’vo qiladilarki, bu moliyaviy munosabatlarning sohasidir.

Shunday qilib, moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanadi. Tarixiy kategoriya sifatida ham moliyaning vujudga kelishi jamiyatning sinflarga bo‘linishi va davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta’minlash hamda davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi.

Moliyaviy munosabatlarning farqlanuvchi xarakterli belgisi shundan iboratki, YaIMni qayta taqsimlash jarayoni oldindan ma’lum maqsadlarga mo‘ljallangan turli pul mablag‘lari fondlarini yaratish bilan kuzatiladi. Davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari darajasida tuziladigan pul mablag‘lari fondlari markazlashtirilgan fondlar, xo‘jalik subyektlari darajasida tuzilgan pul fondlari esa markazlashtirilmagan pul fondlari deyiladi.

Xo‘jalik subyektlarining turli faoliyatlaridan olingan daromadlar hisobidan maxsus pul mablag‘lari fondlari shakllantiriladi. Ularni shakllantirish qattiq ravishda reglamentatsiya qilinish (tartibga solinish) xarakteriga egaki, bu narsa moliyaviy munosabatlarning yana bir farqlanuvchi xarakterli belgiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

YaIMni taqsimlashda aholi ham ishtirok etib, ish haqi, tadbirkorlik (ishbilarmonlik) daromadi, dividentlar va qayta taqsimlashning boshqa shakllari ko‘rinishidagi o‘z hissalarini (ulushini) oladi. Bundan tashqari majburiylik xarakteriga ega bo‘lgan soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash orqali (vositasida) aholi markazlashtirilgan pul mablag‘lari

fondini shakllantirishda ishtirok etadi. Aholi daromadlari va xarajatlarini shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlarining bu tizimi ham moliyaviy munosabatlarning alohida sohasini tashkil etadi.

Shunday qilib, quyidagilar moliyaning xarakterli belgilaridir:

- qiymatning tovar shaklidagi harakatiga bog‘liq bo‘lmasdan, aksincha, real pullarning harakatiga bog‘liq bo‘lgan, huquqiy normalar yoki biznesni yuritish etikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlash xarakterdaligi;
- pul mablag‘lari harakatining, odatda, bir tomonlama yo‘nalishga ega ekanligi;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini yaratish (vujudga keltirish).

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning roli va ahamiyati pul munosabatlarining iqtisodiy munosabatlar tizimida qanday o‘rinni egallaganligiga bog‘liq. Bir vaqtning o‘zida moliya puldan o‘zining mazmuni va bajaradigan funksiyalari bo‘yicha farqlanadi. Agar pul umumiy ekvivalent bo‘lib, uning yordamida umumlashtirilgan ishlab chiqaruvchilarning mehnat xarajatlari o‘lchansa, moliya esa yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromad (MD)ni taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy instrumenti, pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish qurolidir. Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish yo‘li bilan faqatgina davlat va korxonalarning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlash emas, balki moliyaviy resurslarning sarfla-nishi ustidan nazoratni ham amalga oshirish moliyaning nima uchun mo‘ljallanganligini belgilab beradi.

Moliya quyidagilar o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini ifodalaydi:

- tovar-moddiy boyliklarni sotib olish, mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida korxonalar o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;

- markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondlarini yaratish va ularni taqsimlash borasida korxonalar va ularning yuqori organlari o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- budjet tizimiga soliqlarni to‘lash va xarajatlarni budjetdan moliyalashtirish davomida korxona va davlat o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- soliqlar va boshqa ixtiyoriy to‘lovlarni to‘lash jarayonida davlat va fuqarolar o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- to‘lovlarni amalga oshirish va resurslarni olish jarayonida korxonalar, fuqarolar va nobudjet fondlari o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- budjet tizimining alohida bo‘g‘inlari o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- sug‘urta badallarini to‘lash va zararlarni qoplash, sug‘urta hodisasi ro‘y bergan paytda aholi, korxonalar hamda mulkiy va shaxsiy sug‘urta organlari o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;
- korxona fondlarining doimiy doiraviy aylanishiga xizmat qiluvchi pul munosabatlari.

Pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai bo‘lib mamlakatning MD hisoblanadi. MDning hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlab beradi. Aynan MD va uning alohida qismlarining - iste’mol fondi va jamg‘arish fondining - hajmini hisobga olgan holda iqtisodiyotning rivojlanish proporsiyalari (nisbatlari) va tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi. Xuddi shuning uchun ham barcha mamlakatlarda MD statistikasiga muhim ahamiyat berilayotir.

Moliyaning ishtirokisiz MDni taqsimlab bo‘lmaydi. Moliya MDni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo‘lmaydigan bog‘lovchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’molga ta’sir etib, obyektiv xarakterga ega. U ishlab chiqarish munosabatlarining ma’lum bir sohasini ifoda etib, bazis kategoriyasiga mansubdir.

Zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasisiz faoliyat ko‘rsataolmaydi. Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichiga qadar jamiyatning ba’zi bir ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Atom sanoati, kosmik tadqiqotlar, iqtisodiyotning qator yangi ustuvor tarmoqlari, barcha uchun zarur bo‘lgan korxonalar (pochta, telegraf va boshqalar) ana shular jumlasidandir.

Moliya alohida olingan mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasini va ularning xo‘jalik hayotidagi makroiqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning ahvolini belgilab beradi. Doimiy ravishdagi iqtisodiy o‘sish, YaIM va MD ko‘payishi (oshib borishi) sharoitida moliya o‘zining muntazamliligi va barqarorligi bilan xarakterlanadi. U ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasini yanada ortishini rag‘batlantiradi.

Iqtisodiy krizis (tanazzul), ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlikning ortishi sharoitida moliyaning holati (ahvoli) keskin yomonlashadi. Bu narsa, o‘z navbatida, davlat ichki va tashqi qarzlari hisobidan moliyalash-tiriladigan budjet defitsitining kattaligida, pul emissiyasida, davlat qarzining ortishi va unga xizmat qilish bo‘yicha xarajatlarning ko‘payishida namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi inflyatsiyaning kuchayishiga, xo‘jalik aloqalarining buzilishiga, o‘zaro noto‘lovlarning ortishiga, pul surrogatlarining paydo bo‘lishiga, barterli bitimlarning ko‘payishiga, soliqlarni budjet undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarining o‘z vaqtida moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham iqtisodiy va sotsial munosabatlarda ishlab chiqarish real sohasining holati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O‘zining moddiy mazmuniga ko‘ra moliya pul mablag‘larining maqsadli fondlarini ifoda etib, ularning jami (yig‘indisi), oxir oqibatda, mamlakatning moliyaviy resurslarini tashkil etadi. Mamlakat moliyaviy resurslari o‘sishining asosiy sharti MDning ortishi

(ko‘payishi)dir. Bir vaqtning o‘zida, “moliya” va “moliyaviy resurslar” teng kuchli bo‘lmagan tushunchalar hisoblanadi. Moliyaviy resurslar o‘z-o‘zicha moliyaning mohiyatini aniqlab bermaydi, uning ichki mazmuni va ijtimoiy mo‘ljallanganligini ochaolmaydi. Moliya fani resurslarning o‘zini emas, balki resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi.

Moliya bazis kategoriyasi hisoblansa-da, ko‘p jihatdan u hukumat tomonidan amalga oshiriladigan (yurgiziladigan, hayotga tatbiq etiladigan) moliyaviy siyosatga ham bog‘liq bo‘ladi.

Moliya – bu, eng avvalo, taqsimlash kategoriyasi. Uning yordamida MDni ikkilamchi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati “Davlat kimning hisobidan moliyaviy resurslarni oladi va kimlarning manfaatlari uchun bu mablag‘lardan foydalanadi?” degan savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo‘ladi.

Taqsimlash jarayonlari faqatgina moliya orqali emas, balki boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan baho, kredit, soliq va h.k.lar orqali ham amalga oshiriladi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishiga baho deyiladi. MDning taqsimlanishidan oldin tovar realizatsiya qilinishi kerak. Baho mulkdorlarga mahsulot realizatsiyasidan kelib tushishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining o‘lchamini aniqlaydi va navbatdagi taqsimlash jarayonlari uchun boshlang‘ich asos sifatida maydonga chiqadi. Baho tovarlarga bo‘lgan talab va taklifni tartibga soladi va shu orqali takror ishlab chiqarishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho pensiya, nafaqa va hatto minimal ish haqini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar davlat baholarni tartibga solmasa, sotsial to‘lovlarni korrektirovka (o‘zgartirishga) qilishga va minimal ish haqini oshirishga majbur bo‘ladi. Hozirgi paytda dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida

davlat sotsial ahamiyat kasb etuvchi muhim tovarlarning bahosini korrektirovka qilayotir (o‘zgartirayotir). Baho, shuningdek bojxonaviy tartibga solishda va bojxona daromadlarini undirishda davlat tomonidan foydalaniladi. Masalan, ayrim mamlakatlarda bojxona bojlari ko‘plab tovar guruhlari bo‘yicha sotib olish olish bahosi bo‘yicha emas, balki haqiqatdagisidan keskin farq qiluvchi normativ baholar bo‘yicha undiriladi. Shunga mos ravishda (boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda) budjetning daromadlari va mamlakat ichki bozoridagi baholar ortadi.

Moliya va kredit mustaqil iqtisodiy kategoriyalar sifatida bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ular hamkorlikda kengaytirilgan asosda korxonalar pul fondlarining doiraviy aylanishiga xizmat qiladi. Kredit bank tizimi va maxsus moliya-kredit institutlari tomonidan amalga oshiriladigan ssuda fondining harakatini ifoda-laydi. Bank krediti sifatida sof ko‘rinishda tushuniladigan kredit davlatga bevosita bog‘liq emas. Takror ishlab chiqarish jarayonida uning roli yetarli darajada aniqlangan - bu daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi vaqtinchalik uzilishni qoplash usuli, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning ehtiyojlarini qoplash usuli va h.k. Biroq, bir vaqtning o‘zida, kredit - budjet defitsiti va budjet-kassa uzilishini (navbatdagi daromadlar kelib tushgunga qadar budjet xarajatlarini qoplash uchun bank xizmatlari zarur bo‘lgan paytda) qoplashning muhim shakli. O‘z navbatida, agar budjet mablag‘lari tijorat banklarining hisob varaqlarida saqlanayotgan bo‘lsa, bu banklar uchun muhim ssuda manbaidir.

Kredit moliyadan (moliyalashtirishdan) o‘zining qaytari-luvchanligi va haqliligi bilan farqlanadi. Bir vaqtning o‘zida, har ikki holatda ham ular pul mablag‘larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan (ramkasidan) chetga chiqmaydi. Hatto, tovar krediti ham pul asosiga va shakliga ega. Banklar korxonalar va aholining bo‘sh pul mablag‘larini akkumulyatsiya qiladilar va ularni ta’minlanganlik, qaytaruvchanlik, haqlilik va muddatlilik asosida ularga ehtiyoj sezgan korxonalarga beradilar. Agar moliya qiymatning bir tomonlama va qayta

tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan shakldagi harakatini ifodalasa, kredit esa kreditorga belgilangan muddatda oldindan o‘rnatilgan foizlarni to‘lagan holda qaytarilishi kerak.

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha kategoriyalar pul xarakteriga, pul tabiatiga ega bo‘lib, ularga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi yyetarli darajada asoslangan tarzda pulli to‘lanma, ya’ni pul deb atalishi mumkin. Biroq, bu oddiy pul bo‘lmasdan sarflangan mehnatga muvofiq olingan pul hisoblanadi.

Soliq ham biz tomonimizdan amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda davlatga tekinga berilayotgan puldir. Qonunga rioya etmaslik jazo choralarining qo‘llanishini taqozo etadi. Biroq, bundan tashqari, soliq bizga tegishli bo‘lgan daromad va ish haqining bir qismidir. O‘z navbatida, pulni muomalaga chiqarish (emissiya qilish) bo‘yicha operatsiyalar ham davlat daromadlarining manbai hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha kategoriyalarni ularning pulli tabiati birlashtirib turadi. Ular bir-birlaridan o‘zlarining funksiyalari va mo‘ljallanganligi bilan ajralib turadi. Bunda kategoriyalarga tegishli bo‘lgan barcha belgilarning majmui ko‘rib chiqilsagina ularni farqlash mumkin. Xususan, noekvivalent xarakterga ega bo‘lgan va davlatning mavjudligi natijasida vujudga keladigan jamiyatdagi pul munosabatlari davlat moliyasi deyiladi. Taqsimlash sohasidan tashqarida moliya mavjud bo‘lmaydi. Agar moliya qayta taqsimlash sohasiga o‘tsa, u boshqa iqtisodiy kategoriyalarning belgilarini o‘zida mujassam etadi.

1.2. Moliyaning funksiyalari

Moliyaning mohiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo‘ladi. Moliya quyidagi ikki funksiyani bajaradi:

1. Taqsimlash.
2. Nazorat.

Bu funksiyalar moliya tomonidan bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Har qanday (bir) moliyaviy operatsiya YaIM va MDni

taqsimlash va shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi.

Moliyaviy munosabatlarning asosiy tavsifi ularning taqsimlash xarakteriga ega ekanligi uchun, shunga muvofiq ravishda moliyaning bosh yoki asosiy funksiyasi taqsimlashdir. Moliya yordamida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan taqsimlash jarayoni murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Moliya YaIMni taqsimlashning turli bosqichlariga xizmat qilib, uni birlamchi taqsimlashda va qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Moliyaviy metod orqali taqsimlash iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari miqyosida) qamrab oladi. Unga taqsimlashning turli ko‘rinishlarini (xo‘jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo va b.) tug‘diruvchi ko‘p bosqichlilik xosdir.

Eng avvalo, moliyaning taqsimlash funksiyasi MDni taqsimlashda, “asosiy yoki birlamchi daromadlar” deb nom olganlarni yaratish (tashkil etish) sodir bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Ularning yig‘indisi MDga tengdir. Asosiy daromadlar MDni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash jarayonida shakllanadi. Ular ikki guruhga bo‘linadi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lgan ishchi va xizmatchilarning ish haqi, fermer va h.k.larning daromadlari;
- moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning daromadlari.

Biroq, bunda birlamchi daromadlar milliy xo‘jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qudratini ta’minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta’minlay olmaydi. Buning uchun quyidagilar bilan bog‘langan holda MDni yanada taqsimlash va qayta taqsimlash zarur:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlari va jamg‘armalaridan eng samarali va oqilona foydalanish maqsadida mablag‘larni tarmoqlararo va hududiy qayta taqsimlash bilan;

- ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda noishlab chiqarish sohasining (maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minot, boshqaruv va h.k.) ham mavjudligi bilan;
- aholining turli ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash bilan.

Yuqoridagi qayta taqsimlashlar natijasida ikkilamchi yoki “kelib chiquvchi” daromadlar tashkil topadi. Bunday daromadlarga noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida olingan daromadlar, soliqlar (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va boshqalar) kiradi. Ikkilamchi daromadlar MDdan foydalanish borasidagi yakuniy nisbatlarni (proporsiyalarni) shakllantirish uchun xizmat qiladi.

MDni taqsimlash va qayta taqsimlashda faol ishtirok etib, moliya MDni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga transformatsiya qilinishiga (aylanishiga, o‘zgarishiga) ta’sir ko‘rsatadi. Bunday qayta taqsimlash natijasida yaratiladigan daromadlar moddiy va moliyaviy resurslar va eng avvalo, bir tomondan pul fondlarining o‘lchami va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish vositalari va iste’mol predmetlarining hajmi va tuzilmasi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashi kerak.

Odatda, har bir mamlakat doirasida MDni qayta taqsimlash milliy iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo‘jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadlarida, aholining eng kam ta’minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg‘iz va ko‘p bolali onalar va h.k.) foydasiga amalga oshiriladi.

Shunday qilib, MDni qayta taqsimlash milliy xo‘jalikning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mamlakatning alohida mintaqalari, mulkchilik shakllari va aholining sotsial guruhlari o‘rtasida sodir bo‘ladi.

Moliya yordamida amalga oshiriladigan YaIM va MDni taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning bozor tarkibiy tuzilmasini shakllantirish,

davlatni mustahkamlash, aholi keng qatlamlari hayotining yuqari sifatli bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir. Bu jarayonlarda moliyaning roli kam xarajat qilib eng yuqori natijalarga erishish, moliya-xo‘jalik faoliyatini yanada yaxshilashda xo‘jalik yurituvchi subyektlar har bir xodimi va jamoasining moddiy manfaatdorligi va qiziquvchanligini oshirish vazifalariga bo‘ysundirilgan.

Moliyaning taqsimlash funksiyasi yordamida davlat faqatgina MDni qayta taqsimlashga emas, balki ishlab chiqarishga, kapitalning jamg‘arilishiga, iste’mol sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, moliya iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini, ishlab chiqarish va sotsial infrastrukturani, ilmiy-texnika taraqqiyotini va h.k.larni rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Umuman, moliyaning taqsimlash funksiyasi:

- xo‘jalik subyektlari, aholi, davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag‘lari fondlarini shakllantirishga;
- xo‘jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlar-aro, shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlashni sodir etishga;
- xo‘jalik subyekti va davlat darajasida zaxiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg‘arishni amalga oshirishga imkoniyat va shart-sharoit yaratib beradi.

Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish hamda foydalanishning instrumenti sifatida moliya taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini obyektiv ravishda o‘zida aks ettiradi. Uning nazorat funksiyasi YaIMni tegishli fondlarga taqsimlash va ularning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari yagona iqtisodiy jarayonning ikki tomonidir.

Moliya nazorat funksiyasining asosini moliyaviy resurslarning harakati tashkil etadi. Ana shu harakatning xarkteridan kelib chiqqan holda jamiyat pul mablag‘larini taqsimlashda qanday proporsiyalarning (nisbatlarning) vujudga kelayotganligi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar

ixtiyoriga moliyaviy resurslarning o‘z vaqtida kelib tushishi qanday ta’minlanayotganligi xususida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Agar moliyaning nazorat funksiyasi amaliyotda amalga oshirilmasa, moliya taqsimlash funksiyasining samaradorligini baholashning ham iloji yo‘qki, bu narsa yuqoridagi har ikki funksiya koordinatsiya qilinishining (muvofiqlashtirilishining) zarurligi to‘g‘risida darak berayotir.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida moliyaning nazorat funksiyasi ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishning dinamik rivojlanishini ta’minlashga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy xo‘jalikning barcha bo‘g‘inlarida ish sifatini uzluksiz yaxshilashga yo‘naltirilgan. U ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarini to‘liq qamrab oladi. Iqtisodiy rag‘batlan-tirishni oshirish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo‘qotmalarni qisqar-tirish, xo‘jasizlik va isrofgarchilikning oldini olish moliya nazorat funksiyasining maqsadlaridandir.

Moliya nazorat funksiyasining eng muhim vazifalaridan biri moliyaviy masalalar bo‘yicha qonunchilikning aniq bajarilishini, budjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek hisob-kitoblar va to‘lovlar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro majburiyatlari bajarilishining o‘z vaqtidaligi va to‘liqligini tekshirish hisoblanadi.

Moliya organlarining ko‘p qirrali faoliyatlari orqali moliyaning nazorat funksiyasi namoyon bo‘ladi. Moliya tizimi va soliq xizmatining xodimlari moliyaviy rejalashtirish jarayonida, budjet tizimining daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar. Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida nazorat ishlarining yo‘nalishi, moliyaviy nazoratning shakl va metodlari keskin o‘zgaradi.

Moliyaning funksiyalari moliya mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm milliy xo‘jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuini, markazlashtirilgan va

markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o‘z ichiga oladi. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida sifat jihatidan yangi bo‘lgan moliya mexanizmi qo‘laniladi. Bu, eng avvalo, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining budjet tizimi, nobudjet fondlari, mulkiy va shaxsiy sug‘urta organlari va boshqalar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarga tegishlidir.

1.3. Takror ishlab chiqarish va moliya

Kishilik jamiyati oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va sotsial sohani doimiy ravishda takror ishlab chiqarmasdan hayot kechirishi (amal qilishi) mumkin emas. Planetamiz aholisining o‘sishi va uning urbanizatsiyalashuv daraja-sining ortishi, mamlakatlar ichidagi va ular o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi, ilmiy-texnika taraq-qiyotining rivojlanishi va boshqa bir qancha omillar bilan “hayot kechirish”ni yoki “yashash”ni takror ishlab chiqarish kishilik jamiyati mavjudligining muhim sharti bo‘lib qolayotir. Xalqaro mehnat taqsimoti yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning notekis taqsimlanishiga, eng boy-badavlat sanalgan mamlakatlarda moliyaviy kapitalning konsentratsiyalashuviga (to‘planishiga) olib kelmoqda. Eng kambag‘al mamlakatlar esa xom-ashyoni qazib chiqarish va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, har qanday sharoitda ham takror ishlab chiqarish jarayonining mazmuni o‘zgarmasdan qolayotir. Faqat qo‘shimcha mahsulotning konsentratsiyalashuv (to‘planish) joyi o‘zgarmoqda, xolos. Moliyaviy, bank va baho mexanizmlari orqali foydaning asosiy qismi eng rivojlangan mamlakatlarda “cho‘kmoqda” va ularga kelgusida ham taqsimlashni o‘zlari foydalariga hal qilishga imkon berayapti.

Takror ishlab chiqarish jarayoni o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- ishlab chiqarish;
- almashuv;
- taqsimlash;
- iste’mol.

Takror ishlab chiqarish uchun bu bosqichlar, albatta, majburiy yoki shart bo‘lib, hatto ularning birisiz takror ishlab chiqarish jarayoni uziladi. Uning har bir bosqichlariga bir yoki bir necha iqtisodiy kategoriyalar xizmat qiladi. Kategoriyalarning takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi bevosita va bilvosita shakllarda bo‘lishi mumkin. Masalan, baho kategoriyasi tovar kategoriyasi singari almashuv bosqichida markaziy o‘rinni egallaydi. Biroq, baho kategoriyasining ta’siri, takror ishlab chiqarishning bu bosqichida boshqa kategoriyalar xizmat qilishiga qaramasdan, iste’mol bosqichida bevosita namoyon bo‘ladi. Davlat moliyasining ijtimoiy mo‘ljallanganligidan (davlatning o‘z funksiyalarini bajarishini ta’minlaydigan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish) kelib chiqiladigan bo‘lsa, taqsimlash bosqichida ularning roli nisbatan kattaroq ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Takror ishlab chiqarish jarayonining bu bosqichida (taqsimlashda) barcha ijtimoiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda, jamiyatning barcha qarama-qarshiliklari namoyon bo‘ladi.

Iste’molga ketadigan jami ijtimoiy mahsulot (JIM)dan, birinchi navbatda, takror ishlab chiqarishning oldingi (o‘tgan) siklida foydalanilgan mehnat qurollari va predmetlarini tiklash uchun mo‘ljallangan qismi ajra-tiladi. Bu qism takror ishlab chiqarishning yangi siklida ham uning shu hajmda takrorlanishini ta’minlaydi. Qolgan qism vositalar (mablag‘lar)ning egasi va ishchilar o‘rtasida taqsim-lanadi. Taqsimlash proporsiyalari (nisbatlari) asrlar davomida shakllanib, unda ishtirokchilarning har biri o‘ziga tegishli bo‘lgan qismni ortirish (ko‘paytirish) maqsadida bir-birlari bilan doimiy qarama-qarshilikda bo‘ladilar. Shunday qilib, jamiyatda yangidan yaratilgan qiymat birinchi taqsimlash bosqichini va undan so‘ng esa almashuv va iste’mol bosqichlarini bosib o‘tadi. Takror ishlab chiqarish

jarayonining har bir ishtirokchisi o‘ziga tegishli bo‘lgan daromadni quyidagi ikki qismga bo‘ladi:

- iste’mol fondi;
- jamg‘arish fondi.

Lekin bu bosqichga qadar taqsimlash jarayoniga davlat aralashib, soliqlar, qarzlar, sug‘urta to‘lovlari (badallari) kabi iqtisodiy instrumentlardan foydalangan holda individual va jamoa daromadlaridan o‘zining hissasini (o‘ziga tegishli bo‘lgan qismni) ajratib oladi.

Qayd etish joizki, daromadlar qancha qismini olishning “ostonasi”ni aniqlashda jamiyat ishtirok etadi. U jamoatchilik tashkilotlari, partiyalar va shunga o‘xshashlar orqali, qonunchilik va ijroiya hokimiyatini shakllantirish yo‘li bilan davlat faoliyatining chegarasini aniqlashga harakat qiladi. O‘z navbatida, davlat ham o‘zining harakat doirasini (sohasini) kengaytirishga harakat qiladi. Uning funksiyalari qancha keng bo‘lsa, jamiyat a’zolari daromadlarining shuncha katta summalariga davlat da’vogarlik qiladi. Shu munosabat bilan iste’mol proporsiyalari (nisbatlari) ham o‘zgaradi. Masalan, agar davlat maorif, sog‘liqni saqlash, sotsial ta’minot xarajatlarining bir qismini o‘z zimmasiga olsa, bu narsa ishchi kuchining bahosida va demak, mehnat haqining darajasida o‘z aksini topadi.

Bu yerda ijtimoiy iste’mol fondlarining hissasi qancha yuqori bo‘lsa, shaxsiy iste’mol fondlarining hissasi shuncha past bo‘lishi bilan xarakterlanadigan tendensiyani tushunish juda muhimdir. Moliya nazariyasida takror ishlab chiqarish jarayonida davlat ishtirokining qiyosiy samaradorligi xususidagi bahslar hali-hamon to‘xtaganicha yo‘q. Har bir davlat uchun ma’lum bir davrda mamlakat aholisi (alohida shaxslar emas, balki aholining keng qatlami) qancha boy bo‘lsa, davlatning o‘zi ham shuncha boy bo‘ladi, degan tushunchadan kelib chiqib, aniq tavsiyalar ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq. Chunki daromadning yuqori darajasi yuqori iste’mol talabini, sog‘lomlashib borayotgan iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa

tortiladigan baza (asos) o‘sadi va jamg‘armalar hissasi oshadi. Jamg‘armalar ssuda kapitalining asosini tashkil etib, o‘z navbatida, ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Hukumatlari soliqlar orqali shaxsiy daromadlarni chegaralab (cheklab) qo‘ygan mamlakatlarda iqtisodiyot o‘sish bazasiga (asosiga) ega emasdir. Bunday mamlakatlar ma’lum bir vaqt o‘tganidan so‘ng nisbatan boyroq bo‘lgan mamlakatlarning ta’siri ostida bo‘lib qoladi. Chunki mamlakat ichki manbalarining qisqarishi tashqi qarzga olishlar evaziga qoplanadi. O‘z navbatida, tashqi qarzlarni qaytarishning manbai bo‘lib faqat soliqlar va davlat mulki xizmat qilishi mumkin.

Taqsimlash jarayoniga davlat aralashuvining balanslashtirilgan chegaralari buzilsa, butun takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi (izdan chiqadi). Bularning barchasini iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va mehnat bozorini yaratish deb atash mumkin. Agar ijtimoiy portlashlarning oldini olish maqsadida davlat aholi kambag‘al qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha ravishda majburiyatlarni o‘z zimmasiga olsa, bu ham sog‘lom takror ishlab chiqarish jarayonlarining buzilganligidan darak beradi.

Markazlashtirilgan rejali tizimni bozor mexanizmi bilan to‘liq almashtirilganligi sharoitida eski taqsimlash tizimining saqlanib qolishi mumkin emas. Biroq yangi tizimni yaratishda sanoat texnologiyasining holati, sanoatning tarkibiy tuzilishi, raqobatbardoshlik va boshqa omillar inobatga olinishi kerak. Boshqa mamlakatlarning bu boradagi tizimidan nusxa olish o‘z davlatchiligiga va faniga ega bo‘lmagan kuchsiz rivojlangan mamlakatlargagina xosdir.

Takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimlanishini tahlil qilishni tanlab, kapitalning real harakatida faqat moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan chegaralanish kerak emas. Bundan tashqari, kapitalning milliy chegaralarni tan olmasligini ham e’tirof etmoq lozim. Chunki bunga faqat birja va bank sohalarining o‘ziga xos xususiyatlari emas, balki transmilliy kompaniyalarning keng rivojlanishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Taqsimlash jarayonida moliyaning roli va o‘rnini ko‘rsatish uchun JIMning o‘rniga YaIMdan foydalanish mumkin. Chunki har ikki ko‘rsatkichlar o‘zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Masalan, YaIM tarkibiga mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy xarajatlar kiritilmaydi. Bir vaqtning o‘zida esa, JIMning tarkibi noishlab chiqarish xizmatlarisiz bo‘lib, ularning salmog‘i yuqori darajada taraqqiy etgan jamiyatlarda jamiyat jarajatlarining1/3 qismini tashkil etadi. Biroq taqsimlashning ko‘pqadamli ekanligi inobatga olinadigan bo‘lsa, JIM ko‘rsatkichi yuqoridagi maqsadlar uchun ma’lum bir afzalliklarga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi. Chunki u takror ishlab chiqarishning muhim sohasi bo‘lgan moddiy ishlab chiqarish sohasini o‘zida to‘liqroq aks ettiradi.

JIM quyidagi ikki asosiy qismdan iborat:

- mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish vositalarining qiymati (mehnat qurollari va mehnat predmetlari);
- milliy daromad (ishchi kuchi va qo‘shimcha mahsulotning qiymati).

Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun davlat subsidiyalaridan yoki bank kreditidan foydalanish kerak. Ularning har ikkalasi ham moddiy ishlab chiqarish sohasidan chetda shakllanadi. JIMning qiymatidan sarf-langan ishlab chiqarish vositalarini tiklashni (amortizatsiya ajratmalari, materiallar, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar sotib olish, yoqilg‘i elektroenergiyani xari qilish ko‘rinishlarida va h.k.) taqsimlash jarayonlariga kiritish mumkin emas. Bu tiklanish takror ishlab chiqarishning uzluksiz zarurligi bilan belgilanadi. Chunki usiz jamiyatning bo‘lishi (amal qilishi) mumkin emas. Lekin shaklan bu JIMni taqsimlash jarayonidir.

Agar moddiy ishlab chiqarish sohasini yagona (alohidalashgan) tizim sifatida qabul qilinsa, u holda keyingi qayta taqsimlash MDdan faqat soliqlarni to‘lashga borib tugar edi. Biroq taqsimlashning real sohasida faqat davlat (soliq tizimi orqali) ishtirok etibgina qolmasdan, balki xizmat ko‘rsatish sferasi, maorif, sog‘liqni saqlash, bank tizimi va h.k.lar ham qatnashadi. Davlat o‘z daromadlarini shakllantirib, ular

hisobidan, xususan, budjet sohasining xodimlariga ish haqi to‘laydi. Budjet sohasida ishlay-diganlar esa, o‘z navbatida, Davlat budjetining daromadlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan soliqlarni to‘laydilar. Fuqarolar o‘zlarining shaxsiy daromadlari hisobidan turli xizmatlarning haqini to‘laydilar, sug‘urta fondlariga ajratmalar (badallar) qiladilar, bank kreditidan foydalanganliklari uchun foizlarni qayta-radilar. Korxonalar xizmat ko‘rsatib olgan daromadlari hisobidan ham soliqlar to‘laydilarki, ular budjet daromadlarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Taqsimlashning tarkibiga kiruvchi barcha munosabatlar ham moliya bo‘lavermaydi. Lekin taqsimlashning chegarasidan chetda moliya mavjud emas.

JIMning ikkiga bo‘linishi bilan xarakterlanadigan taqsimlashning birinchi bosqichidan so‘ng ikkinchi bosqich boshlanadiki, unga muvofiq MD jamg‘arish fondi va iste’mol fondiga bo‘linadi.

Jamg‘arish fondi ikki qismdan iborat bo‘lib, uning bir qismi takror ishlab chiqarishni kengaytirish va ikkinchi qismi esa rezerv fondlarini shakllantirishga mo‘ljallangandir. Taqsimlashning bu bosqichida moliyaning ishtiroki iqtisodiyotga davlat qo‘yilmalarini joylashtirish (kiri-tish), davlat rezervlarini shakllantirish va sug‘urta fondlarini tashkil qilish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda tegishli fondlarni shakllantirish bosqichi bu bosqichdan oldinroq amalga oshiriladi. Lekin bu erda tegishli navbatga rioya qilinmasligi ham mumkin. Chunki barcha daromad va xarajatlar yil boshida tasdiqlangan budjet doirasida (chegarasida) amalga oshiriladi. Barcha rivojlangan (tsivilizatsiyali)mamlakatlarda budjet qonun kuchiga ega bo‘lib, bu narsa taqsimlash jarayonining qonuniyatlarini o‘rganayotgan paytda daromad va xarajatlarning ketma-ketligiga e’tibor bermaslikka imkon beradi. Ko‘pchilik hollarda amaliyotda daromadlardan xarajatlarning oldinroq amalga oshirilishi sodir bo‘ladi (daromadlar shakllantirilmasdanoq xarajatlarni sarflash zaruriyati vujudga keladi). Daromad va xarajatlarning muddatlari bo‘yicha nomuvofiqlikni oldini olish uchun (yoki shu muammoni hal etish uchun) davlat krediti mexanizmidan foydalaniladi.

Jamg‘arish fondi va iste’mol fondi o‘rtasidagi nisbat vaqt jihatidan ham, takror ishlab chiqarish jarayonining alohida olingan subyektlari (davlat bilan ham birgalikda) o‘rtasida ham juda alohidadir. Iste’molning darajasiga texnologiya darajasi, kommunikatsiyalar, davlat tuzilmasi, partiya va harakatlarning obro‘si va boshqa shu kabi ko‘plab omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xuddi shunga o‘xshash ravishda jamg‘arish fondi va iste’mol fondi o‘rtasidagi nisbatlarning tendensiyasini aniqlashning ham iloji yo‘q. Iste’mol fondining yetarli yuqori darajadasida noishlab chiqarish sektorida jamg‘arishning hissasi ortadi (ya’ni, shaxsiy jamg‘armalar o‘sadi). Agar MDda iste’molning nisbiy hissasi kamroq bo‘lsa, korporativ jamg‘armalar o‘sadi. Chunki yaratilgan MD yangidan yaratilgan qiymatdan boshqa narsa emasdir. Butun takror ishlab chiqarish jarayonining negizida o‘ziga xos tovar bo‘lgan ishchi kuchi yotadi. Tovar sifatida ishchi kuchi o‘zini takror ishlab chiqarish xarajatlaridan ortiq bo‘lgan qiymatni yaratish xususiyatiga egadir. Bu xususiyat ishlab chiqarishning boshqa tarkibiy qismlariga – mehnat qurollari va mehnat predmetlari – xos emas.

O‘z navbatida, iste’mol fondi ham quyidagi ikki tarkibiy qismdan iborat:

- ijtimoiy iste’mol fondlari;
- shaxsiy iste’mol fondlari.

Alohida olingan mamlakatlar bo‘yicha ular o‘rtasidagi nisbat davlat tuzilmasiga, an’analarga va h.k.larga bog‘liq. Hokimiyat tepasida kommunistik yoki sotsialistik partiyalar turgan mamlakatlarda ijtimoiy iste’mol fondlari iste’mol fondlarining umumiy hajmida asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki ijtimoiy iste’mol fondlari orqali davlat maorif, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayonlarini moliyalashtirishni tashkil etadi. Ijtimoiy iste’mol fondlarining salmog‘i boshqa mamlakatlarda ham nisbatan yuqori bo‘lib, bu fondlar orqali boshqaruv xarajatlari, mudofaa, sanoat, qishloq xo‘jaligi va h.k.larni moliyalashtirish qo‘llab-quvvatlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy iste’mol fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni moliyasiz

tasavvur etib bo‘lmaydi. Boshqa hech qanday iqtisodiy kategoriyalarning hech biri bu jarayonda bevosita ishtirok etmaydi. Ammo bu narsani so‘zma-so‘z tushunish kerak emas. Chunki, masalan, buxgalteriya hisobi tizimi soliqlar va ajratmalarning o‘lchamini aniqlashga sharoit yaratadi, baholar va amortizatsiya ajratmalari tizimi esa foyda summasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Biroq ijtimoiy iste’mol fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning bevosita jarayoniga faqat moliya xizmat qiladi.

Ijtimoiy iste’mol fondlarining asosiy qismi Davlat budjeti orqali amalga oshiriladi. Bu fondlarning bir qismi sotsial sug‘urta va sotsial ta’minot fondlarini shakllantirishga sarflanadi. Bozor iqtisodiyoti xos bo‘lgan dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida sotsial sug‘urta va sotsial ta’minot fondlarini shakllantirishda o‘zining to‘lovlari bilan ham ish beruvchilar va yollanma mehnat xodimlari ishtirok yetadilar. Oxirgi holda ijtimoiy iste’mol fondini shakllantirishga shaxsiy iste’mol fondining bir qismi yo‘naltiriladi. Shaxsiy iste’mol fondining qolgan qismi quyidagi ikki qismga bo‘linadi:

- shaxsiy jamg‘arma fondlari;
- iste’mol fondlari.

Aynan shaxsiy iste’mol fondining ana shu ikki qismi tovar mexanizmining faoliyat ko‘rsatishi uchun tegishli sharoitni yaratadi.

Iste’mol fondi va jamg‘arish fondi o‘rtasidagi nisbat hamda ularning fizik hajmi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning rivojlanish sur’atini belgilab beradi. Agar davlat soliqlar ko‘rinishida birlamchi daromadlarning katta qismini olib qo‘ysa, u shu bilan iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu yerda hamma narsa boshqaruv organi sifatida davlatning xususiyatiga borib taqaladi – uning xarajatlari yo ortiqcha (davlat apparati xarajatlarini moliyalashtirish to‘g‘risida gap ketayapti), yo nosamarali (iqtisodiyotga qilinadigan xara-jatlar qismi) yo nooqilona (sotsial soha xarajatlari haddan ziyod qimmat bo‘lib, ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishini rag‘batlantirmaydi) bo‘lishi mumkin. Agar davlat soliqlar ko‘rinishida MDning 30% dan ortiqrog‘ini oladigan bo‘lsa, u holda iqtisodiyotni

o‘stirish va modernizatsiya qilish uchun ichki rezervlar yetarli darajada bo‘lmay qolishi mumkin. Albatta, soliqli olib qo‘yish darajasi 30%dan ham ortiq bo‘lishi mumkin. Biroq, bunday hollarda ishchi kuchini takror ishlab chiqarish xarajat-larining bir qismini davlat o‘z zimmasiga olishi kerak. Soliq ostonasi yuqori bo‘lgan sharoitda soliqni to‘lashdan bosh tortish tendensiyasi kuchayishi tufayli soliqlarni undirish xarajatlari ham ortadi.

1.4. Moliya genezisi (taraqqiyoti)

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (tuzumlar) bir-biridan ishlab chiqarish munosabatlari bilan farqlanadi. O‘z navbatida, yangi ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqadi. Yangi ishlab chiqarish munosabatlariga davlat tuzilmasi ham mos kelishi kerak. Alohida olingan davlatda o‘zgarishlar yuqoridagidek ketma-ketlikda va bog‘liqlikda sodir bo‘lmasligi mumkin. Lekin bu jarayondagi umumiy qonuniyat xususiy holatlarga bog‘liq bo‘lmaydi. Har bir ijtimoiy formatsiya va shunga muvofiq ravishda, shu formatsiyadagi (tuzumdagi) davlatga ma’lum bir moliyaviy tuzilma javob beradi (mos keladi). Turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda (tuzumlarda) moliyaning farqlanishi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

- har qanday ijtimoiy formatsiyaga (tuzumga) jamiyatning o‘z sinfiy tuzilmasi mos keladi. Bunda moliya MDni taqsimlash munosabatlarini hisobga olib, ularning davlat foydasiga qayta taqsimlanishini tashkil qiladi;
- har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada (tuzumda) moliya hukmron sinfning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatning maqsadlari va vazifalariga bo‘ysunadi;
- ishlab chiqarishning yangi usuli xo‘jalik munosabatlarining yangi tizimini vujudga keltiradi. Masalan, quldorlik va feodal formatsiyalarda (tuzumlarda) natural munosabatlar xos bo‘lgan bo‘lsa, shunga mos ravishda davlat daromadlarini shakllantirish ham natural xarakter kasb

etgan. Kapitalistik xo‘jalik tovar-pul munosabatlariga tayanadi. Shunga muvofiq davlat daromadlarini shakllantirish ham pul shaklida amalga oshiriladi;

- agar davlat boshqaruv organi sifatida tarkib topgan ishlab chiqarish munosabatlari va sinfiy tuzumning vazifalariga xizmat qilsa, shu vazifalarga moliya ham xizmat qiladi;
- XX asr tajribasi ogohlantiradi (o‘qitadi, ta’lim beradi, tarbiyalaydi):

- aniq sinflarga bo‘lingan davlat mavjud bo‘lmaydi;

- turli ijtimoiy tuzilmaga ega bo‘lgan davlatlar bir tarixiy davrda bo‘lishi mumkin;

- bir ijtimoiy-tarixiy formatsiyadan (tuzumdan) ikkinchisiga o‘tish asrlar davomida sodir bo‘lishi mumkin;

- faqat ijtimoiy tuzilma va texnologiyalarning emas, balki moliyaning ham eksport qilinish ehtimoli mavjud.

Natural munosabatlar ustunlik qilgan paytlarda hatto nisbatan rivojlangan mamlakatlarda ham pul o‘zining barcha funksiyalarini bajaraolmagan. Shunga mos ravishda pul munosabatlarining tizimi sifatida moliya ham eng umumiylik kasb etaolmagan. Ibtidoiy-jamoa tuzumining xo‘jalik tuzilmasi to‘g‘risida aniq ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganligi uchun gumon (taxmin) qilish mumkinki, doimiy davlat apparati yo‘q bo‘lganligi uchun ana shunday davlatning daromadlari va xarajatlarini shakllantirish ham bo‘lmagan. Davlat apparatining shakllanishi, unga tegishli bo‘lgan funksiyalarning kengayishi, xususan, doimiy qo‘shinlarga asos solinishi, yo‘l qurilishining jorish etilishi bilan moliyaning roli oshib borgan. Quldorlik davlatlari daromadlarining asosiy manbalari kontributsiyalar, harbiy o‘ljalar, natural soliqlar va boshqalar hisoblangan. Ma’lum bir mamlakatda ma’lum bir davr mobaynida aholining qandaydir guruhlari pul ko‘rinishidagi soliqlarni to‘lagan bo‘lishi mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, quldorlik formatsiyasida (tuzumida) pul ko‘rinishdagi soliqlar faqat tasodifiylik xarakteriga ega edi. Xuddi shuningdek, natural xo‘jalik yuritishga

asoslangan feodalizmda ham pullik soliqlar ustuvorlik kasb qilishi mumkin emas edi.

Shuni idrok etish (tushunish) eng muhimki, jamiyatning tovar-pul munosabatlariga o‘tishi munosabati bilan iqtisodiy kategoriya sifatida moliya umumiylik xarakteriga ega bo‘ladi. Biroq, hatto ana shunday sharoitda ham davlat ehtiyojlarini qondirishning pulsiz xarakterga ega bo‘lgan metodlari saqlanib qolishi mumkin. Buning mumtoz misoli sifatida yoppasiga harbiy majburiyatni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Moliyaning tarixiy xarakterga ega ekanligi har qanday davlat o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning tizimini yaratadi, degan xulosani chiqarishga imkon beradi. Bunda fondlarni shakllantirish va ulardan foydala-nishning shakllari va metodlari bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Biroq, fondlarni shakllantirishning manbalari cheklangan va hech bir davlat o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun daromadlarning yangi manbalarini ixtiro qilish mumkin emas. Bu erda gap undirishning shakllari to‘g‘risida emas, balki uning obyektlari to‘g‘risida ketayapti. Ana shunday obyektlar sifatida har doim mulk va daromad maydonga chiqadi. Undirish shakllari to‘g‘risida gapiriladigan bo‘lsa, u holda hatto antik grek davlatlaridayoq to‘g‘ri (bevosita) soliqlar bilan birgalikda egri (bilvosita) soliqlar ham paydo bo‘lgan. To‘g‘ri (bevosita) soliqlar er va mol egalaridan olingan. Urush davrlarida esa mulkiy soliq joriy etilgan. Egri (bilvosita) soliqlar bojxona bojlari va savdoga soliq shakllarida maydonga chiqqan.

Rim imperiyasida armiyada pulli to‘lanmalar (yollan-malar va ofitserlar uchun) joriy etilgan. Bu va shunga o‘xshash boshqa ehtiyojlar (tamoshalarni tashkil etish, ishsiz fuqarolarga yordam ko‘rsatish va boshqalar) pulli xarajatlarni talab etgan. Shuning uchun ham harbiy o‘ljalar va kontributsiyalarga qo‘shimcha ravishda pulli soliqlar joriy etilgan. Qulni sotish va sotib olish uchun to‘lanadigan soliq ana shunday soliqlarning dastlabkisidir. Nooziq-ovqat buyumlarini sotganlik uchun (1% miqdorida) ham soliq undirilgan. Urushlar davrida har bir fuqaro mol-mulkdan undiriladigan favqulodda soliqni ham to‘lagan. 5%

miqdorida undiriladigan merosdan olinadigan soliq joriy etilgan. Ijtimoiy tuzum sifatida feodalizm yo qullarga egalik qilish, yo patriarxal tuzum asosida rivojlangan. Biroq bu erga xususiy egalik va dehqonlarning krepost-noyligiga (biriktirilganligiga) asoslangan ijtimoiy tuzumga keskin ta’sir ko‘rsatmagan. Krepostnoy (birikti-rilgan) dehqonlar bo‘lmagan joyda feodalizm ham mavjud bo‘lmagan.

Har bir mamlakatda markazlashtirilgan hukumatning roli va uning funksiyalari feodallarning ta’siri ostida belgilangan. Feodal o‘zi egalik qiladigan joy chegaralari doirasida o‘z soliqlarining tizimini joriy etgan. Markaziy hokimiyat xo‘jalik hayotiga, xususan, aholini soliqqa tortish masalalarini faqat feodal bilan muvofiqlashtirilgan chegara doirasida aralashuvi mumkin edi. Evropada feodal bo‘linuvchanlikka birinchi marta salb yurishlari orqali kelib chiqqan ritsarliklarning kuchsizlanishi oqibatida barham berilgan. Alohida olingan davlatlar o‘rtasidagi urushlar boshqalarga nisbatan urushlar tufayli boyigan mamlakatlarda qirollik hokimiyatini mustahkamlagan. Er egalarini saqlashga sarf qilingan to‘lanmalardan tashqari dehqonlar yo‘llar, qasrlar, qal’alar qurish va armiyaga xizmat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ishlarni ham bajarishga majbur bo‘lganlar. Hunarmandlar feodal va shahar hokimiyatlariga soliqlarni faqat o‘zlarining buyumlari bilan emas, balki pullari bilan ham to‘laganlar. Savdogarlar feodalga sovg‘alar va daromadlaridan to‘lovlardan tashqari tranzit va boshqa bojlarni to‘laganlar.

O‘rta asrlarning boshlarida har bir hukmdor o‘z soliqlari va o‘lponlarini joriy etgan. Hatto davlatning ichida ham soliq va o‘lponlarni unifikatsiya qilish to‘g‘risida gap bo‘lmagan. Absolyutizmning mustahkamlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi pulli soliqlarga o‘tishga sabab bo‘ldi. Jamiyatda tovar munosabatlari qancha yuqori bo‘lsa, pulli soliqlarning salmog‘i ham shuncha katta bo‘la borgan. Feodalizmning o‘rta va so‘nggi davrlariga xos bo‘lgan yagona umumiy belgi sifatida sotib olish tizimining mavjudligini e’tirof etish mumkin. Sotib oluvchilar xazinaga kelishilgan yoki qayd etilgan summani to‘lab, daromadlarning katta qismini o‘z ixtiyorlariga qoldir-

ganlar. Shuning uchun ham sotib oluvchilar, savdogarlar, hunarmandlar feodal munosabatlarni burjua munosa-batlariga aylantirishda eng asosiy manfaatdorlar shaklida maydonga chiqqanlar.

Soliqqa tortishning sotib olish tizimi sotib oluvchilarning qo‘lida katta miqdordagi pul resurslarining to‘planishga imkon berdi. Ular zavodlar, fabrikalar va banklarning birinchi mulkdorlariga, burjuaziyaning birinchi vakillariga aylanganlar. Turli soliq imtiyozlari va preferentsiyalari, to‘siqli bojxona bojlari va soliq immunitetlari kapitalning jamg‘arilishiga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan jamg‘a-rilgan kapital endigina tug‘ilib kelayotgan sanoat sari yo‘l olib, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Va nihoyat, hukumat, uzluksiz feodal urushlarini olib borib, qurol-yaroq, harbiy inshootlar, flotni qurishning buyurtmachisi sifatida maydonga chiqib, MDni soliq tizimi orqali qayta taqsimlab kapitalning sanoatda to‘planishiga (jamg‘arilishiga) olib keldi (imkon berdi). Kapitalning jamg‘arilishiga sanoatning rivojlanishini rag‘batlantirgan, burjuaziyaning mustahkamlanishiga sharoit yaratib bergan mustamlakalarning bosib olinishi ham yordam berdi.

Shaharlar va sanoatning rivojlanishi ishchi kuchi oqimini talab etgan. Ishchilar salmog‘ining aholi umumiy soniga nisbatan ortib borishi jamiyatdagi natural munosabatlarni qisqartirdi. Bularning barchasi kapita-listik munosabatlarning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Burjuaziya tomonidan hokimiyatning qo‘lga kiritilishi monarxiyaning yemirilishi yoki uning hokimiyatchilik vakolatlaridan mahrum bo‘lganligini anglatadi. Hokimiyat tepasiga kelib, burjuaziya “soliq zulmi”ni pasaytirishga emas, balki feodallarga tegishli bo‘lgan imtiyozlarga barham berishga va soliqlarni mehnatkashlarning zimmasiga yuklashga intildi. Davlatdagi umumiy soliq yuki yengillash-maydi. Turlicha tarzda ta’sir etadigan omillarning ta’siri ostida burjuaziya kapitalni yanada jamg‘arish va o‘z foydasini yanada o‘stirish uchun o‘zini tegishli imkoniyatlar bilan ta’minladi.

Kapitallar harakatidagi milliy chegaralarga barham berilishi bilan banklar, birjalar va mustamlkachilik urushlari bunday vaziyatning

instrumentlari bo‘shlib qoldi. Burjuaziya ekspluatatsiya qilishning butun og‘irligini bosb olingan mustamlakalar ishchilari gardaniga yuklab, o‘z mamlakatlari ishchilarining ashaddiy himoyachilariga aylandi. O‘z daromadlari uchun ishchilar sinfining qarshi kurashi burjuaziya qo‘lida kapitalning yanada kontsentra-tsiyalashuviga (to‘planishiga) imkon beruvchi yangi moliyaviy institutlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu erda gap tibbiy va sotsial sug‘urta, mol-mulk va hayot sug‘urtasi tizimlari to‘g‘risida ketayapti. Barcha mamlakatlarda burjuaziya davlat tufayli soliqlarning juda katta qismini o‘z qo‘liga qurol-aslahaga, transport qurilishiga, uy-joy qurilishiga va h.k.larga buyurtmalar orqali to‘playdi (konsentratsiya qiladi).

Xususiy-tadbirkorlik printsiplariga asoslangan tizim sifatida kapitalizmning taraqqiy etishi bilan xalqaro mehnat taqsimoti jarayonining kuchayishi va shu asosda kapitalning rivojlangan mamlakatlarda konsentratsiyalashuvi kuzatiladi. Na faqat soliq imtiyozlari va hukumat buyurtmalari, balki bojlar, imtiyozli kreditlar tizimi, norentabelli korxonalar va butun tarmoqlarni sotib olish, noishlab chiqarish infratuzilmani moliyalashtirish va h.k.lar orqali davlat har doim milliy burjuaziyaning pozitsiyalarini mustahkamlashda hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Iqtisodiy tanazzullar va iqtisodiyotning stagnatsiya davrlarida soliqlar, kreditlar va buyurtmalar bilan manipulyatsiya qilish asosida o‘zining tartibga soluvchilik (regulyatorlik) rolini faollashtiradi. Buning mumtoz misoli sifatida 1929 yildagi iqtisodiy tanazzul paytida AQSH hukumatining yurgizgan siyosatini ko‘rsatish mumkin.

Bugun kundalik turmushga “finansi” (“moliya”) atamasini ilk bor kiritgan muallifni aniqlash juda murakkab. Bu atamaning birinchi muallifi sifatida 1577 yilda “Respublika xususida olti kitob” asarini nashr ettirgan fransuz olimi J.Bodenni qoldirish (hisoblash) mumkin. Undan so‘ng bu atama dunyoning barcha boshqa tillariga kirib borgan. Biroq ayrim adabiyotlarda bu atamaning lotin tilidan olinganligi to‘g‘risida isbotlanmagan qarashlar ham mavjud. Bu nashrda «finansi» («moliya») atamasi davlat va takror ishlab chiqarish munosabatlarining

boshqa subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimini ifodalash uchun foydalanilgan. Hozirgi nuqtai-nazardan bu munosabatlarni moliyaga kiritish maqsadga muvofiq emas. Chunki ular pulli xarakterga ega bo‘lmagan. Biroq, natural munosabatlar ustuvorlik qilgan iqtisodiy formatsiyalardagi (tuzumlardagi) natural soliqlar va shaxsiy to‘lanmalarning iqtisodiy mohiyati tovar-pul munosabatlari rivojlangan iqtisodiy formatsiyalardagi (tuzumlardagi) pulli soliqlarning iqtisodiy mohiyati bilan bir xildir.

Moliyaga bag‘ishlangan ishning birinchi yevropalik muallifi Ksenofont (eramizdan avvalgi 430-355 yillar) hisoblanadi. Uning shu xususdagi asari “Afina respublikasining daromadlari to‘g‘risida” deb nomlangan. Aristo-telda (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) moliya sohasidagi qarashlar uning “Afina davlat tuzilmasi” deb nomlangan asarida bayon qilingan. Eramizning 948 yilida soliqlar to‘g‘risida asar yozgan Qadam ismli arab olimining nomi ham fanda ma’lum. Moliya muammolari bilan shug‘ullangan yevropalik olimlarning uzoq ro‘yxatini F.Akvinskiy (1225-1274 yillar) boshlab beradi. U ilk marta qirolning soliqlarni undirish borasidagi huquqini asoslashga uringan.

Moliya bo‘yicha ishlarning birinchi mualliflari qatoriga F.Petrarka, D.Karaf, Bernardo, F.Gvichchardini, Dj.Botero, N.Makiaveli va boshqa italiyaliklarni kiritish mumkin.

XVII asrda moliya nazariyasining rivjlanishiga ingliz iqtisodchilari katta hissa qo‘shgan. Ularning orasidan T.Men, Dj.Lokk, T.Gobbs, P.Gautonlarni alohida ajratib ko‘rsatish kerak.

L. fon Sekendorf, S.Pufendorf, I.Yusti va I.Zonnenfels kabi nemis olimlari XVII-XVIII asrlarda moliya fanini boyitishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Ular adabiyotlarda kameralistikaning nemis maktabi vakillari sifatida kiritilgan. I.Yusti 1746 yilda nashr etilgan “Moliya mohiyatining tizimi” asarida moliya to‘g‘risidagi kameralistik maktab vakillarining qarash-larini umumlashtirdi. Bu asrda birinchi marta moliya fani va moliyaviy siyosat ajratilib ko‘rsatilgan (chegaralangan).

Fiziokratlarning o‘tmishdoshlari ham iqtisodiyotni o‘rganganlar. Ularning asarlarida moliyaning turli yo‘nalishlari (aspektlari) tahlil va tadqiq qilingan. Bunday mualliflar qatoriga T.Gobbs, Dj.Lokk, D.Yum, V.Petti, G.Baugilber, S.Voban, Dj.Styuartlarni ko‘rsatish mumkin. Aynan V.Petti (1623-1687-yillar) o‘zining “Soliqlar va yig‘imlar xususida traktatlar” asari bilan burjua siyosiy iqtisodining ilk namoyandasi (boshlovchisi) hisoblanadi.

Mumtoz siyosiy iqtisodning vujudga kelishi (tug‘ilishi) va rivojlanishi XVIII asrga to‘g‘ri keladi. Bu maktabning vakillari moliyani siyosiy iqtisoddan ajratmaganlar va uni mustaqil fan sifatida e’tirof etmaganlar. Bu maktab mualliflari (fransuzlar – A.Tyurgo, F.Kene va V.Mirabo, inglizlar – A.Smit va D.Rikardo) ishlarining darajasi, hajmi va uslubi xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan mumtoz maktab vakillarining moliya to‘g‘risidagi ta’limotlarini quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalishga keltirish mumkin:

- davlat kerak, chunki u “tabiiy tartib”ni hasaddan va tajovuzlardan himoyalaydi;
- davlatni saqlash (ushlab turish) arzon bo‘lmog‘i lozim, chunki davlatning boshqaruv xarajatlari noishlab chiqarish xarakteriga ega;
- davlat “tabiiy tartib”ni, ya’ni mulkchilik va raqobat huquqini, buza olmaydi, cheklovchi bojxona bojlari va monopoliyalarni o‘rnatish yo‘li bilan ham mamlakatning xo‘jalik hayotiga aralashmasligi kerak;
- davlat soliqqa tortishning quyidagi asosiy printsiplariga qat’iy rioya etmog‘i lozim:

- o‘z daromadlariga muvofiq ravishda barcha soliq to‘lashi kerak (bu qoida ruhoniylar va aslzodalarning soliq immunitetiga qarshi yo‘naltirilgan);
- soliqni oldindan aniq belgilash (aniqlash) zarur;
- soliqni soliq to‘lovchi uchun qulay bo‘lgan vaqtda undirish lozim;
- soliqlarning undirilishi (olinishi) arzon bo‘lishi kerak.

Kapitalistik tizimning feodalizm ustidan g‘alabasi yangi ishlab chiqarish munosabatlarini u yoki bu darajada himoya qiluvchi iqtisodiy maktablar va qarashlarning vujudga kelishiga olib keldi. Sho‘rolar

tarixnavisligida bu iqtisodiy maktabning vakillari vulgar iqtisodchilar guruhiga birlashtirilgan edi. Chunki ular, asosan, davlat daromadlarini shakllantirish masalalariga asosiy e’tiborni qaratib, uning xarajatlarini tahlil etish burjua hukumatlari to‘g‘risida salbiy tasavvur xos il qilishi mumkinligi to‘g‘ri deb hisoblagan edilar. Bu maktabning etakchi namoyandalaridan biri “Siyosiy iqtisod asoslari” deb nomlangan o‘z asarini 1848 yilda chop etgan Dj.Mil hisoblanadi. XIX asrning oxirlaridagi moliyachi-olimlar qatoriga 1877-yilda moliya fani kursini nashr etgan frantsuz P.Le-rua-Boleni va 1892-yilda “Davlat moliyasi” kitobini yozgan ingliz K.Bastblni kiritish mumkin. XIX asrda moliya nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1826-1832- yillarda uchinchi qismi to‘liq moliyaga bag‘ishlangan siyosiy iqtisod kursini nashr ettirgan K.Raudir. Uning “Moliya fanining asosiy boshlanishi” deb nomlangan asari 1867-yilda rus tilida nashr etilgan va Rossiyada moliya fanining rivojlanishiga o‘zining keskin ta’sirini ko‘rsatgan.

XIX asrning birinchi 1/3ida nashr etilgan nemis olimlaridan Soden (1811-yil), Yakob (1821- yil), Malxus (1830 -yil) va Shenlarning (1832-yil) moliya to‘g‘risidagi asarlari alohida mashhurlikka ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, lekin bu ishlar “moliya” tushunchasining tarkibiga birinchi marta mahalliy moliyani kiritgan L.fon Shteyn va moliya fanining mumtozi A.Vagnerlar (uning “Moliya to‘g‘risidagi fan” asari 1880 yilda nashr etilgan) dunyoqarashlarining shakllani-shida katta rol o‘ynadi. XIX asr oxirlarining etakchi moliyachi-olimlari qatoriga avstriyalik E.Saksni, italiyalik F.Nittini, AQSHlik E.Seligmanni va nihoyat, “Moliya fani asoslari” deb nomlangan asari 1869-yilda (1900-y yilda – rus tilida) nashrdan chiqqan italiyalik olim L.Kossni kiritish mumkin. XX asr moliyachilarining qarashlari maxsus adabiyotlarda yetarli darajada bayon qilingan. Biz uchun esa, ba’zi bir obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, rus iqtisodiy (moliyaviy) adabiyotida “moliya” tushunchasining genezisini (taraqqiy etishini) ko‘rib chiqish ham ma’lum bir ahamiyatga egadir.

Moliya sohasidagi bayonning birinchi rus muallifi Ivan Grozniy davrida yashagan I.S.Peresvetov hisoblanadi. U davlatning harbiy

qudratini kuchaytirish maqsadida xazina daromadlarini ko‘paytirish va davlat resurslarini markazlashtirishning tarafdori bo‘lgan.

XVII asrdan bizgacha Yu.Krijanich va G.Kotoshixinlarning moliya xususidagi asarlari ham yetib kelgan. Yu.Krijanich o‘z asarlarida yevropalik mualliflarning iqtisod va moliyaga oid qarashlari va mulohazalaridan keng foydalanadi, ularni Rossiyaning ehtiyojlariga “bog‘laydi”. U davlatning boyishi usullariga (masalalariga) jiddiy e’tibor qaratib, ularni ikki guruhga – boyishning “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” usullariga bo‘ladi va bu narsalarning dunyoda allaqachan ma’lum ekanligi va ularning yangilarini o‘ylab topmaslik kerak deb hisoblaydi.

G.Kotoshixinning 1664-yilda yozilgan va “Aleksey Mixaylovich podshohligidagi Rossiya to‘g‘risida” deb nomlangan asari oradan ikki yuz yil o‘tgandan so‘ng ma’lum bo‘lgan. Unda XVII asrning o‘rtalaridagi Rossiyaga tegishli bo‘lgan katta ma’lumotlar keltirilgan.

XVIII asrning boshlarida moliya nazariyotchilarining yirik vakili I.Pososhkov hisoblanadi. Uning moliya sohasidagi taklifini quyidagicha ifodalash mumkin: boqimandani undirayotgan paytda uning to‘lovchisini xonavayron qilmasdan, to‘lovchidan to‘lovni amalga oshirish muddatlari xususida yozma ravishda majburiyatni olmoq lozim.

XVIII asrning ikkinchi yarmida moliya nazariyasiga oid bir necha asarlar paydo bo‘ldi. Ularning orasida yaqqol ko‘zga tashlangani A.Polenovning “Rossiya dehqonlarining krepostnoylik holati xususida” deb nomlangan asaridir. Bu asarda Rossiyada birinchi bo‘lib “soliq” atamasi ishlatilgan, mulkiy sug‘urtaning zarur ekanligi isbotlangan, Rossiyaning amaldagi soliq tizimi tanqidiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

A.Narishkin 1767-yilda e’lon qilingan va “Iqtisod” deb nomlangan maqolasida soliqlarga oid bir necha qiziqarli mulohazarlarni oldinga suradi, soliqlar va davlat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi.

Rossiyada “moliya” atamasining paydo bo‘lishi XVIII asrga borib taqaladi. Bu atama rus tiliga fransuz tilidan kirib kelgan bo‘lib, qariyb yarim asr mobaynida “xazina” atamasi bilan yonma-yon ishlatilgan. Birinchi marta Rossiya adabiyotida “moliya” ilmiy tushunchasi 1767-

yilda Moskva universiteti tomonidan nashr etilgan “Entsiklopediyadan tarjimalar” kitobining so‘zboshisida ishlatilgan. Bu erda “moliya” tushunchasi “davlat daromadlariga tegishli bo‘lgan ish” deb talqil qilingan. Uni ilmiy muomalaga birinchi marta Moskva universitetining huquq bo‘yicha professori S.Desnitskiy kiritgan. 1802-yilda Moliya vazirligining tashkil etilishi bilan bu atama ilmiy muomalalarda mustahkam o‘rin egallay boshladi. Biroq 1835-yilga qadar, ya’ni rus universitetlarida “Moliyaviy huquq” kursi paydo bo‘lgancha qadar moliya mustaqil fan sifatida emas, balki siyosiy iqtisodning tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Amaliyotda esa, ko‘proq “xazina” atamasi ishlatilgan.

A.Radishchev o‘zining “Jon yig‘imi xususida” deb nomlangan asarida birinchi marta soliqlarning mohiyatini, iqtisodiy tabiatini, turlarini tadqiq etgan.

Moliya to‘g‘risidagi birinchi rus monografiyasi 1810-1811-yillarda N.Turgenev tomonidan yozilgan.

Moliya sohasidagi o‘ziga xos asarlarga graf Speranskiyning moliyaviy rejasini, moliya nazariyasi bo‘yicha birinchi ruscha bo‘lgan I.Gorlovning darsligini, Yu.Gagemayster, V.Kuri, D.Tolstoylarning moliyaning rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarini, M.Orlovning davlat krediti to‘g‘risidagi ishlarini kiritish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmida e’lon qilingan va moliyaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan asarlar orasida I.Shilning monografiyasi alohida o‘rin egallaydi. Uning fikricha, moliya nazariyasi davlat xazinasi g‘oyasiga bo‘ysundirilgan.

Rus fanida F.Milgauzen birinchi marta moliya va moliya fanini chegaralab bergan. U birinchilardan bo‘lib, moliyaning pulli tabiatidan voz kechgan.

Moliyaning mohiyatini idrok etishda D.Lvov o‘zining o‘tmishdoshlaridan ancha oldinga ketgan va u moliya deyilganda resurslar va boyliklarni emas, balki ma’lum bir ijtimoiy munosabatlarni tushungan.

XIX asrning oxirlarida V.Lebedev, I.Yanjul, L.Xodskiy, S.Vitte va I.Ozerovlar asarlari moliya nazariyasini rivojlantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan.

Kapitalizm ilk davridagi Rossiyaning moliya fani akademik I.Yanjulning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Uning fikricha, moliya fanining predmeti davlatning moddiy ehtiyojlarini eng yaxshi qondirish usullarini tadqiq etish hisoblanadi.

Rossiya moliya fanining oyoqqa turishida prof. I.Ozerovning xizmatlari ham katta. U moliyaga nisbatan yangicha yondashuvni asoslab bergan. Uning nazarida moliya vosita yoki resurs emas, balki munosabatlardir.

Prof. L.Xodskiy moliya fanining chegaralarini biroz kengaytiradi va uning tarkibiga pul muomalasi masalalarini ham kiritadi.

1882-1885-yillarda o‘zining “Moliyaviy huquq” asarini nashr ettirgan Sankt-Peterburg universitetining professori V.Lebedev ham moliya nazariyasini rivojlantirishga munosib xizmat ko‘rsatgan. U moliyaning tarkibiga faqat pul daromadlarini kiritibgina qolmasdan, natural soliqlarni ham kiritadi, davlat xarajatlarini esa, uning tarkibidan chiqaradi.

XX asrning boshlarida moliyaga oid M.Bogolepov, V.Tverdoxlebov, A.Bukovetskiy va P.Genzellarning asarlari paydo bo‘ladi.

Sho‘rolar davrida moliya fanining taraqqiy -etishida V.Dyachenko, A.Aleksandrov, A.Birman, E.Voznesenskiy, V.Chantladze, B.Boldirev, V.Rodionova, P.Nikolskiylar o‘ziga xos tarzda yondoshganlar. Ularning asarlari hozirgi kunda o‘z talabiga ega bo‘lmasa-da, bizning fikrimizcha, keyingi yillar tadqiqotchilari uchun ular qiziqarli predmet bo‘lishi, shubhasiz.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjetining ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
2. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjetning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

3. Davlat budjetining ta’rifini aytib bering?

4. Milliy mustaqillik qo‘lga kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respulkasi davlat budjeti tizimi qanday bo‘lgan?

5. Milliy mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng budjet tizimidagi institutsional o‘zgarishlar nimalardan iborat bo‘ldi?

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015- y.

2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018-yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,05.01.2018y.,03/18/456/0512-son;19.04.2018y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

8. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

2-MAVZU: MOLIYA TIZIMI

2.1.Moliya tizimining mazmun mohiyati

Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va prinsipial jihatdan butunlay yangi bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlariga nisbatan obyektiv ravishda yangicha yondashuvni taqazo etdi. Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliya tizimi quyidagi ikki sohaga bo‘linadi:

- davlat moliyasi va mahalliy moliya;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi.

O‘z navbatida, moliya tizimining har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning konkret shakllari va metodlariga bog‘liq ravishda bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya quyidagi bo‘g‘inlardan tashkil topishi mumkin:

- Davlat budjeti;
- maqsadli nobudjet fondlari;
- davlat krediti.

Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi quyidagi bo‘g‘inlardan iborat:

- tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi;
- moliyaviy vositachilar moliyasi;
- notijorat tashkilotlari moliyasi.

Moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo‘g‘ini sifatida Davlat budjeti o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- respublika budjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar.

Davlat maqsadli fondlari moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo‘g‘ini sifatida quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat fondi;
- O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya fondi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi moliyaviy munosabatlarning quyidagi bo‘g‘inlaridan iborat:

- Davlat budjeti tizimi;
- davlat krediti va mahalliy hokimiyat organlari kreditlari, federativ davlatlarda esa – federatsiya a’zolarining krediti;
- maxsus nobudjet fondlar;
- davlat korporatsiyalari moliyasi.

Bu davlatlarda budjet tizimining tarkibiy tuzilishi (tuzilmasi), eng avvalo, davlat tuzilishiga (qurilmasiga) bog‘liq. Unitar (yagona) davlatlarda budjet tizimi quyidagi ikki bo‘g‘indan iborat:

- Davlat budjeti;
- ko‘p sonli mahalliy budjetlar (shaharlar, okruglar, qishloq okruglari budjeti).

Mahalliy budjetlar unitar davlatlarda o‘zlarining daromadlari va xarajatlari bilan Davlat budjetining tarkibiga kirmaydi.

Federativ davlatlarda budjet tizimi uch bo‘g‘indan tarkib topgan:

- Davlat budjeti, yoki federal budjet, yoki markaziy hukumat budjeti;
- federatsiya a’zolari budjetlari (AQSHda – shtatlar budjeti, Kanadada – provintsiyalar budjeti, GFRda – erlar budjeti, Shveytsariyada – kantonlar budjeti va h.k.);
- mahalliy budjetlar.

Mahalliy budjetlar o‘zlarining daromadlari va xarajatlari bilan federatsiya a’zolarining budjetlariga va ular ham, o‘z navbatida, davlat federal budjetining tarkibiga kirmaydi.

Rivojlangan etakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining etakchi bo‘g‘inlaridan biri Davlat budjetidir. U davlat va o‘z-o‘zini boshqarish hududiy organlarining funksiyalari va vazifalarini moliyaviy ta’minlashga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish va undan foydalanishning shaklidan iboratdir.

Davlat budjeti mamlakatning joriy yildagi asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, qonun kuchiga egadir. U har yili mamlakatning qonunchilik hokimiyat organi – parlament tomonidan tasdiqlanadi. Favqulodda

vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy tanazzullar va h.k.lar davrida) hukumat Davlat budjetining mablag‘lariga tayanadi va ular yordamida o‘sib boruvchi davlat xarajatlarini qoplaydi.

Moliyaviy tizimga, yo‘l-yo‘lakay, “Moliyaviy bitimlar tuzish, aktivlar va riskni almashishda foydalaniladigan bozorlar va boshqa institutlar majmuiga **moliyaviy tizim** (financial system) deyiladi”, - deb ta’rif berish mumkin. Moliyaviy tizim moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi bozorlar, vositachilar va firmalar hamda uy xo‘jaliklari, xususiy kompaniyalar va hukumat tashkilotlari o‘zlari tomonidan qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarni ular yordamida amalga oshiradigan boshqa institutlarni o‘z ichiga oladi. Ushbuni chizmali tarzda quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

Ayrim hollarda bozor aniq moliyaviy vositalar bilan ishlashi uchun ma’lum bir joyda joylashgan bo‘ladi. Bu, masalan, Nyu-York fond birjasiga (New York Stock Exchange) yoki fyuchers[10] va opsionlarning Osaka birjasiga (Osaka Options and Futures Exchange), shuningdek, “Toshkent” fond birjasiga va boshqalarga tegishli. Bular, mos ravishchda, Nyu-York (AQSHda), Osaka (Yaponiya)da va Toshkent (O‘zbekiston)da joylashgan. Lekin har doim ham bunday bo‘lavermaydi. Masalan, aksiyalar, obligatsiyalar va valyutalarning **birjadan tashqari bozorlari** (over the counter markets) asosan butun dunyo qimmatli qog‘ozlari bilan savdo qiluvchilarni va ularning mijozlarini yagona tarkibiy tuzilmaga birlashtiruvchi global kompyuter va telekommunikatsiya tarmoqlari bilan ifodalangan.

Asosiy ishi moliyaviy xizmatlar taqdim etish va moliyaviy mahsulotlar savdosidan iborat bo‘lgan firmalar **moliyaviy vositachilar** deb ataladi. Ularning tarkibi, asosan, banklar, investitsion va sug‘urta kompaniyalaridan iborat. Moliyaviy vositachilarning moliyaviy xizmatlari qatoriga hisobraqamlarni ochish, tijorat qarzlari va ipoteka[11] kreditlarini

[10] Fьóchers (fyuchers shartnomasi) inglizcha “futures” so‘zidan olingan bo‘lib, hosila moliyaviy instrument sanaladi. U bazaviy aktivning oldi-sotdisi bo‘yicha standart muddatli shartnoma bo‘lib, unga ko‘ra tomonlar (sotuvchi va xaridor) baholarning darajasi va mol yetkazib berish muddatlari xususida kelishib oladilar.. Manba: http://ru.wikipedia.org /wiki/ Fyuchers.

[11] «Ipoteka» yunoncha «hypotheke» - garov. Ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish asosida beriladigan uzoq muddatli qarz; ushbu qarzlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi garov. Qarang: o‘sha manba. J. II. – B. 233.

berish, sug‘urta shartnomalarining keng doirasiga hamda o‘zaro jam-g‘armalarda ishtirok etishga yo‘l ochish kiradi.



1-rasm. Moliyaviy tizimning eng oddiy tasavvuri

Zamonaviy moliyaviy tizim global (dunyo miqyosidagi) xarakterga ega. Moliyaviy bozorlar va vositachilar bir-birlari bilan keng qamrovli xalqaro telekommunikatsiya tarmog‘i orqali o‘zaro bog‘liq bo‘lib, to‘lovlarni o‘tkazish va qimmatli qog‘ozlar savdosi aslida shu tarmoq tufayli kechayu-kunduz amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, aytaylik, agar Germaniyada joylashgan yirik uyushma (korporatsiya) yangi loyihani moliyalashtirishga qaror qilmoqchi bo‘lsa, unda u sarmoyaga oid har qanday imkoniyatlarni, jumladan, aksiyalarni chiqarish va

London yoki Nyu-York fond birjalarida sotish yoki biror-bir yapon pensiya fondidan qarz olish va hokazolarni ko‘rib chiqadi. Buning ustiga so‘ngi holatda qarz yevro, shu-ningdek, yapon iyenasi yoki AQSH dollarida ham taqdim etilishi mumkin.

2.2. Moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlari

Jarayonida turli pul fondlari(dan) shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlar turli sohalarining majmuiga moliya tizimi deyiladi. Unga boshqacha ham ta’rif berish mumkin: davlat va korxonalarning pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliya tizimi deyiladi. “Moliya tizimi” tushunchasi keng ma’nodagi “moliya” tushunchasining taraqqiyoti natijasidir. Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va prinsipial jihatdan butunlay yangi bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlariga nisbatan obyektiv ravishda yangicha yondashuvni taqozo etdi.

Unga muvofiq ravishda, dastlab, moliya tizimi quyidagi ikki sohaga bo‘linadi:

- davlat moliyasi va mahalliy moliya;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi.

O‘z navbatida, moliya tizimining har bir sohasi pul fondlari va daromadlarni shakllantirishning konkret shakllari va metodlariga bog‘liq ravishda bir necha bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Masalan, davlat moliyasi va mahalliy moliya quyidagi bo‘g‘inlardan tashkil topishi mumkin:

- Davlat budjeti;
- maqsadli nobudjet fondlari;
- davlat krediti.

Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi quyidagi bo‘g‘inlardan iborat:

- tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi;

- moliyaviy vositachilar moliyasi;
- notijorat tashkilotlari moliyasi.



2-rasm. Moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlari

Moliya tizimining alohida sohalar va bo‘g‘inlarga bo‘linishi YaIMni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashda, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda iqtisodiy munosabatlar subyektlarining bir-birlaridan farqli ravishda ishtirok etishi bilan belgilanadi. Moliya tizimining har bir sohasi va bo‘g‘iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos bo‘lgan shakllari va metodlari tegishlidir. Masalan, korxonalar moliyasi moddiy ishlab chiqarishga, YaIMni yaratishga, uni korxonalar o‘rtasida taqsimlashga va YaIM bir qismining budjet va nobudjet fondlariga

qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Davlat budjeti orqali resurslar davlatning markazlashtirilgan fondiga jalb qilinadi va ular iqtisodiy mintaqalar, tarmoqlar va aholining sotsial guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlanadi.

Yuqorida keltirilganlarni chizmali ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

Moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo‘g‘ini sifatida Davlat budjeti o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- respublika budjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar.

O‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlaridan tarkib topadi. Viloyatning budjeti esa viloyat budjetini va viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, tumanlarga bo‘linadigan shaharning budjeti shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlaridan iborat. Va nihoyat, tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budjeti tuman budjetidan va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetidan tashkil topadi.

Hozirgi sharoitda Davlat budjeti o‘z oldida turgan quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- daromadlar bazasini (asosini) mustahkamlash asosida budjet defitining darajasini kamaytirish;
- mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha budjet xarajatlarini restrukturizatsiya qilish;
- budjet yordamida tartibga solish mexanizmini takomillashtirish;
- budjet assignovaniyalaridan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish.

Davlat maqsadli fondlari (nobudjet fondlar yoki budjetdan tashqari fondlar) oldindan belgilangan ma’lum muddatlarda tuzilishi yoki doimiy ravishda mavjud bo‘lishi mumkin. Bu fondlarning vujudga kelishi Davlat budjetining qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligidan

qat’iy nazar mablag‘lar maqsadli manbaining zarurligi bilan belgilanadi. Birinchi navbatda, bu sotsial ta’minot, tekin sog‘liqni saqlash, ishsizlikni kamaytirish va boshqa xuddi shunday bir qancha muhim ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga tegishlidir. Bu fondlar mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish davlat tomonidan o‘ziga xos bo‘lgan shakllar va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ularni moliya tizimining “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo‘g‘ini sifatida ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Mablag‘lardan foydalanishning maqsadli yo‘naltiril-ganligi belgisi bo‘yicha davlat maqsadli fondlarini quyidagi ikki guruhga birlashtirish mumkin:

- sotsial mo‘ljallangan (yo‘nalishga ega bo‘lgan) davlat maqsadli fondlari (nobudjet fondlar yoki budjetdan tashqari fondlar);
- tarmoqlararo va tarmoq xarakteriga ega bo‘lgan davlat maqsadli fondlari (nobudjet fondlar yoki budjetdan tashqari fondlar).

Ayrim holatlarda (hollarda) hududiy yo‘naltirilgan (mo‘ljallangan) davlat maqsadli fondlari (nobudjet fondlar yoki budjetdan tashqari fondlar) tashkil qilinishi (shakllantirilishi) mumkin.

Davlat maqsadli fondlari moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining alohida bo‘g‘ini sifatida quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- Respublika yo‘l fondi;
- Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat fondi;
- O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya fondi.

Davlat maqsadli fondlarida katta miqdordagi mablag‘larning to‘planganligi sharoitida davlat moliyaviy nazoratining susayishi bu mablag‘lardan samarasiz foydalanishga va turli-tuman su’istemol qilish holatlarining sodir etilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida ularni Davlat budjetiga jamlash (konsolidatsiya qilish) maqsadga muvofiqdir. Bunda jamlangan (konsolidatsiya

qilingan) fondlarning maqsadli yo‘nalishi o‘zgartirilmasdan saqlanib qolishi ta’minlanishi lozim.

Davlat krediti moliya tizimi “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” sohasining o‘ziga xos bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning o‘ziga xosligi davlatning markazlashtirilgan fondlariga mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha moliya-kredit munosabatlarining alohida shakllari bilan belgilanadi. Davlat krediti davlat, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi pul munosabatlarining o‘ziga xos alohida shaklidan iboratdir. Bunda davlat, asosan, mablag‘larni qarzga oluvchi va shuningdek, kreditor va garant (kafil) sifatida ham maydonga chiqadi.

Davlat kreditida miqdoriy jihatdan mablag‘larni qarz oluvchi sifatida davlatning faoliyati ustunlik qiladi. Davlatning kreditor sifatidagi operatsiyalari, ya’ni davlat yuridik va jismoniy shaxslarga ssudalar taqdim qilganda yoki garant (kafil) bo‘lganda, ancha torroqdir (tor doiradadir). Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida budjetdan moliyalashtirish ham qaytariluvchanlik va to‘lovlilik (haq asosida) sharti bilan amalga oshirilsa, keng rivoj topishi mumkin.

Hozirgi sharoitda davlat kreditining zarurligi davlat xarajatlarining davlat o‘z daromadlari bazasini kengaytirish imkoniyatlariga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu narsa budjet defitsiti sharoitida rejalashtirilgan budjet xarajatlarining qoplanishini ta’minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit va moliyaviy siyosatlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilishi moliya tizimining “Davlat moliyasi va mahalliy moliya” bo‘g‘ini to‘g‘risidagi an’anaviy tasavvurlar kengayishi va keng mo‘noda hamda uni zamonaviy tushunishga muvofiq ravishda Markaziy bank tizimini ham o‘z tarkibiga qo‘shmog‘i lozim.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi moliya tizimining mustaqil sohasidir. Uni boshqacha nomda mulkchilikning turli shaklidagi korxona va tashkilotlar moliyasi deb ham atash mumkin. Moliya tizimining ana shu sohasida daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va ular, oxir oqibatda davlat tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq

ravishda qayta taqsimlanib, barcha darajadagi budjetlar va nobudjet fondlarining daromadlarini shakllantiradi. Bir vaqtning o‘zida budjet (moliyaviy) mablag‘lar(i)ning katta qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri budjetdan moliyalashtirish, budjet ssudalari va davlat kafolatlari shaklida korxonalarning joriy va investitsion faoliyatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, moliya tizimining bu sohasi tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi, moliyaviy vositachilar moliyasi va notijorat tashkilotlar moliyasi kabi bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Bu guruhga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy munosabatlari tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, daromadlar va xarajatlarni shaklantirish, mulkka egalik qilish, o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarish shakllariga bog‘liq ravishda o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga egadir. Bir vaqtning o‘zida, tijorat korxonalari va tashkilotlari moliyasi muhim ahamiyat kasb etib, aynan shu erda moliyaviy resurslarning asosiy qismi shakllantiriladi. Mamlakatning umumiy moliyaviy ahvoli ana shu korxonalar moliyasining ahvoli bilan belgilanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o‘zlarining faoliyatlarini tijoriy hisob asosida amalga oshiradilar. Unga muvofiq ravishda ularning xarajatlari o‘z daromadlari hisobidan qoplanishi kerak. Mehnat jamoalari ishlab chiqarish va sotsial rivojlanishining asosiy manbai foyda hisoblanadi.

Bu soha korxonalari real ravishda moliyaviy mustaqillikka ega, mahsulotni sotishdan olingan tushumni ularning o‘zi mustaqil ravishda taqsimlaydi, o‘zlarining ixtiyoriga ko‘ra foydadan foydalanadilar, ishlab chiqarish va sotsial fondlarni shakllantiradilar, moliyaviy bozorning resurslaridan – bank kreditlari, obligatsiyalar emissiyasi, depozit sertifikatlari va moliyaviy bozorning boshqa instrumentlari – foydalangan holda investitsiyalashtirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni qidirib topadilar.

Korxonalar davlatning mayda-chuyda aralashuvidan ozod bo‘lib, shu bilan birgalikda, ishning iqtisodiy va moliyaviy natijalari uchun ularning mas’uliyati ham keskin oshirilgan.

Bir vaqtning o‘zida mamlakatning xo‘jalik tizimi murakkab tuzilmadan iborat bo‘lib, aralash iqtisodiyot sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Uning tarkibida foyda olishga qaratilgan biznes-sohasi bilan bir qatorda iqtisodiyotning boshqa sektorlari ham mavjudki, ularning faoliyati ijtimoiy farovonlikka erishishga yo‘naltirilgan. Bularning tarkibiga davlat sektoridan tashqari ba’zi mamlakatlarda katta masshtablarga ega bo‘lgan va nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sib borayotgan notijorat sektori ham kiradi. Hozirgi sharoitda notijorat sektori tashkilotlarining yuqori sur’atlarda tez o‘sib borayotganligi, bir tomondan, jamiyatni demokratlashtirish siyosiy jarayonlarining rivojlanishi va ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyotining sotsial yo‘naltirilganligi (bu narsa bizning mamlakatimiz uchun xarakterlidir) bilan bog‘liq.

Notijorat tashkilotlari yuridik shaxs bo‘lib, foyda olish ularning asosiy maqsadi emas va ularda olingan foyda ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanmaydi. Ularning qatoriga sotsial, xayr-ehson, madaniy, ma’rifiy, ilmiy, boshqaruv, sog‘liqni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolar va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni yechish, yuridik xizmatlar ko‘rsatish va shunga o‘xshash boshqa maqsadlarga erishish uchun tashkil etilgan tashkilotlar kiradi. Notijorat tashkilotlarining oldiga qo‘yilgan maqsadlar xilma-xil bo‘lganligi uchun bu sektor o‘zining ham juda keng va rang-barang bo‘lishi, tabiiydir. Notijorat sektorning bir guruh korxonalari, asosan, o‘z a’zolarining iqtisodiy manfaatlariga, ma’lum toifadagi shaxslarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning bu sektori[12], odatda, davlat sektorining

[12] O’tgan asr 90-yillarining boshida amerikalik oilalarning 70%dan ortiqrog’i har yili xayr-ehson maqsadlariga qurbonlik qilganlar va ularning bu badallari o’rtacha ular yillik daromadlarining 2%dan ko’prog’ini tashkil etgan. Buyuk Britaniya aholisi esa har yili xayr-ehson tashkilotlariga qariyb 4,5 mlrd. funt sterlingni berishadiki, o’rtacha xayr-ehson badali uy xo’jaligi daromadining 0,7%iga tengdir. (Qarang: Finansi, nalogi i kredit. Uchebnik. Izd. 2-e, dop. i pererab. /Pod red. d.e.n., prof. I.D.Matskulyaka. – M.: Izd-vo RAGS, 2007. s.183).

birinchi, tijorat sektorining ikkinchi ekanligi inobatga olingan holda uchinchi sektor deb ham yuritiladi[13].

Turli mamlakatlar iqtisodiyotida tarixiy an'analar va iqtisodiy taraqqiyot bosqichlariga muvofiq ravishda notijorat sektor faoliyatining masshtablari bir-biridan farq qiladi. Biroq, bir necha miqdoriy tavsifnomalarning (ko'rsatkichlarning) tahlili, yaxlit olinganda, bu sektorning taraqqiy topayotganligidan dalolat beradi. Ana shunga o'xshash tavsifnomalarga (ko'rsatkichlarga) quyidagilarni kiritish mumkin:

- **notijorat tashkilotlarining soni**. Yevropa mamlakat-larida har 1000 kishiga 4ta notijorat tashkiloti to'g'ri keladi. Finlyandiya shu ma'noda rekordchi hisoblanib, bu yerda har 1000 kishiga 21tadan to'g'ri keluvchi notijorat tashkilotlari mavjud. Bu ko'rsatkichning darajasi Rossiyada 3,3ga tengdir;
- **notijorat tashkilotlari ta'minlaydigan aholining bandlilik darajasi**. Bu tashkilotlar, ma'lum ma'noda, muhim ish beruvchilar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda bu sektorda ishchi kuchining o'rtacha 3,4% ishlaydi (Vengriyada – 1%dan boshlab, AQSHda – 7%gacha). Notijorat tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishi iqtisodiyotning boshqa sektorlarida faol ravishda qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu tashkilotlar tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar bo'lganligi uchun, oxir oqibatda, bu narsa tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga olib keladi;
- **notijorat tashkilotlarining operativ xarajatlari**. Bu ko'rsatkich yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 3,5%ini tashkil etadi (Vengriyada – 1,2%, AQSHda – 6,3%). Rossiyada bu raqam 2%ga tengdir.

Hozirgi sharoitda notijorat sektor katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'la borib, bu erda moliyaviy va inson resurslarining sezilarli qismi to'planmoqda va u zamonaviy bozor munosabatlari tizimida muhim ish beruvchiga aylanib bormoqda.

[13] AQSh katta yoshdagi aholisining taxminan 54% ixtiyoriy ishlarga haftasiga 4 soatni, Buyuk Britaniyada aholining 30% ixtiyoriy xizmatlarga haftasiga 1,1 soatni, Kanadada katta yoshdagi aholining 27% shunday ishlarga haftasiga 3,7 soatni sarf qilishadi. (Qarang: o'sha erda).

Notijorat asosda xo‘jalik yuritishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- faoliyatning foyda olishga emas, balki ma’lum bir missiyaga erishishga yo‘naltirilganligi;
- e’lon qilingan maqsadlarga erishish uchun olingan foydadan vosita sifatida foydalanish;
- bozor xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligi va faoliyatning sotsial samaradorligini birgalikda qo‘shib olib borish.

Notijorat tashkilotlari faoliyatining moliyaviy manbalarini quyidagi besh asosiy guruhga ajratish mumkin:

- budjet assignovaniyalari (budjetdan ajratmalar);
- tijorat faoliyati:

-tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum;

-aksiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar va omo-natlar bo‘yicha olinadigan daromadlar;

-notijorat tashkilotning mulkidan, notijorat tashki-lotlarining yordami asosida tuzilgan xo‘jalik jamiyatlarining faoliyatidan olinadigan daromadlar;

-va boshqalar.

- tijorat tuzilmalari va xususiy shaxslarning qurbonliklari (homiylik yordamlari);
- ta’sischilardan doimiy ravishda va bir vaqtning o‘zida tushib turishi mumkin bo‘lgan tushilmalar;
- qonun bilan ta’qiqlanmagan boshqa tushilmalar (masalan, ko‘ngillilarning mehnat sarflari, resurslarni jalb qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar (lotereyalar, auksionlar, ko‘ngilxushlik, madaniy, sport va boshqa ommaviy tadbirlardan)dan kelgan tushilmalar.

Turli mamlakatlarda notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilmasi turlichadir. Masalan, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda xususiy qurbonliklarning miqdori 1%dan (Yaponiyada) 20%gacha (AQSHda) tebranadi va o‘rtacha 11%ni tashkil etadi. Hukumat ajratmalarining salmog‘i esa 26%dan

(Germaniya) 71%gacha bo‘lib, uning o‘rtacha darajasi 48%ga tengdir. Notijorat tashkilotlarining o‘zlari tomonidan ishlab topilgan mablag‘larning salmog‘i 23%dan (Vengriya) 71%gacha tebranib, uning o‘rtacha darajasi 41%dan iboratdir.

Notijorat faoliyatni moliyaviy jihatdan tartibga solishning shakllari, ularning davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorligi har bir mamlakatning tegishli qonunlari yordamida amalga oshiriladi. Ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Notijorat sektorni davlat tomonidan to‘g‘ri (bevosita) qo‘llab-quvvatlashning uch asosiy shakli mavjud:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) budjet investitsiyalari;
- hamkorlikda moliyalashtirish;
- davlat sotsial buyurtmasi.

Notijorat sektorni egri (bilvosita) moliyalashtirish shaklidan ham, ya’ni notijorat tashkilotlarini davlat va mahalliy hokimiyat organlari oldidagi to‘lovlari va boshqa shunga o‘xshash majburiyatlaridan ozod qilish shaklidan ham amaliyotda tez-tez foydalaniladi. Egri (bilvosita) moliyalashtirishning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- nosoliqli imtiyozlarni taqdim etish;
- soliqli imtiyozlashtirish.

Bu yerda, o‘z navbatida, nosoliqli imtiyozlar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- notijorat tashkilotlarining faoliyati uchun binolarni ijaraga olish, yer maydonlarini ajratish;
- litsenziyalashtirishning soddalashtirilgan tizimini o‘rnatish (belgilash);
- aloqa xizmatlari va kommunal xizmatlarni to‘lashda imtiyozli tariflardan foydalanish;
- va boshqalar.

Shuningdek, soliqli imtiyozlashtirish quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- hadya etuvchilar uchun imtiyozlar;
- qurbonlik (homiylik) qiluvchi yuridik shaxslar uchun imtiyozlar.

Davlat organlari notijorat tashkilotlarining faoliyatiga aralashish, agar ularning sarflanishi tashkilotning maqsadlariga mos kelayotgan bo‘lsa, xarajatlarning yo‘nalishiga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega emas.

2.3 Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi moliyaviy munosabatlarning quyidagi bo‘g‘inlaridan iborat:

- Davlat budjeti tizimi;
- davlat krediti va mahalliy hokimiyat organlari kreditlari, federativ davlatlarda esa – federatsiya a’zolarining krediti;
- maxsus nobudjet fondlar;
- davlat korporatsiyalari moliyasi.

Bu davlatlarda budjet tizimining tarkibiy tuzilishi (tuzilmasi), eng avvalo, davlat tuzilishiga (qurilmasiga) bog‘liq. Unitar (yagona) davlatlarda budjet tizimi quyidagi ikki bo‘g‘indan iborat:

- Davlat budjeti;
- ko‘p sonli mahalliy budjetlar (shaharlar, okruglar, qishloq okruglari budjeti).

Mahalliy budjetlar unitar davlatlarda o‘zlarining daromadlari va xarajatlari bilan Davlat budjetining tarkibiga kirmaydi.

Federativ davlatlarda budjet tizimi uch bo‘g‘indan tarkib topgan:

- Davlat budjeti, yoki federal budjet, yoki markaziy hukumat budjeti;
- federatsiya a’zolari budjetlari (AQSHda – shtatlar budjeti, Kanadada – provintsiyalar budjeti, GFRda – erlar budjeti, Shveytsariyada – kantonlar budjeti va h.k.);
- mahalliy budjetlar.

Mahalliy budjetlar o‘zlarining daromadlari va xarajatlari bilan federatsiya a’zolarining budjetlariga va ular ham, o‘z navbatida, davlat federal budjetining tarkibiga kirmaydi.

Rivojlangan etakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining etakchi bo‘g‘inlaridan biri Davlat budjetidir. U davlat va o‘z-o‘zini boshqarish hududiy organlarining funksiyalari va vazifalarini moliyaviy ta’minlashga mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish va unday foydalanishning shaklidan iboratdir.

Davlat budjeti mamlakatning joriy yildagi asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, qonun kuchiga egadir. U har yili mamlakatning qonunchilik hokimiyat organi – parlament tomonidan tasdiqlanadi. Favqulodda vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy tanazzullar va h.k.lar davrida) hukumat Davlat budjetining mablag‘lariga tayanadi va ular yordamida o‘sib boruvchi davlat xarajatlarini qoplaydi.

Etakchi xorijiy mamlakatlarning Davlat budjeti ular MDini qayta taqsimlashning asosiy instrumentidir. Moliya tizimining bu bo‘g‘ini orqali mamlakat MDining 40% gacha bo‘lgan qismi qayta taqsimlanadi.

Davlat budjetining asosiy daromadlari soliqlardan iborat bo‘lib, ular yordamida budjet daromadlarining 70% dan 90% gacha va ayrim davrlarda undan ham ko‘proq qismi shakllantiriladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda asosiy soliqlar hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq, Aksizlar, qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona bojlari Davlat budjetiga biriktirilgan.

Davlat budjetidan harbiy maqsadlarga mo‘ljallangan xarajatlar, iqtisodiyotga aralashuv xarajatlari, davlat apparatini saqlash xarajatlari, sotsial xarajatlar, subsidiyalar amalga oshiriladi va rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar taqdim etiladi. Bir vaqtning o‘zida, Davlat budjeti mahalliy hokimiyat organlariga, hukumat maxsus fondlariga va davlat korxonalariga subsidiyalar va kreditlar berish orqali mamlakat moliya tizimining barcha bo‘g‘inlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Etakchi xorijiy mamlakatlar ko‘pchiligining Davlat budjetlari uchun doimiy ravishdagi budjet defitsiti xos bo‘lib, u davlat zayomlari hisobidan qoplanadi. Davlat zayomlarining muomalaga chiqarilishi davlat qarzining o‘sishiga olib keladi. Davlat qarzi oldin chiqarilgan va hozirgi paytga qadar qaytarilmagan (uzilmagan) barcha davlat zayomlarining foizlari bilan qo‘shib hisoblagandagi umumiy summasidan iborat.

Hududiy moliya etakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining ikkinchi bo‘g‘inidir. Bu federativ davlatlarda federatsiya a’zolarining moliyasi va federatsiya a’zolari hamda munitsipalitetlarga tegishli bo‘lgan mahalliy budjetlar, korxonalar moliyasidan iborat.

Federatsiya a’zolarining daromadlari to‘g‘risidagi masala har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda yechiladi. Masalan, AQSHda shtatlar budjetlariga egri (bilvosita) soliqlar va eng avvalo, sotuvdan olinadigan soliqlar biriktirilgan bo‘lsa, GFRda asosiy to‘g‘ri (bevosita) soliqlar bo‘yicha tushumlar – aholidan olinadigan daromad solig‘i va korporatsiyalardan olinadigan foyda solig‘i 50%:50% nisbatda federal budjet va erlarning budjeti o‘rtasida bo‘linadi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining uchinchi bo‘g‘ini davlat krediti hisoblanadi. Bu bir tomondan, davlat va ikkinchi tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi kredit munosabatlaridan iborat bo‘lib, unga ko‘ra davlat va boshqaruvning mahalliy organlari, asosan, mablag‘larni qarzga oluvchilar sifatida maydonga chiqadi. Davlat zayomlari va mahalliy zayomlar, odatda, budjet defitsiti mavjud bo‘lsa, ya’ni odatdagi daromadlar davlatning xarajatlarini qoplamasa muomalaga chiqariladi.

Mahalliy budjetlarga ikkinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi soliqlar (asosan, mulkiy soliqlar) biriktirilgan. Sotsial maqsadlarga yo‘naltiriladigan mablag‘larning salmog‘i mahalliy budjetlarda Davlat budjetiga nisbatan ancha yuqori. Bu budjetlar ham doimiy ravishda defitsitli bo‘lib, ular Davlat budjetidan hukumat kafolati ostida subsidiya va kreditlar yo‘li bilan kerakli mablag‘larni oladi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar davlat moliyasining muhim bo‘g‘inlaridan yana biri bu maxsus nobudjet fondlardir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda eng yiirik maxsus nobudjet fondlarning orasida milliy mug‘urta fondlari alohida o‘rinni egallaydi. Bu fondlar korxona ishchilari va tadbirkorlarning sug‘urta badallari hamda Davlat budjetidan beriladigan dotatsiyalar hisobidan tashkil topadi. Milliy sug‘urta fondlarining mablag‘lari yosh, nogironlik va boquvchisini yuqotgan hollar bo‘yicha pensiyalarni to‘lashga, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yuqotgani, homiladorligi, ishsizligi va h.k.lar bo‘yicha nafaqalar berishga sarflanadi. Bunda mablag‘larning asosiy qismi yosh bo‘yicha pensiyalarni to‘lashga yo‘naltiriladi. Barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pensiyaning miqdori ish haqi va to‘langan sug‘urta badallarining miqdoriga nisbatan belgilanadi.

Masalan, AQSHda pensiya ta’minoti tizimi 1935 qabul qilingan qonunga binoan joriy etilgan va bu tizim ba’zi bir o‘zgarishlar bilan hozirgacha amal qilib kelayapti. Pensiya ta’minoti tizimi doimiy band bo‘lgan yollanma ishchilar va o‘z-o‘zi bilan band bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Temir yo‘l tizimida, federal xizmatda, shtatlar va mahalliy hokimiyat organlarida xizmat qilganlar uchun pensiya ta’minotining maxsus tizimi amal qiladi.

Pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirish manbai milliy sug‘urta fondi bo‘lib, bu fond AQSH federal budjetining tarkibiga kiradi.

Qarilik bo‘yicha pensiya 65 yoshdan (qisqartirilgan miqdorda – 62-64 yoshdan) boshlab to‘lanadi. Pensiyani olish uchun minimal darajadagi sug‘urta stajiga ega bo‘lmoq lozim, ya’ni 40 chorak – 10 yil davomida sug‘urta badallarini to‘lash kerak.

Pensiyaning miqdori 22 yoshdan 62 yoshgacha sug‘urta qilingan shaxs tomonidan olingan ish haqining o‘rtacha miqdoriga nisbatan hisoblanadi (eng kam ish haqi olingan 5 yilni chegirgan holda). Pensiyaning o‘rtacha miqdori o‘rtacha maoshning 40% ini, past darajadagi daromadga ega bo‘lgan shaxslar uchun esa 60% ni tashkil etadi. 65-69 yoshlarda pensiya uchun murojaat qilinganda, ana shu narsani rag‘batlantirish uchun, pensiyaning miqdori har oyiga 0,5% ga ,

ya’ni yiliga 6% ga oshiriladi. Hayot qiymatining darajasiga muvofiq ravishda pensiya avtomatik ravishda indensatsiya qilinadi. Pensionerning qaramog‘idagilar uchun qarilik pensiyasining 50% i miqdorida qo‘shimcha to‘lanadi.

AQSHda pensionerlar tekin tibbiy yordam, tekin dori-darmon,oziq-ovqatning yirik paketi, 100 dollar chegarasigacha past kvartira haqi kabi qo‘shimcha imtiyozlarga ega.

GFRda yangi pensiya tizimi 1992-yilning 1 yanvaridan joriy etilgan. Boshqa etakchi xorijiy mamlakatlar singari bu erda ham pensiyaning miqdori o‘rtacha ish haqi va to‘langan sug‘urta badallarning miqdoriga bog‘liq. Bu erda davlat pensiya ta’minoti tizimi etakchi rol o‘ynaydi.

Italiyada pensiya islohoti 1995-yilda o‘tkazilgan. Unga muvofiq o‘zgaruvchan pensiya yoshi joriy etilgan.

Ispaniyada rasmiy ravishdagi pensiya yoshi 65 yil bo‘lsa-da, haqiqatda uning darajasi 63 yilga teng. Chunki ispanlarning 70%i qonunda ko‘zda tutilgan muddatdan oldinroq pensiyaga chiqadi.

Pensiya ta’minoti xarajatlari YaIMga nisbatan Ispaniyada -7,5%, Avstriyada - 14,8%, Fransiyada – 11,8%, GFRda - 10,8%, Buyuk Britaniyada – 9,5%ni tashkil yetadi.

Davlat korxonalari moliyasi yetakchi xorijiy davlatlar moliya tizimining bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Bu korxonalar G‘arbiy Evropa mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushidan so‘ng va 1945-1950-yillarda temir yo‘l va havo transporti, energetika tarmog‘i va boshqa tarmoqlar korxonalarining milliylashtirilishi munosabati bilan ancha rivojlana boshladi. O‘sha paytlarda bu tarmoqlar texnikaviy jihatdan o‘ta qoloq va noraqobatbardoshli edi. Ularni qayta qurollantirish juda katta miqdordagi mablag‘larni talab etdiki, bu mablag‘lar Davlat budjeti, ya’ni soliq to‘lovchilar hisobidan ajratildi. Bu tarmoqlar modernizatsiya qilinganligi va texnikaviy jihatdan ilg‘or bo‘lishiga qaramasdan, moliyaviy jihatdan, ular hamon past rentabelli yoki zararga (ziyonga) ishlaydigan bo‘lib qolaverishdi. Davlat korxonalari moliyaviy holati og‘irligining asosiy sababchisi ular mahsulotlariga nisbatan past baholar siyosatining yurgizilayotganligidir.

O‘tgan asrning 80-yillarida yetakchi xorijiy mamlakatlar hukmron doiralarining yangi iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga ko‘ra ko‘pgina davlat tarmoqlari va korxonalari xususiylashtirildi va bu narsa davlat mulkining miqdorini keskin kamaytirdi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015- y.

10. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018-yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

11. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

14. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

15. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

3-MAVZU: MOLIYAVIY TIZIM FUNKSIYALARI VA ULARNING EVOLYUTSIYASI

3.1. Moliyaviy tizim yordamida resurslarning vaqt (zamon) va makonda aylanib yurishi

Turli mamlakatlar moliyaviy institut (muassasa)lari bir-biridan farqlanishining bir qator sabablari mavjud. Ular qatoriga har xil o‘lchamlar, texnologiyalarning murakkablik yoki oddiylik darajasi, shuningdek, davlatlarning siyosiy, madaniy va tarixiy rivojlanishidagi farqlar kiradi. Bundan tashqari, moliyaviy institut (muassasa)lar vaqtning o‘tishi bilan bir holatdan boshqa holatga o‘tib turadi. Ularning bajaradigan funksiyalari, muassasaning nomi o‘zgarmasdan oldingiday qolishiga qaramasdan, juda kuchli o‘zgarishi mumkin. AQSHdagi zamonaviy banklar ushbu mamlakatda 1928 yoki 1958 yillarda bo‘lgan banklardan katta farq qiladi va shuningdek, Germaniya yoki Buyuk Britaniyada banklar deb nomlanadigan institutlardan ham juda ko‘p farqlanadi. Sho‘rolar davrida O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan banklar bilan undagi hozirgi banklar o‘rtasida ham juda katta farqlar mavjud. Mazkur bo‘limda biz turli mamlakatlarning moliyaviy institut (muassasa)lari nimaga va qanday bir-biridan farq qilishini hamda vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini Sizlarning yaxshiroq tushunishingizga imkon beradigan ko‘p narsani o‘z ichiga olgan konseptual tuzilma (yondashuv)ni ishlab chiqishga harakat qilamiz.

Foydalanilayotgan yondashuvning asosi shuki, mo‘ljal sifatida moliya-viy *institut (muassasa)lar*ning o‘z-o‘zlari emas, balki ularning *funksiyalari* olingan. Tahlilning bunday uslubini biz funksional yondashuv deb atadik *(functional perspective).* U quyidagi dastlabki ikki shartga asoslangan:

• moliyaviy tizim funksiyalari uning institut (muassasa)lariga qaraganda ko‘proq barqarorlik xarakteriga ega. Bu funksiyalar vaqtning oqimi (o‘tishi)ga bog‘liq ravishda kamroq darajada o‘zgaradi va mamlakatdan mamlakatga uncha katta farqlanmaydi.

• moliyaviy institut (muassasa)lar shakli mantiqan ularning funksiyalaridan kelib chiqadi. Moliya sohasidagi innovatsiya va institutlar o‘rtasidagi raqobat oxir-oqibat moliyaviy tizim faoliyati samaradorligining oshishiga olib keladi.

Moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishidan iborat moliyaviy tizim bosh funksiyasi tahliliga asosan, tahlilning ko‘proq umumiy darajasida bu tizimning quyidagi oltita bazaviy (tub) yoki muhim funksiyalari to‘g‘risida gapirish mumkin.



3-rasm. Moliyaviy tizim funksiyalari

Ularni yanada aniqroq tarzda quyidagicha ifodalasa bo‘ladi:

•*iqtisodiy resurslarning* vaqt (davr) bo‘ylab (bo‘yicha), davlat chegarasi orqali va iqtisodiyotning bir tarmog‘idan *boshqasiga o‘tish (joyini o‘zgartirish)* usulini ta’minlash;

•*riskni boshqarish (riskiy boshqaruv* usullarini ta’minlash;

•savdoga imkon yaratadigan *hisob-kitobni amalga oshirish va kliring* usullarini ta’minlash;

• *moliyaviy resurslarni birlashtirish* va turli *korxonalarda egalikning bo‘linishi* mexanizmini ta’minlash;

• iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qaror qabul qilishning markazlashtirilmagan jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beradigan *narx-navo (baho) axboroti* bilan ta’minlash;

• *stimullashtirish muammolarini hal qilish* usullarini ta’minlash.

Bu muammolar bitim ishtirokchilaridan biri boshqasi bilmagan axborotga egalik qilganda yoki ishtirokchilardan biri ikkinchisi nomidan agent (komissioner) sifatida ish ko‘radigan vaziyatlarda yuzaga keladi.

Ushbu bobning keyingi o‘rinlarida yuqorida sanab o‘tilgan moliyaviy tizim barcha funksiyalarining to‘liqroq tushunchasini berishga va ularning xarakteri vaqt (davr, zamon) o‘zgarishi bilan qay tartibda o‘zgarib borishini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Moliyaviy tizim iqtisodiy resurslarning vaqt (davr, zamon) bo‘ylab (bo‘yicha), geografik hududning biridan boshqasiga, shuningdek, iqtisodiyotning bir tarmog‘idan boshqasiga (o‘tish) joyini o‘zgartirish usulini ta’minlaydi.

Ko‘p hollarda moliyaviy oqimlar harakati jismoniy yoki yuridik shaxs bugungi kunda o‘zining mablag‘ini boshqa shaxsga kelgusida o‘rniga o‘rin boshqa mablag‘ni olish uchun, va aksincha, berishiga asoslangan. Talabalarga qarzlar, uy sotib olish qarzlari, jamg‘arilgan pensiya va ishlab chiqarish quvvatiga kapital qo‘yilmalar – ushbu barcha operatsiyalar resurslarni vaqt (davr, zamon)ning bir nuqtasidan boshqasiga o‘tishi (joylashuvi)ga olib keladi. Ushbu kabi *vaqt (davr, zamon)lararo* resurslarning joylashuvi[14] uchun shart-sharoitlarning ta’minlanishi moliyaviy tizim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Masalan, agar talabalarga oid qarz mavjud bo‘lmaganda edi, ko‘pchilik yoshlar, ularning oilalarida keyingi ta’lim olishiga mablag‘ yo‘q bo‘lganligi bois, oliy ma’lumotli bo‘lishdan bosh tortishlariga to‘g‘ri kelar edi. Xuddi shuningdek, ko‘plab tadbirkorlar, agar aksionerlardan yangi, odatda riskning yuqori darajasi bilan xarakterlanadigan kompaniyalar tuzish uchun pul olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlarida, o‘zlarining bizneslari bilan shug‘ullana olmagan bo‘lar edilar.

Moliyaviy tizim resurslarni vaqt (davr, zamon) bo‘ylab joylashuviga yordam berishdan tashqari, resurslarning makonda joylashishida ham juda muhim rol o‘ynaydi. Ba’zida u yoki bu biznes-loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kapital undan yuqori

[14]Bu o‘rinda “*intertemporal”* so‘zining so‘zma-so‘z tarjimasi “vaqtlar orasida” degan ma’noni bildiradi.

samaradorlik bilan foydalanish mumkin bo‘lgan joydan juda uzoqlikda joylashgan bo‘ladi. Masalan, Germaniyada uy xo‘jaliklari O‘zbekistonning biron-bir joyida yuqori samara bilan ishlatish mumkin bo‘lgan kapitalni pul mablag‘larini jamg‘arib borish yo‘li bilan yig‘a oladilar. Moliyaviy tizim ham pul resurslarini Germaniyadan O‘zbekistonga ko‘chib o‘tishiga yordam beradigan bir qator mexanizmlarni taqdim etadi. Ulardan ikkitasini keltirsak yyetarli: birinchidan, nemis fuqarolari O‘zbekiston kompaniyalari chiqargan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishlari mumkin; ikkinchidan, Germaniya banklari O‘zbekiston firmalariga qarz berishlari mumkin.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, iqtisodiyotning rivojlanib va murakkablashib borgani sari moliyaviy tizim uning subyektlarini pul resurslarini vaqt bo‘ylab va makonda ko‘chirib o‘tkazish (o‘tish, joyini o‘zgartirish)ning samarali usullari bilan ta’minlashda tobora muhim rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan bozorlar va moliyaviy tizim vositachilarining o‘ta murakkab tarmog‘i yapon ishchisining pensiyaga oid jamg‘armasini amerikalik yosh oilalarga uy sotib olishlarini moliyalashtirish uchun ishlatilishiga imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, turli xil innovatsiyalar ham iqtisodiyot samaradorligini oshirishga katta imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Ular tufayli defitsitli pul resurslari vaqt (zamon) va makon bo‘ylab ko‘chirib o‘tkaziladi. Pul resurslari yuqori daromad keltirmaydigan joydan oqib keladi va katta foyda keltiradigan joyda ishlatiladi. Masalan, faraz qilaylik, barcha oilalar o‘z jamg‘armalarini uyidan tashqariga chiqmasdan investitsiya qilishga majburlar. Bunda “A” oila jamg‘armasi bo‘yicha yillik daromadlilik stavkasi bor-yo‘g‘i 2%ni tashkil etadi, “B” oila esa o‘zining jamg‘armasidan yiliga 20% daromad olish imkoniyatiga ega. “A” oilaning jamg‘armasini jalb qilib, “B” oilaga qarzga beruvchi investitsion kompaniya tuzish yo‘li bilan ikkala jamg‘armaning samaradorligini oshirish mumkin.

3.2. Moliyaviy tizim orqali risklarni boshqarish (riskiy boshqaruv)

Moliyaviy tizim risklarni boshqarish (riskiy boshqaruv) uchun imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Pul resurslarini moliyaviy tizim yordamida koʻchirib oʻtkazishga oʻxshab, risk ham koʻchirib oʻtkaziladi. Moliyaviy tizimda vositachilar, masalan, riskni koʻchirish bilan bogʻliq faoliyatga ixtisoslashtirilgan sugʻurta kompaniyalari mavjud. Bu kompaniyalar oʻzlarining risklilik darajasini kamaytirishni xohlovchi mijozlardan maxsus sugʻurta pullarini undiradilar va ularni maʼlum bir mukofot evaziga sugʻurta talablarini toʻlashga va riskni boʻyniga olishga rozilik beradigan investorlarga beradilar.

Koʻpincha kapital va risk birgalikda (oʻzaro) bogʻliq boʻlib, bir vaqtning oʻzida moliyaviy tizim yordamida oʻtkaziladi (koʻchiriladi). Buning natijasida moliyaviy oqim risk oqimini ham tavsiflaydi. Keling, buni korxonalar moliyasi va ularning riskni oʻtkazishi (koʻchirishi) misolida koʻrib chiqamiz.

Faraz qiling, Siz biznes bilan shugʻullanmoqchi boʻldingiz va buning uchun Sizga 100,0 mln.soʻmlik kapital kerak. Modomiki, Sizda shaxsiy jamgʻarmalar yoʻq ekan, Siz **defitsit** iqtisodiy birlik hisoblanasiz. Endi faraz qilamiz, Siz biror-bir xususiy investorni (**erkin mablagʻlar**ga ega boʻlgan iqtisodiy birlik) aksiyalaringizni sotib olish hisobiga Sizga 70,0 mln. soʻmlik kapital ajratishiga koʻndirishga muvaffaq boʻldingiz. Buning uchun Siz unga korxona foydasining, aytaylik, 75%ini toʻlash majburiyatini olasiz. Bundan tashqari, Siz bankdan yillik 6% ustama haq bilan 30,0 mln. soʻmlik kredit olishga erishdingiz. 100,0 mln. soʻm miqdoridagi umumiy oqim boshqa manbalardan Siz tomonga kelayotgan moliyaviy oqim sifatida tasvirlangan.

Lekin Sizning korxonangiz muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda riskni kim oʻz zimmasi (boʻyni)ga oladi?. Axir, hayot – tasodiflarga boy. Uning bundan holi boʻlishiga hech kim kafolat beraolmaydi. Shuningdek, “Korxonangiz oʻz faoliyati davomida faqat muvaffaqiyatga erishadi. Uning peshonasiga muvaffaqiyatsizlik yozilmagan. Bunga men

kafilman!”, - deydi-gan “mard” hayotda uchramaydi. Unday “mard”ni kunduzi chiroq yoqib qidir-sangiz ham topaolmaysiz.

Shu sababli, ushbu misolda asosiy riskni Sizning aksiyadoringiz o‘z bo‘yniga oladi. Zero, korxona inqirozga yuz tutsa, u o‘zining 70,0 mln. so‘mini qaytarib ololmaydi. Biroq, bankning harakatlarida ham ma’lum bir risklilik darajasi (riskiy daraja) mavjud bo‘lishi mumkin. Bu quyidagicha izohlanadi: Siz inqirozga yuz tutgan holda, bank ham qarzning asosiy summasi va uning foizini to‘lig‘icha ololmasligi mumkin. Masalan, faraz qilaylik, yilning oxirida biznesingizning jami bahosi 20,0 mln. so‘mni tashkil etdi. Bu holatda investor o‘zi investitsiya qilgan hamma summani yo‘qotadi. Bank esa Sizga qarzga bergan 30,0 mln. so‘mdan 10,0 mln. so‘mini yo‘qotadi. Shuning uchun, kreditorlar aksiyadorlar bilan bir qatorda xususiy firma faoliyati riskining ma’lum bir qismini o‘z zimmasiga oladi.

Garchi kapital va risk ko‘pincha birlashib ketsa-da, ular bo‘linishi ham mumkin. Biznes qilish uchun 30,0 mln. so‘m miqdoridagi qarz olish misolida shunday vaziyatni ko‘rib chiqamiz. Faraz qiling, bank Sizdan ushbu qarzning Siz tomondan qaytarilishiga kafolat bera oladigan yaqin qarindoshlaringizdan birini olib kelishingizni talab qilyapti. Ushbu talabni taklif etgan holda bank Siz tomondan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmay qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zining riskini oilangiz a’zosiga o‘tkazadi. Bu holda bank Sizga 30,0 mln. so‘m miqdoridagi kreditni o‘zi uchun eng kam risk bilan taqdim etadi. Qarz bo‘yicha asosiy risk esa Sizning qarindoshingizga o‘tadi.

Tobora ishonch xos il qila borganimizdek, moliya olamidagi ko‘plab moliyaviy shartnomalar pul resurslarini ko‘chirmasdan turib riskni ko‘chirishni nazarda tutadi. Bu, masalan, aksariyat sug‘urta shartnomalari va kafolatlarga tegishlidir. Shuningdek, bularga fyuchers, opsion va svoplar kabi xos ila instrumentlar ham kiradi.

3.3. Moliyaviy tizim yordamida hisob-kitob to‘lovlarni amalga oshirish

Moliyaviy tizim kliring operatsiyalarini amalga oshirish hamda tovarlar, xizmatlar va aktivlar almashinuvini rag‘batlantiruvchi usullar bilan to‘lovlarni amalga oshirishga imkon (yordam) beradi.

Moliyaviy tizimning eng muhim funksiyalaridan biri odamlar va firmalarni tovar va xizmatlarni sotib olish jarayonida to‘lovlarni amalga oshirishning samarali usuli bilan ta’minlanishini o‘z ichiga oladi. Faraz qilaylik, Siz AQSHda yashaysiz. Dunyo bo‘ylab turistik sayohatni rejalashtiryapsiz va bunda 5000 dollar barcha turistik xarajatlarni qoplash uchun yyetarli bo‘ladi, deb hisoblayapsiz. Pulni o‘zingiz bilan qaysi shaklda olishingiz lozim? Siz boshqa mamlakatlarda tovarlar va xizmatlarga to‘lovni qay tarzda amalga oshirasiz?

Ko‘pgina xorijiy mehmonxonalar, yoshlar yotoqxonalari va restoranlar, lekin hammasi ham emas, to‘lov vositasi sifatida AQSHHdollarini qabul qiladilar. Bu o‘rinda, albatta, kredit kartochkasidan foydalanish mumkin. Biroq, jahondagi Siz borib ko‘rgingiz kelgan ayrim mamlakatlarda ularni qabul qilishmaydi. Sizga yo‘l cheklarini sotib olish kerakmi? Agar kerak bo‘lsa, unda qaysi valyutada? Ushbu barcha savollarga javob berishga uringan holda, Siz balki, barcha mamlakatlardagi hamma sotuvchilar bir xil to‘lov vositalaridan foydalanganlarida juda qulay bo‘lishini qayta-qayta o‘ylashingiz (istashingiz), tabiiy.

Endi yuqorida tasvirlangan vaziyatning o‘rniga quyidagilarni tasavvur qiling: Siz hukumati o‘zining fuqarolariga xorijiy valyuta operatsiyalarini cheklab qo‘yuvchi davlatda yashovchi boy odamsiz va Siz ham dunyo bo‘ylab sayohat qilishga qaror qildingiz. Bunda Siz o‘z mamlakatingizda milliy valyutadan foydalangan holda xohlagan narsangizni sotib olishingiz mumkin. Biroq uning tashqarisida uni (Sizning milliy valyu-tangizni) to‘lov vositasi sifatida hech kim qabul qilmaydi. Sizning davlatingizdagi xorijiy valyutaning defitsitli ekanligi hukumatni o‘zining fuqarolariga xorijiy valyutani sotib olish yoki

xorijdan qarz olishini ta’qiqlab qo‘yishiga majbur qiladi. Bunday vaziyatda Siz nima qilgan bo‘lardingiz?

Bunday vaziyatda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan imkoniyatlardan biri, u qanchalik noqulay bo‘lmasin, quyidagicha: vataningizda qimmatbaho va tashishga qulay bo‘lgan tovarlar sotib oling. Ularni o‘rab-chirmab, o‘zingiz bilan olib chiqib keting va xorijda ovqat sotib olish va yashash uchun ishlatishga harakat qiling. Boshqacha qilib aytganda, *barter*, ya’ni pul mablag‘laridan foydalanmagan holda tovar ayirboshlashdan foydalaning. Bu o‘rinda dunyoni ko‘rish uchun bu eng qulay usul emasligini aytishning hojati ham yo‘q. Zero, Siz o‘zingiz bilan katta bagaj olib yurishga hamda bor vaqtingiz va kuchingizni muzey va teatrlarni tomosha qilishga emas, balki mehmonxona yoki tushlik uchun to‘lov sifatida Siz tomoningizdan taqdim etiladigan ayrim qimmatbaho narsalarni qabul qilishga rozi bo‘ladigan restoran yoki mehmonxonani qidirishga sarflashingiz aniq.

Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy tizimning muhim funksiyalaridan biri uy xo‘jaligi va firmalarga u yoki bu tovar va xizmatlarni sotib olishga ortiqcha ko‘p vaqt sarflashga yo‘l qo‘ymaydigan samarali to‘lov tizimi faoliyatini ta’minlash hisoblanadi. To‘lov vositasi bo‘lgan oltinni qog‘oz pullarga almashtirish to‘lov tizimi samaradorligini oshirish misollaridan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bizning davrda oltin tibbiyotda va zargarlik ishlarida foydalaniladigan defitsit resurs bo‘lib, qog‘oz pullar esa asosiy to‘lov vositasi hisoblanadi. Oltinga nisbatan qog‘oz pulning haqiqiyligini tekshirish oson (ularni soxtalashtirish qiyinroq) va ulardan turmushda foydalanish, masalan, cho‘ntakda olib yurish ancha qulay. Bundan tashqari, pulni bosmadan chiqarish (nashr etish) – bu qazib olish, qayta eritish va oltin tangani zarb qilishdan anchagina arzon jarayon. To‘lovlarni amalga oshirishning alternativ[15] vositalari: cheklar, kredit yoki plastik kartochkalari va elektron to‘lov tizimlari paydo bo‘lishi natijasida hisob-kitobni amalga oshirishning samaradorligi yanada oshdi.

[15]“Alternativ” – mumkin bo‘lgan ikki yoki bir necha imkoniyatdan birini tanlashga asoslangan; muqobil. “Alternativa” fransuzcha “alternative”, lotincha “alter” – ikkitadan bittasi. 1. Bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlardan birini tanlash; muqobillik. 2. Shu imkoniyatlardan biri. Qarang: o‘sha manba. J.I. – B.75.

3.4. Moliyaviy tizim tufayli resurslarning birlashishi va kapitaldagi ishtirok ulushining bo‘linishi

Moliyaviy tizim katta ko‘lamdagi korxonani tashkil etish yoki yirik korxonalar kapitalini ko‘p sonli mulkdorlar o‘rtasida bo‘lish uchun moliyaviy mablag‘larning birlashish mexanizmini ta’minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiyotda to‘laqonli biznesni yurgizish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning minimal hajmi, ko‘pincha, alohida odamning va hatto eng katta oilaning pul mablag‘laridan oshiq bo‘ladi[16]. Moliyaviy tizim uy xo‘jaliklari mablag‘larini, keyinchalik unga muhtoj bo‘lgan firmalar foydalanadigan yirik kapitalga birlashtirish yoki yiriklashtirish uchun imkoniyat yaratadi (masalan, fond bozorlari yoki banklar yordamida).

Moliyaviy tizim tufayli individual uy xo‘jaliklari katta miqdordagi pul talab qilinadigan investitsiyalarda resurslarning birlashishi va umumiy investitsiyalarda ulushlarning keyingi bo‘linishi yo‘li bilan qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, faraz qilaylik, Siz 10,0 mln. so‘mlik uloqchi otni sotib olish uchun mablag‘ kiritishga qaror qildingiz. Lekin Sizda hammasi bo‘lib 1,0 mln. so‘m bor. Agarda otni o‘nta qismga bo‘lishning jismoniy imkoniyati bo‘lganda, Siz uning o‘ndan birini sotib olishingiz mumkin edi. Biroq biz bu yerda hamma qismlarning summasidan ko‘ra butuni shubhasiz ancha-muncha qimmat bo‘ladigan vaziyatlardan birini ko‘ryapmiz. Shunday qilib, otni jismoniy bo‘lish muammoni hal qilmaydi. Va bu yerda hayvonni unga zarar keltirmasdan “bo‘lish” imkonini beradigan moliyaviy tizim yordamga keladi. Investitsion pul (moliyaviy resurslarning birlashishi)ni yaratib va investorlar o‘rtasidagi ulushni taqsimlab, 10,0 mln. so‘mlik investitsiyani, otni bo‘laklamagan holda, 1,0 mln. so‘mdan iqtisodiy «qism»larga bo‘lish mumkin. Bundan keyin, ko‘pkari (uloq)dan topilayotgan pul, otni mashq qildirishga va boqishga ketgan xarajatlarni chiqarib tashlab, barcha ulushi borlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Yana bir misol sifatida pul bozorida amalda bo‘lgan investitsion fondlar operatsiyasini ko‘rib chiqamiz. Tasavvur qilaylik, Siz ko‘proq

[16] Bunga misollar keltiringchi?!

ishonchli va likvidli dollarlik aktiv – AQSH G‘aznachiligi veksel[17]iga kapital qo‘yishga qaror qabul qildingiz. Taklif qilinayotgan veksellarning eng arzoni milliy valyutamizda 10,0 mln. so‘m turadi. Siz esa bor-yo‘g‘i 1,0 mln. so‘mlik investitsiya qilmoqchisiz. Ushbu holatda bu kabi veksellarga ham Sizning moliyaviy resurslaringizni boshqa investorlarning resurs-lari bilan birlashtirish yo‘li bilangina mablag‘ qo‘yish mumkin. O‘tgan asrning 70-yillarida shunday jarayonni rag‘batlantirish uchun investorlarga g‘aznachilik veksellarini qo‘lga kiritish imkonini beradigan o‘zaro jamg‘armalar tuzilgan.

O‘zaro jamg‘armada investorlarning mablag‘lari vaqtinchalik birlashtiriladi va ularga mazkur jamg‘arma kapitalidagi ularning ulushi ko‘rsatilgan hisobraqamlar ochiladi. Jamg‘arma vaqti-vaqti bilan mijozlarga o‘zlarining aksiyalari kursi to‘g‘risidagi axborotni taqdim qiladi va ularga amalda istalgan vaqtda o‘zining hisobraqamiga istalgan qo‘shimcha summani kiritish yoki pulni qaytarib olish imkonini beradi. Shunday qilib, agar jamg‘arma aksiyasining joriy kursi 11 000 so‘mni tashkil etsa, Siz esa 1,0 mln. so‘m qo‘yayotgan bo‘lsangiz, unda Sizning jamg‘armadagi hisobingizda 90,91 aksiya bo‘ladi (1 000 000 : 11 000). Bu g‘aznachilik veksellariga investitsiya qiluvchi o‘zaro jamg‘armalar moliyaviy tizimning to‘rtinchi funksiyasi bajarilishiga yordamla-shayotganidan dalolat beradi. Zero, ular tufayli katta qadr-qimmatga ega bo‘lgan veksellar amaliy jihatdan benihoya (cheksiz) bo‘linuvchi qimmatli qog‘ozlarga aylanadi.

3.5. Moliyaviy tizim tomonidan informatsion qo‘llab-quvvatlash (axborot ko‘magi)

Moliyaviy tizim iqtisodiyotning turli jabha (sektor)larida qabul qilinuvchi mustaqil qarorlarni muvofiqlashtirishga yordam beradigan narx (baho) axborotini taqdim etadi.

Gazetalar, radio va televideniya qimmatli qog‘ozlar kursi va foiz stavkalari to‘g‘risidagi axborotni har kuni xabar qiladilar. Ushbu ma’lumotlarni olayotgan millionlab odamlar ichidan, deyarli kam odam

[17] “Veksel” nemischa “Wechsel” – o‘zgarish; almashtirish. Qarang: o‘sha manba. J.I. – B.454.

professional darajada qimmatli qog‘ozlar savdosi bilan shug‘ullanadi. Biroq, ko‘pincha fond bozoridan ancha yiroq bo‘lgan odamlar qimmatli qog‘ozlar birjasiga asoslangan axborotni moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun jalb qilishlari (foydalanishlari) lozim. Masalan, uy xo‘jaliklari bu ma’lumotlardan joriy daromadning qancha qismini kelajakka saqlab qo‘yishni va jamg‘arilgan mablag‘larni qaysi aktivlarga investitsiya qilish foydaliroqligini hal qilish uchun foydalanishlari kerak.

Bozor foiz stavkalarini bilish, hattoki, bir oila doirasida pul-arni ko‘chirgan taqdirda qanday yordam berishi bo‘yicha yaxshiroq tasavvurga ega bo‘lish uchun quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz. Tasavvur qiling, Ciz 25 yoshdasiz. Endigina uylandingiz. Alohida va erkin yashashni istab, 100,0 mln. so‘mga uy sotib olmoqchisiz. Mahalliy bank Sizga yillik 8% ustama haq bilan 80,0 mln. so‘m (ya’ni, uy narxining 80%i) ipoteka krediti ajratishga rozi. Lekin Siz yana 20% (ya’ni, yana 20,0 mln. so‘m) mablag‘ topishingiz lozim. Sizning 40 yoshli opangizning bankdagi hisobraqamida Sizga kerakli bo‘lgan summa mavjud. U ushbu pullarni o‘zining pensiya ta’minoti sifatida yillik 6% ustama haqi hisobiga ajratib qo‘ymoqda. Biroq uning pensiya yoshiga yetishiga hali ancha vaqt bor. Shuning uchun Siz bu pullarni undan qarzga so‘rab turishingiz mumkin. Agar opangiz o‘zining pensiyasi uchun jamg‘arib borayotgan pullarini Sizga uy sotib olishingiz uchun qarzga berib turishga rozi bo‘lsa, unda Siz, ushbu summa bo‘yicha qancha foiz stavkasi “adolatli” bo‘lishini qanday qilib aniqlashingiz mumkin?

Ko‘rinib turibdiki, buning uchun joriy bozor stavkalarini bilish foydadan holi bo‘lmaydi. Faraz qilaylik, opangiz o‘zining jamg‘arma hisobraqami bo‘yicha yillik 6% ustama haq olayotganligi Sizga aniq ma’lum va mahalliy bank Sizdan ipoteka krediti bo‘yicha yillik 8% ustama haq olmoqchi. Bu ma’lumotlar Sizga qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Xuddi shuningdek, oila doirasida moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida aktivlarning bozor narxi (bahosi)ni bilish ham kerak bo‘lishi mumkin. Masalan, faraz qilaylik, Siz singlingiz bilan uyni yoki oilaviy

biznesni meros qilib oldingiz va u ikkalangizning o‘rtangizda teng, baravar bo‘linishi kerak. Biroq, Siz uni sotgingiz kelmayapti. Boisi, qaysidir biringiz shu uyda yashamoqchi yoki oilaviy biznes bilan shug‘ullanishni davom ettirmoqchisiz. Bunda oilaning boshqa a’zosi qancha olishi kerak? Ko‘rinib turibdiki, merosni to‘g‘ri baholash uchun shunga o‘xshash aktivlarning bozor narxlarini bilish lozim.

Bundan tashqari, aktivlarning narx (baho)lari va foiz stavkalari menejerlar uchun ular tomonidan investitsion loyihalarni tanlashda va moliyaviy shartnomalarni tuzishda tayanch signal bo‘lib xizmat qiladi. Majburiyatlari bo‘yicha moliyaviy bozorlarda doimo bitimlar tuzish bilan shug‘ullanmaydigan menejerlar, odatda boshqa sohalarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish kerak bo‘lganda, zarur axborotlarni olish uchun har holda bu bozorlardan foydalanadilar.

Tasavvur qilaylik: masalan, qaysidir bir firma 100,0 mln. so‘m miqdorida foyda oldi va u olingan summani qanday sarflashni: uni biznesga qayta investitsiya qilish, aksionerlarga dividendlar to‘lash yoki pullarni o‘z aksiyalarini qaytarib olishga sarflash muammosini hal qilmoqchi. Ushbu masalani hal qilishda, shubhasiz, mazkur firma va boshqa kompaniyalarning aksiyalari kursini, shuningdek, bozor foiz stavkalarini bilishi juda asqotadi. Bunday sharoitda, ayrim hollarda bo‘lganidek, “Baxtash – tavakkal”, “Yo – ustidan, yo – ostidan”, “Shuni ham o‘ylab o‘tiramizmi?” yoki “O‘ychi o‘yini o‘ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi” tarzida ish tutib bo‘lmaydi. Shunday qilinsa, hatto “og‘zimizdagi tayyor oshimiz”dan ham ajralib qolishimiz hech gap emas.

Har bir yangi moliyaviy instrumentning paydo bo‘lishi bilan axborot olishning yangi imkoniyatlari yuzaga keladi. Masalan, 1973-yildan birjalarda opsionlarga standartlashtirilgan savdo shartnomalari qo‘llanilishi boshlangandan so‘ng, son jihatidan axborotning hajmi turli moliyaviy va iqtisodiy operatsiyalarning risklilik darajasiga nisbatan keskin oshib ketdi. Bunday ma’lumotlar riskni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda juda muhim.

3.6. Moliyaviy tizim yordamida stimullashtirishning psixologik muammolarini yechish

Agar moliyaviy operatsiyaning bir tomoni bitim bo‘yicha boshqa hamkor bilmaydigan axborotga egalik qilganda, yoki bir tomon boshqasi uchun qaror qiluvchi agent hisoblanganda paydo bo‘ladigan stimullashtirishning psixologik muammolari moliyaviy tizim yordamida hal qilinadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, moliyaviy bozorlar va vositachilar risk va pul resurslarining samarali taqsimlanishiga yordam beruvchi bir necha funksiyalarni bajaradilar. Biroq, stimullashtirish psixologiyasiga tegishli bo‘lgan, vositachilarning ko‘rsatilgan funksiyalarni bajarish layo-qatini cheklaydigan muammolar mavjud. Stimullashtirishning psixologik muammolari shartnoma tomonlari ko‘pincha bir-birini kuzatish va biri ikkinchisini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaganlari uchun yuzaga keladi.

Stimullar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar, odatda, uch turga bo‘linadi va ular xalqaro amaliyotda quyidagicha nom olgan:

1. “Ma’naviy risk” muammosi.
2. “Noqulay tanlov” muammosi.
3. “Komitent[18]-komissioner”[19] muammosi.

Ma’naviy risk yoki **mas’uliyatsizlik** (moral hazard) muammosi, masalan, qachonki sug‘urta polisiga egalik qilish sug‘urtalangan tomon katta riskka yo‘l qo‘yganda yoki yo‘qotishga yetaklovchi hodisaning oldini olishga kam harakat qilganda yuzaga keladi. Aynan mas’uliyatsizlik ko‘pincha sug‘urta kompaniyalari tomonidan riskning ayrim turlarini sug‘urta qilishni xohlamasliklarining sababiga aylanadi. Masalan, agar ulgurji ombor mulkdori yong‘in hodisasiga sug‘urta polisini sotib olganda, uning uchun yong‘inga qarshi tadbirlarga pul sarflash stimuli kamayadi. Bu holat, uning omborida yong‘in bo‘lish

[18] “Komitent” lotincha “committens”, “committentis” – topshiruvchi, topshiriq beruvchi Komissionerga o‘zining, ya’ni komitent hisobidan, lekin komissioner nomidan savdo bitimini tuzish haqida topshiriq beruvchi tomon (shaxs yoki tashkilot). Qarang: o‘sha manba. J.II. - B.394.

[19] «Komissioner» fransuzcha «commissionnaire», lotincha «commissio» - topshirish; topshiriq. Komitent hisobidan va uning foydasiga, lekin o‘z nomidan bitimlar tuzadigan shaxs yoki tashkilot – savdo-sotiq ishidagi vositachi. Qarang: o‘sha manba. J.II. - B.394.

ehtimoli, sug‘urta shartnomasi tuzilgunga qadar bo‘lgan holatdagidan yuqori bo‘ladi. Agar sug‘urta summasi omborning bozor bahosidan yuqori bo‘lsa, unda ayrim ekstremal vaziyatlarda ombor egasi nafsga berilishi va pul olish uchun uni yoqib yuborishi ham mumkin. Potensial ma’naviy risk tufayli sug‘urta kompaniyalari sug‘urta summasini qisqarti-radilar, yoki ma’lum bir holatlarda ayrim turdagi sug‘urta polislarini sotishdan umuman bosh tortadilar[20].

Mijoz ishga bo‘nak (avans) to‘lasa va odam (yoki firma) ish qanchalik yaxshi yoki yomon bajarilishiga qaramay, bir xil summani oladigan vaziyat shartnoma tuzish sohasidagi mas’uliyatsizlikka misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Agar to‘lov faqat ish bajarilgandan so‘ng amalga oshirilganda edi, unda pudratchida, shubhasiz, to‘lovning avans shakliga qaraganda yaxshiroq harakat qilib ishlashiga stimul ko‘proq bo‘lar edi[21].

Biznesni moliyalashtirishda yuzaga keladigan muammo ma’naviy riskning nisbatan kamroq misoli bo‘lib hisoblanadi. Faraz qilaylik, Sizda yangi korxona tuzish g‘oyasi tug‘ildi va Sizga ish boshlash uchun boshlang‘ich mablag‘ zarur. Siz uni qayerdan olishingiz mumkin? Olishingiz ehtimoli ko‘proq bo‘lgan manba bu – qarindoshlar va o‘rtoqlaringiz. Nima uchun? Negaki, Siz ularga ishonasiz. Ular esa Sizni bilishadi va Sizga ishonishadi. Bundan tashqari, ular Sizning tijoriy rejangizni, jumladan, tijoriy siringizni ham boshqa odamlarga ochmasliklari Sizga ma’lum. Qarindoshlar va o‘rtoqlar esa, o‘z navbatida, Sizning ularga yuz berishi mumkin bo‘lgan hech qanday muammo va asoratlarni berkitmasdan, bo‘lajak biznes to‘g‘risida to‘liq axborot taqdim qilishingizga ishonadilar. Bundan tashqari, hatto ish boshidan muvaffaqqiyatli bo‘lmagan va Sizda qiyinchiliklar tug‘ilgan holatda ham, Sizning yaqinlaringiz, Siz ularning manfaatlarini himoya qilish uchun bor imkoniyatingizni ishga solishingizni bilishadi.

Endi agar Siz bankdan qarz olishga qaror qilganingizda kelib chiqadigan vaziyatni ko‘rib chiqamiz. Ehtimol, Sizga mutlaqo notanish bo‘lgan bank xizmatchisi bilan biznes rejangizni batafsil muhokama

[20] “Stimul”ning faqat “rag‘bat”dan iborat emasligini tasdiqlovchi yana bir misol.
[21] “Stimul”ning faqat “rag‘bat”dan iborat emasligini tasdiqlovchi navbatdagi misol.

qilishni xohlamassiz. Yoki xohlaysizmi? Axir bu variantda Sizga raqib bo‘ladigan boshqa mijozga bu to‘g‘rida aytib berishi mumkinligi istisno qilinmagan. Hattoki, Siz ushbu masalani hal etishga muvaffaq bo‘lsangiz ham, yana yangisi yuzaga kelishi mumkin va buning vujudga kelmasligiga hech kim kafolat beraolmaydi.

Qarzlarni taqdim qilish qarorini qabul qiluvchi bank xizmatchilari esa, mijozlarda bo‘lajak biznesning barcha mumkin bo‘lgan qiyinchiliklari to‘g‘risida ochiqchasiga gapirib berish uchun asos mavjud emasligi bois, ko‘pincha qarzni taqdim qilishga shunchaki rozi bo‘lmaydilar[22]. Shunisi ayonki, buni har qanday odam eng noiloj vaziyatdagina oshkora qilishi mumkin. Axir, buni “Hayot!” deydilar!!!

Shunday qilib, axborot almashinishda, ish imkoniyatlariga nisbatan ma’lum bir tengsizliklar yoki nomutanosiblik yuzaga keladi: mijoz o‘zining bo‘lajak biznesi to‘g‘risida bank xizmatchisidan ko‘ra ancha ko‘p biladi. Buning ustiga, Siz bankka qarz uchun kelganingizda, bank xizmatchisiga o‘zining Siz uchun mutlaqo notanish odamligi, bank esa – biror-bir mas’uliyatsiz muassasadan ortiq emasligi aniq ma’lum. Demak, ishingizning borishi yomonlashsa, Siz unga yaqinlaringiz mablag‘lari sarflanganida qanday yo‘l tutganingiz kabi harakat qilmas, ya’ni holatni to‘g‘rilash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmas edingiz. Hatto, buning ustiga, Siz bu biznesdan chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilishingiz va qarzni to‘lamasligingiz ham mumkin. Shunday qilib, butun kuch bilan ishlash motivatsiyasi (stimuli) korxona riskining bir qism boyligi qarz oluvchini qiziqtirmaydigan tashkilotga (masalan, bank yoki sug‘urta kompaniyasiga) ko‘chirilishi natijasida pasayib ketadigan vaziyat ma’naviy risk yoki mas’uliyatsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga misol bo‘lishi mumkin.

Bitim tomonlarida axborotning bab-baravar bo‘linmagan hajmi natijasida ham yuzaga keladigan yana bitta muammo mavjud. Bu **nomuvofiq (noqulay)** tanlov muammosidir (adverse selection). Bu shu bilan xarakterlanadiki, unga ko‘ra riskning u yoki bu shaklidan

[22] “Bu misol ham “stimul”ning faqat “rag‘bat”dan iborat emasligini yana bir karra tasdiqlaydi.

sug‘urtani sotib oluvchi odamlar, odatda, ushbu riskga butun boshli aholiga qaraganda ancha kuchliroq duchor bo‘ladilar.

Bu vaziyatni **umrbod renta** (life annuities) misolida ko‘rib chiqamiz. Umrbod renta sug‘urtalangan odamga uning pensiyaga chiqishidan boshlab umrining oxirigacha qayd qilingan summani oyma-oy to‘lashni ko‘zda tutgan shartnomani ifodalaydi. Bunday rentalarni sotuvchi firma, ularni sotib oluvchi odamlar butun aholiday kutilayotgan uzoq umr ko‘rishlari taxminidan kelib chiqa olmaydi.

Masalan, tasavvur qilaylik, qandaydir bir firma pensiyaga chiqayotgan (ya’ni, masalan, 55-60 yoshdagi) odamlarga umrbod rentalarni sotmoqda. Odatda, butun aholi o‘rtasida bunday odamlarni uchta guruhga bo‘lishadi (yana har bir guruhdagilarning soni taxminan bir xil): “A” guruh umrining davomiyligi 10 yilni, “B” guruhniki 15 yil, “V” guruhniki esa 20 yilni tashkil etadi. 60 yoshga to‘lgan odamlar o‘rtacha 15 yil yashaydilar. Biroq, agar firma, ushbu umr davomiyligining prognoz (bashorat) ko‘rsatkichlariga muvofiq polis narxini o‘zgartirsa, u rentani sotib olayotgan odamlar ko‘proq “A” yoki “V” shakliga tegishli ekanligiga ishonch xos il qiladi. Birinchi guruhga kiruvchi pensionerlar uchun bu kabi bitim foydasizdir va ular bunday polisni sotib olmaydilar.

Agar umrbod rentani sotuvchi firma u yoki bu mijoz qaysi guruhga (“A”, “B”, yoki “V”) tegishli ekanligini bilganda va har bir odam umrining kutilayotgan davomiyligidan kelib chiqib narxni o‘zgartira olganda edi, unda hech qanday nomuvofiq (noqulay) tanlov muammosi mavjud bo‘lmagan bo‘lar edi. Biroq, bu firmalar, o‘z mijozlari umrining kutilayotgan davomiyligi to‘g‘risida axborotlar sonini oxirgilari egalik qilganidek yig‘a olmaydilar.

Modomiki, sug‘urtachi har bir mijoz umrining kutilayotgan davo-miyligini aniq aks ettiruvchi narxni belgilashga qodir emas ekan, unda ko‘p sonli rentalar nomutanosib ravishda hali ancha uzoq yashashni rejalashtirayotgan sog‘lom odamlar tomonidan sotib olinadi. Bizning misolda, o‘rtacha bashorat qilinayotgan umrning davomiyligi 17,5 yilni

tashkil etadi. Bu mazkur ko‘rsatkichning butun aholi uchun belgilanganidan 2,5 yilga ko‘proqdir.

Shunday qilib, agar renta sotuvchi firma, narxni butun aholi uchun umrning kutilayotgan davomiyligi ko‘rsatkichlari asosida belgilagan bo‘lsa va nomuvofiq (noqulay) tanlov muammolarini tartibga solish maqsadida narxni oshirmagan bo‘lsa, ziyonga uchraydi. Shu sababli firmalar umrbod rentalarga umrning kutilayotgan o‘rtacha davomiyligi bo‘lgan odamlarni o‘ziga jalb qilmaydigan narxlarni belgilaydilar. Bu shunga olib keladiki, ushbu moliyaviy mahsulot sotiladigan bozor, agar nomuvofiq (noqulay) tanlov muammosi mavjud bo‘lmaganda, mumkin bo‘ladigan holatdan ancha kamroq bo‘ladi[23].

Stimul bilan bog‘liq bo‘lgan muammoning yana bir turi ko‘proq riskka asoslangan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha vakolatning boshqa shaxslarga berilishida yuzaga keladi. Masalan, korporatsiya aksiya-dorlari firmaning ishini yuritish uchun menejerlarga vakolatni beradilar. O‘zaro jamg‘armalar investorlari esa, mablag‘larini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish tuzilmasini ishlab chiqish bo‘yicha vakolatni jamg‘armalarning qimmatli qog‘ozlar portfellarini boshqarish bo‘yicha menejerlariga taqdim yetadilar. Bu qaror qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan risk uchun javobgarlik olib boradigan odam yoki tashkilot, ushbu qarorlarni qabul qilish bo‘yicha o‘z vakolatini boshqa bir tashkilot yoki shaxsga berishini bildiradi. Shunday risk uchun javobgarlikni topshiradigan shaxslar (yoki tashkilotlar) *komitentlar* deb ataladi. Ushbu vakolatni qabul qiluvchilar esa *komissionerlar* deb ataladi.

Komitentning komissioner bilan munosabati muammosi (principal-agent problem) shundaki, komissioner ko‘pincha komitent agar komissioner bilgan barcha bilimlarga egalik qilganida qabul qilgan qarorlaridan va o‘zi mustaqil qabul qilishi mumkin bo‘lgan qarorlaridan farqlanuvchi qarorlarni qabul qiladi. Buning natijasida komissionerlar va komitent-larning manfaatlari o‘rtasida ko‘pincha ziddiyatlar kelib chiqadi. Nostandart (noandozaviy) vaziyatlarda komissionerlar, hattoki,

[23]“Stimul” va “rag‘bat” hamda “stimullashtirish” va “rag‘batlantirish”ning turlicha ekanligini tasdiqlovchi misollardan yana biri.

o‘zlarining komitentlari manfaatlariga qaramasdan harakat qilishlari mumkin. Bunday holat, masalan, fond brokeri «sutdan yog‘ olish» deb nomlanadigan ish bilan shug‘ullansa, ya’ni mijozga hech qanday foyda olib kelmaydigan, lekin brokerning komission summasini oshiradigan ko‘psonli bitimlarni mijozning hisobidan amalga oshirganida kelib chiqadi.

Buning yanada tushunarli bo‘lishi uchun e’tiboringizni quyidagi “qo‘lbola”, “jaydari” o‘zbekona misolga qaratmoqchimiz: ma’lumki, ko‘pkariga (uloqqa) yaraydigan kuchli otga hamma chavandoz ham ega bo‘lavermaydi. Xuddi shuningdek, shunday kuchli otga ega bo‘lganlarning hammasi ham chavandoz bo‘lmasligi mumkin. Bunday sharoitda otning egasi o‘z otini kuchli chavandozga “chopish uchun” taqdim etishi, tabiiy. Shunga o‘xshash, chavandozning ham o‘zganing kuchli otidan ko‘pkari (uloq) davomida “chopishidan” o‘zga chorasi qolmaydi. Shu munosabat bilan, ko‘pkari (uloq)da qo‘lga kiritilgan yutuq (solim)lar chavandoz va otning egasi o‘rtasida, odatda, qanday taqsimlanishini bilasizmi? Hech joyda yozma ravishda qayd etilgan bo‘lishiga qaramasdan, azal-azaldan, bu narsa (yutuq)ni taqsimlashda quyidagiga rioya qilinadi: pulli yutuqlar – chavandozniki, natural ko‘rinishdagi yutuqlar (uloq, gilam, tuya, ho‘kiz, mashina va h.k.lar) esa – otning egasiniki. Bunday sharoitda chavandoz bilan otning egasi o‘rtasidagi munosabatlarning qanchalik uzoq vaqt davom etishi yoki uning doimiy xarakterga ega bo‘lishi, boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda, chavandozning xolisona xatti-harakatiga bog‘liq. Agar chavandoz har safar ko‘pkari (uloq)da o‘zaro manfaatlar mushtarak-ligiga intilib harakat qilsa – nur ustiga, a’lo nur – o‘zaro munosabatlar davom etadi. Aksincha, ko‘pkari (uloq) davomida solim pulli e’lon qilinganda har safar o‘zini o‘tga ursa-yu, natural ko‘rinishdagi solim e’lon qilinganda esa – to‘dadan chetga chiqib, oddiy tamoshabinga aylanib, ayyorlik qilsa – o‘sha zahotiyoq yoki navbatdagi ko‘pkari (uloq)da kuchli otdan umid qilmasa ham bo‘laveradi. Chunki bu yerda otning egasi va chavandoz manfaatlari o‘rtasida ziddiyatning kelib chiqqanligi shuni taqozo etadi.

Agar moliyaviy tizim to‘g‘ri faoliyat ko‘rsatsa, unda yuqorida qayd qilingan stimullashtirish muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bu esa moliyaviy resurslarni birlashtirish imkoniyati, riskni taqsimlash va ixtisoslashtirish kabi ushbu tizimning afzalliklaridan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Jumladan, masalan, kredit faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan stimullashtirish muammolarini kamaytirish uchun, qarz oluvchi o‘zining majburiyatlarini bajarmaganda, qarz beruvchiga uning ish aktivlarini xatga olish (arest) huquqi berilishini o‘z ichiga oluvchi **qarzni ta’minlash** (collateralization) prinsipidan keng foydalaniladi. Shunday yondashuv tufayli, kreditorning qarz oluvchining faoliyati ustidan nazorat bo‘yicha xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Bu holatda unga faqat, qarzni ta’minlash sifatida taqdim qilingan aktivlarning bozor qiymati qarzning asosiy summasi va uning foizini to‘lashga yyetarli bo‘lishining tashvishini qilish qoladi, xolos.

Texnologiyalar rivojlanib borgan sari qarzning ta’minlanishi uchun xizmat qiladigan turli xil ish aktivlari (masalan, qarz oluvchining tovar-moddiy zaxirasiga kiruvchi tovarlar)ni baholashga, shuningdek, ular ustidan nazoratga ketadigan xarajatlar doimiy ravishda kamayib bormoqda. Buning natijasida bu kabi kelishuvlardan foydalanish sohasi kengay-moqda.

Yo‘lga qo‘yilgan moliyaviy tizim tufayli komitent va komissioner o‘rtasidagi muammolarni ham yumshatish mumkin.

Jumladan, agar perso-nal[24]ni boshqarish ishi uchun mukofotlash firma aksiyalarining bozor bahosi ko‘rsatkichiga bog‘liq bo‘lsa, menejerlar va aksionerlar manfa-atlarini aniqroq muvofiqlikka keltirish mumkin. Shuningdek, masalan, kredit shartnomasiga kreditorning huquqini qo‘shimcha sug‘urtalovchi ("equity kicker") alohida bandni kiritish imkoniyatini ham ko‘rib chiqamiz. Bu esa korporatsiya aksiyadorlari va kreditorlari manfaatlari o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqishi riskini kamaytirish imkonini beradi. Bu maqsadga erishishga kreditorga aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash uchun hisob-lanadigan

[24]“Personal” lotincha “personalis” – shaxsiy. Korxona, muassasa xodimlari yoki ularning ixtisosiga ko‘ra bir guruhi. Qarang: o‘sha manba. J.III. - B.247.

foydalarda ishtirok etishiga yo‘l beradigan kredit kelishuvining har qanday tartibi (alohida band) yordam beradi. Mazkur turdagi kengroq qo‘llaniladigan uslublardan biri, qarz to‘lanmagan holatda kreditorlar o‘rtasida foydadan ma’lum bir foizning taqsimlanishini o‘z ichiga oladi; boshqasi – kreditor o‘zining qarz summasini korporatsiya aksiyalarining oldindan kelishib olingan soniga konvertatsiya qilish huquqiga egaligidir.

Boshqaruv personali firmaning aksiyadorlari tomonidan saylanishini hisobga olish kerak. Bu shunga olib keladiki, aksiyadorlar va kreditorlar manfaatlarining ziddiyatlari yuzaga kelgan holatda menejerlar odatda, aksiyadorlar manfaatlarini qondirish uchun mumkin bo‘lguncha harakat qiladilar, va ko‘pincha buni firma kreditorlari hisobidan amalga oshiradilar. Bunday holatlarda yuzaga keladigan ma’naviy risk muammosi boshqa sharoitlarda ikki tomonlama foyda keltiradigan qarz kelishuvining tuzilishiga xalaqit berishi mumkin. Kelishuvga qo‘shimcha qilib, "equity kicker" bandini kiritib, bu muammoni yumshatish yoki hatto butkul hal qilish mumkin. Buning natijasida firmaning aksiyadorlari ham, uning kreditorlari ham yutadilar, xolos. Axir o‘zbeklarda “Qars” ikki qo‘ldan chiqadi”, “Sizdan – ugina, bizdan – bugina”, “Six ham kuymasin, kabob ham”, deb bekordan-bekorga aytilmagan.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 -y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018y., 03/18/476/1087-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. - 69b.

8. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

4-MAVZU: MOLIYAVIY QARORLAR

4.1. Uy xo‘jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar

Odatda, tarkibi va hajmi (o‘lchami) turlicha bo‘lgan oilalar uy xo‘jaliklari deb ataladi. Bunda qutbning bir tomonida (bir tarafida) bir necha avlod vakillaridan tashkil topgan, bir uyda yashaydigan va ma’lum iqtisodiy resurslarga birgalikda egalik qiladigan katta oilalar tursa, qutbning ikkinchi tomonida (qarama-qarshi tarafida) bir o‘zi yashaydigan va an’anaviy oila tushunchasiga mos kelmaydigan yakka inson turadi. Ammo “Zamonaviy moliya”da bunday oila ham uy xo‘jaligi hisoblanadi.

Amaliyotda uy xo‘jaliklari tomonidan, odatda, to‘rt xil moliyaviy qarorlar qabul qilinishiga to‘g‘ri keladi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.Pul mablag‘larini iste’mol qilish va jamg‘arish to‘g‘risidagi qarorlar. Oila boyligining qaysi qismini iste’molchilik ehtiyojlariga sarflash mumkin? Joriy daromadning qaysi qismini kelajakda sarflash uchun saqlab qo‘yish va jamg‘arib borish kerak?

2.Investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan (investitsion) qarorlar. Mavjud jamg‘armalarni qaysi (qanday) aktivlarga yo‘naltirish (joylash-tirish) kerak?

3.Moliyalashtirish to‘g‘risidagi qarorlar. Uy xo‘jaligi o‘z iste’-molchilik va investitsion rejalarini amalga oshirish uchun qachon va qay tarzda qarz olingan mablag‘dan foydalanishi kerak?

4.Riskni boshqarish (riskiy boshqaruv) bilan bog‘liq qarorlar. Uy xo‘jaliklari qanday qilib va qanday shartlarda moliyaviy vaziyat mavhumligi (noaniqligi) darajasini kamaytirishlari kerak va yo‘l qo‘yiladigan risk darajasini qachon oshirishlari zarur?

Shunday qilib, uy xo‘jaliklari tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarni chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:



4-rasm. Uy xo‘jaliklari tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar

Uy xo‘jaliklari o‘z daromadlarining ma’lum qismini kelajakda sarflash uchun jamg‘arib qo‘yishlari natijasida ular umumiy boylik jamg‘armasini (pool of wealth) to‘plab qo‘yadilar. Va ular turli shakllarda saqlanishi mumkin. Kimdir pullarni bankdagi hisob raqamlarida saqlashni afzal ko‘rsa, kimdir ko‘chmas mulkka yoki biror biznesga tikadi (yo‘naltiradi, joylashtiradi). Bu mablag‘larning umumiy nomi bor. Ular aktivlar (assets) nomini olgan. *Iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan barcha narsalar aktivlar deyiladi.*

Uy xo‘jaliklarining o‘zlari to‘plagan mablag‘larni sarflash borasida qaror qabul qilish jarayoni ***xususiy investitsiyalash*** *(asset allocation)* ***yoki pul mablag‘larini turli aktivlar turlari o‘rtasida taqsimlash*** *deb ataladi.*

Xususiy uy sotib olish bilan bir qatorda odamlar ko‘pincha o‘z mablag‘larini moliyaviy aktivlarga, masalan aksiya yoki obligatsiyalarga tikadi (joylashtiradi, qo‘yadi)lar. Agar odam pul qarz olsa, u o‘zida yuzaga kelgan qarz majburiyati (liability) bilan bog‘liq ma’lum javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, unda qarz paydo bo‘ladi. Uy xo‘jaligi boyligi yoki mulkining **toza (sof) bahosi (qiymati)** (net worth) uning mulki bahosidan uning qarz majburiyatlari summasini ayirish orqali aniqlanadi.

Masalan, faraz qilaylik, Siz 100 mln.so‘m turadigan uy egasisiz va bankdagi hisob raqamingizda 20 mln.so‘mingiz bor. Bundan tashqari, Siz bankka 80 mln. so‘m qarzsiz. Bu summani Siz uy sotib olayotganda bankdan ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish evaziga olgansiz (majburiyat), va 5 mln. so‘m miqdorida kredit kartochkasi bo‘yicha to‘lanmagan xarajatlaringiz bor. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaligingizdagi mulkning haqiqiy bahosi 35 mln. so‘mni tashkil etadi: jami aktivlardan (120 mln. so‘m) qarz majburiyatlari summasi (85 mln. so‘m) ayirib tashlanadi. Oxir hisobda (pirovardida) jamiyatning har qanday resurlari uy xo‘jaliklariga tegishli. Chunki aynan ular firma egalaridir (yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yoki aksiyalarga, hayotni sug‘urtalash bo‘yicha polislarga egalik qilish yoki pensiya rejalarida ishtirok etish orqali) va soliq to‘laydilar. Bu soliqlar esa, davlat tomonidan sarflanadi.

Odamlarning ehtiyoji moliya nazariyasida mavjud narsa sifatida talqin etiladi. Bu ehtiyojlar vaqt o‘tib o‘zgarishi mumkin. Lekin buning qanday qilib va nima uchun yuz berishi mazkur nazariya chegaralaridan tashqariga chiqadi. Unga ko‘ra, odamlarning hatti-harakatini o‘z ehtiyoj-larini qondirishga intilishlari bilan tushuntirish mumkin bo‘lsa, firmalar, davlat korxonalari va tashkilotlari faoliyatini shu faoliyat odamlarning farovonligiga qanday qilib ta’sir qilishi nuqtai nazaridan baholanadi.

4.2. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar

Asosiy vazifasi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan iqtisodiy faoliyat subyekti (boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyot subyekti) **firma** deb ataladi. Xuddi uy xo‘jaliklari kabi firmalar ham turli shakl va hajm (o‘lcham)da bo‘ladi. Bunda, bir taraf (qutb)da bitta odamga tegishli yoki oilaviy biznes hisoblangan ustaxonalar, do‘konlar va restoranlar tursa, ikkinchi taraf (qutb)da – yuzlab, ba’zida Mitsubishi yoki General Motors, Gazprom, Rosneft, “O‘zbekneftegaz” kabi minglab odamlar ishlaydigan, aksiyador sherik egalari ko‘p korporatsiyalar turadi. Firmalar darajasida moliyaviy

qarorlar qabul qilish masalalari bilan shug‘ullanadigan moliya sohasi **korxonalar moliyasi** yoki **korporativ moliya** (business or corporate finance) deb ataladi.

Tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish uchun har qanday firma, hajmi (o‘lchami)dan qat’iy nazar kapital[25]ga ega bo‘lishi kerak. Bino, inshoot, mashina uskunalari va ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan boshqa zarur resurslar firmaning **jismoniy kapitali** hisoblanadi. Firmalarga jismoniy kapitalni sotib olishni moliyalashtirish imkonini beruvchi aksiyalar, obligatsiyalar va kreditlar **moliyaviy kapital** deyiladi. Bularni chizmali ko‘rinishda quyidagicha aks ettirsa bo‘ladi:



5-rasm. Kapitalning eng umumiy tarkibiy tuzilmasi

Birinchi gal (navbat)da har qanday firma aynan qanday biznes bilan shug‘ullanishini belgilab olishi kerak va bu jarayon *strategik rejalashtirish* deb ataladi. Strategik rejalashtirish vaqt omilini inobatga olgan holda xarajat va daromadni baholash bilan bog‘liq ekan, ko‘p jihatdan, uni moliyaviy qarorga kiritish mumkin.

Ko‘pincha, firma o‘zining mahsulot liniyasi (yo‘nalishi)dan kelib chiqqan holda asosiy yo‘nalishga ega bo‘ladi va shu bilan bir qatorda birinchisi bilan o‘zaro bog‘liq boshqa faoliyat bilan ham shug‘ullanadi.

[25] Ona tilimizga “kapital” so‘zi nemischa “kapital” va lotincha “capitalis” so‘zlaridan kirib kelgan bo‘lib, so‘zma-so‘z “bosh”, yoki “asosiy” deb tarjima qilinsa-da, iqtisodiy nuqtai-nazardan, eng oddiy tarzda, quyidagi ma’nolarda ishlatilishi mumkin: a) o‘zini o‘zi ko‘paytirish uchun foydalaniladigan, o‘z egasiga foyda, daromad keltiradigan boylik (qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari, moddiy mol-mulk va sh.k); b) katta mablag‘, ko‘p pul, boylik; v) kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ahamiyatga molik narsa. Qarang: o‘sha manba. J.II. –B. 316.,

Masalan, kompyuter ishlab chiqaradigan firma o‘z faoliyatining ma’lum bosqichida kompyuterlarga xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan ham shug‘ullanishga ahd qilishi mumkin.

Vaqt o‘tishi bilan kompaniyaning strategik maqsadlari o‘zgarishi, o‘zgarganda ham keskin o‘zgarishi mumkin. Ba’zi korporatsiyalar bir vaqtning o‘zida biznesning bir-biri bilan mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan sohalarida ishlashi uchrab turadigan hol. Bundan tashqari, shunaqasi ham bo‘ladiki, firma o‘zining dastlabki faoliyati bilan umuman shug‘ullanmay qo‘yadi, natijada firmaning nomi uning bugungi vazifalari va maqsadlariga mutlaqo mos kelmay qoladi.

Masalan, *ITT Corporation (International Telephone and Telegraph)* korporatsiyasini eslaylik. Korporatsiya 1920-yilda telefon va telegraf xizmatlarini va tegishli asbob-uskunalarni taklif etuvchi kompaniya sifatida tashkil etilgan. XX asrning 70-yillarida *ITT* ulkan ko‘p millatli konglomerat[26]ga aylandi. Asosiy faoliyatidan tashqari firmaning faoliyat doirasiga sug‘urta, harbiy kiyim-bosh tikish, non mahsulotlari, yog‘och-taxta, bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek tog‘-kon ishi va avtomobillarni ijaraga berish kirar edi. O‘tgan asrning 80-yillari davomida kompaniya shu faoliyat turlarining ko‘pchiligi bilan shug‘ullanmay qo‘ydi va butun diqqat-e’tiborini mehmonxona va qimor biznesiga qaratdi. 1996-yilga kelib esa, korporatsiya umuman telefon va telegraf uskunalari ishlab chiqarmay qo‘ydi va telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishni to‘xtatdi.

Firma qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishini uzil-kesil belgi (aniq)lab olgach, kompaniya menejerlari fabrika, mashina uskunalari, tadqiqot o‘tkaziladigan laboratoriyalar, ko‘rgazma zallari, ulgurji omborxonalar va boshqa uzoq muddatli aktivlar qurish va sotib olish rejasini ishlab chiqishlari hamda buning barchasini boshqaradigan xodimlarni o‘qitish loyihasini tayyorlashlari kerak bo‘ladi. Bu jarayon *investitsiyalarni rejalashtirish (capital budgeting process)* deb ataladi.

[26]“Konglomerant” lotincha “conglomeratus” so‘zidan olingan bo‘lib, so‘zma-so‘z “to‘dalangan, yig‘ilgan, to‘plangan” deb tarjima qilinib, jumladan, “turli-tuman jins, predmet va qismlarning tasodifiy mexanik qo‘shilmasidan iborat narsa; qurama” ma’nolarida ishlatiladi. Qarang: o‘sha manba. J.II. –B. 398.

Bunday tahlil birligi *investitsion loyiha (investment project)* hisoblanadi. Investitsiyalarni rejalashtirish har bir yangi investitsion loyiha uchun asosiy niyat (maqsad)larni belgilash, ularga baho berish, eng manfaatli niyat (maqsad)ni tanlash va ularni amalga oshirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Firma aynan qanday loyihalarni amalga oshirishini belgilab olgandan so‘ng shu loyihalar qay tarzda moliyalashtirilishini aniqlashi kerak. Investitsiyalarni rejalashtirish bilan bog‘liq qarorlardan farqli o‘laroq kapital tuzilmasiga taalluqli qarorlarni qabul qilayotganda tahlil birligi alohida investitsion loyiha emas, balki firmaning butun o‘zidir. Kapital tuzilmasini aniqlash jarayoni firma faoliyatining amaliy moliyaviy rejasini ishlab chiqishdan boshlanadi, shundan keyin moliyalashtirishning optimal tuzilmasini ishlab chiqishga kirishish mumkin.

Firmalar turli-tuman moliyaviy instrumentlarni muomalaga chiqarishi mumkin. Bu tashkillashtirilgan bozorlarda savdo (sotuv)ga chiqariladigan standartlashtirilgan qimmatli qog‘ozlar – oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar va konvertatsiya qilinadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, korxonaga qo‘yilgan bozordan tashqari (nobozoriy) moliyaviy talablar (claims), ya’ni bank ssudalari, xodimlar uchun opsionlar, ijara shartnomalari va pensiya ta’minoti bo‘yicha majburiyatlar ham savdo (sotuv)ga qo‘yilishi mumkin.

Korporatsiya kapitali tuzilmasi kapitalning ma’lum qismi egalaridan har biri korporatsiya daromadining qancha qismini olishini belgilab beradi. Masalan, obligatsiya egalari, odatda, belgilangan (qat’iy) to‘lovlar olib turadi, aksiyadorlarga esa daromadga da’vogarlarning barchasi o‘z ulushini olgandan keyin qolgan mablag‘ to‘lanadi. Kompaniya ishining qanday nazorat qilinishi qisman kapital tuzilmasiga bog‘liq. Odatda, aksiyadorlar firmani direktorlar kengashiga o‘z vakillarini saylash huquqidan foydalangan holda boshqaradilar, obligatsiyalar chiqarish va kompaniyaning boshqa kredit kelishuvlariga kirishi, ko‘p hollarda, undan ma’lum shartlarni bajarishni taqozo etadi, *ushbu shartlar, o‘z navbatida, kreditorlar bilan tuzilgan tegishli*

shartnomalarda ko‘zda tutilgan bo‘ladi (covenants) va boshqaruv xodimlari faoliyatini cheklaydi. Ushbu shartnoma cheklovlari tufayli kreditorlar ma’lum darajada kompaniya menejerlarining ishi (faoliyati)ni nazorat qila oladilar.

Aylanma kapitalni boshqarish sifati firma muvaffaqiyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Agar menejerlar kompaniyaning kunlik moliyaviy ishla-riga doimiy diqqat qilmasalar (e’tibor bermasalar), eng oqil tuzilgan uzoq muddatli reja ham ko‘ngildagidek amalga oshmasligi mumkin. Hatto o‘sib kelayotgan muvaffaqiyatli firmada ham kiruvchi va chiquvchi pul oqimlari vaqt jihatidan aniq bir-biriga mos tushmasligi mumkin. Menejerlar mijozlar o‘z hisoblari bo‘yicha to‘lovlarni vaqtida amalga oshirishlarini muntazam tekshirib turishlari kerak va hokazo. Boshqacha qilib aytganda, menejerlar firma moliyasi ustidan umumiy boshqaruvni shunday amalga oshirishlari kerakki, pul mablag‘larining operatsion defitsiti doimo to‘ldirilib turishi, ortiqchasi yaxshi daromad olib keladigan tarzda investitsiya qilinishi kerak[27].

Firma moliyaviy qarorlar qabul qilishi vaqtidagi har bir qaror, xoh u investitsiyalash, xoh moliyalashtirish yoki aylanma kapitalni boshqarish masalasi bo‘lsin, muayyan ishlab chiqarish texnologiyasiga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimi, soliq tizimi va firma faoliyat yuritadigan raqobat muhiti kabi omillarga bog‘liq. Firma tanlaydigan moliyaviy siyosat variantlari ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015-y.
5. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018-yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy

[27] Amaliyotimizda bunga qay darajada rioya qilinayotir? Uning natijasi qanday bo‘layapti? Misollar keltira olasizmi? Unga, eng umumiy tarzda, qanday baho bergan bo‘lur edingiz? Nima uchun?

bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

9. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

10. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

11. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

5-MAVZU: MOLIYAVIY SIYOSAT

5.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shuning uchun ham moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Bu faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va sotsial rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan.

Sotsial rivojlanish deyilganda faqatgina maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash va boshqa sotsial ehtiyojlarning rivojlanishi tushunilibgina qolmasdan jamiyatning sotsial tuzilmasi ham tushuniladi. Shuning uchun ham moliyaviy siyosatni faqat iqtisodiy siyosatga bog‘lab qo‘yish maqsadga muvofiq emas.

Siyosat davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi. Siyosiy ta’sir obyekti hisoblangan ijtimoiy munosabatlar sohalariga bog‘liq ravishda iqtisodiy yoki sotsial, madaniy yoki texnikaviy, budjet yoki kredit, ichki yoki tashqi siyosat to‘g‘risida gapiriladi.

Moliyaviy siyosat o‘z-o‘zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, sotsial soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo‘lishi printsipial ahamiyatga ega emas.

Siyosat, siyosiy ta’sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch elementlardan tarkib topadi:

- bosh maqsadni aniqlash va qo‘yish hamda jamiyat hayotining ma’lum bir davriga xos qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yyechilishi zarur bo‘lgan istiqboldagi va yaqin kunlardagi vazifalarni konkretlashtirish;
- yordamida qo‘yilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishiladigan, yaqin kunlardagi va istiqboldagi vazifalar esa oqilona

tartibda hal qilinadigan munosabatlarning metodlari, vositalari va konkret shakllarini ishlab chiqish;

- qo‘yilgan vazifalarni yechishga qodir bo‘lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning bajarilishini tashkil qilish.

Demak, takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo‘naltiriladigan maqsad va vazifalarning yyechilishini aniqlashga moliyaviy siyosat deyiladi.

Moliyaviy siyosatga quyidagicha boshqa ta’rif ham berish mumkin: moliyadan foydalanishning metodlari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va metodologik printsiplarining majmuiga (yig‘indisiga) moliyaviy siyosat deyiladi.

Ayrim hollarda moliyaviy siyosat davlatning o‘z funksiyalarini bajarishi uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat organlarining ma’lum bir faoliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday talqin o‘zida bir necha xavfni mujassam etadi. Buning boisi shundaki, milliy xo‘jalik taraqqiyotida davlatning roli to‘g‘risidagi jamiyatda hukmron bo‘lgan tasavvurlarga muvofiq ravishda davlatning vazifalari va funksiyalari ham o‘zgaradi, transformatsiyalanadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi, aholi turmush darajasi sotsial-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish va shunga o‘xshash davlatning funksiyalari va vazifalarini aniqlaydigan boshqa bir qancha masalalar hamon munozaraligicha qolmoqda. Buning ustiga, moliyaviy siyosatdan faqat davlatning funksiyalarini bajarish vositasi (instrumenti) sifatida foydalanish davlat hokimiyat organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan moliya tizimining boshqa subyektlari, ya’ni aynan mamlakatning aholisi va xo‘jalik yurituvchi subyektlari manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqadi.

Masalan, ko‘plab mutaxassislar, shu jumladan, davlat hokimiyat organlarining vakillari tomonidan amaldagi soliq mexanizmining nosamarali ekanligi, biznesning ayrim sohalari uchun esa uning oqibati juda yomon natijalarga olib kelishi mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan

asoslansa-yu, moliyaviy siyosat uzoq vaqt davomida o‘zgarmasdan qolaversa, amalga oshiriladigan soliq islohotlari uning mohiyatini o‘zgartirmasa, bunday holda davlatning moliyaviy siyosati davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan faol ravishda hayotga tatbiq etilayotgan alohida shaxslar guruhining moliyaviy siyosatiga aylanadi, qoladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi uch mantiqiy xulosa kelib chiqadi:

- birinchidan, moliyaviy siyosat faqat o‘z manfaatlarini ko‘zda tutadigan hokimiyat organlarining u yoki bu maqsadlarga yerishishining instrumenti emas, balki jamiyatning sotsial-iqtisodiy vazifalarini yechish vositasi bo‘lishi kerak;
- ikkinchidan, davlatning moliyaviy siyosati faqat davlat hokimiyat organlarining emas, balki moliya tizimi barcha subyektlarining manfaatlarini hisobga olishi lozim;
- uchinchidan, davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatini farqlash zarur.

Shunday qilib, davlat moliyaviy siyosatini mamlakat moliya tizimining barcha bo‘g‘inlarida moliyaviy resurslarning o‘sishini balanslashtirilgan (mutanosiblashtirilgan) holda ta’minlash bo‘yicha davlat sotsial-iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida qarash kerak. Xorijiy tajribalarning ko‘rsatishicha, moliyaviy resurslarning balanslashtirilgan (mutanosiblashtirilgan) holda o‘sishining zarurligini inkor etish mamlakat moliya tizimining o‘zini degradatsiyalashuviga, iqtisodiyotning yemirilishi va vayron bo‘lishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning o‘ziga xos bo‘lgan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga uzluksiz ravishda ta’sir ko‘rsatib turishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush farovonligini ta’minlab va davlat daromadlarining manbaini ko‘paytirib, moliyaviy xo‘jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi mumkin. Moliyaviy siyosatning ana shunga yo‘naltirilganligi orqali uning quyidagi eng asosiy maqsadini aniqlash

mumkin: jamiyatning sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmushining darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadidir.

Agar gap korxonalarning moliyaviy siyosati xususida ketadigan bo‘lsa, bu narsa korxona moliyaviy menejer-larining biznesni yuritish maqsadlariga erishish borasidagi maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini anglatadi. Korxona moliyaviy siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- raqobat kurashi sharoitida korxonaning sog‘lom hayot kechirishiga (faoliyat ko‘rsatishiga) erishish;
- yirik moliyaviy muvaffaqiyatsizliklardan va bankrotga (kasodga) uchrashdan qochib qutilish;
- raqobatchilar bilan kurashda yetakchilikka (lider bo‘lishga) erishish;
- korxonaning bozor qiymatini maksimallashtirish;
- korxona iqtisodiy salohiyatining o‘sish sur’atlarini barqaror o‘stirish;
- ishlab chiqarish va realizatsiya hajmini oshirish;
- foydani maksimallashtirish;
- xarajatlarni minimallashtirish;
- rentabelli faoliyatni ta’minlash
- va boshqalar.

Korxona moliyaviy siyosatining u yoki bu maqsadlaridagi ustuvorlik, eng avvalo, biznesni yuritishning maqsadlariga muvofiq ravishda aniqlanadi. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun tegishli moliyaviy mexanizmdan foyda-laniladi.

Moliyaviy siyosat moliyaning o‘zida (boshqaruv obyektlarida) bevosita mujassam bo‘lgan boshqaruvning salohiyatli imkoniyatlarini, ishning konkret metodlari, moliya tizimining (boshqaruv subyektlari) organlarini tashkil qilish bilan yagona joyga bog‘lashga imkon beradi. Dunyoning barcha mamlakatlarida moliyaviy siyosat moliya tizimi orqali amalga oshirilib, uning faoliyati quyidagi prinsiplar asosida quriladi:

- moliya tizimi bo‘g‘inlarining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish;
- barcha moliyaviy muassasalar funksiyalarining umumiyligi;
- barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish.

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning (o‘tkazishning, hayotga tatbiq etishning) asosiy metodologik printsiplari quyidagilardan iborat:

- pirovard maqsadga bog‘liqlik;
- xo‘jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy balanslash-tirilganligi (muvozanatliligi, mutanosibligi);
- jamiyat barcha a’zolarining manfatlariga muvofiqligi (mos kelishi);
- real (haqiqiy) imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy siyosatning amalga oshirilishini davlat tomonidan o‘z funksiyalari va dasturlarini (uzoq, o‘rta va qisqa muddatli) bajarish uchun moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish (jalb qilish), ularni taqsimlash va qayta taqsimlashga yo‘naltirilgan davlat tadbirlarining majmui ta’minlaydi. Bu tadbirlarning orasida moliyaviy munosabatlarning shakllari va normalarini huquqiy reglamentatsiya qilish (tartibga solish) muhim o‘rin egallaydi.

O‘z-o‘zidan moliyaviy siyosat yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin emas. Uning yaxshi yoki yomon ekanligi jamiyatning (yoki uning ma’lum bir qismining) manfaatlariga qanchalik muvofiqligi va quyilgan maqsadlarga erishish hamda aniq vazifalarning yyechilishiga qanchalik ta’sir ko‘rsatganligi bilan belgilanadi.

Hukumatning moliyaviy siyosatiga baho berish uchun va uni o‘zgartirish (korrektirovka qilish) bo‘yicha rekomendatsiya (tavsiya) berish uchun, birinchi navbatda, butun jamiyat manfaatlari va aholining alohida guruhlari manfaatlarini ajratgan (taqsimlagan) holda jamiyat taraqqiyotining aniq dasturiga, yechilishi lozim bo‘lgan masalalarning muddatlari va metodlarini aniqlagan holda istiqboldagi va yaqin yillardagi vazifalarning tavsifiga ega bo‘lmoq lozim. Faqat ana shunday

sharoitdagina moliyaviy siyosatni amalga oshirishning konkret mexanizmini ishlab chiqish va unga obyektiv (xolisona) baho berish mumkin.

Agar moliyaviy siyosat ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyojlarini, jamiyat butun qatlamlarining va alohida guruhlarining manfaatlarini, konkret tarixiy sharoitni va hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini qanchalik ko‘p (yuqori darajada) hisobga oladigan bo‘lsa, uning natijaliligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida, moliyaviy siyosatning muvaffaqiyatliligi (muvaffaqiyati) muvofiqlashtirish mexanizmining sifatli ishlab chiqarilishiga va jamiyat turli qatlamlari manfaatlarining amalga oshirilishiga hamda davlatning ixtiyorida bo‘lgan obyektiv imkoniyatlarning mavjudligiga, ya’ni jamiyat sotsial tuzilmasidagi hamda ijtimoiy ong va psixologiya holatidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda moliyaviy siyosatning amalga oshirilishiga, ayrim hollarda, bir-biriga qarama-qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ta’siridan har tomonlama foydalanish mexanizmining ishlab chiqilishiga bevosita bog‘liq.

Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo‘naltirilgan (qaratilgan) bo‘lishi kerak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o‘zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy siyosatni aniqlash va uni shakllantirish uchun davlatning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar zarurdir. Huquqiy demokratik davlatda moliyaviy statistikaning ko‘rsatkichlari keng jamoatchilikka ham tegishli bo‘lishi kerak. Moliyaviy hisobotlar esa doimiy, o‘z vaqtida beriladigan, hamma olishi mumkin bo‘lgan va eng asosiysi ishonchli bo‘lmog‘i lozim.

Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab olishi mumkin bo‘lgan moliyaviy munosabatlar rivojlanishi yo‘nalishlarining umumiy kompleksi bilan belgilanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- moliyaviy siyosatning umumiy konseptsiyasini (uning maqsadlarini, prinsiplarini, vazifalarini, amalga oshirish bosqichlarini va eng samarali metodlarini) ishlab chiqish;

- makrodarajada va bozor iqtisodiyotining subyektlari darajasida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradigan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos (adekvat) bo‘lgan dinamik holdagi moliya mexanizmini shakllantirish;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish bo‘yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qilishdagi roliga muvofiq ravishda sotsial iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari bo‘yicha moliyaviy resurslarni oqilona (optimal) taqsimlashni tashkil qilish;
- iqtisodiy o‘sishning joriy va istiqboldagi moliyaviy salohiyatini shakllantirish.

Shuningdek, moliyaviy siyosatning mazmuni, uning asosiy yo‘nalishlari jamiyat taraqqiyotida davlatning roli to‘g‘risidagi fanning rivojlanish darajasiga va iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokining darajasini aniqlaydigan tegishli nazariy konseptsiyalarga, moliyaviy siyosatni amalga oshirishning alohida instrumentlaridan foydalanishda, ya’ni moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning konkret shakllarida namoyon bo‘ladi. Shunga asosan ta’kidlash joizki, yigirmanchi yuz yillikda jamiyatning taraqqiyotida davlatning roli to‘g‘risidagi masala bo‘yicha moliya nazariyasining asosiy yo‘nalishlari mumtoz burjuaziya siyosiy iqtisodchilari A.Smit (1723-1780) va D.Rikardo (1772-1823) hamda ingliz iqtisodchisi J.Keyns (1883-1946) va ularning izdoshlari tomonidan aniqlangan.

Mumtoz siyosiy iqtisod asoschilari bo‘lgan A.Smit va D.Rikardolar konseptsiyalarining mohiyati shundan iboratki, davlat iqtisodiyotga aralashmasdan erkin konkurensiyani (raqobatni) saqlamog‘i lozim va jamiyat xo‘jalik hayotini tartibga solishda asosiy rol bozor mexanizmlariga ajratilishi (berilishi) kerak. Ana shu prinsiplarni inobatga olgan holda yigirmanchi yuz yillikning 20-yillari oxiriga qadar moliyaviy siyosat davlat xarajatlari va soliqlarni cheklashga, davlatning muvozanatli (balanslashtirilgan) budjetini ta’minlashga qaratildi. Shu

maqsadlarga muvofiq ravishda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish, asosan, harbiy, boshqaruv va davlat qarzini qaytarish hamda unga xizmat qilish xarajatlarini budjetdan moliyalashtirish orqali davlat funksiyalarining amalga oshirilishini ta’minladi. Budjet daromadlari esa, asosan, egri (bilvosita) soliqlar yordamida (hisobidan) shakllantirildi.

XX asrning 20-yillari oxirlaridan boshlab keynschilik nazariy konseptsiyasi ustunlik qila boshlab, unga ko‘ra iqtisodiyot taraqqiyotida davlatning rolini takror ishlab chiqarish jarayonining tsiklik rivojlanishiga aralashish va uni tartibga solish orqali kuchaytirish zarurligi asoslandi. Bunday moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatida yangi ish joylarini yaratishga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari maydonga chiqdiki, bu narsa bir vaqtning o‘zida bir necha iqtisodiy va sotsial vazifalarning yechilishiga imkon berdi: aholining bandlik darajasi ortdi va aksincha, ishsizlik kamaydi; tadbirkorlik faoliyati o‘sdi; qo‘shimcha talab shakllantirildi; MD ko‘paydi (ortdi); sotsial ehtiyojlarni moliyalashtirishda katta imkoniyatlar paydo bo‘ldi va h.k.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi Davlat budjeti xarajatlarining oshishiga olib keldi va shunga muvofiq ravishda bir vaqtning o‘zida davlat daromadlarining oshirilishini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy choralar ko‘rildi. Daromad solig‘i davlat daromadlarini oshirishning asosiy manbaiga aylandi. Uni hisoblashda soliqqa tortishning progressiv stavkalari qo‘llanildi. Soliqlarning bunday tizimi MDni taqsimlashda davlatning rolini oshirishga olib keldi.

Moliyaviy yo‘nalishda har ikkala nazariy konseptsiyalar o‘rtasidagi farq mohiyatan budjet defitsitini turli xilda (ravishda, tarzda) baholanishi bilan belgilanadi. Agar birinchi konseptsiya defitsitsiz budjetni shakllantirish va undan foydalanishning zarurligidan kelib chiqqan bo‘lsa, ikkinchi konseptsiya esa budjet defitsitining bo‘lishi mumkinligiga yo‘l qo‘ygan va buning ustiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda budjet defitsitiga faol rol ajratgan.

Haqiqatdan ham XX asrning 30-60-yillarida keynscha moliyaviy siyosat deb nom olgan siyosat g‘arb mamlakatlarida o‘zining samaradorligini isbotladi. Davlat iqtisodiyotga aralashuvining kengayishi va davlat tartibga soluvchi funksiyasining kuchayishi oqibatida moliyaviy munosabatlarni tashkil qilish murakkablashdi. Davlat xarajatlarini defitsitli moliyalashtirish siyosati davlat kreditining rivojlanishini belgilab berdi. Uzoq va o‘rta muddatli qarzlarni jalb etish ssuda kapitallari bozorining rivojlanishiga olib keldi va o‘zining ahamiyati bo‘yicha davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishning ikkinchi manbaiga aylandi. Buning natijasida MDni qayta taqsimlashda moliyaning roli yanada kuchaydi.

XX asrning 70-yillarida iqtisodiy nazariyaning neoklassik yo‘nalishi moliyaviy siyosatning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini belgilab berdi. Bu konseptsiya davlatning tartibga soluvchi rolidan voz kechmasa-da, lekin uning iqtisodiyotga va sotsial sohaga aralashuvi darajasini biroz chekladi. Amalda esa davlatning aralashuvi kamaymadi va aksincha biroz kuchaydi. Chunki bunday aralashuv endilikda faqat Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari orqali amalga oshirilib qolinmasdan, balki pul muomalasini, valyuta kursini, ssuda kapitallari va qimmatli qog‘ozlar bozorini ham tartibga solish orqali sodir etildi. Buning natijasida davlatning ta’sir doirasi kengaydi va kapitallar oqimida uning roli kuchaydi. Bularning barchasi taraqqiyotning qayta qurilish tuzilmasiga va sotsial omillariga o‘zining ta’sirini ko‘rsatdi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy siyosati zamonaviy nazariyalar ostida bo‘lib, bu nazariyalar amalda tartibga solish ikki tizimining konvergensiyasidan (qo‘shilib ketganligidan, aralashuvidan) iborat. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solishning ham keynschilik va ham neokeynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanadilar.

Sovet davlatida va sotsialistik oriyentatsiyada (yo‘nalishda) bo‘lgan barcha mamlakatlarda moliyaviy siyosat K.Marks (1818-1881) va V.I.Leninning (1870-1924) nazariy konseptsiyalari ta’sirida shakllandi. Sotsialistik davlatning mohiyati va funksiyalari haqidagi markscha-

lenincha nazariya sovet davlati moliyaviy siyosatining asosiy printsipini – moliyaviy markazlashtirishni – belgilab berdi.

Faqat davlatning ixtiyorida moliyaviy resurslar katta qismining to‘planishinigina (konsentratsiya qilinishinigina) emas, balki moliyaviy munosabatlarni tashkil etishda davlatning monopolligini (yakka hokimligini) ko‘zda tutivchi moliyaviy markazlashtirish zaruriyatga aylandi. Chunki davlatning funksiyalari shu qadar kengaytirildiki, ularning eng asosiylari xo‘jalik-tashkilotchilik va madaniy-tarbiyaviy funksiyalar bo‘lib qoldi.

Sovet davlati iqtisodiyot va sotsial sohaning ehtiyojlarini budjetdan to‘liq moliyalashtirdi. Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda davlatning roli keskin oshdi. Chunki iqtisodiy va sotsial rivojlanishning davlat rejalari yordamida u ijtimoiy faoliyatning barcha sohalariga bevosita rahbarlik qildi. Bu, albatta, xususiy mulk shakllarining davlat (umumxalq) mulkiga aylanishi bilan belgilanadi. Shunga muvofiq ravishda davlat MDni qayta taqsimlashning soliq shakllaridan ishlab chiqarish sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqsimlashga va Davlat budjeti orqali qayta taqsimlashga o‘tdi.

Moliyaviy markazlashtirish yana shunda namoyon bo‘ldiki, davlat bevosita va monopol ravishda baholarni shaklantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soldi. Shunday qilib, boshqaruv tizimini barcha qiymat elementlari butun ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarib turuvchi yagona ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga amalda birlashtirildi.

Bunaqangi moliyaviy siyosat bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi bo‘lgan ikkinchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga o‘tilishini, sovet davlati oldida turgan va faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelgan sotsial-iqtisodiy muamolarning yechilishini kafolatladi. Bu moliyaviy siyosatni yetarli darajada samarali bo‘lgan moliyaviy siyosat deyish mumkin. Chunki chor Rsssiyasidan, Fuqarolar urushidan, chet el harbiy intervensiyasidan meros bo‘lib qolgan favquloddagi murakkab moliyaviy vaziyatga qaramasdan fashistlar Germaniyasi bilan urush arafasida Sovet davlati

yetarli darajada kuchli iqtisodiy salohiyatni yaratishga muvaffaq bo‘ldi, urushda g‘alaba qozondi va qiyosiy qisqa muddatlarda urushdan vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini tikladi.

2. Jahon urushidan keyingi yillarda Sovet davlatining moliyaviy siyosati g‘arb mamlakatlari va eng avvalo, AQSH bilan qurollanish poygasi va kosmosni rivojlantirishdagi musobaqani (raqobatni) moliyaviy jihatdan ta’minlashga qaratildi.

Bir vaqtning o‘zida sotsialistik lager mamlakatlariga juda katta miqdordagi moliyaviy yordamlar ko‘rsatildi:

- ularning taraqqiyotida sotsialistik orientatsiyani (yo‘nalishni) ta’minlash uchun;
- sotsialistik mamlakatlarni sanoati rivojlangan mamlakatlarga aylantirish uchun;
- kuchli harbiy ittifoqchilarni shakllantirish va umuman mudofa qobiliyatini mustahkamlash uchun.

Bu maqsadlarga erishish uchun xom-ashyo bazasini va eng avvalo, neft va gaz qazib chiqarishni yuqori tezlashtirilgan sur’atlarda rivojlantirish talab etildi. Yangi qazilma-boyliklarini o‘zlashtirish (ularning geografiyasi shimoli-sharq tomonga qarab kengaya boshladi) juda katta miqdordagi moliya resurslarning bo‘lishini taqoza etdi. Chunki bu narsalar faqatgina yangi hududlarni o‘zlashtirish, o‘sha tumanlarga ishchi kuchining migratsiyasining (mehnatga haq to‘lashning oshirilgan normalari bilan birgalikda) zarurligi bilan kuzatilmasdan, balki neft va gaz quvurlarini qurish bilan birgalikda davom etdi. Xalqaro bozorda neft va gazning bahosi yuqori bo‘lib turgan paytlarda ularni eksport qilish xarajatlarni ma’lum darajada qoplagan edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bunday moliyaviy siyosatni amalga oshirish MDni tegishli tarzda qayta taqsimlanishini talab qildi. Buning natijasida mamlakatda harbiy-sanoat kompleksi taraqqiy etgan bir tomonlamali iqtisodiyot yaratildi.

Davlat tomonidan belgilangan maqsadlar nuqtai-nazaridan urushdan keyingi davrning moliya siyosati va uni amalga oshirish choralarini nosamarali deb aytish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Hukumat

dasturlarida aholi turmush darajasi oshganligining deklaratsiya qilinganligi, albatta, bu boshqa narsa. Shunday bo‘lishiga qaramasdan aholining turmush darajasi mehnatga haq to‘lashning darajasiga va qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va yengil sanoat, fuqarolik qurilishi va iste’mol predmetlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Agar harbiy-sanoat kompleksida (mamlakat aholisining kattagina qismi shu sohada band edi) mehnatga haq to‘lashning darajasi qiyosiy jihatdan yuqoriroq bo‘lishiga qaramasdan, hatto unga band bo‘lgan aholi ham o‘zining iste’mol talablarini qondirish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham iste’mol bozorining rivojlanishida ortda qolish urushdan keyingi davrda sovet davlati moliya siyosatining samaradorligini salbiy baholashning sababidir.

Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlashning negizida quyidagilarning yotishi printsipial ahamiyatga egadir:

- taqsimlash munosabatlarining subyektlarini tanlash, ya’ni moliyaviy resurslarning egalari va taqsimlovchilarini tanlash;
- yuridik shaxslar va aholining o‘z ehtiyojlarini qondirishdagi mustaqillik darajasi va davlatning funksiyalariga bog‘liq ravishda davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning markazlashtirilish darajasini aniqlash;
- birinchi darajali ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondirish choralarini aniqlash va shularga mos ravishda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishning manbalari va metodlarini tanlash.

Moliyaviy siyosat ko‘p o‘lchamli(dir) tushuncha hisoblanadi. Agar umumiy holda uning sohasi jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlarida hukmronlik qilgan nazariy konsepsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlarining elementlari bo‘yicha differentsiatsiya qilinishi

(tabaqalanishi) moliya tizimining rivojlan-ganligiga va uning ayrim (alohida) bo‘g‘inlarining mustaqilligiga bog‘liq bo‘ladi.

5.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari)

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari) quyidagilardan iborat:

- budjet siyosati;
- soliq siyosati;
- pul siyosati;
- kredit siyosati;
- baho siyosati;
- investitsion siyosat;
- sotsial moliyaviy siyosat;
- boj siyosati.

O‘z navbatida, moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy va sotsial siyosatini amalga oshirishning vositasi bo‘lib hisoblanadi va shu ma’noda yordamchi rolni o‘ynaydi. Bir vaqtning o‘zida davlat siyosatining boshqa – milliy, geosiyosat, harbiy – yo‘nalishlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak. Ana shu barcha besh yo‘nalishning (iqtisodiy, sotsial, milliy, geosiyosat, harbiy) yig‘indisi (majmui) davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatida xizmat qiladigan moliyaviy siyosatni aniqlab beradi.

Moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruvning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvning yuqori (oliy) organlariga tegishlidir. Mamlakatning subyektlari darajasida moliyaviy siyosat borasida qarorlarning qabul qilinish imkoniyatlari cheklangan va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari unchalik katta emas. Ularning bu funksiyalari budjet va mahalliy soliqlar bilan chegaralanadi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo‘nalishi) sifatida davlatning budjet siyosati, eng avvalo, har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va budjet jarayonida hamda qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa

qonunlar majmuiga muvofiq aniqlanadi. O‘zining hajmi va muhimligi jihatidan eng katta ish bo‘lishiga qaramasdan budjet siyosatini faqat budjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Qonun budjet jarayonida hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat subyektlari funksiyalarini, budjet federalizmi printsiplarini, budjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlarini va h.k.larni aniq belgilashi kerak. Biroq budjet siyosati shu bilan cheklanmaydi. Budjet siyosati budjetda konsentratsiya qilinadigan (to‘planadigan) YaIM hissasini aniqlashda, mamlakat yuqori va quyi organlarining o‘zaro munosabatlarida, budjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi budjetlar o‘rtasida xarajatlarni taqsimlashda, davlat qarzini boshqarishda, budjet defitsitini qoplash yo‘llarini aniqlashda va h.k.larda ifodalanadi.

Demokratik davlatda budjet qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o‘z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo‘lida konsentratsiya qilingan (to‘plangan) pul mablag‘larining harakati o‘z ifodasini topadi. Davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo‘naltirish budjet siyosatining ustuvorligini tashkil etadi. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta’minlaydigan mablag‘lardan ko‘p mablag‘ talab etsa, davlat qo‘shimcha daromadlarni shakllantirishning quyidagi favquloddagi usullarini qo‘llashga majbur bo‘ladi: ichki va tashqi kreditlar, milliy boylikni sotish, boylik va mol-mulkni ijaraga berish va kontsessiyalar. Budjetning daromadlar qismini to‘ldirishning favquloddagi choralari iqtisodiy mustaqillikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim qismi (yo‘nalishi) hisoblanadi. Besh yuz yildan ortiqroq vaqt mobaynida zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan munosabatini aniq belgilash imkoniga ega bo‘lgan. Bu munosabatlar quyidagilardan tashkil topadi:

- soliqlarsiz davlatning faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas;
- soliqli undirish qat’iy o‘sish tendensiyasiga ega;

- oqilona soliq ostonasidan o‘tilganidan so‘ng tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqtisodiyotning o‘z-o‘zidan buzilishi (yemirilishi) sodir bo‘ladi;
- tanazzul davrida soliqlar mumkin qadar minimal darajada o‘rnatil-mog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi;
- soliqning yuqori ostonasi kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq, summar o‘lchovlarda sof daromadning 30%dan ortiq qismining undirilishida mamlakatning iqtisodiy o‘sishi to‘xtaydi;
- soliq imtiyozlari ochiqlik xarakteriga ega bo‘lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun teng bo‘lishi kerak;
- soliq tizimi konfiskatsion xarakterga ega bo‘lmasligi lozim. Faqat, jumladan, individual daromadlarning o‘sishida ifodalangan milliy boylikning o‘sishi soliqqa tortiladigan bazaning (asosning) barqaror o‘sishini ta’minlashi mumkin;
- qonunlar va qoidalarning barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda soliqlarning summar o‘lchovi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Barqarorlik kafolati sifatida davlat o‘zining majburiyatlarini buzishni boshladimi, kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o‘tishni boshlab, budjetning daromadlar bazasini (asosini) qisqartiraveradi;
- soliq tizimi oddiy, ochiq va samarali bo‘lmog‘i lozim. Soliqlar sonini, soliqqa tortish obyektlarini ko‘paytirish, ko‘p bosqichli soliqlarni joriy etish soliqlarni undirish bo‘yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning o‘sishiga va pirovardida, mulkni qamoqqa olish, soliq to‘lovchini kasod deb e’lon qilish va h.k. yo‘llar orqali iqtisodiyotning yemirilishiga olib keladi;
- soliqqa tortish egri (bilvosita) tizimining ustuvorligi budjet daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa, oxir oqibatda, mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar

va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste’molchisi gardaniga (zimmasiga), ya’ni yashash minimumi darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega bo‘lgan aholining 80-90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste’molning nisbatan bir xil darajasiga asoslangan;

- egri (bilvosita) soliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda aholining asosiy qismidan jamg‘armalar olib qo‘yiladi va bu, o‘z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimining asoslarini buzadi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechgan AQSH tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir;
- egri (bilvosita) soliqlarni sog‘liq uchun zararli bo‘lgan tovarlar, zebu-ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar va boshqa bir qancha o‘ziga xos bo‘lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur;
- daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar soliq bazasining asosiysi bo‘lib hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak. Ularni proportsional soliqqa tortish printsiplariga asosan qurmoq lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy tashabbussiz va jamiyat barcha a’zolarining samarali mehnatisiz iqtisodiyotni tiklash murakkabligicha qolaveradi. Soliqlar bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag‘batlantirilishini (motivatsiya qilinishini) olib qo‘yadi, ya’ni mehnat daromad keltirishi lozim. Mamlakat iqtisodiyotiga soliq siyosatining ta’siri bevosita namoyon bo‘ladi – yuqori soliq ostonasi takror ishlab chiqarish jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqartiradi (toraytiradi), jamiyatda iste’mol darajasi pasayadi va bu narsa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat sektorlarining o‘sish bazalarining (asoslarining) pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo‘nalishlaridan) yana biri pul siyosatidir. Agar muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga (pulning aylanish tezligini hisobga olgan holda) mos kelmasa, pul massasining etmagan qismi qog‘oz pullar (pullarning surrogati) hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan to‘ldiriladi (tiklanadi). Va aksincha, agar pul massasi unga bo‘lgan talabdan ortiq

bo‘lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqishi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo‘ladi. Tabiiy ravishda, bu variantlarning barchasi mamlakatning qonunchiligiga ham bevosita bog‘liq – mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bo‘lishiga ruxsat beriladimi yoki yo‘qmi, milliy valyuta konvertatsiya qilinadimi yoki yo‘qmi? va h.k.

Tovarlar massasi cheklanganda pul emissiyasi boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Emissiya siyosati va milliy valyutaning barqarorligi pul siyosatining tarkibiy qismlaridir (yo‘nalishlaridir). Emission siyosat muomala uchun zarur bo‘lgan pulning miqdorini aniqlashdan tashqari yana boshqa bir yo‘nalishga ega. Bu yo‘nalish budjet daromadlarini ko‘paytirishdir. Ana shu yo‘nalish alohida ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki ma’lum bir miqdoriy chegaradan o‘tilganidan so‘ng pul tizimi inflyatsiyaga moyil (ta’sirchan) bo‘lib qoladi, ya’ni budjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo‘lishi mumkin. Agar qandaydir bir sabablarga ko‘ra davlat o‘z pul tizimini tartibga solishga qodir bo‘lmasa, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur etadi. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi turaolmaydi va milliy boylikdan mahrum bo‘lib qolish mumkin (o‘zaro hisobga olishlar, aktsiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali).

Kredit siyosati ham moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo‘nalishi) bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi mamlakatning krediti tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit tizimi ssuda kapitalining faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, ssuda kapitali takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishning muhim sharti hisoblanib, aylanma mablag‘larni to‘ldirish va investitsiyalar uchun mablag‘larning qarzga olinishini ta’minlaydi. Iqtisodiyotning kredit sektori o‘rtacha foyda normasini tenglashtirish uchun ham xizmat qiladi. Foiz stavkasining darajasi jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta’sir

ko‘rsatishi mumkin. U asossiz darajada yuqori bo‘lsa, quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- kreditlarning qaytarilmasligi;
- ishlab chiqarish sektori va xizmatlar sektorida mahsulotlar narxining o‘sishi;
- qarzga oluvchilar rentabellik darajasining pasayishi va buning oqibatida soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi;
- ishlab chiqarishning qisqarishi;
- takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining pasayishi natijasida ichki iste’mol bozorining torayishi.

Aksincha, kreditning arzonlashuvi ishlab chiqarishning sog‘lom-lashuviga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishiga va ana shularning natijasida esa, takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va buning oqibatida budjet daromadlarining ko‘payishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo‘nalishi) sifatida davlatning baho siyosati monopol tovar va xizmatlar bahosi va tarifining korrektivka qilinishi (o‘zgartirilishi) orqali ifodalanadi. Yer osti boyliklari, suv havzalari, temir yo‘llar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari davlatning monopol egaligidadir. Bu tarmoqlar tovarlari va xizmatlari bahosining o‘sishi (ortishi) milliy xo‘jalik barcha boshqa sektorlarida baholarning o‘sishiga olib keladi. Bu yerda bog‘lanish shunchalik ayonki, hech qanday izohga hojat yo‘q. Shuning uchun ham baho siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo‘nalishlaridan) biri bo‘lib, u eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga o‘z va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo‘yicha tadbirlar kompleksidan iborat. Bu siyosat davlat boshqaruvi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning turli darajalarida amalga oshiriladi. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomo-

nidan moliyaviy resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning “qochib” ketmasligi va aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi.

Sotsial moliyaviy siyosat Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat aholisining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta’minlash bilan bog‘liq. Hozirgi paytda bu siyosat, o‘z navbatida, pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim sotsial guruhlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish siyosati va boshqa siyosatlarni o‘z ichiga oladi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo‘nalishi) sifatida qarash bilan birgalikda uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida e’tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va bojlar (boj yig‘imlari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir vaqtning o‘zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos bo‘lgan usuliga ham egadir. Usulning o‘ziga xosligi shundaki, bu siyosat bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan esa, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag‘batlantirishi yoki unga to‘sqinlik qilishi mumkin. Masalan, mamlakatda o‘xshashi bo‘lmagan texnologik asbob-uskunani import qilishga 20% li boj yig‘imi o‘rnatilsa, bu narsa mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini kamaytiradi, ichki ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlarini pasaytiradi, import qilinadigan mahsulotlarning salmog‘ini oshiradi.

Har qanday mamlakatning boj siyosati bumerang harakatiga egadir. Chunki boj undirishning cheklovchi yoki rag‘batlantiruvchi stavkalarining joriy etilishi xuddi shunday javob choralarining qo‘llanilishi bilan kuzatiladi. Boj siyosati yo‘nalishining tanlanishi mamlakatning iqtisodiy ahvoliga mos kelishi kerak. Agar biz bugun oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj tovarlarining import qilinishiga bog‘liq bo‘lsak, bu boj stavkalarida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ammo boj stavkalari rag‘batlantiruvchi bo‘lsa, u holda mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilar xorijiy tovarlar bilan raqobat qila olmay qoladi.

Umuman olganda, aksariyat hollarda mamlakatning boj siyosati bojxona bojlari va to‘lovlarini oshirishga yo‘naltirilgan budjet siyosatiga bog‘liq bo‘ladi.

Xullas, moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari) ilmiy jihatdan asoslangan, ma’lum bir maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan, muvofiqlashtirilgan, takror ishlab chiqarish subyektlarining manfaatlariga zid bo‘lmaydigan bo‘lishi kerak. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat ichki va tashqi qarzlarining kamayishiga, davlatning oltin-valyuta zaxiralarining ortishiga, inflyatsiyani jilovlashga, budjet defitsitining kamayishiga, YaIM ko‘payishiga, mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining kuchayishiga olib kelmog‘i lozim.

5.3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Yaqin o‘tmishda mamlakatimiz iqtisodiy va sotsial taraqqiyotiga, ma’lum ma’noda, to‘sqinlik qilib qolgan moliyaviy siyosat yurgizildi. Buning ustiga shu davrlar mobaynida mamlakat taraqqiyotini ta’minlashda faol moliyaviy siyosatning roliga yetarlicha baho berilmadi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida va eng avvalo, iqtisodiy sohada moliyaviy munosabatlarning roli buzib ko‘rsatildi. Moliya va moliyaviy dastaklarning faol roli inkor etilib, moliyaviy siyosat talab etilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan zarur usullarni ishlab chiqishga ojizlik qilib qoldi. Rivojlanishning uzoq davriga mo‘ljallangan va ilmiy jihatdan asoslangan konseptsiyalarning ishlab chiqilmaganligi, kam samara beradigan, qisqa muddatli foyda olishni ko‘zlab amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni qiyin ahvolga olib keldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga yuz tutar ekan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, moliya va moliyaviy munosabatlarida ham chuqur

islohotlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi. Belgilangan strategik vazifalar davlatning taktik chora-tadbirlari asosida bajarila boshlandi.

Tovarlar va xizmatlarning mamlakatlararo harakatini tartibga solib turuvchi, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan boj siyosati ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Bu siyosat hozirgi kunda mamlakat ichki bozoriga past sifatli, inson salomatligiga putur yetkazuvchi tovarlarni kirib kelishini oldini olish va ilg‘or texnologiyalar, fan-texnika yutuqlari natijalarining mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishini rag‘batlantirish yo‘lidan og‘ishmay amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda moliyaviy siyosatning hozirgi kundagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat budjetidagi defitsitni yo‘l qo‘yilgan eng kam daraja doirasida (YaIMning 3-4%i atrofida) cheklashga yo‘naltirilgan qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish;
- davlat xarajatlarining birinchi navbatda iqtisodiyotdagi zarur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishning o‘sishini ko‘zlab yo‘naltirishni ta’minlash;
- ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish talablaridan kelib chiqqan holda, aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash, aholining konstitutsiya bilan kafolatlangan huquqlarini himoya qilishni ta’minlovchi moliyaviy bazani yaratish, erkin mehnat va ishbilarmonlik asosida aholi turmush darajasini ko‘tarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- ijtimoiy himoyaning adresli bo‘lishiga, moliyaviy mablag‘larning ijtimoiy yordamga haqiqatda muhtoj aholi qatlamlariga yetib borishini ta’minlash;
- Davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta’minlash;
- budjet intizomiga qat’iy rioya qilish;
- soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag‘batlantiruvchi ta’sirini kuchaytirish maqsadida:

-soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to‘plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘bat-lantiruvchi ta’sirini oshirish;

-korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, qo‘shilgan qiymat va foyda solig‘idan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish va shu asosda ishlab chiqarishni jonlantirishga turtki berish;

-soliq tushumlari tarkibini tubdan o‘zgartirish, resurslar, mol-mulk solig‘ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish.

- mahalliy budjetlarni shakllantirish manbalari bo‘lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o‘rtasida aniq chegara o‘tkazish;
- Davlat budjeti daromadlarini katta qismini joylarga beriktirish, mahalliy budjetlarning daromad manbalarini mustahkamlash;
- soliq siyosati belgilab bergan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etuvchi tegishli moliya-soliq mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz moliya siyosati muammolari qatoriga uning hayot (davr) bilan hamnafasligini ta’minlash, uning davlatimiz rivojlanishining o‘zgargan sharoitlariga tezda moslasha bilishini ta’minlash, o‘z echimini kutayotgan vazifalarni hal etish uchun kerakli usullarni o‘z vaqtida topa bilish, strategik kontseptual echimlarni ishlab chiqish, mablag‘larga qarab yashash talabiga rioya etilishini ta’minlash, fuqarolar ijtimoiy talab-ehtiyojlarini qondirishning moliyaviy bazasini (asosini) belgilashda qoldik yondashuvidan (usulidan) ijtimoiy xarajatlarning adresliligini ta’minlashga o‘tish kabi tadbirlar kiradi.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqilgan davlat moliya siyosati konseptsiyasining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini butun choralar bilan oshirish asosida jamiyat a’zolarining turmush farovonligi darajasini ta’minlashdan iborat. Moliya strategiyasining ijtimoiy yo‘naltirilganligi xalq farovonligini oshirishga yuboriladigan moliya resurslarini ko‘paytirish imkoniyatlarini qidirib topishda namoyon bo‘libgina qolmay, balki iqtisodiy siyosatning bosh maqsadiga butunlay yangicha yondashuvda

ham namoyon bo‘ladi va endilikda aholi turmush darajasi va ishlab chiqarishning o‘sishini moliya resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Ijtimoiy himoya, birinchi navbatda, kam ta’minlangan fuqarolarni, shuningdek, budjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni ham nazarda tutadi. Ijtimoiy himoya, eng avvalo, daromadlarni indeksatsiyalash vositasida (yordamida), ya’ni, budjet mablag‘lari hisobiga, ba’zan esa kompensatsiyalarni iste’mol indeksiga mufoviq oshirish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy sohasiga moliyaviy ta’sir o‘tkazishning asosiy uslublari bo‘lib, soliq solish, moliya resurslaridan mohirona va oqilona foydalanish, moliyalashtirish, moliya bozori va boshqalar hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyot hozirgi bosqichining moliya siyosati moliya strategiyasi talablari asosida va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Xo‘jalik yuritishning turli-tuman shakllaridan foydalanish jamoat talab-ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish, resurslarni tejash, mahsulot assortimenti va texnika bazasini yangilash, mehnat jamoalarining ijtimoiy muammolarini hal etishi yo‘lida raqobatni rivojlantirish, tashabbuskorlik ko‘rsatish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltiriladigan moliya resurslarining o‘sishiga, eng avvalo, rentabelli faoliyat ko‘rsatish orqali erishiladi. Biroq siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoit o‘zgarishi bilan davlat xarajatlari doimo o‘sib boradi. Shu munosabat bilan hozirgi moliya siyosati davlat moliya resurslarining muntazam o‘sishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni nazarda tutadi.

Budjetga tushayotgan to‘lovlar hajmini oshirishning zarurligi xo‘jalik bo‘g‘inlarining ishchan faolligini jonlantirishga qaratilgan moliya siyosatining hayotga tatbiq etilishini talab qiladi.

Moliyaviy siyosatni faollashtirish maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash amaliyotini tubdan o‘zgartirish katta ahamiyatga ega. Budjet vositasida, shuningdek, yuqori tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan «vertikal» uslubga qarama-qarshi moliyaviy resurslarni

moliya bozori orqali «gorizantal» qayta taqsimlash ham borgan sari yanada keng rivoj topadi. Mablag‘larning o‘tkazib turilishi esa moliyaviy resurslardan talab va taklifdan kelib chiqqan holda foydalanishni nazarda tutadi.

Moliya bozorining rivojlanishi munosabati bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun aholi, korxona va tashkilotlarning pul daromadlari va jamg‘armalarini jalb etish zarur. Shu munosabat bilan Davlat obligatsiyalari va xazina biletlarini chiqarish ham davlat resurslarining hajmini ko‘paytiradi.

Moliyaviy siyosat real moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi zarur. Sarflar (xarajatlar) moliya resurslarining ko‘payganidagina o‘sishi mumkin. Bu, eng avvalo, ishlab chiqarishni moliyalashtirishni bildiradi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosat-ning hamma tadbirlari, bir tomondan, aholiga o‘z daromadlarini oshirish imkoniyatini berish, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirpsh uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilishi kerak.

Moliyaviy siyosatning tubdan o‘zgarishiga mos ravishda moliya mexanizmi ham qayta qurilmog‘i lozim. Moliya mexanizmini qayta qurishning maqsadi bozor munosabatlari asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga uning ta’sirini kuchaytirish, moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni ta’minlashdir. Moliya mexanizmini qayta qurish negizida korxona, tashkilotlar ishining yakuniy natijalarini yaxshilash uchun xo‘jalik tashabbuskorligi va mas’uliyatini butun choralar bilan kuchaytirish talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyotida korxonalarning ishlab chiqarish omillaridan iloji boricha yaxshiroq foydalanishdan manfaatdorligini oshirish uchun alohida moliyaviy uslublardan foydalanish zarurati yo‘qoladi. Bozor raqobati korxonalarni ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy resurslardan foydalanish ustidan ichki xo‘jalik moliya nazoratini chuqurlashtirish haqida doimo g‘amxo‘rlik qilishga majbur qiladi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida davlat tomonidan bozor munosabatlarini moliyaviy boshqarishning ahamiyati ham oshadi. Moliyaviy boshqarish korxonalarga soliq solish, qo‘shimcha soliqlarni (masalan, eksport va

import solig‘ini) kiritish, mehnatkashlar daromadlariga soliq solish, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish vositasida amalga oshiriladi. Xo‘jalik shartnomalari ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat parametrlarini buzganlik uchun, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablarning sanitariya norma va qoidalariga rioya qilmaslik uchun moliyaviy jarimalar tizimiga talabchanlik oshiriladi. Davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmaslik yoki to‘liq bajarmaslik, foyda va boshqa soliq solish obyektlarini yashirganlik uchun jarima (sanksiya)larning darajasi va miqdori kuchaytiriladi. Auditorlik moliya nazorati keng rivoj topmog‘i lozim.

Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida ijtimoiy soha muassasalari va tashkilotlarida yangi xo‘jalik mexanizmi joriy etilgan. Ijtimoiy soha muassasalariga pulli xizmat ko‘rsatish, xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanish, olingan daromadlarni mustaqil tasarruf etish huquqi berilgan.

Davlat moliya mexanizmiga tub o‘zgarishlar kiritildi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq asosiga o‘tkazildi, budjet buromadlari tarkibi va budjetdan moliyalashtirish tizimi butunlay o‘zgardi. Budjetdan tashqari jamg‘armalar tizimi keng tarqaldi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi mulkiy va shaxsiy sug‘urtani tashkil etish va boshqarish sohasida ijobiy natijalarga olib keldi: kooperativ (shirkat) sug‘urtasi rivojlanyapti, aksionerlik sug‘urta jamiyatlari vujudga kelyapti, sug‘urtaning yangi turlari paydo bo‘layapti.

Moliya mexanizmini qayta qurish jarayoni tegishli bazani (asosni) yaratish bilan birga sodir bo‘layotir. Oxirgi yillarda moliyaviy faoliyatning huquqiy asoslarini yaratadigan qator qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

12.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015-y.

13. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018-yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

15. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

16. T.S.Malikov. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

17. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

18. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

6-MAVZU: MOLIYAVIY BOSHQARUV

6.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati

“Boshqaruv” atamasi umumiy tarzda obyektni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida unga ongli ravishda ta’sir ko‘rsatishni anglatadi. Moliya tizimi doirasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash har doim ma’lum bir maqsadlarga yerishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu narsa ma’lum bir tarzda boshqaruv sxemasini tashkil etishni taqazo etadi. Shu ma’noda va eng umumiy ko‘rinishda boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga maqsadga yo‘naltirilgan ta’siri boshqaruv deyiladi.

Davlat jamiyatning sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni sog‘lomlashtirishga (normallashtirishga) qaratilgan munosabatlar tizimini takomillashtirishi va bu resurslarning samarali hamda oqilona foydalanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi kerak. Ana shu vazifani (muammoni) bajarish (yechish) moliyaviy boshqaruvning zimmasiga yuklatilgan.

Moliyaviy boshqaruv murakkab jarayon bo‘lib, boshqariladigan (obyektlar) va boshqaruvchi (subyektlar) tizimlarning yagonaligidan iboratdir. Boshqaruvchi tizim, bu yerda moliyaviy institutlarning (tashkilotlarning) to‘plamidan (majmuidan) iborat bo‘lgan moliya tizimini nazarda tutsa, boshqariladigan tizim esa pul munosabatlari to‘plamidan (majmuidan) iborat bo‘lgan moliya tizimini o‘z ichiga oladi. Bunda moliyaviy boshqaruv jarayoni bir xil tarzda bo‘lmasdan, u bir tomondan, faqat obyektlarni boshqarishni emas, balki ikkinchi tomondan, boshqaruv subyektlarini tashkil qilishni va ular faoliyatini takomillashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy boshqaruvning obyekti sifatida moliyaviy munosabat-larning turli ko‘rinishlari, shu jumladan, davlatning sotsial tuzumi (tuzilishi), mamlakatdagi siyosiy kuchlarning joylashishi (nisbati) va qayta taqsimlash jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa omillar bilan belgilanadigan o‘ziga xos bo‘lgan moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi. Davlat moliyasi, mahalliy moliya va xo‘jalik yurituvchi

subyektlar moliyasida moliyaviy boshqaruvning subyekti bo‘lib moliyaviy apparat deb nomlanuvchi maxsus xizmatlar hisoblanadi.

Davlatning xo‘jalik yurituvchi subyektlar va uy xo‘jaliklari bilan moliyaviy munosabatlar sohasidagi o‘zaro munosabatlari soliq tizimi, kredit munosabatlarini reglamentatsiya qilish (tartibga solish), moliya bozorini tartibga solish, davlatning qo‘llab-quvvatlash tizimi, pensiya ta’minoti tizimi, ishlovchi aholining daromadlarini tartibga solish mexanizmi va h.k.lar orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvning maqsadi makroiqtisodiy muvozanatda, budjet profitsitida, davlat qarzining kamayishida, milliy valyutaning barqarorligi va mustahkamligida va nihoyat, davlat va jamiyat barcha a’zolari iqtisodiy manfaatlarining yagonaligida (mushtarakligida) namoyon bo‘ladigan moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni ta’minlashdir. Shunga monand ravishda uning asosiy metodologik prinsiplari quyidagilardan iborat:

- pirovard maqsadga bog‘liqlik;
- xo‘jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy muvozanatliligi;
- jamiyat barcha a’zolarining manfaatlariga mos kelish;
- iqtisodiy qonunlardan foydalanish;

real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy boshqaruvning konkret metodlari va shakllari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- moliyaviy rejalashtirish;
- bashoratlash (prognozlashtirish);
- dasturlashtirish;
- moliyaviy tartibga solish;
- moliyaviy nazorat;
- moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilish;
- moliyaviy resurslarni jalb qilish metodlari tizimi.



7-rasm. Moliyaviy boshqaruv tizimi.

6.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari

Moliya tizimini umumiy boshqarish mamlakatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi boshqaruv organlaridan tashkil topishi mumkin:

- Prezident va Prezident devoni;
- Oliy Majlis va moliya, budjet, soliq va bank masalalari bo‘yicha Oliy Majlis har ikki palatasining tegishli qo‘mitalari;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Hisob palatasi;
- Moliya vazirligi va uning quyi (joylardagi), jumladan, G‘aznachilik tizimi organlari;
- Markaziy bank;
- Davlat soliq qo‘mitasi;
- Davlat bojxona qo‘mitasi;
- Nobudjet fondlarning ijroiya direktsiyalari va boshqalar.

Mamlakat Prezidenti (Prezident devoni) moliya tizimining faoliyatini reglamentatsiya qiladi (tartibga soladi), mamlakat budjetini imzolaydi, Parlament tomonidan qabul qilingan moliyaviy qonunlarga “veto” qo‘yish huquqiga ega.

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo‘lgan Oliy majlis soliqlar, yig‘imlar, nosoliqli to‘lovlarni belgilaydi (o‘rnatadi), Davlat budjetini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Soliq kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Bir vaqtning o‘zida davlat ichki va tashqi qarzining tegishli (chegaraviy) darajasini belgilash (o‘rnatish) ham Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi sifatida Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetini ko‘rib chiqadi, moliyaviy boshqaruvning yagona umumiy markazi sifatida maydonda gavdalanadi.

Davlat moliyaviy nazorat organi sifatida Hisob palatasi moliyaviy boshqaruvga oid quyidagi vazifalarni bajaradi:

- hajmi va maqsadga mo‘ljallanganligi bo‘yicha Davlat budjeti va nobudjet fondlari daromadlar va xarajatlarining o‘z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;
- davlat mablag‘larining sarflanish va davlat mulkidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini aniqlash;

- Davlat budjeti va nobudjet fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanishga ta’sir ko‘rsatadigan yoki xarajatlarning Davlat budjeti hisobidan qoplanishini ko‘zda tutayotgan davlat hokimiyatining qonunlari va normativ-huquqiy aktlarini moliyaviy ekspertiza qilish;
- Davlat budjetining ijrosi va amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarining natijalari to‘g‘risida Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga doimiy ravishda ma’lumotlarni taqdim etish va boshqalar.

Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi Moliya vazirligi va uning joylardagi organlari hisoblanadi. U mamlakat miqyosida yagona moliyaviy, budjet, soliq va valyuta siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi. Moliya vazirligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yagona davlat moliya siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- Davlat budjetining loyihasini tuzish va uning ijrosini ta’minlash;
- budjet mablag‘lari va nobudjet fondlar mablag‘larining oqilona va maqsadli ishlatilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;
- davlat moliyasining barqarorligini ta’minlash va moliyaviy bozorni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni ko‘rish;
- mamlakatning budjet tizimini takomillashtirish, bu borada tegishli takliflarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish choralarini ko‘rish;
- mamlakat sotsial-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalish-lariga moliyaviy resurslarni konsentratsiya qilish (to‘plash);
- Davlat budjeti va jamlanma (konsolidatsiya-lashtirilgan) budjet-ning ijrosi haqida hisobotni tayyorlash;
- davlat tomonidan qarzlarni olish dasturini ishlab chiqish va davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish;
- uzoq, o‘rta va qisqa muddatli istiqbolga mo‘ljallangan mamlakat taraqqiyotining sotsial-iqtisodiy bashoratlarini ishlab chiqishga ishtirok etish;

- iqtisodiyotni moliyaviy sog‘lomlashtirish va uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, mamlakatdagi tovar ishlab chiqaruvchilar, ishlar va xizmatlarni bajaruvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda qatnashish;
- mamlakatdagi pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari, iqtisodiyotdagi hisob-kitoblar va to‘lovlarning ahvolini yaxshilash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- faol investitsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirishga yo‘naltirilgan choralarni ishlab chiqish, davlat investitsiya dasturlari va mamlakat Taraqqiyot budjetini ishlab chiqish va moliyalashtirishga qatnashish;
- moliyaviy rejalashtirish va milliy xo‘jalikni moliyalashtirish sohalarida metodik (uslubiy) rahbarlikni amalga oshirish;
- mamlakat moliyaviy resurslar balansini ishlab chiqishda (Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda) faol ishtirok etish;
- moliyaviy intizom buzilganda moliyalashtirishni cheklash yoki umuman to‘xtatib qo‘yish;
- va boshqalar.

Hozirgi paytda Moliya vazirligining markaziy apparatida quyidagi bosh boshqarmalar va boshqarmalar bo‘lishi mumkin:

- davlat budjeti bosh boshqarmasi;
- valyuta aktivlari va majburiyatlari bosh boshqarmasi;
- hududlar moliyasi bosh boshqarmasi;
- agrosanoat majmuini moliyaviy tartibga solish bosh boshqarmasi;
- ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqarmasi;
- nazorat-taftish bosh boshqarmasi;
- investitsiyalar boshqarmasi;
- iste’mol bozori va xizmat ko‘rsatish sohalarini moliyaviy hamda narx orqali tartibga solish boshqarmasi;
- boshqaruv organlarini moliyalashtirish boshqarmasi;
- soliq siyosati boshqarmasi;

- buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi;
- qimmatli qog‘ozlar va moliya bozori boshqarmasi;
- moliya institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi;
- sanoatning bazaviy tarmoqlari va yoqilg‘i-energetika majmui moliyasi boshqarmasi;
- mudofaa majmui, huquq-tartibot organlari va boshqa sohalarni moliyalashtirish boshqarmasi va boshqalar.

Moliya vazirligining muhim bo‘linmasi G‘aznachilik tizimi bo‘lib, u davlat budjetining kassa ijrosini ta’minlashda mas’uldir. Moliyaviy boshqaruvga bevosita daxldor bo‘lgan G‘aznachilik tizimining asosiy vazifalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mamlakat budjetining ijrosini tashkil qilish, amalga oshirish va nazorat qilish;
- kassaning yagonaligi printsipidan kelib chiqib, Xazinachilikning bankdagi hisob varaqlarida bo‘lgan budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish;
- davlat nobudjet fondlarining moliyaviy ijrosini ta’minlash;
- davlat moliyaviy resurslarining hajmlarini qisqa muddatli bashoratlash va ularni operativ boshqarish;
- Markaziy bank bilan birgalikda davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish va unga xizmat qilish (ko‘rsatish);
- budjet bo‘yicha hukumatning moliyaviy operatsiyalari to‘g‘risida va shuningdek, mamlakat budjet tizimining ahvoli to‘g‘risida qonunchilik va ijroiya organlariga hisobotni taqdim etish;
- va boshqalar.

Mamlakatning Markaziy banki moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynab, u Xazinachilik tizimi organlari bilan birgalikda budjetning kassa ijrosini ta’minlaydi va boshqa kredit institutlarining faoliyatini nazorat qiladi.

Moliyaviy boshqaruv tizimida Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari ham muhim rol o‘ynab, ular yordamida soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, ularning tegishli budjet

fondlariga to‘liq va o‘z vaqtida o‘tkazilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy boshqaruvga oid Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- budjetga va nobudjet fondlarga soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida o‘tkazilishi masalalari bo‘yicha moliyaviy qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini nazorat qilish;
- soliq to‘lovchilarni hisobga olish va ularni tekshirish;
- moliya organlariga va xazinachilikka soliqlar va boshqa to‘lovlarning haqiqatdagi tushumlari to‘g‘risida har oyda ma’lumot taqdim etish;
- ortiqcha to‘langan soliq summalarini va soliq to‘lovchilardan noto‘g‘ri undirilgan jarima va penyalarni egalariga qaytarish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirish;
- va boshqalar.

Davlat bojxona qo‘mitasi va uning tegishli organlari moliyaviy boshqaruv tizimida o‘ziga xos bo‘lgan o‘ringa ega. Ular bojxona bojlarining o‘z vaqtida tushishi uchun mas’ul hisoblanadi va bu borada quyidagi asosiy vazifalar ularning zimmasiga yuklatilgan:

- bojxona organlari tomonidan undiriladigan soliqlar bo‘yicha soliq tekshiruvlarini amalga oshirish;
- bojxona organlari tomonidan undiriladigan soliqlarni hisoblash vato‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni tekshirish;
- soliq qonunchiligini buzganligi yoki unga to‘liq rioya qilmaganligi uchun soliq to‘lovchilarning bankdagi operatsiyalarini to‘xtatib turish;
- soliq qonunchiligida ko‘zda tutilgan jarima va boqimandalarni undirish va boshqalardir.

6.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish

Korxonalarning jamg‘armalari, daromadlari hamda markazlash-tirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy resurslar fondlarini shakl-lantirish va ulardan foydalanish jarayonidagi pul mablag‘larining

miqdoriy va sifat jihatidan harakatiga moliyaviy oqim deyiladi. Moliyaviy oqimlarning hajmi ular asosida shakllanishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar fondlarining o‘lchamiga bog‘liq. Mamlakatning iqtisodiy (moliyaviy) qudrati qancha kuchli bo‘lsa, uning o‘sishiga xizmat qiluvchi moliyaviy resurslar fondi va moliyaviy oqimlar hajmi shuncha katta (hajmli) bo‘ladi.

Moliyaviy oqimlarning sifat jihatdan tavsifnomasi ular shakllantiruvchi moliyaviy resurslar fondining nimaga mo‘ljallanganligi bilan bevosita bog‘liq. Masalan, soliqli moliyaviy oqim bilan korxonaning tushumini shakllantiruvchi moliyaviy oqim sifat jihatidan bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ham ularni boshqarish metodlari ham turlichadir. O‘zining sifat mazmuniga ko‘ra quyidagilarni farqlash maqsadga muvofiq:

- budjetli-soliqli moliyaviy oqimlar - barcha darajalardagi budjetlarning mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladi.
- tijorat (tijoriy) moliyaviy oqimlari–tadbirkorlik xo‘jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi;
- nobudjet moliyaviy oqimlar–notijorat tashkilotlarining fondlarini shakllantiradi.

Moliyaviy oqimlarni boshqarishning funksiyalari quyidagilardan iborat:

- qonunchilik – Oliy Majlisning vakolatida;
- nazoratchilik (tartibga soluvchanlik) – Hisob palatasi va mamlakatning boshqa nazorat organlari (Moliya vazirligi, soliq va bojxona qo‘mitalari va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi.
- boshqaruvchanlik – korxona va korporatsiyalar, banklar, soliq organlari, G‘aznachilik apparati va Moliya vazirligining hisob-kitob-kassa va boshqa xizmatlarining vakolatida.
- nadzorchilik (nazorat-kuzatuv) – korxonalarning moliyaviy jihatdan kasodga uchraganligigi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radigan va bu holda moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi arbitrajlik sudlari tomonidan bajariladi.

Moliyaviy oqimlarni boshqarish bo‘yicha yuqoridagi organlarning funksiyalari bir-biri bilan qo‘shilib ketib, ularni har doim ham ajratib (alohida qilib) bo‘lmaydi.

Agar moliyaviy oqimlar moliyaviy resurslar aylanishining qonuniyatlariga muvofiq ravishda, ko‘zda tutilgan tartibda (rejimda) va rejada aks ettirilgan hajmda, ishlab chiqarish va sotsial vazifalarni samarali yechish uchun kerak bo‘lgan tarzda va takror ishlab chiqarish tsiklini pul mablag‘lari bilan to‘liq ta’minlash tarzida amal qilsa, bularning barchasi, moliyaviy oqimlarning samarali ekanligidan dalolat beradi.

Moliyaviy oqimlarning samaradorligi pul mablag‘larining yetarli bo‘lmagan hajmda va o‘z vaqtida tushmaganligida pasayadi. Moliyaviy oqimlar ritmining buzilishi resurslarning doiraviy aylanishi va daromadlarning olinishida uzilishlarning bo‘lishiga, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda keskin yo‘qotmalarning bo‘lishiga olib keladi. Moliyaviy oqimning samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\mathbf{K_s = H_{mo} : R_{mo}}$$

Bu yerda:

K_s – moliyaviy oqim samaradorligining koeffitsiyenti;

H_{mo} – davriy koeffitsientga o‘zgartirilgan (korrektirovka qilingan) haqiqatdagi moliyaviy oqim;

R_{mo} - rejadagi moliyaviy oqim.

Moliyaviy oqimlar moddiy resurslarning uchrashma harakatini o‘zida aks ettiradi. Ular orqali iqtisodiyotning makro- va mikroda-rajalarida (korxonalar, firmalar, korporatsiyalar va boshqalarda) mulkdan foydalanishning holati, dinamikasi va samaradorligi nazorat qilinadi.

Tushumlar va boshqa pul mablag‘larining kelib tushishini (oqib kelishini) aks ettiradigan moliyaviy oqimlar ijobiy oqimlar deyiladi. Aksincha, pul mablag‘larining oqib ketishini xarakterlaydigan

moliyaviy oqimlar salbiy oqimlar deyiladi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun ijobiy moliyaviy oqimlar salbiy moliyaviy oqimlardan ancha yuqori bo‘lishi kerak. Bunday sharoitda korxonaning ixtiyorida qoluvchi pul mablag‘larining o‘lchamini aks ettiruvchi sof moliyaviy oqimning bo‘lishi ta’minlanadi. Sof moliyaviy oqim korxona moliyaviy salohiyatining o‘sish, ular daromadlarining kapitalizatsiyalashuvi darajasini aniqlash, investitsion va innovatsion imkoniyatlarining manbai bo‘lib hisoblanadi.

Korxona va korporatsiyalar sof moliyaviy oqimining o‘sishi ular rentabelligi va investitsion samaradorligini oshirish imkoniyatlarini xarakterlaydi hamda moliyaviy ahvolini mustahkamlashning muhim shart-sharoiti hisoblanadi.

Makrodarajada moliyaviy ahvolni xarakterlaydigan quyidagi bir necha ko‘rsatkichlar mavjud:

- bir ishlovchi to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilgan YaIMning miqdori;
- inflyatsiya darajasi va dinamikasi;
- davlat budjetining ahvoli (defitsit, profitsit);
- oltin valyuta zaxiralarining miqdori va dinamikasi.

Davlatning moliyaviy ahvoli mamlakat sotsial-iqtisodiy kompleksi faoliyatining natijasidir. Jahon taraqqiyoti tendentsiyalarining ko‘rsatishicha, hozirgi sharoitda davlat moliyaviy ahvolini mustahkamlashning asosiy joriy va istiqboldagi rezervi ijtimoiy intellektning (sotsial kapitalning) to‘planishi (jamg‘arilishi) va uni iqtisodiy o‘sishning innovatsion-investitsion strategiyasida foydalanish jarayonida samarali moddiylashtirish hisoblanadi. Sotsial xarakterdagi muammolarni (maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat va boshqalarni) hal etish, turmush tarzining (hayotning) sifat darajasini oshirish bilan birgalikda, iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omili va buning oqibatida esa, mamlakat joriy va istiqboldagi salohiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Davlat qarzlarini o‘z vaqtida qaytarish (uzish) davlatning moliyaviy ahvolini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Murakkab moliyaviy vaziyatda davlat defolt, ya’ni bir tomonlama

tartibda qabul qilingan xalqaro moliya-kredit majburiyatlardan bosh tortish e’lon qilishi mumkin. Bir vaqtning o‘zida davlat qarzlarini restrukturizatsiya qilish va uning qaytarilish muddatlari bo‘yicha kreditorlar bilan muvofiqlashtirilgan holda choralarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish kerak.

Korxonalar, firmalar va korporatsiyalar darajasida moliyaviy ahvol to‘lovga qobillilik bilan, ya’ni bozor iqtisodiyotining boshqa subyektlari va soliq organlari oldida moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida uzish imkoniyati bilan xarakterlanadi. To‘lovga qobillik bu korxona barcha pul aktivlari (Pa) va to‘lov muddati kelgan (yoki o‘tgan) moliyaviy majburiyatlar (Mm) o‘rtasidagi nisbat demakdir. Sog‘lom ishlayotgan korxonalar uchun to‘lovga qobillik koeffitsiyenti (TQK) doimo birdan yuqori (katta) bo‘lishi kerak:

$$TQK = \frac{P_a}{M_m} \succ 1$$

Korxonaning moliyaviy holatini aniqlash uchun likvidlilik, aylanma aktivlarning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi va boshqa shu kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Ma’lum bir aniq sanada va isqtiqbolda korxona to‘lov majburiyatlari va uning moliyaviy imkoniyatlari o‘lchamini balanslashtirishning asosiy metodi moliyaviy oqimlar budjetidir (balansidir). U o‘z ichiga korxona ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag‘lari va korxona tomonidan sarflanadigan pul mablag‘larini oladi. Bu narsa doimiy ravishda korxona pul mablag‘larining harakatini nazorat qilish, ular dinamikasini baholash va bashoratlash imkonini beradi. Ana shunday budjet asosida korxonaning to‘lovga qobilligini boshqarish amalga oshiriladi.

Moliyaviy oqimlar budjeti bu korxona to‘lovga qobilligining kengaytirilgan koeffitsienti, demakdir. Agar uning chap tomoni (daromadlar qismi) o‘ng tomoniga teng yoki undan katta bo‘lsa, unda korxona to‘lovga qobildir. Agar uning o‘ng tomoni (xarajatlar qismi)

chap tomonidan oshsa, u holda korxona to‘lovga qobil emas hisoblanadi. Moliyaviy oqimlar budjeti (balansi) pul mablag‘larining tushilmalari va ularning sarflanish yo‘nalishlari bo‘yicha bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan rejali-istiqbolli hisob-kitoblar tizimidan iborat bo‘lib, u budjetlashtirish tizimiga (sotuvlar budjeti, to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va egri (bilvosita) xarajatlar budjeti, investitsion budjet va boshqalardan) asoslanadi.

Moliyaviy oqimlarning miqdoriy va sifat tavsifnomalari orqali korxonaning faoliyati ifoda-lanadi. Ular ishlab chiqarish barcha omillari harakatining qiymatdagi ifodasidan iboratdir. Menejmentda sifat jihatdan farqlanuvchi boshqaruv tizimi - korxonani moliyaviy boshqarish tizimi shakllandiki, bu narsa moliyaviy oqimlar orqali ishlab chiqarish, mahsulot realizatsiyasi, resurslarning aylanuvchanligi, xara-jatlar, rentabellik va boshqa jarayonlarning boshqarilishini ko‘zda tutadi.

Moliyaviy oqimlar budjeti bu haqiqatda turli davriy muddatlarda hisoblanadigan korxonaning moliyaviy rejasidir. Turli davrlar uchun (kunlik, dekadalik, oylik, choraklik, yillik va uzoq istiqboldagi) moliyaviy oqimlarning bashoratli budjetlarini tuzish korxonaning to‘lovga qobillik darajasini oshirishga imkon beradi va kelajakda uning moliyaviy holati barqarorligini ta’minlaydi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

19. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015-y.

20. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

21. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

23. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

24. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

25. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

26. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

7-MAVZU: MOLIYAVIY NAZORAT

7.1. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, obyekti, predmeti, tizimi, vazifalari, printsiplari

Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga obyektiv xos bo‘lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo‘lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo‘nalishda (aspektda) qaraladi:

- barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qattiq reglamentatsiya qilingan (tartibga solingan) faoliyati;
- moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta’minlash maqsadida makro- va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elenmenti.

Moliyaviy nazoratning har ikki yo‘nalishi (aspekti) bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, nazoratning maqsadi, metodi va subyektlariga muvofiq ravishda farqlanadi ham. Agar birinchi holda nazoratning huquqiy va miqdoriy tomonlari ustunlik qilsa, ikkinchi holda moliyaviy nazoratning analitik tomoniga juda katta e’tibor beriladi.

Barcha iqtisodiy subyektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o‘z ichiga oladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo‘lishining baholashni o‘z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o‘zining analitik yo‘nalishiga (aspektiga) egadir.

Moliyaviy nazorat qiymat shaklida amalga oshiriladigan nazorat bo‘lganligi uchun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida amalga oshiriladi va pul fondlari harakatining barcha jarayonlarida, shu jumladan, moliyaviy natijalarni idrok etish jarayonida ham kuzatiladi. Shuning uchun ham moliyaviy nazoratning obyekti pul munosabatlari hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratning predmeti quyidagi moliyaviy ko‘rsatkich-lardan iborat:

- turli darajadagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari;
- soliq to‘lovlarining hajmlari (miqdorlari, o‘lchamlari);
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning daromadlari;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning muomala xarajatlari;
- tannarx va foyda;
- uy xo‘jaliklarining daromadlari va xarajatlari va boshqalar.

Moliyaviy nazoratning predmeti hisoblangan yuqoridagi ko‘satkichlarning ko‘plari hisobli ko‘rsatkichlar hisoblanadi va bu narsa, o‘z navbatida, ularning amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq ravishda hisoblanishining to‘g‘riligi va ishonchliligini tekshirishni (nazorat qilishni) taqoza etadi.

Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli bo‘lib xizmat qiladi. U ham davlatning va ham boshqa barcha iqtisodiy subyektlarning manfaatlari va huquqlarini ta’minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat, bir tomondan, o‘zaro ta’sirchan va ikkinchi tomondan, alohidalashgan (mustaqil bo‘lgan) ikki sohaga bo‘linadi[28]:

- davlat moliyaviy nazorati;
- nodavlat moliyaviy nazorati.

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv konkret organlari

[28] Ayrim iqtisodchi olimlarning fikricha, moliyaviy nazorat tizimi o’z ichiga quyidagilarni oladi: davlat moliyaviy nazorati; kontragentlar bilan moliyaviy-hisob-kitob munosabatlari jarayonidagi nazorat; nodavlat moliyaviy nazorati. (Qarang: Finansi, nalogi i kredit. Uchebnik. Izd. 2-e, dop. i pererab. /Pod red. d.e.n., prof. I.D.Matskulyaka. – M.: Izd-vo RAGS, 2007. s.23).

iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo‘naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitut-siyasi hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning sotsial-siyosiy yo‘naltirilganligiga, iqtisodiy tarqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog‘liq.

Davlat moliyaviy nazorati YaIM taqsimlanishining qiymat proporsiyalarini kuzatishga qaratilgan. Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to‘liq va o‘z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga (tarqatiladi) tegishli hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliya siyosatini amalga oshirishga va moliyaviy barqarorlik uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi budjetlar va nobudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar umummilliy iqtisodiy manfaatlar bilan belgilangan (aniqlangan) bo‘lsa, davlat moliyaviy nazoratchilari ham davlat sektorida va ham xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga egadir. Biroq iqtisodiyotning nodavlat sektorida davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat faqat soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ham qo‘shib olgan holda davlat oldidagi pul majburiyatlarining bajarilishi sohalarini, ularga ajratilgan budjet subsidiyalari va kreditlarini sarflashda maqsadga muvofiqlilik va qonuniylikning rioya qilinishi va shuningdek, hukumat tomonidan o‘rnatilgan (belgilangan) pul hisob-kitoblarini tashkil qilish, buxgal-teriya hisobi va hisobotni yuritish qoidalariga rioya etilishini qamrab oladi.

Nodavlat moliyaviy nazorati ikkiga bo‘linadi: ichki (firma ichidagi, korporativ) va tashqi (auditorlik).

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari (ko‘rinishlari, turlari) nazoratni amalga oshirish metodlarining o‘xshashligiga qaramasdan, o‘zlarining pirovard maqsadlari bo‘yicha bir-biridan

tubdan farq ham qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo‘lsa, bunga qarama-qarshi ravishda nodavlat moliyaviy nazoratning (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazoratning) bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bir vaqtning o‘zida moliyaviy nazoratning har ikki sohasi amaldagi qonunlarning huquqiy ramkasi bilan cheklab qo‘yilgan.

Pul munosabatlari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi qayta taqsimlash jarayonlari, shu jumladan, barcha darajalardagi va xo‘jalikning barcha bo‘g‘inlaridagi pul fondlari shaklidagi moliyaviy resurslar moliyaviy nazoratning obyekti hisoblanadi. Tekshiruvlarning bevosita predmeti sifatida foyda, daromadlar, rentabellik, tannarx, muomala xarajatlari kabi qiymat ko‘rsatkichlari maydonga chiqadi. Puldan foydalanish orqali va ayrim hollarda pulsiz (masalan, barter bitimlari) amalga oshiriladigan opreatsiyalarning barchasi moliyaviy nazoratning sohasi hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat o‘z ichiga quyidagi tekshiruvlarni oladi:

- iqtisodiy qonunlarning talablariga rioya etish (MDni taqsimlash va qayta taqsimlash porporsiyalarining optimalligi);
- budjet rejasini tuzish va ijro etish (budjet nazorati);
- korxona va tashkilotlar, budjet muassasalariga tegishli bo‘lgan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish;
- o‘zaro soliq munosabatlari.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi, asosan, bir tipda bo‘lib, quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- bevosita mamlakatning parlamenti yoki prezidentiga bo‘ysunuvchi hisob palatasi. Bu tashkilotning bosh maqsadi davlat mablag‘larining sarflanishi ustidan umumiy nazoratni o‘rnatishdir;
- asosan soliqli daromadlarning davlat xazinasiga kelib tushishini nazorat qiluvchi va mamlakat prezidenti, hukumati yoki moliya vazirligiga bo‘ysunuvchi soliq muassasasi;

- quyi tashkilotlarini tekshiruvchi va taftish qiluvchi davlat tashkilotlarining tarkibidagi nazorat qiluvchi organlar;
- hisobot hujjatlarining ishonchliligini va moliyaviy operatsiya-larning qonuniyligini tijorat asosida tekshiruvchi nodavlat nazorat xizmatlari;
- asosiy vazifasi xarajatlarni qisqartirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va foydani oshirish bo‘lgan ichki nazorat xizmatlari.

O‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi ba’zi bir maxsus organlarni ham qamrab oladi. Ana shunday organlar qatoriga Markaziy bank, Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Bozor xo‘jaligi asoslarining mustahkamlanib borishi bilan moliyaviy nazoratni tashkil etish masalalari yanada huquqiyroq xarakterga ega bo‘lib, sekin-astalik bilan g‘arb modeliga yaqinlashadi. Bu model amaliyotda o‘zining samaradorligini yaqqol ko‘rsatgan[29].

Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- pul fondlarining o‘lchami va moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj o‘rtasidagi mutanosiblikka (balanslilikka) ta’sir ko‘rsatish;
- davlat budjeti oldidagi majburiyatlarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash;
- moliyaviy resurslarni ko‘paytirishning ichki xo‘jalik rezervlarini qidirib topish;
- va boshqalar.

Jahon hamjamiyati ko‘p yillik tajriba asosida moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy printsiplarini ishlab chiqqanki, hozirgi paytda ularga rioya qilishga dunyoning har bir tsivilizatsiyalashgan davlati intiladi. Bu printsiplar INTOSAI[30]ning Lima deklaratsiyasida o‘z aksini topgan. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

[29] AQSh Kongressining ma’lumotlariga ko’ra, oxirgi 50 yil ichida federal nazorat-taftish organlarining faoliyatidan olingan jami iqtisodiy samara 500 mlrd. dollardan kam bo’lmagan. Qarang: Somenkov A.D. Parlamentskiy kontrol za ispolneniem gosudarstvennogo byudjeta. – M.: Ekonomika, 1998. s. 79.

[30] INTOSAI – dunyoning 178 mamlakati oliy nazorat organlarining Xalqaro tashkiloti. Uning doirasida mintaqaviy tashkilotlar ham amal qiladi. Ulardan biri EVROSAI bo’lib, u oliy nazorat organlarining Yevropa tashkilotidir.

- mustaqillik;
- obyektivlik;
- kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik);
- oshkoralik.

Moliyaviy nazoratning mustaqilligi nazorat organining moliyaviy jihatdan mustaqilligi, nazorat organlari rahbarlarining vakolat muddat-larining parlament muddatlaridan uzoqligi, shuningdek ularning konstitutsion xarakteri bilan ta’minlanishi kerak. Obyektivlik va kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik) nazoratchilar tomonidan amaldagi qonunchilikka so‘zsiz itoat etilishini, taftish ishlarini amalga oshirishning belgilangan (o‘rnatilgan) standartlariga (andozalariga) qattiq rioya etish asosida nazoratchilar ishining yuqori kasbiy darajada bo‘lishini taqoza etadi. Oshkoralik davlat nazoratchi-larining jamotchilik va ommaviy axborot vositalari bilan doimiy aloqada bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Ana shu asosiy prinsiplardan amaliy xarakter kasb etuvchi moliyaviy nazoratning quyidagi boshqa prinsiplari kelib chiqishi mumkin:

- natijalilik;
- nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablarning aniqligi va mantiqiyligi;
- nazorat subyektlarining sotib oluvchanmasligi;
- tekshirish va taftish aktlarida keltirilgan ma’lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi;
- preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiriluv-chanligi);
- moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumpsiyasi;
- turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tizimiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi qonunlar qabul qila turib, har bir davlat, odatda, yuqoridagi prinsiplarga tayanadi (asoslanadi). Bir vaqtning o‘zida, har

bir davlatda nazorat harakatlarining o‘z reglamenti (tartibi va ketma-ketligi) mavjud bo‘lib, bu narsa pirovardida moliyaviy nazoratning natijalariga o‘z ta’sirini, albatta, ko‘rsatadi.

7.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakllari va metodlari

Moliyaviy nazoratning muvaffaqiyatli va samarali o‘tkazilishi uning tashkil etilish darajasiga va nazoratning turlari, shakllari va uni o‘tkazishning metodlariga bog‘liq.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarga ko‘ra uning quyidagi turlari mavjud:

- umumdavlat moliyaviy nazorati;
- idoraviy moliyaviy nazorat;
- xo‘jalik ichidagi moliyaviy nazorat;
- jamoatchilik moliyaviy nazorati;
- mustaqil moliyaviy nazorat.

Umumdavlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyat organlari (prezident, hukumat, Oliy majlis, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi moliyaviy nazoratning bosh maqsadi daromadlarning tushib turishi va davlat xarajatlarining sarflanishi bo‘yicha davlat va jamiyatning manfaatlarini ta’minlashdan iborat.

Idoraviy moliyaviy nazorat vazirliklarning nazorat-taftish boshqarmalari va boshqa tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshirilib, shu idoraga bo‘ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyatini qamrab oladi.

Xo‘jalik ichidagi moliyaviy nazorat korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy xizmatlari tomonidan o‘tkaziladi. Bu yerda moliyaviy nazoratning obyekti sifatida korxona, tashkilot va muassasalarning xo‘jalik va moliyaviy faoliyati maydonga chiqadi.

Jamoatchilik moliyaviy nazorati nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazoratning obyekti uning oldiga quyilgan vazifalarga muvofiq ravishda aniqlanadi.

Mustaqil moliyaviy nazorat maxsus organlar: auditorlik firmalari va boshqa xizmatlar tomonidan o‘tkaziladi.

Moliyaviy nazoratning shakllarini quyidagi mezonlar bo‘yicha klassifikatsiya qilish qabul qilingan:

- amalga oshirilish reglamenti;
- o‘tkazilish vaqti;
- nazoratning subyektlari;
- nazoratning obyektlari.

Amalga oshirilish reglamenti bo‘yicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- majburiy (tashqi);
- tashabbuskorli (ichki).

Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, masalan, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlariga, budjet resurslaridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratga, korxona va tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlanishiga va h.k.larga tegishli bo‘lishi mumkin.

Tashabbuskorli (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasa-da, taktik va strategik maqsadlarga erishishda moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘tkazilish vaqti bo‘yicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- dastlabki;
- joriy (operativ);
- navbatdagi (kelgusi, so‘nggi).

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarning sodir bo‘lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning (buzilmalarning) oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag‘larning notejamli va nosamarali sarflanishining oldini olish uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo‘lishini ko‘zda tutadi.

Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy tarqqiyotining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi budjetlarni va nobudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko‘rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo‘limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to‘g‘risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo‘lishi mumkin.

Joriy (operativ) moliyaviy nazorat pul bitimlari, moliyaviy operatsiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish va h.k.larning sodir bo‘lish vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag‘larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga va pul hisob-kitoblarining o‘z vaqtida amalga oshirilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu erda buxgalteriya xizmatlari katta rol o‘ynaydi.

Navbatdagi (kelgusi, so‘nggi) moliyaviy nazorat moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo‘li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiya amalga oshirilganligining samaradorligini, moliyaviy xarajat-larni ularning bashoratlari bilan qiyoslanishini va h.k.larni baholashga mo‘ljallangan.

Nazoratning sub’eklari bo‘yicha moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari bo‘lishi mumkin:

- Prezident moliyaviy nazorati;
- hokimiyat qonunchilik organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining moliyaviy nazorati;
- ijroiya hokimiyat organlari moliyaviy nazorati;
- moliya-kredit organlarining moliyaviy nazorati;
- firmaviy-ichki moliyaviy nazorat;
- auditorlik moliyaviy nazorati;
- va boshqalar.

Nazoratning obyektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari mavjud:

- budjet moliyaviy nazorati;
- nobudjet fondlar ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- soliqlar bo‘yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- valyuta operatsiyalari ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- kredit operatsiyalari bo‘yicha moliyaviy nazorat;
- sug‘urta faoliyati bo‘yicha moliyaviy nazorat;
- investitsion faoliyat bo‘yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- pul massasi ustida amlga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida uning quyidagi metodlaridan foydalaniladi:

- tekshiruv;
- tadqiq etish;
- nadzor (nazorat);
- moliyaviy holat tahlili;
- kuzatish (monitoring);
- taftish.

Tekshiruv hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatning alohida masalalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Tekshiruv jarayonida moliyaviy intizomning buzilganligi aniqlanadi va ularni barham berish borasida choralar belgilanadi.

Tadqiq etish korxona va tashkilotlar faoliyatining ayrim tomonlarini qamrab oladi. Tadqiq etish jarayonida bajarilgan ishlar, material, yoqilg‘i va energiyalarning sarflanish hajmlari nazorat tarzida o‘lchanadi. Shuningdek, tadqiq etish so‘rash, kuzatish va inspeksiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Nadzor (nazorat) moliyaviy faoliyatning ma’lum bir turiga (masalan, sug‘urta, investitsion, bank va boshqa faoliyatlar) litsenziya olgan iqtisodiy subyektlar ustidan nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. U buzilishi litsenziyaning chaqirib

olinishiga olib keladigan o‘rnatilgan (belgilangan) qoidalar va normativ-larga rioya qilinishi ustidan nazoratni ko‘zda tutadi.

Iqtisodiy tahlil moliyaviy nazoratni amalga oshirish metodi sifatida xo‘jalik faoliyatining natijalari, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda o‘rganishni ko‘zda tutadi.

Taftish moliyaviy nazoratning ancha keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo‘llash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘zaro bog‘langan kompleks tekshiruvidan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, ya’ni sodir etilgan xo‘jalik operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Subyekt xo‘jalik faoliyatini qamrab olishning to‘liqligiga qarab taftishning quyidagi turlari bo‘lishi mumkin:

- to‘liq;
- qisman;
- mavzuli;
- kompleksli.

To‘liq taftish nazorat obyekti moliya-xo‘jalik faoliyatining barcha tomonlarini tekshirishni ko‘zda tutadi.

Qisman taftish xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliya-tining ayrim qismlari yoki tomonlarini tekshirish uchun o‘tkaziladi.

Mavzuli taftish bir tipdagi korxona, tashkilot va muassasalarning faoliyati bo‘yicha ma’lum bir mavzuga bag‘ishlab o‘tkaziladiki, bu narsa ularga xos bo‘lgan tipik kamchiliklar va buzilmalarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralarning qo‘llanilishiga imkon beradi.

Kompleksli taftish tekshirilayotgan korxona, tashkilot va muassasa faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oladigan va eng to‘liq bo‘lgan

taftish bo‘lib, u nazorat subyektining xo‘jalik va moliya faoliyatini, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning butligi va ulardan samarali foydalanish masalalari, buxgalteriya hisobi va hisobotining holati va sifati kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Bunda tor texnikaviy va texnologik masalalarni tekshirish uchun tegishli mutaxassislar jalb qilinadi. Bu esa, o‘z navbatida, kompleksli taftish natijalarining to‘liqligi va samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalarining qamralib olinishi darajasiga ko‘ra taftishlar quyidagi uch guruhga bo‘linadi:

- yoppasiga taftish;
- tanlanma taftish;
- kombinatsiyalashtirilgan taftish.

Yoppasiga taftish butun tekshiriladigan davr mobaynida faoliyatning ma’lum bir qismidagi barcha operatsiyalarning tekshirilishini taqoza etadi.

Tanlanma taftish u yoki bu vaqt oralig‘ida birlamchi hujjatlar bir qismini tekshirishdan iborat. Odatda, chorakdagi bir oyning natijalari tekshiriladi, kamchiliklar aniqlansa, yoppasiga tekshiruvga o‘tiladi.

Kombinatsiyalashtirilgan taftish bir qismning yoppasiga, boshqa bir qismni esa tanlanma metod bilan tekshirilishini nazarda tutadi. Bu narsa yuqori darajadagi hujjatlarning aylanishi bilan xarakterlanadigan va yirik xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini taftish qilishga imkon beradi.

O‘tkazilgan taftish asosida akt rasmiylashtiriladi. Unda kamchiliklarni bartaraf etish, moddiy zararlarni qoplash va aybdorlarni javobgarlikka tortish choralari belgilanadi.

7.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan hokimiyatni taqsimlanish prinsipi Prezident va vakolatli hukumat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining moliyaviy faoliyatini

nazorat qilishni nazarda tutadi. Bunday nazorat, avvalambor, respublika va mahalliy budjetlarni, davlat maqsadli nobudjet fondlarining loyihalarini ko‘rib chiqish va qabul qilishda hamda ularning ijrosi haqida hisobotlarni tasdiqlashda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-moddasining 8-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo‘yicha mamlakat budjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o‘rnatadi. Xalq deputatlari Kengashlari ayrim mintaqalarga ajratiladigan budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy budjetlarning ijro etilishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, vakolatli organlar zimmasiga ayrim tarmoqlar va sohalarda budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilishi mumkin.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga davlat va ijroiya hokimiyat boshlig‘i sifatida katta vakolatlar berilgan. Respublika Konstitutsiyasi 93-moddasining 8-bandiga muvofiq Prezident ijroiya hokimiyat apparati va jumladan, davlat moliyaviy nazorati funksiyalarini amalga oshiruvchi organlar (Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va boshqalar)ni shakllantiradi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida Hisob palatasiga katta rol ajratilgan. U mustaqil va obyektiv organ bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Hisob palatasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq uning zimmasiga nazorat, monitoring va tahliliy ishlar hamda quyidagi funksiyalarni bajarish yuklatilgan:

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, budjet-soliq va pul-kredit parametrlarining shakllanish jarayonlarini tizimli o‘rganib, ularning qonunchilik talablariga muvofiqligini kuzatib borish;
- davlat budjeti, uning daromad va xarajatlar qismlari asosiy parametrlari va moddalarining ijro etilishi ustidan nazorat o‘rnatish;

- davlat budjetini ijro etish, soliq tushumlari va pul ko‘rsatkichlari bo‘yicha tasdiqlangan parametrlarni tuzatish bo‘yicha takliflarning asoslanganligi va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini ko‘rib chiqish;
- mintaqalar va umuman jamiyat rivojlanishida mahalliy boshqaruv organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organlari rolini oshirish maqsadida respublika budjeti bilan mahalliy budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlarning maqbulligiga erishish bo‘yicha takliflarni tahlil qilish va baholash;
- mintaqalar, tarmoqlar va korxonalar bo‘yicha tasdiqlangan parametrlar hisobidan davlat mablag‘larini xarajat qilish bo‘yicha chetga chiqishlar aniqlangan hollarda tekshiruvlar o‘tkazish, ulardan foydalanishda tartibbuzarliklar va suiste’molliklarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- umuman budjet daromad qismining ijrosi ustidan hamda mintaqalar bo‘yicha manbalar, soliq va bojxona organlaridan to‘lovlarning kelib tushishi to‘liqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;
- budjet jarayonida chetga chiqishlarni tahlil qilish va o‘rganish, ularni bartaraf etish va budjet qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- milliy valyutani mustahkamlash, inflyatsiyani pasaytirish hamda iqtisodiy o‘sish va narxlar barqarorligi ko‘rsatkichlarining optimal birligiga erishish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish va baholash;
- oltin-valyuta zahiralari, shu jumladan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni ishlab chiqarish va ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni nazorat etish, yo‘qotishlar va suiste’molliklar kanallari va imkoniyatlarini yo‘qotish maqsadida davlat oltin-valyuta zahiralarining butun harakati tiniqligini ta’minlash;
- tashqi aktivlarni boshqarish bo‘yicha hisobot va balans hisob-kitoblarini tahlil etish, oltin-valyuta zaxiralarini chet el banklarida joylashtirish va qayta joylashtirish asoslanganligi va samaraliligini nazorat qilish;

- davlat tashqi qarzlarini boshqarish ustidan monitoring o‘rnatish va ularga birinchi navbatda, Hukumat tomonidan va uning kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatilishini nazorat etish;
- eksportni rivojlantirish, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ekporti prognozlarini bajarish, mahsulot import qilishni maqbullashtirish, tashqi savdo va to‘lov balanslari ijobiy qoldig‘ini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini nazorat etish;
- chet davlatlarda davlat mulkini realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha tahlil o‘tkazish va ularning nazorat etilishini ta’minlash;
- respublikada qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar konlarini qazish va ulardan foydalanish yuzasidan chet el kompaniya-larining takliflarini ko‘rib chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati yoki uning kafolati ostida chet el kreditlari va qarzlarini jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligi, xalqaro moliya bozorlariga respublika qarz majburiyatlarini chiqarishning maqsadga muvofiqligini tahlil etish;
- olib borilayotgan budjet-soliq, pul-kredit, valyuta va tashqi savdo siyosatiga ta’sir ko‘rsatuvchi qonunchilik hujjatlari loyihalarini ekspertiza qilish;
- vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning Hisob palatasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha ish-faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Hisob palatasi zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadigan masalalar bo‘yicha tahliliy ishlanmalarni tashkil etish va o‘tkazish, ularning asosida hisobot va takliflar tayyorlash hamda ularni ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etish.

Ko‘rsatilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun Hisob palatasiga quyidagi huquqlar berilgan:

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, qo‘mitalar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar, banklardan o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar

bo‘yicha axborot, ma’lumotlar va hujjatlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

- zarur bo‘lgan hollarda o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tekshiruvlar tashkil etish va ularning natijalari bo‘yicha ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni jo‘natish;
- o‘z vakolati doirasida tekshiruvlar o‘tkazish vaqtida davlat organlari va ularning vakillari, nodavlat auditorlik xizmati va ayrim mutaxassislarni ularda ishtirok etish uchun jalb etish;
- Hisob palatasi bilan oldindan kelishilishi zarur bo‘lgan barcha masalalar yuzasidan tegishli xulosalar berish;
- qonunchilikni takomillashtirish, davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini yaxshilash maqsadida nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha takliflar kiritish.

Moliyaviy nazorat bo‘yicha muhim vazifa va funksiyalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga ham yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida» 1993-yil 6 maydagi qonunining 12-moddasiga muvofiq u vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. U davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar vakolati va funksiyalari tartibini belgilaydi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo‘mitasi va ularning quyi organlari alohida o‘rin tutadi. Moliya-kredit tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlarning mazmuni va maqsadi belgilangan vakolat doirasidagi amaliy ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Moliya organlarining ko‘p qirrali nazorat faoliyati budjetni rejalashtirish, moliyaviy rejalar va smetalar loyihalarini ko‘rib chiqish, budjet barcha daromadlarini to‘plash, davlat budjeti bilan tegishli moliya yili uchun nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish jarayonida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo‘yicha quyidagi asosiy vazifa va funksiyalar yuklangan:

1)respublika vazirliklari, qo‘mitalari, idoralari va korxonalari tomonidan respublika budjetining ijro etilishi, Markaziy bank va boshqa banklar tomonidan budjetning kassa ijrosi qoidalariga rioya etilishi hamda banklar tomonidan kapital qo‘yilmalar va budjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan boshqa chora-tadbirlarning moliyalashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2)qimmatli qog‘ozlar bozori shakllanishi, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va harakatini nazorat etish, moliya bozorini shakllantirishga doir ishlarni muvofiqlashtirish;

3)respublika budjeti va mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan, shuningdek barcha ko‘rinishdagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi hamda ulardan boshqa maqsadlar (jumladan eksport) uchun foydalanuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish va tekshirish.

Hukumatning «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to‘g‘risida» 2000-yil 22-sentyabrdagi 365-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yangi vazifalar yuklandi. Xususan, endi auditorlik tashkilotlarida litsenziya shartnomalarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishni amalga oshirish ham uning vazifasiga kiradi.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda soliq organlari muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida» 1997 yil 29 avgustdagi qonuni soliq nazoratining asoslari, uni amalga oshirish bo‘yicha soliq organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Soliq nazorati soliq solish subyektlari va obyektlari hisobini yuritish hamda soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidir. U davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqqa

tortiladigan subyektlar va obyektlar hisobini yuritish, soliq tekshiruvlarini o‘tkazish, soliq to‘lovchilar, boshqa shaxslarni so‘roq qilish va qonunchilik bilan nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlarining moliyaviy nazoratga oid asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-soliq qonunchiligi, soliqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi nobudjet Pensiya fondiga majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida hisoblab yozilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat etish;

-soliq qonunchiligiga rioya etilishining zaruriy shartlarini ta’minlash, soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko‘rsatish, soliq bo‘yicha qoidabuzarliklarni aniqlash, ogohlantirish va to‘xtatib qo‘yish.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- soliq to‘lovchilarda (jumladan soliq to‘lovchilar bilan bog‘langan qarshi subyektlarda) O‘zbekiston Respublikasi nobudjet Pensiya fondiga majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida hisoblab yozilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy hujjatlarni, shuningdek eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha zarur bo‘lgan tushuntirish, ma’lumotnoma va ma’lumotlarni olish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish.

Davlat soliq xizmati organlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni boshqa davlat boshqaruv organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organlari, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro birgalikda bajaradilar. Ko‘rsatilgan organlar va tashkilotlar soliq xizmati organlariga soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliq qonunbuzarligiga qarshi kurashda yordam berishlari shart.

Ko‘rsatilgan qonunchilik hujjatida nazarda tutilgan soliq nazoratini tashkil etish Davlat soliq qo‘mitasi va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida nizomga muvofiq u davlat soliq xizmatining soliq qonunchiligiga rioya etilishi, davlat iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoyalashning ta’minlanishi sohasidagi nazorat bo‘yicha markaziy organi hisoblanadi.

Davlat soliq qo‘mitasining moliyaviy nazorat sohasidagi asosiy vazifasi soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab yozilishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat soliq qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida quyidagilarga haqlidir:

1)coliq to‘lovchilarda (jumladan soliq to‘lovchilar bilan bog‘langan qarshi subyektlarda) moliyaviy hujjatlar, shartnomalar, smetalar, soliqlarni hisoblab yozish va to‘lash hamda eksport-import bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlarni hujjatlar asosida tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha zarur bo‘lgan tushuntirish, ma’lumotnoma va ma’lumotlarni olish;

2)savdo, tovarlarni sotish va xizmat ko‘rsatish, Aksiz spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilish va markalash qoidalariga rioya etilishi, naqd pul mablag‘larining to‘liq kirim qilinishi, nazorat-kassa apparatlarini qo‘llash qonunchiligiga rioya etilishi va boshqalarni nazorat qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tizimida Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tuzilgan bo‘lib, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘linmalari mavjud.

Mazkur organning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq qonunchiligiga rioya etishi bo‘yicha moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini belgilangan tartibda hujjatlar asosida tekshiruvlarni hamda hukumat qarorlari bilan soliq

organlari zimmasiga yuklatilgan masalalar bo‘yicha nazorat tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan soliqlar va yig‘imlarning hisoblab yozilishi, undirib olinishida qonuniylikka rioya etilishi, budjetga to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida kiritilishini nazorat qilish; soliq qonunbuzarliklarini aniqlash, ogohlantirish va to‘xtatish;
- o‘tkazilgan hujjatli va nazorat tekshiruvlari (hisoblangan summalar, moliyaviy sanktsiyalar, ma’muriy jarimalar va h.k.ni undirib olish) yakuni bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning budjet oldidagi majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish;
- soliq qonunchiligining buzilishiga oid ma’lumotlarni hamda hujjatli va nazorat tekshiruvlari natijasida aniqlangan boshqa faktlarni umumlashtirish va tahlil etish va h.k.

Davlat soliq qo‘mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal etishi va funksiyalarini bajarishi uchun quyidagi huquqlarga ega:

-yuridik va jismoniy shaxslardan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (soliq to‘lovchilar) faoliyatiga tegishli ma’lumot, axborot, ma’lumotnoma, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

-banklar va boshqa kredit-moliya muassasalaridan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (soliq to‘lovchilar)ning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarida amalga oshirilgan operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan tartibda olish.

Davlat moliyaviy nazorati bo‘yicha funksiyalarni bank tizimi ham bajaradi. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida» 1995 yil 21 dekabrdagi qonuniga muvofiq u bank tizimi barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanishini ta’minlash maqsadida bank nazoratini va banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi.

Markaziy bank nazorat funksiyalarini bajarish bo‘yicha o‘z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan bank operatsiyalarini amalga

oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qoidalarni belgilaydi.

Markaziy bankka quyidagi huquqlar berilgan:

1)banklardan hisobotlar va boshqa hujjatlarni olish va tekshirish, ularning faoliyati, jumladan operatsiyalari to‘g‘risida axborot, ma’lumotlarni so‘rash va olish;

2)olingan axborot, ma’lumotlar bo‘yicha tushuntirishlar talab qilish;

3)banklarning ichki auditi bo‘yicha talablar belgilash;

4)bank aktivlarini sifat bo‘yicha tasnif qilish va aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun shunday zaxiralar tuzishni talab qilish;

5)banklarga ular faoliyatida aniqlangan tartibbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha bajarilishi majburiy bo‘lgan yozma buyruqlar, ko‘rsatmalar jo‘natish.

Tekshiruvlar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan vakolatli vakillari va auditorlar tomonidan o‘tkaziladi.

7.4. Nodavlat moliyaviy nazorati

Bozor iqtisodiyoti asoslarining shakllanishi davlat nazorat organlarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshiradi. Yuqorida qayd etilgandek, moliyaviy nazoratning nodavlat turlarini ichki firmaviy (korporativ) nazorat, tijorat banklar tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan nazorat, auditorlik nazoratlari tashkil qiladi.

Ichki firmaviy moliyaviy nazorat korxona, muassasa, firma, korporatsiyalar o‘zining iqtisodiy xizmatlari, ya’ni buxgalteriya, moliya bo‘limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o‘z korxonasi, filiallari va shu’ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Ichki nazorat xizmatlari doimiy ravishda pul mablag‘larini (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining

samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kuzatadi, rejalashtirgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalar qiyoslab, tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi.

Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib boradi. Ichki nazoratning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan va “post-audit” nomini olgan nazorat biznes-rejaning moliya bo‘limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejlashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularni nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo‘llarini qidirishni anglatadi.

Bank tizimining qayta qurilishi natijasida tijorat banklarining paydo bo‘lishi ahamiyatli darajada moliyaviy nazorat sohasidagi banklarning funksiyalarini o‘zgartiradi. Agar SSSR Davlat bankining bo‘limlari o‘zlariga biriktirilgan korxonalarning butun moliyaviy faoliyatini nazorat qilgan bo‘lsa, tijorat banklari esa qonunga muvofiq ravishda davlat tomonidan faqat hisob-kassa operatsiyalarini yuritish va valyuta qonunchiligiga rioya etish borasida o‘rnatilgan tartibning mijozlar tomonidan amal qilinishini nazorat qilib borishi kerak. Shu bilan birgalikda likvidlikni qo‘llab-quvvatlashning obyektiv zarurligi bankdan potentsial zayom oluvchilarning, ya’ni zayom oluvchi korxonalarning moliyaviy holati va kredit olishga layoqatliligini baholashni talab qiladi. Ssuda berilgan taqdirda bank o‘rnatilgan muddatlarda tegishli foizlar bilan birgalikda ssudaning qaytarilish ehtimolini baholash maqsadida berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to‘lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat kredit riskini boshqarishning muhim elementi bo‘lib hisoblanadi.

Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining yangi turi bo‘lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda ham paydo bo‘ldi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor tizimiga o‘tilishi va turli tijorat tizimlarining paydo bo‘lishi bilan ularning moliyaviy

ishonchliligiga, shuningdek ular moliyaviy holatini obyektiv baholashga nisbatan talablar keskin oshirildi.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalarining amalda bo‘lgan me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini niqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to‘lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

Auditorlik xizmatlari quyidagi boshqa xizmatlarni ham ko‘rsatishlari mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish va olib borish;
- daromadlar haqida buxgalteriya hisobotini va deklaratsiyani tuzish;
- moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish va bashoratlash;
- buxgalteriya xizmati xodimlarini o‘qitish va qonunchilik masalalarida maslahat berish;
- auditorlik tekshiruvlari natijasida olingan tavsiyalarni ishlab chiqish;
- va boshqalar.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbusli bo‘lishi mumkin. Agar tashabbusli tekshiruv iqtisodiy subyektning o‘z qarori bo‘yicha amalga oshiriladigan bo‘lsa, majburiy audit uning xohish-irodasi va istagiga bog‘liq bo‘lmagan va qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o‘tkaziladi. Har yili majburiy auditorlik tekshiruvi:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari; sug‘urta tashkilotlari; investitsion va boshqa jamg‘armalar, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘lari, ularning boshqaruvchi kompaniyalari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ajratma mablag‘lari ularning asosiy manbalari bo‘lgan xayriya va boshqa ijtimoiy jamg‘armalar;
- xos il bo‘lish manbalari qonunchilikda nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan majburiy

ajratmalardan iborat bo‘lgan nobudjet fondlar, ustav jamg‘armasida davlatga tegishli ulushi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda o‘tkazilishi shart.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi sifatida xo‘jalik yurituvchi subyekt ishtirok etadi. Auditorlik tashkilotini tanlash mulk egasi, xo‘jalik yurituvchi subyekt qatnashchilari (aktsiyadorlari) umumiy majlisi bilan kelishiladi. Majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bosh tortish xo‘jalik yurituvchi subyektdan eng kam ish haqining ellik barobari miqdoridagi jarima undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi. Jarima to‘lash xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan ozod etmaydi.

Auditning asosiy tamoyili uning mustaqilligi bo‘lib, bunda asosan tekshirilayotgan subyektning moliyaviy hisoboti to‘g‘risidagi kasbiy fikrini ifodalashda biror tomonning ta’siri ostida bo‘lishdan uning ozod ekanligini tushunish lozim. Shu bilan birga, yana shuni hisobga olish kerakki, audit barcha mamlakatlarda yetarli darajada qattiq tartibga solinadi.

Ayrim davlatlarda (masalan, Fransiyada) bu jarayonga davlat aralashib, u audit me’yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o‘rnatadi. O‘zbekistonda ham xuddi shunday ahvol tarkib topgan bo‘lib, bu erda davlat auditorlik faoliyatini tartibga solishni faol amalga oshiradi. U moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan muhim korxonalarni ajratib, ularda audit o‘tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, auditorlarga (ma’lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas’uliyati, javobgarligi va boshqalar bo‘yicha) talablar qo‘yadi.

Auditni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar vositasida amalga oshiriladi. Bunda auditorlar jamoatchilik tashkilotlari tomonidan auditning o‘zini o‘zi boshqarishiga katta imkoniyat beriladi. Qayd etish lozimki, har bir mamlakatda jamoat tashkilotlarining rivojlanishi va ta’siri turlicha

amalga oshiriladi. Masalan, AQSH va Angliyada auditorlik faoliyati asosan ixtisoslashtirilgan professional jamoat auditorlik tashkilotlari tomonidan tartibga solinadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda mustaqil Auditorlar palatalari ishlab turibdi. Ularning asosiy vazifalari auditorlik faoliyati va auditorlar axloq me’yorlari bo‘yicha standartlarni ishlab chiqish, auditorlar ish faoliyatining sifatini nazorat qilish, auditorlik faoliyati bo‘yicha bilimlarini attestatsiya qilish va hujjatlar berish hamda auditorlik me’yorlarini buzgan shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash (bu - davlatga xos xususiyat bo‘lmagan mamlakatlarda) kabilardan iboratdir.

Ammo ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada, garchi Vakolatli auditorlar uyushmasi va Tasdiqlangan auditorlar uyushmasi ishlab turgan bo‘lishiga qaramasdan, umuman auditorlik faoliyatini tartibga solish davlat tomonidan amalga oshirilib, bu bizning Respublikamizga ham xos bo‘lgan xususiyatdir. O‘zbekiston Auditorlar palatasi tuzilish jihatidan davlat organlari bilan o‘zaro birgalikda harakat qiladi. Ammo uning auditorlik faoliyatini tartibga solish bo‘yicha asosiy funksiyalari davlat tomonidan mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarining roli va maqomini belgilash, soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalari hisobini yuritishni ta’minlash maqsadida so‘nggi vaqtlarda bizning mamlakatimizda auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi.

Xususan, belgilab qo‘yildiki, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish ishlari auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to‘g‘riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi.

Tartiblar to‘g‘risida bir necha nizomlar tasdiqlangan:

a) soliq va boshqa nazorat organlarining auditorlik xulosalari hisobini yuritish;

b) majburiy auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishdan bosh tortganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirib olish;

v) auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziyalar berish.

Soliq organlari va boshqa nazorat organlarining auditorlik xulosalari hisobini yuritish to‘g‘risidagi nizom bunday xulosalarning ikki turini belgilab bergan bo‘lib, ulardan har biri muayyan huquqiy oqibatlarga olib keladi:

-ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti to‘g‘risida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini to‘g‘ri aks ettiradi va xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq keladi, degan fikrlar mavjud bo‘lgan hujjatdir.

-salbiy auditorlik xulosasi xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo‘lib, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo‘lganligi to‘g‘risidagi fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektda oldingi ikki yil uchun ijobiy yillik auditorlik xulosasi mavjud bo‘lishi uni xo‘jalik yurituvchi subyektlar ro‘yxatiga kiritish uchun zarur shartlardan biri hisoblanib, ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan tekshirish so‘nggi tekshiruv o‘tkazilganidan keyin 24 oy o‘tmasidan oldin o‘tkazilishi mumkin emas. Salbiy auditorlik xulosasiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt xo‘jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o‘tkaziladigan tekshiruv reja-jadvaliga kiritilishi kerak.

Soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o‘tkaziladigan tekshiruv auditorlik xulosasi xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga muvofiq kelmasligini aniqlagan holda, ushbu auditorlik xulosasi shak-shubhasiz soxta deb hisoblanadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek bunda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Bunda soliq va

boshqa nazorat organlari o‘n kunlik muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli auditorlik tashkiloti tomonidan amaldagi qonunchilik me’yorlari buzilganligi aniqlanganligi to‘g‘risida xabar berishi shart.

Auditorlik tashkiloti, shuningdek shak-shubhasiz soxta auditorlik xulosalarini tuzishda aybdor bo‘lgan shaxslarni javobgarlikka tortish xo‘jalik yurituvchi subyektni soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha belgilangan tartibni buzganligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralaridan ozod qilmaydi.

Majburiy auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishdan bosh tortganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirib olish tartibi to‘g‘risida nizom qonunchilikka muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan amal qiladi.

Jarima solish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishdan bosh tortishi asos bo‘ladi. Bunda yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayiga qadar o‘tkazilishi hamda auditorlik xulosasining yo‘qligi qoidabuzarlik fakti deb topiladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bosh tortilganligi sababli auditorlik xulosasi yo‘q bo‘lgan taqdirda, soliq organi xo‘jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda jarima soladi.

Boshqa nazorat organi tomonidan majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazmagan xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan soliq organi tomonidan jarima solish chorasi qo‘llanilmaganligi aniqlangan taqdirda, tegishli soliq organining mansabdor shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati (auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlaridan tashqari) yangi qonunchilik bo‘yicha auditorlik teshiruvini o‘tkazish uchun faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga

oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq ravishda olib boriladi.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.
6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.
7. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.
8. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

8 - MAVZU: DAVLAT BUDJETI

8.1. Davlat budjetining mohiyati

Davlat budjetining mohiyati. Davlat budjeti kishilik jamiyati taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida paydo bo‘lgan bo‘lib, uning vujudga kelishi, eng avvalo, siyosiy tashkilot sifatida davlatning vujudga kelishi bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumiga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyatining va budjetning taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab (aniqlab) beradi.

Hozirgi sharoitda Davlat budjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlar(i)ning bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning nisbatan kattagina qismini to‘plash va uni jamiyat taraqqiyoti turli sohalarining (iqtisodiyot, maorif, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) rivojlanishiga yo‘naltirish imkonini beradigan muhim taqsimlash instrumenti (vositasi)dir.

O‘zining mohiyatiga ko‘ra, davlat budjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismidan iborat bo‘lib, shunga mos ravishda u moliya tizimiga tegishli bo‘lgan barcha belgi (xususiyat)larga ega va unga tegishli bo‘lgan barcha funksiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o‘zida, Davlat budjeti faqat o‘ziga xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o‘z navbatida, davlat budjetini moliya tizimining boshqa bo‘linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o‘rinni egallashga imkon beradi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlat (hukumat)ga tegishli ekanligidir. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda davlat (hukumat) barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo‘lsada, uning bu xislati, ya’ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslarini asosiy taqsimlovchisi sifatidagi roli faqat budjetda katta kuch bilan namoyon bo‘ladi.

Yagonalik (birlik) va markazlashuvning yuqori darajada ekanligi Davlat budjetining muhim xususiyatlaridandir. Turli ma’muriyhududiy budjetlarning ko‘pligiga qaramasdan ularning barchasi quyi bo‘g‘inlarning yuqori bo‘linmalarga bo‘ysunishiga ketmaket rioya qilgan holda yagona Davlat budjetiga birlashadi. Bir vaqtning o‘zida budjet resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda demokratizm ham ta’minlanadi. Chunki davlat hokimiyatining barcha organlari o‘zlarining budjet mablag‘lariga ega bo‘lib, bu borada ular o‘zlariga tegishli bo‘lgan budjet huquqlaridan foydalanadilar. Davlat budjetiga xos bo‘lgan ana shu oxirgi ikki xarakterli belgilar mablag‘lar bilan manyovr qilish va nozik budjet siyosatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat budjetida, moliya tizimining boshqa bo‘linmalaridan farqli o‘laroq, ikki tushunchaning terminologik qo‘shilishi mavjud:

1) budjet – iqtisodiy (moliyaviy) kategoriya sifatida;

2) budjet – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida.

Ayrim hollarda Davlat budjetining mohiyati faqat mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida talqin etiladi. Buni to‘g‘ri deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Chunki iqtisodiyotga tegishli bo‘lgan har qanday reja u yoki bu iqtisodiy kategoriyaning namoyon bo‘lish shakllaridan boshqa narsa emas. Shunga muvofiq ravishda, davlatning asosiy moliyaviy rejasi Davlat budjeti (umumdavlat moliyasi) kategoriyasining namoyon bo‘lish shaklidir. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida budjet iqtisodiy kategoriya sifatida budjetga xos bo‘lgan xususiyatlar majmuining namoyon bo‘lishidir. Iqtisodiy kategoriya va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ularning “Davlat budjeti” deb bir xil nomlanishi predmetning mohiyatini o‘zgartirmaydi va Davlat budjetini iqtisodiy (moliyaviy) kategoriya-larning tarkibidan chiqarishga hech qanday asos bo‘la olmaydi. Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, Davlat budjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo‘shilishini tushunmoq kerak: birinchisi davlat miqyosida yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy)

munosabatlar (iqtisodiy kategoriya) va ikkinchisi shu kategoriyaning namoyon bo‘lish shakli sifatida davlatning asosiy moliyaviy rejasi.

Yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlashning moliyaviy instrumenti (vositasi) sifatida Davlat budjeti boshqa xususiyatlarga ham ega. Agar moliya yordamida taqsimlash qiymatning shakllari o‘zgargan sharoitda va ko‘plab oldisotdilar natijasida amalga oshirilsa, yalpi ichki (milliy) mahsulotning Davlat budjeti orqali taqsimlanishi, ma’lum darajada, har doim almashuvdan ajralgan holda sodir bo‘ladi. Qiymatning Davlat budjeti orqali harakatlanishi moddiy mahsulotning harakatidan to‘liq uziladi va sof qiymat xarakterini kasb etadi. Faqat davlat budjetidan tashqarida, budjet resurslari sarflanayotganda yana taqsimlash va almashuv operatsiyalarining qo‘shilib ketishi sodir bo‘ladi.

Moliya tizimining boshqa barcha bo‘linmalari va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) kategoriyalar (baho, ish haqi, kredit va boshqalar) bilan chambarchas bog‘liqlik ham davlat budjetiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Davlat budjetining mohiyatini ochib berishda u orqali amalga oshiriladigan taqsimlash jarayonlarining mazmunini ko‘rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yalpi ichki (milliy) mahsulotni davlat budjeti orqali taqsimlash, bir vaqtning o‘zida, o‘zaro bog‘langan va ma’lum darajada nisbatan mustaqil ham bo‘lgan uch bosqichga egadir:

1) umumdavlat pul fondini shakllantirish (budjet daromadlari);

2) hududiy va ma’lum maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘p sonli budjet fondlarini yaratish;

3) budjet fondidan foydalanish (budjet xarajatlari).

Davlat budjeti orqali yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlashning bu uch bosqichlari bir vaqtning o‘zida va uzluksiz sodir bo‘lsada, bu narsa ularning nisbatan alohidaligini ham inkor etmaydi. Bu bosqichlarni bo‘lish (ajratib olish) va ularni alohidaalohida ko‘rib chiqish orqali budjetli (budjet orqali) taqsimlashning xarakteri, shakli va metodlari to‘g‘risida osonroq va aniqroq tasavvur xos il qilish mumkin.

Birinchi bosqichda yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan pul mablag‘larining bir qismini davlatning qo‘lida konsentratsiyalashtirish (to‘plash, jamlash, olish) sodir bo‘ladi. Ana shu asosda mablag‘larni oluvchi sifatida davlat bilan mablag‘larni to‘lovchilar o‘rtasida moliyaviy (budjet) munosabatlar(i) vujudga keladi. Bu munosabatlar, asosan, majburiylik (imperativlik) xarakteriga egadir. Bu bosqichdagi taqsimlash jarayonlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, budjetga tushuvchi mablag‘lar alohidalashgan (ajratib olingan) bo‘lib, hali ular qat’iy aniq cheklanmagan (chegaralanmagan). Ularning barchasi hozircha yagona maqsadga – umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga – yo‘naltirilgan. Davlat pul fondining alohidaligiga aniq maqsadlarga mo‘ljallangan fondlarni kristallizatsiya qilish boshlanganda barham beriladi.

Budjet fondini shakllantirishda ikki xil tushunchadan foydalaniladi:

1) budjetga to‘lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar);

2) davlat budjetining daromadlari.

Bu tushunchalar bir xil ma’noni anglatadi. Chunki ularning ikkalasi ham davlat va mablag‘larni to‘lovchilar o‘rtasida vujudga keladigan bir xildagi taqsimlash munosabatlarini ifoda etadi. Bu yerda faqat ma’no jihatidan emas, balki miqdoriy jihatdan ham bir xillikka erishilgan. Zero, ularning har ikkalasi ham milliy daromadning yagona qismiga tegishlidir. Biroq bu tushunchalarning ikki yoqlamalik xarakteriga ega ekanligini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Davlat budjetiga to‘lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar), eng avvalo, to‘lovchilarning xarajatlaridan iborat bo‘lib, ularning daromadlaridan chegirilsada, bir vaqtning o‘zida, Davlat budjetida ular davlatning daromadlari sifatida gavdalanadi. Ana shundan, taqsimlash munosabatlariga kirishgan ishtirokchilar (tomonlar) o‘rtasidagi manfaatlarda ba’zi bir farqli jihatlar vujudga keladi. Davlat budjetning daromadlarini oshirishdan manfaatdor bo‘lsa, bu narsa u yoki bu darajada to‘lovchilarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) manfaatdorligini (qiziquvchanligini) pasaytiradi.

Shunday qilib, “budjetga to‘lovlar” va “Davlat budjetining daromadlari” tushunchalari yuqorida ko‘rsatilgan umumiylikka ega bo‘lsalarda, bir vaqtning o‘zida, ular o‘rtasida obyektiv farqlar ham mavjud. Budjetga to‘lovlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar yoki to‘lovchilar moliyasining tarkibiy elementlaridan hisoblanadi va boshqa taqsimlash munosabatlari bilan o‘zaro organik bog‘liqlikda ko‘riladi; Davlat budjetida ular daromadlar shaklini oladi va budjetning subyektlar (xo‘jaliklar) bilan budjet munosabatlari keng sohalarining boshqa elementlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Bu holda, taqsimlanayotgan milliy daromadning yagona qismi ikki xil iqtisodiy mazmun kasb etadi va moliya tizimining turli bo‘linmalarida turli ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Davlat budjetining daromadlari o‘zining yaxlitligi (yagonaligi, birligi) bilan farqlanadi va ular yagona maqsadga – ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Undirish metodlari, to‘lovchilarning tarkibi, to‘lash muddatlari va hokazolarda katta farqlanishlar bo‘lishiga qaramasdan ularning barchasi davlat pul fondini shakllantirish bo‘yicha davlat va to‘lovchilar o‘rtasida vujudga kelgan taqsimlash munosabatlarini tashuvchilar (ifodalovchilar)dir. Bu narsa, o‘z navbatida, mablag‘larni to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarning barchasi orasidan moliyaviy (budjet) kategoriyaning bir ko‘rinishi sifatida alohida munosabatlarni ajratib olishga asos yaratib beradi. Agar “moliya” iqtisodiy kategoriya sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, “budjet” bu kategoriyaning tarkibiy qismi, ko‘rinishlaridan biridir. O‘z navbatida, budjet o‘ziga tegishli bo‘lgan (budjetli) kategoriyalarni vujudga keltiradi. Ular “Davlat budjeti” deb nomlangan kategoriyaga nisbatan, ma’lum darajada, bo‘ysunuvchanlik xarakteriga ega bo‘lib, uning tarkibiy qismlari sifatida maydonga chiqadi. Ana shunday budjet kategoriyalaridan biri “Davlat budjetining daromadlari”dir.

“Davlat budjeti daromadlari”ning budjet kategoriyalarining ko‘rinishlaridan biri sifatida ajratilishi, ularning umumiy iqtisodiy asoslari va xarakterli belgilarini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi. Budjet daromadlari davlatning subyektlar (xo‘jaliklar va aholi) bilan

o‘zaro munosabatlarining aniq chegaralangan, aniqlangan qismini ifoda etadi. Bu munosabatlar juda xilmaxil bo‘lishiga qaramasdan, ular umumiy belgilarga ega va umumlashtirilgan, abstrakt holda ishlab chiqarish (budjet) munosabatlarining alohida elementi sifatida maydonga chiqadi. Budjet daromadlari o‘zlarining iqtisodiy tabiatiga ko‘ra obyektiv bo‘lib, ular davlatning subyektlar (xo‘jaliklar va aholi) bilan barqaror aloqalarini ifodalaydi. Ularning obyektiv zarurligi o‘ziga xos funksiyalarga ega bo‘lgan davlatning mavjudligi bilan belgilanadi.

Keng ma’noda daromadlar moliya fanining emas, balki iqtisod ilmining kategoriyasi hisoblanadi. Ular taqsimlash obyekti (masalan, korxonaning yalpi yoki sof daromadi) yoki taqsimlash natijasi (masalan, aholining oxirgi daromadlari) bo‘lishi mumkin. Lekin Davlat budjeti daromadlarining farqlanuvchi belgisi shundan iboratki, ular doimo taqsimlash natijasi (budjetga to‘lovlar) va yanada taqsimlash obyekti (budjet ichidagi fondlarni shakllantirish va moliyalashtirish) sifatida maydonga chiqadi. Demak, Davlat budjetining daromadlari aniq ifodalangan budjet kategoriyasi bo‘lib, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish taqsimlashning budjet mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Davlat budjeti daromadlarining turli ko‘rinishlarini (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, daromad solig‘i va boshqalar) budjet kategoriyalarning navbatdagi ko‘rinishlari sifatida talqin qilish uchun asoslar yyetarli emas. Chunki o‘zlarining mazmuniga ko‘ra iqtisodiy kategoriyalar obyektiv bo‘lib, ular iqtisodiy qonunlarning harakatini ifodalasa, ularning namoyon bo‘lish shakli esa, ma’lum darajada, subyektiv bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham daromadlarning har bir ko‘rinishiga tegishli bo‘lgan xususiyatlar obyektiv harakatdagi (amaldagi) iqtisodiy kategoriyaning – Davlat budjeti daromadlarining namoyon bo‘lish, ifodalanish shaklidir. Bu xulosaning to‘g‘ri ekanligini ko‘p yillik amaliyot ham tasdiqlaydi.

Davlat bor ekan davlat budjetiga to‘lovlar ham mavjud bo‘ladi. Lekin budjetga to‘lovlarning shakli ma’lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo‘yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o‘zgarib boradi. Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida budjetga to‘lovlarning u yoki bu

turi hal qiluvchi rolni o‘ynashi, vaqt o‘tishi bilan esa ular o‘z ahamiyatini yo‘qotib, boshqa to‘lovlar bilan almashtirilishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, “Davlat budjeti daromadlari” kategoriyasining namoyon bo‘lish shakllarining o‘zgarib borganligiga qaramasdan, bu kategoriyaning saqlanib qolganligini anglatadi. Demak, budjetga to‘lovlar ko‘rinishining o‘zgarishi, bir to‘lovning boshqa biri bilan almashtirilishi bu iqtisodiy kategoriya mazmunining emas, balki shakllarining evolyusiyasidir.

Biroq bundan moliyaviy va budjet kategoriyalari qat’iyan obyektiv, ularning namoyon bo‘lish shakllari esa subyektivdir, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Iqtisodiy qonunlarning harakati, iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish munosabatlarining yetukligi va boshqa omillar, ma’lum darajada, Davlat budjeti daromadlarining shakllarini ham belgilab beradi. Bozor iqtisodiyoti (yoki unga o‘tish) sharoitida eng asosiy iqtisodiy vazifa iqtisodiy taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotning samaradorligini ta’minlash, uning raqobatbardoshligiga erishish hisoblansa, bu vazifalarning bajarilishiga budjetga to‘lovlarning shakllari ham o‘zining sezilarli hissasini qo‘shishi kerak. Ular budjet daromadlarini faqatgina miqdoriy jihatdan ta’minlabgina qolmasdan, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarning oqilona va maqsadli taqsimlanishini rag‘batlantirishi ham kerak. Shunday qilib, davlat tomonidan o‘rnatilishi natijasida vujudga kelgan budjetga to‘lovlarning turli shakllari davlatning qonunlarida, moliyaviy boshqaruv organlarining normativ hujjatlarida o‘z ifodasini topgan obyektiv omillarga baribir, ma’lum darajada, bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda, yuqorida qayd etilganidek, hududiy va ma’lum maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘psonli fondlarning shakllanishi yuz beradi, ya’ni umumdavlat pul fondini bo‘lishning murakkab taqsim-lanish jarayoni amalga oshiriladi. Tashqi tomondan u barcha ijtimoiy bo‘linmalardan ajralgan ichki budjet jarayonidek ko‘rinadi. Haqiqatda esa bu taqsimlash ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu bosqichda jamiyatdagi barcha subyektlarning manfaatlari o‘zaro to‘qnash keladi. Mamlakatdagi har bir ma’muriyhududiy birlik

o‘z budjetiga ega bo‘lganligi uchun bu bosqichda ana shu budjetlarning (ya’ni hududlarga mo‘ljallangan fondlarning) umumiy hajmini to‘g‘ri aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. U yoki bu budjetning xarajatlari joylarda olingan daromadlarning hajmi bilan mos kelmasligi oqibatida ularni qo‘shimcha mablag‘lar bilan ta’minlash zaruriyati vujudga keladi, barcha quyi budjetlarni balanslashtirish zarurdir. Shunday qilib, murakkab taqsimlash jarayoni sodir bo‘ladiki, unda mamlakat ma’muriyhududiy bo‘linmalarining barchasi ishtirok etib, ularning ayrimlari o‘z mablag‘larini berishsa, boshqalari esa budjet mexanizmi orqali bu mablag‘larni oladi.

Sirtdan qaralganda, hududlararo budjetli taqsimlash budjetlarning yuqori va quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi munosabatlar sifatidek ko‘rinadi. Chunki budjetli tartibga solish yuqori budjetlarning mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Biroq o‘z daromadlari hisobidan quyi bo‘g‘inlarning budjet munosabatlarini tartibga soluvchi har bir budjet bo‘linmasi amalda (haqiqatda) bu munosabatlarning tarkibiga yuqorida ko‘rsatilgan balanslashtirish sodir bo‘layotgan ko‘plab ma’muriy hududiy birliklarni kiritadi. Ular esa, o‘z navbatida, budjetli tartibga solishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholidan tushgan mablag‘larni sarflaydi. Demak, bu jarayonda ham turli subyektlar o‘rtasida murakkab va ko‘p tomonlamali taqsimlash munosabatlari vujudga keladi.

Bir vaqtning o‘zida, budjet va uning barcha bo‘linmalarida iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ijtimoiy ta’minot, markazlashtirilgan investitsiyalar, hokimiyat va boshqaruv organlari, mudofaa va boshqalarning ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutuvchi mo‘ljallangan maqsadli fondlar shakllantiriladi. Bunda, albatta, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy sohaning bo‘linmalari va hokazolar o‘rtasida mablag‘larni qayta taqsimlash sodir bo‘ladi.

Budjet fondlari o‘zining soniga ko‘ra juda ko‘p sonlidir. Ular davlat budjetining barcha bo‘g‘inlarida va bo‘linmalarida yaratiladi. Shu bilan birgalikda, tashkil etilgan har bir yirik budjet fondlari nisbatan tor doiralarga mo‘ljallangan boshqa fondlarga bo‘linadi. Masalan, “Iqtisodiyot xarajatlari” fondi alohida tarmoqlar fondi, ular esa, o‘z

navbatida, yana bir necha fondlarga bo‘linishi mumkin. Bularning hammasi davlat budjetining asosi sifatida umumdavlat pul fondi turli maqsadlarga mo‘ljallanganligi, ma’muriy hududlarga tegishliligi va katta o‘zgaruvchanligi bilan xarakterlanadigan ko‘p sonli fondlar konglomeratidan iboratdir, degan xulosa chiqarishga asos bo‘la oladi. Bu fond ko‘p sonli taqsimlash kanallari orqali, bir tomondan, xarajat qilinib, ikkinchi tomondan esa, to‘ldirilib boriladi.

Uchinchi bosqichda budjet fondlari hududlar va maqsadga mo‘ljallanganligi bo‘yicha xarajat qilinadi, ya’ni ko‘pchilik hollarda, bir mulkchilik shakli doirasida budjet mablag‘larini qaytarilmaslik tarzida berish sodir bo‘ladi. Ularning haqiqatda sarflanishi esa budjetli taqsimlash jarayonining oxirgi bosqichida budjet mablag‘larini olganlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat budjetining xarajatlari, xuddi uning daromadlari singari, ikkiyoqlamalik xarakteriga ega. Bir tomondan, bu davlatning xarajatlari, boshqa tomondan esa – subyektlarning ixtiyoriga tushadigan qaytarilmaydigan mablag‘lar bo‘lib, ularning daromadlariga aylanadi va ular tomonidan turli maqsadlarga mo‘ljallangan tegishli fondlarni shakllantirishda foydalaniladi. Ana shu ikkiyoqlamali xarakter davlat budjeti xarajatlarining yakuniy emas, balki taqsimlash jarayonlarining faqat oraliq bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Bu yerda budjet fondlarining egasi – davlat va pul mablag‘larini oluvchilar – subyektlar o‘rtasida yangi taqsimlash munosabatlari paydo bo‘ladi. Bu bosqichda (birinchisidan farqli o‘laroq) davlat va aholi o‘rtasida bevosita taqsimlash munosabatlari paydo bo‘lmaydi. Chunki bu bosqichda iste’mol maqsadlari uchun ajratilgan barcha budjet resurslari tegishli subyektlarning fondlarini (masalan, ijtimoiy soha xodimlarining ish haqi fondi, ijtimoiy iste’mol fondlari va boshqalar) shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Daromadlar singari, Davlat budjetining xarajatlari ham obyektiv iqtisodiy (budjet) kategoriya(si)dir. U kategoriya sifatida budjetli taqsimlash munosabatlarining ma’lum bir yakuniy qismini abstrakt holda umumlashtiradi. Ularning moddiylashuvi budjetdan subyektlarga pul mablag‘larining teskari oqimi bilan xarakterlanadi. Bu

munosabatlarning asosida moliya tizimining barcha bo‘linmalariga xos (tegishli) bo‘lgan taqsimlash jarayoni – pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish – yotadi. Lekin bu yerda jarayon teskari tartibda sodir bo‘ladi: pul fondlarini shakllantirish ularning foydalanishidan oldin sodir etilmasdan, budjet mablag‘laridan foydalanish (sarflash) uni oluvchilarda fondlarning shakllanishiga olib keladi.

Budjet mablag‘larini ola turib subyektlar o‘zlarining pul fondlarini tashkil qiladilar. Bu pul fondlari, o‘z navbatida, ma’lum maqsadlarga mo‘ljallangan kichik fondlarga bo‘linadi. Shuning uchun ham davlat budjetining xarajatlari tranzit xarakterga ega bo‘lib, ularni bu yerda tom ma’nodagi xarajatlar deb bo‘lmaydi. Budjet bu xarajatlarning o‘lchamini limitlashtiradi (yana to‘liq darajada emas), xarajatlarning o‘zi esa subyektlarning o‘zi tomonidan amalga oshiriladiki, bu yerga budjetdan moliyalashtirish tartibida pul mablag‘lari yo‘naltiriladi va shu yerning o‘zida taqsimlashning yangi bosqichi boshlanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xarajatlar emas balki amalda (haqiqatda) budjet assignovaniyalari tushuniladigan davlat budjetining xarajatlarini iqtisodiyot moliyasi bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emasdir. Masalan, maorifga qilinadigan budjet xarajatlarini maorif moliyasi deb atash mumkin emas. Xuddi shuningdek, mudofaa xarajatlarini qurolli kuchlar moliyasi, deb bo‘lmaydi.

Budjet kategoriyasi sifatida Davlat budjetining xarajatlari o‘zining turli ko‘rinishdagi shakllariga ega. Ularning shakllari quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

– smetali moliyalashtirish (bunda korxona yoki tashkilot o‘z daromadlariga ega bo‘lmasdan davlat budjetining mablag‘lari hisobidan to‘liq saqlanadi);

– davlatning korxona va tashkilotlariga mablag‘ berish (bunda moliyalashtirish obyektlari sifatida faqat kapital quyulmalar, aylanma mablag‘lar va operatsion xarajatlar maydonga chiqadi);

– dotatsiyalar (bunda budjet rejali zararga ishlaydigan korxonalarning zararlarini qoplaydi) va boshqalar.

Budjet xarajatlari budjet daromadlarining ayrim shakllariga o‘xshash baholarni shakllantirish bilan bog‘liq ham bo‘lishi mumkin. Bunda budjet xarajatlari tovarlarning bahosi uning haqiqiy qiymatidan past darajada o‘rnatilib sotilganda vujudga kelgan zararlarni qoplash manbai sifatida maydonga chiqadi.

“Davlat budjetining xarajatlari” va “budjetdan moliyalashtirish” tushunchalari birbiriga yaqin, lekin aynan birbiriga teng bo‘lgan tushunchalar emas. Agar davlat budjetining xarajatlari budjet kategoriyasini ifoda etsa, budjetdan moliyalashtirish esa bu kategoriyaning subyektlarga barcha aloqador tadbirlar bilan amalda mablag‘larni berish shaklidagi ifodalanishidir. Pul fondlarini shakllantirish jarayoni budjetdan tegishli subyektlarga mablag‘lar berilganidan so‘ng ham davom etadi. Lekin u endilikda budjetdan tashqarida davom etib, subyektlar (iqtisodiyot, ijtimoiy soha va ularning tarmoqlari, korxonalar va boshqalar) moliyasining elementlarini tashkil etadi. Biroq mablag‘larni budjetdan subyektlarga berish yuqorida sanalgan usullarining istalgan birini mustaqil budjet kategoriyasi sifatida talqin qilish mumkin emas. Chunki ularning har biri budjet kategoriyasi hisoblangan Davlat budjeti xarajatlarining namoyon bo‘lish shaklidir.

Shunday qilib, Davlat budjetining iqtisodiy mazmuni deganda umumdavlat pul fondini shakllantirish, mablag‘larni budjetlar ichida taqsimlash va subyektlarni budjetdan moliyalashtirish natijasida vujudga keladigan, o‘zaro bog‘langan taqsimlash munosabatlarining butun kompleksi tushuniladi.

Lekin ishlab chiqarish munosabatlari har doim buyumlashgan tarzda (xususda) vujudga keladi. Bu munosabatlarning buyumlashgan qatlami bu yerda yalpi ichki (milliy) mahsulot hisoblanadiki, u taqsimlash jarayonida qiymat shaklida ishtirok etadi. Budjetli taqsimlash munosabatlariga, ichki jihatdan, qator iqtisodiy qonunlarning ta’siri ostida bo‘lgan moliyaviy aloqalarning keng doirasi xarakterlidir. Davlat budjeti ko‘p sonli va bo‘lingan taqsimlash aktlarining majmui orqali yalpi ichki (milliy) mahsulot harakatining asosiy yo‘nalishlari namoyon bo‘ladi. Aynan budjet iste’mol fondi va jamg‘arish fondining

shakllanishida, iste’mol fondining qismlarga ajralishida, sof daromadning davlat va subyektlar o‘rtasida bo‘linishida hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat budjetining turli belgilari va xususiyatlarining yuqorida bayon qilingan tavsiflariga tayangan holda, uning mohiyatini aniqlab beruvchi quyidagi ta’rifni berish mumkin: mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi ko‘rinishida qonuniy rasmiylashtirilgan, davlat pul fondlarini yaratish (shakllantirish) va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar majmuiga Davlat budjeti deyiladi. Davlat budjetining mohiyatini ochib berishda uning boshqa taqsimlash instrumentlari va moliya tizimining bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqalari muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ta’kidlash joizki, davlat budjeti jamiyatning boshqa taqsimlash instrumentlari (baho, kredit, ish haqi va boshqalar) va moliya tizimining bo‘linmalari bilan uzviy bog‘langandir. Bunday o‘zaro bog‘liqlik, Davlat budjetining mohiyatidan, taqsimlash munosabatlari tizimida uning roli va o‘rnidan kelib chiqadi. Budjet davlat tomonidan markaziy taqsimlash mexanizmi sifatida foydalaniladi, u ijtimoiyiqtisodiy hayotdagi proporsiya (nisbat)larni tartibga solishga yordam beradi.

Davlat budjetining baho bilan o‘zaro bog‘liqligi ikki yoqlamalik xarakteriga ega. Bir tomondan, budjet baho mexanizmidan moliyaviy resurslarni mobilizatsiya (jalb) qilish uchun foydalanadi. Masalan, davlat budjeti daromadlarining bir qismi qo‘shilgan qiymat solig‘i shaklida bo‘lib, bu soliq bahoning elementlari, aniqrog‘i sof daromadning elementlari tarkibiga kiradi. Baho bu holda davlat budjeti tomonidan sof daromadning bir qismini davlatning ixtiyoriga olishda alohida mexanizm rolini o‘ynamoqda.

Boshqa bir tomondan esa, Davlat budjeti mol yetkazib beruvchilar tomonidan yo‘qotmalarni kompensatsiya qilish yo‘li bilan bahoning qiymatdan farqlanishida moliyaviy imkoniyatlar yaratib, baholarni shakllantirishda ham ishtirok etadi. Masalan, mamlakat agrar sektori uchun qishloq xo‘jaligi texnikalari va mineral o‘g‘itlar yetkazib berish bu yerdagi faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlarga ularning haqiqiy

qiymatidan past baholarda amalga oshirilib, baholar o‘rtasidagi farq Davlat budjeti hisobidan kompensatsiya qilinadi (qoplanadi). Bunday hollarda davlat budjeti baholarni shakllantirish mexanizmidan foydalangan holda agrar sektorni bilvosita qo‘shimcha moliyalashtiradi. Aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi xizmatlar bahosidagi farqlarni budjetdan qoplanishi ham xuddi shu mexanizmga asoslangan.

Davlat budjetining uzoq va qisqa muddatli kreditlar bilan o‘zaro bog‘liqligi ham uncha oson emas. Eng avvalo, amaliyotda budjet va kredit resurslarining o‘zaro almashuvchanligi tarkib topganligini e’tirof etish kerak. Mablag‘larning kredit va budjet manbalari birbirini to‘ldirib turishi mumkin. Albatta, bunday o‘zaro ta’sirchanlik (bog‘liqlik) obyektiv ravishda o‘zining chegarasiga ega bo‘lib, undan chetga chiqish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Masalan, shunday faoliyat sohalari va moliyalashtirish obyektlari mavjudki, unda faqat Davlat budjeti va aksincha, faoliyatning tijoriy turlarida, asosan, kredit hal qiluvchi rolni o‘ynashi kerak. Davlat budjeti va kreditning o‘zaro ta’sirchanligi banklarning kredit resurslarini shakllantirish jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘lishi mumkin. Davlat budjeti, eng avvalo, zaruriy hollarda banklar qat’iy passivlarini shakllantirishning muhim manbai sifatida maydonga chiqadi. Ular, o‘z navbatida, uzoq muddatli kreditlashtirish (ustav fondi, zaxira fondi, banklarning kredit resurslarini to‘ldirish uchun maxsus budjet assignovaniyalari va boshqalar) uchun juda zarurdir. Bundan tashqari, budjet hisobvaraqlarida va budjet tashkilotlarining hisobvaraqlarida bo‘lgan davlat budjetining vaqtincha bo‘sh mablag‘lari qisqa muddatli kreditlashtirish uchun banklarning kredit resurslarini to‘ldirishi mumkin. Shu bilan birgalikda, banklarning kredit operatsiyalari daromadlarni shakllantirib, bu narsa ular daromadining bir qismini budjetga olishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida ish haqi haqi ham Davlat budjeti bilan uzviy bog‘langan. Xususan, ijtimoiy sohada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning ish haqi fondini shakllantirishda Davlat budjetining mablag‘lari hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Davlat budjeti mamlakatning moliya tizimida markaziy o‘rinni egallab, uning barcha bo‘linmalari bilan bog‘langan. Bunday bog‘lanish ikki yo‘nalish – budjetga to‘lovlar va budjetdan moliyalashtirish – orqali amalga oshiriladi.

8.2. Davlat budjetining funksiyalari

Davlat budjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning boshqa bo‘linmalari singari, ikki xil funksiyani bajaradi:

1) taqsimlash;

2) nazorat. Davlat budjetining taqsimlash funksiyasi orqali uning mohiyati namoyon bo‘ladi. Bu narsa davlat budjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlarining mazmunidan yaqqol ko‘rinadi. Davlat budjeti orqali amalga oshiriladigan taqsimlash bu jarayonning ikkinchi (oraliq) bosqichidir. Shuning uchun ham Davlat budjetining taqsimlash funksiyasi o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatga ega bo‘lib, u taqsimlangan yalpi ichki (milliy) mahsulotni qayta taqsimlash uchun foydalaniladi. Agar taqsimlashning birinchi bosqichida budjet mablag‘lari (budjetga to‘lovlar) milliy daromadda davlatning ulushi sifatida maydonga chiqsa, uning ikkinchi bosqichida esa ana shu ulush qismlarga bo‘linadi va ko‘p sonli kanallar orqali turli tadbirlarni moliyalashtirishga va fondlarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Aholining budjetga to‘lovlari ham qayta taqsimlash xarakteriga ega. Ularning budjetga turli soliqlar shaklida (ko‘rinishida) kelib tushishi ikkinchi taqsimlash aktidan iboratdir. Ayniqsa, ijtimoiy sohada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar tomonidan turli ko‘rinishdagi soliqlarning budjetga to‘lanishi ham bu mablag‘larning ko‘p sonli taqsimlash bosqichlaridan o‘tishini taqozo etadi. Chunki juda ko‘p hollarda bu mablag‘lar ancha oldinroq budjet yordamida taqsimlanish bosqichidan o‘tib, ijtimoiy sohaga ular budjet assignovaniyalari shaklida yetib borgan bo‘ladi.

Demak, ko‘rinib turibdiki, mamlakatda yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulot (milliy daromad)ning alohida olingan bir qismi

taqsimlashning budjet mexanizmi orqali bir necha marta taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi) mumkin. Bu davlat budjeti taqsimlash funksiyasining birinchi xarakterli xususiyatidir.

Amalga oshiriladigan operatsiyalar ko‘lamining kengligi (masshtabligi), pul oqimlarining kengligi va tashkil topadigan maqsadli fondlarning xilmaxilligi davlat budjeti taqsimlash funksiyasining ikkinchi xususiyati hisoblanadi. Yalpi ichki (milliy) mahsulot (milliy daromad)ning kattagina qismini taqsimlab, budjet turli maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘p sonli fondlarni shakllantiradi. Davlat budjeti bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha bo‘linmalari bevosita yoki bilvosita bog‘langandir.

Davlat budjeti taqsimlash funksiyasining uchinchi xarakterli xususiyati shundan iboratki, bunda taqsimlashning asosiy obyekti bo‘lib jamiyatning sof daromadi (qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda va boshqalar) maydonga chiqadi. Lekin bu narsa milliy daromad, yalpi ichki (milliy) mahsulot va milliy boylik boshqa elementlarining ham qisman taqsimlanishi mumkinligini inkor etmaydi. Budjet orqali soliqlar shaklida jismoniy shaxslarning daromadlari ham qayta taqsimlanadi. Shuningdek, budjet mexanizmi orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida ham mablag‘lar qayta taqsimlanishi mumkin.

Budjet kanallari bo‘yicha qiymatning jamg‘arish va iste’mol fondlari tomon harakati sodir bo‘ladi. Iqtisodiyotga xarajatlarning ma’lum bir qismi, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish va ijtimoiy sohani saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning asosiy qismi budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Davlat moddiy rezervlari o‘sgan qismining barchasi ham to‘liq ravishda budjetdan moliyalashtiriladi. Davlat budjeti ijtimoiy iste’mol fondlarini shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi, ijtimoiy soha xodimlari uchun iste’mol fondining yaratilishini ta’minlaydi.

Budjet orqali taqsimlash jarayoni ko‘p bosqichli amalga oshiriladi. Agar uning birinchi bosqichi iqtisodiyot sohalarida (birlamchi taqsimlash) amalga oshirilsa, budjet orqali yalpi ichki (milliy) mahsulotning ikkilamchi taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi) sodir

bo‘ladi. Uning uchinchi bosqichi (budjetdan moliyalashtirish) iqtisodiyot sohalarini va ijtimoiy sohaning bo‘linmalarini qamrab oladi. Biroq taqsimlanayotgan yalpi ichki (milliy) mahsulotning ayrim elementlari budjet orqali ko‘p martalab ham o‘tishi (taqsimlanishi) mumkin. Masalan, ijtimoiy soha tashkilotlarining ijtimoiy sug‘urta fondiga to‘lovlari budjetli taqsimlashning mahsulidir. Chunki bu soha tashkilotlarida ish haqi fondi budjetdan moliyalashtirish asosida vujudga keladi. Lekin taqsimlashning ikkinchi bosqichidan o‘tib, ular yana budjetga ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar shaklida kelib tushadi.

Shunday qilib, Davlat budjetining taqsimlash funksiyasi taqsimlashning ko‘p martaligi bilan xarakterlanadi, u ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida namoyon bo‘ladi, jamiyat tomonidan iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, maorif, madaniyat, fan, san’at, mudofaa va aholining turmush tarzini yaxshilashda undan foydalaniladi. Faqat Davlat budjetidagina yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlashning ana shunday xilmaxil shakllari va metodlari taqdim etilgan.

Davlat budjetining nazorat funksiyasi ham o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Budjetning milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liqligi takror ishlab chiqarishning barcha bo‘linmalarida ahvolning qandayligi to‘g‘risida ma’lumotlar bilan doimiy ta’minlab turadi.

Mablag‘larning budjetga kelib tushishi, budjet assignovaniyalarining yo‘nalishi va ulardan foydalanish ishlab chiqarish, taqsimlash, almashuv va iste’moldagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni ifoda etadi. Ular milliy iqtisodiyotda nomutanosibliklar (disproporsiyalar)ning vujudga kelayotganligi, rivojlanish sur’atlaridagi buzilishlar, milliy iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan taqsimlash jarayonlarining to‘g‘riligi va o‘z vaqtidaligi, ishlab chiqarishning samaradorligi va hokazolar to‘g‘risida go‘yo signal berib turadi. Milliy iqtisodiyot istalgan bir sohasi yoki korxonaning moliyaviy ahvoli, albatta, Davlat budjeti bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda – soliqlarda, to‘lovlarda, budjetdan moliyalashtirish hajmlarida, budjet assignovaniyalarini o‘zlashtirishda va hokazolarda – o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Demak, budjet orqali rejadan farqlanish (og‘ish), tarmoqlararo moliyaviy aloqalar va davriy qisman

disproporsiyalar, fondlarning hajmi, mablag‘larni o‘zlashtirish sur’atlari va boshqalardagi o‘zgarishlar yaqqol ko‘rinib turadi. Bularning barchasi

Davlat budjetining nazorat funksiyasiga umumiylik, universallik xarakterini beradi (birinchi xususiyat). Bu esa, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotni operativ boshqarishda davlat budjetining nazorat funksiyasidan keng foydalanish uchun sharoit yaratadi. Davlat budjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo‘lgan ikkinchi xarakterli xususiyat moliyaviy munosabatlarning alohida sohasi sifatida davlat budjetining yuqori darajada markazlashtirilganligidan kelib chiqadi. Markazlashtirilganlik har doim yuqori organlar oldida quyi organlarning hisobot berib turishini, ma’lum ketmaketlikda bo‘ysunishning tizimliligini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, yuqoridan quyigacha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishga shartsharoit yaratib beradi.

Qattiq majburiylik, imperativlik davlat budjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo‘lgan uchinchi xususiyatdir. Budjet davlatniki bo‘lganligi uchun uning nazorat funksiyasi milliy iqtisodiyotni boshqarishning instrumentlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Nazorat funksiyasining budjetga obyektiv ravishda xosligi, uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyati davlat huquqiy asosiga ega ekanlikni taqozo etadi. Shuning uchun ham budjet nazorati eng ta’sirchan va samarali sanaladi. Davlat bunday nazoratni amalga oshirish natijasida subyektlarning moliyaviy faoliyatiga operativ ravishda aralashuvi, kerakli hollarda esa, u yoki bu jazolarni qo‘llashi mumkin.

Budjetga obyektiv ravishda xos bo‘lgan nazorat funksiyasi davlat tomonidan faoliyatning barcha sohalarida keng qo‘llaniladi. Budjetni rejalashtirish jarayonlarida va budjetni ijro etishda subyektlar faoliyatining barcha tomonlari tekshirilishi yoki nazorat qilinishi mumkin. Bunday nazorat, odatda, quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi:

1) Davlat budjetining daromadlarini oshirish uchun pul mablag‘larini mobilizatsiya (jalb) qilish;

2) mablag‘larni sarf etishda ularning qonuniyligini ta’minlash;

3) moliyaviy (budjet) mexanizmi orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish.

Davlat budjetining funksiyalari uning iqtisodiy mazmunmohiyatini ifoda etib, budjetni rejalashtirish jarayoni va uni ijro etishda o‘zini namoyon etadi.

Budjetning taqsimlash va nazorat funksiyalari o‘z harakatlari davomida miqdoriy va sifat jihatlariga egadir. Taqsimlash funksiya-sining miqdoriy tomoni u yoki bu fondning o‘lchamiga (hajmiga) tegishli hisoblanadi. Bunda turli fondlarning nisbatlari, ular o‘rtasidagi proporsiyalar, ularning miqdoriy parametrlarini to‘g‘ri aniqlash nazarda tutilayapti. Bu yerda har ikki funksiyaning harakati bir xilda muhimdir. Agar budjetning taqsimlash funksiyasi u yoki bu fondni oshirish yoki kamaytirish yo‘li bilan uni ko‘zlangan darajaga yetkazishga sharoit yaratar ekan, uning nazorat funksiyasi esa ana shunday taqsimlashning natijasini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rishga (aniqlashga) imkon beradi.

Taqsimlashning sifat tomoni budjetning subyektlar faoliyatiga har tomonlama faol ta’sir ko‘rsatib, chuqur aloqalarni o‘zida ifodalaydi. Budjetdan moliyalashtirishdan to‘g‘ri foydalangan holda fondlarning shakllantirilishi budjet mablag‘larining iqtisod qilib, samarali foydalanishiga, iqtisod rejimiga rioya qilinishiga, subyektning barcha bo‘linmalarida samaradorlikni oshirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunga budjetning taqsimlash funksiyasi faqat miqdoriy omillarga bo‘ysundirilganda emas, balki u sifat ko‘rsatkichlariga ham bog‘langandagina erishilishi mumkin. Bunda budjetning nazorat funksiyasi ham o‘zining nimaga mo‘ljallanganligini biroz o‘zgartiradi – u faqat fondlarning miqdoriy jihatdan nomuvofiqligi to‘g‘risida emas, balki ana shu nomuvofiqliklar sifat ko‘rsatkichlariga ham ta’sir ko‘rsatganligi to‘g‘risida signal beradi.

Davlat budjetining ikki funksiyasidan foydalanish natijasida budjet mexanizmi vujudga keladi. Budjet mexanizmi deyilganda, odatda, faqat moliyaviy resurslarni davlatning qo‘lida akkumulyasiya qilish va ularni budjet kanallari bo‘yicha taqsimlashning amaldagi tizimi nazarda tutilmasdan, balki takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga bu jarayonning faol ta’siri ham tushuniladi. Bu mexanizmning detallari

juda ko‘p: soliqlar va budjetga to‘lovlar, budjetdan moliyalashtirishning turli shakllari, mablag‘larni budjetlar ichida taqsimlash va boshqalar ana shular jumlasidandir. Budjet mexanizmi ishlashining samaradorligi unga tegishli bo‘lgan detallarning o‘zaro ta’sirchanligi va ularning birbiriga bog‘liqligi bilan belgilanadi.

8.3. Davlat budjetining ahamiyati

Davlat budjeti mamlakatning moliya tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali uning yordamida katta hajmdagi moliyaviy resurslar davlatning qo‘lida to‘planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat budjeti umumdavlat manfaatlarini inobatga olgan holda ustuvor yo‘nalishlar uchun moliyaviy resurslarni konsentratsiya qilishda asosiy instrument bo‘lib xizmat qiladi.

Ustuvor yo‘nalishlarga davlat budjeti yordamida moliyaviy resurslarni konsentratsiya qilish bir necha usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda, iqtisodiyot yetakchi tarmoqlarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishini ta’minlash maqsadida budjet assignovaniyalarining hajmi oshiriladi. Boshqa hollarda esa, o‘sha sektorlardan mablag‘larni davlat budjetiga olishda qulay rejim (sharoit) yaratiladi.

Davlat budjeti iqtisodiyot alohida tarmoqlarining rivojlanishida asosiy manba rolini ham o‘ynashi mumkin. Masalan, ilmiytexnika taraqqiyoti asosida milliy iqtisodiyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo‘lsa, uning paydo bo‘lishini hozirgi sharoitda budjetdan moliyalashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda budjet katta ahamiyat kasb etadi. Turli obyektiv va subyektiv omillarning ta’siri ostida ayrim subyektlarning o‘z moliyaviy resurslari ularning sog‘lom faoliyat ko‘rsatishi uchun yyetarli bo‘lmay qolganda chetdan mablag‘ jalb qilishga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday sharoitda Davlat budjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga

chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollarning barchasida Davlat budjetining mablag‘lari subyektlarning o‘z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so‘ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foydalaniladi.

Subyektlarning faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda davlat budjetining tartibga soluvchi roli quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

– moliyaviy resurslarga bo‘lgan yangi talabni kelgusi budjet yilida budjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

– moliyaviy resurslarga bo‘lgan qo‘shimcha ehtiyojni mavjud bo‘lgan budjet resurslarini manyovr qilish, ya’ni budjet kreditlarini bir obyektdan ikkinchisiga o‘tkazish. Bunday imkoniyatning mavjud ekanligi amaliyotda ayrim subyektlarning o‘zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to‘liq o‘zlashtirishning uddasidan chiqa olmasligi bilan belgilanadi;

– qo‘shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

Ayniqsa, ijtimoiy soha (maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta’minot) xarajatlarini moliyalashtirish, oilalarga ijtimoiy nafaqa berish, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosidagi farqlarni budjetdan qoplash, davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash, fuqarolarning o‘zo‘zini boshqarish organlarini moliyalashtirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashda davlat budjeti muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

8. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

9-MAVZU: MOLIYAVIY BOZORLAR

9.1. Moliyaviy bozorining mazmun-mohiyati va ahamiyati

Iqtisodiyotning keng mazmuni – shaxslarning maqsadli nafsiy xohish-istaklari talabi rivoji ila bozor ta’siri ostida rejali shakllananuvchi va amalga oshiriluvchi xo‘jalik yuritish jarayoni bo‘lib, unda Alloh tomonidan avvaldan vaqt va miqdor o‘lchamlari bilan me’yorlanib shaxslar ihtiyoriga berilgan moddiy va nomoddiy boyliklar bozor qonunlari asosida obyektiv taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Bozor esa iqtisodiyotda shaxslarning maqsadli nafsiy xohish-istaklari ila naf va manfaatlari sari yetaklovchi (chorlovchi) imkoniyatlari doirasida tartiblashtirilgan refleksiv harakatlari evaziga turli (ijobiy yoki salbiy) samara darajasida obyektiv sodir bo‘luvchi bozor tovarlari bo‘yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlari muhiti bo‘lib, unda taraflarning nafiy manfaatlari talab va taklif asosida shakllanadigan obyektiv narxlarda (baholarda) qondiriladi. Bu muhit Allohning xohishi ila vujudga keladi va unga mos ravishda iqtisodiyot subyektlari tomonidan turli omillar ta’siri ostida rivoji shakllanuvchi iqtisodiy-xuquqiy mexanizm bilan ta’minlanadi va uning faoliyatiga mutanosib quvvat potensialiga (salohiyatiga) ega bo‘ladi.

Bozorning bajaradigan funksiyasi nuqtai nazaridan bozor tizimining vazifasi iqtisodiyotda tovarlar muomalasiga hizmat ko‘rsatish.

Moliya iqtisodiyotning monetizatsiyalashgan alohida shakli sifatida moliyaviy vositalar asosida amalga oshiriluvchi moliyaviy munosabatlar jarayoni ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi toifasi (kategoriyasi). Moliyaning bajaradigan funksiyasi nuqtai nazaridan moliya tizimining vazifasi bozor iqtisodiyotidagi transaksiyalarga xizmat ko‘rsatish, jamg‘armalarni jamlash va taqsimlashdir.

Insoniyatning yer yuzida paydo bo‘lishi tarixiga nazar tashlansa, bozor odamlar o‘rtasidagi boyliklarni natural tovar sifatida maqsadli va o‘zaro manfaatli tarzda oddiy almashinuvi jarayonidan boshlangan. Hozirga kelib bozor alohida nazariyasiga va faoliyat mexanizmiga ega,

yuqori darajada tartiblashgan murakkab infratuzilma shaklida namoyon bo‘luvchi dinamik muhitga aylangan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyot rivojini obyektiv belgilaydi. Bozorning dinamik muhit ekanligi unda tovarlar hajmi va ularning bahosi vaqt birligi ichida talab va taklif asosida uzluksiz jarayon sifatida o‘zgarib borib shakllanishi bilan belgilanadi.

Bozorning eng yuqori darajada rivojlangan turi moliya bozori hisoblanadi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa, moliya bozorini insoniyat jamiyatida pulning paydo bo‘lishi va u bilan bog‘liq bozor munosabatlari amalga oshirila boshlashidan shakllanishini ko‘rish mumkin. Asrlar davomida moliya bozori, uning mazmuni va unga oid tushunchalar shakllanib va uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bunga sabab, inson sivilizatsiyasining moliya sohasidagi tajribasini boyishi, unda shaxslarning (yuridik va jismoniy) moliyaviy munosabatlari va qiziqishlari kengayib, maqsadlari va faoliyat turlari ortib, manfaatlari tobora o‘sib, ularning xaq-huquqlari borgan sari mustahkamlanib va ta’minlanib borishidadir.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o‘z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo‘luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo‘lmoqda. Bunda moliya bozorlari na faqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki global iqtisodiyot rivojini ham belgilamoqda. Uning mazmun-mohiyati quyidagi konseptual tushuncha va qonuniyatlar asosida belgilanadi.

Moliya bozorini, umuman olganda, quyidagicha ta’riflash mumkin: moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta’minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim. Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha subyektlari tomonidan

ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi.

Bu ma’noda, umuman olganda, moliya bozori tushunchasi tovarlarning boshqa turlari (masalan, neft, oltin va boshqa turdagi hom-ashyolar, xizmatlar, ko‘chmas mulk va boshqalar) bozorlar tushunchasi o‘rtasida o‘xshashlikni sezish mumkin.

Lekin har qanday bozorni u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning tovari xususiy atlari bilan bog‘liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko‘rilalayotgan bozor turlaridagi tovarlarni xususiyati, kelib chiqishi va ularning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, albatta sezilarli farq namoyon bo‘ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan tovarlar muomalasi uchun ularga xos bo‘lgan bozor zarur, qimmatli qog‘ozlar uchun esa faqat fond bozori, pul (valyuta) va kreditlar uchun – mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori bo‘lishi kerak va h.k. Bunda real tovar, moliya instrumentlaridan farqli, bir yoki bir necha marotaba oldi-sotdi bo‘ladi, qimmatli qog‘ozlar esa cheklanmagan martta oldi-sotti bo‘lishi mumkin. Umuman olganda tovar kimningdir tomonidan ishlab chiqariladi, moliyaviy instrument (jumladan qimmatli qog‘oz) esa muomalaga chiqariladi.

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo, asosiy va alohida qismidir. Lekin, moliya bozorining asosi real tovarlar bozoridir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta’minlaydi va muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning obyektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

Tovar iqtisodiyotining asosiy maqsadlaridan biri foyda olish bo‘lganligi uchun undagi har qanday faoliyat kapitalni orttirish sohasi bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan har qanday bozor – bir vaqtning o‘zida kapitallarga qo‘yilmalar uchun mo‘ljallangan bozor hamdir.

Pul mablag‘lari tovarning har qanday turiga (jumladan qimmatli qog‘ozlarga) qo‘yilishi (yo‘naltirilishi) mumkin. Buning barcha

holatlarida yo‘naltirilgan pul mablag‘lari vaqt mobaynida o‘z orttirmasiga (yoki zarariga) ega bo‘lishi, ya’ni foyda yoki zarar keltirishi mumkin. Ammo, bu holatlarning barchasida boshlang‘ich pul mablag‘ini jamg‘arish yoki topish jarayoni mavjud emas, har qanday kapitalga pul mablag‘ini qo‘yish uchun boshlang‘ich jamg‘armaga ega bo‘lish yoki topish imkoniyatini bermaydi.

Boshqa sohalardan farqli moliya bozori esa ushbu imkoniyatni beruvchi, uning uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratuvchi muhit, alohida iqtisodiy-xuquqiy mexanizm bilan ta’minlangan, institutlari (qatnashchilari) va ularning moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq munosabatlari majmuasi sifatida namoyon bo‘luvchi tizimdir.

Aynan shu va yuqorida aytilganlar bilan moliya bozori boshqa turdagi bozorlardan keskin farq qiladi.

Sh.Shoxa’zamiyning fikricha moliya bozori o‘z ichiga quyidagi segmentlarni (xususiy bozorlarni) oladi:

-pul-kredit (bank va boshqa kredit tashkilotlari kapitallari) bozori;

-qimmatli qog‘ozlar (fond, kapitallar) bozori;

-valyuta va unga tenglashtirilgan avuarlar (qimmatbaho metallar, kamyob elementlar, san’at asarlari va h.k.) bozori;

-sug‘urta va pensiya fondlari bozori, lotereya o‘yinlari instrumentlari.

Moliya bozori iqtisodiyotda qo‘yidagilar mavjud bo‘lgandagina samarali faoliyat ko‘rsatishi mumkin:

-effektiv (samarali) mulkchilik tizimi[31];

-investitsiya uchun mo‘ljallangan yyetarli jamg‘armalar (moliyaviy resurslar, mablag‘lar) va iqtisodiy-xuquqiy mexanizm bilan ta’minlangan moliyaviy instrumentlar.

-talab va taklifni obyektiv mutanosibligi;

-moliya bozori infratuzilmasini samarali faoliyati;

-bozor qonunlari, tamoyillari va qonunchiligini xukm surishi;

-moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlilik va havfsizlik, risklarni bashoratliligi.

[31] Ernando de Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per. s angl.-M.: Olimp-Biznes, 2001.-272 s.

Moliya bozorida moliyaviy resurslar jarg‘armachilardan iste’molchilarga tomon va aksincha yo‘nalishda harakat qiladi. Bunda jamg‘armalar investitsiyalarga transformatsiyalanadi (aylanadi).

Moliya bozorida resurslar harakati quyidagi omillarga bog‘liq:

- bozorning daromadlilik darajasi;
- bozorni soliqqa tortish shart-sharoitlari;
- kapitalni yo‘qotish yoki nazarda tutilgan foydani ololmaslik riski;
- bozorni samarali institutsional va funksional tashkillashgani;
- bozorni samarali muvofiqlashtirilganligi va nazorat qilinishi;
- moliyaviy instrumentlarning real bazis bilan ta’minlanganligi va shu asosda iqtisodiyot va moliya bozorini ekvivalentligi;
- jamiyatning mentaliteti va tanlab olgan rivojlanish modeli;
- makro va mikroiqtisodiy barqarorlik;
- tashqi kuchlar va hodisalarning bozorga ta’siri va boshqalar.

Ushbu omillar (tashqi va ichki fundamental omillar) moliya bozoridagi voqeliklar (jarayonlar, hodisalar) rivojini shakllantiradi. Samarali (effektiv) moliya bozori bo‘sh kapitalning adekvat hajmini va mamlakatning iqtisodiy o‘sishini ta’minlash uchun zarurdir. Agarda, puldan boshqa moliyaviy resurslar bo‘lmaganda edi, bozor subyektlari o‘zlarining jamg‘armalari hajmidan oshmagan miqdordagina investitsiya qilishlari mumkin bo‘lardi, bu esa ularning investitsion faolligi cheklanganligidan dalolat beradi va kapitalni nooptimal (samarasiz) ishlatilishiga olib kelardi. Natijada bozor subyektlari uchun investitsiya qilish variantlari kam bo‘lganligi munosabati bilan ularda mablag‘larini akkumulyatsiya qilishdan boshqa imkoniyat qolmasdi. Bu esa moliyaviy instrumentlarni bozor muomalasiga chiqarishning afzalligini va moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Muhimi shundaki, erkin iqtisodiyotning qonunlari ta’siri ostida moliyaviy kapitalning (instrumentlarning) samarali, operativ va likvid muomalasi uchun obyektiv moliya bozori muhiti shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhit evaziga iqtisodiyot samarali monetizatsiyalashadi, real mulk va tovarlar pul yordami va o‘lchamida erkin moliyaviy instrumentlarga tranformatsiyalanib, moliya bozorida ularning obyektiv

narhi shakllanadi, natijada iqtisodiyot qonunlariga asoslangan moliyaviy resurslar bilan bog‘liq investitsion faollik rivojlanadi va iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi. Aytish joizki, pul ham kapital sifatida qimmatli qog‘ozga va kreditga transformatsiyalanib bozor muomalasida bo‘lishi mumkin.

Aynan yuqorida aytilganlarning asosida moliya bozori alohida bozor muhiti sifatida effektivlilik darajasiga erishadi. Bunda moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog‘ozlar, bank kapitallari, boshqa turdagi moliya vositalari va mahsulotlari) monetizatsiyalashgan real bazis va shu asosda iqtisodiyot va moliya bozorini ekvivalentligi mahsus samarali iqtisodiy-xuquqiy mexanizm bilan ta’minlanganligi tushuniladi.

Moliya bozorining yuqori darajada tashkillashganligi uning alohida faoliyat mexanizmi bilan belgilanadi. Bu mexanizm iqtisodiyotning qonun va kategoriyalarini to‘liq amal qilishi negizida (6-chi ilovaga qaralsin) va davlatning regulyativ (administrativ va indikativ tarzda) siyosati asosida moliya bozorining barcha qatnashchilarini bevosita ishtiroki natijalari bilan belgilanadi, davlat va iqtisodiyot subyektlari tomonidan birgalikda harakatga keltiriladi.

Moliya bozorining xossalari quyidagilardan kelib chiqadi:

- moliyaviy instrumentlar va ular bo‘yicha iqtisodiy-xuquqiy munosabatlarni ta’minlovchi tashkillashgan murakkab infratuzilmaga (institutsional va funksional tuzilmaga) va faoliyat mexanizmiga ega dinamik tizim;

-ochiqlik, teng imkoniyat, erkin raqobat, obyektiv bozor bahosi, risklilik, omillar va voqeliklarni (jarayonlarni) o‘lchamliligi (tahlil qilinishi, baholanishi va prognozlanishi mumkinligi);

-moliyaviy instrumentlarning monetizatsiyalashgan real bazis va sifat bilan ta’minlanganligi, standartlashganligi va unifikatsiyalan-ganligi;

-bozor va uning qatnashchilarini transparentliligi (informatsion shaffofligi);

-moliyaviy instrumentlarning optimal hajmi va baholarini oby’ekiv talab va taklifdan kelib chiqqan holda shakllanishi;

-moliyaviy instrumentlarning erkin muomalasi industriyasi uchun bozor infratuzilmasi bilan ta’minlanganligi;

-bozor qatnashchilarining biznes quvvati potensiali (sifat parametrlari darajasi miqdori bo‘yicha);

-bozorni tartiblashtirilganligi (muvofiqlashtirilishi va nazorat qilishishi darajasi bo‘yicha).

Moliya bozorining muhim xossalariga quyidagilar kiradi: bozor geografiyasi kengligi va chegaralari, bozorning tashkiliy modeli parametr-lari, bozorni raqobatbardoshliligi va xavfsizligi darajasi, bozorning risklilik darajasi, bozorning jalbdorliligi, bozorning egiluvchan mosla-shuvchanligi daradasi, bozorni iqtisodiyotga ekvivalentlilik darajasi, bozorning funksiyalarini bajarishi darajasi, bozorni omillarga ta’sir-chanligi darajasi. Sanab o‘tilgan xossalar moliya bozori muhitining quvvat potensialini belgilaydi va rivojini shakllantiradi. Ya’ni, moliya bozori muhitining quvvat potensiali darajasi – bosh (integral) xossa sifatida – moliya bozorining sanab o‘tilgan xossalari darajasi miqdori bilan belgilanadi va baholanadi.

Moliya bozori muhiti tabiatan yuqorida keltirilgan xossalar va o‘zaro bog‘langan unsurlar bilan to‘ldirilgan qandaydir tizimli fazo (efir) deb qaralsa, unda u ilmiy nuqtai nazardan ma’lum bir quvvat potensialiga ega bo‘ladi.

Moliya bozorining quvvat potensiali uning unsurlarini (asosan qatnashchilarini) muhit ichida o‘z manfaatlari maqsadida (yo‘lida) qandaydir kuchlanish bilan ta’sir etuvchi kuchi miqdori bilan ifodalashi mumkin. Bozor qatnashchilarining mafaatlari bir-biriga zid bo‘lganligi munosabati bilan bozorda ma’lum sharoitlarda kuchlar muvozanati vujudga keladi, ya’ni moliya bozorida talab va taklifning muvozanat holati paydo bo‘lishini kuzatish mumkin. Odatda, bu muvozanat qisqa vaqtdan so‘ng tez buziladi. Masalan, bozorda xaridor arzonga olishni hohlaydi, sotuvchi esa qimmatroqqa sotishga harakat qiladi. Pirovardida, ikala taraf muayyan vaqtda kopromissga keladi, natijada vaqtinchalik manffatlar muvozanati vujudga keladi. Lekin vaqt o‘tgach, bozor quvvati potensiali o‘zgarishi bilan taraflar manfaati ham

o‘zgaradi, natijada yangi muvozanat (kompromiss) holatiga zamin paydo bo‘la boshlaydi va h.k. Umuman olganda bozor tendensiyasi (dinamikasi) to‘lqinsimon spekulyativ sakrashlar tusini oladi. Moliya bozorining bu xususiy ati ayniqsa qimmatli qog‘ozlar segmentida (bozorida) kuchli namoyon bo‘ladi. Moliya bozorining ushbu xususiy ati uni hom-ashyo va boshqa turdagi tovar (jumladan hizmatlar) bozorlaridan farqlaydi. Bunga sabab, tovar va hom-ashyo bozor-laridagi taklif ishlab chiqarishga bog‘liq, talab esa iste’molga bog‘liq. Lekin, taklif talabdan kelib chiqadi va aksincha, talab taklifdan kelib chiqadi, ya’ni ular bir-birida mujassamlanib, sabab-oqibatiy bog‘liqlikda bo‘ladi.

Shunday qilib, yuqoridagilarning barchasi moliya bozorining mazmuni va xususiy atlarini ifodalaydi.

7.2. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati va o‘rni

Moliya bozorining bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati uni tomonidan quyidagi qulay sharoitlarni ta’minlanishi bilan bog‘liq asosiy vazifalari asosida belgilanadi:

-iqtisodiyotning real sektoriga investitsion moliya resurslarni samarali jalb qilinishi;

-kapitalni samarasiz tarmoqdan samaralisiga qayta taqsimlanishi;

-davlat budjetiga hizmat ko‘rsatishi, uning kamomatini (defitsitini) qoplash uchun pul mablag‘larini samarali jalb qilinishi;

-iqtisodiyotning holatini aniq bozor indikatorlari yordamida baholanishi;

-inflyatsiya sur’atlari (templari) va valyuta kurslari o‘zgarishiga operativ ta’sir ko‘rsatilishi;

-davlatning kredit-pul va budjet-soliq siyosatini obyektiv va mutanosiblikda olib borilishi;

-mulkka egalik xuquqini ishlab chiqarish vositalariga qayta taqsimlanishi;

-jahon globallashuvi jarayonlariga milliy iqtisodiyotni integrallashuvi.

Moliya bozorini mamlakatning umumiy bozori muhitidagi o‘rnini rasmda ko‘rsatilganidek ifodalash mumkin.



9-rasm. Moliya bozorini mamlakatning umumiy bozori muhitidagi o‘rnini ifodalovchi model

Unada mos ravishda tashqi aylanma bilan ko‘rsalilgan yuza I - umumiy bozor muhitini (fazosini), II-chi va III-chi – yuzalar qisqa va o‘rta-uzoq muddatli birjadan tash-qari moliya instrumentlari bozorlari muhitini, IVchi va Vchi yuzalar qisqa va o‘rta-uzoq muddatli birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozor-lari muhitini, VIchi yuza (yadroviy fazo) fond birjasi muhitini ifodalaydi.

Ta’kidlash joizki, VIyuza eng yuqori darajada tashkillashtirilgan va obyektiv narh-navo bozor muhiti hisoblanadi, Ichi yuza esa uning aksidir. Bunda Ichi va IIchi yuzalar oralig‘idagi halqa hubfiya bozorni anglatadi. Sezish mumkinki, o‘ta rivojlangan xususiy mulkchilik tizimi sharoitida[32] moliya bozorining yuqori darajada rivojlantirish, atribut va unsurlarini yuqori quvvat potensialiga erishtirish evaziga hubfiya bozor hajmi qisqarishi mumkin (bunga industrial rivojlangan mamlakatlarning, masalan, AQSH, Germaniya, Yaponiya, moliya bozorlari misol bo‘la oladi).

[32] Ernando de Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per.s angl.-M.: Olimp-Biznes, 2001.-ss.3-270; Shoxa’zamiy Sh.Sh. Osnovi teorii i praktika ekonomiki privatizatsii.-T.: Ibn Sino, 2004.-ss.3-850.

Ushbu model (9-rasm) moliya bozorining umumiy bozor muhitida joylashgan o‘rnini yaqqol ifodalagan holda, uni iqtisodiyotda markaziy o‘ringa egaligini anglatadi. Chunki moliya bozori orqali iqtisodiyotning barcha subyektlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ularning har biri o‘zining manfaati maqsadida moliyaviy instrumentlar yordamida iqtisodiy-xuquqiy munosabatlarni amalga oshiradi.

Moliya bozorining iqtisodiyotdagi funksiyasi asosida uning o‘rni va rolini makroiqtisodiy pozitsiyadan ko‘rish muhim ahmiyatga ega.

Ma’lumki, mamlakatda tayyor mahsulotlarning (hizmatlarning) umumiy taklifi (Y) xarajatlar komponentlari orqali topilishi mumkin, ya’ni Y=C+I+X-M+TR. Ushbu ifodadagi parametrlarni quyidagicha belgilab olamiz: C+I=A (absorbsiya), Y-C=S (milliy jamg‘armalar), X-M+TR=CAB (mamlakatning joriy to‘lov balansining hisobi.

Natijada, quyidagi ifodalarni olish mumkin: Y-A=S-I va S-I=CAB.

Bu tengliklar mamlakatda daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi ichki makroiqtisodiy disbalansni tashqi disbalans bilan bog‘liqligini bildiradi. Ikala disbalans ham jamg‘armalar va investitsiyalar o‘rtasidagi disbalansga olib keladi, demak, ular iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan hisoblanadi[33]. Bunda esa moliya bozorining qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi roli beqiyosdir. Chunki aynan moliya bozori yordamida jamg‘armalar shakllanadi (akkumulyat-siyalanadi) va ular samarali investitsiyalarga traformatsiyalanadi (aylanadi).

Qisqa davr ichida iqtisodiy o‘sish moliya bozori orqali mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishiladi. Ammo uzoq muddatli davrda iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarish quvvatlarini investitsiyalar hajmini kengaytirish yo‘li bilan modernizatsiyalashuvi va oshirilishini talab etadi. Makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida investitsiyalarga bo‘lgan talab esa moliya institutlari yordamida ichki va tashqi jamg‘armalar hisobiga qoplanadi.

[33] Opit razvitiya finansovoy i fiskalnoy sistemi i privlecheniya pryamix inostrannix investitsiy v Vostochnoy Azii: uroki i rekomendatsii. Sbornik trudov mol.uchenix Trushin E., Muzafarov D., Fedorova E., Diykanbaeva G.-Almati, 2001.-ss.74.

Bundan ayon bo‘ladiki, moliya bozori moliyaviy resurslarni (jamg‘armalarni) iqtisodiyotda samarali (effektiv) taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasini amalga oshiradi va iqtisodiyot holati “barometri” rolini bajaradi.

Iqtisodiyotda moliyaviy oqimlar inflyatsiya va foiz stavkasiga bog‘liq holda moliya bozori orqali taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Bunda inflyatsiya va foiz stavkasi moliya bozorining muvozanat holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida aytilganlarga asosan, makroiqtisodiy muvozanatni mos ravishda quyidagi tenglamalar bilan ifodalash mumkin:

S = I (ushbu balansga rioya qilinganda umumiy talab va taklif o‘rtasida tenglikka erishiladi, ya’ni S=Y–A–X=I, bunda A=C+G – absorbsiya; Y-A – ichki jamg‘armalar; X – manfiy ishorali tashqi jamg‘armalar), **MV = PT**.

Ushbu tenglamalar bilan ifodanadigan makroiqtisodiy muvozanat moliya bozori holatida o‘z aksini topadi, ya’ni bozor iqtisodiyotning holatini ekvivalent tarzda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, moliya bozori iqtisodiyotning “egiz-analogi” sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun moliya bozori iqtisodiyotning “barometridir”.

Aytilganlar asosida moliya bozoridaga muvozanatni gipotetik tarzda quyidagi muvozanat tenglamasi bilan ifodalash mumkin: **SV = PT**. Bunda: T – moliya instrumentlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar hajmi (bu esa investitsiyalar hajmiga teng), ya’ni T = I; S – moliyaviy instrumentlar uchun taklif qilingan jamg‘armalar hajmi; V – investitsiya qilingan jamg‘armalarni foyda (zarar) bilan qaytishi tezligi (vaqt oralig‘i, likvidliligi); P – moliyaviy instrumentlar bo‘yicha tuzilgan shartnoma-larning (bitishuvlarning) bozor narxi.

Demak, T = I ekanligini hisobga olgan holda moliya bozorining muvozanat tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:

SV = PI

Ilmiy nuqtai nazardan (1) tenglamani pulning miqdoriy nazariyasiga o‘xshash moliya instrumentlarining (qimmatli qog‘ozlar-

ning yoki investitsiya-larning) miqdoriy nazariyasi deb faraz qilish mumkin.

Ma’lumki, S = I tenglik budjet-soliq siyosati asosida, MV = PT tenglik esa kredit-pul (monetar) siyosati asosida amalga oshiriladi. Bunda S→I→M→S ko‘rinishidagi davriy bog‘liqlik ushbu siyosatlarning ekvivalentliligini bildiradi. Bu esa (1) tenglamani maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. Chunki ikkala siyosat ham barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida real iqtisodiyot uchun ishlaganligi (yo‘naltirilgan-ligi) uchun, ularning uyg‘unlashuvi va optimal balansiga erishish (1) tenglamadan ko‘rinib turibdiki, moliya bozori orqali amalga oshirilishi tabiiydir. Ushbu holatni rasmda ko‘rish mumkin.



10-rasm. Moliyaviy oqimlarni moliya bozori orqali harakati modeli

Bunda, MB – Moliya bozori; B – Markaziy bank; H – Hukumat; UX – uy xo‘jaliklari; F – firmalar; S1 - S4 – B, X, UX va Firmalarning moliya bozori (MB) bilan bog‘lanadigan lokal sikllari. Ushbu sikllar orqali mos ravishda moliyaviy oqimlar harakati moliya bozori qatnashchilari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda Hukumat va Uy xo‘jaliklari, Hukumat va Firmalar o‘rtasidagi bog‘lanish “daromad-soliq” aylanmasi tashqi sikllari bo‘yicha tashkillashgan.

Rasmdagi modelda har bir sikl ma’lum maqsad asosida harakat qiladi va bir-biri bilan bevosita va (yoki) bilvosita bog‘liq bo‘lib, ularning tezligi va hajmi bozor kon’yunkturasiga bog‘liq.

Demak, modeldan ko‘rinib turibdiki, moliya bozori iqtisodiyotda markaziy o‘ringa ega, iqtisodiyotning barcha subyektlari uning kon’yunkturasiga bog‘liq holda o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirda faoliyat yuritadilar. Moliya bozori o‘zining qisqa va o‘rta (uzoq) muddatli instrumentlari (jumladan qimmatli qog‘ozlar) yordamida iqtisodiyot subyektlarini investitsiya bilan ta’minlaydi, resurslarni ularning o‘rtasida samarali taqsimlaydi va qayta taqsimlaydi.



11-rasm. Moliya bozorida kon’nkturaga bog‘liq tarzda investitsiyalarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishining tuzilmaviy-bozor modeli.

Bunday harakat bozor kon’yunkturasi holatiga (ko‘rsatkichlariga) bog‘liqlikda rasmdagi modelda ko‘rsatilganidek amalga oshiriladi.

Bunda, QMAB – qisqa muddatli monetizatsiyalashgan moliyaviy aktivlar (qimmatli qog‘ozlardan tashqari) bozori; UMAB – o‘rta va uzoq muddatli monetizatsiyalashgan moliyaviy aktivlar bozori; QMQB – QMABga mos qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari bozori; UMQB – UMABga mos o‘rta va uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari bozori; BB – qimmatli

qog‘ozlarning birja bozori; *‘* – qimmatli qog‘ozlar bozorining kompleks ko‘rsatkichi (ushbu ko‘rsatkich mos ravishda birjaviy va birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorlari indekslari *‘1, ‘2, ‘3* orqali ifodalanadi, ya’ni *‘=f(‘1,’2,’3)*); *R* – QMAB va UMAB doirasida shakllanadigan foiz stavkalari *r1, r2* orqali ifodala-nadigan kompleks ko‘rsatkich, ya’ni *R = f(r1, r2);* S – moliyaviy instrument-larga investitsiya tarzida moliya bozori orqali yo‘naltirilgan jamg‘armalar.

Moliya bozorida jamg‘armalar oqimining (S) harakati yo‘nalishi foiz stavka (*R)* va indeks (*‘)* ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda shakllanadi, ya’ni *S = f(R, ‘).* Ya’ni qaysi bir ko‘rsatkich jamg‘armaga ega bo‘lgan investor uchun manfaatli bo‘lsa, investor o‘z mablag‘larini o‘sha ko‘rsatkich bilan belgilangan moliya bozori segmenti orqali iqtisodiyotning samarali sohasiga qarab yo‘naltiradi. Bunda iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida investitsiyalar uchun raqobatli kuchli kurash ketadi.

Ta’kidlash joizki, ushbu raqobatli kurashda inflyatsiya darajasi katta rol o‘ynaydi. Agar, inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lsa (giperinflyatsiyada) investorlar o‘z resurslarini QMAB va QMQB tomon yo‘naltiradi, aks holda esa (inflyatsiyaning past darajasida, pulning qadrliligida) investitsiyalar UMAB va UMQB tomon harakat qiladi.

Keltirilgan modelda ko‘rinib turibdiki, S = I tenglik (muvozanat) budjet-soliq (fiskal) siyosati orqali, MV = PT tenglik esa kredit-pul (monetar) siyosati asosida amalga oshiriladi.

Modeldagi S → I → M → T → S sikli asosida ularning o‘zaro ekviva-lentliligi namoyon bo‘ladi, natijada (1) tenglamaning maqsadga muvofiq ekanligi aniq bo‘ladi. Chunki ikkala siyosat ham real iqtisodiyot sektoriga (RE=PS) hizmat qiladi, demak ularning uyg‘unlikdagi optimal balansi moliya bozori orqali ta’minlanadi. Bunda moliya bozorining asosiy maqsadi – iqtisodiyotda kapitalning erkin oqimi hamda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi uchun yyetarli va zarur sharoitlar yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi sharoitlar yaratilishi lozim:

-bozor iqtisodiyoti qonunlarining to‘liq amal qilishi mexanizmini ta’minlash;

-samarali xususiy mulkchilik tizimini mavjudligi;

-monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar (jumladan qimmatli qog‘ozlar) sifatining yuqori ko‘rsatkichlarini (likvidlilik, jalbdorliligi va h.k.) ta’minlanganliligi. Bu ko‘rsatkichlar raqobatni rivojlantirish va narhlar bo‘yicha katta bo‘lmagan kurs tafovuti hisobiga erishiladi;

-moliyaviy instrumentlarning erkin savdosini ta’minlovchi rivojlangan savdo tizimlarini mavjudligi;

-investorlarning haq-huquqlari himoyasini yuqori darajada ta’minlovchi bozorning samarali tartiblashtiruvchi (muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi) tizimini mavjudligi;

-moliya bozori qatnashchilari tomonidan ta’minlanadigan bozorning informatsion shaffofligi (tranparentligi).

Ushbu sharoitlarda moliya bozori iqtisodiyotning samarali faoliyatini ta’minlaydi, investitsiyalarga muhtoj bo‘lgan iqtisodiyot subyektlariga investorlarning moliyaviy resurslarini jamlab biznes maqsadiga ishlatishga, investorlarga mablag‘larini orttirishga, davlatga esa iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, moliya bozori investitsiyalarga muhtoj va resurslarga ega bo‘lgan qatnashchilarni bir-birlari bilan uchrashtirish asosida moliyaviy aktivlar almashinuviga ko‘maklashadigan mexanizm sifatida namoyon bo‘luvchi tizim.

Moliya bozori bir qator funksiyalarni bajaradi. Ularni to‘rt guruhga ajratish mumkin: makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus (ixtisoslashgan) va globallashtirish (meta, ya’ni xalqaro darajada moliyaviy globallashtirish) funksiyalarga.

Makroiqtisodiy funksiyasi jamg‘armalarni investitsiyalarga samarali transformatsiyasini ta’minlab berishdan iborat.

Umumbozor funksiyasi, odatda, har bir milliy bozorga mansub. *Mahsus funksiyasi* esa uni boshqa turdagi bozorlardan farqlaydi.

Umumbozor funksiyasiga quyidagilar kiradi:

-tijoratni rivojlantirish funksiyasi (bu funksiya bozor qatnashchilarining o‘zaro raqobat asosida daromad olishini ta’minlovchi funksiya);

-narh-navoni belgilash funksiyasi, ya’ni bozorda moliyaviy instrumentlarning bozor narhlarini (kurslarini) shakllanishi va ta’siri jarayonini, ularni bozor kon’yunkturasiga bog‘liq tarzda uzluksiz harakatini (o‘zgarishini) ta’minlaydi (bozor kurslari qanchalik tez shakllanib barqarorlashsa, moliya bozorida bu instrumentlar shunchalik samara bilan joylashtiriladi va likvidliligi ta’minlanadi);

-informatsiya bilan ta’minlash funksiyasi, ya’ni bozor o‘z qatnashchilariga savdo obyektlari va savdo ishtirokchilari to‘g‘risidagi axborotni shakllantiradi va havola qiladi;

-tartiblashtiruvchi (muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi) funksiya, ya’ni bozor o‘zidagi savdo va unda ishtirok etish, qatnashchilar o‘rtasidagi munosabatlar me’yorlarini va nizolarni hal qilish tartiblarini joriy qiladi, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlaydi, nazorat organlarini va tartiblarini belgilaydi, bozor qatnashchilari tomonidan bu me’yor va tartib-qoidalarga rioya qilinishini nazorat qiladi va h.k.

Moliya bozorining *mahsus funksiyalariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

-moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi. Uni o‘z navbatida to‘rt kichik funksiyaga ajratish mumkin:

1)moliyaviy resurslarni tarmoqlar va bozor faoliyati sohalari (sferalari) o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash;

2)jamg‘armalarni, ayniqsa aholi jamg‘armalarini, noishlab chiqarish shaklidan ishlab chiqarish shakliga o‘tkazish (transformat-siyalash);

3)noinflyatsion asosda davlat budjetini moliyalashtirish, ya’ni qo‘shimcha pulni muomalaga chiqarmasdan;

4)pul massasini boshqarish;

-narx va moliyaviy risklarni oldini olish funksiyasini, yoki xos ilaviy qimmatli qog‘ozlarni (fyucherslar, opsionlar, svop, forvard va h.k.) paydo bo‘lishi evaziga xedjirlash.

Moliyaviy globallashtirish funksiyasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-moliyaviy resurslarni umumjahon miqyosida globallashgan iqtisodiyot doirasida samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi;

-milliy moliya bozorlarini o‘zaro integratsiyalashuvi (uyg‘unlashuvi);

-moliya bozorlarini internatsionallashuvi;

-jahon globallashuvi jarayonlari (barcha yo‘nalishlarda) rivojini katalizatori va h.k.

Moliya bozori vazifalarini *asosiy va qo‘shimchalarga* ajratish mumkin. *Asosiy vazifalari* uning bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati va qulay sharoitlarni ta’minlashi bilan ifodalanadi (ular yuqorida sanab o‘tilgan).

Moliya bozorining *qo‘shimcha vazifalariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

- emitentning moliya oqimlarini optimallashtirish;
- bozor qatnashchilarining ijobiy imidjini shakllantirish;
- emitentning iqtisodiy manfaatlarini himoyalash;
- biznesni rivojlantirish va qo‘shimcha ish joylarini yaratish;
- jahon moliya tizimiga integratsiyalashtirish;

-siyosiy xuruj, moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik, moliyaviy repressiya va valyutaviy intervensiya vositasi sifatida ta’sir ko‘rsatish;

-investorlarning xuquqlarini himoyalash va maqsad-manfaatlarini ta’minlash.

Xalqaro mavqega ega bo‘lgan zamonaviy moliya bozori o‘zining asosiy roli doirasida (ya’ni iqtisodiyotning holati “barometri”) jahon globallashuvi sharoitida iqtisodiyotda bir-biri bilan bog‘liq quyidagi rollarni o‘ynaydi:

1.“Iqtisodiyotning muammolari darajasini metrikasi, o‘lchagichi”, ya’ni iqtisodiyotda omillar ta’siri ostida paydo bo‘luvchi muammolarni

maxsus indikatorlar yordamida miqdorini o‘lchashga va shu asosda mas’ul davlat organi hamda iqtisodiyot subye’ktlari tomonidan siyosat yuritishda tegishli qarorlar qabul qilishga ko‘maklashadi;

2.“Moliyaviy resurslarni bozor kon’nkturasi asosida iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida tartiblashgan tarzda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishining kommutatori”. Bunda bozor kon’yunkturasi fiskal va monetar siyosatlar yordamida tartiblashtiriladi.

3.“Iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish katalizatori” sifatida ilmiy-texnikaviy progress va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi;

4.“Bozor qatnashchilari tarkibini internatsionalizatori” sifatida iqtisodiy globallashuvni rivojlantiradi;

5.“Moliyaviy instrumentlar va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni standartizatori” sifatida moliyaviy globallashuv jarayonini rivojlantiradi;

6.“Iqtisodiyot subyektlarining investitsion faolligini stimulyatori” sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Investitsion faollik moliya bozorida investorlarning haq-xuquqlarini himoyalanganlik darajasi va risklar sharoitida moliyani samarali boshqarilishga bog‘liq;

7.“Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi stixiyali jarayonlarni regulyatori”. Bunday jarayonlar ma’lum indikatorlar (ko‘rsatkichlar) yordamida baholanib, ularning kritik (chegaraviy) qiymatlarini bilgan holda ma’lum regulyativ vositalar yordamida tartiblashtiriladi;

8.“Bozor narhlari stabilizatori” sifatida bozor savdosi tendensiyalarini (dinamikasini) barqarorlashtiradi, talab va taklifni muvozanatlashtiradi.

9.“Iqtisodiyotni tartiblashgan faoliyatini ta’minlovchi algoritmik protsessor” sifatida barcha moliyaviy munosabatlarni bozor qatnashchilari tomonidan maqsadli strategik tarzda amalga oshirilishiga ko‘maklashadi;

10.“Aktivlar sekyurizatori” sifatida samarasiz real aktivlarni qimmatli qog‘ozlarga transformatsiyalab, ularga yangi hayot bag‘ishlaydi va faol investitsion jarayonga qayta kiritadi.

11.“Iqtisodiyot subyektlari informatori” sifatida ularning risklarini pasaytirishga (yoki boshqarishga) ko‘maklashadi;

12.“Innovatsion moliyaviy vositalar (mahsulotlar va operatsiyalar) sintezatori” sifatida raqobatbardoshlilik va moliyaviy havfsizlikni ta’minlaydi.

13.“Moliyaviy vositalarning mahsus industriyasi” sifatida bozor qatnashchilari uchun moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq faoliyat bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonini tashkillashtiradi.

14.“Iqtisodiyotning investitsion muhiti sifati va muammolari darajasini analizatori” (1-chi va 11-chi rollar bilan hamohang tarzda);

15.“Bozor qatnashchilariga o‘z muammolarini anglashga, baholashga va hal qilishga ko‘maklashadigan mexanizm”.

16.“Ekvivalent ko‘zgu” sifatida barcha bozor qatnashchilarining faoliyat natijalari sifatini bevosita va bilvosita aks ettiradi hamda kelajakdagi strategiyalarini maqsadli qurishga ko‘maklashadi.

17.“Spekulyativ operatsiyalar totalizatori” sifatida bozor qatnash-chilarini kutilajak, ammo riskli, manfaatlar tomon chorlaydi. Bunda emitentlar qimmatli qog‘ozlari sifatini spekulyativ investorlarning orzuli maqsad-manfaatlarini kerakli (spekulyativ) darajada ta’minlashga majburlar, aks holda investorlardan mahrum bo‘ladilar. Sababi, emitentlar iqtisodiy rivojlanish uchun yangi va qo‘shimcha investitsion resurlarga muhtoj, investorlar esa – moliya instrumentlari bo‘yicha kam (yoki ko‘p) riskli bozor daromadiga intiladilar, chunki, aynan spekulyativ investorlar iqtisodiyotda investitsion muhitni belgilaydilar. Shunday qilib, moliya bozori spekulyativ investorlarning azartga kirishi muhitini qizdiradi, moliyaviy instrumentlarni muomalaga chiqaruvchilarni esa doimiy tarzda moliyaviy barqarorlikka majbur qiladi, investitsiyalarga bo‘lgan raqobatli kurashini qizdiradi, natijada bozor raqobatini muhitini ta’minlaydi.

18.“Moliya bozori qatnashchilarini bir butun infratuzilmaviy tizimga birlashtiruvchi” sifatida har bir qatnashchini o‘z o‘rnini, maqsad va vazifalarini, funksiyalarini, bir-biri bilan bog‘liqlikdagi tartibli

faoliyatini ta’minlaydi. Har bir unsur bozorda o‘ziga xos maqsadga va tegishli faoliyat turiga ega;

19.“Moliyaviy mahsulotlar (instrumentlar), resurslar va hizmatlar gipermarketi” sifatida barcha bozor qatnashchilarini ularning tovarlarini obyektiv narhlarda almashinuvi borasida uchrashtiradi va manfaatlarini qondirish uchun kerakli sharoitlarni yaratadi;

20.“Bozor muhiti” sifatida bozorda ochiq (erkin) iqtisodiyot qonunlarining amal qilinishini, iqtisodiyotni monetizatsiyalashuvini, kapital aylanmasi va transformatsiyasini, aktivlar sekyuritizatsiyasi tamoyillarini ta’minlaydi. Bunda har bir mamlakat bozori muhiti o‘zining quvvat potensiali miqdori doirasida aytilgan rolini bajaradi;

21.“Moliyaviy globallashtiruvchi” sifatida yuqorida keltirilgan rollar asosida milliy iqtisodiyotlar birlashuvini ta’minlaydi, bozor qatnashchilarining xalqaro darajada faoliyat chegaralini va ta’sirini kengaytiradi, davlatning regulyativ rolini kamaytiradi (xalqaro regulyativ tashkilotlar evaziga), resurslar oqimini geografik kegaytirib tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi;

22.“Moliyaviy instrumentlarning obyektiv kurslarda konvertori” sifatida valyutalarni va qimmatli qog‘ozlarni erkin bozor baholarida va hajmlarida raqobatli almashinuvini ta’minlaydi.

23.Investorlarning mablag‘lari uchun kuchli raqobatli kurash sharoitida “Investitsion loyihalar seleksiyasini va strukturaviy (tuzilmaviy) islohotlarni amalga oshiruvchi mexanizm” roli (13.4-rasmdagi modelga qaralsin). Ushbu rolni samarali bajarilishi yuqorida keltirilgan rollarga hamohang bo‘lib davlatning monetar (asosan foiz stavkasini o‘zgartilishi) va fiskal siyosatlari bilan bog‘liq iqtisodiy o‘sish modelida katta ahamiyatga ega.

Ta’kidlash joizki, keltirilgan rollar faqat ochiq bozor iqtisodiyoti sharoitida, o‘ta rivojlangan biznes va xususiy mulkchilik tizimida to‘liq bajarilishi mumkin. Bunday sharoit va tizimga ega bo‘lmagan mamlakatlarning bozori yuqori darajada rivojlangan davlatlar bozoriga qaram bo‘ladilar[34].

[34] Ernando de Soto. Sekret kapitala. Pochemu kapitalizm torjestvuet na Zapade i terpit porajenie vo vsem ostalnom mire./Per. s angl.-M.: Olimp-Biznes, 2001.-272 s.

Moliya bozori, jumladan qimmatli qog‘ozlar bozori, faoliyat ko‘rsatishining asosiy *tamoyillari* quyidagilardan iborat:

-barcha potensial investorlar o‘z mablag‘larini foydali tarzda joylashtirishlari uchun ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish;

-bozorda tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi;

-erkin raqobat yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish;

-narxlarni real tarkib topadigan talab va taklif asosida belgilash;

-bozor to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga uning barcha qatnashchilari tomonidan rioya etishi;

-birja va birjadan tashqari operatsiyalar, kotirovkalar, emitentlarning moliyaviy holati to‘g‘risidagi axborot oshkor etilishining shartligi;

-o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan barcha investorlar va emitentlar uchun bozordan foydalanish mumkinligi;

-moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog‘ozlar) va ularning emitentlariga doir axborotning to‘la oshkor etilishini, oshkoralikni va bu axborotdan barcha qatnashchilar foydalana olishini ta’minlash;

-investorlar va emitentlarning manfaatlarini himoya qilish;

-bozorda tovlamachilik va boshqa noqonuniy faoliyatni taqiqlash hamda ta’qib qilish.

Moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyat ko‘rsatishining asosiy tamoyillariga rioya etilishi davlatning tartibga solishga oid chora-tadbirlari bilan birga fond birjalari va bozor qatnashchilarining birlashmalari (uyushmalari) ishlab chiqqan qoidalarini uyg‘unlashtirish asosida ta’minlanadi.

9.3. Moliyaviy bozorlarning tarkibiy qismlari

Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko‘rinishini quyidagi tarkibiy qismlar birligi sifatida tasavvur qilish mumkin.



12-rasm. Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko‘rinishi

Eng sodda tarzda aytiladigan bo‘lsa, moliyaviy bozorda moliyaviy aktivlar sotiladi va sotib olinadi. O‘z navbatida, q*arz majburiyatlari (debt), aksiyalar (equity)* va *xos ila qimmatli qog‘ozlar (derivatives)* moliyaviy aktivlarning asosiy turlaridan bo‘lib hisoblanadi. Qarz instrumentlari pulni qarzga oluvchi hamma – firmalar, hukumatlar va uy xo‘jaliklari – tomonidan chiqariladi. Tegishli ravishda, qarz majburiyatlari bozorida korporativ va davlat obligatsiyalari, uy-joy va tijorat garovlari, shuningdek iste’mol qarzlari kabi aktivlar bilan savdo qilinadi. Qarz instrumentlarini yana **qayd qilingan daromad instrumenti** (fixed-income instruments) deb ham atashadi. Zero, ular bo‘yicha kelgusida qayd qilingan summani to‘lash va’da qilinadi. Ularni yana **qattiq foizli qimmatli qog‘ozlar** deb atash ham mumkin.

Qarz instrumentlari, shuningdek, *qarzni uzish muddati (maturity)* asosida ham klassifikatsiyalanadi. Qisqa muddatli (qarz uzish muddati bir yildan kam bo‘lgan) qarz majburiyatlari bozori **pul bozori** (money market) nomiga ega. Uzoq muddatli qarz majburiyatlari va aksiyalar bozori esa **kapital bozori** (capital market) deb nomlanadi.

Pul bozorida, asosan, yo xususiy sektorning ishonchli qarz oluvchilari tomonidan (veksellar va yirik korxonalarning boshqa tijorat qog‘ozlari) yoki davlat tomonidan (masalan, g‘aznachilik vekseli) chiqarilgan foizli qimmatli qog‘ozlar kabi instrumentlar aylanadi.

Zamonaviy pul bozorlari uchun global integratsiya[35] va **likvidlik** (liquidity) o‘ziga xos xarakterga ega. Aktivning likvidlik darajasi uni pulga konvertatsiya qilinish jarayonining oddiyligi, xarajatlari va tezligiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Aksiya – bu firma *mulkdorlari* tomonidan uning aktivlari qismiga qo‘yiladigan talabdir. Korporatsiya kapitali ulushiga egalik qilishdan dalolat beradigan qimmatli qog‘ozlar AQSHda *oddiy aksiyalar* (common stocks), Buyuk Britaniyada *aksiyalar* (shares) deb ataladi. Aksiyani sotib olish va sotish *fond bozorida (stock market)* amalga oshiriladi. Har bir oddiy aksiya boshqa aksiyadorlar bilan firmaning mulkidagi qismda (yoki ulushda) baravarligini bildiradi.

Oddiy aksiyalar korporatsiya aktivlariga **qoldiq talablarni** (residual claim) ifodalaydi. Bunday aksiya egalari firmaning, u tomonidan barcha qolgan moliyaviy majburiyatlarni bajarganidan so‘ng qolgan istalgan aktivlariga huquqi bor. Masalan, agar firma biznesni to‘xtatishga qaror qilsa va o‘zining barcha aktivlarini sotayotgan bo‘lsa, u holda oddiy aksiyalarga egalik qiluvchi barcha aksiyadorlar, barcha kreditorlarga tegishli bo‘lgan summalar to‘lab bo‘lingandan keyin nima qolsa (yoki nimadir qolsa) hammasini o‘zaro bo‘lishib oladilar.

Oddiy aksiyalar unga egalik qiluvchining **cheklangan mas’uliyati** (limited liability) bilan tavsiflanadi. Bu, agar firma yopilayotgan bo‘lsa, va uning aktivlarini sotishdan tushgan daromad uning hamma qarzlarini yopishga yetmayotgan bo‘lsa, unda kreditorlar aksionerlardan qarz majburiyatlari bilan to‘liq hisob-kitob qilish uchun qo‘shimcha mablag‘ talab qilish huquqiga ega emasliklarini anglatadi. Bu yerda kreditorlarning korporatsiyaga talablari uning aktivlariga bo‘lgan talablari bilan cheklanib qoladi.

Xos ilaviy qimmatli qog‘ozlar deb, bahosi boshqa aktivlar, masalan, aksiyalar, qayd qilingan daromadga ega qimmatli qog‘ozlar, xorijiy valyuta yoki qandaydir mahsulotlar bahosiga bog‘liq bo‘lgan

[35] «Integratsiya» lotincha «integratio» - tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish. 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Yaqinlashish va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. 3. Ikki yoki undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish. Qarang: o‘sha manba. J.II. - B.216.

moliyaviy vositalarga aytiladi. Ularning asosiy funksiyasi ular xos ila hisoblangan aktivlarga qo‘yilmalarning risk darajasini boshqarish uchun vosita sifatida xizmat qilishdan iborat.

Xos ilaviy qimmatli qog‘ozlarning kengroq tarqalgan turlari *opsi-onlar* va *forvard kontrakt*[36]*lari* hisoblanadi. **Sotib olishga opsion,** yoki **«koll» opsion** (call option) – bu egasiga ma’lum bir miqdordagi aktivlarni belgilangan narxda opsion amal qilish muddatining o‘tib ketishi yoki tugaguniga qadar istalgan paytda *sotib olish* huquqini beradigan vositadir. **Sotishga opsion,** yoki **«put»opsion** (put option) – bu, egasiga opsion amal qilish muddatining o‘tib ketishi yoki tugaguniga qadar xohlagan paytda kontrakt bo‘yicha o‘rnatilgan narxda ma’lum bir miqdordagi aktivlarni sotish huquqini beradigan vositadir. Aktiv egasi ushbu aktivni sotish uchun opsion sotib olar ekan, o‘zini uning narxi kontraktda ko‘rsatilganidan kamayib ketish xavfidan samarali sug‘urta qiladi.

Forvard kontraktlar (forward contracts) deb, kontraktda ko‘rsatilgan narx va vaqt bo‘yicha ma’lum bir aktivlarni bir tomon sotib olish majburiyatini, ikkinchi tomon esa sotish majburiyatini oluvchi vositalarga aytiladi. Bu xil kontraktlar sotuvchiga va xarid qiluvchiga ushbu aktivlarning kelgusida sotiladigan narxining noaniqligiga bog‘lanib qolmaslik imkonini beradi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018-yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy

[36] «Kontrakt» lotincha «contractus» - bay, bitim, kelishuv. Tomonlarning huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan holda tuzilgan ikki yoki ko‘p tomonlama shartnoma, bitim. Qarang: o‘sha manba. J.II. - B.403.

bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

8. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

10 - MAVZU. SUG'URTA

10.1. Sug‘urta tushunchasi va uning mohiyati

Sug‘urta sohasidagi dunyo olimlari nazariy qarashlarining rivojlanib borishi jarayonining barcha davrlarida sug‘urta to‘g‘risidagi qarashlarda turlicha yondashuvlar davom etib kelgan. Iqtisodiy fikrlashning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan olimlar tadqiq etilayotgan kategoriyalarni o‘sha davr sharoitiga moslashga harakat qilib kelganlar.

Sug‘urtaga tegishli barcha xususiyatlarni o‘zida mujassam-lashtirgan “sug‘urta” kategoriyasini shakllangunga qadar ko‘plab chet mamlakatlar nazariyotchi olimlar o‘rtasida muhokamalar shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Misol uchun zararni taqsimlash nazariyasining asoschisi chet ellik taniqli olim A.Vagner ushbu nazariya yordamida u sug‘urtaning iqtisodiyotdagi o‘rnini aniqladi – sug‘urta o‘zaro ishonch prinsipiga asoslangan, kutilmagan favqulotdagi hodisalar oqibatidagi holatlarni bartaraf etishdan iborat ekanligini asoslab berdi.

Sug‘urta sohasi bo‘yicha nemis mutaxassislaridan biri Deter Farni fikriga ko‘ra “ Sug‘urta sug‘urtalovchilar va sug‘urta faoliyatining boshqa ishtirokchilari o‘rtasida risklarning vaqt mobaynida muvozanatlanishi asosida ehtiyojlarning aniq belgilanmagan hajmini himoyalashdan iborat bo‘ladi.” deb ta’rif bergan.

Yana bir sug‘urta bo‘yicha tadqiqot olib borgan rossiyalik olim A.K. Shixov tomonidan sug‘urtaga quydagicha ta’rif berilgan “Sug‘urta sug‘urta iqtisodiy munosabatlar tizimi, shu jumladan maqsadli mablag‘larni shakl va usullari majmuasi va ulardan turli xil kutilmagan noxush hodisalar uchun qoplama olishda foydalanish, shuningdek, fuqorolarga hayotlarida muayyan voqealar sodir bo‘lishiga yordam berishdir”[37]

[37] ШиховА.К Страхования Учеб. Пособие для студентов вузов –М:ЮНИТИ, 2000.-431 с.

Rossiyalik olim A.Yu.Anisimovning fikriga ko‘ra “Sug‘urta har bir davlatning bozor iqtisodiyotida asosiy element hisoblanadi. Chunki sug‘urta birinchi o‘rinda xatarlarni oldini olishda eng maqbul iqtisodiy kategoriyalardan biri” deb hisoblaydi.

Sug‘urta faoliyatida “xizmat” tushunchasi fundamental hisoblanadi. Sug‘urtachi tomonidan taklif etlayotgan “xizmat” o‘zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya’ni u o‘z mijoziga faqat “va’dani sotadi”. Shu sababdan ba’zi adabiyotlarda “ko‘rinmaydigan faoliyat” deb ham tasnif beriladi.

Mahalliy olimlarimiz ham sug‘urtaga o‘zlarining ta’riflarini berishgan bo‘lib, ular biri professor Q.M.Qo‘ldoshev o‘zining tadqiqot-lari natijasida sug‘urtaga shunday ta’rif bergan “Sug‘urtainsonlar uyushganda paydo bo‘ladi. Sug‘urtaning maqsadi kasallik tufayli, yong‘in va boshqa tabiiy hodisalar va stixiyali hodisalar natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash va kelajakdagi turli ijtimoiy va iqtisodiy talablarni qondirish, ya’ni qo‘shimcha nafaqa, nogironlik nafaqasi, stipendiya olish va boshqa shu kabi talablarni qondirishdan iborat ”[38] Olim sug‘urtaga uning maqsadidan kelib chiqgan holda ta’rif bergan.

Yana bir sug‘urta bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olim X.M.Shinnayev ta’rifiga ko‘ra “Sug‘urta – deb, tabiiy va boshqa stixiyali kuchlar ta’siri natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash, oldini olish hamda ogohlantirish uchun maqsadli yo‘naltirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir ”[39] deb e’tirof etilgan. Sug‘urtaga berilgan ushbu ta’rifda sug‘urtaning kutilmagan yuzaga keladigan risklar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Yana bir tadqiqodchi G.D.Adilova o‘zining dissertatsiya ishida sug‘urtani quydagi ta’rif bilan izohlagan “Sug‘urta -sug‘urta hodisasi yuz berganda va ushbu manbadan investitsiya sifatida foydalanishda

[38] Қ.М.Қўлдошев “Суғуртанинг муқобил шакли сифатида ўзаро суғурталаш жамиятларини ташкил этишнинг назарий ва хуқуқий асослари” –Монография-Тошкент: “VNESHINVESTROM” нашрёти-2018.

[39] Х.Шиннаев, И.Очилов, С.Ширинов, И.Кенжаев Суғурта иши: ўқув қўлланма-Т.: “Тафаккур бўстони”, 2014й.

aholiga yetkazilgan zararni qoplash uchun jismoniy va yuridik shaxslarning mablag‘larini to‘lashdir. ”[40]

Mahalliy olimlarimizdan tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida sug‘urta haqida yana shunday ta’rif mavjud: “Sug‘urta –bu ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashga mo‘ljallagan maqsadli sug‘urta fondalarini uning qatnashchilari o‘rtasida badallar hisobidan shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig‘indisidir”[41]

Iqtisodchi olimlarimiz tomonidan sug‘urtaga berilgan ta’riflarda fondlilik, tasodiflik, to‘lovlilik kabi asosiy umumiy tushunchalarga duch kelamiz. Sug‘urtaga berilgan ta’riflar ichida qonunchilikda keltirilgani har taraflama mukammali hisoblanadi, ya’ni “Sug‘urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi”[42]

Sug‘urta- insonlar (yoki tashkilotlar) va ularning manfaatlarini turli xavf-xatarlardan sug‘urta himoyasini ta’minlashga mo‘ljallangan iqtisodiy munosabatlarning maxsus turidir.

Tor ma’noda sug‘urta-jismoniy va yuridik shaxslar (polislar) ning mulkiy manfaatlarini ular tomonidan to‘langan sug‘urta mukofotlaridan (sug‘urta mukofotlari) xos il bo‘lgan pul mablag‘lari (sug‘urta fondlari) hisobiga muayyan hodisalar (sug‘urta hodisalari) yuz berganda himoya qilish uchun shakllanadigan (sug‘urtalovchi va sug‘urtalovchi o‘rtasidagi) munosabatdir.

Meyoriy hujjatlarda keltirilgan ta’rifga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati haqida”gi qonunda sug‘urta faoliyatiga shunday ta’rif berilgan “Sug‘urta faoliyati deganda sug‘urta bozori professional ishtirokchi-

[40] Г.Адилова “Иқтисодий глобаллашув шароитида суғурта хизматларини такомиллаштиришнинг йўналишлари” номли дессертацияси-2020й.

[41] Г.Ж.Жумаев, Р.Х.Джалилов, Р.Рашидов. Суғурта назарияси ва амалиёти : “VNESHINVESTROM” наширёти-2019

[42] Ўзбекистон Республикаси “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонун

larining sug‘urtani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyati tushuniladi.” Sug‘urta munosabatlari yuzaga kelganda sug‘urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil –xujjat sifatida “Polis” beriladi. Sug‘urta shartnomasida sug‘urtalanuvchiga sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rishi ehtimol bo‘lgan zararning ekvivalent qiymatidagi pul to‘lovi ta’minlanishi nazarda tutiladi. Shartnomaning bajarilishi unda qayd etilgan ma’lum davr oralig‘ida amalga oshiriladi.

Sug‘urta faoliyatini sug‘urta munosabatlar ishtirokchilarning o‘rtasida ularning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zararlarni taqsimlovchi, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Yetkazilgan zararni taqsimlash sug‘urtalanuvchining mulkiy manfaatlariga yetkazilagan zararlarni qoplab berishda barcha sug‘urtalanuvchilarning ishtiroki tushuniladi ya’ni sug‘urtalanuvchilar tomonidan to‘langan sug‘urta mukofotlari hisobiga shakllantirilgan sug‘urta fondlari orqali sug‘urta hodisasiga uchragan sug‘urtalanuvchining zararlari qoplab beriladi.



13-rasm. Sug‘urtalash jarayoni sxemasi[43]

Biroq sug‘urta qoplamasini amalga oshirilayotgan sug‘urta fondidagi moliyaviy mablag‘larning yetmasligi sug‘urtalovchining sug‘urtalovchi oldidagi javobgarligini to‘liq bajarmasligi mumkin degani emas, balki sug‘urta qoplamasini amalga oshirishda sug‘urtalochi

[43] С.В.Ермасов, Н.Б.Ермасова “Страхования”-М.,2004

sug‘urta shartnomasidagi kelishilgan sug‘urta summasi doirasidagi sug‘urta qoplamasini amalga oshirish uchun o‘z mablag‘laridan ham foydalanishi kerak.

Sug‘urtalovchi ko‘rilgan zararlarni pul yordamida qoplab beradi, ya’ni sug‘urta munosabatlari pul aylanmasi (pul munosabatlari)orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun sug‘urta faoliyati moliya tizimiga kiruvchi soha hisoblanadi.

Sug‘urtaning asosiy ma’nosi baxtsiz hodisalar natijasida ko‘rilgan zararlarni kamaytirishdan iborat. Biroq sug‘urta orqali barcha baxtsiz hodisalar orqali yuzaga kelgan yo‘qotishlarni qoplab berolmaydi. Sug‘urta qoplamasi amalga oshirilishi uchun sug‘urta hodisasi ma’lum bir shartlar asosida sodir bo‘lishini talab etiladi.

Sug‘urta qoplamasi amalga oshirilishi uchun sug‘urta hodisasi ro‘y berishi aniq emas lekin kutulmaganda sodir bo‘lishi yoki sodir bo‘lishi aniq lekin noaniq vaqtda sodir bo‘lishi kerak. Kutilmagan holatda sodir bo‘ladigan hodisa sodir bo‘lishi aniq bo‘lmaydi yoki umumin sodir bo‘lmasligi ham mumkin. (Misol uchun barcha sug‘urtalagan uylar yonib ketmaydi). Hodisa yuz berishi aniq, lekin sodir bo‘lish vaqti noma’lumligi bilan asoslanadi (sug‘urtalangan shaxsning o‘limi aniq, biroq hodisaning sodir bo‘lish vaqti noma’lum)

Sug‘urta aniq bir hisoblarga asoslanmagan lekin ro‘y berish ehtimoli ma’lum bir kuzatuvlar hisobiga aniqlanadigan hodisalardan sug‘urtalaydi.

Sug‘urta xizmatidan foydalanuvchilarning hammasi ham to‘lagan mukofotlari evaziga qopalama olmaydi, balki ayrim sug‘urta hodisasiga uchragan sug‘urtalanuvchilar mukofotlaridan ortig‘ini qoplama sifatida sug‘urta mukofotlari hisobidan shakllantirilgan sug‘urta rezervlaridan olsa, ayrimlari esa sug‘urta hodisasi unga tegishli bo‘lmasa, umuman sug‘urta qoplamasi olmaydi.

Shu sababli sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishda risklarni hisobini olish talab etadi. Chunki sug‘urtalangan barcha sug‘urta obyektlarda sug‘urt ahodisasining bir vaqtda sodir bo‘lishi sug‘urta kompaniyalarini bankrotlik holatlariga olib kelishi mumkin. Bunday

holatga tushib qolmaslik uchun sug‘urtaga qabul qilinayogan sug‘urta risklari o‘rganilib, iahlil qilinadai va sug‘urtaga qabul qilinadi. Sug‘urta qabul qilingan riklarning ro‘y berish ehtimolligi yuqori bo‘lsa sug‘urta obye’kti ma’lum bir shartlar asosida sug‘urtalanadi.

Risk bu noma’lum kattalikdagi salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib keladigan kelajakdagi hodisadir. Riskning haqiqiy salbiy natijasi ma’lum bir moddiy o‘lchov bilan bog‘liq bo‘lgan zarar bilan ifodalaydi. Riskning omili va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash zarurati baxtsiz hodisalardan himoya qilish mexanizmini tashkil etishni talab qiladi.

Iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari o‘ziga xos va mos bo‘lgan risklarga ega va ushbu risklar ma’lum bir moliyaviy yo‘qotishlarga olib keladi. Odatda risk tushunchasi hodisaning kelajakdagi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar bilan bog‘liq.

Tashkilotlar kelajakda kutilayotgan riskni sodir bo‘lishini oldini olish va buning natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlar qiymatini pasaytirish maqsadida turli chora tadbirlarni qo‘llaydi. Risklarni boshqarishning eng maqbul usuli bu sug‘urta xizmatlaridan foydalanishdir. Sug‘urtaning mohiyati sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchilar o‘rtasida pulni qayta taqsimlash munosabatlarining paydo bo‘lishida yotadi. Ushbu munosabatlar sug‘urtalovchining sug‘urta mukofotlaridan shakllantirilgan sug‘urta zaxiralari orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib sug‘urtaning asosiy mohiyati sug‘urtalangan shaxslarning sug‘urtaga qilgan to‘lovlari orqali shakllantirilgan sug‘urta zaxiralari orqali ko‘rilgan zararlarni qoplashdan iboratdir.

Sug‘urta qoplamasini ta’minlash-sug‘urta kompaniyalari ishlab chiqaradigan va sotadigan moliyaviy xizmatlar turi. Biroq, sug‘urta uni moliya tizimining boshqa elementlaridan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarga yega. Ular quydagilardan iborat:

- Sug‘urtta munosabatlari natijasida pulni qayta taqsimlash jarayonlari yuzaga keladi:

Sug‘urta xizmatidan foydalangan shaxs o‘z mablag‘ini sug‘urtaga yo‘naltiradi va sug‘urta fondida barcha sug‘urtalanuvchilarning

mablag‘lari yig‘ilib sug‘urta hodisasi yuz berishi natijasida sug‘urta kelib tushgan pul qayta taqsimlanadi, ya’ni sug‘urta qoplamasi amalga oshiriladi. Aniqroq qilib aytganimiza sug‘urta munosabatlaririda pul sug‘urta hodisasi natijasida qayta taqsimlanadi.

- Sug‘urtalanuvchilarda sug‘urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zarar sug‘urta zaxirasidan kelib chiqib taqsimlanish tartibiga egaligu :

Sug‘urta zaxiralari mablag‘lari zararlarni faqat uning ishtirok-chilari zararlarini qoplashi uchun sarflanadi. Ya’ni nechta sug‘urtalan-ganlarning sug‘urta mukofotlari orqali tuzilgan sug‘urta zaxirasi shakllangan bo‘lsa, shu sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urta hodisasi jarayonida ko‘rilgan xarajatlar taqsimlanadi. Bunda sug‘urta hodisasida ko‘rilgan zarar sug‘urta rezervlariga kelib tushgan pul mablag‘larida kam bo‘lishi ahamiyatlidar. Sug‘urta ishtirokchilarining doirasi qanchalik keng bo‘lsa, zararni taqsimlashda har bitta sug‘urtalanuv-chining ulushi shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni sug‘urta mukofoti summasi kamayadi. Shunday qilib, mablag‘larning sug‘urta rezervlariga yyetarli daraja kelib tushishi har bir sug‘urtalanuvchining minimal narxlarda maksimal zararni qoplash imkoniyati yaratiladi.

- Sug‘urtada kutilayotgan zararlar m’lum bir hududlar va ma’lum bir davr mobaynida taqsimlanishi:

Zararlarning taqsimlanishi hududiy jihatdan notekis bo‘lib, zararni xududlar bo‘yicha teng taqsimlanishi uchun katta hudud va juda ko‘p sonli sug‘urta obyektlari talab qilinadi, ya’ni ma’lum bir xududda sodir bo‘ladigan hodisa natijasida yuzaga kelgan zararni teng taqsimlash uchun juda ko‘p sug‘urta obe’ktlari talab etiladi. Kutilayotgan zararlarning ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘lishi sug‘urtalanuv-chidan ehtimolligining qanchalik darajada haqiqatga yaqinligi hisobga olishini talab etiladi. Bu sug‘urta sug‘urtalovchilar ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladigan sug‘urta hodisasin oldini olish uchun yillar ketma –ketligida sug‘urta hodisasini ro‘y berish ehtimollarni hisobini oladi. Va sug‘urta hodisasining ma’lum bir vaqtda sodir bo‘lishi natijasida ko‘rilgan zarar qoplash uchun sug‘urta hodisa ro‘y bermagan

yillarda yig‘ilgan sug‘urta mukoftlardan sug‘urta fondlarini shakllantirishini talab etadi. Bu esa sug‘urta qoplamasini har qanday holatda ham amalga oshirilishi ta’minlaydi. Kutilmagan hodisalarni ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘lishi sug‘urtalovchilarning moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi.

-Sug‘urtalanuvchi tomonidan ko‘rilgan zarar boshqa sug‘urtala-nuvchiga xabar berilmagan holda qoplab berilishi.

Sug‘urta fondiga kelib sug‘urtalanuvchilarni pul mablag‘lari biron bir sug‘urtalanuvchini ko‘rgan zararini qoplashga yo‘naltiriladi. Bu esa boshqa sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta mukofotining sug‘urta muddati o‘tishi natijasida qaytarib bermaslik holatini keltirib chiqaradi. Har bir sug‘urtalanuvchining sug‘urta fondiga o‘tkazgan sug‘urta to‘lovlari faqat bitta maqsadga ega –ma’lum miqdordagi zarani ma’lum xududiy miqyosda va ma’lum muddat ichida qoplash. Shu sababli, kutilmagan va noxush hodisalar bo‘lmagan taqdirda sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalanuvchiga qaytarilmaydi.

Yuqoridagi sug‘urtaning xususiyatlaridan kelib chiqib sug‘urta-bu zararni yopiq holda qat’iy taqsimlash va uni naqd pul bilan qoplash asosida qiymat hararkati bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik yurutuvchi subyektlar va fuqorolarning mol-mulkini, shaxsiy moliyaviy manfaat-larini himoya qilish bo‘yicha iqtisodiy qayta taqsimlash munosabatidir.

Risklarni muvaffaqiyatli tenglashtirish maqsadida sug‘urta kompaniyalari polislar tomonidan to‘langan va sug‘urta mukofotlari deb nomlangan sug‘urta mukofotlari miqdorini asoslashga katta e’tibor qaratadi. Sug‘urta mukofotining miqdori zararlanish ehtimoli va uning taxmin qilingan miqdorini hisobga olgan holda aniqlanadi. Sug‘urta texnologiyasi mukofotlarni hisoblash bo‘yicha sug‘urta mukofotlari, birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash sxemalari kabi risklarni tenglashtirish vositalaridan foydalanadi.

Umuman olganda sug‘urta iqtisodiy kategoriya sifatida quydagi-larni ifodalaydi:

-Sug‘urta hodisasi va zararning kutilmagan holatda sodir bo‘lishi;

-sug‘urta ta’rif stavkalari va sug‘urta hodisalarning ro‘y berish ehtimollari hisobi asosida sug‘urta rezervlarini shakllantirish;

-sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urta mukofotlari miqdorini noteks taqsimlanishi;

10.2. Sug‘urtaning funksiyalari

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy ijtimoiy vazifalari insonlarning moddiy va ma’naviy farovonligiga erishish, kishilarning madaniy-maishiy hayot sharoitlarini yaxshilashda o‘z ifodasini topadi. Bu vazifalarni hal qilishda ijtimoiy sohani rivojlantirish va uning infratuzilmasini takomillashtirish asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy soha - insonlarning hayot darajasini yaxshilash, intelektual salohiyatini boyitish, turmush farovonligini ta’minlashda, ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda xizmat ko‘rsatuvchi turli subyektlar faoliyati yig‘indisidir. Ijtimoiy maqsadlar uchun shakllantirilgan markazlashgan jamg‘armalar aynan shu yo‘nalishlarda ishlatiladi. Ijtimoiy siyosatni olib borishda markazlashgan pul jamg‘armalaridan tashqari korxona va tashkilotlar, aholi, horijiy moliyaviy institutlar, turli homiylar mablag‘lari jalb etiladi. Ijtimoiy xizmatlarni moliyaviy ta’minlashni sug‘urtalash orqali amalga oshirilishi, davlat zimmasidagi og‘irlikni yengillashtirishda yordam beradi. Sug‘urta faoliyati iqtisodiyotdagi turli xaf-xatarlarni oldini olish va moliyalashtirish oraqali o‘ziga xos xususiyatlarga ega iqtisodiyotning tarmog‘idir. Sug‘urta o‘zining iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib, o‘z funksiya lari ega. Sug‘urtaning fuksilari sug‘urta faoliyatini moliya tizimining bir qismi ekanlini bildirib, quydagi funksiyalarni bajaradi:

-Xaf-xatar funksiyasi;

-Ogohlantirish funksiya si;

-Jamg‘arma funksiyasi;

-Nazorat funksiya si.

Sug‘urtaning xaf-xatar funksiyasi.

Ushbu funksiya amalga oshirishdan oldin kompaniya sug‘urta shartnomasi tuzilayotgan paytda sug‘urta shartnomasida sug‘urta hodisalarining sodir bo‘lishi bilan bog‘liq risklarni belgilab oladi. Chunki sug‘urtaning asosiy maqsadi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan sug‘urta hodisalardan ko‘rilgan zararni qoplab berishdan hisoblanadi. Aytaylik, ma’lum bir sug‘urtalanuvchi mulkiy sug‘urta xizmatidan foydalanib, o‘z mulkini sug‘urtaladi. Uning asosiy maqsadi, sug‘urtalanuvchining mulki bilan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisa natijasida kutilayotgan zararlar miqdorini sug‘urta kompaniyasi orqali moliyalashtirishdan iborat. Ushbu holatda sug‘urta kompaniyasi sug‘urtaga qabul qilinayotgan obyekt bilan bog‘liq risklarni o‘rganib chiqib, sug‘urtaga qabul qiladi va shartnoma imzolaydi. Shartnomaga sug‘urta summasi, sug‘urta mukofoti, sug‘urta davri va sug‘urta obyektiga tegishli risklar bo‘yicha sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan sug‘urta hodisalarni keltirib o‘tadi. Agar sug‘urta davri davomida sug‘urta obyekti baxtsiz hodisa natijasida zarar ko‘rsa va bu hodisa shartnomasiga asosan sug‘urta hodisasi debe’tirof etilsa, sug‘urta kompaniyasi ko‘rilgan zararni sug‘urta summasi doirasida to‘lab beradi. Ushbu holat natijasida sug‘urtaning xaf-xatar funksiyasi amalga oshirilayapti. Xaf-xatar funksiyasi sug‘urtaning asosiy maqsadini ifodalovchi funksiya hisoblanadi.

Sug‘urtaning jamg‘arma funksiyasi

Sug‘urtaning ushbu funksiya si asosan sug‘urtaning uzoq muddatli turlarida paydo bo‘lib, bu funksiya orqali sug‘urtalanuvchini sog‘lig‘ini saqlashda va mehnat faoliyatini yo‘qotganda moliyaviy yetishmov-chiliklar holatlarni oldini olishga mo‘ljallangan jamg‘arma jamg‘arishga ko‘maklashish orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgandir. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, sug‘urtalanuvchilar o‘z hayotlarining uzoq muddatga sug‘urtalashi orqali, ma’lum bir davr davomida sug‘urta kompaniyasi har oyda sug‘urta mukofoti to‘lab boradi. Buning natijasida ma’lum bir davr o‘tgandan keyin sug‘urta-lanuvchining sug‘urta kompaniyasida jamg‘armasi shakllanadi. Bu jamg‘arma jismoniy shaxslarning daromad solig‘idan ozod bo‘lib, bir

yildan ortiq davr asosida amalga oshiriladi. Aynan shu funksiyasi orqali uzoq muddatli sug‘urta shartnomalari asosida pul mablag‘larining jamg‘arilishi orqali “Sug‘urta” tushunchasi “Kredit” tushunchasiga yaqinlashadi.

Ogohlantiruvchi funksiya.

Ushbu funksiya sug‘urta kompaniyasining xaf-xatar funksiyasidan oldin bajariladigan funksiya bo‘lib, sug‘urtaga qabul qilinayoigan obyekt bo‘yicha kutilayotgan sug‘urta hodisalarning ro‘y berish ehtimollari kamaytirish ya’ni sug‘urta obyektini turli xaf-xartlar oldini olish choralari bo‘yicha ogohlantirish va obyektni nazorat qilishdan iborat. Sug‘urtalash jarayonida anterayter tomonidan risklar baholanadi va riskni yuz berish ehtimollarini sug‘urta fondi pul mablag‘lar oraqali kamaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni qo‘llanishi mumkin. Ya’ni sug‘urtaga qabul qilinayotgan risklarni ro‘y berish sabablarini ma’lum ma’noda kamaytirish yoki sug‘urta sharnomasida sug‘urta hodisasi sifatida e’tirof etiladigan hodisalarni ayrimlarini hisobga olmaslik va shu bilan birga sug‘urta shartnomasida sug‘urta qorlamasini amlga oshirish bilan bog‘liq ma’lum bir cheklovlar (frashiza) o‘rnatish bilan bog‘liq chora tadbirlarni amalga oshirish. Umumiy holda sug‘urtaning ogohlantirish funksiyasi kutilayotgan risklarni kamaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar majmuasi asosida yuzaga keladi.

Nazorat funksiyasi.

Bu funksiya asosan sug‘urta fondi mablag‘larini shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liqdir. Sug‘urtalash jarayonlarini amalga oshirishda sug‘urta ta’rif stavkalarini shakllantirish va sug‘urta rezerv-larni taqsimlash bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalarni boshqarishdan iborat. Ya’ni ushbu funksiya orqali sug‘urta mahsulotlarini sotishda aktuar hisob kitoblar asosida ta’rif stavkalar o‘rnatish, sug‘urta xizmatlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini belgilash, sug‘urta xizmatlarini sotish va sug‘urta hodisalarni ro‘y berganda ko‘rilgan zararni maoliyalashtirish maqsadiga yo‘naltirilgan sug‘urta rezervlarini shakllantirishdan iborat. Nazorat funksiyasi kompaniyaning to‘lovlik qobiliyatini oshirish, rejadagi daromadni olish va shu bilan birga

potensial sug‘urtalanuvchilarni jalb qilishga doir masalalarni hal qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Sug‘urtalanish orqali tadbirkorlik faoliyatidagi turli hodisalar natijasida ko‘rilgan zararlar moliyalashtiriladi. Bu esa ishlab chiqarish munosabatlarining uzluksizligiga sharoit yaratadi. Sug‘urta fondlarining muntazam ravishda shakllantirib borilishi sug‘urta zararlarining o‘z vaqtida to‘lab berilishini kafolatlaydi. Ijtimoiy soha xarajatlari aholi turmush farovonligini ta’minlashda markazlashgan pul jamg‘armalari hisobidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy sohaning sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy nafaqalar ko‘rinishidagi xarajatlarini sug‘urta xizmatlari orqali amalga oshirish mumkin. Buning uchun sug‘urta xizmatlaridan foydalanish talab etiladi. Sug‘urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan bunday xizmatlar budjet oldidagi ijtimoiy xarajatlarning tejalishiga ko‘maklashadi. Fuqarolik javobgarligi munosabatlari: xodim bilan ish beruvchi, ma’lum kasb egalarini boshqa shaxslar, transport vositalari egalarini uchinchi shaxslar bilan o‘rtalarida sodir bo‘lishi mumkin. O‘z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan xodimning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligi yuzaga keladi. Bunday javobgarliklarni sug‘urta xizmatlari orqali qamrab olinishi javobgar oldidagi ko‘zda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirilishining oldini oladi va bevosita jabrlanuvchilar manfaatlari himoyalanadi. Sug‘urta funksiyalarni mikro va makro darajada ko‘rib chiqishimiz mumkin:

Sug‘urta funksiyalarining mikro darajaga ta’siri quydagicha:

Xaf-xatar funksiyasi – ushbu funksiyasi yoki riskni qoplab berish funksiyasi polis orqali sug‘urtalanuvchi ma’lum risklar yuz berishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotishlarni moliyalashtirishni sug‘urta kompaniyalarning zimmasiga o‘tishi bilan ifodalanadi. Bu funksiya bir necha jihatlarga yega:

Birinchidan, sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz bergach, sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan shartlarda ular tomonidan ko‘rilgan zararni qoplash uchun mablag‘lar oladi.

Ikkinchidan, korxona ma’lum darajada sug‘urta mukofotlarini xarajatlarga, ya’ni uning tovar yoki xizmat narxiga kiritishi mumkin.

Makroiqtisodiy darajada sug‘urta funksiyalari:

- korxonalarda ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash;
- davlatni qo‘shimcha xarajatlardan ozod qilish;
- ilmiy va texnologik taraqqiyotni rag‘batlantirish;
- fuqarolik javobgarligi munosabatlari tizimida shikastlanganlar manfaatlarini himoya qilish;
- ichki investitsiya resurslarini jamlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash funksiyasi sug‘urta hodisalaridan zarar ko‘rgan korxonalar faoliyatini tez tiklash va qayta ishga tushishi uchun moliyaviy sharoit yaratadi. Har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektga yetkazilgan zarar nafaqat unga , balki u ishlab chiqarish resurslarini yetkazib beruvchilar va uning mahsulotlarini iste’mol qiluvchilari bilan bog‘lanib turgan zanjir bo‘ylab uzatiladi. Shu balan birga korxonaning uzoq vaqtgacha qayta ishga tushmasligi ishsizlikning yuzaga keltiradi va korxonaning likvridlilik darajasini pasaytiradi. Bu xavfga tushib qolmaslikning eng muqobil yo‘li bu sug‘urta xizmatidan foydalanishdir. Sug‘urta yuqorida korxonani daromadga olib keluvchi zanjirning uzilishi natijada ko‘rilgan zararlarni tiklashga va korxonaning o‘z faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq rejalarni amalga oshirishga doir masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Sug‘urta fondlari orqali davlatning qo‘shimcha xarajatlardan ozod qilishi funksiyasi.

Bu funksiya orqali davlatning ijtimoiy himoyaga doir xarajatlarni kamaytirish va baxtsiz hodisa natijasida sug‘urtalanuvchilarning ko‘rgan zararlari sug‘urta kompaniyalarining zimmasiga o‘tishi bilan ifodalanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, sug‘urta orqali ushbu

xarajatlar kamaytirilsa, sug‘urtadan foydalanilmagan holatda barcha tabiiy ofatlar, avariyalar, portlashlar va boshqa ofatlar oqibatlar natijasida yuzaga kelgan yo‘qotishlar davlat zimmasiga o‘tkaziladi.

Aholi bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarnatijasida yuzaga keladigan hodisalar natijasida ko‘rilga zararlarni ma’lum bir ma’noda kamaytirilishi davlatning boshqa harajatlarini moliyalashtirishga ko‘proq pul ajratishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Investitsion funksiya.

Sug‘urta kompaniyalarning sug‘urtalashdan boshqa investitsiya faoliyati bilan ham shug‘ullanishi mumkinligi qonun asosida belgilab qo‘yilgan. Sug‘urtaning ushbu funksiyasi ayrim adabiyotlarda funksiya siafatida e’tiof etilmagan. Biroq bizning tadqiqotlar imizga ko‘ra sug‘urta ushbu funksiyani ham amalga oshirishini e’tirof etamiz. Sababi investitsiya faoliyati orqali sug‘urt akompaniyalari milliy iqtisodiyot uchun ichki investitsiya resurslarini shakllantirib beradi. bu funksiya orqali sug‘urta zaxiralari davlatning qimmatli qog‘ozlariga, korxonalar va moliya kompaniyalari, banklar va ko‘chmas mulk aksiyalariga yo‘naltiriladi va moliyalashtiriladi. Shunday qilib, sug‘urta kompaniyalari sanoatni, uy-joy qurilishini va davlatni moliyalashtiradi, ya’ni davlatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan sug‘urtaning funksiyalari sug‘urtaning mohiyati va iqtisodiyo ijtimoiy hayotdagi uning o‘rnini anglatadi.

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

8. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

II-BO‘LIM. SOLIQQA TORTISH NAZARIYASI

11. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI, SOLIQ TIZIMI VA SIYOSATI

11.1. Soliqlarning obyektiv zarurligi va o‘ziga xos xususiyatlari

Soliqlarni to‘lash har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchidir. Soliqlar ko‘rinishida davlat budjetiga tushgan mablag‘lar ijtimoiy himoyaga, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mudofaa, aholining tinch yashab mehnat qilishi kabi ijtimoiy xizmatlarga sarflanadi. Albatta tan olish kerak, har bir fuqaro davlatning ijtimoiy xizmatlaridan bahramand bo‘ladi.

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug‘ullanish iqtisodiy samarasiz bo‘lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshqalar) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo‘yadi, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo‘ladi.

Soliqlarning obyektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ikki holat: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin.

Davlatning bajaradigan funktsiyalari va vazifalari ko‘p bo‘lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba’zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo‘qola borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida

davlatning yangi vazifalari paydo bo‘ladi. Bularga respublikamizda kam ta’minlanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo‘jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu erda davlat kuchli ijtimoiy - siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo‘rlar, talabalar, ko‘p bolali onalar va boshqalarni ko‘proq mablag‘ bilan ta’minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta’minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston davlati jamiyat a’zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o‘q-dorilarga ham mablag‘lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o‘rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo‘lgan soliqlarni ham obyektiv zarur qilib qo‘yadi[44].

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funktsiyalarini bajarish uchun lozim bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo‘llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma’lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan ularni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida bo‘ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko‘rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini xos il qiladi. Lekin ular soliq bo‘la olmaydi, soliq munosabati bo‘lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo‘li bilan

[44] Vahobov A., Jo’raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - T:.Sharq, 2009. 6-7-bet.

davlat budjetiga majburiy tartibda to‘lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun budjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo‘nalishlarini mablag‘ bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi usuli hisoblanadi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog‘liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Soliq to‘lash xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan davlat o‘rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar budjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda investitsiyalarni ko‘paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko‘paytirishga;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog‘liq bo‘lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo‘lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning asosiy qismini soliqlar orqali to‘playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to‘lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo‘lgan intilishini rag‘batlantiradi, narx belgilashga ta’sir ko‘rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo. Shuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag‘larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog‘liq bo‘ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo‘lib, albatta yanada kengroq kategoriya - davlat budjeti bilan chambarchas bog‘langan. Chunki soliqlar budjetning shakllanishida ishtirok etadi.[45]

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to‘planib borishini ta’minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromad-larni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat budjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog‘liq bo‘lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o‘ynashi mumkin.

[45] Vaxobov A., Srojiddinova Z. O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. –T.: TMI, 2002. 36 – bet.

11.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro munosabati

Har qanday iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, soliq kategoriyasi ham bir qator o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, ushbu belgilar soliqlarni boshqa to‘lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to‘lovchi tomonidan davlatga to‘lanadigan ma’lum bir summa evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olinmaydi. Alohida olingan soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq miqdori bilan u iste’mol qiladigan ijtimoiy ne’matlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud bo‘lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko‘ra soliq narxdan, (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste’mol qilganligi uchun to‘lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig‘imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to‘lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko‘rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko‘rilishi bilan bog‘liqdir.

Davlatga to‘lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne’matlar o‘rtasida bevosita, har bir kishining ko‘zi ilg‘aydigan bog‘liqlikning yo‘qligi soliq to‘lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo‘ladi, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo‘nalishini ma’qullashlari ham mumkin.

2. Soliqlar majburiy to‘lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to‘liq miqdorda va o‘z vaqtida to‘lanishi uchun javobgarlik soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklangan bo‘lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to‘laydilar, davlat soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to‘lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo‘yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko‘zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko‘pgina davlatlarning, shu jumladan, O‘zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga

faqat Oliy Majlis yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo‘q. To‘lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo‘lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy budjetga kelib tushishidir, ya’ni soliqlar budjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo‘lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir. Soddaroq qilib aytganda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkining ma’lum bir qismini davlat hisobiga o‘tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘lgan mulk daromad shaklida majburiy to‘lov bo‘lib, davlat mulkiga aylanadi.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug‘urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o‘xshashlikka ega, ya’ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o‘ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi[46].

11.3. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to‘lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, milliy daromadning bir qismi bo‘lgan pul mablag‘larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funktsiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o‘z funktsiyasi mavjud. Soliq

[46] Vahobov A., Jo’raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - T:.Sharq, 2009. 12-13-bet.

ham mustaqil kategoriya sifatida o‘zi bajaradigan funktsiyalarga ega bo‘lib, bu funktsiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funktsiya deganda, odatda kategoriyaning hayotda ko‘p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy xarakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funktsiyasi.
2. Tartibga solish funktsiyasi.
3. Rag‘batlantirish funktsiyasi
4. Soliqning nazorat funktsiyasi.
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta’minlash funktsiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funktsiyasi - fiskal funktsiya hisoblanib (lotincha fiscus so‘zidan olingan bo‘lib, xazina degan ma’noni anglatadi), bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari xos il qilinadi hamda davlat faoliyat ko‘rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo‘lagini davlat apparati, mamlakat mudofaasi, noishlab chiqarish sohasining umuman o‘z daromadlari manbaiga ega bo‘lmagan qismini (ko‘pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta’minlash uchun o‘zining mablag‘i etishmaydigan tarmoqlarni (fundamental opgan, teatrlar, muzeylar, ko‘plab o‘quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo‘li bilan davlat budjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funktsiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funktsiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tusdaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko‘paytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko‘proq e’tibor bergan sari ko‘p moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi o‘zining fiskal funktsiyasi va vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish o‘sishiga, jamg‘arish jarayoniga

halal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda xalq xo‘jaligining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi, bozor jarayoniga putur etkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funktsiyasi orqali xos il bo‘ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat budjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo‘naltiriladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funktsiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya’ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funktsiya orqali soliq tizimiga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur’atlarini rag‘batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma’qul bo‘lgan boshqa tarmoqqa qo‘yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to‘lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funktsiyasining ahamiyati bozor sharoitida o‘sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma’muriy qaram qilish usullari yo‘q bo‘lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko‘rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo‘lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o‘zi asta-sekin yo‘qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo‘lgan yo‘nalishda rag‘batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. Rag‘batlantirish funktsiyasi soliq tizimining eng muhim funktsiyalaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg‘arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag‘batlantiradi. Soliqlarning rag‘batlantirish

funktsiyasi orqali davlat xalq xo‘jaligi taraqqiyotini rag‘batlantiradi, bu bilan fiskal funktsiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag‘batlantirish funktsiyasi orqali rag‘batlantirib, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyat ko‘rsatishi ta’minlanadi.

4. Soliqlarning nazorat funktsiyasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to‘lovchilar o‘zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta’minlash funktsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funktsiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarishga sarflanganligi to‘g‘risida axborot berib turilishi juda zarur. Shunday qilinsa, soliqlarning budjetga tushishi to‘liq, o‘z vaqtida va oson kechadi.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko‘pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o‘xshashliklarga ega. Ana shunday an’anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta’minlab berish. Soliqlarning fiskallik funktsiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, soliqlarning fiskallik funktsiyasi shunchalik faol bo‘ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlari ko‘payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko‘maklashish. O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu

vazifasini bajarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo‘naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirishning qudratli vositasi bo‘lishi kerak.

3. Aholining mehnat faolligini rag‘batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarning oldini olishi mumkin. 70-80 yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qo‘llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

4. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat printsiplari o‘rtasidagi muvofiq-likka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo‘yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o‘zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o‘zgarmaydigan bo‘lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo‘lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi[47].

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, soliqlarning budjetga ijobiy ta’siri-dan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo bo‘lgan tijorat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq

[47] Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To’xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. O’quv qo’llanma. – T.: 2007, 18-22 betlar.

stavkalarini tabaqalashtirish yo‘li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o‘rta va uzoq muddatli vazifalarga bo‘linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat budjetining tushumlariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini budjetning o‘rta muddatli rejada hayotiyligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

11.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari

Soliqlarning funktsiyasini o‘rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko‘rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko‘plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab bergan:

1) Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o‘zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2) Har bir odam to‘laydigan soliq aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi kerak, bunda o‘zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to‘lanadigan vaqti va tartibi uni to‘lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma’lum bo‘lishi zarur.

3) Har bir soliq to‘lovchiga har jihatdan qulay bo‘lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4) Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to‘lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat budjetiga kelib tushadigan mablag‘ga nisbatan ortiq bo‘lishiga mumkin qadar yo‘l qo‘yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta’riflab o‘tish mumkin:

1. Yyetarlilik tamoyili. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo‘lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo‘jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslari to‘planishini ta’minlasin. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, soliq stavkalari (o‘zicha olganda) soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to‘lovchi soliq to‘lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo‘lgani holda ayni choqda o‘zining ba’zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo‘llarining holati yaxshi saqlanishini ta’minlash bilan soliq to‘lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog‘liqni saqlashni ta’minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo‘ladi. Shunday qilib, to‘langan soliqlarning faqat xizmatlar ko‘rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat’iy ravishda uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish. Soliq tizimi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag‘ yo‘naltirishni, ya’ni kapital jamg‘arish va shu yo‘l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to‘sqinlik qilmasligi hamda xo‘jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo‘ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo‘lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdan manfaatdorligiga putur etkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug‘iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari

katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zahiralar, banklardagi pul mablag‘larining barakasi uchishiga, ilgari to‘plangan mablag‘larning eyilib ketishiga olib keladi.

3. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim.

4. Oddiylik va xolislik. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo‘lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo‘yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag‘batlantirish funktsiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag‘batlantirishga, soliq to‘lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat’i nazar, ma’lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilmog‘i lozim.

5. Boshqarishga qulaylik. Samarali soliq tizimiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo‘lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko‘p hollarda soliqlarning soliq to‘lovchilarga yaxshi tushunarli bo‘lishiga bog‘liq.

6. Soliqlarni yig‘ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish. Mazkur tamoyil davlat va soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni yig‘ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko‘zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to‘g‘riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo‘llash orqali soliq to‘lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. Soliq stavkalarini qiyoslash. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya’ni mintaqaning

o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo‘lgan xo‘jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo‘yilgudek bo‘lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, engil sharoit yaratilsa, mamlakat budjetiga salbiy ta’sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o‘xshashlikka ega va ularni to‘liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida esa soliqqa tortish tomoyillari soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining printsiplari deb atalib (7-modda), uning olti tamoyili (8-13-moddalar) belgilab berilgan[48].

- Soliq solishning majburiyligi printsipi (8-modda).

Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shart. (*Konstitutsiyaning 51-moddasi)*

Hech kimga soliqlar va yig‘imlarning barcha alomatlariga ega bo‘lgan, biroq Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

- Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi printsipi (9-modda)

Soliqlarni va yig‘imlarni belgilovchi soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig‘imlarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan ularni to‘lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerak.

Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to‘lovchilar bilan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni to‘g‘ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to‘lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to‘siqlar yaratishga haqli emas, soliq to‘lovchilar esa soliq organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.

[48] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: Adolat, 2022.

- Soliq solishning adolatliligi printsipi (10-modda)

Soliqlar va yig‘imlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.

- Soliq tizimining yagonaligi printsipi (11-modda)

Soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir.

O‘zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

- Oshkoralik printsipi (12-modda)

Soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari rasman e’lon qilinishi shart.

Rasman e’lon qilinmagan soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

- Soliq to‘lovchining haqligi prezumptsiyasi printsipi (13-modda)

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to‘lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Yuqorida keltirilgan soliqqa tortish tamoyillarini chuqurroq o‘rganish ularni umumlashtirish orqali eng maqbul, barcha jihatlarni to‘liq qamrab oladigan optimal soliqqa tortish tamoyillarini yaratish muammosining echimini topish hozirgi davr talabi bo‘lib qolmoqdi.

Shuningdek, Hamkorlik printsipi, ya’ni - “Soliqchi – tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili bugungi kunda davlat soliq xizmati organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan “Soliqchi – tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili doirasida amalga oshiriladigan ishlar samaradorligini ta’minlash va kelgusidagi rejalarni belgilab olish maqsadida 4 bosqich va 9 ta yo‘nalishda tadbirkorlarga tizimli ko‘mak ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

“Harakatlar rejasi”ga muvofiq 2021 yilning yanvarь-avgust oylarida 155 382 ta tadbirkorlik subyektiga amaliy yordam berildi.

Jumladan, “Soliqchi – tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili doirasida soliq turlari bo‘yicha 31135 ta subyektning 3,4 trln. so‘m mavjud ortiqcha to‘lov summasi qaytarib berildi (shundan, 7514 tasiga 2,9 trln. so‘m QQS qaytarildi).

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka uchragan 509 ta korxonaning 39,5 mlrd. so‘m soliq qarzi to‘lov muddatlari uzaytirildi.

Soliq qarzi to‘g‘risida ma’lumot so‘rab murojaat qilgan 12 mingta, shaxsiy kartochkadan ko‘chirma so‘rab murojaat qilgan 6,4 mingta tadbirkorlik subyektlariga ma’lumotnoma taqdim etildi.

Tadbirkorlik subyektlariga soliq organlari faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzasidan ham yordam berilmoqda. Xususan, aylanma mablag‘ga muhtoj bo‘lgan 1278 ta xo‘jalik subyektiga 224,5 mlrd. so‘m kredit olinishiga ko‘maklashildi. Bundan tashqari, 414 ta tadbirkorlik subyektiga soliq organlari tashabbusi bilan yer va binolar ajratildi.

Soliqqa tortish tamoyillari to‘g‘risida turlicha yondashishlar mavjudligini yuqorida ko‘rib o‘tdik. A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning 4 tamoyili, mamlakatimiz soliq kodeksida esa soliq qonunchiligining 6 tamoyili va boshqa iqtisodiy adabiyotlarda ham turlicha soliqqa tortish tamoyillari mavjudligi e’tirof etilgan. Yuqorida keltirilgan soliqqa tortish tamoyillarini chuqurroq o‘rganish ularni umumlashtirish orqali eng maqbul, barcha jihatlarni to‘liq qamrab

oladigan optimal soliqqa tortish tamoyillarini yaratish muammosining echimini topish hozirgi davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Qisqacha xulosalar

Soliqlar – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg’araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlaridir. Soliqlarning mohiyati yuridik shaxs (korxona, tashkilot, muassasa)lar va jismoniy shaxslar tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat budjetiga majburan olib qo‘yishdan iborat.

Boshqa majburiy to‘lovlar - bu davlat budjetiga va budjetdan tashqari maqsadli jamg’armalarga majburiy ajratmalar, badallar, yig’imlar va to‘lovlardir. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlariga soliq ob’yekti, soliq bazasi, soliq stavkasi va soliq davri, ularni hisoblab chiqarish, to‘lash va hisobotlarini taqdim etish tartibi kiradi.

Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan ularni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida bo‘ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko‘rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini xosil qiladi. Lekin ular soliq bo‘la olmaydi, soliq munosabati bo‘lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo‘li bilan davlat budjetiga majburiy tartibda to‘lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun budjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir: Soliqning fiskal funktsiyasi; Tartibga solish funktsiyasi; Rag‘batlantirish funktsiyasi; Soliqning nazorat funktsiyasi; Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta’minlash funktsiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 7-moddasida soliqqa tortishning quyidagi: Soliq solishning majburiyligi printsipi; Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan

hamkorligi printsipi; Soliq solishning adolatliligi printsipi; Soliq tizimining yagonaligi printsipi; Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi printsipi va Soliq to‘lovchining haqligi prezumptsiyasi printsip (tomoyil)lari belgilab qo‘yilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliqlarning yig‘imlar va boshqa to‘lovlardan farqli jihatlari?
2. Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida ahamiyati qanday?
3. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Soliqlarning o‘ziga xos belgilari nimalardan iborat?
5. Soliqlarning fiskal funktsiyasini tushuntirib bering?
6. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalarini farqlab bering?
7. Soliqqa tortish tamoyillari haqida tushuncha bering?
8. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimalarda o‘z ifodasini topadi?

Testlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq tizimiga tegishli moddalarni ko‘rsating.

A) 10, 51 B) 51, 123 C) 14, 111, 4 D) 100, 120, 2

2. “Soliq” tushunchasiga ta’rif bering.

A) Soliqlar deganda Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi;

B) Yuridik shaxslar tomonidan budjetga undiriladigan to‘lovlar tushuniladi;

C) Jismoniy shaxslar tomonidan budjetga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar tushuniladi;

D) Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan hajmda va o‘rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to‘lovlardir.

3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimada?

A) Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarida;

B) Davlatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda;

C) Sohalar o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlashda;

D) Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda.

4. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimada?

A) Davlatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda;

B) Sohalar o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlashda;

C) Real sohaning daromadlari hisobiga noreal sohani pul mablag‘lari bilan ta’minlashda;

D) Soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda.

5. Soliqlarning qanday o‘ziga xos belgilari mavjud?

A) Majburiylik, foizlilik, muddatlilik;

B) Majburiylik, davlat budjetiga tushishlilik, qat’iylik, ekvivalentsizlik;

C) Majburiylik, muddatlilik;

D) Davlat budjetiga tushishlilik;

6. Soliqlarning qanday funktsiyalari mavjud?

A) Fiskal, tartibga solish, nazorat, budjetga tushish;

B) Fiskal, tartibga solish, rag‘batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan ta’minlash;

C) Foiz olish, tartibga solish, rag‘batlantiruvchi, axborot bilan ta’minlash;

D) Rag‘batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan ta’minlash, budjetga tushish;

7. Soliqlarning fiskal funktsiyasi nimani anglatadi?

A) Soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag‘larni tashkil qilishni;

B) Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini;

C) Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg‘arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta’sir ko‘rsatishini;

D) Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni;

8. Soliqlarning tartibga solish funktsiyasi nimani anglatadi?

A) Ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg‘arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta’sir ko‘rsatishini;

B) Davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini;

C) Soliqlar yordamida davlatning moliya resurslarini tashkil qilishni;

D) Soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni;

9. Soliqqa tortishning qanday tamoyillari mavjud?

A) Yetarlilik, tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, adolatlilik, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig‘ish jarayonini arzonlashtirish, soliq stavkalarini qiyoslash;

B) Tenglik, adolatlilik, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq stavkalarini qiyoslash;

C) Adolatlilik, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig‘ish jarayonini arzonlashtirish, soliq stavkalarini qiyoslash;

D) Tenglik, tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, oddiylik va xolislik, boshqarishga qulaylik, soliq yig‘ish jarayonini arzonlashtirish, soliq stavkalarini qiyoslash;

10. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida tan olingan tamoyillar?

A) Majburiylik, oddiylik, yagonalilik va xolislik;

B) Majburiylik, aniqlik, adolatlilik, yagonalilik, oshkoralik, soliq to‘lovchining haqligi prezumptsiyasi;

C) Oshkoralik, tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash;

D) Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: «Adolat», 2022- y.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.

3. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.- 295 b.

4. Almardonov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2012.- 220 b.

5. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik.-T:. Moliya, 2019. 448

6. Xudoyqulov S. Soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Ilm Ziyo, 2012.- 278 b.

7. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007. - 320 b.

8. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.

9. Vahobov A., Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. –T.: TMI, 2002. 36 – bet.

10. www.mf.uz-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

11. www.soliq.uz-O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti.

12-MAVZU. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

12.1. Soliq siyosati tushunchasi va huquqiy nazariy asoslari

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog‘liq bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o‘ynaydi. Ijtimoiy siyosat o‘z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo‘linadi. Iqtisodiy siyosat ham o‘z navbatida moliya, pul-kredit, budjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o‘rinda soliq siyosatining mazmuniga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi (1991 yil 15 fevral), «O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmaganlarning

daromad solig‘i to‘g‘risida»gi (1991 yil 15 fevral), «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlaridan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1997-yilda qabul qilingan hamda 1998 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2008 yil 1 yanvardan va 2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi) va O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotishiga olib kelgan bo‘lsa, ayrimlarining huquqiy bazasi kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to‘lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar»[49]. Shuningdek respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi modda keltirilgan: «O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».[50]

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, Prezident Farmonlari, Qarorlari, Hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o‘z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq

[49] O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O’zbekiston, 2019. 51-modda.
[50] O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O’zbekiston, 2019. 132-modda.

siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo‘lib, soliq sohasidagi samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliq konseptsiyasi - soliqlarning yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir. Mamlakatimizda soliq konseptsiyasi Prezidentimiz tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish konseptsiyasiga asoslanadi. Agar soliq konseptsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo‘lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta’minlanadi. O‘z navbatida soliq konseptsiyasi esa soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan g‘oyalar samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta’minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Soliq siyosati, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e’tiborga olib 2 ga bo‘linadi: 1. Soliq siyosati strategiyasi; 2. Soliq siyosati taktikasi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy asoslangan soliq konseptsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat budjeti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg‘unlikni ta’minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan ko‘lamli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa’yi-harakatlarni

bildiradi, ya’ni qisqa muddatli va kichik ko‘lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati konseptsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya’ni kam o‘zgaruvchan bo‘lib, ularning barchasi bir-biriga bog‘liq holda, bir-birini to‘ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatinining mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni qonuniy joriy etish;

- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta’minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 29 iyunda PF-5468-sonli «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomil-lashtirish konseptsiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi, uning taktika va strategiyasi aniqlanib, izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va davlat budjeti manfaatlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan. Bunday uyg‘unlikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat budjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bilan birga, soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etmasligiga erishishdan iborat.

12.2. Hozirgi davrda soliq siyosatini ishlab chiqish va unda davlatning roli

Yuqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya’ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo‘g‘inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta’minlanadi: Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo‘lgan qonunlar qabul qilinadi, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog‘liqdir. Ijro hokimiyati bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning bo‘linmalari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo‘li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlarning ishlash mexanizmini ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqiy- me’yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta’minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo‘g‘ini hisoblangan Davlat soliq qo‘mitasining soliq siyosati ijrosini ta’minlashdagi alohida o‘ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o‘zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo‘g‘inlari bilan birga sud

hokimiyatining bo‘g‘inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida budjetga kelib tushishi ustidan nazorat o‘rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo‘llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek uni ishlab chiqishda soliq to‘lovchilar qatnashishi mumkin, ya’ni bunda soliq to‘lovchilarning o‘zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko‘p jihatdan davlat apparatining turli bo‘g‘inlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog‘liq. Vakolat har bir organning o‘ziga xos rolini belgilaydi va bir vaqtning o‘zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta’minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi - budjetni to‘ldirish, soliq to‘lovchilarning iqtisodiy va yuridik xatti-harakatlariga ta’sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo‘lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvisiz mumkin emas. Ko‘pgina adabiyotlarda ta’kidlanganidek, kontseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo‘llash jarayonida bir qancha o‘z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turi, ularni tashkil etish asoslari, maqsad va vazifalarining farqlanishi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda aktiv ishtirok etishni ta’minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslashuvchanligini ta’minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur.

Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to‘lovchilarning erkinligini ta’minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident

tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo‘mitasi va boshqa soliqlar bo‘yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo‘lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog‘liq shaxs huquqlarini ta’minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo‘lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o‘zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ hisoblangan Oliy Majlis Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va «O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq Hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo‘mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o‘zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo‘la oladi. Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat soliq qo‘mitasiga nisbatan vakolatlari bo‘yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo‘llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Davlat soliq qo‘mitasini boshqa hokimiyat organlari, tashkilotlar bilan turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan o‘zaro hamkorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o‘zaro hamkorlik o‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra huquqiy bo‘lgani holda, munosabatlar predmetining o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va davlat soliq organlarining o‘zaro hamkorligini tartibga soluvchi me’yorlar turli yuridik kuchga ega bo‘lgan qator me’yoriy hujjatlarga tayanadi. Umumiy xususiyatlarga ko‘ra, o‘zaro hamkorlik Konstitutsiya me’yor-

larida, boshqa qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan, o‘zaro hamkorlikning yanada aniq yuzaga kelishi ko‘pincha soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Mazkur davlat tuzilmalarining o‘zaro munosabatlari xususiyatiga ta’sir etuvchi obyektiv omil mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarining hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi, mahalliy budjetlarni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlarni belgilash, budjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalarini hal etish uchun konstitutsiyaviy belgilanishi hisoblanadi. Bu bilan davlat hokimiyatini tashkil etishning tegishli darajalarida hal etiladigan boshqaruvning barcha masalalarida, shu jumladan, moliyaviy sohada ham yuridik vakolatlilik mustahkamlanadi.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o‘zaro hamkorlik respublikada olib boriladigan yagona soliq siyosatini olib borishda, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to‘lovlarning hudud budjetiga kelib tushishini ta’minlash bo‘yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo‘yicha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo‘lib, ularning har biri o‘z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barcha hokimiyat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko‘rsatadi va unda Davlat soliq qo‘mitasi soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni bajaradi.

12.3. Soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish yo‘nalishlari

Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o‘zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shundan kelib chiqib,

mustaqillikning dastlabki yillaridan e’tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o‘laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o‘ziga xos bo‘lgan soliq tizimi shakllantirildi. O‘ziga xos bo‘lgan soliq tizimining shaklantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e’tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib respublikamizda respublika budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig‘imlar amal qiladi. Soliqlarning budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan mustahkamlangan bo‘lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu budjetga tushishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq ayrim umumdavlat soliqlari mahalliy budjetlarga to‘liqligicha biriktirilishi yoki ulardan tushumlar respublika va mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy budjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o‘ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e’tirof etish lozim. Chunki respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo‘lgan sohalar alohida tartib bo‘yicha soliqqa tortib kelinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to‘lovchilarga nisbatan ko‘zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan, eksport faoliyatini rag‘batlantirishga, xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag‘batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida ikki yo‘nalish: korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati

va aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun soliq siyosati kabi yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo‘nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta tashkil etishdan iborat bo‘ldi. Soliq siyosatining keyingi yo‘nalishi esa joriy etilgan soliqlarning samarali amal qilishini ta’minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo‘lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat soliq qo‘mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. Bundan ko‘rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlarga e’tibor qaratildi, ya’ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqlarning ko‘proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya’ni ko‘proq e’tibor davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

Jahon soliq siyosati tajribasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, soliqqa tortishning quyidagi yo‘nalishlariga katta e’tibor beriladi:

1) har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo‘jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama ko‘maklashish;

2) ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo‘lgan moliyaviy manbalar bilan ta’minlash;

3) bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta’minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;

4) aholi turmush darajasini zaruriy me’yorda saqlab turish imkonini izlash va ta’minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste’mol savatchasi» ma’lumotlarini e’tiborga olish.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta’minlash, resurs soliqlariga ko‘proq e’tibor qaratish, barqaror davlat budjetini shakllantirish maqsadida soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlash, soliq tizimini yanada soddalashtirish va uning oshkoraligini ta’minlash, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e’tibor qaratish lozimligi ko‘p bora ta’kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog‘ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag‘lar ulushining ko‘payishi evaziga uning aylanma mablag‘lari miqdorini ko‘paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko‘proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag‘batlantirish imkonini beradi.

Bevosita soliqlar bo‘yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YaIMga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendensiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo‘shimcha bo‘lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmaydi.

Resurs soliqlari yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta’minlovchi amaliy vosita bo‘lgani holda bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash borasida muhim rol o‘ynaydi.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalish-laridan biri soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddalashtirish va ular bo‘yicha to‘lov davriyligini kamaytirish hisoblanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni hisobga olgan holda soliqqa tortish tizimini takomillash-tirishning muhim yo‘nalishlari bilan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash lozim. Soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishda bir qator ta’sir etuvchi mezonlarni hisobga olgan holda tashkil etish va bu yo‘nalishlarni aniqlovchi muhim omilli ko‘rsatkichlarni o‘rganish hamda uning o‘ziga xos xususiyatlarini tartiblash muammosi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Soliq siyosati choralarini ishlab chiqishda eng muhim vazifalardan biri davlat xarajatlarini o‘z vaqtida va mo‘ljallangan hajmda moliyalanishi uchun soliq tushumlarining yetarliligi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, soliq yukini kamaytirish borasidagi siyosatni budjetning xarajatlar qismini optimallashtirish choralari bilan qo‘shib olib borilishini taqozo etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatini to‘liq va aniq yuritilishini ta’minlaydigan vositalardan biri soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida davlat xarajat-larini to‘liq va o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta’sir etishni bosqichma-bosqich maqbullashtirishning o‘ziga xos yo‘nalishlarini ishlab chiqish va aniqlash muammosini hal etish bilan bog‘liqligidadir.

Qisqacha xulosalar

Soliq siyosati - bu soliq to‘lovchilar va davlat manfaatlari, soliqlar va budjet munosabatlarining eng maqbul muvozanatini ta’minlaydigan nazariy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ma’naviy asoslarini shakllanishi, amal qilishi, takomillashuvini yo‘naltiruvchi g’oyalar, qarashlar, yondashuvlar tizimidir. O‘zbekistonda soliqlarning huquqiy asoslarini soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga oid qonunchilik tashkil etadi.

Ulardan asosiysi 2020 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hisoblanadi. Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar sohasidagi huquqiy me’yorlar majmui bo‘lib, mamlakatda soliq munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq siyosati haqida tushuncha bering?
2. Soliq siyosatining taktikasi hakida gapirib bering?
3. Soliq siyosatining konseptsiyasi to‘g‘risida ma’lumot bering?
4. Soliq siyosati strategiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
5. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli qanday?
6. Soliq siyosati xususiyatlari va yo‘nalishlarini tushuntirib bering?
7. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Testlar

1. Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati - ... deyiladi?

A) Soliq siyosati;

B) Soliq tizimi;

C) Soliq strategiyasi;

D) Soliq taktikasi.

2. Quyidagilardan qaysi biri soliq siyosatining huquqiy asosi hisoblanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasining soliqqa oid qonunlari majmuasi;

B) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni;

C) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;

D) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

3. Qaysi vakolatli organ soliq turlarini joriy etish huquqiga ega?

A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi;

B) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

C) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

D) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

4. Soliq siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi organlarni ko‘rsating?

A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi;

B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi;

C) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va vakolatli davlat organlari;

D) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi.

5. Soliq siyosati strategiyasi bu - ...?

A) Uzoq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlar yig‘indisi;

B) Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa’yi-harakatlar;

C) Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati;

D) Soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligi.

6. Soliq siyosati taktikasi bu - ...?

A) Uzoq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosa-batlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlar yig‘indisi;

B) Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati;

C) Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa’yi-harakatlar;

D) Soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligi.

7. Soliq konseptsiyasi bu - ...?

A) Uzoq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosa-batlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlar yig‘indisi;

B) Soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligi;

C) Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sa’yi-harakatlar;

D) Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining «2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-73-son qarori.
5. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.- 295 b.
6. Almardonov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2012.- 220 b.
7. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - T:. Moliya, 2019. 448 b.
8. Xudoyqulov S. Soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Ilm Ziyo, 2012.- 278 b.
9. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007. - 320 b.
10. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.
11. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005. -544 b.
12. www.mf.uz-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
13. www.soliq.uz-O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti.

13-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING ShAKLLANIShINING NAZARIY ASOSLARI

13.1. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta’rif soliq tizimini keng ma’noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma’noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo‘lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig‘im, boj va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi soliq tizimi deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuv ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta’kidlash o‘rinli. Qayd etilgan ta’rifda soliq va yig‘imlar yagona mohiyat, ya’ni «majburiy xarakterga ega bo‘lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog‘liqligi va nihoyat budjetga tushishligini ko‘rsatadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi mazmuniga mos keladi.

Soliqlar bo‘yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga, xususan, soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to‘lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni budjet darajalari o‘rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to‘lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta’kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo‘lgan va ular o‘rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;

2) Aksiz solig‘i;

3) foyda solig‘i;

4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

5^{1}) maxsus renta solig‘i;

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

7) mol-mulk solig‘i;

8) yer solig‘i;

9) ijtimoiy soliq.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avtotransport yig‘imini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

1) aylanmadan olinadigan soliq;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog‘liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

13.2. Soliq tizimini guruhlashning o‘ziga xos jihatlari

Soliq tizimi murakkab iqtisodiy jarayon bo‘lib, u soliqlar va yig‘imlar, davlatni soliq siyosati, soliq mexanizmi va soliqqa oid ilmiy tadqiqot jarayonlarini o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligidan iborat bo‘lib, uni tarkibiy va mohiyati jihatidan oborotdan olinishiga qarab, iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, paydo bo‘lish manbaiga hamda budjetga tushish jarayoniga qarab turkumlanadi.

Soliq tizimining asosi bo‘lgan soliqlar o‘ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta’sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo‘lishiga (subyektiga), budjetga yo‘naltirilishiga va boshqa belgilariga ko‘ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat budjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta’minlashda, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo‘ymasdan faoliyat ko‘rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga: to‘g‘ri va egri soliqlar guruhlariga bo‘linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag‘ni tasarruf etishiga, ya’ni budjetga o‘tkazish nuqtai-nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo‘linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo‘lish manbaiga ko‘ra yuridik va jismoniy

shaxslardan olinadigan soliqlarga bo‘linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlarga ajratib o‘rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o‘rinda soliqlarni guruhlashning ayrim turlarini ko‘rib chiqamiz. Soliqlarni obyekti va iqtisodiy mohiyati bo‘yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishni o‘rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, Aksiz solig‘i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig‘imlari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to‘lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo‘lgan mol-mulkdan, erdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va boshqalar kiradi.

13.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bo‘linishi

Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to‘lovchi bilan davlatning o‘zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog‘liqligiga ko‘ra to‘g‘ri va egri soliqlarga bo‘linadi. To‘g‘ri soliqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarning bahosida to‘lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o‘tkazadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to‘g‘ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi (1-jadval):

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘ri soliqlarning pirovard to‘lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo‘yiladigan tovarning iste’molchisi esa egri soliqlarning pirovard to‘lovchisi hisoblanadi. Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to‘g‘ri soliqlarni ham iste’molchilar zimmasiga o‘tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to‘laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko‘pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste’molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

1- jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘g‘ri va egri soliqlar tarkibi

To‘g‘ri soliqlar	Egri soliqlar
1.Foyda solig‘i 2.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 3.Yer solig‘i 4.Mol-mulk solig‘i 5.Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq 6.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. 7.Ijtimoiy soliq.	1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i 2. Aksiz solig‘i

To‘g‘ri soliqlarga tortishda mablag‘larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o‘z huquqlarini da’vo qiladi.

Soliq to‘lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkining (yer, uylar, qimmatli qog‘ozlar va hokazo) qiymati to‘g‘ri soliqlar obyekti bo‘ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to‘lovchining daromadliligini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to‘g‘ri soliqlarga tortishda soliq to‘lovchi o‘z solig‘ining summasini aniq biladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilganimizda, to‘g‘ri soliqlarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya’ni soliqning huquqiy va haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs (soliq tlovchining o‘zi) hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to‘lovchisi bo‘lib mahsulot ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko‘rsatuvchilar, haqiqiy to‘lovchisi bo‘lib esa iste’molchilar hisoblanadi.

Respublikamizda amal kilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, budjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. So‘nggi yillarda to‘g‘ri soliqlarning salmog‘i yalpi ichki mahsulot qiymatida bir oz kamayib, egri soliqlar salmog‘i oshgan. Bu erda hozirgi sharoitda to‘g‘ri tendendiya mavjuddir, chunki egri soliqlar to‘g‘ridan- to‘g‘ri korxona investitsiya faoliyatining susayishiga olib kelmaydi. To‘g‘ri soliqlar salmog‘i yalpi ichki mahsulot qiymatida pasayishi korxonalarning moddiy-texnikaviy bazasi kengayishiga, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi.

13.4. Soliqlarning budjetga tushishiga ko‘ra bo‘linishi

Respublikamizda asosan soliqlar budjet tizimi daromadlarini shakllantiradi. Davlat budjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy hayotini moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlaydi va bu O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimida umumrespublika budjetining etakchi bo‘g‘inidir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi - O‘zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvni ta’minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo‘jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag‘ bilan ta’minlashga ishlatiladi. Umumrespublika budjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsim-

lash jarayoni izga solib turiladi. Davlat umumrespublika budjetidan davlat budjetining bu bo‘g‘ini ijrosi yuzasidan respublikadagi hamma ishlarni muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti pul mablag‘larini respublikaning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tadbirlarini moliyalashtirish uchun markazlashtiradi.

Mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to‘g‘ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budjet daromadlarining ko‘payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to‘g‘risida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur’atlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy xo‘jalik zaxiralarini safarbar qilish, mablag‘larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida umuman O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy budjetlardan uy-joy-kommunal xo‘jaligi va obodon-lashtirish, maorif va sog‘liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasal-xonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta’minot sohasidagi tadbirlar mablag‘ bilan ta’minlanadi.

Respublikamizda soliqlar budjet tizimi daromadlarini shakllan-tirishiga qarab asosan ikki guruhga bo‘linadi:

1. Umumdavlat soliqlari; 2. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli budjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig‘imlarga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig‘i; yer solig‘i.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi.

Davlat budjeti 2018-22 yillar uchun YaIMga nisbatan budjetlar daromadlari (2-jadval), Davlat budjetining 2019-2021 yillardagi ijrosi (3-jadval) to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar quyidagi jadvallarda o‘z aksini topgan:

3- jadval

2018-22 yillar uchun YaIMga nisbatan budjetlar daromadlari

mlrd so‘m

	2018 yil		**2019 yil**		**2020 yil**		**2021 yil**		**2022 y.**	
	summa	YaIMga nisbatan %da	summa	YaIMga nisbatan %da	summa	YaIMga nisbatan %da	summa	YaIMga nisbatan %da	summa	YaIMga nisbatan %da
YaIM	406 648		529 391		602 551		734 588		839 989	
Konsolidat-siyalashgan budjet daromadlari	107035	26,3%	137057	25,9%	156249	25,9%	196 405	26,7%	254582,5	30,3%
Davlat budjeti daromadlari	79099	19,5%	112 165	21,2%	132938	22,1%	164 681	22,4%	199 500	23,7%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

3- jadval

Davlat budjetining 2019-2021 yillardagi ijrosi haqidagi ma’lumot

mlrd so‘m

	2019 yil		**2020 yil**		**2021 yil**		**O‘sish 2021/2019**
	summa	salmog‘i %da	summa	salmog‘i %da	summa	salmog‘i %da	**%da**
Davlat budjeti daromadlari	**112 165**		**132 938**		**164 681**		**146,8**
shu jumladan:							
1. Bilvosita soliqlar - jami	46 429	41,4	46 428	34,9	56 292	34,2	121,2
2.1 Qo‘shilgan qiymat solig‘i:	33 810	30,1	31 177	23,5	38 439	23,3	113,7
- QQS bo‘yicha tushumlar	37 055	33,0	40 224	30,3	52 856	32,1	142,6
- QQS bo‘yicha qoplash	-3 245	-2,4	-9 046	-6,8	-14 417	-8,8	444,3
2.2 Aktsiz solig‘i	10 316	9,2	11 697	8,8	13 088	7,9	126,9
2.3 Bojxona boji	2 303	2,1	3 554	2,7	4 765	2,9	206,9
2. Bevosita soliqlar - jami	31 677	28,2	45 207	34,0	58 930	35,8	186,0
1.1 Foyda solig‘i	16 361	14,6	28 712	21,6	38 363	23,3	234,5
1.2 Aylanmadan olinadigan soliq	1 989	1,8	1 354	1,0	1 649	1,0	82,9
1.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 327	11,9	15 141	11,4	18 918	11,5	141,9
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i	19 681	17,5	21 257	16,0	23 036	14,0	117,1
3.1 Mol-mulk solig‘i	2 360	2,1	1 974	1,5	2 457	1,5	104,1
3.2 Yer solig‘i	2 313	2,1	2 387	1,8	4 083	2,5	176,5
3.3 Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	14 693	13,1	16 417	12,3	15 812	9,6	107,6
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314	0,3	479	0,4	684	0,4	217,6
4. Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar	14 379	12,8	20 046	15,1	26 423	16,0	183,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki davlat budjetiga bilvosita soliqlardan tushum 2019 yilda 46429 mlrd. so‘mni, 2020 yilda 46428 mlrd. so‘mni, 2021 yilda ushbu soliqlardan tushum 56292 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. 2022 yilda esa bilvosita soliqlardan tushadigan tushum 73200 mlrd. so‘mni tashkil qilishi prognoz qilingan. Ularning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 2019 yilda 41,4 foizni, 2020 yilda 34,9%ni, 2021 yilda 34,2%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilda 36,6%ni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Davlat budjetiga bevosita soliqlardan tushum 2019 yilda 31677 mlrd. so‘mni, 2020 yilda 45207 mlrd. so‘mni, 2021 yilda ushbu soliqlardan tushum 58930 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. 2022 yilda esa bevosita soliqlardan tushadigan tushum 68500 mlrd. so‘mni tashkil qilishi prognoz qilingan. Ularning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 2019 yilda 28,2 foizni, 2020 yilda 34,0%ni, 2021 yilda 35,8%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilda 34,3%ni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Oxirgi uch yil uchun soliq tizimining tarkibiy tahlili (3-jadval) quyidagilarni ko‘rsatadi:

- bilvosita soliqlarning ulushi (2021 yilda - 34,2%) Davlat budjeti daromadlari tarkibida 2019 yildan boshlab jiddiy qisqardi. Sabablari: QQS stavkasining 20%dan 15%gacha pasaytirilishi, QQSni hisobga olish va qoplashning to‘laqonli tizimining joriy qilinishi, importga Aksiz solig‘i bo‘yicha nolь darajali stavkalarning joriy etilishi;

- bevosita soliqlarning ulushi jiddiy o‘sdi (2021 yilda - 35,8%). Sabablari: “NKMK” AJ va “OKMK” AJ bo‘yicha budjetga tushumning oshishi (qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxining va realizat-siyaning o‘sishi hisobiga), foyda solig‘i stavkasining 14%dan 15%gacha oshishi;

- resurs soliqlarining ulushi kamaymoqda (2021 yilda - 14%). Sabablari: yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining pasayishi;

- boshqa daromadlar jiddiy o‘smoqda (2021 yilda - 16%). Sabablari: “NKMK” AJ va “OKMK” AJdan dividendlar bo‘yicha budjetga tushumning oshishi.

Budjet daromadlari tarkibini o‘zgartirishda umumiqtisodiy omillar bilan bir qatorda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliq tizimlari nisbatining o‘zgarishi muhim rol o‘ynadi. Bu soliq to‘lovchilar soni tarkibida o‘z aksini topdi (4-jadval).

4- jadval.

2018-2021 yillarda soliq to‘lovchilar soni haqida ma’lumot[51]

Soliq solish tizimlari	2018 yil	2021 yil (yil yakuni)	O‘sish
Soliq solishning umumbelgilangan tizimi (foyda solig‘i, QQS va boshqalar)	7 500	145 434	19,4 baravar
Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi (aylanmadan olinadigan soliq (YaST) va boshqalar)	160 000	299 036	1,9 baravar

Soliqlarning respublika va mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi ular daromad manbaini shakllantirishdagi bir qator muammolarni vujudga keltiradi. Bulardan asosiylaridan biri budjetlarni moliyalashtirish yuzasidan soliqlarning budjetlararo taqsimlanish tartibi mezonlarini belgilash muammosidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig‘imlar Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Soliq munosabatlari mavjud bo‘lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo‘lsa, ikkinchi sharti bo‘lib soliqlarni to‘lashga qobil bo‘lgan soliq to‘lovchilarning mavjudligidir. O‘zbekiston Respublikasida soliqlar tizimi manbaiga qarab, soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

[51] https://www.norma.uz/raznoe/soliq tizimi muammolar va istiqbollar1

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 32-moddasiga muvofiq yuridik shaxslar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot;

- chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti;

- O‘zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga hamma egri soliqlar, foyda solig‘i, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (shuningdek maxsus renta solig‘i), suv resurslaridan foydalanganlik uchun, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq va boshqalar kiradi. Ba’zi soliqlarni (QQS, Aksiz) yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham to‘laydilar. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar davlat budjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob (joriy) schyotlaridan budjet schyotlariga ko‘chirib qo‘yiladi. Uni undirish oson va arzonga tushadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslar deb O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar e’tirof etiladi. Moliya yilida soliq solinadigan daromad, mol-mulk, yer uchastkasi maydoni va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to‘laydilar. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarga daromad solig‘i, yer solig‘i, mol-mulk soliqlari kiradi.

Soliqqa tortish maqsaddida soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ni 2 guruhga bo‘lamiz:

1. Rezident shaxslar;

2. Norezident shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar e’tirof etiladi:

O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs;

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

Chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning quyidagilar sifatida turgan davri uning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda turgan vaqtiga kiritilmaydi:

1) diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo‘lgan shaxs sifatida;

2) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga ko‘ra tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida;

3) 1)-bandda ko‘rsatilgan shaxslarning oila a’zosi sifatida, bunday jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmagan taqdirda;

4) faqat bir chet davlatdan boshqa chet davlatga O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali o‘tish (tranzit o‘tish) uchun;

5) agar bu jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasida faqat turist sifatida, davolanish yoki dam olish maqsadlari bilan turgan bo‘lsa.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lovchilar ikki katta guruhga, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo‘linadi va ularning faoliyat ko‘rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to‘laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma’lumotlardan bevosita ko‘rishimiz mumkin.

13.5. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini yaqqol ko‘rsatish uchun shu davrni uch bosqichga bo‘lib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1994 yillar – O‘zbekistonning o‘z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

Respublikamizning o‘z soliq tizimini yaratishda 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi qonun birinchi qonun bo‘ldi. U o‘zida birinchi marta soliq tizimining tuzilishi va ishlashining umumiy asoslarini aniqlab berdi, soliqlarni hisoblash va undirish tartibini o‘rnatdi.

1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmaganlardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida”gi qonunga bir qancha o‘zgarishlar bilan qabul qilindi. Bu qonunga binoan soliq obyekti kengaytirildi, ya’ni ilgari daromad solig‘ini jamoa xo‘jaligi orqali to‘lab yurgan jamoa a’zolari to‘g‘ridan - to‘g‘ri o‘zlari to‘laydigan bo‘ldilar.

1993 yil 7 mayda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bunday soliqlarga jismoniy shaxslarning mulk solig‘i, yer solig‘i, kurort zonalarida ishlab chiqarish obyektlari qurilish solig‘i, reklama solig‘i, avtomobil vositalarini qayta sotish solig‘i, transport vositalarini egalaridan soliqlar va 13 ta har xil yig‘imlar kiritildi.

Korxonalar soliqlari to‘g‘risidagi qonunga 1993 yil 7 mayda o‘zgarishlar kiritilib, chet el valyutasida olinadigan tushumdan soliq joriy etildi. Bu soliqdan Respublika valyuta fondiga ajratma avval 25 %, keyinchalik 10 % qilib belgilandi. Demak, soliq islohotining birinchi bosqichida soliqlarning xazinaviy samaradorligiga erishish chora-tadbirlari keng amalga oshirildi, O‘zbekistonning o‘z milliy soliq tizimi joriy etildi.

Korxonalardan undiriladigan o‘rmondan olinadigan daromad solig‘i va bir qator boshqa soliqlar bekor qilindi. Daromad (foyda) solig‘i; qo‘shilgan qiymat solig‘i; Aksiz solig‘i; mol-mulk solig‘i; respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlar va xom - ashyo resurslariga soliq joriy etildi.

1993 yilda ishlab chiqilgan tartibga ko‘ra asosiy vositalar hisoblangan amortizatsiyaning 30 %i budjetga o‘tkazildi.

Xazinani to‘ldirish, shuningdek resurslardan oqilona foydalanishini ta’minlash maqsadida 6 %li resurslar solig‘i joriy etildi. Shuningdek, 1991 yil 15 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi qonunga bir qator o‘zgartishlar kiritildi.

1993 yil 7 may kuni «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi va ushbu qonunda ularga ta’rif berildi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig‘i, kurort zonalaridagi ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar qurilishiga solinadigan soliq, reklama solig‘i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, ularning egalariga solinadigan soliq-jami 19 turdagi har xil soliqlar va yig‘imlar mahalliy soliqlar guruhiga kiritildi. 1993 yilning 7 mayida «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonunga qo‘shimchalar kiritildi.

Soliq islohotlarining ikkinchi bosqichi soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratish davridir. Bu davrga 1995 —1997 yillar to‘g‘ri keladi.

Bu davrda soliqlar ishlab-chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sirini kuchaytirishga bag‘ishlandi. Ularga soliqlardan xilma-xil imtiyozlar berildi. Ayniqsa yuridik shaxslarning foyda (daromad) solig‘idan imtiyozlar ko‘p edi, 1995 yildan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirgani uchun 0,3 %dan foyda solig‘i stavkasi kamaytirildi.

Xalq xo‘jaligini iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish va tuzilmaviy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qilishni talab etdi va ko‘plab

korxonalar va tashkilotlarning foyda solig‘ini daromad solig‘i to‘lashga o‘tishi amalga oshirildi. Uning o‘rtacha stavkasi 37 % etib belgilandi. Soliq to‘lovchilar uchun imtiyozlar ko‘zda tutildi. 1995 yildan boshlab soliq tizimini birxillashtirish boshlandi. Bir qator kam samarali soliqlar: respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xom-ashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan budjetga 30 foiz undirish va boshqalar bekor qilindi. Jamoa xo‘jaligi a’zolari va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi o‘rnatildi. Sarmoyadorlar uchun rag‘batlantirishlar soliq tizimining barqarorlashuviga ko‘mak beradi. 1996 yilning 1 yanvarigacha ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarga soliqqa tortish tizimida daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqi taqdim etildi, boshqa barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar esa daromad solig‘iga o‘tkazilgan.

Soliqlarning bozor munosabatlarida qatnashishini kuchaytirishda ularning hammasi uchun yagona huquqiy asos – O‘zbekiston Respublikasining ilk Soliq kodeksi 1997 yil 24 aprelda qabul qilindi.

Respublikada ilk Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq qonunchiligini mustahkamlabgina kolmay, soliqlarni mahsulotlar eksportini, import tovarlar o‘rniga mahsulotlar ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda nogironlarning qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarini rag‘batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

Soliq islohotining uchinchi bosqichi 1998 yildan hozirgi vaqtgacha davom etmoqda. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konseptsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Bu bosqichda soliq to‘lovchi yuridik shaxslarga imkoni boricha soddalashtirilgan, ixchamlashtirilgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq to‘lash muddatlari ixchamlashtirildi.

Shuningdek olib borilayotgan islohotlar, bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish, liberallashtirish va modernizastiyalash sharoitida yuqoridagi birinchi Soliq kodeksiga ham yillar o‘tgan sayin o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritishni taqozo qildi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 30 dekabrda ma’qullangan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 30 dekabrda tasdiqlanib yangi qabul qilingan va 2020 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritilgan 21 bo‘lim, 71 bob, 483 moddadan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi barcha soliq munosabatlardagi muammo va tushunmovchiliklarga xozirgi davr uchun deyarli chek qo‘ydi deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lash bilan, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Qisqacha xulosalar

Soliq tizimi murakkab iqtisodiy jarayon bo‘lib, u soliqlar va yig‘imlar, davlatni soliq siyosati, soliq mexanizmi va soliqqa oid ilmiy tadqiqot jarayonlarini o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligidan iborat bo‘lib, uni tarkibiy va mohiyati jihatidan oborotdan olinishiga qarab, iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, paydo bo‘lish manbaiga hamda budjetga tushish jarayoniga qarab turkumlanadi.

Soliq tizimining asosi bo‘lgan soliqlar o‘ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta’sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo‘lishiga (subyektiga), budjetga yo‘naltirilishiga va boshqa belgilariga ko‘ra ularning tasniflanishidir.

Soliq munosabatlari mavjud bo‘lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo‘lsa, ikkinchi sharti soliqlarni to‘lashga qobil bo‘lgan soliq to‘lovchilarning mavjudligidir. O‘zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi o‘rtasida qanday farq bor?
2. Soliq tizimining tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering?
3. Soliqlarni iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra guruhlang.
4. Soliqlar soliqqa tortish obyektiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
5. To‘g‘ri soliqlar davlat budjeti daromadlarining necha foizini tashkil etadi?
6. To‘g‘ri soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
7. Qaysi soliqlarni egri soliqlar tarkibiga kiritamiz?
8. Egri soliqlarning haqiqiy to‘lovchisi kimlar hisoblanadi?

Testlar

1. Bir xil mohiyatga ega bo‘lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig‘im, boj va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi – bu ... deyiladi.

A) Soliq siyosati;
B) Soliq tizimi;
C) Soliq strategiyasi;
D) Soliq taktikasi.

2. Soliqlar subyektiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;
B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq;
C) Egri va to‘g‘ri soliq;
D) Mahalliy va umumdavlat soliq.

3. Soliqlar budjetga tushishiga ko‘ra ... larga bo‘linadi?

A) Egri va to‘g‘ri soliq;
B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq;
C) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;
D) Mahalliy va umumdavlat soliqlari.

4. Soliqlarni soliqqa tortish obyektiga ko‘ra guruhlang.

A) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;
B) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliqlar;
C) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar;

D) Egri va to‘g‘ri soliqlar.

5. Respublikamizda soliqlar budjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab ...larga bo‘linadi?

A) Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliq;

B) Mahalliy va umumdavlat soliqlari;

C) Egri va to‘g‘ri soliq;

D) Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq.

6. To‘g‘ri soliqlar keltirilgan javobni ko‘rsating?

A) QQS, Aksiz solig‘i;

B) Foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i;

C) Aylanmadan soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, Aksiz solig‘i;

D) Bojxona bojlari, Aylanmadan soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

7. Qaysi qatorda mahalliy soliqlar keltirilgan?

A) Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i;

B) QQS, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i,;

C) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliq, Aksiz solig‘i, yer solig‘i;

D) foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, YST.

9. Egri soliqlar keltirilgan javobni ko‘rsating?

A) QQS, Aksiz solig‘i,

B) Aksiz solig‘i, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

C) Bojxona bojlari, Aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i;

D) QQS, Aksiz solig‘i, yer solig‘i.

10. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qachon qabul qilingan?

A) 2007 yil 24 dekabr;

B) 1997 yil 24 aprel;

C) 2019 yil 30 dekabr;

D) 1997 yil 30 dekabr.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.- 295 b.
4. Almardonov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2012.- 220 b.
5. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - T:. Moliya, 2019. 448 b.
6. Xudoyqulov S. Soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Ilm Ziyo, 2012.- 278 b.
7. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007. - 320 b.
8. www.soliq.uz-O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti.

14-MAVZU. QO‘ShILGAN QIYMAT SOLIG‘I

14.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha, uning iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o‘rni

Respublikamizda davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini egri soliqlar, jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) egallaydi.

Egri soliqlar to‘g‘ri soliqlardan o‘zining niqoblanganligi bilan farqlanadi. Ushbu soliqlar sotilayotgan tovar bahosiga ustama sifatida belgilanadi va buning natijasida haqiqiy to‘lovchining daromadi yoki mulki bilan bevosita bog‘liq bo‘lmaydi. Qonun tovar ishlab chiqaruvchi va sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxonaga tushum hisobidan soliqni budjetga to‘lashdek yuridik majburiyatni yuklaydi. Haqiqatda esa, soliq yuki ushbu tovarlarni (xizmatlarni) egri soliq summasiga oshirilgan narxda sotib oluvchi yoki oxirgi iste’molchi zimmasiga yuklatiladi.

Egri soliq hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, sotilgan mahsulotlar, ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o‘rtasidagi farqdan iboratdir[52].

QQS tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish, import qilish va sotish jarayonida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning bir qismini davlat budjetiga o‘tkazuvchi vosita bo‘lib, iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bilvosita (egri) soliq hisoblanadi.

QQS tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni har bir ishlab chiqarish bosqichidan iste’molchilarga yetkazib berilgunga qadar bo‘lgan jarayonlarda undiriladigan ko‘p pog’onali soliqdir. QQS tovarlar (xizmatlar, ishlar)ning narxi tarkibida bo‘ladi va ularning oxirgi iste’molchilari tomonidan to‘lanadi.

[52]Jo’raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo’llari. -T.: “Fan”. 2004. 111-112 betlar.

Davlat budjetining daromadlarini shakllantirishda QQSdan foydalanish 1919 yilda vujudga kelgan. QQS ilk bor Germaniyada 1919 yilda Vilgelm fon Simens tomonidan «Veredelte Umsatzteuer» nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilib, bu soliq turi QQS nomi bilan frantsuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan 1954 yilda taklif qilingan va 1960 yilda Kot–d–Ivuar Respublikasida joriy etildi va Frantsiya soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan.

QQS Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligiga (MDH) kirgan barcha davlatlarda 1992 yildan boshlab QQS joriy etilgan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham QQS 1992 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi qonuni asosida joriy etildi[53].

QQS Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bo‘lgan barcha mamlakatlarda joriy etilgan bo‘lib, Avstraliya va AQSH bundan mustasnodir. QQSni chiqarib tashlash usulidan foydalaniladigan Yaponiyadan tashqari mazkur mamlakatlarning hammasi QQS kredit hisob-kitobi usulidan foydalanadi. Bu usul korxona - shaxslardan ta’minotning barcha bug‘inlari bo‘yicha soliqqa tortiladigan xom ashyo va materiallarning barcha turlari uchun tegishli stavka bo‘yicha QQS hisobini yuritishni talab qiladi[54]. Soliq to‘lovchilar xom ashyo va materiallar etkazib beruvchilardan olinadigan QQS miqdori kreditdan chiqarib tashlanishiga xaqlidir. Buning tasdig‘i sifatida bunday xom ashyo va materiallarga ma’lum talablarga mos keladigan soliq hisob-kitobi yoziladi. IHTTga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning deyarli hammasida yillik aylanmaning eng yuqori miqdori (soliq chegarasi) belgilab qo‘yilgan va shu tufayli ular QQS bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmaslikka xaqlidir.

O‘zbekistonda 1992 yildan beri qo‘llanilib kelinayotgan QQS (Aksiz solig‘i bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar

[53] Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O’quv qo’llanma. -T.: 2003. 80-bet
[54] Toshmatov Sh., Komilov M. Qo’shilgan qiymat solig’i. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2004. 19-bet

– savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o‘rnini to‘liq almashtirdi. Ammo, QQS o‘zining o‘rni bo‘yicha budjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta’siri, narxlar proportsiyasini aniqlashda ulardan o‘tib ketdi. QQS qo‘llanila boshlangan vaqtdan hozirgi kungacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston davlati budjetining asosiy manbalaridan biriga aylandi.

O‘tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992 yilda amal qilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib[55], ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi. Hozirgi vaqtda amaliyotda “nollik” stavka ham qo‘llanilmoqda.

QQSining iqtisodiy mazmuni va xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ushbu soliq turi bilvosita soliqlar turkumiga kiradi, ya’ni soliq yuki iste’molchilarga tushadi. Shuning uchun ham, mazkur soliq yukinining o‘sishi iste’mol harajatlarini ortishiga va inflyatsiyani kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, ushbu soliq iste’moldan olinadigan soliq hisoblanadi.

- ushbu soliq soliq tizimida faol tartibga soluvchi soliq hisoblanadi, ya’ni me’yoriy ajratmalar orqali mahalliy budjetlarni daromd va harajatlarini tartibga solishda faol foydalaniladi;

- QQS har bir aylanma bosqichida undiriladigan soliqdir;

- QQS tashqi iqtisoiy faoliyatni tartibga solishdagimuhim davlatning moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng dastlabki yillik (1992 yil) Davlat budjetiga tashqaridan dotatsiya va subventsiya olmasdan tuzilishi bo‘yicha talablar qo‘yildi. Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich bosqichda soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishga ega bo‘lgan budjet daromad va xarajatlarining tengligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni xal qilishga qaratilgan edi. Uni respublikada ishlab chiqarish hajmi tushib ketgan bir sharoitda, yuqori inflyatsiya paytida va davlat moliya sohasidagi o‘ta og‘ir bir vaziyatda amalga oshirishga to‘g‘ri keldi.

[55] Jo’raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi. //O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2005. 38-bet

Yuzaga kelgan vaziyat, bilvosita soliqlar (asosan QQS)ga asoslangan soliq tizimining fiskal vazifani bajarishi zarurligini taqozo qildi. Soliqlarni joriy etilishining bosh maqsadi bo‘lib davlat taqdim etayotgan xizmatlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashdan iboratdir. Shu sababli bu davrda soliq isloxotida sezilarli muhim o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi, bunda ayniqsa, aylanmaga soliq va sotishdan soliq o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilishi aloxida ahamiyat kasb etadi. QQS joriy qilinishining asosiy sabablaridan bo‘lib, birinchi navbatda u yordamida davlat budjetiga daromadlar tushumining tengligini ta’minlash va bozor munosabatlarini shakllantirish vaqtida katta ahamiyatga ega bo‘lgan davlat budjetini tuzishning barqaror bazasini yaratish hisoblanadi.

QQSning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. QQS mahsulotning sotuv narxiga qo‘shilmay uning ustiga qo‘yilib, xaridor tomonidan to‘lab beriladi, bu esa o‘z vaqtida ishlab chiqarishning xarajatlariga va rentabelligiga ta’sir etmaydi;
2. Soliqqa tortish obyekti mahsulotning butun ishlab chiqarish jarayonida yagona soliq stavkasida aniqlanishi mahsulot sotishning oxirgi bosqichida soliq summasini yig‘ilib qolishidan saqlaydi va soliqqa tortish jarayonida qayta-qayta hisoblanishning oldini oladi;
3. Soliqqa tortish tizimining soddaligi soliq organi uchun hamda soliq to‘lovchilar uchun ham qulaylik yaratadi. QQSni hisoblash jarayonini o‘z-o‘zini tekshirish jarayoni desa ham bo‘ladi, chunki keyingi sotib oluvchi avvalgi ta’minotchini hisobvaraq–fakturasida to‘langan soliq summasini belgilashda to‘g‘ri qo‘yilishini tekshirib boradi;
4. QQS tarmoq va korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlaridan, kapital jamg‘armasidan, ishlab chiqarish turidan, katta-kichikligidan qat’iy nazar bir xilda soliqqa tortish darajasi qo‘llaniladi;
5. QQSning hujjatlarda (schet-fakturada) alohida ko‘rsatilib yozilishligi uni to‘lashdan qochish holatlarini qiyinlashtiradi;

6. QQS bozor iqtisodiyotini soliqlar yordamida tartibga solishda foyda solig‘i stavkasini pasaytirilishi natijasida budjetning daromad qismidagi yo‘qotishlarni qoplash uchun taktik vosita sifatida ishlatiladi;

7. Ko‘pgina davlatlarda korxonaning o‘zi ishlab chiqargan mahsulotini chetga eksport qiluvchi firmaga ularni qo‘llab quvvatlash maqsadida eksport qilingan mahsulot sotuv narxiga kirgan QQSning bir qismini davlat tomonidan qaytarib beriladi. QQSning hisoblash mexanizmi esa eksport qilinayotgan mahsulotni firma tomonidan ishlab chiqarish uchun ketgan real xarajatlarini hisoblab chiqarish imkoniyatini beradi.

8. QQS har turdagi davlatlarning yagona soliq siyosatini yuritishi yordamida integratsiya funtsiyasini ham bajaradi. Masalan, Evropa Ittifoqi davlatlarining soliq siyosatidan ko‘rinib turibdiki, qo‘shilgan qiymat solig‘i ularning budjetdagi asosiy manbai bo‘lishi bilan birga milliy iqtisodiyotlarini yaqinlashishiga olib kelmoqda.

QQSning ba’zi kamchiliklari quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida QQSining kamchilik tomonlari ko‘rina boshlaydi, ular faqatgina xaridorlargagina emas, balki ishlab chiqaruvchilarga ham ta’sir etadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: QQSning haqiqiy to‘lash vaqti ya’ni moddiy boyliklar, xizmatlar va ishlarni sotib olish vaqtida ba’zi holatlarda soliqqa tortiladigan mahsulotning sotish vaqtidan ancha avval keladi. Soliq hisobini yuritishda hisoblash usulini qo‘llanilishi vaziyatni yanada og‘irlashtiradi. Chunki hisoblash usulida tovarni sotish vaqti korxona hisob raqamiga pul mablag‘ining kelib tushgani emas, balki tovarning omborxonadan ortib yuborilgan vaqtiga to‘g‘ri keladi, shuning uchun korxona hisob raqamiga sotilgan tovar uchun pul mablag‘i tushishidan qat’iy nazar QQS summasini budjetga to‘lashi shart.

2. Respublikamizda QQS bazasiga faqat qo‘shilgan qiymatgina emas, balki unga umuman dahli bo‘lmagan elementlar ham kiradi. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq Aksiz tovarlarini respublika hududiga import qilinganida qo‘shilgan qiymat

solig‘ida soliqqa tortish bazasiga to‘langan aksiz solig‘i va bojxona boji ham kiradi.

3. QQSning yuqori stavkalarining qo‘llanilishi aholining sotib olish qobiliyatini kamaytiradi va ishlab chiqaruvchi uchun esa tovar sotish bozorini qisqartiradi. QQSning yuqori qiymatda belgilanishi esa tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan minimal foyda rejalashtirilgan taqdirda ham, sotib oluvchilarning imkoniyatlari chegaralangan bo‘lganligi uchun tovarlarni tez va o‘z vaqtida sotish imkoniyatini bermaydi. QQSning tartibga solib turuvchi imkoniyatlari rivojlangan bozor iqtisodiyoti va bozor uchun xos bo‘lgan raqobatning mavjudligida namoyon bo‘ladi.

14.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi

2020-yil 1 yanvardan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so‘mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O‘zbekiston Respublikasi e’tirof etilsa;

4) faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;

5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha — oddiy

shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar QQS to‘lovchilar deb hisoblanmaydi:

1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;

2) aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar.

Soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida QQSni to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 238-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti quyidagilardir:

1) realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizatsiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o‘tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o‘zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasiga muvofiq Tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo‘lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo‘yicha o‘tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizatsiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma deb e’tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko‘rsatish;

2) bepul xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to‘lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarni ko‘rsatish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan hollar mustasno.

Tovarlarni bepul berish yoki bepul xizmatlar ko‘rsatish quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liqligi asoslantirilgan bo‘lsa;

3) qonunchilikning qoidalaridan kelib chiqsa.

Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida quyidagilar ham tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) ishtirokchilari o‘rtasida shunday shartnoma doirasida tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo‘lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) xarajatlari ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq (bundan 20-bandda nazarda tutilgan xarajatlar mustasno) foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o‘z kuchi bilan xizmatlar ko‘rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish);

6) soliq to‘lovchi tomonidan o‘ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo‘yicha soliq summasi to‘liq yoki qisman hisobga o‘tkazilgan bo‘lsa, boshqaruv organi a’zolariga, xodimlarga, ularning oila a’zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko‘rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishlash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to‘lamasdan joylashtirilgan tovarni yo‘qotish, boshqa holatlarda soliqni to‘lash zarur bo‘lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo‘lgan, ko‘p marta muomalada bo‘ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 240-moddasiga muvofiq, quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi:

1) tovar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo‘lsa;

2) tovar jo‘natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 241-moddasiga muvofiq, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, basharti bunday xizmatlarning xaridori O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O‘zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi.

Agar xizmatlarning xaridori O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxsni (uning filiallarini yoki vakolatxonalarini) yoki jismoniy shaxsni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish asosida haqiqatda hozir bo‘lsa, mazkur hudud xaridorning faoliyatni amalga oshirish joyi deb e’tirof etiladi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan taqdirda, xaridorning O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo‘lishi yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer (agar xizmatlar ushbu doimiy muassasa orqali olingan bo‘lsa), jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

Quyidagi hollarda ham O‘zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi, agar:

1) xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan ko‘chmas mol-mulk bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, arxitektura loyihasini ishlab chiqish, qurilish faoliyatini tayyorlash va muvofiqlashtirish, arxitektura va qurilish faoliyati ustidan mualliflik va (yoki) texnik nazorat bilan bog‘liq bo‘lgan qurilish, montaj qilish, qurilish-montaj xizmatlari, ko‘chmas mol-mulkka doir ishga tushirish-sozlash, ta’mirlash, restavratsiya qilish ishlari, ko‘kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek ko‘chmas mol-mulkni ijaraga berish kiradi;

2) xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo‘lgan ko‘char mol-mulk bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, bundan transport vositalarini ijaraga berish mustasno. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, ko‘char mol-mulkni montaj qilish, sozlash, yig‘ish, ishlov berish, qayta ishlash, ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish, saqlash kiradi;

3) umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, dam olish va boshqa shunga o‘xshash xizmatlar, turizm, mehmonxona xizmatlari va joylashtiruvi, madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sport, o‘qitish (ta’lim) sohasidagi, shu jumladan malaka imtihonlari o‘tkazish, seminarlar, malaka oshirish kurslarini, pullik ko‘rgazmalarni, konferensiyalarni, simpoziumlarni va boshqa shunga o‘xshash tadbirlarni tashkil etishga doir xizmatlar haqiqatda O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘rsatilsa. Ushbu bandning qoidalari elektron shaklda ko‘rsatiladigan o‘qitish (ta’lim) sohasidagi xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4) tashish va (yoki) transportda tashish bo‘yicha xizmatlar yoxud bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog‘liq xizmatlar quyidagilar tomonidan ko‘rsatiladigan bo‘lsa:

a) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, agar jo‘natish punkti va (yoki) belgilangan punkt O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lsa. Ushbu kichik bandda ko‘rsatilgan qoida ushbu transport vositalarida tashishni (transportda tashishni) nazarda tutuvchi, kemada vaqtincha yuk tashishga doir shartnoma bo‘yicha (ekipaj bilan bo‘lgan

vaqtga) transport vositalarini berish chog‘ida ham qo‘llaniladi. Bunda, agar havo kemalaridan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan punktlar o‘rtasida tashish uchun foydalaniladigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududi kemada vaqtincha yuk tashish shartnomasiga ko‘ra havo kemalarini foydalanishga berish bo‘yicha xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydi;

b) chet ellik shaxslar tomonidan, agar jo‘natish punkti va belgilangan punkt O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lsa (bundan chet el yuridik shaxslari tomonidan yo‘lovchilarni, pochtani va yukni ushbu yuridik shaxsning doimiy bo‘lmagan muassasasi orqali tashishga doir xizmatlar mustasno). Ushbu kichik bandning qoidalari tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha transportda tashish chog‘ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog‘liq xizmatlarga hamda ushbu qismning 5-bandida ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi;

5) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha tashish chog‘ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni tashish va (yoki) transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar (bundan ushbu qismning 7-bandida ko‘rsatilgan xizmatlar mustasno) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar yoki chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilsa;

6) havo kemalariga bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo hududida ko‘rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatlari ko‘rsatilsa;

7) O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tabiiy gazni quvurlar orqali tashishni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar O‘zbekiston

Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan ko‘rsatilsa;

8) ijaraga berish paytida O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan transport vositalarini qisqa muddatli ijaraga berish bilan bog‘liq xizmatlar. Agar xizmatlar transport vositalarini uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog‘liq bo‘lsa, transport vositalarining joylashgan eridan qat’i nazar, xizmatlarni sotib oluvchining faoliyatini amalga oshiradigan joyi (joylashgan yeri) bunday xizmatlarning realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etiladi. Bunda havo va dengiz kemalariga, vertolyotlarga va temir yo‘l transportining harakatdagi tarkibiga nisbatan shartnoma, agarda u 90 kungacha bo‘lgan muddatga tuzilgan bo‘lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi. Boshqa transport vositalariga nisbatan bunday shartnomalar 30 kungacha bo‘lgan muddatga tuzilgan bo‘lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi;

9) televideniyeda va (yoki) radioda, ommaviy axborot vositalarida va boshqa shakllarda reklamani joylashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hududida amalga oshiriladigan xizmatlar;

10) Soliq kodeksining 282-moddasida ko‘rsatilgan elektron shakldagi xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan yoki faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslar tomonidan olinsa. Bunda, agar quyidagi shartlardan hech bo‘lmaganda bittasi bajarilsa, O‘zbekiston Respublikasining hududi jismoniy shaxs tomonidan elektron shakldagi xizmatlarni olish joyi deb e’tirof etiladi;

a) xaridorning yashash joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lsa;

b) xaridor tomonidan xizmatlarga haq to‘lash uchun foydalaniladigan bank yoki xaridor tomonidan xizmatlarga haq to‘lash amalga oshiriladigan to‘lov tizimlarining operatori O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo‘lsa;

v) xaridor xizmatlarni olish chog‘ida foydalangan tarmoqning manzili O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa;

g) xizmatlarni olish yoki xizmatlarga haq to‘lash uchun foydalaniladigan telefon raqami mansub bo‘lgan mamlakatning xalqaro kodi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan berilgan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi, agarda 241-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan xizmatlarni realizatsiya qilish joyi unda belgilangan mezonlarga muvofiq bo‘lmasa, ushbu xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydi.

Agar xizmatlar ko‘rsatish asosiy xizmatlarni realizatsiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo‘lsa, bunday realizatsiya qilish joyi deb asosiy xizmatlar realizatsiya qilingan joy e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 242-moddasiga muvofiq, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan hisobvaraq-faktura taqdim etilgan sana yoki tovarlar jo‘natilgan (berilgan) sana, agar ushbu sana hisobvaraq-faktura taqdim etilgan sanadan oldin kelsa, tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarni jo‘natish (berish) amalga oshirilmasa, tovarga bo‘lgan mulk huquqi xaridorga o‘tkazilgan kun tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Ko‘chmas mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxs tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomaning taraflari tomonidan imzolangan qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi bo‘yicha xaridorga ko‘chmas mol-mulk berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Xizmatlar ko‘rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hisobvaraq-faktura yoki boshqa hujjat rasmiylashtirilgan (imzolangan) sana xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

242-moddaning to‘rtinchi qismi qoidalari boshlanishi bir hisobot (soliq) davriga, tamomlanishi esa boshqa hisobot (soliq) davriga to‘g‘ri keladigan xizmatlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Elektr va (yoki) issiqlik energiyasi, suv, gaz, kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, moliyaviy va sug‘urta xizmatlari, quvurlar tizimi orqali yuklarni tashishga doir xizmatlar realizatsiya qilinganda, tovarlar (xizmatlar) doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan boshqa xollarda tovarlar yetkazib berilgan (xizmatlar ko‘rsatilgan) kalendar

oyning so‘nggi kuni tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Obyektlar qurilishida, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor holda qurishda, shuningdek uzoq (bir soliq hisoboti davridan ortiq) texnologik davriylikdagi uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha, agar tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar shartlarida xizmatlarni har oyda topshirish nazarda tutilmagan bo‘lsa, har bir kalendar oyning oxirgi kuni aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi taraflari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga ko‘ra mol-mulk ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) tasarrufiga berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun tovarlarni berishda (xizmatlar ko‘rsatishda) aylanma amalga oshirilgan sana deb soliq to‘lovchining tegishli ichki hujjati bilan rasmiylashtirilgan, ushbu tovarni berish (xizmatlar ko‘rsatish) amalga oshirilgan kun e’tirof etiladi.

Tovarlar eksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilgan taqdirda, quyidagi sanalar tovarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi:

1) bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona chegarasi haqiqatda kesib o‘tilgan sana;

2) bojxonaga oid deklaratsiyalashni amalga oshirgan bojxona organining belgilari qo‘yilgan holda tovarlarga taalluqli bojxona yuk deklaratsiyasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana – davriy va (yoki) vaqtinchalik bojxonaga oid deklaratsiyalashdan foydalanilgan hollarda.

Soliq solishdan ozod etish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 243-moddasiga muvofiq, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha soliq solishdan ozod etiladigan aylanma keltirilgan.

Agar Soliq kodeksining 260-moddasida (Eksport operatsiyalariga va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga soliq solish) boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagilarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

1) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga qarash bo‘yicha xizmatlarni;

2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo‘yicha xizmatlarni;

3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o‘tkazishga doir xizmatlarni;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinadigan buyumlar va inventarni, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarga ortopedik protezlash, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlarini va inventarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarni;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘lgan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to‘lashga doir xizmatlarni;

9) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining budjetdan mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

10) o‘qitish (ta’lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o‘tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim sohasidagi ta’lim xizmatlarini;

ta’lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha ta’lim berish bo‘yicha xizmatlarni;

maktabgacha ta’lim va tarbiya dasturlari doirasida ta’lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo‘yicha xizmatlarni, to‘garaklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga yetmagan bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni;

11) tibbiy xizmatlar (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Ushbu bandning maqsadida tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko‘rsatishga doir xizmatlar;

tashxis qo‘yish, profilaktika va davolash bo‘yicha xizmatlar;

stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo‘yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko‘rsatish, hayvonlarga tashxis qo‘yish va ularni davolash bo‘yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiy bo‘lgan kasalliklardan aholini himoya qilish;

O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta’minlash;

13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni;

14) sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek budjet tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan jismoniy tarbiya va sportga doir xizmatlarni. Ushbu bandning maqsadida:

a) sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko‘rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilishidan qat’i nazar, yo‘llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) budjet tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan jismoniy tarbiya va sport xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo‘yicha o‘quv guruhlari hamda jamoalarida sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishga oid xizmatlar, umumjismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarini, sport-tomosha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi;

15) yo‘lovchilarni yagona tariflar bo‘yicha tashish xizmatlarini ko‘rsatish:

a) umumiy foydalanishdagi yo‘lovchi tashish shahar transportida va yo‘lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo‘nalishli taksi mustasno) mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha;

b) shahar atrofidagi yo‘nalishda temir yo‘l transportida;

16) uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo‘jaliklari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari va bo‘limlari, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta’mirlash

boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

16[1]) boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan xizmatlar hamda bajarilayotgan ishlar;

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o‘lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlarini, qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish jarayonida xos il bo‘ladigan parchalarni va chiqindilarni, qimmatbaho metallarning o‘lchov plastinalari va granulalarini, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni, shuningdek qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan yarim tayyor mahsulotlarni;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko‘rsatish shart ekanligi qonunchilikda belgilangan bo‘lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to‘lovlar undiriladi;

21) budjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) budjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar ularni soliqdan ozod etish qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;

24) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash bo‘linmalari xizmatlarini;

25) telekommunikatsiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

26) metsenatlik ko‘magi tarzida beriladigan (ko‘rsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

27) Soliq kodeksining 244-moddasida nazarda tutilgan moliyaviy xizmatlarni;

28) Soliq kodeksining 245-moddasida nazarda tutilgan hayotni sug‘urta qilish xizmatlarini va boshqa sug‘urta xizmatlarini.

243-moddada sanab o‘tilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma soliq to‘lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini litsenziyalash lozim bo‘lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonunchilikka muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarni va ushbu moddaning qoidalariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar Soliq kodeksining 268-moddasiga muvofiq aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 244-moddasiga muvofiq, QQS solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar keltirilgan.

Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, bundan qiymati qat’iy summada belgilangan xizmatlar mustasno, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablag‘larini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq operatsiyalar;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig‘iga ko‘ra ularning bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko‘rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko‘rsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolati bo‘yicha to‘lov);

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchi shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblar va to‘lovlar;

to‘lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalardan foydalangan holda hisob-kitoblarni (to‘lovlarni) amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilari o‘rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘yicha axborotni to‘plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini, kooperativlarning pay fondlaridagi va investitsiya pay

jamg‘armalaridagi paylarni, qimmatli qog‘ozlarni hamda xos ila moliyaviy vositalarni realizatsiya qilish, bundan soliq solinishi lozim bo‘lgan xos ila moliyaviy vositalarning asos aktivini realizatsiya qilish mustasno. Ushbu bo‘lim maqsadlarida xos ila moliyaviy vositani realizatsiya qilish deganda uning asos aktivini realizatsiya qilish, shuningdek kontrakt bo‘yicha mukofotlar summalarini, variatsiyaga oid marja summalarini to‘lash, xos ila moliyaviy vositalar shartlariga muvofiq asos aktiv to‘lovi bo‘lmagan xos ila moliyaviy vosita taraflarining boshqa davriy yoki bir martalik to‘lovlari tushuniladi;

4) realizatsiya qilinishi ushbu qismning 3-bandiga binoan soliq solishdan ozod etiladigan xos ila moliyaviy vositalar asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo‘yicha huquqlardan (talablardan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish);

5) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

6) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzasidan kreditorning huquqlaridan (talablaridan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish, olish) bo‘yicha, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi asosida dastlabki shartnoma yuzasidan qarz oluvchining har bir yangi kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishga doir operatsiyalar;

7) kreditlarni, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog‘ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo‘yicha foizlar bilan birga berish, shuningdek REPO operatsiyalari, shu jumladan REPO operatsiyalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar berilganligi uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan pul summalari;

8) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo‘yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo‘yicha;

9) qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog‘ozlarni

o‘tkazish hamda ularning reyestrini yuritish, qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish bo‘yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo‘yicha xizmatlar bundan mustasno;

10) tranzaksiyalarni bir vaqtning o‘zida to‘lov ishtirokchilari o‘rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog‘liq to‘lov tizimlarining moliya xizmatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va qimmatli qog‘ozlarga taalluqli qism bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha vakolatli organ bilan kelishilgan holda, ushbu moddaning qoidalarini qo‘llash tartibi yuzasidan tushuntirishlar, shu jumladan ayrim aylanmalarni batafsil aniqlashtirish bo‘yicha tushuntirishlar berishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 245-moddasiga muvofiq, QQS solishdan ozod qilinadigan sug‘urta xizmatlari keltirilgan.

Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish xizmatlari bo‘yicha sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;

qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantyemalar;

sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonunchilikka muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan mablag‘lar;

qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovoni);

preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar;

sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar;

sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda ushbu modda qoidalarining qo‘llanilish tartibi yuzasidan, ayrim aylanmalarni batafsillashtirgan xolda, tushuntirishlar berishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 246-moddasiga muvofiq, quyidagilarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish soliq solishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda — boshqa tashkilotlar va shaxslar yo‘nalishlari

bo‘yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko‘rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zlari bilan birga yashayotgan oila a’zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;

5) qonunchilikka muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros obyektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg‘aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi;

6) o‘xshashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo‘yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to‘lov vositalari bo‘lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo‘ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog‘ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonunchilikda belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xomashyo. Mazkur norma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

14.3. Soliq solinadigan bazani aniqlash

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 247-moddasida Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalari keltirilgan.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq o‘zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bobga va bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to‘lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to‘lov, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bilan haq to‘lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog‘ida soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) Soliq kodeksining 242-moddasida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chet el valyutasida belgilangan summaga teng bo‘lgan summadagi milliy valyutada haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘langan sana ularni realizatsiya qilish bo‘yicha Soliq kodeksining 242-moddasiga muvofiq aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to‘g‘ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq Soliq kodeksining XII bo‘limiga muvofiq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

Soliq kodeksining 239-moddasiga muvofiq o‘z ehtiyojlari uchun soliq solish obyekti deb e’tirof etiladigan tovarlar berilgan (xizmatlar ko‘rsatilgan) taqdirda, soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq aniqlanadi.

Agar 248-moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bazasi Soliq kodeksining 176-moddasi talablarini hisobga olgan holda, aksiz solig‘ini (aksiz to‘lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo‘llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergan soliq to‘lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda;

2) agar Soliq kodeksining 239-moddasi birinchi qismi 2-bandida yoki ikkinchi qismining 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko‘rsatishda);

3) yuridik shaxsning mol-mulkidan Soliq kodeksining 239-moddasi to‘rtinchi qismi 6-bandiga muvofiq shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo‘lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to‘lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo‘li bilan nizolashishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizatsiya qilish chog‘ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish) chog‘ida budjetga haqiqatda to‘langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha esa ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, Soliq kodeksga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Obyektlarni qurishda, shu jumladan obyektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining Soliq kodeksining 303-moddasiga muvofiq soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda

tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to‘lovlari hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko‘rsatilganda), shuningdek Soliq kodeksining 239-moddasi to‘rtinchi qismi 3-bandida belgilangan hollarda soliq bazasi tovarlarning (xizmatlarning) ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erkin bojxona hududining bojxona rejimiga soliq to‘lamasdan joylashtirilgan tovar yo‘qotilganda soliq bazasi Soliq kodeksining 254-moddasi birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olishga bo‘lgan huquqni beruvchi vaucherni realizatsiya qilish chog‘ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo‘ladi.

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uy-joy ko‘chmas mulk obyektlari realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va sotib olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘zi ishlab chiqargan tovarlardan foydalanilganda (o‘z kuchi bilan xizmatlar ko‘rsatilganda), soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bunday soliq to‘lovchi tomonidan o‘tgan 90 kun davomida realizatsiya qilingan aynan shunday (ular mavjud bo‘lmaganda shunga o‘xshash) tovarlarning (xizmatlarning) o‘rtacha o‘lchangan narxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan qiymati sifatida, ko‘rsatilgan davrda bunday realizatsiya mavjud bo‘lmaganda esa aksizlar hisobga olingan (aksizosti tovarlar uchun) va soliq qo‘shilmagan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ushbu bo‘limga muvofiq realizatsiya qilishga doir aylanmalari soliq solinmaydigan aylanmalar bo‘lgan chiptalar, abonementlar, yo‘llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlarni olish huquqini beruvchi boshqa hujjatlar realizatsiya qilingan taqdirda,

soliq bazasi soliq summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi va ularni sotib olish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlashning boshqa shartlar va holatlarni hisobga oladigan o‘ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 249 — 256-moddalarida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 249-moddasiga muvofiq, mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilgan taqdirda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) soliq bazasi barcha davriy ijara (lizing) to‘lovlari summasi (shu jumladan, qaytarib sotib olish summasi, agar shartnomada shunday summa nazarda tutilgan bo‘lsa) sifatida, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz hisobidagi daromadi chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 250-moddasiga muvofiq, komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra komitentga (ishonch bildiruvchiga) tegishli bo‘lgan tovarlar realizatsiya qilingan taqdirda, vositachilik (topshiriq) shartnomasining shartlariga muvofiq bo‘lgan shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga xizmatlar ko‘rsatganda soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi:

1) vositachining (ishonchli vakilning) soliq bazasi – uning soliqni o‘z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida;

2) komitentning (ishonch bildiruvchining) soliq bazasi – komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan tovarlarning qiymati, shuningdek soliqni kiritmagan holda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga ko‘rsatgan xizmatlarning qiymati miqdorida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 251-moddasiga muvofiq, korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizatsiya qilinganda,

soliq bazasi ushbu moddada belgilangan tartibda, uni realizatsiya qilishning soliqni o‘z ichiga oladigan narxi miqdorida, ushbu korxona mol-mulkining har bir soliq obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 252-moddasiga muvofiq, yo‘lovchilarni, bagajni, yuklarni yoki pochtani temir yo‘l, avtomobil, havo yoki daryo transportida tashishlar amalga oshirilganda soliq bazasi soliqni qo‘shmagan holdagi tashish qiymati sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 253-moddasiga muvofiq, muddatli bitim deganda shartnomada belgilangan muddat tugagach bevosita ushbu shartnomada ko‘rsatilgan narx bo‘yicha tovarlar yetkazib berilishini (xizmatlar ko‘rsatilishini) taqozo etadigan bitim tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 254-moddasiga muvofiq, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi quyidagilarni qo‘shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi:

1) tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatini;

2) tovarlar O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to‘lanishi lozim bo‘lgan aksiz solig‘i va bojxona bojini.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari ushbu hududga olib kirilayotganda soliq bazasi bunday qayta ishlashning qiymati sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan bir nomdagi, turdagi va markadagi tovarlarning har bir guruhi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 255-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining hududi realizatsiya qilish joyi bo‘lgan tovarlar (xizmatlar) soliq to‘lovchilar sifatida soliq organlarida hisobda turmagan chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilingan

taqdirda, soliq bazasi soliq agentlari tomonidan ushbu tovarlarni (xizmatlarni) aksizlar (aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holda realizatsiya qilishdan olingan daromadning summasi sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 256-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mol-mulki ijaraga berilganda, davlat mulkini ijaraga berish bo‘yicha vakolatli organ soliq agenti deb e’tirof etiladi. Bunday hollarda soliq bazasi bunday mol-mulkning soliq hisobga olingan holdagi ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovi miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257-moddasiga muvofiq, soliq to‘lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;

3) bitim shartlari o‘zgarganda, shu jumladan jo‘natilgan tovarlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o‘zgarganda;

4) tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda. Ushbu bandda nazarda tutilgan tuzatish kiritish, agar siylovlar berish shartlari shartnoma shartlarida yoki soliq to‘lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo‘lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo‘yicha soliq bazasini kamaytiradi. Bunday shartlar tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko‘rsatish) shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to‘lashni nazarda tutishi mumkin.

Soliq bazasiga uni kamaytirish yoki ko‘paytirish tarafga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘lash bo‘yicha majburiyat Soliq kodeksining 313-moddasiga muvofiq umid qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik deb e’tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo‘lgan hollarda ham amalga oshiriladi. Bunday holda tuzatish kiritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish (salbiy yoki ijobiy) qo‘shimcha hisobvaraq-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollar ro‘y bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq bazasi xatolarni tuzatish natijasida o‘zgartirilgan taqdirda, shuningdek ilgari yozib berilgan hisobvaraq-fakturaga o‘zgartish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish zarur bo‘lganda ushbu moddaning qoidalari qo‘llanilmaydi. Bunday holda ilgari yozib berilgan hisobvaraq-faktura bekor qilinadi va uning o‘rniga qonunchilikda belgilangan tartibda tuzatilgan hisobvaraq-faktura rasmiylashtiriladi.

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan soliq bazasiga tuzatish kiritish amalga oshirilayotganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo‘shimcha hisobvaraq-faktura asosida ilgari o‘zi hisobga olish uchun qabul qilgan soliq summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi (ko‘paytiradi yoki kamaytiradi).

14.4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq stavkalari

Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992 yilda dastlab QQS stavkasi 30 % miqdorida belgilangan. Keyinchalik kiritilgan qo‘shimchalar va o‘zgarishlarga muvofiq 25% qilib belgilandi.

1993 yilning 1 sentyabridan boshlab 1994 yilning iyunigacha korxonalar ixtiyorida QQS stavkasining 6% miqdori qoladigan bo‘ldi, QQSning qolgan 19% stavkasi budjetga o‘tkazila boshladi.

Korxonalar 1994 yil 1 iyundan boshlab QQSni 20% miqdorida to‘lay boshladilar va korxonalar ixtiyorida qoladigan QQSining 6%i bekor qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan QQS stavkasi 1996 yilning 1 yanvaridan boshlab 17% qilib belgilandi. 1997 yilning 1 yanvariga kelib ayrim aholining birinchi navbatdagi iste’mol tovarlari bo‘yicha ushbu soliq miqdori 10%, boshqa tovar va xizmatlar uchun 18% darajasida o‘rnatildi.

1998 yilning 1 yanvaridan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10%, boshqa tovar va xizmatlar uchun 20% darajada o‘rnatildi. 2002 yilning 1 yanvaridan esa eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 15% o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 26-dekabrdagi 610-sonli qaroriga asosan 2005 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘ining stavkasi 18 %dan 15 % ga tushirildi va budjet daromadlarini balansini ta’minlash uchun eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun QQS 2002 yildagi 15 foizlik stavkasini 2005 yil uchun 20 % qilib belgilandi.

2000 yildan 2019 yil 1 oktyabrgacha respublikamizda 20 foizli va “0” foizli stavka qo‘llanilib kelinmoqda. 2019 yil 1 oktyabrdan 15 foiz qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 258-moddasiga muvofiq, soliq stavkasi 15 foiz miqdorida belgilanadi.

Shuningdek Soliq kodeksining 36-bobida nazarda tutilgan hollarda soliq stavkasi 0 foiz miqdorida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 260-moddasiga muvofiq, eksport operatsiyalariga va ularga tenglashtirilgan operatsiya-larga soliq solish keltirilgan.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solish quyidagilar realizatsiya qilinganda amalga oshiriladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (xos il bo‘lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g‘amlab qo‘yilgan narsalar. Ushbu modda maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i va yonilg‘i-moylash materiallari g‘amlab qo‘yilgan narsalar deb e’tirof etiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar.

Nol darajali stavkani ayrim hollarda qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 264-moddasida belgilangan.

Nol darajali stavkani qo‘llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar soliq hisoboti bilan birga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 261-moddasiga muvofiq, tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi);

2) tovarlarni chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun belgisi qo‘yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o‘tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamla-

katga jo‘natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (ishonch bildiruvchi) tomonidan qo‘shimcha tarzda soliq to‘lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko‘chirma nusxasi) taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning turiga qarab boshqa hujjatlar taqdim etilishi mumkin. Soliq to‘lovchining amalga oshiriladigan faoliyat turiga qarab nol soliq stavkasini qo‘llash huquqini tasdiqlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati hamda ularni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 262-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga soliq solish tartibi keltirilgan.

Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish sharti bilan nol stavka bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo‘yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq erkin muomalaga chiqarish rejimiga joylashtirgan holda Soliq kodeksining 258-moddasi birinchi qismida belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 263-moddasiga muvofiq, xalqaro tashishlar bilan bog‘liq xizmatlarga soliq solish tartibi keltirilgan.

Nol stavka bo‘yicha soliq solish quyidagilarni realizatsiya qilish chog‘ida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo‘yicha xizmatlarni. Tovarlarni xalqaro tashish deganda tovarlarning jo‘natish punkti yoki belgilangan punkti O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temir yo‘l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog‘ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan to O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo‘lovchilarni, pochtani va bagajni jo‘natish punkti yoki belgilangan punkti O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, yo‘lovchilarni, pochtani va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlarni;

4) O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishlash mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo‘lgan tashuvchilar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni. Ushbu bandning qoidalari, basharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo‘yilgan bo‘lsa, qo‘llaniladi;

5) havo kemalariga bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroport-larida va O‘zbekiston Respublikasining havo hududida ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigatsiya xizmatini.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 264-moddasida ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo‘llanilishi keltirilgan.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi to‘langan soliqni qoplash (qaytarish) yo‘li bilan nol darajali stavkasi bo‘yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonunchiligida O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarning diplomatik hamda ma’muriy-texnik xodimlariga (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a’zolariga) nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo‘lsa yoxud bunday norma O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, nol darajali stavkani qo‘llash 264-moddaning birinchi qismi 1-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Suv ta’minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta’minoti bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo‘linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi.

Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo‘yicha vakolatli organga realizatsiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo‘llaniladi.

14.5. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq kodeksning 247 — 257-moddalariga muvofiq soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo‘lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko‘paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o‘zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko‘ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiy summasi Soliq kodeksining 254-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar Soliq kodeksining 254-moddasi to‘rtinchi qismida belgilangan talablarga muvofiq soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo‘yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo‘yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiy summasi bunday soliq bazalarining har biri bo‘yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo‘shish orqali hisoblab chiqariladi.

To‘langan soliq summalarini hisobga olish

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini aniqlashda, agar Soliq kodeksining 267-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasini hisobga olish orqali Soliq kodeksining 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqning umumiy summasini kamaytirishga, quyidagi shartlarni bir vaqtda bajargan taqdirda, haqli bo‘ladi:

1) soliq to‘lovchining tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq faoliyatini amalga

oshirish chog‘ida tovarlardan (xizmatlardan), foydalanilganda realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasiga soliq solinishi, shu jumladan nol stavka bo‘yicha soliq solinishi lozim bo‘lganda;

2) olingan tovarlarga (xizmatlarga) soliq to‘lovchi tomonidan hisobvaraq-faktura yoki yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan soliq summasi alohida ajratib ko‘rsatilgan boshqa hujjat olinganda hamda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilganda;

3) tovarlar olib kirilgan (import qilingan) taqdirda soliq budjetga to‘langanda;

4) Soliq kodeksining 255 va 256-moddalarida nazarda tutilgan hollarda soliq budjetga to‘langanda;

5) nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma mavjud bo‘lsa, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizatsiya qilish aylanmasi maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) soliq tovarlar eksportidan soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar soliq to‘lovchi oxirgi bir yil davomida valyuta tushumlarini o‘z vaqtida ta’minlab kelayotgan va eksport shartnomalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorligi bo‘lmagan intizomli soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan bo‘lsa, eksport qilinadigan tovarlar uchun ishlatilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) soliq summasi soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat’i nazar hisobga olinadi. Tovarlar “eksport” bojxona rejimi ostida chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz

sakson kalendar kuni ichida valyuta tushumi yoki uning bir qismi soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga kelib tushmagan taqdirda, hisobga olingan soliq summasi yoki uning tegishli qismi belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

Nol darajali stavka bo‘yicha tortiladigan tovarlar eksporti vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirilgan taqdirda, soliq vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga kelib tushgan valyuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilmaydigan xizmatlarni ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari ushbu bobda belgilangan tartibda haqiqatda olingan tovarlar bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Bunda ushbu bobni qo‘llash maqsadida bunday xizmatlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmadan olinadigan soliq solinadigan aylanmaga tenglashtiriladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan asosiy vositalar (shu jumladan o‘rnatiladigan asbob-uskunalar), nomoddiy aktivlar va ko‘chmas mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar sotib olinganda, shuningdek kelgusida o‘z asosiy vositalari sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan aktivlarni yaratish uchun tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda sotuvchi tomonidan soliq to‘lovchiga taqdim etilgan soliq summasini hisobga olish to‘liq hajmda amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi hududiga bunday tovarlarni olib kirish chog‘ida ushbu soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq summasini hisobga olish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan taqdirda, oluvchi mol-mulkni ustav fondiga (ustav kapitaliga) berish chog‘ida ishtirokchi tomonidan to‘langan soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ko‘chmas mol-mulk obyektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar bo‘yicha ishtirokchi

ularni berish chog‘ida to‘lagan soliq ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda berilgan aktivlarni oluvchi soliq to‘lovchida hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchi bo‘lmagan shaxs soliq to‘lovchi sifatida Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq maxsus ro‘yxatga olish hisobiga qo‘yilganda, shuningdek soliq to‘lashdan ozod etish bekor qilingan taqdirda soliq to‘lovchi maxsus ro‘yxatga olish hisobiga qo‘yish (ozod qilishni bekor qilish) sanasida o‘z balansida mavjud bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlarining va uzoq muddatli aktivlarning balans qiymatida hisobga olingan soliq summasini ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan shartlarga rioya etilgan taqdirda, hisobga olish huquqiga ega.

Ushbu moddaning beshinchi qismiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi:

tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari bo‘yicha — shaxs ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yilgan sanadan oldingi so‘nggi o‘n ikki oy ichida olingan, soliq to‘lovchida uni ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yish (ozod etishni bekor qilish) sanasida mavjud bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘iga to‘g‘ri keladigan tovarlarning (xizmatlarning) haqiqiy qiymati bo‘yicha;

uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha — mazkur obyektlarning shaxs soliq bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yilgan (ozod etish bekor qilingan) sanadagi qayta baholanishi hisobga olinmagan, soliqning tegishli summasini o‘z ichiga olgan balans (qoldiq) qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchi sifatida hisobda turmaydigan chet el yuridik shaxsi komitent (ishonch bildiruvchi) bo‘lsa, tovar tegishli vositachilik (topshiriq) shartnomasiga muvofiq shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan taqdirda, ushbu tovar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda to‘langan soliq summasi tegishli soliq davrida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizatsiya qilingan tovarlar ulushiga to‘g‘ri keladigan ulushda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lgan komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig‘iga ko‘ra olingan tovar O‘zbekiston Respublikasi hududiga vositachi (ishonchli vakil) tomonidan olib kirilgan taqdirda, import qilingan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi chog‘ida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan to‘langan soliq komitentda (ishonch bildiruvchida) hisobga olinishi lozim.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish chog‘ida ekspeditor tomonidan tashuvchidan va (yoki) boshqa yetkazib beruvchilardan olingan xizmatlarga doir soliq summasi bunday shartnoma bo‘yicha ekspeditorning mijozi bo‘lgan tarafda hisobga olinadi.

Sotuvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘lovchisi bo‘lmagan chet ellik shaxsga ushbu chet ellik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasida tovarlarni (xizmatlarni) olish chog‘ida taqdim etilgan yoki ushbu chet ellik shaxslar tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishi chog‘ida ular tomonidan to‘langan soliq summalari hisobga olinishi lozim. Soliqning mazkur summalari Soliq kodeksining 255-moddasiga muvofiq soliq agenti tomonidan ushbu chet ellik shaxsning daromadlaridan ushlab qolingan soliq budjetga to‘langanidan keyin, ushbu shaxs olgan (olib kirgan) tovarlardan (xizmatlardan) faqat soliq agenti qiymatidan soliqni ushlab qolgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish maqsadida foydalanilgan qismi bo‘yichagina hisobga olinishi yoki ushbu chet ellik shaxsga qaytarilishi lozim. Bunda soliqning mazkur summalari, basharti chet ellik shaxs Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobiga qo‘yilgan bo‘lsa, hisobga olinishi yoki ushbu shaxsga qaytarilishi lozim.

Agar soliq to‘lovchi realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasiga soliq solinishi lozim bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni), shuningdek realizatsiya qilish bo‘yicha aylanmasi soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilsa, hisobga olinishi lozim bo‘lgan soliq

summasi Soliq kodeksining 268-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Agar hisobga olish huquqi tovarlarni (xizmatlarni) olish bo‘yicha qalbaki yoki ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim natijasida vujudga kelganligiga oid dalillar mavjud bo‘lsa, soliq organlari hisobga olishni bekor qilishni yoki unga tuzatishni amalga oshirishga haqli.

Qisqacha xulosalar

Respublikamizda davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini bilvosita (egri) soliqlar tarkibiga kiruvchi umumdavlat solig‘i QQS egallaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig’i tovarlar, ishlar, xizmatlarga qo‘llaniladi va ularning narxi tarkibiga kiradi. Demak, bu soliq ham boshqa bilvosta soliqlar kabi iste’molchilar zimmasiga tushadi, lekin uni budjetga qo‘shilgan qiymat solig’i to‘lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydilar.

Oxirgi uch yilda QQS tushumlarining nisbatan pasayishi kuzatilmoqda - o‘sish dinamikasi jami 113,7% (2021-yilda 2019 yilga nisbatan), barcha soliqlar tushumlari dinamikasida - 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida QQSning salmog‘i pasaymoqda (30,1%dan 23,3%gacha), garchi ushbu soliq respublika budjet tizimini tashkil etuvchi hisoblanadi. Shunga qaramay, Moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, QQS samaradorligi (yig‘iluvchanligi bo‘yicha) 2020-yildagi 44,5%dan 2021 yilda 48%gacha oshdi (QQS yig‘ish samaradorligi = QQSdan daromad YaIMdan foizlarda / QQS stavkasi). QQS tushumi dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ko‘rsatmoqda:

QQS tushumi kamayishiga:

- QQS stavkasining 20%dan 15%gacha jiddiy pasayishi;

- QQSni hisobga olishning to‘liq tizimining joriy etilishi. QQS summasini aniqlashda soliq to‘lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan soliq summasini hisobga olish yo‘li bilan hisoblab chiqarilgan soliqning umumiy summasini kamaytirish huquqiga ega. Ushbu tizim qabul qilingunga qadar, asosiy vositalarning

qiymatida bo‘lgan QQS hisoblab chiqarilgan QQSni kamaytirmagan;

- QQSni hisobga olishning to‘liq tizimi joriy etilishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasining hisoblangan soliq summasidan oshishi natijasida yuzaga keladigan soliqni to‘liq qaytarishning ta’minlanishi. Ayniqsa ushbu qoplash mahsulotni eksport qilishda QQSga ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, agar 2019 yilda soliq to‘lovchilarga 3,2 trln so‘m qaytarilgan bo‘lsa, 2021 yil uchun qoplash summasi 14,4 trln so‘mni (QQS bo‘yicha tushgan mablag‘larning 27,3%i) tashkil qildi. Shuni hisobga olgan holda tushumlar bo‘yicha QQS qoplash summasiga kamaytirildi (3-jadvalda keltirilgan);

QQS tushumi oshishiga:

- elektron hisobvaraq-faktura tizimining va tegishli elektron soliq ma’muriyatchiligi tizimining joriy etilishi;

- aylanmasi yiliga 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan kichik korxonalar (ilgari YaST to‘laganlar), shuningdek yuridik shaxslar - 50 gektar (2022 yildan - 25 gektar) va undan ortiq sug‘oriladigan yer maydoni mavjud qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hisobiga QQS to‘lovchilar toifasi jiddiy kengaytirilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qo‘shilgan qiymat nimalardan tarkib topadi?
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha bering?
3. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i qachon joriy etilgan?
4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining iqtisodiy mazmuni?
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o‘rni qanday?
6. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?
7. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini soliq solish obyekti qanday aniqlanadi?
8. Soliqqa tortiladigan aylanma deganda nimani tushunasiz?
9. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar?
10. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini necha xil hisoblash usullari mavjud?
11. Hisobvaraq-faktura qanday tartibda to‘ldiriladi?

12. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?

Testlar

1. Egri soliqlar keltirilgan javobni ko‘rsating?

A) QQS, Aksiz solig‘i, bojxona bojlari, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq

B) Aksiz solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;

C) Bojxona bojlari, Aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i;

D) QQS, aksiz solig‘i, yer solig‘i.

2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bu - ....

A) Oborotdan olinadigan egri soliq.

B) To‘g‘ri soliq.

C) Korxonalar foydasidan undiriladigan soliq;

D) Mahalliy soliq.

3. QQS O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

A)1991- yil 1 yanvardan

B)1992 yil- 1 yanvardan

C)1995 yil -1 yanvardan

D)1999 yil- 1 martdan

4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliqqa tortish obyekti nima?

A) soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import

B) muomala xarajatlari

C) ishlab chiqarish tannarxi

D) mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tushgan tushum

5. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining qanday stavkalari qo‘llaniladi?

A) 20 va 10

B) 20 va 15

V) 20 va nollik

G) 10 va nollik.

6. Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) qanday stavkada QQS solinadi?

A) 20%

B) 10%

C) 15%

D) nol darajali stavka

7. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi?

A) tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilishda

B) stenografiya xizmatlariga

C) kundalik ehtiyoji mollariga

D) ma‘lumotlarni ishlash va axborot ta‘limotiga doir xizmatlariga

8. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjetga to‘lash muddatlarini aniqlang.

A) Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar

B) Har chorakda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan

C) Yillik hisobotlarni topshirish muddatiga qadar

D) Har oyning 15-sanasiga qadar.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.
5. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.-57-73-betlar.

15-MAVZU. AKSIZ SOLIG‘I

15.1. Aksiz solig‘ining soliq tizimidagi ahamiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni

Aksiz solig‘i o‘z mohiyatiga ko‘ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste’molchi tomonidan to‘lanadigan bilvosita soliqlarning bir turi hisoblanadi.

Aksizlar- tovarlar uchun qo‘yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo‘lib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli ma’lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo‘shiladi. Aksiz solig‘i individual xarakterga ega bo‘lib, faqat Aksiz osti tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

“Aksiz” frantsuzcha (accise) va lotincha (accidere) so‘zlaridan olingan bo‘lib, tarjima qilinganda «kesib olish» ma’nosini anglatadi.

Uning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Aksiz solig‘ining iqtisodiy mohiyati budjet tushumini ta’minlash orqali xalq xo‘jaligi manfaatlarini qondirishga, ko‘proq mablag‘larni jalb ettirishi orqali namoyon bo‘lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya’ni asosiy iste’molchilarning to‘lov qobiliyatlarini oshishida o‘z ifodasini topadi. Bu esa Aksiz solig‘i obyektlari (Aksiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to‘lov qobiliyatini o‘sishida namoyon bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, subyektlar Aksiz solig‘i iste’molchilari sifatida yuzaga kelishi tabiiydir.

Aksiz solig‘ining asosiy vazifasi mablag‘ yig‘ishdan iborat, ya’ni u fiskal funktsiyani to‘liq bajaradi. Bozor iqtisodiyoti jarayonlari rivojlanib borgan sari Aksiz solig‘i fiskal funktsiya bilan bir qatorda boshqa vazifalarni ham bajara boshlaydi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan Aksiz solig‘iga tayanadi. Davlat Aksiz solig‘i orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko‘proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. Bilvosita soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin soliq og‘irligini haqiqatan ham budjetga to‘lovchilari tovar ish, xizmatni iste’mol qiluvchilardir, ya’ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste’molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo‘shimcha ravishda qo‘yiladi

Bilvosita soliqlar, xususan Aksizlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dastlab soliq tizimi vujudga kelishida to‘g‘ri, ya’ni bevosita soliqlar shakllanib, keyinchalik davlatning vazifalari kengayib borgandan so‘ng bilvosita soliqlar, xususan Aksiz solig‘i paydo bo‘ldi va amaliyotga kiritildi.

Bilvosita soliqlar xususan, Aksiz solig‘i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi (2021-yilda 12,9 trln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda 15 trln so‘mni tashkil qilishi rejalashtirilgan). Davlat budjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Bilvosita soliqlar tarkibida ikkinchi o‘rinni Aksiz solig‘i egallaydi. Aksiz- bu ayrim tovarlarning narxiga yoki tarifiga kiritiladigan va xaridor tomonidan to‘lanadigan, muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish uchun belgilangan bilvosita soliqdir.

O‘zbekiston Respublikasida Aksiz solig‘i 1992-yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o‘rniga joriy qilingan.

15.2. Aksiz solig‘ining vazifalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Aksiz solig‘ini mohiyatini ochishda u bajaradigan quyidagi vazifalarni bilish muhimdir:

1. mamlakat budjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha

davlatlar singari, mamlakatimizda ham Aksiz orqali daromadlarni tez va oson yig‘ish imkoniyatlari yuzaga keladi;

2. Aksiz osti tovarlari iste’molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy o‘sish doirasini boshqarishda Aksizosti tovarlar ro‘yxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifni egiluvchanligini ta’minlaydi;
3. davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi Aksiz solig‘i orqali shunday ta’minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi;
4. Aksiz solig‘i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o‘taydi;
5. Aksiz solig‘i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo‘lib hisoblanadi. Chunki Aksiz solig‘i asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo‘llaniladiki, bunday tovarlarni asosiy iste’molchilari boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

Aksiz solig‘ining xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

1. Aksizlar ko‘pgina holatlarda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatga nisbatan unga bo‘lgan talabning yuqoriligi va doimiyligi natijasida, uning sotilish narxi ancha yuqori bo‘lganda paydo bo‘ladi, masalan, aroq, tamaki, kofe, paxta yog‘i va x.k. Agarda Hukumat ushbu xususiyatlarini Aksiz solig‘i yordamida undirmasa, u holda Aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchilar o‘zlari bunga yarasha xizmat ko‘rsatmagan holda yuqori daromadga ega bo‘ladilar.
2. Aksizlar jamiyat tomonidan zararli yoki iste’mol qilish keraksiz deb topilgan tovarlarga - spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlar va benzinga qo‘yiladi. Ular yordamida Hukumat bir tomondan inson salomatligiga, jamiyat va atrof muhitga zarar keltiradigan tovarlarni (tamaki, vino, aroq, benzin va h.k.) sotilishini ushlab tursa, ikkinchi tomondan, ushbu tovarlarni sotish natijasida jamiyatda

yetkaziladigan zararlarni moliyaviy qoplash uchun mablag‘ undiradi.

3. Barcha bilvosita soliqlar kabi Aksiz ham soliqning fiskal funktsiyasini to‘liq bajaradi, ya’ni budjetni juda ham yaxshi mablag‘ bilan ta’minlaydi.
4. Aksizlar tabiiy monopolistlarning narx belgilashlaridagi jarayonda ham foydalaniladi (gaz, neft va b.).

«Aksiz» so‘zi frantsuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, chopib tashlash ma’nosini bildiradi.[28]

Bu erda ushbu to‘lovning o‘ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi. Aksizlar tovar narxiga qo‘shiladi va davlatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo‘yilgan qo‘shimcha narx mahsulot ishlab chiqarishning unumdorligini yoki biron bir alohida xususiyatlarini bildirmaydi, balki Aksiz tovarlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Aksizni keng va tor ma’noda talqin qilish mumkin. Tor ma’noda bu tushuncha ostida, alohida tovarlarga Aksizlar yoki individual Aksizlar tushuniladi. Keng ma’noda esa Aksiz tushunchasi individual Aksizlarni ham, universal Aksizlarni ham qamrab oladi.Ular o‘rtasidagi farqi, uni undirish usuli hisoblanishi va amal qilish sohasiga bog‘liq. Bizga ma’lumki, tarixda dastlab individual Aksizlar paydo bo‘lgan. Ular kiritish va undirish tartibi iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, soliqning bu turi alohida tovarlardan qat’iy belgilangan stavkalar asosida undirilgan. Universal Aksizlar esa keng qamrovga ega bo‘lib, barcha holatlarda tovarlar, xizmatlar, ishlar realizatsiyasi aylanmasi uni undirish obyekti bo‘lib hisoblanadi. Universal Aksizlarga oborotdan soliqlar, sotishdan olingan soliqlar, qo‘shilgan qiymat soliqlari kiritilgan. Individual Aksizlar chegaralangan ma’lum tovarlarga belgilangan va narxga kiritilib iste’molchi tomonidan to‘langan.

Hozirgi vaqtda soliq tizimida Aksizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Alohida

[28] Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot.-Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.-160-bet.

tovarlardan Aksiz solig‘ini undirish zarurligi ulardan budjetni to‘ldirishning qo‘shimcha manbai sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog‘liqdir. Ular jumlasiga:

1. Atrof muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlar iste’molini cheklash ya’ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.

2. Yuqori daromad olinadigan aholi iste’moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo‘lgan ehtiyoj.

3. Davlat monopoliyasida bo‘lgan(neft, gaz) mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiyadan kelgan yuqori daromadni qayta taqsim-lashga bo‘lgan ehtiyoj kabilarni kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan, 1999 yildan boshlab, Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ro‘yxati e’lon qilindi. Bu ro‘yxat Aksiz solig‘iga tortish nazariyasiga ko‘proq mos keladi. Aksizlar asosan atrof-muhitga va inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda zebu - ziynat buyumlaridan undirila boshlandi. Ushbu yondashuvga asosan, gilamlar, billur buyumlar, markali vinolar, tabiiy teridan tikilgan kiyimlar Aksiz solig‘i undiriladigan tovarlar ro‘yxatidan chiqariladi. Shu bilan birgalikda ba’zi buyumlar, ichimlik va etil spirtining barcha turlari, aroq, vino mahsulotlari, konyak, shampan vinosi va boshqa alkogolli ichimliklar, zargarlik buyumlari, engil avtomashinalar, avtomobil benzini va moddiy xom ashyoning ba’zi turlari Aksiz solig‘iga tortila boshlandi. Shu bilan bir qatorda eksportga chiqariladigan tovarlardan Aksiz solig‘i undirilmaydigan bo‘ldi, chunki ulardan ustama to‘lov sifatida bojxona to‘lovlari undiriladi.

15.3. Aksiz solig‘i to‘lovchilar tarkibi, soliqqa tortish obyekti va soliq solinadigan baza

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 283-moddasiga muvofiq, Aksiz solig‘ini to‘lovchilar deb quyidagi shaxslar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiiy gazni iste’molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni gaz to‘ldirish stansiyalari va gaz to‘ldirish punktlari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida yakuniy iste’molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo‘lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonun-chilikka muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar ham soliq to‘lovchilar deb e’tirof etiladi:

1) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to‘lanadigan xizmatlarni) ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 284-moddasiga muvofiq Aksiz solig‘i solinadigan obyektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish:

tovarga bo‘lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta’minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash yoki dividendlar to‘lash hisobidan berish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

a) ishtirokchiga (muassisga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan, shuningdek aksiz to‘lanadigan shunday xomashyo va materiallarning mahsuli bo‘lgan, aksiz to‘lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to‘lanadigan xizmatlar ko‘rsatish;

9) O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarning buzilishi, yo‘qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug‘urta orqali to‘langan yoki uning o‘rni qoplangan taqdirda, aksiz solig‘i sug‘urta orqali to‘lash (o‘rnini qoplash) ulushida to‘lanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta’minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to‘lanadigan tovarlarni:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirish;

agar ular olib kirilayotganda soliqdan ozod etilishi qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

5) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O‘zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonunchilikda belgilanadi;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

7) ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo‘nalishlarda tashkil etilgan degustatsiya hududlarida (joylarida) realizatsiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashqari) mahsulotlariga.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 285-moddasiga muvofiq soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat’iy) summada belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bo‘lib realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo‘lmagan qiymati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to‘lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq bazasi aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xomashyo va materiallarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

Aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari

belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi, agar ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to‘lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan qat’iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo‘lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo‘lsa, soliq bazasi bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan, aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to‘lanadigan tovarlarning bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilish chog‘ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg‘isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 286-moddasiga muvofiq Aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshiriladigan sana aniqlanadi.

Soliq kodeksining 242-moddasida tegishli operatsiyalar uchun nazarda tutilgan sana aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sana hisoblanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solish operatsiyalarini amalga oshirish sanasi ularni bojxonaning import tartib-taomilidan chiqarish sanasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 287-moddasiga muvofiq soliq bazasiga tuzatish kiritish Soliq kodeksining 257-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 288-moddasiga muvofiq Aksiz to‘lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1) eksport qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlarni yetkazib berishga doir kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi);

2) tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo‘yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o‘tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo‘natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar;

4) chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirma.

Tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar eksport rejimiga chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, tovarlarni eksportga realizatsiya qilish soliq solishning obyekti deb e’tirof etiladi.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilingan taqdirda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan soliq to‘lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko‘chirma nusxasi) qo‘shimcha ravishda taqdim etiladi.

15.4. Aksiz solig‘i stavkalari va soliqdan belgilangan imtiyozlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289-moddasiga muvofiq soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o‘lchov birligiga nisbatan mutlaq

summada (qat’iy belgilangan), shuningdek advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalarini o‘z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289^1-moddasiga muvofiq 2022-yilda Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi (5-jadval):

5-jadval

Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	360 000 so‘m/1000 dona + 10 foiz	2022-yil 1-yanvardan: 185 000 so‘m/1000 dona + 10 foiz 2022-yil 1-iyundan: 203 500 so‘m/1000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	5 200 so‘m/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	310 000 so‘m/kg*	
4.	Chekiladigan, o‘rama tamaki	310 000 so‘m/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimiladigan tamaki	310 000 so‘m/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo‘lgan o‘xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	310 000 so‘m/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	125 000 so‘m/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	550 so‘m/ml	

* Belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq chilim uchun tamakisiz aralashmani olib kirishda ham to‘lanadi.

** Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlikni (nikotinni) uni iste’mol qilish tizimlarida (elektron va boshqalar) olib kirishda soliq mazkur suyuqlik tarkibidagi nikotin miqdoridan kelib chiqqan holda to‘lanadi.

Ushbu modda birinchi qismining 1-bandida aksiz solig‘ining qat’iy belgilangan stavkasi natura ifodalangan aksiz to‘lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo‘llaniladi, aksiz solig‘ining advalor soliq stavkasi ishlab chiqaruvchining aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan qo‘llaniladi. Tovar importida advalor soliq stavkasi bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatiga nisbatan qo‘llaniladi.

Ushbu modda birinchi qismining 3 — 6-bandlarida soliq stavkasi tamaki mahsulotidagi tamaki xomashyosi massasiga nisbatan tamaki xomashyosi massasi to‘g‘risidagi axborotni iste’mol qadog‘ida (idishda) ko‘rsatish sharti bilan qo‘llaniladi. Agar chilim uchun tamaki bo‘yicha tamaki xomashyosi massasi netto og‘irligining 20 foizdan kamni tashkil etgan taqdirda, u holda aksiz solig‘i netto og‘irligining 20 foizidan hisoblab chiqariladi. Iste’mol qadog‘ida (idishida) tamaki xomashyosining og‘irligi to‘g‘risida axborot mavjud bo‘lmagan taqdirda, soliq stavkasi netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi.

Ushbu modda birinchi qismining 7-bandida soliq stavkasi tovarning netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi, bunda iste’mol qadog‘ining (plastik bankaning, karton qutisining va shu kabilarning) og‘irligi hisobga olinmaydi. Iste’mol qadog‘ida (idishida) tovarning og‘irligi to‘g‘risida ma’lumot mavjud bo‘lmagan taqdirda, soliq stavkasi iste’mol qadog‘ini (idishini) hisobga olgan holda netto og‘irligiga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289^2-moddasiga muvofiq 2022-yilda Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi (8-jadval):

6-jadval

Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari		
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan (1 dal tayyor mahsulot uchun)	
			2022-yil 1-yanvardan	2022-yil 1-iyundan
1.	Oziq-ovqat xomashyosidan rektifikatsiya-langan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi	70%	13 500 so‘m	14 900 so‘m
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	45 000 so‘m/1 litr uchun	125 100 so‘m	138 000 so‘m
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko‘p bo‘lgan aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	63 000 so‘m/1 litr uchun	206 700 so‘m	228 000 so‘m
3.	Vino:			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda)	31 500 so‘m/1 litr uchun	1 so‘m	
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	45 000 so‘m/1 litr uchun	18 000 so‘m	19 800 so‘m
4.	Pivo	50%, biroq 1 litr uchun/13 500 so‘mdan kam bo‘lmagan	12 600 so‘m	13 800 so‘m

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289^3-moddasiga muvofiq 2022-yilda Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi (6-jadval):

7-jadval

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlarga doir soliq stavkalari

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi	
		2022-yil 1-yanvardan	2022-yil 1-iyundan
1.	Neft mahsulotlari:		
	Ai-80	240 000 so‘m/tonna	275 000 so‘m/tonna
	Ai-90 va undan yuqori	275 000 so‘m/tonna	275 000 so‘m/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	200 000 so‘m/tonna	220 000 so‘m/tonna
	dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari)	240 000 so‘m/tonna	264 000 so‘m/tonna
	EKO dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari)	216 000 so‘m/tonna	237 600 so‘m/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	340 000 so‘m/tonna	374 000 so‘m/tonna
2.	Polietilen granulalar	10%	
3.	Tabiiy gaz, bundan O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilgan gaz mustasno	20%	
4.	Yakuniy iste’molchiga sotiladigan:		
	benzin	1 litr uchun 350 so‘m/1 tonna uchun 465 530 so‘m	1 litr uchun 385 so‘m/1 tonna uchun 512 000 so‘m
	dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 350 so‘m/1 tonna uchun 425 918 so‘m	1 litr uchun 385 so‘m/1 tonna uchun 468 000 so‘m
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 350 so‘m/1 tonna uchun 665 493 so‘m	1 litr uchun 385 so‘m/1 tonna uchun 730 000 so‘m
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 500 so‘m	1 kub metr uchun 550 so‘m
5.	Mobil aloqa xizmatlari	15%	
6.	Xushbo‘ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo‘shimchalarsiz oq shakar	20%	

Ushbu modda birinchi qismining 3 va 5-bandlarida soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan (ko‘rsatiladigan)

aksiz to‘lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) belgilangan, va mazkur tovarlarni olib kirishda qo‘llanilmaydi.

Ushbu modda birinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan olib kirilgan (import qilingan) aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z extiyojlari uchun ishlatilganda, soliq to‘lovchilari bo‘lib ushbu tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun olib kirishni amalga oshirgan shaxslar e’tirof etiladi.

Ushbu modda birinchi qismining 6-bandida belgilangan soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan xushbo‘ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo‘shimchalarsiz oq shakarga qo‘llaniladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi hududiga shakar xomashyosini olib kirishga aksiz solig‘i solinmaydi.

15.5. Aksiz solig‘ini soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 290-moddasiga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va soliqning belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Import qilingan, aksiz to‘lanadigan, o‘ziga nisbatan aralash — advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan tovarlar bo‘yicha soliq soliq bazasi va advalor stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda soliq summasi qat’iy belgilangan stavka qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan summadan kam bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 292-moddasiga muvofiq, soliq hisoboti, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq bo‘yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilingan taqdirda, soliq hisoboti avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan erdagi soliq

organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o‘ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 293-moddasiga muvofiq soliqni to‘lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha soliqni to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan olib kiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq aksiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqqa tortish tizimiga ko‘ra Aksiz solig‘i bilvosita soliqlardan hisoblanib, mahsulot, tovar bahosi tarifiga ustama shaklda qo‘yilib, iste’mol mahsulotining bahosining yuqori bo‘lishiga narx-navoni o‘sishiga bevosita ta’sir etadi. Aksizlar - tovarlar uchun qo‘yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo‘lib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli ma’lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo‘shiladi. Aksizlar qadimda barcha davlatlar budjeti daromadlarini shakllantirishda munosib xissa qo‘shib kelgan. Chunki Aksizlar orqali davlat zarurati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar tez va oddiy soliqqa tortish mexanizmi orqali undirish imkoniyati mavjud bo‘lgan.

Bilvosita soliqlar xususan, Aksiz solig‘i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan bir bo‘lib, davlat budjeti daromadlari tarkibida yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Aksiz solig’i ayrim yuqori foyda keltiradigan tovarlarga, juda zarur bo‘lmagan qimmatbaho buyumlarga, jamiyat uchun iste’moli zararli bo‘lgan tamaki va alkogolli mahsulotlari qo‘llaniladi. Respublikada ishlab chiqariladigan ayrim tovarlar va import qilinadigan tovarlar aksiz solig’iga tortiladi. Aksiz solig’i asosan respublika markaziy budjetiga, faqat ayrim tovarlar bo‘yicha mahalliy budjetga tushadi.

Oxirgi uch yilda Aksizlar tushumlarining nisbatan katta bo‘lmagan o‘sishi kuzatilmoqda - o‘sish dinamikasi jami 126,9%, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida Aksizlar salmog‘i o‘smayapti:

- 2021-yilda Aksizlar tushumining 2020 yildagiga nisbatan 1,4 trln so‘mga oshishi asosan 2021-yil fevral va oktyabrda soliq stavkalarini o‘rtacha 15%ga indeksatsiya qilish hisobiga ta’minlandi. Ya’ni amalda Aksizlar bo‘yicha soliq bazasi faqat indeksatsiya qilish hisobiga o‘smoqda. Ayrim tovarlar bo‘yicha esa ularni natural ifodada ishlab chiqarish pasayganligi tufayli, haqiqatda Aksizlar tushumining kamayishi sodir bo‘lmoqda. Masalan, alkogol mahsulotlari bo‘yicha Aksiz solig‘i tushumi soliq stavkalari indeksatsiya qilinganda 2020- yil darajasida saqlab qolindi;

- importda Aksiz solig‘i tushumining qisqarishi 2020-yil 1-avgustdan boshlab transport vositalariga va 2021 yil 1 yanvardan boshlab - 73 ta tovar pozitsiyasiga (oziq-ovqat, elektrotexnika tovarlari va hokazo) Aksizlarning bekor qilinishi bilan bog‘liq;

- polietilen granulalari va ayniqsa mobiль aloqa xizmatlari (ular budjetga katta daromadlar olib kelgan) bo‘yicha Aksizlarning pasaytirilishi hisobiga tushumlarning qisqarishi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aksiz tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. O‘zbekiston Respublikasida Aksiz solig‘i qachon joriy etilgan?
3. Aksiz solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
4. Aksiz solig‘i solish obyektiga nimalar kiradi?
5. Aksiz solig‘i bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
6. Aksiz solig‘i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
7. Aksiz solig‘i summasi budjetga qanday muddatlarda to‘lanadi?
8. Aksiz solig‘ini respublika budjetiga o‘tkazish tartibi qanday?
9. Bojxona yuk deklaratsiyasida Aksiz solig‘ini aks ettirish tartibi qanday?

10. Alohida tovarlar bo‘yicha budjetga to‘lanadigan Aksiz solig‘ini hisoblab chiqishning xususiyatlari qanday?

Testlar

1. Aksiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

A) 1991 -yil 1 yanvardan

B) 1992- yil 1 yanvardan

C) 1995 -yil 1 yanvardan

D) 1998- yil 1 yanvardan

2. Aksiz solig‘ini kimlar to‘laydi?

A) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar

B) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar

C) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

D) Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar.

3. Aksiz solig‘i stavkalari qanday hujjat asosida tasdiqlanadi.

A) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

C) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi

D) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

4. Aksiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat‘iy) belgilangan Aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

A) Aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi

B) tovarlarning Aksiz solig‘i kiritilgan qiymati asosida

C) tovarlarning Aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilgan qiymati asosida

D) tovarlarning qiymati asosida

5. Aksiz solig‘ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.

A) Har chorakda

B) Har 15 kunlikda

C) Har 10 kunlikda

D) 1 yilda 1 marta.

6. Aksiz markalarining joriy etilgan yilini ko‘rsating

A) 1992- yil 1 yanvar

B) 1993- yil 6 may

C) 1995- yil 1 yanvar

D) 1996 -yil 1 oktyabr

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.

16-MAVZU. FOYDA SOLIG‘I

16.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar

Soliqlar deganda soliq qonunchiligida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to‘lovlar deganda soliq qonunchiligida belgilangan davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lov-chilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Foyda solig‘i.
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
3. Aksiz solig‘i.
4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i
8. Ijtimoiy soliq.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to‘lanadi. Biroq, ayrim yig‘imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo‘lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to‘lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o‘tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

2020 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 17-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi:

1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
2. Aksiz solig‘i.
3. Foyda solig‘i.
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
5. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
7. Mol-mulk solig‘i.
8. Yer solig‘i.
9. Ijtimoiy soliq.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lovchilar ikki katta guruhga, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo‘linadi va ularning faoliyat ko‘rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to‘laydigan soliqlar katta ahamiyatga ega.

16.2. Soliq munosabatlarining subyektlari

Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlari bo‘lib hisoblanadi. Yuridik shaxs deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot.

2) Chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti.

3) O‘zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

Notijorat tashkilotlariga budjet tashkilotlari, shu jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

Soliq to‘lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo‘linmalaridir.

Soliq agentlari soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.



13-rasm. Yuridik shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq to‘lovchining vakillari qonunga yoki ta’sis hujjatiga muvofiq soliq to‘lovchining vakili bo‘lishga vakolatli shaxslardir.

Vakolatli organlar quyidagilardir:

1. Davlat soliq xizmati organlari - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va

Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspektsiyalari.

2. Bojxona organlari - O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari.

3. Moliya organlari - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari.

4. Boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.



2-rasm. Vakolatli organlar

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs e’tirof etiladi. Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli



3-rasm. Soliq munosabatlarining subyektlari

shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e’tirof etiladi.

16.3. Foyda solig‘i to‘lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 294-moddasiga muvofiq foyda solig‘ini to‘lovchi yuridik shaxslar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

2. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi chet el tuzilmalari;

3. O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar oluvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

4. soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar;

5. soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bir milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan yoki o‘z ixtiyori bilan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

6. oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxsi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari (bundan buyon ushbu bo‘limda konsolidatsiyalashgan guruh ishtirokchilari deb yuritiladi) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiya-lashgan guruhi bo‘yicha foyda solig‘ining mazkur guruh mas’ul ishtirokchisi tomonidan hisoblab chiqarish uchun zarur bo‘lgan qismi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini bajaradi.

Soliq kodeksining 36-moddasi to‘qqizinchi qismiga muvofiq agent vazifalarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs, ushbu modda birinchi qismining 2-bandiga muvofiq soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aylanmadan soliq to‘lovchi shaxslar soliq to‘lovchilar hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 295-moddasiga muvofiq foyda solig‘ining obyekti bo‘lib soliq to‘lovchi tomonidan olingan foyda hisoblanadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida quyidagilar foyda deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxs uchun — ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun — Soliq kodeksining 49-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar) va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

3) norezident uchun — Soliq kodeksining 50-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirkor uchun — Soliq kodeksining 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun — birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko‘rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingan daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to‘g‘ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 295-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi (296-modda).

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan soliq qonunchiligida nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida, soliq qonunchiligida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

Soliq bazasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to‘lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo‘yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchi ushbu bo‘limga muvofiq foydani va zararni hisobga olishning umumiy tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlarning (xarajatlarning) alohida-alohida hisobini yuritadi.

Soliq bazasi, agar Soliq kodeksining 48 va 50-boblarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq davri boshlanganidan e’tiboran ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan hisobot (soliq) davrida ko‘rilgan zararlar soliq solish maqsadlarida soliq bazasini Soliq kodeksining 46-bobida belgilangan tartibda va shartlarda kamaytiradi.

Soliq bazasi nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining Soliq kodeksining VII bo‘limi va 331-moddasiga muvofiq belgilanadigan umumiy foydasini ham o‘z ichiga oladi.

Soliq bazasiga ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda tuzatishlar kiritiladi.

Soliq to‘lovchining daromadlariga va (yoki) xarajatlariga (zararlariga) Soliq kodeksining VI bo‘limida nazarda tutilgan hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Natura shaklidagi daromadlar va xarajatlar, agar ushbu qismda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchi tomonidan bitimning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda inobatga olinadi. Agar bunday bitimdagi tovarlarning (xizmatlarning) narxi ularning bozor narxidan farq qilsa va bunday farqlanish soliq to‘lovchining soliq bazasi kamayishiga yoki zarari ko‘payishiga olib kelsa, soliq bazasi Soliq kodeksining VI bo‘limiga muvofiq belgilanadigan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

16.4. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 297-moddasiga muvofiq, jami daromad yuridik shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan daromadlardan iboratdir.

Jami daromad, agar Soliq kodeksining 299-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini inobatga olmagan holda aniqlanadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida jami daromadga (bundan buyon ushbu bo‘limda daromad deb yuritiladi) har qanday shaklda va (yoki) har qanday faoliyatdan olinishi lozim bo‘lgan daromadlar (bundan buyon matnda olingan daromadlar deb yuritiladi), xususan, quyidagi daromadlar kiradi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;

2) kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo‘yicha mukofot tarzidagi daromad;

3) sug‘urta, qayta sug‘urta tashkilotining sug‘urta, qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha daromadi;

4) REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;

5) qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha Soliq kodeksining 327 — 329-moddalariga muvofiq olingan daromad;

6) amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning Soliq kodeksining 298-moddasiga muvofiq chiqib ketishidan olingan daromad;

7) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo‘yicha pul mukofoti tarzidagi daromad;

8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

9) royalti;

10) Soliq kodeksining 299-moddasiga muvofiq tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar);

11) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad;

12) qonunchilikda belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad, bundan Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar mustasno;

13) Soliq kodeksining 300-moddasiga muvofiq talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;

14) Soliq kodeksining 301-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad;

15) Soliq kodeksining 302-moddasiga muvofiq xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromad;

16) Soliq kodeksining 319-moddasiga muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromad;

17) qarzdor tomonidan e’tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar,

penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek zararlarning (ziyonning) o‘rnini qoplash summalari;

18) Soliq kodeksining 320-moddasiga muvofiq kursdagi ijobiy farq;

19) dividendlar va foizlar;

20) ishonchli boshqaruv muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqarishdan olingan daromad;

21) shakllantirilish xarajatlari Soliq kodeksining 44 va 45-boblarida belgilangan tartibda va shartlarda xarajatlar tarkibiga qabul qilingan, qayta tiklangan zaxiralar summalari;

22) aksiyador, ishtirokchi yuridik shaxs foydasiga o‘z ulushining (ulushi bir qismining) qiymatini olishdan voz kechgan taqdirda, mazkur yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) kamayishi munosabati bilan olgan daromad;

23) korxonani mol-mulk majmui sifatida sotishdan olingan daromad;

24) Soliq kodeksining VI bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatishlar kiritish tufayli olingan daromad;

25) Soliq kodeksining VII bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

25^{1}) Soliq kodeksi 248-moddasining to‘rtinchi qismida belgilangan hollarda va tartibda soliq bazasiga tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritish natijasida olingan daromad;

26) alohida hisobi mavjud bo‘lmagan va (yoki) ulardan maqsadli foydalanilmagan maqsadli mablag‘lar tarzidagi daromad (bundan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik normalari qo‘llaniladigan budjet mablag‘lari mustasno);

27) boshqa daromadlar.

Daromadlar soliq to‘lovchi tomonidan olingan daromadlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan

elektron hujjatlar, shuningdek soliqni hisobga olishga doir hujjatlar asosida aniqlanadi.

Jami daromad ushbu bo‘lim maqsadlarida pul, natura shaklida va (yoki) boshqa shakllarda kelib tushgan barcha tushumlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan olingan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlar qiymati milliy valyutada ifodalangan daromadlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, mol-mulkning va pulda ifodalanadigan bahoga ega bo‘lgan nomulkiy huquqlarning qiymati va (yoki) yuridik shaxslarni qayta tashkil etish chog‘ida huquqiy vorislik tartibida olinadigan (o‘tkaziladigan), qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslar o‘zining qayta tashkil etilish sanasiga qadar olgan majburiyatlarining qiymati yangi tashkil etilgan, qayta tashkil etilayotgan va qayta tashkil etilgan yuridik shaxslarning daromadlari deb e’tirof etilmaydi.

Agar daromadni buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq e’tirof etish daromadni Soliq kodeksiga muvofiq aniqlash va e’tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur daromad soliq solish maqsadlarida Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash chog‘ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o‘zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan daromadlarga soliq solish maqsadidagi daromadlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda olingan daromadlar mustasno.

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, daromadni e’tirof etish sanasi buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq to‘lovchining daromadlariga tuzatish kiritish Soliq kodeksining 332-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar muayyan bir daromad daromadlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo‘lsa, jami daromadni aniqlashda mazkur daromad faqat bir marta kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 298-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, chiqib ketishdan olinadigan moliyaviy natija amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromad (zarar) deb e’tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan daromaddan uning qoldiq qiymatini chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Amortizatsiya qilinadigan aktivning qoldiq qiymati Soliq kodeksi 306-moddasining yigirma oltinchi va yigirma yettinchi qismlariga hamda 307-moddasining yettinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natijani (foydani yoki zararni) aniqlashda bunday aktiv bo‘yicha 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra to‘plangan qo‘shimcha baholash summasi (ilgari qayta baholangan narxini oshirish summasining oldingi narxni pasaytirish summasidan ortiq summalari) amortizatsiya qilinadigan aktivning chiqib ketishidan olinadigan daromad tarkibiga kiritiladi.

Boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natija buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi. Mazkur qismning qoidalari Soliq kodeksining 45-bobiga muvofiq soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladigan mol-mulkning chiqib ketish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 299-moddasiga muvofiq, soliq to‘lovchi tomonidan tekin olingan mol-mulk va (yoki) xizmatlar soliq to‘lovchining daromadi deb e’tirof etiladi.

Mol-mulkni (xizmatlarni) tekin asosda olish chog‘ida oluvchi shaxsning daromadlari, agar 299-moddaning to‘rtinchi qismida

boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu mol-mulkning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tekin olingan mol-mulkning (xizmatlarning) bozor qiymati hujjat bilan tasdiqlanishi kerak. Xususan, quyidagilar shunday hujjatlar bo‘lishi mumkin:

1) yuklab jo‘natishga, yetkazib berishga yoki topshirishga doir hujjatlar;

2) mahsulot yetkazib beruvchilarning narxga doir ma’lumotlari (prays-varaqlar);

3) ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar;

4) birja xabarlari;

5) davlat statistika organlarining ma’lumotlari.

Qarz beruvchiga foizli daromad to‘lash majburiyatisiz qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish chog‘ida qarz oluvchining daromadi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qarz beruvchining daromadini aniqlashning xuddi shunday tartibi qarz (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordam) olish sanasida stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo‘lgan foizlar to‘lash sharti bilan berilgan qarzlarga (qaytarish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo‘llaniladi.

299-modda to‘rtinchi qismining qoidalari:

1) banklararo operatsiyalarga va kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlarga;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko‘ra, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan beriladigan qarzlarga (ssudalarga);

3) soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining bir ishtirokchisi tomonidan ayni shu konsolidatsiyalashgan guruhning

boshqa ishtirokchisiga beriladigan qarzlarga (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

299-moddaning birinchi qismi qoidalari Soliq kodeksining 322-moddasida nazarda tutilgan soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mol-mulkni ishonchli boshqaruvga berishdan naf oluvchi oladigan daromadlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 300-moddasida “talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar” keltirilgan.

Talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar quyidagilarning o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi:

1) talab qilish huquqini oluvchi soliq to‘lovchi uchun — qarzdordan talab bo‘yicha asosiy qarzdan olinishi lozim bo‘lgan summa, shu jumladan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish sanasidagi asosiy qarzdan ortiq summa bilan talab qilish huquqini olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq;

2) talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechgan soliq to‘lovchi uchun — talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish qaysi qiymat bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha qiymat bilan soliq to‘lovchining dastlabki hisobga olish hujjatlariga binoan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish sanasida qarzdordan olinishi lozim bo‘lgan talabning qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq;

3) qarzni talab qilish huquqini bundan buyon amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi uchun — talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish qiymati bilan mazkur talabni sotib olish xarajatlarining summasi o‘rtasidagi ijobiy farq.

Talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechishdan olingan daromad talab qilish huquqidan voz kechish amalga oshirilgan hisobot (soliq) davrida e’tirof etiladi.

300-moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasiga ko‘ra

olingan salbiy farq soliq to‘lovchining zarari deb e’tirof etiladi va soliq bazasi aniqlanayotganda chegirib tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 301-moddasiga muvofiq “Ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromadlar” keltirilgan.

Ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) joriy soliq davrida o‘rni qoplangan, shu jumladan bunday talablarga bo‘lgan huquqlardan o‘zganing foydasiga qayta voz kechish yo‘li bilan o‘rni qoplangan, oldin xarajatlar jumlasiga kiritilgan, umidsiz (tavakkal qilingan) deb e’tirof etilgan talablarning summalari;

2) chiqimlarning (xarajatlarning) o‘rnini qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan olingan mablag‘larning summalari;

3) sug‘urta tashkiloti yoki zarar yetkazgan shaxs tomonidan to‘langan zararni kompensatsiya qilish summalari, bundan Soliq kodeksining 304-moddasida ko‘rsatilgan sug‘urta to‘lovlari mustasno;

4) ilgari chegirmalar jumlasiga kiritilgan chiqimlarning o‘rnini qoplashdan olingan boshqa kompensatsiyalar.

Olingan kompensatsiya u qaysi hisobot (soliq) davrida olingan bo‘lsa, o‘sha hisobot (soliq) davrining daromadi bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 302-moddasiga muvofiq “Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olingan daromadlar” keltirilgan

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar deganda faoliyati soliq to‘lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan va soliq to‘lovchining asosiy faoliyati doirasida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan xo‘jaliklar tushuniladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yordamchi xo‘jaliklar;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlari: uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), tashrif buyuruvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish obyektlari,

sun’iy inshootlar, cho‘milish havzalari, plyajlarning inshootlari hamda asbob-uskunalari, aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta’minlash obyektlari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlariga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ularni ta’mirlash uchun mo‘ljallangan uchastkalar, sexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar;

3) ijtimoiy-madaniy soha obyektlari: sog‘liqni saqlash va madaniyat obyektlari, bolalar maktabgacha ta’lim obyektlari, bolalarning dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan obyektlari (hammomlar, saunalar, kirxonalar, tikuvchilik ustaxonalari hamda maishiy xizmatlar ko‘rsatuvchi boshqa ustaxonalar);

4) o‘z xodimlariga yoki o‘zga shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi umumiy ovqatlanish punktlari, o‘quv kombinatlari va shunga o‘xshash boshqa xo‘jaliklar, ishlab chiqarishlar hamda xizmatlar.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olingan daromadlar xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar tomonidan tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan mablag‘larning summasi bilan xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning umumiy faoliyatiga bog‘liq xarajatlarning summasi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Ushbu bo‘limga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan xarajatlar xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan ko‘rilgan zarar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 303-moddasiga muvofiq “Uzoq muddatli kontraktlar bo‘yicha daromadlar” keltirilgan.

Agar tuzilgan kontraktlar shartlarida xizmatlarni bosqichma-bosqich topshirish nazarda tutilmagan bo‘lsa, uzoq texnologik siklli ishlab chiqarish (bir soliq davridan ortiq) bo‘yicha mazkur xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad hisobga olish ma’lumotlari

asosida daromadni bir me’yorda e’tirof etish prinsipi inobatga olingan holda soliq to‘lovchi tomonidan taqsimlanadi.

Uzoq muddatli kontraktni hisobot davrining oxiriga kelib haqiqatda ijro etish kontraktni bajarish boshlangandan e’tiboran qilingan xarajatlarning solishtirma miqdorini kontraktni bajarishga doir xarajatlarning umumiy summasida hisob-kitob qilish asosida aniqlanadi.

Hisobot davrining oxiridagi daromad qilingan xarajatlarning hisob-kitob qilingan solishtirma miqdori va kontrakt bo‘yicha daromadning (kontrakt narxlari) umumiy summasidan kelib chiqib aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo‘yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlash chog‘ida chegirib tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 304-moddasiga muvofiq “Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlar” keltirilgan.

Quyidagilar daromad sifatida hisobga olinmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa tarzida olingan mablag‘lar;

2) aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish narxining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiqcha summasi;

3) ishtirokchilar tarkibidan chiqish (chiqib ketish) chog‘ida ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa doirasida olingan yoki ishtirokchining ulushi miqdorini kamaytirish, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulkini ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash chog‘ida olingan mablag‘lar;

4) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar;

5) oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi ulushi qaytarilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, ushbu sherik (ishtirokchi tomonidan) qo‘shilgan hissa miqdorida olingan mablag‘lar;

6) realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) uchun oldindan to‘lov (bo‘nak) tarzida boshqa shaxslardan olingan mablag‘lar;

6[1]) boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlardan hamda bajarilgan ishlardan olingan mablag‘lar;

7) qonunchilikka muvofiq ushbu majburiyatlarning ta’minoti sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar, ularga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tgan paytga qadar;

8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tekinga olingan mol-mulk va xizmatlar;

9) Soliq kodeksining 48-moddasida nazarda tutilgan talablar bajarilishi sharti bilan olingan grantlar, insonparvarlik yordami va maqsadli tushumlar;

10) sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tarzida olingan mablag‘lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga doir boshqa shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud boshqa ishonch bildiruvchi uchun amalga oshirilgan xarajatlarning o‘rnini qoplash hisobidan kelib tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno). Bunday xarajatlar, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida bu xarajatlarning o‘rnini qoplash nazarda tutilgan bo‘lsa, vositachidan yoki ishonchli vakildan chegirib tashlanmaydi;

12) moliyaviy ijara (lizing) obyektining qiymati o‘rnini ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to‘lovining qismi tarzida qoplash;

13) mol-mulk ijarasiga doir shartnoma bo‘yicha olingan mol-mulk, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

14) telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek ulardan foydalanish va ularga xizmat koʻrsatish boʻyicha xizmatlar;

15) investor va davlat mulkini boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organi oʻrtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mol-mulk;

16) kredit yoki qarz shartnomalari boʻyicha mablagʻlar yoki boshqa mol-mulk (mablagʻ jalb qilishni rasmiylashtirish usulidan qatʼi nazar, boshqa shunday mablagʻlar yoki boshqa mol-mulk, shu jumladan qarz qimmatli qogʻozlar), shuningdek bunday jalb qilingan mablagʻlarni toʻlash hisobidan mablagʻlar yoki boshqa mol-mulk;

17) konsessiya bitimi boʻyicha qonunchilikka muvofiq olingan mol-mulk;

18) davlat muassasalari tomonidan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaroriga koʻra olingan mol-mulk;

19) Oʻzbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qogʻozlari boʻyicha olingan daromadlar, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan va Oʻzbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar boʻyicha daromadlar;

20) soliq toʻgʻrisidagi qonunchilikka muvofiq hisobdan chiqarilgan penyalarning va jarimalarning summasi.

16.5. Yuridik shaxslarning xarajatlarini guruhlash

Yuridik shaxslarni eng asosiy maqsadi daromad yoki foyda olish boʻlsa, ushbu maqsadga erishish uchun daromadlari bilan bir qatorda xarajatlarni ham hisobga olish zarurati paydo boʻladi. Shuningdek, Soliq kodeksining 44-bobida yuridik shaxslarning xarajatlari keltirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 305-moddasiga muvofiq, Kodeks 294-moddasi birinchi qismining birinchi bandida koʻrsatilgan yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bogʻliq barcha

xarajatlar chegirib tashlanadi (bundan ushbu bo‘limga ko‘ra chegirib tashlanmaydigan xarajatlar mustasno).

Ushbu bo‘lim maqsadlarida soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko‘rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari (Soliq kodeksining 333 — 336-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa zararlar) xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Asoslangan xarajatlar deganda bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar tushuniladi.

Har qanday chiqimlar, basharti ular hech bo‘lmaganda quyidagi shartlardan biriga muvofiq kelgan taqdirda, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan chiqimlar deb e’tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan bo‘lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa yoxud xizmat qilsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan aloqasi aniq asoslangan bo‘lsa;

3) qonunchilikning qoidalaridan kelib chiqsa.

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar deganda quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar tushuniladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

2) tegishli xarajatlar amalga oshirilgan chet davlat hududida qo‘llaniladigan tartibga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) boshqa shaklda rasmiylashtirilgan, shu jumladan xizmat safari to‘g‘risidagi buyruq, yo‘l hujjatlari, shartnomaga muvofiq ko‘rsatilgan xizmat haqidagi hisobot bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Soliq kodeksining 37-bobiga muvofiq, jumladan amortizatsiya qilinadigan aktivlarni sotib olish va hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi, shu xarajat sifatida e’tirof etilmaydi, bundan Soliq kodeksining 314-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar ayni bir xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo‘lsa, soliq bazasini hisob-kitob qilishda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to‘lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlari milliy valyutada qiymati ifodalangan xarajatlar bilan birgalikda hisobga olinadi.

Agar buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq xarajatni e’tirof etish Soliq kodeksiga muvofiq xarajatni aniqlash va e’tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur xarajat soliq solish maqsadlarida Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Agar ushbu bo‘limda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solish maqsadlarida, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash chog‘ida aktivlar va (yoki) majburiyatlarning qiymati o‘zgarganligi munosabati bilan buxgalteriya hisobida aks ettirilgan chiqimlarga xarajatlar sifatida qaralmaydi, bundan haqiqatda to‘langan xarajatlar mustasno.

Agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, uzoq muddatli aktivlarning dastlabki qiymatiga va zaxiralarning tannarxiga kiritiladigan xarajatlar amortizatsiya ajratmalari vositasida va bunday zaxiralarning tannarxi orqali chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Soliq kodeksi 306-moddasining yettinchi qismiga muvofiq amortizatsiya ajratmalari hisoblanmaydigan uzoq muddatli aktivlarning qiymati mazkur aktivlar Soliq kodeksining 298-moddasida nazarda tutilgan tartibda chiqib ketayotganda soliq bazasini aniqlashda hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchining xarajatlariga tuzatishlar kiritish Soliq kodeksining 332-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 306 — 316-moddalari va 45-bobida ko‘rsatilgan xarajatlar ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilgan holda chegirmalar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 306-moddasiga muvofiq, soliq to‘lovchi amortizatsiya qilinadigan aktivlar sifatida hisobga oladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar Soliq kodeksi maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida birlik (to‘plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e’tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan yuqori bo‘lgan, soliq to‘lovchida mulk huquqi asosida turgan (agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) va soliq to‘lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko‘rsatishda) yoki ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o‘n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan mol-mulk soliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi soliq davri uchun soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilashga haqli.

Unitar korxona amortizatsiya qilinadigan aktivni unitar korxona mulkdoridan operativ boshqaruvga yoki xo‘jalik yurituviga olganda bunday aktiv ushbu moddada belgilangan tartibda shu unitar korxonada amortizatsiya qilinishi lozim.

Ijaraga beruvchining (qarz beruvchining) roziligi bilan ijaraga va (yoki) bepul foydalanishga berilgan amortizatsiya qilinadigan aktivga ijaraga oluvchi (qarz oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan ajratib bo‘lmaydigan yaxshilash shaklidagi kapital qo‘yilmalar ham amortizatsiya qilinadigan aktiv deb e’tirof etiladi.

Moliyaviy ijara shartnomasi (lizing shartnomasi) bo‘yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktiv ijara (lizing) obyektini oluvchida amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga kiritiladi.

Quyidagi aktivlar amortizatsiya qilinmaydi:

1) yer va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

2) mahsuldor chorva mollari;

3) axborot-kutubxona fondi;

4) muzey ashyolari;

5) moddiy madaniy meros obyektlari;

6) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘lkalar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari;

7) qiymati soliq solish maqsadida ushbu soliq to‘lovchida ilgari to‘liq xarajatlar jumlasiga kiritilgan amortizatsiya qilinadigan aktiv;

8) soliq to‘lovchi tomonidan amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar;

9) budjet tashkilotlarining amortizatsiya qilinadigan aktivlari, bundan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishi munosabati bilan sotib olingan va bunday faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan amortizatsiya qilinadigan aktivlar mustasno;

10) maqsadli moliyalashtirishning budjet mablag‘lari hisobiga sotib olingan (yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktivlar (tegishli qismi bo‘yicha). Mazkur norma soliq to‘lovchi tomonidan xususiylashtirish chog‘ida olingan amortizatsiya qilinadigan aktivga nisbatan qo‘llanilmaydi;

11) Soliq kodeksi 304-moddasining 8, 9, 14 va 15-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan), shuningdek soliq va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida bo‘shagan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktiv (tegishli qismi bo‘yicha).

Ushbu modda maqsadida quyidagilar amortizatsiya qilinadigan aktivlar tarkibidan chiqarib tashlanadi:

1) konservatsiya davri uchun — qonunchilikda belgilangan tartibda konservatsiya qilingan amortizatsiya qilinadigan aktiv;

2) soliq to‘lovchining qaroriga ko‘ra o‘n ikki oydan ortiq vaqt rekonstruksiya qilishda yoki modernizatsiyalashda bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktiv, bundan rekonstruksiya qilish yoki modernizatsiyalash jarayonida bunday aktivdan soliq to‘lovchi tomonidan o‘z faoliyatida foydalanilishi davom ettiriladigan hollar mustasno.

Agar mazkur moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu modda maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktiv boshlang‘ich qiymat bo‘yicha hisobga olinadi.

2021-yil 31-dekabrdan keyin sotib olingan (olingan, yaratilgan) amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati uni sotib olishga, qurishga, ishlab chiqarishga, yetkazib berishga va foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan holatga keltirishga doir xarajatlar summasi sifatida (agar bunday aktiv soliq to‘lovchi tomonidan bepul olingan yoxud inventarizatsiya natijasida aniqlangan bo‘lsa, shu aktivning Soliq kodeksining 299-moddasiga muvofiq belgilanadigan bozor qiymati sifatida) aniqlanadi.

Moliyaviy ijara va (yoki) lizing predmeti bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati ushbu moddaning o‘ninchi qismida ko‘rsatilgan tartibga o‘xshash tartibda aniqlanadi.

Aksiyadorning (ishtirokchining, mulkdorning) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissasi hisobidan olingan, amortizatsiya qilinadigan aktivlarning boshlang‘ich qiymati deb mazkur aktivlarning aksiyadorlar (ishtirokchilar, mulkdorlar) tomonidan kelishilgan, lekin Soliq kodeksining 299-moddasida ko‘rsatilgan tartibga o‘xshash tartibda aniqlanadigan bozor qiymatidan yuqori bo‘lmagan puldagi bahosi e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchining o‘zi barpo etgan (tayyorlagan, yaratgan), amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati deb bunday aktivni barpo etish (qurish, qo‘shimcha qurish, tayyorlash, yaratish) bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasi e’tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati quyidagilar hisobga olinmagan holda aniqlanadi:

Soliq kodeksining 37-bobiga muvofiq hisobga olingan va (yoki) 314-moddasiga muvofiq xarajatlar tarkibida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i;

foizlar bo‘yicha xarajatlarni va Soliq kodeksiga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan yoki xarajatlar tarkibida hisobga olinadigan

amortizatsiya qilinadigan aktivni sotib olish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Sotish uchun mo‘ljallangan zaxiralar yoki aktivlar tarkibidan o‘tkazilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati ushbu aktivning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq bunday kelib tushish sanasida aniqlangan balans qiymatidir.

Agar amortizatsiya qilinadigan aktiv soliq to‘lovchi tomonidan qayta tashkil etish natijasida (bundan tashkiliy-huquqiy shakl o‘zgargan hollar mustasno) olingan bo‘lsa, bunday aktivning topshirish dalolatnomasida yoki taqsimlash balansida ko‘rsatilgan balans qiymati uning boshlang‘ich qiymati bo‘ladi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga ko‘ra soliq to‘lovchida mavjud bo‘lgan, amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich (qayta tiklanish) qiymati soliq solish maqsadlarida ilgari o‘tkazilgan qayta baholashlarni hisobga olgan holda uning boshlang‘ich qiymati sifatida aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qayta tiklanish qiymatini aniqlashda ushbu modda maqsadida soliq to‘lovchining qarori bo‘yicha 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra amalga oshirilgan va soliq to‘lovchining buxgalteriya hisobida 2020-yil 1-yanvardan keyin aks ettirilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning qayta baholanishi hisobga olinadi.

Ushbu bo‘lim maqsadida soliq to‘lovchi tomonidan 2021-yil 1-yanvardan keyin amortizatsiya qilinadigan aktiv qiymatini qayta baholash (narxini pasaytirish) amalga oshirilganda, bunday qayta baholashning ijobiy (salbiy) summasi daromad (xarajat) deb e’tirof etilmaydi, amortizatsiya qilinadigan aktivning qayta tiklanish qiymatini aniqlashda va amortizatsiyani hisoblashda hisobga olinmaydi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati bunday aktivga soliq to‘lovchi tomonidan kapital qo‘yilmalar amalga oshirilgan taqdirda, basharti ular iqtisodiy jihatdan o‘rinli bo‘lsa, o‘zgaradi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati tegishli obyektlar qo‘shimcha qurilgan, qo‘shimcha jihozlangan, rekonstruksiya

qilingan, modernizatsiya qilingan, texnologik jihatdan qayta jihozlangan, qisman tugatilgan hollarda va boshqa shunga o‘xshash asoslarga, shu jumladan tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga ko‘ra o‘zgaradi.

Asbob-uskunalar, binolar, inshootlarning yoki boshqa amortizatsiya qilinadigan aktivning texnologik yoki xizmat ko‘rsatish jihatidan belgilangan maqsadining o‘zgarishi va (yoki) boshqa yangi sifatlarning olinishi bilan bog‘liq ishlar, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha jihozlash, modernizatsiya qilishga doir ishlar jumlasiga kiradi.

306-modda maqsadida ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini ko‘paytirish, tovarlar (xizmatlar) sifatini yaxshilash va (yoki) ularning nomenklaturasini o‘zgartirish maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktivni rekonstruksiya qilish loyihasi bo‘yicha amalga oshiriladigan, mavjud amortizatsiya qilinadigan aktivni qayta qurish rekonstruksiya qilish jumlasiga kiradi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning yoki uning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini texnika va texnologiyani o‘zgartirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, ma’nan eskirgan hamda jismonan ishdan chiqqan asbob-uskunalarni modernizatsiyalash va almashtirish asosida oshirishga doir kompleks tadbirlar texnik jihatdan qayta jihozlash jumlasiga kiradi. Texnik jihatdan qayta jihozlash yangi ishlab chiqarishlarni barpo etishni va amaldagilarini kengaytirishni ham o‘z ichiga oladi.

Ijaraga olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga va (yoki) bepul foydalanish shartnomasi bo‘yicha olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlarga kapital qo‘yilmalar quyidagi tartibda amortizatsiya qilinadi:

ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga (qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchiga) qiymatining o‘rni qoplanadigan kapital qo‘yilmalar ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan amortizatsiya qilinadi;

ijaraga oluvchi ijaraga beruvchining roziligi bilan (qarz beruvchining roziligi bilan qarz oluvchi) amalga oshirgan, qiymatining

o‘rni ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan qoplab berilmaydigan kapital qo‘yilmalar ijaraga oluvchi (qarz oluvchi) tomonidan amortizatsiya qilinadi.

2020-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra soliq to‘lovchida mavjud bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qoldiq qiymati bunday amortizatsiya qilinadigan aktivlarning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati va 2021-yil 1-yanvargacha hisoblangan (jamg‘arilgan) amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

2020-yilning 31-dekabridan keyin ishga tushirilgan amortizatsiya qilinadigan aktivning qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymati va soliqni hisoblab chiqarish maqsadida hisoblangan (jamg‘arilgan) amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Soliq kodeksi 308-moddasining yettinchi qismiga muvofiq investitsiyaviy chegirma bekor qilingan taqdirda, jamg‘arilgan amortizatsiya investit-siyaviy chegirma chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati Soliq kodeksining 308-moddasida nazarda tutilgan amortizatsiya ajratmalari va (yoki) investitsiyaviy chegirmalar orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Agar 306-moddaning o‘n yettinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati amortizatsiya ajratmalarini qayta baholash hisobga olinmagan holda boshlang‘ich qiymatdan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar amortizatsiyani hisoblash maqsadida, ushbu moddaning qoidalariga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi asosiy fondlarining statistik tasniflari hisobga olingan holda aktivni ishga tushirish sanasida amortizatsiya guruhlari (kichik guruhlari) bo‘yicha taqsimlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlar (bundan nomoddiy aktivlar mustasno) bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari qo‘llanilgan holda to‘g‘ri chiziqli usul orqali amalga oshiriladi:

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi	Amortizatsiyaning normasi, foizlarda
I		**Binolar va inshootlar**	
	1	Binolar	5
	2	Inshootlar	10
II		**Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari**	15
III		**Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)**	20
IV		**Transport uskunalari**	
	1	Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog‘liq uskunalar, kemalar va qayiqlar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib (temir yo‘l tarkibi)	10
	2	Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari	20
V		**Kompyuterlar va periferiya uskunalari**	40
VI		**Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar**	15

Soliq to‘lovchi soliqni hisoblab chiqarish maqsadida amortizatsiyani 306-moddada belgilanganidan pastroq normalar bo‘yicha hisoblashga haqli.

Soliq solish maqsadi uchun amortizatsiya summasi soliq to‘lovchilar tomonidan har oyda aniqlanadi. Amortizatsiya har bir amortizatsiya qilinadigan aktiv bo‘yicha alohida hisoblanadi hamda uning boshlang‘ich qiymatining va ushbu obyekt uchun belgilangan amortizatsiya normasining ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi.

Amortizatsiya qilinadigan aktiv, shu jumladan qonunchilikka muvofiq huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash

ushbu aktiv, u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan qat’i nazar, foydalanishga topshirilgan sanadan e’tiboran boshlanadi.

Agar soliq to‘lovchi biror-bir kalendar oy ichida ta’sis etilgan, tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan bo‘lsa, amortizatsiya quyidagi xususiyatlar hisobga olingan holda hisoblanadi:

1) amortizatsiya ta’sis etilayotgan, qayta tashkil etish natijasida tashkil etilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran hisoblanadi;

2) amortizatsiya tugatilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan tugatish yakunlanadigan sanagacha, qayta tashkil etilayotgan soliq to‘lovchi tomonidan esa qayta tashkil etish tugatiladigan sanagacha hisoblanadi.

306-modda o‘ttiz beshinchi qismining qoidalari o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirayotgan soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Amortizatsiyani hisoblash amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymati to‘liq hisobdan chiqarilgan sanadan e’tiboran yoki bunday aktiv soliq to‘lovchining amortizatsiya qilinadigan aktivlari tarkibidan har qanday asoslarga ko‘ra chiqarilganda tugatiladi.

306-moddaning sakkizinchi qismiga muvofiq amortizatsiya qilinadigan aktiv tarkibidan chiqarib tashlangan aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash ushbu aktiv amortizatsiya qilinadigan aktiv tarkibidan chiqarib tashlangan sanadan e’tiboran tugatiladi va amortizatsiya qilinadigan aktiv raskonservatsiya qilingan yoki uni rekonstruksiya qilish (modernizatsiyalash) yakunlangan sanadan e’tiboran qayta tiklanadi.

Soliq solish maqsadlarida amortizatsiya qilinadigan aktivning qiymatiga Soliq kodeksi 317-moddasining 17-bandida nazarda tutilgan xarajatlar kiritilmaydi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati Soliq kodeksining 307-moddasida nazarda tutilgan tartibda xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Nomoddiy aktivlarni amortizatsiya qilish xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 307-moddasiga muvofiq, soliq to‘lovchining tovarlar ishlab chiqarishda (xizmatlar

ko‘rsatishda) yoki ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o‘n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan intellektual faoliyat natijalari va boshqa intellektual mulk obyektlari (ularga bo‘lgan mutlaq huquqlar) soliq solish maqsadlarida nomoddiy aktivlar deb e’tirof etiladi.

Nomoddiy aktivlar jumlasiga, xususan, basharti soliq to‘lovchi ushbu aktivlarga nisbatan mutlaq huquqlarga ega bo‘lsa, Soliq kodeksi 44-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan aktivlar kiradi.

Nomoddiy aktivni tan olish uchun quyidagilar zarur:

soliq to‘lovchiga iqtisodiy naf (daromad) olib kelish imkoniyatining mavjudligi;

nomoddiy aktivning o‘zi mavjudligini va (yoki) soliq to‘lovchida intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquq mavjud ekanligini tasdiqlovchi lozim darajada rasmiylashtirilgan hujjatlarning (shu jumladan patentlar, guvohnomalarning, boshqa muhofaza hujjatlarining, patentdan, tovar belgisidan o‘zganing foydasiga voz kechishga (uni olishga) doir shartnomaning) mavjudligi.

Nomoddiy aktivdan foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash patentning, guvohnomaning amal qilish muddatidan va (yoki) intellektual mulk obyektlaridan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga yoki chet davlatning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonunchiligiga muvofiq foydalanish muddatlariga doir boshqa cheklovlardan kelib chiqqan holda yoxud nomoddiy aktivlardan foydali tarzda foydalanishning tegishli shartnomalarda shartlashilgan muddatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya har oyda soliq to‘lovchi tomonidan ularning boshlang‘ich qiymatidan va bunday nomoddiy aktivdan foydali tarzda foydalanish muddatidan, biroq soliq to‘lovchining faoliyati muddatidan ko‘p bo‘lmagan muddatdan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilingan normalar bo‘yicha hisoblanadi.

Foydali tarzda foydalanish muddatini aniqlash mumkin bo‘lmagan nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya normalari besh yillik muddatga belgilanadi.

307-moddada nazarda tutilgan istalgan nomoddiy aktivdan foydalanish va foydalanish huquqi uchun soliq to‘lovchi tomonidan to‘lanadigan davriy (joriy) to‘lovlar Soliq kodeksi 305-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda xarajatlar deb e’tirof etiladi va chegirmalar jumlasiga mutanosib ravishda foydalanish muddat davomida kiritiladi.

Investitsiyaviy chegirma

Soliq to‘lovchi Soliq kodeksining 306-moddasiga muvofiq aniqlanadigan aktivning boshlang‘ich qiymatidan kelib chiqqan holda amortizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha investitsiyaviy chegirmalarni “Investitsiyaviy chegirma” deb nomlangan 308-moddada belgilangan tartibda va shartlarda qo‘llashga haqli.

Investitsiyaviy chegirma amortizatsiya xarajati deb e’tirof etiladi.

Investitsiyaviy chegirma quyidagi miqdorda qo‘llaniladi:

1) yangi texnologik uskunalar qiymatining, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash xarajatlarining va (yoki) axborot tizimlarini yaratishga doir investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta’minotini sotib olishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summalarining 20 foizi miqdorida;

2) ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasining 10 foizi miqdorida.

Soliq kodeksi 317-moddasining 17-bandiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bo‘yicha investitsiyaviy chegirma berilmaydi.

Investitsiyaviy chegirma yangi texnologik uskunani ishga tushirish amalga oshirilgan yoxud o‘z ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash amalga oshirilgan, ishlab chiqarish yangi qurilish shaklida kengaytirilgan, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruk-

siya qilish amalga oshirilgan, laboratoriya testlarini va sinovlarini o‘tkazish uchun komplekslar, axborot tizimlarini yaratish bo‘yicha investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy ta’minoti sotib olingan hisobot (soliq) davrida qo‘llaniladi.

308-modda maqsadlarida tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish jarayonida soliq to‘lovchi tomonidan foydalaniladigan, chiqarilgan kunidan e’tiboran ko‘pi bilan uch yil o‘tgan mashinalar va uskunalar (shu jumladan transport uskunalari) yangi texnologik uskunalar deb e’tirof etiladi.

Amortizatsiya qilinadigan aktiv u bo‘yicha investitsiyaviy chegirma qo‘llanilgan sanadan e’tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan, bepul berilgan va boshqacha tarzda chiqib ketgan taqdirda, investitsiyaviy chegirmaning amal qilishi bunday aktivning chiqib ketishi ro‘y bergan hisobot (soliq) davrida jamg‘arilgan amortizatsiya summasidan uni chegirib tashlash orqali bekor qilinadi.

308-modda yettinchi qismining qoidalari amortizatsiya qilinadigan aktivning favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofat, yong‘in, avariya va shunga o‘xshash boshqa holatlar) tufayli chiqib ketishi hollariga nisbatan, shuningdek amortizatsiya qilinadigan aktivning boshlang‘ich qiymati uning chiqib ketish sanasiga qadar Soliq kodeksining 306-moddasida belgilangan normalar bo‘yicha to‘liq amortizatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan hollarda tatbiq etilmaydi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta’mirlash xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 309-moddasiga muvofiq, Soliq solish maqsadlarida soliq to‘lovchi tomonidan amortizatsiya qilinadigan aktivlarni ta’mirlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar qaysi hisobot (soliq) davrida amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha hisobot (soliq) davrida haqiqiy chiqimlar miqdorida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Agar ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi o‘rtasidagi shartnomada (qarz oluvchi va qarz beruvchi o‘rtasidagi shartnomada) ijaraga oluvchining (qarz oluvchining) xarajatlari o‘rnini ijaraga beruvchi (qarz beruvchi) tomonidan qoplash nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu modda

qoidalari ijaraga oluvchining (qarz oluvchining) mazkur xarajatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Foizlar va ayrim chiqimlar bo‘yicha xarajatlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 310-moddasiga muvofiq, Soliq to‘lovchining qarz majburiyatlari (kreditlar, tovar va tijorat kreditlari, qarzlar, bank omonatlari, bank hisobvaraqlari yoki rasmiylashtirish usulidan qat’i nazar, boshqa jalb qilingan mablag‘lar) bo‘yicha foizlar tarzidagi xarajatlari Soliq kodeksining VI bo‘limida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, haqiqiy stavkadan kelib chiqib, chegirib tashlanadi.

Yuridik shaxsning nazorat qilinadigan qarzi bilan bog‘liq xarajatlari 310-moddaning birinchi qismi qoidalari hisobga olingan holda, ushbu moddada belgilangan eng ko‘p qiymatlardan oshmaydigan miqdorda chegirib tashlanadi. Mazkur qoida quyidagilarga nisbatan qo‘llaniladi:

1) qarz mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlarga;

2) neustoykalarning (jarimalar, penyalarning) summalari, javobgarlikning boshqa choralari qo‘llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o‘rnini qoplash natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarga.

310-modda maqsadlarida yuridik shaxsning quyidagi qarzlari nazorat qilinadigan qarzlar deb e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lmagan, mazkur soliq to‘lovchi aksiyalarining (ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) paylar, ulushlarning) 20 foizidan ortig‘iga bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan chet ellik yuridik yoki jismoniy shaxs oldidagi qarzi;

2) Soliq kodeksining 37-moddasiga muvofiq ushbu qismning 1-bandida ko‘rsatilgan chet ellik shaxsning o‘zaro bog‘liq shaxsi deb e’tirof etiladigan boshqa shaxs oldidagi qarzi;

3) ushbu qismning 1 va (yoki) 2-bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar oldida kafillik qiluvchi, kafil sifatida ish yurituvchi shaxs yoki ushbu soliq to‘lovchining ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan qarzini to‘lashni ta’minlash yuzasidan majburiyatni boshqacha tarzda o‘z zimmasiga oladigan boshqa shaxs oldidagi qarz.

Nazorat qilinadigan qarz soliq davridagi quyidagi qarzlarning jami summalarini o‘z ichiga oladi:

qarz mablag‘lari bo‘yicha;

javobgarlikning boshqa choralari qo‘llanilganligi natijasida, shu jumladan shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun zararlarning o‘rni qoplanishi natijasida to‘lanishi lozim bo‘lgan neustoykalar (jarimalar, penyalar) summalari bo‘yicha.

310-moddaning to‘rtinchi qismi maqsadlari uchun soliq davrida mavjud bo‘lgan qarz deganda, qaysi xo‘jalik operatsiyasi natijasida joriy hisobot (soliq) davrida qarz yuzaga keladigan yoki ko‘payadigan bo‘lsa, o‘sha har bir xo‘jalik operatsiyasining qiymat ko‘rsatkichlari summasi, shuningdek joriy hisobot (soliq) davrining boshida to‘lanmagan qarzning summasi tushuniladi.

Agar 310-moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan chet ellik shaxs yoki boshqa shaxslar oldidagi nazorat qilinadigan qarz miqdori soliq to‘lovchining xususiy kapitalidan uch baravardan ortiq bo‘lsa, faqat lizing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi banklar va soliq to‘lovchilar uchun esa o‘n uch baravardan ortiq bo‘lsa, xarajatlarning chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan eng ko‘p miqdorini aniqlashda ushbu moddaning yettinchi – to‘qqizinchi qismlarida belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchi nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo‘yicha eng ko‘p summalarni har bir hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisoblab chiqarishi shart. Hisob-kitob nazorat qilinadigan qarz bo‘yicha ayrim chiqimlarning (xarajatlarning) soliq davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlangan summasini tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi sanasida hisob-kitob qilinadigan kapitallashtirish koeffitsiyentiga bo‘lish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

310-moddaning yettinchi qismida ko‘rsatilgan kapitallashtirish koeffitsiyenti tegishli nazorat qilinadigan, to‘lanmagan qarz miqdorini ushbu chet el tashkilotining soliq to‘lovchi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi ulushiga muvofiq bo‘lgan xususiy kapital miqdoriga bo‘lish hamda olingan natijani uchga,

banklar va faqat lizing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar uchun esa o‘n uchga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Xususiy kapital miqdorini aniqlashda soliq to‘lovchining aktivlari summasi va majburiyatlari miqdori (soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarz summalari, shu jumladan ular bo‘yicha kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lash summalari hisobga olinmaydi) tegishli hisobot (soliq) davrining oxirgi kunidagi buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

Nazorat qilinadigan qarzning har bir turi bo‘yicha 310-moddaning oltinchi — to‘qqizinchi qismlariga muvofiq hisob-kitob qilingan, biroq haqiqatda hisoblangan xarajatlardan ko‘p bo‘lmagan summalar xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Geologik jihatdan o‘rganish, qidirish va tabiiy resurslarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun xarajatlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 311-moddasiga muvofiq, Yer qa’ridan foydalanuvchi tomonidan qazib olishni boshlashdan oldin geologik jihatdan o‘rganish, qidirish, foydali qazilmalarni qazib olishga doir tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan xarajatlar, shu jumladan baholashga, jihozlashga doir xarajatlar, shuningdek Soliq kodeksiga muvofiq chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan boshqa xarajatlar amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etadi. Bunda Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, bunday chiqimlar belgilangan normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

311-moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan xarajatlar foydali qazilmalarni qazib olish boshlangan paytdan e’tiboran soliq to‘lovchining jami daromaddan amortizatsiya ajratmalari tarzida chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo‘llash yo‘li bilan, biroq 311-moddada nazarda tutilgan amortizatsiya qilinadigan aktivlar guruhi bo‘yicha to‘plangan xarajatlar summasining 15 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda hisoblab chiqariladi.

Nomahsuldor quduq tugatilgan yoxud soliq to‘lovchi yer qa’ri uchastkasidagi ishlarni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi, geologik jihatdan istiqbolsizligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda, basharti yer qa’ridan foydalanish huquqi to‘liq tugatilsa, soliq to‘lovchi bunday huquq tugatilgan hisobot (soliq) davrida qilingan xarajatlar summasini chegirib tashlashga haqli.

Ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 312-moddasiga muvofiq, ushbu bo‘lim maqsadlarida yangi ilmiy yoki texnik bilimlar va g‘oyalarni olish maqsadida amalga oshirilgan original hamda rejali tadqiqotlar jumlasiga kiradigan xarajatlar ilmiy tadqiqotlarga doir xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Ushbu bo‘lim maqsadlarida yangi mahsulotni (tovarlarni, xizmatlarni) yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni (tovarlarni, xizmatlarni) takomillashtirishga, ishlab chiqarishni va boshqaruvni tashkil etishning yangi texnologiyalarini, usullarini yaratish yoki qo‘llanilayotganlarini takomillashtirish jumlasiga kiradigan xarajatlar tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlarga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yoki asoslantirilgan tarzda ushbu konstruktorlik faoliyati turlari jumlasiga kiritilishi mumkin bo‘lgan barcha xarajatlar kiritiladi.

Soliq to‘lovchining ilmiy tadqiqotlarga va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga doir xarajatlari, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni olishga oid xarajatlardan tashqari, tegishli ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba konstruktorlik ishlanmalarining natijasidan qat’i nazar, ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda bunday tadqiqotlar va ishlanmalar (xizmatlarning alohida bosqichlari) tugallangan va (yoki) qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taraflar imzolaganidan keyin 2-koeffitsiyent qo‘llanilgan holda chegirib tashlanadi.

Agar soliq to‘lovchi ilmiy tadqiqotlar va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalari yuzasidan amalga oshirilgan xarajatlar natijasida intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquqlarni olsa, mazkur huquqlar nomoddiy aktivlar deb e’tirof etiladi. Bunday holda ko‘rsatilgan xarajatlar Soliq kodeksining 307-moddasida nazarda tutilgan tartibda chegirib tashlanadi.

Ushbu moddaning qoidalari shartnoma bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni va (yoki) tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini ijrochi (pudratchi yoki subpudratchi) sifatida bajaruvchi soliq to‘lovchilarning xarajatlarini soliq solish maqsadlarida e’tirof etishga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

Umidsiz qarzlar bo‘yicha xarajatlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 313-moddasiga muvofiq, sudning qaroriga ko‘ra, bankrotlik, tugatish, qarzdor vafot etganligi tufayli majburiyatlar tugatilganligi oqibatida yoki da’vo muddati o‘tganligi oqibatida to‘lanishi mumkin bo‘lmagan qarz umidsiz qarz deb e’tirof etiladi.

Soliq to‘lovchi oldingi hisobot (soliq) davrlarida soliq solinadigan daromadlar olish bilan bog‘liq bo‘lgan umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga haqli.

Umidsiz qarzlarni chegirib tashlashga faqat qarz hisobdan chiqarilgan va soliq to‘lovchining buxgalteriya hisobotida aks ettirilgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘iga doir xarajatlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 314-moddasiga muvofiq, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha quyidagi chiqimlar hisobga olinadi:

1) Soliq kodeksining 267-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinmaydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

2) Soliq kodeksi 268-moddasining oltinchi qismida nazarda tutilgan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

3) Soliq kodeksining 270-moddasida ko‘rsatilgan holda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tuzatish kiritish summasi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisobga olinmaydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini quyidagi hollarda xarajatlar jumlasiga kiritishga haqli:

1) Soliq kodeksi 268-moddasining beshinchi qismiga muvofiq mutanosib usulni qo‘llashda;

2) agar soliqning tuzatish kiritish summasini bunday tuzatish amalga oshirilayotgan sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga kiritish mumkin bo‘lmasa, qo‘shilgan qiymat solig‘iga Soliq kodeksining 269 va 270-moddalariga muvofiq tuzatish kiritishda;

3) Soliq kodeksining 271-moddasida nazarda tutilgan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tuzatish kiritishda.

Zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 315-moddasiga muvofiq, banklar va bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir litsenziya asosida bank operatsiyalarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, shuningdek sug‘urta tashkilotlari qonunchilik talablariga muvofiq zaxira fondlarini tashkil etadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan zaxira fondlariga ajratmalar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda, quyidagi normalar doirasida xarajatlar jumlasiga kiritiladi:

banklar tomonidan — qonunchilikda belgilangan normaning 80 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir litsenziya asosida bank operatsiyalarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va sug‘urta tashkilotlari tomonidan — qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan yuqori bo‘lmagan miqdorda.

Ushbu modda birinchi va ikkinchi qismlarining qoidalari sof foyda hisobidan shakllantiriladigan zaxira fondlarini tashkil etish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Haqiqiy xarajatlar, ularga nisbatan zaxira fondi shakllantirilgan bo‘lsa, tashkil etilgan zaxira fondi summasi hisobidan hisobdan chiqariladi.

Kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxirani shakllantirish xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 316-moddasiga muvofiq, Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatish yuzasidan kelgusi xarajatlar uchun zaxira tashkil etishga haqli. Bunday zaxirani shakllantirishga doir ajratmalar ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritiladi. Soliq to‘lovchi bunday zaxirani tashkil etish to‘g‘risidagi qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi va soliq solish maqsadlari uchun hisob siyosatida ajratmalarning eng yuqori miqdorini aniqlaydi.

Zaxira xaridor bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq kafolatli muddat davomida xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash nazarda tutilgan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tashkil etiladi. Mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish sanasidagi zaxiraga ajratmalar summasi xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

Tashkil etilgan zaxiraning miqdori kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan uch yil davomida realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushi sifatida aniqlanadigan, hisobot (soliq) davrida mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga ko‘paytirilgan eng ko‘p miqdordan oshmasligi kerak. Agar soliq to‘lovchi tovarlarni (xizmatlarni) kafolatli ta’mirlashni va xizmat ko‘rsatishni bajarish sharti bilan realizatsiya qilishni uch yildan kam muddatda amalga oshirayotgan bo‘lsa, tashkil etilayotgan zaxiraning eng ko‘p miqdorini hisob-kitob qilish uchun mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning bunday realizatsiya qilishning haqiqiy davridagi hajmi inobatga olinadi.

Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishni kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish sharti bilan amalga oshirmagan soliq to‘lovchi mazkur chiqimlar uchun kutilayotgan xarajatlarning miqdoridan oshmaydigan miqdordagi zaxirani tashkil etishga haqli.

Kutilayotgan xarajatlar deganda kafolat muddati inobatga olingan holda kafolat majburiyatlarini bajarish rejasida nazarda tutilgan xarajatlar tushuniladi.

Soliq davri tugagach, soliq to‘lovchi tashkil etilgan zaxiraning miqdoriga kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarning mazkur tovarlarni (xizmatlarni) o‘tgan davrda realizatsiya qilishdan olingan tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritishi kerak.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq davrida kafolatlar berish sharti bilan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha kafolatli ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish uchun to‘liq foydalanilmagan zaxira summasi soliq to‘lovchi tomonidan keyingi soliq davriga o‘tkazilishi mumkin. Bunda keyingi soliq davrida yangi tashkil etilayotgan zaxiraning summasiga zaxiraning oldingi soliq davridagi qoldig‘i summasi miqdorida tuzatish kiritilishi kerak. Agar yangi tashkil etilayotgan zaxiraning summasi oldingi soliq davrida tashkil etilgan zaxira qoldig‘ining summasidan kam bo‘lsa, ular o‘rtasidagi farq soliq to‘lovchining joriy soliq davridagi daromadlari tarkibiga kiritilishi lozim.

Agar soliq to‘lovchi zaxira tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, kafolatli ta’mirlashga doir haqiqiy xarajatlarni hisobdan chiqarish tashkil etilgan zaxira hisobidan amalga oshiriladi. Agar tashkil etilgan zaxiraning summasi soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshirilgan ta’mirlash xarajatlarining summasidan kam bo‘lib qolsa, ular o‘rtasidagi farq chegirmalar jumlasiga kiritilishi lozim.

Soliq to‘lovchi tovarlarni (xizmatlarni) kafolatli ta’mirlash va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish sharti bilan sotishni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilganda, ilgari tashkil etilgan va foydalanilmagan zaxiraning summasi kafolatli ta’mirlash va kafolatli xizmat ko‘rsatishga doir shartnomalarning amal qilish muddatlari tugaganidan keyin daromadlar tarkibiga kiritilishi lozim.

Chegirib tashlanmaydigan xarajatlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq, Soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonunchilikka muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan, ular mavjud bo‘lmaganda esa, soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo‘qolishi;

2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlarning qiymatini to‘lash;

3) soliq to‘lovchining Soliq kodeksining 376-moddasida nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari;

4) dala (safar) ta’minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha to‘lovlar;

5) pensiyalarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

6) Soliq kodeksi 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining to‘rtinchi va beshinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan moddiy yordam;

7) xayriya yordamini amalga oshirish uchun xarajatlar, bundan metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish, o‘quv-tarbiya muassasalariga yoki yetim bolalarga va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga moddiy yordam ko‘rsatish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar, shuningdek Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga xayriya qilingan mablag‘lar mustasno;

8) qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari;

9) loyihalar va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o‘tkazish (asbob-uskunalarni

qismlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o‘rnini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo‘lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisobidan qoplash imkoni bo‘lmagan miqdordagi boshqa shunga o‘xshash xarajatlar;

10) aybdorlari aniqlanmagan talon-taroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarning o‘rnini qoplash imkoni bo‘lmagan taqdirda ko‘rilgan zararlar;

11) boshqa shaxslar uchun to‘langan soliqlar;

12) soliq tekshiruvlari natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va yig‘imlar;

13) soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarga (sog‘liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o‘xshash tadbirlarga) doir xarajatlari, bundan tadbirlarni o‘tkazishga doir majburiyatlar qonunchilik bilan soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatilgan hollar mustasno;

14) kasaba uyushmalari qo‘mitalariga yordam ko‘rsatish;

15) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo‘yicha xizmatlar, qishloq xo‘jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko‘rsatganlik uchun qilingan xarajatlar;

16) ushbu bo‘limda nazarda tutilgan hollardan tashqari soliq solinmaydigan daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar;

17) haqiqatda xizmatlar ko‘rsatmasdan, tovarlarni jo‘natmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar, agar bunday fakt sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan va unda ushbu xarajatlarni amalga oshirgan soliq to‘lovchining nomi ko‘rsatilgan bo‘lsa;

18) daromad olishga qaratilgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, agar qonunchilikka muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatilmagan bo‘lsa;

19) budjet tizimiga kiritilishi lozim bo‘lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanksiyalar;

20) sotib olishga, ishlab chiqarishga, qurilishga, montaj qilishga, o‘rnatishga doir va amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymatiga qo‘shiladigan boshqa xarajatlar, shu jumladan qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash hollarida amalga oshiriladigan, amortizatsiya chegirmalari vositasidagi xarajatlar jumlasiga kiritiladigan xarajatlar;

21) soliq to‘lovchining amortizatsiya qilinmaydigan mol-mulkning boshlang‘ich qiymatiga Soliq kodeksining 306-moddasiga muvofiq kiritiladigan xarajatlari;

22) Soliq kodeksida chegirmalar jumlasiga kiritish normalari belgilangan xarajatlarning mazkur normalar qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan chegirmaning eng yuqori summasidan ortiq bo‘lgan summa;

23) shakllantirilishi ushbu bo‘limda va (yoki) qonunchilik talablarida nazarda tutilmagan zaxiralarga, zaxira fondlari va boshqa fondlarga ajratmalar, bundan Soliq kodeksining 315, 316 va 326-moddalarida nazarda tutilgan normalar doirasidagi xarajatlar mustasno;

24) soliq to‘lovchi tomonidan hisoblangan dividendlar summalari;

25) soliq to‘lovchi tomonidan boshqa shaxslarning foydasiga to‘lanadigan ixtiyoriy sug‘urta badallari;

26) soliq to‘lovchi tomonidan Soliq kodeksining 310-moddasiga muvofiq soliq solish maqsadlarida xarajatlar deb e’tirof etiladigan xarajatlarning summasidan ortiqcha hisoblangan foizlar va ayrim chiqimlar;

27) tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog‘liq bo‘lgan (shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi kiritilgan) xarajatlar, bundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra mol-mulkni o‘tkazish, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tizimining texnik vositalarini o‘tkazish va ulardan foydalanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish mustasno;

28) ishonchli boshqaruv muassisining ishonchli boshqaruv shartnomasini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari, agar ishonchli boshqaruv shartnomasiga ko‘ra muassis naf oluvchi bo‘lmasa;

29) notijorat tashkilotlariga va xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar, bundan bunday badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lash qonunchilikda (shu jumladan chet davlatlarning qonunchilikda) nazarda tutilgan va (yoki) ushbu badallarni, yig‘imlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lagan soliq to‘lovchilar tomonidan faoliyatni amalga oshirishning sharti yoxud mazkur tashkilotlar tomonidan soliq to‘lovchilar o‘z faoliyatini yuritishi uchun zarur xizmatlar taqdim etishning sharti bo‘lgan hollar mustasno;

30) soliq to‘lovchi tomonidan tashkil etilgan zaxira mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan xarajatlar, agar bunday zaxiralarni tashkil etishga doir xarajatlar Soliq kodeksida yoki boshqa qonunchilikda belgilangan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa;

31) mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summalari;

32) oddiy shirkat shartnomasi doirasida sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan shartnoma sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiy mulkdagi ulushni qaytarish yoki bunday mol-mulkni bo‘lish chog‘ida ko‘rilgan zararlar;

33) soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi tomonidan ushbu guruhning mas’ul ishtirokchisiga soliqni (bo‘nak to‘lovlarini, joriy to‘lovlarni, penyalarni, jarimalarni) Soliq kodeksida soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun belgilangan tartibda to‘lash uchun berilgan pul mablag‘lari, shuningdek soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas’ul ishtirokchisi tomonidan shu guruhning ishtirokchisiga ushbu soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq (bo‘nak to‘lovlari, joriy to‘lovlar, penyalar, jarimalar) summasi aniqlashtirilishi munosabati bilan berilgan pul mablag‘lari;

34) tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli (saqlash muddati o‘tganligi, jismoniy va (yoki) ma’naviy eskirganligi, shunga o‘xshash boshqa sabablarga ko‘ra) hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan

zararlar, bundan favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong‘in, avariya, yo‘l-transport hodisasi va hokazolar) oqibatida ko‘rilgan zararlar mustasno);

35) muddati o‘tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzlar) bo‘yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha foizlar;

36) xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to‘langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 332-moddasiga muvofiq, Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish tartibi belgilangan.

Hisobot soliq davridagi daromad (xarajatlar) miqdorining soliq bazasini aniqlashda ilgari daromad (xarajat) deb e’tirof etilgan summa doirasida ko‘payishi yoki kamayishi tuzatish kiritish deb e’tirof etiladi.

Daromadlar va xarajatlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritilishi lozim:

1) tovarlar, shuningdek sug‘urtalanuvchiga sug‘urta mukofoti to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o‘zgartirilganda;

3) narxlar o‘zgartirilganda, sotib oluvchi tomonidan chegirmadan foydalanilganda;

4) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

332-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish quyidagicha amalga oshiriladi:

kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha — kafolat muddati doirasida;

sug‘urta mukofotlari bo‘yicha — shartnomani bekor qilish paytida;

boshqa hollarda — bir yillik muddat doirasida.

332-moddaga muvofiq daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish mazkur moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (xizmatni) sotuvchi Soliq kodeksining 257-moddasida nazarda

tutilgan tartibda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritadi.

332-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish mazkur hollar sodir bo‘lgan soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish soliq to‘lovchi soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o‘tgan taqdirda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritilayotgan daromadlar bo‘yicha soliq imtiyozlarini qo‘llash hollari mustasno.

Zararlarni kelgusiga o‘tkazish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 333-moddasiga muvofiq, nazarda tutilgan daromadlar va xarajatlarga kiritilgan tuzatish-larni inobatga olgan holda chegirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi soliq to‘lovchining zarari deb e’tirof etiladi.

Muomaladagi qimmatli qog‘ozlar va muddatli bitimlarning muomaladagi moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar tadbirkorlik faoliyatidan ko‘rilgan zararlar deb e’tirof etiladi.

Oldingi soliq davrida (davrlarida) ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan zarari (zararlari) bo‘lgan soliq to‘lovchi joriy soliq davrining foydasini ushbu ko‘rilgan zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga haqlidir.

Soliq bazasi oldingi soliq davrida (davrlarida) ko‘rilgan zarar summasiga faqat joriy soliq davrining yakunlari bo‘yicha kamaytirilishi mumkin.

Bir kalendar yildan ortiq yillarda ko‘rilgan zararlar ular ko‘rilgan ketma-ketlikda o‘tkaziladi.

Bosh bankdan umidsiz qarzlarni oluvchi sho‘ba tashkiloti tomonidan ko‘rilgan zararlar kelgusi davrlarga o‘tkazilmaydi.

Zararlarni o‘tkazishning alohida hollardagi o‘ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 334 — 336-moddalarida nazarda tutilgandir.

Qayta tashkil etilganda zararlarni o‘tkazish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 334-moddasiga muvofiq, qayta tashkil etish munosabati bilan o‘tkaziladigan zararlar soliq to‘lovchilar bo‘lgan huquqiy vorislar o‘rtasida taqsimlash balansi asosida o‘tkaziladigan aktivlar qiymatining qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs aktivlari qiymatidagi taqsimlash balansini tuzish sanasidan oldingi sanadagi holatiga ko‘ra solishtirma miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi va Soliq kodeksining 333-moddasida nazarda tutilgan tartibda o‘tkaziladi.

Huquqiy voris bo‘lgan soliq to‘lovchi qayta tashkil etilgan taqdirda, uning ilgari o‘z faoliyatini tugatgan soliq to‘lovchidan ko‘rgan zararlari o‘tkazilmaydi.

Soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo‘yicha zararlarni o‘tkazish (335-modda)

Soliq kodeksi 333-moddasining qoidalari soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhiga nisbatan ushbu moddada belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda qo‘llaniladi.

Agar soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi oldingi soliq davrida (davrlarida) zarar (zararlar) ko‘rgan bo‘lsa, bunday guruhning mas’ul ishtirokchisi joriy soliq davrining konsolidat-siyalashgan soliq bazasini zararning butun summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga haqli.

Soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi konsolidatsiyalashgan guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatgandan keyin):

1) joriy soliq davrining soliq bazasini mazkur guruh faoliyat ko‘rsatgan davrda ko‘rilgan zararning summasiga (ushbu summaning bir qismiga) kamaytirishga haqli emas;

2) joriy soliq davrining soliq bazasini mazkur ishtirokchi tomonidan u soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi bo‘lmagan soliq davrlarining yakunlari bo‘yicha ko‘rilgan zarar summasiga (ushbu summaning bir qismiga) ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda kamaytirishga haqli.

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirokchisi mazkur guruhdagi o‘zining ishtirok etish davrida qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilgan bo‘lsa, mazkur guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatganidan keyin) bu ishtirokchi joriy soliq davrining soliq bazasini o‘zi huquqiy vorisi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lmagan bunday qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchilar soliq davri yakunlari bo‘yicha qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchidan olingan zararlar summasiga (shu summaning bir qismiga) ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda kamaytirishga ham haqli.

Agar soliq to‘lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining ishtirok-chisi mazkur guruhdagi o‘zining ishtirok etish davrida yuridik shaxsni bo‘lish yo‘li bilan yangidan tashkil etilgan bo‘lsa, mazkur guruh tarkibidan chiqib ketganidan keyin (ushbu guruh faoliyatini tugatganidan keyin) bu ishtirokchi joriy soliq davrining soliq bazasini o‘zi huquqiy vorisi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilari bo‘lmagan bunday qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq davri yakunlari bo‘yicha qayta tashkil etilgan soliq to‘lovchidan olingan zararlar summasiga (shu summaning bir qismiga) ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda, Soliq kodeksining 92-moddasini hisobga olgan holda kamaytirishga ham haqli.

Operatsiyalarning ayrim turlari bo‘yicha zararlarni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 336-moddasiga muvofiq, yuridik shaxsning mol-mulk majmui sifatidagi korxonani ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish ulushini realizatsiya qilishdan yoki uning boshqacha tarzda chiqib ketishidan ko‘rilgan zarar realizatsiya qilingan (chiqib ketgan) aktivlarga aynan o‘xshash aktivlarni realizatsiya qilishdan (ularning chiqib ketishidan) olingan daromadlar hisobidan kompensatsiya qilinadi.

Ishonchli boshqaruv shartnomasi bo‘yicha ko‘rilgan zararlar ishonchli boshqaruv muassisining soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar ushbu ishonchli boshqaruvning kelgusidagi daromadlariga o‘tkaziladi.

Oddiy shirkat shartnomasida (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomada) ishtirok etishdan sheriklarning (ishtirokchilarning) olgan zarari ishonchli shaxsda ushbu oddiy shirkat oladigan kelgusi daromadlarga o‘tkaziladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan ko‘rilgan zararlar birgalikda aniqlanadi va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydi. Bunday zararlar shu xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan kelgusi daromadlarga o‘tkaziladi.

Muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar va muddatli bitimlarning muomalada bo‘lmagan moliyaviy vositalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar alohida aniqlanadi va xuddi shunday operatsiyalardan olingan daromadlar hisobidan har bir soliq bazasi doirasida kompensatsiya qilinadi.

16.6. Foyda solig‘i stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq, 2022 yilda foyda solig‘i stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (5-jadval):

5-jadval

Foyda solig‘i stavkalari[56]

№	To‘lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Banklar	20
2.	Quyidagi soliq to‘lovchilar: polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga	20

[56] O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

	oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan	
3.	O‘zi ishlab chiqargan o‘z qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo‘yicha Soliq kodeksining 57-moddasida nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo‘jaligi korxonalari	0
4.	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar	0
5.	Qo‘shimcha manbalardan daromadlar oluvchi budjet tashkilotlari	0
6.	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
7.	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko‘rsatishdan olingan foyda	20
8.	Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar	7,5
9.	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo‘lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to‘lovchilar	0
10.	O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11.	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12.	Qolgan soliq to‘lovchilar, bundan 1 — 11-bandlarda ko‘rsatilganlar mustasno	15

Polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi va faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat

bo‘lgan soliq to‘lovchilar faoliyatning barcha turlari bo‘yicha belgilangan soliq stavkasini qo‘llaydi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo‘jaligi korxonalari, agar o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etsa, faoliyatning barcha turlari bo‘yicha 0 foiz miqdorida soliq stavkasini qo‘llashga haqlidir.

Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchi Soliq kodeksining 59-moddasida belgilangan mezonlarga rioya etmagan taqdirda, mazkur shartlarga rioya etmaganlik ro‘y bergan soliq davrining boshlanishidan e’tiboran 15 foizlik soliq stavkasini ilgari o‘tgan soliq davrlari uchun aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan holda qo‘llaydi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar, agar ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo‘llashga haqli.

Qo‘shimcha manbalardan daromad oluvchi budjet tashkilotlari, basharti bo‘shatilayotgan mablag‘lardan qonunchilikda belgilangan tartibda budjet tashkilotlarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, o‘z xodimlarini moddiy rag‘batlantirish uchun maqsadli tarzda foydalansa, 2023-yilning 1-yanvariga qadar 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo‘llaydi.

O‘zida ishlovchilarning umumiy o‘rtacha yillik sonining 3 foizidan ko‘prog‘i nogironligi bo‘lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda uchun 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to‘lovchilar tomonidan, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan

daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, qo‘llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, shu jumladan tovar vositachi (ishonchli vakil) orqali realizatsiya qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to‘lovchilar tomonidan, Soliq kodeksining 261-moddasida nazarda tutilgan tovarlarning eksportini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda, qo‘llaniladi.

Tovarlar eksport qilinganda, 0 darajali foiz miqdoridagi soliq stavkasi soliq to‘lovchilar tomonidan, tovarlarni chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar (xizmatlar) eksportga chiqarilgan kundan e’tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, qo‘llanilmaydi.

6-jadval

Norezidentlarning doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga foyda solig‘i stavkalari

T/r	**Soliq solinadigan daromad**	**Soliq stavkalari, foizlarda**
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Sug‘urta, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari	10
3	Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlar (fraxtdan olingan daromadlar)	6
4	Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb etilgan kreditlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan chet el moliya institutlariga to‘lanadigan daromadlar	0
5	O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek xalqaro to‘lov kartochkalari vositasida hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar	0
6	Boshqa daromadlar, bundan 1 — 5-bandlarda ko‘rsatilgan daromadlar mustasno	20

337-moddaning sakkizinchi qismi qoidalari quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan xomashyo tovarlar eksportiga;

2) xalqaro tashishlar xizmatlariga, bundan avtotransportda tashishlar mustasno;

3) tovarlarni quvurlar orqali va gaz quvurlari orqali tashish bo‘yicha xizmatlarga.

Foydali qazilmalarni qazib olish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan ayrim soliq to‘lovchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 353-moddasiga muvofiq, 2022 yilda Norezidentlarning doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga foyda solig‘i stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (6-jadval):

16.7. Foyda solig‘ini hisoblash chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 339-moddasiga muvofiq, hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davrining boshidan oshib boruvchi yakun bilan, soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo‘lgan foizlardagi ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ketma-ketlikdagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi[57]:

[57] Vahobov A., Jo’rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - T:.Sharq, 2009. 76-bet.

Ko‘rsatkichlarni aniqlash tartibi	Ko‘rsatkichlarning ma’nosi
SST = YaT – ES	**SST – sotishdan olingan sof tushum** **YaT – yalpi tushum** **ES – egri soliqlar**
YaF = SST – IT	**YaF – yalpi foyda** **SST – sotishdan olingan sof tushum** **IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi**
AFF = YaF – DX + BD – BZ	**AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda** **YaF – yalpi foyda** **DX – davr xarajatlari** **BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar** **BZ – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar**
UF = AFF + MD – MX	**UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda** **AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda** **MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadalar** **MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari**
STF = UF + FP – FZ	**STF – soliq to‘langungacha foyda** **UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda** **FP – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda** **FZ – favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar**

Soliq to‘lovchi Soliq kodeksining 342-moddasida belgilangan hollarda va tartibda foyda solig‘ini yoki chet davlatda to‘langan daromadlardan olinadigan xuddi shunday turdagi to‘langan soliqni hisobga o‘tkazish yo‘li bilan soliq summasini kamaytirishga haqli.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq hisoboti barcha soliq to‘lovchilar tomonidan har bir hisobot va soliq davri o‘tganidan keyin soliq bo‘yicha hisobda turgan joyidagi soliq organiga taqdim etiladi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq hisoboti quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davri o‘tgandan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

Budjet tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan soliq bo‘yicha soliq hisoboti soliq davri yakunlariga ko‘ra taqdim etiladi, bundan matlubot kooperativlari mustasno. Bunda o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha jami daromad mavjud bo‘lmagan taqdirda soliq hisobotini taqdim etish talab qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 340-moddasiga muvofiq, soliqni to‘lash hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha, tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda besh milliard so‘mdan oshadigan soliq to‘lovchilar hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kunidan kechiktirmay to‘laydi.

Joriy soliq davrining birinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi o‘tgan soliq davrining oxirgi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovi summasiga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining ikkinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi joriy yilning birinchi hisobot davri uchun soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘i summasining uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining uchinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi yarim yillik yakunlariga ko‘ra soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi va birinchi chorak yakunlari bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda

solig‘ining summasi o‘rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining to‘rtinchi choragida to‘lanishi lozim bo‘lgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi to‘qqiz oylik yakunlariga ko‘ra soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi va yarim yillik yakunlari bo‘yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig‘ining summasi o‘rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Agar 340-moddaning uchinchi — oltinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovining summasi manfiy yoki nolga teng bo‘lsa, ko‘rsatilgan to‘lovlar tegishli chorakda amalga oshirilmaydi.

Soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangidan tashkil etilgan, jami daromadi joriy hisobot davri mobaynida besh milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar har oylik bo‘nak to‘lovlarini bunday oshib ketish sodir bo‘lgan to‘liq chorak o‘tganidan keyin to‘laydi.

Bo‘lish yoki ajratib chiqarish yo‘li bilan qayta tashkil etish natijasida yangidan tashkil etilgan yuridik shaxs, jami daromadining miqdoridan qat’i nazar, har oylik bo‘nak to‘lovlarini, agar bo‘lish yoki ajratib chiqarish yo‘li bilan qayta tashkil etilgan yuridik shaxs soliq bo‘yicha har oylik bo‘nak to‘lovlarini bunday qayta tashkil etish amalga oshirilgan soliq davrida hisoblab chiqargan bo‘lsa, ikkita kelgusi soliq davri mobaynida to‘laydi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha hisobot (soliq) davri mobaynida to‘langan har oylik bo‘nak to‘lovlari summasi hisobot (soliq) davri uchun soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliqni to‘lash chog‘ida hisobga olinadi.

Har oylik bo‘nak to‘lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda soliq to‘lovchi kelgusi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risida soliq organlariga ma’lumotnoma taqdim etish huquqiga ega. Kutilayotgan foyda summasi asossiz kamaytirib ko‘rsatilgan taqdirda

soliq organlari soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etiladigan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga o‘zgartirishlar kiritishga haqli.

Jami yillik daromadning miqdoridan qat’i nazar, soliq hisobotini soliq bo‘yicha faqat soliq davri yakunlari yuzasidan taqdim etuvchi soliq to‘lovchilar har oylik bo‘nak to‘lovlarini to‘lamaydi.

Soliq to‘lovchi tugatilganda soliq tugatish yakunlanguniga qadar to‘lanishi lozim.

Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organi har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisoblashni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organdan bunday axborot olingan oydan e’tiboran to‘xtatib turadi.

Faoliyat tiklangan va tugatish jarayoni to‘xtatilgan taqdirda, har oylik bo‘nak to‘lovlarini hisoblash ularni hisoblash to‘xtatilgan oydan e’tiboran tiklanadi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat budjeti daromadlarini shakllantirish uchun undiriladigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Foyda solig’i - bu xo‘jalik yurituvchi korxonalarda yaratilgan qo‘shimcha qiymatning bir qismini majburiy ravishda davlat budjetiga o‘tkazish vositasi bo‘lib, u davlat budjeti bilan yuridik shaxslar o‘rtasidagi pul munosabatlarini ifodalaydi.

Oxirgi uch yilda ushbu soliqdan tushumlar sezilarli darajada o‘sib bormoqda. O‘sish dinamikasi - 234,5%, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, jami soliq tushumlarida soliqning salmog‘i ham sezilarli darajada oshib bormoqda - 2019 yildagi 14,6 dan 2021 yilda 23,3 gacha. Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- soliq stavkasining 14%dan 15%gacha oshirilishi;

- 2021 yilda foyda solig‘ining umumiy tushumida - 25,7 trln so‘m (yoki 67%i) oltin va mis qazib oluvchi korxonalar – “NKMK” AJ va

“OKMK” AJ hissasiga to‘g‘ri keladi. Oltin va misga jahon narxlarining o‘sishi tufayli foyda solig‘ining asosiy o‘sishini aynan shu korxonalar ta’minlamoqda. Boshqa soliq to‘lovchilar ulushi 12,6 trln so‘mni tashkil etadi (2020- yilga nisbatan o‘sish jami 36,7%);

- QQS, mol-mulk solig‘i, ayrim tovarlar (xizmatlar) uchun Aksiz solig‘i stavkalarini va ayniqsa, qimmatbaho metallar uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini kamaytirish hisobiga foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani oshirish;

- aylanmasi yiliga 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan kichik korxonalar (ilgari YaST to‘laganlar) hisobiga foyda solig‘i to‘lovchilar toifasi jiddiy kengaytirilmoqda;

- shu bilan birga, 2021-yilda soliq solinadigan bazani qariyb 1 trln so‘mga kamaytirgan investitsiyaviy chegirmalarning joriy etilishi foyda solig‘i tushumlarining kamayishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, 2022-yildan boshlab amortizatsiya stavkalari ikki barobar oshadi, bu esa soliq tushumlarining qisqarishida aks etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Foyda solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
2. Foyda solig‘ida soliq solish obyekti bo‘lib nima hisoblanadi ?
3. Jami daromad tarkibiga nimalar kiradi ?
4. Foyda solig‘i bo‘yicha qanday soliq stavkalari va soliq imtiyozlari mavjud?
5. Norezident yuridik shaxslarning foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?

Testlar

1. Soliq sohasidagi vakolatli organlarga qaysi organlar kiradi?

A) Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari, moliya organlari, boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari

B) Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari

C) Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari, banklar

D) Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari, o‘z-o‘zini boshqarish organlari

2. Foyda solig‘i qaysi soliqlar tarkibiga kiradi?

A) To‘g‘ri soliqlar

B) Egri soliqlar

C) Mahalliy soliqlar

D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Yuridik shaxslar soliqlarni qanday shaklda to‘laydilar?

A) Ixtiyoriy shaklda

B) Naqd pulsiz shaklida

C) Ayrim hollarda har ikkalasidan ham foydalanish mumkin

D) Natura shaklda.

4. Yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i qachon joriy etilgan?

A) 1991 yil 1 yanvardan

B) 1992 yil 14 yanvardan

C) 1993 yil 6 maydan

D) 1995 yil 1 yanvardan

5. Soliq to‘lovchilarni Davlat Soliq Reestrida kodlashtirishning yagona tizimini shakllantiruvchi raqam - bu…

A) STIR

B) JBPTR

C) MFO

D) XXTUT

6. Soliq amaliyotida yuridik shaxslarning foydasiga solig‘i obyekti qanday huquqiy xujjat asosida aniqlanadi?

A) Korxona ustavi.

B) O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi.

C) Korxona balansi.

D) Mahsulot xarajati tannarxi va moliyaviy faoliyat yakuni to‘g‘risidagi hisobot bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 -yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom.

7. Foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 2022 yil 1 yanvardan necha foiz qilib belgilangan?

A) 9

B) 8

C) 7,5

D) 15

8. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning oladigan dividend va foiz daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?

A) 12 %

B) 13 %

C) 15 %

D) 10 %.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997- yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.
4. Vahobov A., Jo‘ryaev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
5. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.

Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.-57-73-betlar.

16-MAVZU. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I

16.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi

Iqtisodiy islohotlar sharoitida soliqlar budjetni daromad bilan ta’minlovchi asosiy manba hisoblanib, ularning shakllanishida soliq to‘lovchilar, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarning o‘rni beqiyosdir.

Ayniqsa, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlarning eng asosiysi – bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idir. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq davlat budjetiga o‘z vaqtida to‘liq kelib tushishi davlat oldida turgan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda aholini daromadlarini soliqqa tortish tizimi dastlab 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan (hozirgi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan) «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonun asosida joriy etildi. Ushbu qonun bilan aholidan olinadigan daromad solig‘ining barcha elementlari belgilab berildi. Jumladan, unda daromad solig‘ini to‘lovchilar, soliq solinadigan va soliq solinmaydigan daromadlar, daromad solig‘i stavkalari, mazkur soliq yuzasidan qo‘llaniladigan imtiyozlar tarkibi, fuqarolar oladigan ish haqi, to‘lovlar, mukofotlar va boshqa daromadlarga soliq hisoblash tartiblari, O‘zbekiston Respublikasida daromad solig‘ini to‘lash paytida xorijda to‘langan daromad soliqlarining hisobga olinishi, shuningdek fuqarolarning dehqon xo‘jaligini yuritishdan olgan daromadlaridan soliq undirish tartibi hamda ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Soliqlarning obyektiv zarurligi - davlatning bajaradigan qator funktsiyalarning mablag‘ bilan ta’minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Davlatning bajaradigan funktsiyalari ko‘p bo‘lib, bozor iqtisodi

rivojlana borishi bilan ba’zi funktsiyalar yo‘qola borsa, ba’zilari paydo bo‘ladi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, aholining daromad solig‘iga tortishning yangi tizimini qat’iyan hayotga joriy etish zarur. Chunki u davlat daromadini shakllantirish nuqtai nazaridan avvalgi soliq tizimiga nisbatan ijtimoiy jihatdan ancha adolatli va yanada samaralidir.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish qiyin. Chunki bu soliq har bir soliq to‘lovchi subyektining hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar milliy daromadni taqsimlashda davlatning, shu jumladan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismini o‘zlashtirilishi ta’minlanadi. Milliy daromadning majburiy ravishda safarbar qilingan bu qismi davlat moliya resurslarining bir qismiga, uning hayotiy faoliyatining asosiga aylanadi.

Mamlakatimizda yuz bergan iqtisodiy o‘zgarishlar, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o‘tib borilishi jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqning belgilanishi va to‘planishida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berishiga sabab bo‘ldi. Soliq qonunchiligini yanada mustahkamlash, soliqlarni bozor munosabatlarida qatnashishini kuchaytirish maqsadida ularning hammasi uchun yagona huquqiy asos sifatida 1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi. Barcha soliqlar qatorida aholidan olinadigan daromad solig‘ining qonuniy asoslari ham Soliq kodeksida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i sifatida aks ettirildi. Keyinchalik 2007 yilda hamda 2019 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahrirlari qabul qilindi. Natijada jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimi ham takomillashib bordi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining obyektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitidagi ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining salmog‘i ancha yuqoridir. Davlat budjetining daromadlar qismidagi ulushi yuqori bo‘lgan sababli ham, bu soliq turi soliq tizimida muhim o‘rinlardan birini egallab kelmoqda.

Ma’lumki dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida shakllangan soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni taqsimlash orqali turli darajadagi budjetlarning daromadlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonni O‘zbekiston Respublikasi misolida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, quyidagi manzarani guvohi bo‘lishimiz mumkin (14-jadval).

14-jadval

Davlat budjetida JShODSning 2019-2021 yillardagi ijrosi haqidagi ma’lumot

mlrd so‘m

	2019- yil		**2020 -yil**		**2021- yil**		**O‘sish 2021/ 2019**
	summa	salmog‘i %da	summa	salmog‘i %da	summa	salmog‘i %da	**%da**
Davlat budjeti daromadlari	**112 165**		**132 938**		**164 681**		**146,8**
shu jumladan:							
1. Bevosita soliqlar - jami	31 677	28,2	45 207	34,0	58 930	35,8	186,0
1.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 327	11,9	15 141	11,4	18 918	11,5	141,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, jami soliq tushumlari 2019 yilda 112165,0 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkich tahlil qilinayotgan davrlarda izchil o‘sish sur’atiga ega bo‘lib, 2020

yilda 132938,0 mlrd. so‘mga, 2021- yilda esa 164681,0 mlrd. so‘mga etgan. 2019 yilga nisbatan o‘sish 146,8 foizni tashkil qilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar jami soliqlarda yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilib, 2019 yilda 13327,0 mlrd. so‘mni, 2020- yilda 15141,0 mlrd so‘mni, 2021- yilga kelib esa 18918,0 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. 2019- yilga nisbatan o‘sish 141,9 foizni tashkil qilgan. 2022- yilda bu soliq bo‘yicha prognoz 22000,0 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda (11 foiz).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i eng barqaror soliq. Soliqning o‘sish dinamikasi butun soliq tizimi bo‘yicha soliqlarning o‘sishiga mos keladi. Soliqning salmog‘i barqaror. Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- iqtisodiy faollikning tiklanishi, tegishincha, ish haqining o‘sishi - o‘rtacha ish haqi 2018- yildan buyon 177,7%ga oshdi;

- budjet sektorida ish haqining eng kam miqdorini oshirish. Masalan, 2021- yilda 2020- yildagiga nisbatan o‘rtacha 12,8%ga. 2021- yil boshidan budjet tashkilotlarida 2020- yilda vaqtincha to‘xtatilgan moddiy rag‘batlantirish to‘lovlarini qisman tiklash;

- asosan qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlardan tushumlarning o‘sishi – 2021- yilda 396,7 mlrd so‘mni tashkil etdi, bu 2020 yildagiga nisbatan 110,4 mlrd so‘mga ko‘pdir.

Soliq stavkalarining pasaytirilishiga qaramay, ishchilar sonining legallashtirilishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hisobiga davlat budjetida daromad solig‘i o‘ziga xos salmoqqa ega bo‘lmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i daromad solig‘i nafaqat jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar ichida, balki barcha soliq turlari orasida budjet tushumlaridan salmoqli o‘rinni egallaydigan soliq turi hisoblanadi.

Bugungi kunda mahalliy budjetlarning daromadlarini oshirish, barqarorligini ta’minlash maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ham bir qismi mahalliy budjetlarda qoldirilmoqda.

Jumladan, 2020 yil davomida mazkur soliqning Navoiy viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 34 foizi, Toshkent shahrida 5 foizi va boshqa hududlarda esa 100 foiz tushumlari mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldiriladi. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha ham prognozdan orttirib bajarilgan qismi to‘liq mahalliy budjetlarda qoldiriladigan bo‘ldi[58].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko‘ra soliqlar va boshqa yig‘imlarni o‘z vaqtida, to‘la hajmda to‘lash fuqarolarning asosiy majburiyatlaridan ekanligi qayd etilgan. Har bir fuqaro o‘z daromadlaridan qonunda belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lab borishlari kerakligi amaldagi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining boshqa me’yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e’tirof etiladi.

Barcha jismoniy shaxslar soliqqa tortish maqsadida ikki toifaga bo‘linadi: O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ko‘ra **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq to‘lovchilari deb** quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;

2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar[59].

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 365-moddasiga muvofiq soliq to‘lovchi jismoniy shaxsning jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish obyekti deb hisoblanadi.

Soliq kodeksining 392-moddasida belgilangan tartibda soliqni qat’iy belgilangan miqdorda to‘lash xohishini bildirgan yakka tartibdagi

---

[58] Жисмоний шахслар солиқ маъмуриятчилиги: назария ва амалиёт. ДСҚ ҳузуридаги Малака ошириш маркази. 2020 йил

[59] O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 364 modda

tadbirkorlar uchun soliqqa tortish obyekti bo‘lib amalga oshirilayotgan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Jami daromad soliq to‘lovchi jismoniy shaxs tomonidan hisobot (soliq) davri davomida olingan quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan.

O‘zbekiston Respublikasi rezident jismoniy shaxslari deganda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan 12 oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun (yoki undan ko‘proq muddatda) bo‘lgan jismoniy shaxslar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezident jismoniy shaxslari deganda O‘zbekiston Respublikasida yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan 12 oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun va undan kam muddatda bo‘lgan jismoniy shaxslar tushuniladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasi quyidagilar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun - soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun - soliq imtiyozlari qo‘llanmagan holdagi jami daromadlari.

Daromad solig‘i bazasini aniqlashda soliq to‘lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi.

Soliq to‘lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Soliq bazasi, Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq davri boshidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi. Shuningdek, soliq bazasiga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tuzatish kiritiladi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning o‘z farmoyishiga, sudning yoki boshqa organlar va tashkilotlarning qaroriga ko‘ra ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq bazasini kamaytirmaydi.

16.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 368-moddasiga muvofiq jami daromad soliq to‘lovchi jismoniy shaxs tomonidan hisobot (soliq) davri davomida olingan quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi va uning tashqarisidagi manbalardan olingan daromadlardan;

2) O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlardan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-moddasiga muvofiq Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

1. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar (371-modda).
2. Mulkiy daromadlar (375-modda).
3. Moddiy naf tarzidagi daromadlar (376-modda).
4. Boshqa daromadlar (377-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga muvofiq quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan soliq to‘lovchi olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik

sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti va sovg‘alar;

2) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar;

3) olingan alimentlar;

4) fuqarolar tomonidan olinadigan sug‘urta tovoni summalari;

5) qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda to‘lanadigan stipendiyalar;

6) qonunchilikka muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha har oylik kompensatsiya pul to‘lovlari;

7) davlat pensiyalari, qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi (oilaning betob a’zosini parvarish qilish bo‘yicha nafaqa) mustasno;

8) majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari, ular bo‘yicha foizli daromadlar, shuningdek jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari.

9) qonunchilikda belgilanadigan tartibda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlar;

10) O‘zbekiston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar.

Soliq agentlarining Soliq kodeksining 386-moddasida nazarda tutilgan jismoniy shaxs foydasiga amalga oshiradigan quyidagi xarajatlariga soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

1) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha xarajatlari;

2) kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar, shu jumladan a’zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a’zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi

qo‘mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar mustasno;

3) favqulodda holatlar munosabati bilan etkazilgan zararlar summasi doirasida beriladigan moddiy yordam summalari;

4) xodimlarni ish joyiga olib borish va olib qaytish bo‘yicha xarajatlari;

5) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o‘tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo‘lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo‘l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta’minlash bilan bog‘liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

6) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta’minlash bo‘yicha xarajatlar;

7) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash yoki bu xarajatlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;

8) xizmat safarlariga oid quyidagi kompensatsiya to‘lovlari:

tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u erdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to‘lashni qo‘shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, temir yo‘l transportidagi (agar temir yo‘l qatnovi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

uy-joyni ijaraga olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan to‘lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar;

qonunchilikda belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

qonunchilikda belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to‘lovlar;

9) qonunchilikda nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar):

doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar);

xizmat ishlarida shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

dala ta’minoti;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan aniqlanadigan olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda joylashgan budjet tashkilotlariga oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari orasidan bakalavriatni yoki magistraturani tamomlagandan so‘ng uch yil ichida ishga qabul qilingan xodimlarga, shuningdek mazkur olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda joylashgan oilaviy shifokorlik punktlariga va oilaviy poliklinikalarga hamda ta’lim muassasalariga ishga qabul qilingan, boshqa hududda yashaydigan oliy ma’lumotli shifokorlarga va mutaxassislarga uy-joy ijarasi uchun har oylik pul kompensatsiyasi;

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va normalar bo‘yicha boshqa kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar), bundan Soliq kodeksining 373 va 377-moddalarida ko‘rsatilganlari mustasno;

10) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast etganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo‘lguniga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik

to‘lovlar (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo‘lib qolgan taqdirda, zararning o‘rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,76 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘shimcha xarajatlar uchun oyiga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘shimcha xarajatlar tariqasida har oyda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi miqdoridagi to‘lovlar;

xodimning sog‘lig‘iga shikast etkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

11) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar;

12) talabalarning ta’lim olishi uchun O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha pulli-kontrakt asosida o‘tkaziladigan to‘lovlar;

13) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

14) soliq to‘lovchining mijozlarning tovarlar va xizmatlarni sotib olish faolligini oshirishga qaratilgan va bonuslar (ballar, mijozni ushbu tashkilotlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olish faolligini belgilovchi boshqa birliklar) hisoblanishini nazarda tutuvchi dasturlarda ishtiroki

natijasida ushbu dasturda belgilangan asoslar bo‘yicha olingan pul va natura shaklidagi daromadlari. Daromadlar soliq to‘lovchining jami daromadiga quyidagi hollarda qo‘shiladi:

soliq to‘lovchining 14-bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan dasturlarda ishtirok etishi ochiq oferta shartlarisiz amalga oshirilganda;

soliq to‘lovchi 14-bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan mamlakatimizdagi va chet el tashkilotlarining dasturlariga, ularda aktsept muddati o‘ttiz kundan kam va (yoki) ularda ommaviy ofertani muddatidan oldin chaqirib olish imkoniyati nazarda tutilgan shartlar asosidagi ochiq ofertaga qo‘shilganda;

14-bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan tashkilotchi bilan lavozim majburiyatlarini bajarishda mehnat munosabatlarida bo‘lgan, shuningdek soliq to‘lovchi tomonidan tovarlar etkazib berganlik (ishlar bajarganlik, xizmatlar ko‘rsatganlik) uchun haq (mukofot) yoki moddiy yordam sifatidagi to‘lov shaklidagi daromad to‘langanda.

15) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya, ekologiya jamg‘armalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar tomonidan ko‘rsatilgan yordam:

Ustavda nazarda tutilgan faoliyat doirasida bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar;

davolash va tibbiy xizmatlar qiymati, nogironlarni profilaktika va reabilitatsiya qilish uchun texnik asbob-uskunalar olish;

jismoniy shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar va xizmatlarni etkazib beruvchidan olish;

xayriya maqsadida boshqa shakllarda qo‘llab-quvvatlash (bundan pul shaklida qo‘llab-quvvatlash mustasno).

16) soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadigan dasturlarda ishtirok etishi natijasida olingan bonuslar, pul mukofotlari tarzidagi pul to‘lovlaridan iborat daromadlari.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 371-moddasiga muvofiq ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi:

1. Mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

2. Ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

3. Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar (Soliq kodeksining 372-moddasiga muvofiq).

4. Kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya) (Soliq kodeksining 373-moddasiga muvofiq).

5. Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash (Soliq kodeksining 374-moddasiga muvofiq).

6. Haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to‘lovlar.

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lovlar (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar mustasno);

yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xshash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;

O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va

ofitserlar tarkibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o‘tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar.

Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 372-moddasiga muvofiq rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;

2) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;

3) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;

4) ta’tilga qo‘shimcha haqlar;

5) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;

6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to‘lov;

7) mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar.

Kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya)

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 373-moddasiga muvofiq mehnatga haq to‘lash tarzida daromadga kiritiladigan kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha to‘lovlar);

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar;

4) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo‘lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo‘lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarni vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘lanadigan ustamalar;

6) yuridik shaxs joylashgan erdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to‘lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqti uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta’minoti;

9) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganliklari munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

11) xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to‘lovlar;

12) mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash uchun soliq qonunchiligida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 374-moddasiga muvofiq ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lashga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a). yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’tilga haq to‘lash, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lash;

b). noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta’tilga haq to‘lash;

v). o‘qish bilan bog‘liq ta’tilga va ijodiy ta’tillarga haq to‘lash;

g). o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta’tilga haq to‘lash.

2) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

3) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;

4) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim bo‘yicha maoshi miqdorlari ma’lum bir muddat davomida saqlab qolingan holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to‘lash;

7) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha ularga to‘lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to‘lash;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to‘lash;

11) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

12) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash;

13) yuridik shaxsning mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘shimchalar, stipendiyalar;

14) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

Mulkiy daromadlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 375-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) soliq to‘lovchiga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qiymatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko‘chmas mulk bo‘yicha esa – kadastr qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o‘rtasidagi ijobiy farq daromad deb e’tirof etiladi;

5) sanoat mulki obyektlariga, selektsiya yutug‘iga oid patent (litsenziya) egasi bo‘lgan soliq to‘lovchining patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

7) ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulk bo‘yicha ishonchli boshqaruvchidan olingan daromad;

8) Soliq kodeksining 324-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan REPO operatsiyalari bo‘yicha daromad;

9) Soliq kodeksining 327 – 329-moddalarida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan, qimmatli qog‘ozlar va (yoki) muddatli bitimlarning xos ila moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo‘yicha daromad;

10) Soliq kodeksining VII bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining foyda tarzidagi daromadi;

11) Soliq kodeksining 319-moddaga muvofiq aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnomaga) muvofiq ishtirok etishdan olingan daromadlar;

12) 375-moddaning 1-11 bandlarida ko‘rsatilmagan mulkiy xususiyatga ega boshqa daromadlar.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar

Soliq to‘lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olingan daromadlar, agar Soliq kodeksi 369-moddasining ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagilardan iborat:

1) soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchi manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to‘lash, shu jumladan:

soliq to‘lovchining bolalarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘qitish, tarbiyalash haqini to‘lash;

soliq to‘lovchilarga berilgan uy-joyning kommunal xizmatlar haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlarini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulator davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash;

soliq agentining soliq to‘lovchi daromadi bo‘lgan boshqa xarajatlarini to‘lash;

2) soliq to‘lovchining manfaatlarini ko‘zlab tekin, shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha berilgan mol-mulkning va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati;

3) tovarlarni (xizmatlarni) soliq to‘lovchilarga realizatsiya qilish narxi hamda shu tovarlarning (xizmatlarning) 376- moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy farq;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo‘l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo‘yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) soliq agenti tomonidan to‘lovlar hisobiga to‘lanib, soliq to‘lovchidan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, ushbu tovarlarning (xizmatlarning) qiymati ularni sotib olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliq agentidan Aksiz to‘lanadigan tovarlar yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan tovarlar (xizmatlar) olingan taqdirda, bunday tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida Aksiz solig‘ining va qo‘shilgan qiymat solig‘ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Boshqa daromadlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

Soliq to‘lovchining boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan soliq to‘lovchilarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

2) hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlarni va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan, ipak qurtini, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

3) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan mol-mulkning, mulkiy huquqlarning qiymati;

4) musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

5) yutuqlar;

6) grant beruvchidan olingan grantlarning, shu jumladan chet davlatlar grantlarining summalari;

7) soliq to‘lovchilarning yaratilgan ilm-fan, adabiyot va san’at asarlari (predmetlari) uchun olgan daromadlari;

8) xalqaro sport musobaqalaridagi sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

9) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo‘shatish nafaqasi va boshqa to‘lovlar;

10) quyidagicha ko‘rsatiladigan moddiy yordam:

vafot yetgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko‘rsatiladigan;

xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoxud sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladigan;

bola tug‘ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o‘tishi munosabati bilan ko‘rsatiladigan;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag‘lar berish tarzida ko‘rsatiladigan moddiy yordam;

11) ishlamaydigan pensionerlarga soliq agenti tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar;

12) ma’naviy zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha pullik to‘lovlar;

13) Soliq kodeksining VI bo‘limida belgilangan hollarda va tartibda narxlarga tuzatish kiritish tufayli olingan daromad;

14) Soliq kodeksining 300-moddasida nazarda tutilgan tartibda aniqlanadigan talab qilish huquqidan o‘zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromad;

15) soliq to‘lovchining Soliq kodeksining 371-376 moddalarida ko‘rsatilmagan boshqa daromadlari.

16.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari

Soliq imtiyozlari budjet tanqisligi sezilarli bo‘lgan vaqtda aholi manfaatlarini davlat manfaatlariga bo‘ysunishiga xizmat qilsa, budjet tanqisligi bartaraf etilishi bilan davlat va aholi manfaatlari teng ravishda muvofiqlashtirilgan. Bunday muvofiqlashtirish korxonalar va aholining moliyaviy holatini yoki daromad, to‘lov qobiliyatini kuchaytirishga

xizmat qilgan. Soliq to‘lovchilar va undiruvchilar manfaatlaridan kelib chiqqan holda imtiyozlar soliq qonuniyatlari doirasida turlicha namoyon bo‘lgan.

Davlat faqatgina imtiyozlar orqaligina soliqlarning rag‘batlantirish funktsiyasini amalga oshirishi mumkin. Aks holda, soliqlarning rag‘batlantirish funktsiyasi o‘z ifodasini topa olmaydi.

Soliq kodeksi bo‘yicha bir necha imtiyozlar qo‘llanilganki, u orqali aholi ixtiyorida nominal daromadning salmoqli qismi bevosita va bilvosita qolishiga xizmat qilmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha belgilangan imtiyozlar 3 guruhga bo‘linadi:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari (378-modda);

2. Daromad solig‘idan ozod etilgan jismoniy shaxslar (379-modda);

3. Ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarning jami daromadini kamaytirish (380-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summalari:

vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari — mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

Soliq kodeksining 377-moddasida ko‘rsatilgan boshqa hollarda, — soliq davri uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalari, bundan turistik yo‘llanmalar mustasno:

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironligi

bo‘lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlari, shuningdek sanatoriy-kurort hamda sog‘lomlashtirish muassasalariga o‘z xodimlarining o‘n olti yoshgacha bolalari (o‘qiydiganlarga — o‘n sakkiz yoshgacha) uchun yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalari;

3) o‘z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko‘rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo‘lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida esa — uning oila a’zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida budjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalari va boshqa summalar;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

7) soliq to‘lovchilarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan quyidagilarni sotishdan olingan daromadlar mustasno:

qimmatli qog‘ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

noturar joylarni;

o‘ttiz olti kalendar oydan kam muddatda soliq to‘lovchining mulkida bo‘lgan turar joylarni;

8) uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramollarni, parrandalarni, mo‘ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar va hokazolarni) tirik holda hamda ularni so‘yib mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda sotishdan (bundan sanoatda qayta ishlash mustasno) chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

9) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

10) ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

ilgari mazkur ish beruvchining xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar hamda boshqa turlardagi yordam;

11) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekinga olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan quyidagilar mustasno:

ilm-fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot hamda san’at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislariga) to‘lanadigan pul mukofotlari;

yaqin qarindosh bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi ko‘chmas mulk, avtotransport vositalari, qimmatli qog‘ozlar, yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlar;

12) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar;

13) jamg‘arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo‘yicha foizlar va yutuqlar;

14) nodavlat notijorat tashkilotlaridan, xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek vakolatli organning xulosasi mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi xalqaro shartnomalari doirasida soliq to‘lovchi grant beruvchidan bevosita olgan grantning summasi;

15) soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash (hayot sug‘urtasi sohasining barcha toifalarida) bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

sug‘urta badallari o‘sib bormaydigan tartibda to‘langanda va bir yo‘la to‘lanadigan sug‘urta summasi shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan 12 oydan so‘ng olinganda. Sug‘urtalangan shaxsning muayyan yoshgacha yashashi yoki hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasida ko‘rsatilgan muddatdan boshqacha tarzdagi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan taqdirda, sug‘urta summasi ushbu ko‘rsatilgan shartlarga amal qilmagan xolda to‘lanishi mumkin;

shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanish sanasidan kamida 12 oydan so‘ng renta (annuitet) olinganda va rentani (annuitetni) to‘lash sanasida shartnoma bo‘yicha haqiqatda jamlangan mablag‘lar (zaxira) summasi ko‘rsatib o‘tilgan rentaning (annuitetning) to‘rt baravaridan kam bo‘lmaganda;

renta (annuitet) to‘lash shartnoma bo‘yicha sug‘urta davri boshlanishi sanasidan 12 oy o‘tmasdan boshlanganda, bunda dastlabki

rentani (annuitetni) to‘lash boshlanadigan vaqtda haqiqatda to‘langan sug‘urta badallari summasi shartnoma bo‘yicha sug‘urta mukofotining yillik miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak va rentalarni (annuitetlarni) to‘lash sanasiga haqiqatda jamlangan mablag‘lar (zaxira) summasi ko‘rsatib o‘tilgan rentaning (annuitetning) to‘rt baravaridan kam bo‘lmaganda.

Mazkur bandning shartlari buzilganda yoxud shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va sug‘urtachi sug‘urta badalini to‘liq yoki qisman qaytarganda, qaytarilgan sug‘urta badali sug‘urtachi tomonidan soliqqa tortiladi.

16) soliq to‘lovchining quyidagilarga yo‘naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan ish haqi va boshqa daromadlari:

O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish (o‘zining, yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi) uchun to‘lov;

soliq bazasining 50 foizidan oshmagan holda, metsenatlik ko‘magini ko‘rsatish;

olingan ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami o‘n besh million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda qoplashga, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko‘p qavatli uydagi xonadonning qiymati uch yuz million so‘mdan oshmasa hamda u dastlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo‘yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun budjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan holda olingan bo‘lsa. Mazkur imtiyoz qarz oluvchiga va birga qarz oluvchilarga, imtiyoz olish huquqiga ega bo‘lgan barcha soliq to‘lovchilarga berilgan, soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlarni kamaytirish summasi soliq davri davomida jami o‘n besh million so‘mdan oshmagan taqdirda, tatbiq etiladi;

fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga;

17) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomalari bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar,

agar bu ulushlarni, paylarni va aktsiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

Yuridik shaxs tashkil etmagan chet el tuzilmasiga nisbatan yoki qaysi chet el yuridik shaxsi uchun ro‘yxatdan o‘tish mamlakatining qonun hujjatlariga muvofiq kapitalda ishtirok etish nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘sha chet el yuridik shaxsiga nisbatan nazorat qilish huquqi, agar bunday huquqlar ularni bir oilaning a’zolari va (yoki) yaqin qarindoshlar bo‘lgan shaxslar o‘rtasida o‘tkazish natijasida olingan bo‘lsa, daromad olish yoki daromadni tasarruf etish huquqining yuzaga kelishi deb e’tirof etilmaydi;

18) paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinadigan soliq to‘lovchilarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

19) soliq to‘lovchi bo‘lgan qimmatbaho metallar qidiruvchilarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qazib olish yo‘li bilan ega bo‘lgan qimmatbaho metallarni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari.

20) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya va ekologiya jamg‘armalari tomonidan soliq to‘lovchilarga beriladigan nafaqalar, shuningdek pul mablag‘lari tarzidagi yordamning boshqa turlari, biroq soliq davri mobaynida o‘n besh million so‘mdan oshmagan holda.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 379-moddasiga muvofiq Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadi:

1) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

2) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik xodimlari hamda ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi

bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari — agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha.

Soliq kodeksining 380-moddasiga muvofiq ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarning jami daromadini kamaytirish bo‘yicha quyidagi soliq to‘lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi

yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Bu imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati yoki O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarning tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki

frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz onalar. Bu imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Bu imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, bolalar tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar, yangi nikohdan o‘tmaganlik hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma’lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogironligi bo‘lgan shaxs, doimiy parvarishni talab etadigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota yoki ona. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog‘liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma’lumotnomasi asosida beriladi.

380-moddada nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo‘llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo‘lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e’tiboran qo‘llaniladi.

Agar soliq to‘lovchi 380-moddada nazarda tutilgan bir nechta asos bo‘yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo‘lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo‘llash soliq to‘lovchining asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi bo‘yicha, asosiy ish joyi mavjud bo‘lmagan taqdirda esa — yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida

amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan taqdirda, soliq to‘lovchi imtiyozga bo‘lgan huquqni yo‘qotgan paytidan e’tiboran o‘n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma’lum qilishi kerak.

380-moddaning birinchi qismida sanab o‘tilgan soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozini qo‘llash asosiy ish joyi bo‘yicha amalga oshiriladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy bo‘lmagan ish joyi bo‘yicha hisoblansa, soliq imtiyozi jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish chog‘ida soliq to‘lovchining yashash joyidagi soliq organlari tomonidan qo‘llaniladi. Shunga o‘xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

16.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq stavkalari

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konseptsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab mehnatga haq to‘lash fondiga soliq yukini kamaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ish haqining oshirilishi, ishchilar sonini legallashtirilishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishini ta’minlash hamda aholi real daromadlarini yanada oshirish maqsadida barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining progressiv shkalasidan voz kechilib, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-508-son Qonuni 2-modda, 32-bandiga muvofiq Soliq kodeksining 181-moddasiga kiritilgan o‘zgarishga asosan tekis (proportsional) yagona 12 foizlik stavkasi joriy etildi. Shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo‘naltiriladigan bo‘ldi. Qolaversa, fuqarolarning mehnatga haq to‘lash turidagi daromadlaridan Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga

ushlab qolinadigan sug‘urta badallari bekor qilindi. Bugungi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarini soliq to‘lovchilarning rezident va norezidentligi, daromadlarning shakllanish manbaiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan soliq stavkasi;
- Jismoniy shaxslar ayrim toifalarining tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlariga nisbatan soliq stavkalari;
- O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning dividendlar va foizlar tariqasida oladigan daromadlariga nisbatan soliq stavkasi;
- norezident jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga nisbatan soliq stavkalari;
- ayrim hollarda imtiyozli soliq stavkalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari daromadlarga nisbatan ma’lum foiz ko‘rinishida, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarning (ularning tanloviga ko‘ra) daromadiga bog‘liq bo‘lmagan holda qat’iy summalar ko‘rinishida bo‘ladi. Shunga ko‘ra rezident va norezident jismoniy shaxslar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida alohida belgilab qo‘yilgan.

1998-1999-yillarda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq besh pog‘onali 15%, 25%, 35%, 40% va 45% shkala bo‘yicha olingan bo‘lsa, 2001-2014- yillardan boshlab uchta pog‘onali, 2015-2018 yillardan esa to‘rt pog‘onali shkala bo‘yicha undiriladi. (15-jadval).

Soliq kodeksining 381-moddasiga muvofiq **O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari quyidagicha:**

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, agar 381 moddaning ikkinchi qismida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 12 foizlik soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

11- jadval

2001-2022- yillarda daromad solig‘ining stavkalari dinamikasi (%, foizda)

Eng kam oylik ish haqining miqdori	2001 yil	2002 yil	2003 yil	2004 yil	2005 yil	2006 yil	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016-17	2018 yil	2019-22
1 barobar	**12**	**13**	**13**	**13**	**13**	**13**	**13**	**13**	**12**	**11**	**10**	**9**	**8**	**7,5**	**0 %**	**0 %**	**0 %**	**12**
2 barobar															**7,5**	**8,5**	**7,5**	
3 barobar																		
4 barobar																		
5 barobar	**25**	**23**	**22**	**21**	**21**	**20**	**18**	**18**	**17**	**17**	**16**	**16**	**16**	**16**	**17**	**17**	**16,5**	
6 barobar																		
7 barobar																		
8 barobar																		
9 barobar	**36**	**33**	**32**	**30**	**30**	**29**	**25**	**25**	**22**	**22**	**22**	**22**	**22**	**22**	**23**	**23**	**22,5**	
10 barobar																		
10 baroba-ridan yuqori																		

Jismoniy shaxslarning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga solinadigan soliq stavkalari

Soliq kodeksining 382-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo‘yicha soliq solinadi (11-jadval):

12- jadval

№	Soliq obyekti	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Dividendlar va foizlar	10
2.	Xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3.	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo‘yicha olingan daromadlar	20*

*2022-yil 1 maydan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga 12 foizlik daromad solig‘i stavkasi belgilandi (“Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi Prezident farmoniga asosan 08.04.2022-yil).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 yanvardagi "Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-90-son Qarori tasdiqlandi.

Unga ko‘ra quyidagi imtiyozlar taqdim etiladi:

2022 yil 1 apreldan 2024 -yil 31 dekabrga qadar:

▼ O‘zbekiston rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning aktsiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlari daromad solig‘idan ozod qilinadi;

▼O‘zbekiston norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning aktsiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O‘zbekiston rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar singari foyda solig‘ining 5 foiz stavkasi tatbiq etiladi;

▼O‘zbekiston rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo‘yicha hisoblangan

foizlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘idan ozod qilinadi.

2022 yil 1 iyuldan boshlab qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushgan savdosida qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (emitent bundan mustasno) tomonidan foyda solig‘i va daromad solig‘i o‘rniga bitim summasining 0,3 foizi miqdorida yig‘im to‘lanadi.

16.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va ushlab qolish tartibi

Soliq kodeksining 385-moddasiga muvofiq soliq quyidagilar tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lanadi:

1) soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan soliq agentlari tomonidan;

2) soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda.

Soliq to‘lovchilarning alohida toifalari soliqni:

Soliq kodeksining 392-moddasida belgilangan tartibda qat’iy belgilangan miqdorda to‘lashni;

Soliq kodeksining 397-moddasida belgilangan tartibda jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lashni tanlashga haqli.

Soliq kodeksi 385-moddaning ikkinchi qismidagi qoidalar quyidagi toifadagi soliq to‘lovchilarga tatbiq etiladi:

1) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi kalendar yilida yuz million so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga. Agar kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi belgilangan miqdordan oshsa, yakka tartibdagi tadbirkor Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda aylanmadan soliq yoxud qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lashga o‘tadi.

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolariga;

4) «Hunarmand» uyushmasi a’zolari bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlariga.

Soliq kodeksi 385-moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar soliq to‘lash tartibini quyidagilar orqali tanlashga haqli:

1) tadbirkorlik subyektining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi chog‘ida tanlangan soliq to‘lash tartibini ko‘rsatish;

2) doimiy yashash joyi bo‘yicha soliq organlariga joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmasdan tanlangan soliq to‘lash tartibi to‘g‘risida bildirish xati taqdim etish.

Hisoblab chiqarilgan soliq summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblangan jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan majburiy oylik badallar summasiga kamaytiriladi.

Soliq kodeksi 385-modda birinchi qismining 1-bandiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq soliq agenti tomonidan hisoblab chiqariladi va to‘lov manbaida ushlab qolinadi.

Soliq kodeksining 386-moddasiga muvofiq soliqni to‘lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o‘tkazish majburiyati soliq to‘lovchiga daromad to‘laydigan va soliq agentlari deb e’tirof etilgan quyidagi shaxslarning zimmasiga yuklatiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

3) O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarga;

4) O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning vakolatxonalariga;

5) Soliq kodeks 351-moddasi ikkinchi qismining 5-bandida ko‘rsatilgan mol-mulkni sotib olgan jismoniy shaxslarga;

6) soliq to‘lovchining mol-mulkini ishonchli boshqarishni amalga oshiruvchi ishonchli boshqaruvchiga.

Soliq kodeksi 386-modda birinchi qismining 5-bandida ko‘rsatilgan shaxslar Soliq kodeksining 356-moddasida nazarda tutilgan tartibda

soliqni hisoblab chiqarish, ushlab qolish va budjetga o‘tkazishni amalga oshiradi.

Soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani va u bilan bog‘liq penyani Soliq kodeksiga muvofiq budjetga o‘tkazishi shart.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingan summasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shaklda ma’lumotnoma berishi shart.

Soliq kodeksining 388-moddasiga muvofiq soliq agentlari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra soliq agentlari soliq hisobining registrlarida jismoniy shaxslarning ulardan soliq davrida olgan daromadlari, jismoniy shaxslarga to‘lov manbaida qo‘llanilgan soliq imtiyozlari, hisoblab chiqarilgan va ushlab qolingan soliqlar hisobini yuritadi.

Soliq hisobi registrlarining shakllari, ularda soliq hisobining tahliliy ma’lumotlarini hamda birlamchi hisobga olish hujjatlari ma’lumotlarini aks ettirish tartibi soliq agenti tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Mazkur shakllarda soliq to‘lovchini identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma’lumotlar, soliq to‘lovchilarga to‘lanadigan daromad turlari va to‘lov manbaida unga qo‘llanilgan soliq imtiyozlari, ularni to‘lash sanasi, soliq to‘lovchining maqomi, soliqni ushlab qolish va to‘lash sanasi ko‘rsatilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solish soliq agentlari tomonidan soliq bazasi hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to‘lovchining Soliq kodeksining 387-moddasida ko‘rsatilgan daromadlaridan hisoblangan soliq summasini ushlab qolishi shart.

Soliqning hisoblangan summasini soliq to‘lovchidan ushlab qolish, soliq agenti soliq to‘lovchiga to‘layotgan har qanday pul mablag‘lari hisobidan, bu pul mablag‘lari soliq to‘lovchiga yoki uning topshirig‘iga binoan uchinchi shaxslarga to‘lanayotganda amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo‘limda belgilangan soliq bazasi hamda soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda, daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan e’tiboran har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq to‘lovchining ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa soliq agentlaridan sovg‘a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslarning soliq summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs yillik jami daromadi to‘g‘risida deklaratsiya topshirganda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi joriy yilda o‘ziga to‘langan daromadlar va ushlab qolingan soliq summalari to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyidagi soliq agentiga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o‘qish) joyidan ma’lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, tegishli imtiyozlar qo‘llanilmagan holda ushlab qolinadi. Ma’lumotnoma va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilgan taqdirda, soliq summasi ilgari asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida soliqni hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan e’tiboran ilgarigi va yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilingandan keyin xodimga ilgarigi ish joyidan to‘lov amalga oshirilganda, bunday to‘lovlar tegishli soliq imtiyozlari qo‘llanilmagan holda soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan soliqning yakuniy summasi jami yillik daromad to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha soliq organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq kodeksining 389-moddasiga muvofiq soliq agentlari o‘zlarining soliq bo‘yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

1) soliq davri tugaganidan keyin o‘ttiz kun ichida — soliq organlariga to‘lov manbaidan soliq solinmagan moddiy naf tarzida daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotnomani;

2) har oyda, hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida hisoblangan va haqiqatda to‘langan daromadlar summalari hamda ushlab qolingan soliqning summalari to‘g‘risidagi — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakldagi ma’lumotlarni. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar yil yakunlari bo‘yicha hisoblangan va amalda to‘langan daromadlarning summalari hamda ushlab qolingan, soliq summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo‘lgan, xodimlari 25 nafardan ortiq bo‘lgan alohida bo‘linmalarga va (yoki) filiallarga ega soliq agentlari, bundan yirik soliq to‘lovchilar mustasno, ushbu alohida bo‘linmalar va (yoki) filiallar xodimlariga nisbatan 389-moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan soliq hisobotini — alohida bo‘linmalar va (yoki) filiallar hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

Soliq kodeksining 390-moddasiga muvofiq to‘lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to‘lovchiga daromadlarni

to‘lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to‘lanadi.

Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq natura tarzidagi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida to‘lanadi.

Soliq kodeksining 391-moddasiga muvofiq, soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining daromadidan ortiqcha ushlangan soliq summasi soliq to‘lovchining yozma arizasiga asosan qaytarilishi lozim.

Soliq agenti tomonidan bir soliq davri ichida ortiqcha ushlangan soliq summasi qaytariladi.

Soliq to‘lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish daromadlaridan bunday soliq agenti tomonidan ushlab qolinadigan soliq to‘lovchi bo‘yicha ham, boshqa soliq to‘lovchilar bo‘yicha ham kelgusi to‘lovlar hisobidan budjet tizimiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ushbu soliq summasi hisobidan, soliq agenti soliq to‘lovchining tegishli arizasini olgan kundan e’tiboran uch oy ichida soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchiga ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish soliq agenti tomonidan soliq to‘lovchining arizasida ko‘rsatilgan bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Soliq agenti bo‘lmaganda yoxud ushbu bandning ikkinchi qismida belgilangan soliq davri tugaganda, soliq to‘lovchi soliq davrining yakuniga ko‘ra soliq deklaratsiyasini bir vaqtning o‘zida taqdim etgan holda, ilgari soliq agenti tomonidan ortiqcha ushlangan va budjet tizimiga o‘tkazilgan soliq summasini qaytarish to‘g‘risida soliq organiga ariza berishga haqli.

Soliq davrida O‘zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini olgan soliq to‘lovchi ushbu soliq davrida norezident maqomida to‘lagan soliq summasini qayta hisob-kitob qilishga va qaytarib olishga haqli. Soliq summasini soliq to‘lovchiga qaytarish soliq to‘lovchi Soliq kodeksining 397-moddasida belgilangan tartibda ko‘rsatilgan soliq davri yakuniga ko‘ra soliq deklaratsiyasini taqdim etgan taqdirda yashash joyi

(turgan joyi) bo‘yicha hisobga qo‘yilgan soliq organi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu deklaratsiyaga mazkur soliq davrida O‘zbekiston Respublikasining rezidenti maqomini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Soliq agentlari tomonidan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish tartibi.

1-vaziyat: Pul shaklidagi daromadlarini hisobga olgan holda JShDS hisob kitobi:

Xodimga yanvar oyida hisoblangangan ish haqi- 3 100 000 so‘m.

Jami daromadi: 3 100 000 so‘m

Soliq hisoblash: 3 100 000*12%=372 000 so‘m.

ShJBPH majburiy badallar summasi: 3 100 000*0,1%=3 100 so‘m.

Yanvar oyi uchun budjetga: 372 000-3 100=368 900 so‘m soliq summasi o‘tkaziladi.

Xodimga: 3 100 000 - 372 000=2 728 000 so‘m to‘lanadi.

2-vaziyat: Har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi imtiyozni hisobga olgan holda JShDS hisob kitobi:

Afg‘on urushi qatnashchisi bo‘lgan xodim:

Yanvar oyida hisoblangan ish haqi- 2 800 000 so‘m.

Jami daromadi: 2 800 000 so‘m.

Soliq solinadigan daromad hisob-kitobi: 2 800 000 - (679 330 x 1,41) = 1 842 145 so‘m.

Soliq hisoblash: 1 842 145 x 12% = 221 057 so‘m.

ShJBPHga majburiy badallar summasi: 1 842 145 x 0,1 %= 1 842 so‘m.

Yanvar oyi uchun budjetga: 221 057-1 842 = 219 215 so‘m soliq summasi o‘tkaziladi.

Xodimga: 2 800 000 - 221 057=2 578 943 so‘m to‘lanadi.

3-vaziyat: Moddiy yordam olinganda imtiyozni (mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda) hisobga olgan holda JShDS hisob kitobi:

Xodimga yanvar oyida hisoblangan ish haqi- 1 400 000 so‘m.

Farzandli bo‘lganligi munosabati bilan 2 800 000 so‘m moddiy yordam ko‘rsatilgan.

Jami daromadi: 4 200 000 so‘m.

Soliq solinadigan daromad hisob-kitobi: 4 200 000 – 2 800 000 = 1 400 000 so‘m.

Soliq hisoblash: 1 400 000 x 12% = 168 000 so‘m.

ShJBPHga majburiy badallar summasi: 1 400 000 x 0,1 % = 1 400 so‘m.

Yanvar oyi uchun budjetga: 168 000-1 400 = 166 600 so‘m soliq summasi o‘tkaziladi.

Xodimga: 4 200 000 – 168 000 =4 032 000 so‘m to‘lanadi.

4-vaziyat: Natura shaklidagi daromadlarni hisobga olgan holda JShDS hisob kitobi:

Yanvar oyida hisoblangan ish haqi- 1 500 000 so‘m.

Unga 2 000 000 so‘mlik kir yuvish mashinasi ham sovg‘a qilingan.

Jami daromadi: 3 500 000 so‘m.

Ish beruvchidan soliq davri mobaynida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi natura shaklida olingan sovg‘alar soliqqa tortilmaydi.

Soliq solinadigan daromad hisob-kitobi: 3 500 000 – (679 330*2,11) = 2 066 613,7 so‘m.

Soliq hisoblash: 2 066 613,7 x 12% = 247 993,6 so‘m.

ShJBPHga majburiy badallar summasi: 2 066 613,7 x 0,1 % = 2 066 so‘m.

Yanvar oyi uchun budjetga: 247 993,6 – 2 066 = 245 927,6 so‘m soliq summasi o‘tkaziladi.

Xodimga: 3 500 000 – 247 993,6=3 252 006,4 so‘m to‘lanadi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonlari soliq munosabatlari orqali tavsiflanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining bir bo‘g‘ini

hisoblanib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida amalga oshirilayotgan soliq siyosati mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli tarzda ta’sir etadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i eng barqaror soliq. Soliqning o‘sish dinamikasi butun soliq tizimi bo‘yicha soliqlarning o‘sishiga mos keladi. Soliqning salmog‘i barqaror. Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- iqtisodiy faollikning tiklanishi, tegishincha, ish haqining o‘sishi - o‘rtacha ish haqi 2018- yildan buyon 177,7%ga oshdi;

- budjet sektorida ish haqining eng kam miqdorini oshirish. Masalan, 2021- yilda 2020- yildagiga nisbatan o‘rtacha 12,8%ga. 2021 yil boshidan budjet tashkilotlarida 2020-yilda vaqtincha to‘xtatilgan moddiy rag‘batlantirish to‘lovlarini qisman tiklash;

- asosan qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlardan tushumlarning o‘sishi – 2021-yilda 396,7 mlrd so‘mni tashkil etdi, bu 2020- yildagiga nisbatan 110,4 mlrd so‘mga ko‘pdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solish obyektiga nimalar kiradi ?
3. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi nimalardan iborat ?
4. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga qanday daromadlar kiradi?
5. Mulkiy daromadlar qanday daromadlardan iborat ?
6. Moddiy naf tarzidagi daromadlar bo‘lib qanday daromadlar hisoblanadi?
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari joriy etilgan ?

8. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha qanday soliq stavkalari belgilangan ?

9. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va ushlab qolish tartibi qanday ?

Testlar

1. Quyidagilarning qaysi biri soliq obyekti hisoblanadi?

A. Daromad

B. Mulk

C. Oborotdagi mablag‘

D. Barchasi to‘g‘ri

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qaysi guruhga kiradi?

A. Bevosita soliqlar

B. Bilvosita soliqlar

C. Resurs soliqlari

D. O‘zgaruvchan soliqlar.

3. Jismoniy shaxslar qanday holatda foyda solig‘ini to‘lashi mumkin?

A. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida yillik aylanmasi bir milliar so‘mdan oshgandan so‘ng

B. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida yillik aylanmasi 100 million so‘mdan oshgandan so‘ng

C. Har qanday jismoniy shaxs ixtiyoriga ko‘ra foyda solig‘ini to‘lashi mumkin

D. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida yillik aylanmasi 5 million so‘mdan oshgandan so‘ng

4. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi necha foiz?

A. 12 foiz

B. 13 foiz

C. 15 foiz

D. 9 foiz

5. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi nimadan iborat?

A. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlar

B. Mehnat haqi, mulkiy daromadlar

C. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mehnat haqi

D. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar

6. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkasi qaysi stavka turiga mos keladi?

A. Proportsional

B. Progressiv

C. Foizli

D. Regressiv

7. 2018 yilda jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq stavkalari necha foiz etib belgilangan edi?

A. 0%, 7,5%, 16,5%, 22,5%

B. 9%, 16%, 22%

C. 8%, 16%, 22%

D. 13%, 23%, 33%

8. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar _____ orqali ro‘yxatdan o‘tishi mumkin.

A. “Soliq” mobil ilovasi

B. Soliq inspektsiyasiga borish

C. Qo‘ng‘iroq qilish yoki xat yuborish

D. Yagona darcha orqali

9. Jismoniy shaxslar tomonidan ijaraga berilgan mol-mulki uchun daromad solig‘i necha foiz?

A. 12%

B. 7%

C. 10%

D. 20%

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi Qonuni, -T.: Xalq so‘zi, 2006 yil, 21 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
4. Almardonov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2012.- 220 bet
5. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik-T:.Sharq, 2009. 448 bet.

   Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007. - 320 bet.

17-MAVZU. IJTIMOIY SOLIQ

17.1. Ijtimoiy soliqni to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarni hisoblash va to‘lash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg‘armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy to‘lov nomi bilan 2004 yil 1 yanvardan amal qilib kelmoqda[60].

“O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va ko‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599-sonli Qonuni (30.12.2019 yil) 4-moddasiga asosan yagona ijtimoiy to‘lov o‘rniga ijtimoiy soliq kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 402-moddasiga muvofiq *ijtimoiy soliq to‘lovchilari* bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari;

Soliq kodeksining 408 va 409-moddalarida nazarda tutilgan tartibga muvofiq ijtimoiy soliq to‘laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 403-moddasiga muvofiq *ijtimoiy soliq soliq solish obyekti* bo‘lib Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta’minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan

[60] Vahobov A., Jo’raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - T:.Sharq, 2009. 271-bet.

yuridik shaxsga to‘lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektidir.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi yoki sog‘ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash tarzidagi, Soliq kodeksi 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

paxta yig‘im-terimi bo‘yicha mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to‘lashga doir xarajatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 404-moddasiga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi Soliq kodeksning 371-moddasiga (mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar) muvofiq to‘lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to‘lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Soliq kodeksi 403-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta’minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnoma

bo‘yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo‘lmagan summada belgilanadi.

17.2. Ijtimoiy soliq stavkalari, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 405-moddasiga muvofiq ijtimoiy soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

13-jadval

t/r	Ijtimoiy soliqni to‘lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Soliq to‘lovchilar, bundan 2 — 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Budjet tashkilotlari	25
3.	«SOS — O‘zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar	4,7

Ijtimoiy soliqni to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 406-moddasiga muvofiq ijtimoiy soliq bo‘yicha kalendar yil soliq davridir. Yil oyi hisobot davridir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 407-moddasiga muvofiq ijtimoiy soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Ijtimoiy soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari bo‘yicha, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo‘yicha soliqni to‘lash majburiyati O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo‘yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25-martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to‘lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

17.3. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari

Soliq, agar Soliq kodeksi 408-moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq to‘lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’i nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosi tomonidan — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a’zolari tomonidan (bundan o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar mustasno) — oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

Mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek ishlamaydigan eri (xotini) uchun soliq to‘lovini amalga oshiruvchi ishlayotgan fuqarolar tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda, quyidagi soliq to‘lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to‘lanadi:

“Hunarmand” uyushmasining a’zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari;

“Usta-shogird” maktablari o‘quvchilari — ular yigirma besh yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrda;

dehqon xo‘jaliklari, shuningdek maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo‘jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to‘laydi, boshqa a’zolari va ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to‘laydi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo‘lgan “Hunarmand” uyushmasining a’zolari soliq to‘lashdan ozod etiladi, 408-moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan qolgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun esa soliq miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi

yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozlarga bo‘lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq yuzaga kelgan yoki tugatilgan oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 408-moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan — har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 408-moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan — hisobot yilining 1-dekabrigacha amalga oshiriladi. Bunda soliqning miqdori to‘lov kunida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a’zolari tomonidan soliqni to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash majburiyati:

yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a’zolari uchun — oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a’zosining;

yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun — ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

To‘lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to‘lov kiritilayotgan davr ko‘rsatilishi shart. Bunda oila a’zolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘yicha to‘lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a’zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to‘lov topshiriqnomasida (kirim

orderida) davr koʻrsatilmagan boʻlsa, toʻlov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xoʻjaliklari aʼzolari uchun — yil) uchun toʻlangan deb hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik toʻxtatib turilganligi toʻgʻrisida soliq organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor oʻz faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun soliqni hisoblashni toʻxtatib turish uchun asos boʻladi.

Soliq organlari tomonidan olingan, har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor oʻz faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga soliqni hisoblashni toʻxtatib turish uchun asos boʻladi.

Agar faoliyatini toʻxtatib turgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini soliq organiga belgilangan muddatlarda topshirmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari boʻyicha soliqni hisoblash toʻxtatilmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 408-moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan soliq toʻlovchilar soliqni Soliq kodeksining 405-moddasida koʻrsatilgan soliq stavkalari boʻyicha jami yillik daromad toʻgʻrisida deklaratsiyada koʻrsatilgan mehnatga haq toʻlash tarzida olingan daromadlar summasidan kelib chiqib, biroq ushbu moddada belgilangan uning eng kam miqdoridan kam boʻlmagan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda toʻlash haqida jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida toʻlashga haqli. Bunda toʻlanishi lozim boʻlgan soliqning uzil-kesil summasi 408-moddaning birinchi — beshinchi qismlariga muvofiq toʻlangan summalarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 409-moddasiga hamda qonunchilikka muvofiq soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar soliqni jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyada koʻrsatilgan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar

summasidan kelib chiqqan holda, soliqni ixtiyoriy ravishda to‘lash haqida jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy asosda to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 409-moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan soliqni to‘lash jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya ma’lumotlari bo‘yicha soliq organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddatlarida amalga oshiriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy soliqni to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?
2. Ijtimoiy soliqni solish obyekti va soliq solinadigan bazasi qanday aniqlanadi?
3. Ijtimoiy soliq bo‘yicha qanday imtiyozlar nazarda tutilgan?
4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy soliqni o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Testlar

1. Ijtimoiy solig‘ini to‘lovchilar kimlar?

A) Yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ayrim toifalari

B) Budjet muassasalari xodimlari

C) Fermer xo‘jaliklari ishchilari

D) Xususiy korxona rahbari

3. Ijtimoiy soliq to‘lovchilar hisoblanmaydigan javobni belgilang

A) Paxta yig‘im-terimi bo‘yicha mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar

B) Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari

C) Budjet muassasalari xodimlari

D) Dehqon xo‘jaliklari boshqaruvchilari

4. Qaysi javobda ijtimoiy soliqning soliq solish obyekti ko‘rsatilgan?

A) Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir

xarajatlari

B) Paxta yig‘im-terimi bo‘yicha mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar

C) Ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash tarzidagi xarajatlari (ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari bundan mustasno)

D) Innovatsiya markazi rezidentlari

5. Ijtimoiy soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun pasaytirilgan soliq stavkalari kaysi meyoriy xujjatga asosan belgilanishi mumkin?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan

B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qaroriga asosan

C) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq kumitasi raisi qaroriga asosan

D) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri qaroriga asosan

6. Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy soliq stavkasini necha foiz?

A) 4,7 foiz

B) 7 foiz

C) 12 foiz

D) 25 foiz

7. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalarga ijtimoiy soliq stavkasi necha foiz?

A) 12 foiz

B) 7 foiz

C) 4,7 foiz

D) 25 foiz

8. Budjet tashkilotlariga ijtimoiy soliq stavkasi necha foiz?

A) 25 foiz

B) 7 foiz

C) 4,7 foiz

D) 12 foiz

9. Yakka tartibdagi tadbirkorlar ijtimoiy soliqni qancha miqdorda to‘laydilar?

A) Oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan kam bulmagan miqdorda

B) 822 000

C) 25 foiz

D) 12 foiz

10. Yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan oyiga qancha miqdorda ijtimoiy soliq to‘lanadi.

A) bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida

B) bazaviy hisoblash miqdorida

C) bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo‘lmagan

D) bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi miqdorida

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrda qabul kilgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minot to‘g‘risida»gi Qonuni
4. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
5. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.

18-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

18.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni

O‘zbekistonda 1991 yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonun respublikamizda yangi soliq tizimi shakllanishini boshlab berdi. Bu Qonun birinchi bor soliq tizimining tuzilishini va ishlashining umumiy mexanizmini aniqlab berdi, soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar ro‘yxatini, ularni hisoblash va undirish tartibini, soliq to‘lovchilarning burchlari va javobgarligini ko‘rsatdi.

Ushbu Qonunga ko‘ra, 1992 yil 1 yanvardan e’tiboran korxonalar mol-mulkiga soliq joriy qilindi va mamlakatimiz soliq tizimida yangi muhim mahalliy soliq amal qila boshladi.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar 1997 yilgacha alohida mol-mulk solig‘ini va transport vositalari uchun soliqni to‘lardilar. Bunda korxona balansida turuvchi asosiy ishlab chiqarish fondlarining balans (eskirish hisobga olinmagan) qiymati soliq obyekti hisoblanardi. Soliqlarni unifikatsiyalash qoidasiga asosan 1997 yildan boshlab yuqoridagi ikkita soliq o‘rniga yagona – korxonalar mol-mulk solig‘i undirila boshlandi.

Korxonalarning mol-mulkidan olinadigan soliq bevosita soliqlar tarkibiga kiradi va mol-mulk egasidan undiriladi. Mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortiladigan mol-mulkdan foydalanish tufayli aniq bir iqtisodiy shart-sharoitlarda olinadigan muayyan o‘rtacha daromadning bir qismini budjetga undirishdir. Bundan soliqning rag‘batlantiruvchi vazifasi kelib chiqib, mol-mulkdan ishlab chiqarishda samarali foydalanish, xom-ashyo, materiallarning foydalanilmaydigan zahiralarini, likvidsizlikni va tugallanmagan ishlab chiqarishni hajmini qiskartirishdan iborat.

Mol-mulk solig‘ini O‘zbekiston Respublikasi hududida joriy etishdan maqsad: birinchidan, korxonalarda o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishi bilan bog‘liq faoliyatlarida ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkni sotishga qiziqishni uyg‘otish;

Ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat.

Ushbu soliq moliyaviy nuqtai nazardan olganda, rag‘batlantiruvchilik va nazorat qilish, mahalliy budjetlarni to‘ldirish nuqtai nazaridan esa, fiskal vazifalarini bajaradi.

Hozirgi vaqtda mol-mulk solig‘ining huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar hisoblanadi.

Mol-mulk solig‘i soliq tizimida o‘z o‘rniga va boshqa soliqlarga nisbatan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- mulk solig‘i soliq obyekti bo‘lgan mulkning soliqqa tortish maqsadida buxgalteriya balansida ko‘rsatilgan aniq qiymati asosida undiriladi ya’ni unga nisbatan hech qanday chegirma yoki qo‘shilmalar qo‘shilmaydi;
- mulk solig‘i soliqqa tortiladigan mulklarga moliya-xo‘jalik faoliyatida foydalanish yoki foydalanmasligidan qat’iy nazar soliq solinadi, hattoki ikki barobar miqdorida ham undirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig‘imlar tizimi birmuncha mukammal holda 1993 yil 7 maydagi “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganidan so‘ng vujudga keldi. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budjetga o‘tkaziladi.

18.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 410-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksning 411-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘chmas mulkka ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar.

Agar ko‘chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlashning imkoni bo‘lmasa, ushbu mulkka egalik qiluvchi va (yoki) undan foydalanuvchi shaxs soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Agar yuridik shaxs ko‘chmas mulkni moliyaviy ijaraga (lizing) olgan bo‘lsa, u ham soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 411-moddasiga muvofiq ko‘chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko‘rsatilgan turar joy ko‘chmas mulk obyektlari, ko‘chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o‘tgach.

Quyidagi ko‘chmas mulk obyektlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligining va belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi obyektlari. Uy-joy-kommunal hamda boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya jihatdan tozalash, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar hamda issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash, boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash, ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlash-tirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan binolar kiradi;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari;

4) sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari;

5) soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar;

6) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong‘in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong‘in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlar jumlasiga kiritish tegishli ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yoki yong‘in xavfsizligi organining ma’lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

7) yer uchastkalari.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq bazasidir:

1) Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 1 va 3-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko‘chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 1-bandida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas:

Toshkent shahrida — ikki million besh yuz ming so‘m;

Nukus shahrida va viloyat markazlarida — bir million besh yuz ming so‘m;

boshqa shaharlarda va qishloq joylarda — bir million so‘m;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,5 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritishi mumkin;

Agar obyektning 1 kv. metri qiymati ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatdan past bo‘lsa, soliq to‘lovchi ko‘chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirishga haqli. Bunda mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida e’tirof etiladi;

2) Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar bo‘yicha — tugallanmagan qurilishning o‘rtacha yillik qiymati;

3) Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida belgilangan obyektlar bo‘yicha — mazkur obyektlarning o‘rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo‘yicha).

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o‘rtacha yillik qiymatidir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 413-moddasiga muvofiq Soliq bazasi quyidagicha, ya’ni: Soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (o‘rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o‘rtacha yillik qiymatlarini) qo‘shishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha soliq bazasi mazkur obyektlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliqni to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritishning imkoni bo‘lmasa, soliq bazasi soliq to‘lanishi nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning jami sof tushum hajmidagi ulushiga qarab aniqlanadi.

18.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari, soliqdan belgilangan imtiyozlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 414-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o‘rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

1) madaniyat va san’at, ta’lim, sog‘liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta’minot obyektlarining;

2) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi korxonalari balansida bo‘lgan mol-mulkning;

3) yangi neft va gaz quduqlarining — ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi qo‘llaniladi.

Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo‘lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo‘lgan) o‘rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e’tiboran o‘n yil muddatga.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 415-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 1,5 foiz miqdorida belgilanadi.

Agar 415-moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyekt-larga nisbatan soliq stavkasi 3 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan ta’sir choralari qo‘llanilishi

mumkin hamda Soliq kodeksining 414-moddasida ko‘rsatilgan soliq imtiyozlari ularga tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,5 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko‘chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

18.4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 417-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi keltirilgan.

Soliq to‘lovchilar soliqni Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq hisoboti soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan esa soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevraliga qadar bo‘lgan muddatda taqdim etiladi.

Agar ko‘chmas mulk, Soliq kodeksi 411-moddasining ikkinchi qismi 3-bandida ko‘rsatilgan obyektlardan tashqari, soliq to‘lovchining soliq bo‘yicha hisobga olish joyida joylashmagan bo‘lsa, soliq hisoboti ko‘chmas mulk joylashgan erdagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar (bundan O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar mustasno) soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarni to‘laydi.

Bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 10-yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan (tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o‘rtacha yillik qiymatidan) va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri mobaynida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Ushbu moddaning to‘rtinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar quyidagicha to‘lanadi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay;

aylanmadan soliq to‘lovchilar hisoblanmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan — yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo‘ljallanayotgan soliq bazasi o‘zgargan taqdirda soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lovlarga soliqning o‘zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi, bo‘nak to‘lovlar hisobga olingan holda, soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay budjetga o‘tkaziladi.

Soliq davrida soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq

summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan soliq har yili bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to‘lanadi.

Qisqacha xulosalar

Mulk moddiy ne’matlarni o‘zlashtirib olish ijtimoiy va yuridik shakli bo‘lib, kishilar hayotiga va jamiyatga hal qiluvchi ta’sir etadi. Mulk munosabatlari birlamchi bo‘lib, boshqa munosabatlarning xususiyatlari unga bog’liqdir. Mulk huquqi-shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishiga ko‘ra o‘z manfaatlarini ko‘zlab unga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishni o‘z ichiga oladi. Yuridik shaxslar mulk huquqiga ega bo‘lishi bilan birga ularda mol-mulk uchun soliq to‘lash majburiyati ham yuzaga keladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bevosita soliq bo‘lib, mol-mulkka qaratilgan. U mahalliy budjetga to‘lanadi va shuning uchun mahalliy soliq hisoblanadi. Mol-mulk solig’i proporsional soliq bo‘lib, soliq bazasi o‘zgarishi bilan soliq stavkasi o‘zgarmaydi.

Mol-mulk solig‘ini o‘sish dinamikasi - jami 104,1%, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqning umumiy tushumida soliqning salmog‘i kamayib, uning ulushi esa ahamiyatsiz bo‘lib bormoqda. Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- yuridik shaxslar uchun soliq stavkasini 5%dan 2%gacha jiddiy kamaytirish. 2022 yildan boshlab stavka 1,5%gacha pasaytiriladi;

- yangi ko‘chmas mulkni foydalanishga topshirish, shuningdek o‘tkazilgan inventarizatsiya doirasida kadastr organlarining hisob ma’lumotlarida hisobga olinmagan ko‘chmas mulk obyektlarini aniqlash hisobiga soliq solinadigan ko‘chmas mulk obyektlari sonining

o‘sishi stavkalar pasayishini qisman kompensatsiya qilishi mumkin. Moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yil yakunida ko‘chmas mulk obyektlari soni qariyb 8 mln obyektni, shu jumladan, 7,5 mln uy-joy fondini tashkil etdi;

- bundan tashqari, soliq stavkasining pasayishi 2022 yildan boshlab soliq bazasi belgilangan minimal qiymatdan kelib chiqqan holda hisoblanganidan past bo‘lmasligi hisobiga qisman kompensatsiya qilinishi mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ini tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Mol-mulk solig‘ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?
4. Mol-mulk bo‘yicha soliqqa tortiladigan obyekt va soliq solinadigan bazaga nimalar kiradi?
5. Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq stavkalari qanday belgilangan?
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga o‘tkazish tartibi qanday?

Testlar

1. Qaysi javobda mol-mulk solig‘ining soliqqa tortish obyekti berilgan?

A) Asosiy vositalar, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar, tugallanmagan qurilish obyektlari

B) Nomoddiy aktivlar, transport vositalari

C) Kapital qo‘yilmalar, belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob uskunalar

D) Ko‘chmas mulk.

2.Yuridik shaxslarning mol-mulk solig’i bazasi:

A) asosiy vositalar qiymati;

B) asosiy vositalarning tiklanish qiymati;

C) asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati;

D) asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati.

3. Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘iga solinadigan soliq stavkasi 2022 yildan boshlab necha foiz qilib belgilangan?

A) 1,5 %

B) 1,8 %

C) 4%

D) 3 %.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.
5. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.- 123-132-betlar.

19-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG‘I

19.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati, me’yoriy-huquqiy asoslari va davlat budjeti daromadlaridagi salmog‘i

O‘zbekistonda mol-mulk solig‘i joriy qilinishidan asosiy maqsad davlat budjetini doimiy va barqaror daromadini ta’minlash, salmog‘ini oshirish hamda jismoniy shaxslarning mavjud mol-mulklaridan samarali va o‘z o‘rnida foydalanish hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1993- yil 7- maydagi “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan joriy qilingan bo‘lib, bu soliq turi O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida 1994- yil 1- yanvardan joriy qilingan. 2002- yil 1- yanvargacha soliqqa tortiladigan mol-mulklar ro‘yxati 2 qismdan iborat bo‘lgan:

1. Ko‘chmas mulklar (uy joy, kvartira, garaj, dala xovli, chorbog‘ uylar, bino va inshootlar);

2. O‘zi yurar transportlar (soliqqa tortiladigan mol-mulkning ushbu 2-qismi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli qaroriga muvofiq mol-mulk solig‘ining soliqqa tortish obyektidan chiqarildi va uning o‘rniga egri soliq sifatida “Jismoniy shaxslarning transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliq” joriy qilindi).

Hozirgi vaqtda mol-mulk solig‘ining huquqiy asosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqli daromadlarida

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tushumlarini qo‘shib hisoblaganda 1,5 – 2,1 foiz oraliqni tashkil etayotganligini quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin (18-19-jadvallar):

18- jadval

Davlat budjetida Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ining 2019-2021 yillardagi ijrosi haqidagi ma’lumot

mlrd so‘m

	2019- yil		**2020- yil**		**2021- yil**		**O‘sish 2021/ 2019**
	Sum ma	Sal-mog‘i %da	sum ma	Sal-mog‘i %da	Sum-ma	Sal-mog‘i %da	%da
Davlat budjeti daromad-lari	**112 165**		**132 938**		**164 681**		**146,8**
shu jumladan:							
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i	19 681	17,5	21 257	16,0	23 036	14,0	117,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

18-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki davlat budjetiga resurs to‘lovlari va mol-mulk soliqlardan tushum 2019 yilda 19681,0 mlrd. so‘mni, 2020 yilda ushbu soliqlardan tushum 21257,0 mlrd. so‘mni, 2021 yilda ushbu soliqlardan tushum 23036,0 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. 2022 yilda esa resurs to‘lovlari va mol-mulk soliqlardan

tushadigan tushum 25690,4 mlrd. so‘mni tashkil qilishi prognoz qilingan. Ularning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 2019 yilda 17,5 foizni, 2020 yilda 16,0%ni, 2021 yilda 14,0%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilda 12,8%ni tashkil etishi rejalashtirilgan.

19- jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimida mol-mulk solig‘ini tutgan o‘rni[61]

	2019- yil		**2020 -yil**		**2021 -yil**		**O‘sish 2021/2019**
	Summa	Sal-mog‘i %da	summa	Sal-mog‘i %da	Sum-ma	salmog‘i %da	**%da**
Davlat budjeti daromad-lari	**112 165**		**132 938**		**164 681**		**146,8**
shu jumladan:							
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i	19 681	17,5	21 257	16,0	23 036	14,0	117,1
3.1 Mol-mulk solig‘i	2 360	2,1	1 974	1,5	2 457	1,5	104,1

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022 yilda davlat budjetining daromadlar qismida resurs to‘lovlari va mol-mulk soliqlari

[61] http://www.mf.uz –O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari

25690,4 mlrd. so‘mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Shundan, mol-mulk solig‘i 3217,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, uning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 1,6 foizni, resurs to‘lovlari va mol-mulk soliqlari tarkibida esa 12,5 foizni tashkil etishi bashorat qilingan.

19.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 418-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Mulkida Soliq kodeksining 419-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti deb tan olinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari (agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa);

2) shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Agar mol-mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo‘lmasa, shuningdek ko‘chmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda, bu mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, o‘sha shaxs soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 419-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini soliq solish obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulklar hisoblanadi:

1) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari;

2) tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari;

3) qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlar.

Qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlarga ushbu obyektni qurishga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar

qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

4) ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 420-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini soliq solinadigan bazasi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining kadastr qiymati;

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qirq ikki million so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emas.

2) jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo‘yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo‘lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati (Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida — qirq ikki million summaning besh baravari miqdorida, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa — ikki baravari miqdorida soliq bazasi hisoblanadi).

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo‘yicha to‘lovchi bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo‘yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

19.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 421-moddasiga muvofiq quyidagilarning mulkida bo‘lgan mol-mulkka soliq solishdan ozod etiladi:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat

ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalari hamda beva xotinlari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)», «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati,

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining tegishli organlari va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralar tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma asosida beriladi.

Tegishincha sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning yoki ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o‘tmagan taqdirda beriladi.

4) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga;

5) yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar. Mazkur imtiyoz yetim bolalarga va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga davlat tomonidan ajratiladigan uy-joy uchun ular yigirma uch yoshga to‘lguniga qadar amal qiladi.

Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida energiya ta’minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma’lumotnoma asosida taqdim etiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi (*bunda shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, yuqorida keltirilgan shaxslar, odatda, mehnatga layoqatli farzandlari bilan yashaydi. Shu nuqtai nazardan mazkur normaning kiritilishi imtiyozlarning manzilliligini ta’minlab beradi*):

1) o‘n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

421-moddada ko‘rsatib o‘tilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

421-moddada belgilangan soliq imtiyozlari mulkdorning tanloviga ko‘ra faqat bitta yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk obyektiga tatbiq etiladi, bundan 421-modda birinchi qismining 4-bandida ko‘rsatilgan shaxslar mustasno.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 422-moddasiga muvofiq soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka (2022 yilda 1,5%) bo‘yicha to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 422-moddasiga muvofiq 2020-2022 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan (20-jadval):

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo‘yicha organlar belgilagan kadastr qiymati bo‘lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 210,0 mln so‘m (42*5), boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 84,0 mln so‘m (42*2) miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro‘yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo‘llaniladi.

20-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkasi[62]

N	Soliq solinadigan obyektlarning nomi	Mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (%da)		
		2020 yil	2021 yil	2022 yil
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.mgacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,2	0,23	0,25
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:			
	200 kv. m dan oshiq va 500 kv. m gacha bo‘lgan	0,25	0,3	0,33
	500 kv. m dan ortiq bo‘lgan	0,35	0,4	0,44
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,25	0,3	0,33
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari		2,0	1,5

[62] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g’risida”gi tegishli qarorlari

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq 422-modda birinchi qismining 1 — 3-bandlarida belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo‘ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 3 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin.

19.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 423-moddasiga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko‘ra bo‘lgan kadastr qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir necha mulkdorlarining umumiy ulushli mulki bo‘lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq har bir mulkdor tomonidan ularning

ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o‘tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e’tiboran u mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa, unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq mulk huquqi yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulk uchun soliq merosxo‘rda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran to‘lanadi.

Soliq solish obyekti yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo‘q qilingan, vayron bo‘lgan yoki buzib tashlangan oydan e’tiboran tugatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo‘q qilinganlik, vayron bo‘lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyozlarga bo‘lgan huquq vujudga kelgan (tugagan) taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (tugagan) oydan e’tiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yoki to‘lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1 martdan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri uchun soliqni to‘lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqli daromadlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tushumlarini qo‘shib hisoblaganda 1,5 – 2,1

foiz oraliqni tashkil etayotganligini quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 418-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Mulkida Soliq kodeksining 419-moddasiga muvofiq soliq solish obyekti deb tan olinadigan mol-mulki bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari (agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa);

2) shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

Agar mol-mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo‘lmasa, shuningdek ko‘chmas mulk mulkdori vafot etgan taqdirda, bu mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo‘lsa, o‘sha shaxs soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning to‘lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulklari soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi?
3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2014 yilda necha foiz qilib belgilangan?
5. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo‘yicha inventarizatsiya qiymati bo‘lmasa soliq undirish qandan tartibda amalga oshiriladi?
6. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?
7. To‘lov xabarnomasi qaysi muddatgacha uchastka soliq inspektorlari tomonidan soliq to‘lovchilarga etkaziladi?

8. 2014 yilning 1 aprelidan boshlab (2013 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-359-sonli qonunga muvofiq) mol-mulk solig‘i bo‘yicha qanday me’yor kiritildi?

9. Mol-mulk solig‘idan qaysi toifadagi jismoniy shaxslar ozod etiladi?

10. 1 va 2 gurux nogironlari hamda Pensionerlarning necha kvadrat metr mol-mulki qiymati soliqqa tortilmaydi?

11. Yillik hisoblangan mol-mulk solig‘i qaysi muddatda budjetga to‘lanadi?

Testlar

1. Jismoniy shahslardan olinadigan mol mulk solig‘i qachondan joriy qilingan?

A) 1994 -yil 1 yanvardan

B) 1992- yil 1 yanvardan

C) 1993- yil 1 yanvardan

D) 1991- yil 1 yanvardan

2. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri mahalliy soliq hisoblanadi?

A) Mol mulk solig‘i

B) Aksiz solig‘i

C) Suv resurslaridan foydalanganlik soliq

D) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliq

3. Mol mulk solig‘ini joriy etishdan maqsad nima?

A) Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash va mol mulklaridan samarali va o‘z o‘rnida oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

B) Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash

C) Mol mulklaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

D) Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash.

4. Soliqqa tortishning kadastrli usulining o‘ziga xos xususiyati nimada?

A) Soliqning to‘lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog‘liq bo‘lmaydi;

B) Soliqqa tortish obyektining kam yoki ko‘pligiga bog‘liq bo‘ladi;

C) Soliq stavkalarining pastligida;

D) Soliq imtiyozlarining nisbatan ko‘pligida.

5. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti:

A) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir.

B) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, yer uchastkalari, inshootlar soliq solish obyektidir.

C) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar, inshootlar soliq solish obyektidir.

D) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar

6. Jismoniy shahslarning uydagi mol mulklari (mashina, mebel, TV) soliqqa tortiladimi (mol mulk solig‘iga)?

A) Tortilmaydi

B) Qisman

C) Muddatli imtiyoz berilgan

D) Yilda bir marta yig‘im olinadi

7. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha soliq solinadigan baza:

A) Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir

B) Kredit huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

C) Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining asosiy qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

D) Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish subyektlarining inventarizatsiya qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir

8. Jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi?

A) Soliq xizmati organlari, bojxona xizmati organlari

B) Moliya vazirligi, soliq qo‘mitasi, bojxona qo‘mitasi

C) Sud va prokuratura organlari

D) Xo‘jalik sudlari

9. Joriy 2022 yilda jismoniy shahslardan olinadigan mol mulk solig‘I stavkalari keltirilgan javobni ko‘rsating:

A) PQ-73-qarorga asosan

B) PQ-1675-qarorga asosan

C) PQ-1920-qarorga asosan

D) PQ-2099-qarorga asosan

10. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari..... bilan belgilanadi.

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

B) Moliya vazirligining qarori

C) Vazirlar Mahkamasining qarori

D) Davlat soliq qo‘mitasining qarori

11. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ..... tomonidan hisoblab chiqariladi.

A) davlat soliq xizmati organlari

B) jismoniy shaxslar

C) Davlat soliq boshqarmasi

D) Davlat soliq qo‘mitasi

12. Mol-mulkka mulk huquqi bir mulkdordan boshqasiga o‘tganda, yangi mulkdor soliqni ..... e’tiboran to‘laydi

A) mulk huquqini qo‘lga kiritgan oydan

B) mulk huquqini qo‘lga kiritgandan keyingi yildan

C) mulk huquqini qo‘lga kiritgandan keyingi oydan

D) mulk huquqini qo‘lga kiritgandan 3 oydan keyin

13. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha pensioner, I-II guruh nogironlari jismoniy shaxslardan necha kv.m.gacha soliq undirilmaydi?

A) 60 kv.m.gacha

B) 100 kv.m.gacha

C) 70 kv.m.gacha

D) 85 kv.m.gacha

14. Qanday jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan?

A) O‘zbekiston Qahramoni

B) Madaniyat va xalq ta'limi xodimlari

C) Tibbiyot xodimlari

D) Og‘ir mehnat sharoitida ishlovchilar.

15. Jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar soliqqa tortiladimi?

A) soliqqa tortilmaydi

B) soliqqa tortiladi

C) quyi stavkada soliqqa tortiladi

D) yuqori stavkada soliqqa tortiladi

16. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan soliq solish obyektlariga nisbatan....

A) qo‘llanilmaydi

B) qisman qo‘llaniladi

C) qo‘llaniladi

D) tegishli vazirlik qarorlari asosida qo‘llaniladi

17. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar.....

A) mulkdorning tanloviga binoan faqat bitta mol-mulk obyektga taalluqli bo‘ladi

B) mulkdorning barcha mol-mulk obyektlariga taalluqli bo‘ladi

C) mulkdorning tadbirkorlik maqsadlarida foydalanayotgan mol-mulk obyektlariga taalluqli bo‘ladi

D) mulkdorning ijaraga bergan mol-mulk obyektlariga taalluqli bo‘ladi

18. Jismoniy shaxslarning mol-mulklari qaysi tashkilot tomonidan baholanadi?

A) texnik inventarizatsiyalash byurosi

B) soliq inspektsiyalari tomonidan

C) Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan

D) Davlat notariuslari tomonidan

19. Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulkdan soliq qachondan undiriladi?

A) mulk huquqi vujudga kelgan oydan e’tiboran

B) mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab

C) mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yil boshidan

D) mulk huquqi vujudga kelgan kundan boshlab

20. 2022 yilda jismoniy shaxslar mol-mulkini kadastr qiymati bo‘lmasa soliq undirish uchun boshqa shahar va qishloq joylarda qanday shartli qiymat qabul qilinadi?

A) 210,0 mln so‘m

B) 84,0 mln so‘m

C) 16480,0 ming so‘m

D) 6080,0 ming so‘m

21. Mol-mulk yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o‘tganda soliqni birinchi mulkdor .... to‘laydi.

A) yilning 1 yanvaridan e’tiboran mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshlanishiga qadar

B) mulk huquqini yo‘qotgan yilning oxirigacha

C) mulk huquqini yo‘qotgan oydan keyingi oygacha

D) mulk huquqini yo‘qotgan chorakning oxirigacha

22. Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo‘ri (merosxo‘rlari) tomonidan qancha muddatlarda amalga oshirilishi kerak?

A) Meros qabul qilib olingan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmasdan

B) Ixtiyoriy muddatlarda

C) Bir oyda

D) Olti oyda

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2012.- 236 bet
5. http://www.mf.uz
6. http://www.soliq.uz

20-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I

20.1. Yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni

Albatta, jamiyatimizdagi barcha jarayonlar kabi yerni soliqqa tortish tizimini ham eng avvalo, boshlang‘ich va asosiy huquqiy poydevor sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tartibga soladi.

Bosh Qomusimizning 55 - moddasida quyidagicha mustahkamlangan: "Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir."

Aytish mumkinki, yer solig‘i stavkalari oshirib kelinishidan birinchi maqsad daromadga soliqlarning soliq yukidagi ulushini yer va boshqa resurs soliqlariga o‘tkazib borish bo‘lsa, ikkinchisi respublikamizda qoniqarsiz ahvolda bo‘lgan resurslardan foydalanishda subyektlarni tejamkorlikka o‘rgatishdir. Aynan shu masala, ko‘rinib turibdiki, dastlab Konstitutsiyada qat’iy inobatga olingan.

Qolaversa, bosh qomusimizning 51-moddasida e’tirof etilganidek: "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar." Shuningdek, Konstitutsiyaning 123-moddasida mustahkamlangan qoida barchamizga ma’lum: "O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli”[63].

1991 yil "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilingan. Unda foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, mahsulot sotish solig‘i va boshqa soliqlarni to‘lash tartibi belgilangan bo‘lsada, yer solig‘i to‘lash

[63] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O’zbekiston, 2019.

nazarda tutilmagan edi. Holbuki, 1990 yilda qabul qilingan "Yer solig‘i to‘g‘risida"gi Qonunda yerdan foydalanish uchun haq to‘lanishi asosiy tamoyil sifatida mujassamlangan edi.

Mazkur Qonunning 16-moddasida yozilganidek, yer uchun haq har yili yer solig‘i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta’minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Xalq deputatlari kengashlari yerni ijaraga bergan taqdirda, yer uchun to‘lov miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadigan ijara haqi shaklida olinadi.

Biroq yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash keyinroq, 1993 yil qabul qilingan "Yer solig‘i to‘g‘risida"gi Qonunga binoan joriy etildi. Oliy Kengashning "Yer solig‘i to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 1993 yil 6 mayda qabul qilingan qarori bilan yer solig‘ini 1994 yil 1 yanvardan e’tiboran joriy etish belgilandi. Jamoa xo‘jaliklari, davlat xo‘jaliklari, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari etishtirishga aloqador tashkilotlardan esa bunday soliq 1995 yil 1 yanvardan boshlab undiriladigan bo‘ldi.

Bu kechiktirish zamirida qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtiruvchilarining moliyaviy ahvolini engillashtirish muddaosi yotar edi. O‘sha kezlari qishloq xo‘jalik erlaridan soliqning asoslantirilgan stavkalari yo‘qligi ham bir jihatdan shunday ish tutilishiga sababchi bo‘ldi.

Mazkur Qonunda "Yer to‘g‘risida"gi Qonunda mujassam etilgan asosiy tamoyillar saqlab qolindi, binobarin yer solig‘i to‘lovchilari, bunday soliq stavkalarini tamoyillari, yer solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi, ushbu soliq bo‘yicha imtiyozlar belgilab qo‘yildi. Davlat Soliq Qo‘mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda yer solig‘i stavkalarini yer uchastkalari tuman, shahar va qo‘rg‘on hududida joylashganligini inobatga olgan holda belgilash tamoyillarini ishlab chiqdi. Qishloq xo‘jaligi ixtiyorida bo‘lmagan erlar hamda fuqarolarning tomorqa erlari muhandislik kommunikat-

siyalari bilan ta’minlanganlik darajasiga, joylashuviga, tumanlarning va shaharchalarning hududida infratuzilma mavjudligiga qarab iqtisodiy zonalarga bo‘lindi. Chunonchi, Toshkent shahri hududi 14 ta, viloyat markazlari va yirik shaharlar hududi 4 ta, o‘rta shaharlar hududi 3 ta, kichik shaharlar va qo‘rg‘onlar hududlari ikkita iqtisodiy zonaga bo‘lindi. Qishloq joylardagi yerlar ikkita yirik zonaga, ya’ni sug‘oriladigan hamda lalmi-yaylov yerlar zonasiga bo‘lindi.[64]

Yer qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish negizidir. Shu bois uning sifati qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi uchun asosiy omil hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqib, sug‘oriladigan yer uchastkalari uchun soliq stavkalari zaminning tabiiy unumdorligini ifoda etuvchi tuproq boniteti ballarini ham inobatga olgan holda yerlarning toifalari bo‘yicha belgilangan. Lalmi va yaylov yerlar uchun soliq stavkalari balandlik mintaqalari bo‘yicha, ko‘p jihatdan ularning unumdorligini belgilovchi yog‘ingarchilik va namgarchilik bilan ta’minlanganlik darajasini ham inobatga olgan holda belgilab qo‘yildi. Jamoat imoratlari va hovlilar, yo‘llar va suv obyektlari egallab turgan yer uchastkalariga, shuningdek qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan boshqa erlarga ham yer solig‘ining uncha katta bo‘lmagan miqdordagi stavkalari belgilandi. Yer solig‘i stavkalarini belgilashning ana shu tamoyillari amaliyotda o‘zini oqladi va hozirgi kunga qadar saqlanib turibdi.

Yer solig‘i joriy etilgach, davlat soliq xizmati organlari shaharlar va qo‘rg‘onlarda yerlarni hisobga olish ishi olib borilmaganligi sababli, yerdan foydalanuvchilarni hamda ular egallab turgan yer maydonlarini aniqlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keldilar. Bu muammoni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 31 dekabrda "O‘zbekiston Respublikasida erlardan foydalanishni yalpi inventarizatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risida"gi 636—sonli Qarorini qabul qildi. Bu ish ko‘p

[64] O’zbekiston Respublikasi "Yer solig’i to’g’risida"gi Qonuni.

jihatdan yerdan foydalanuvchilarning to‘liq hisobi yuritilishini va ayniqsa, ularning shahar va qo‘rg‘onlarda yer solig‘i to‘lashga jalb etilishini ta’minladi.

Xalq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar olib borilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining "Yer solig‘i to‘g‘risida"gi Qonuni takomillasha bordi, unga bir qancha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, 1995 yildagi belgilanganiga ko‘ra, soliq bo‘yicha imtiyozlar mo‘ljallangan maqsadda foydalanilmagan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydigan bo‘ldi. Bu me’yor O‘zbekiston Respublikasi “Yer to‘g‘risida”gi Qonuniga asoslangan bo‘lib, Qonunga ko‘ra erlar qaysi maqsadda foydalanish uchun berilgan bo‘lsa, ulardan aynan shu maqsadda foydalanilishi shart.[65]

1997 yil 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi va 1998 yil 1 yanvardan kuchga kiritilishi bilan yer solig‘ining huquqiy asoslari yaratildi.

2020 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 17-moddasida mahalliy soliqlar, shu jumladan yer solig‘i amal qilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq singari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining ulushi ham yuqori ulushga ega emas.

20.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 424-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

[65] O’zbekiston Respublikasi "Yer to’g’risida"gi Qonuni.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o‘z ulushi uchun soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 426-moddasiga muvofiq Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solish obyektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, shaxobcha yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi umumiy foydalanishdagi yerlar);

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerlar;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog‘lari, sayilgohlar, xiyobonlar, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

5) davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarning (bundan ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog‘larning yerlari;

6) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meros obyektlari, xotira bog‘lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy, qurilish va boshqa chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko‘p kvartirali uylar va yotoqxonalar egallagan yerlar, shuningdek ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar;

15) geologiya-qidiruv va (yoki) izlanish ishlarini o‘tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan yer uchastkalari xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular ushbu bobda belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 427-moddasiga muvofiq quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq bazasidir:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — Soliq kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmaganda, soliq bazasi soliqni to‘lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

20.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari va soliq stavkalri

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 428-moddasiga muvofiq qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar

qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko‘proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo‘yicha ular ishga tushirilgan paytdan e’tiboran o‘n yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari band qilgan yerlar mustasno) va ijtimoiy ta’minot obyektlari egallagan yerlar;

sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish majmualari, o‘quv-mashq bazalari va bolalar-sog‘lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar;

shahar elektr transporti yo‘llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

aholi punktlarining suv ta’minoti va kanalizatsiya inshootlari (magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi xos il qiladigan minoralar hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar);

magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko‘paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta’minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulatsiya nasoslari hamda shunga o‘xshash inshootlar egallagan yerlar;

ihota o‘rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o‘rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o‘rmonlarning daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo‘ylab o‘tgan taqiqlangan mintaqalari; o‘rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o‘rmonlar; o‘rmonlarning temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari yoqalab o‘tgan ihota mintaqalari; cho‘l va chala cho‘l zonalaridagi o‘rmonlar; shahar o‘rmonlari va o‘rmon-

bog‘lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko‘kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidagi o‘rmonlar; suv ta’minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o‘rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o‘rmonlar; alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar;

suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar — suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan e’tiboran besh yil muddatga. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan yoki demontaj qilingan bo‘lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi;

qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e’tiboran besh yil mobaynida;

melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan yerlar — vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e’tiboran besh yil muddatga;

yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’i nazar, besh yil muddatga. Kuzda o‘tqazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e’tiboran boshlanadi, bahorda o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e’tiboran boshlanadi;

ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi

ahamiyatiga molik bo‘lgan yerlar va o‘rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Ushbu moddada belgilangan soliq imtiyozlari belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq 2021-2022 yillarda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (10-jadval):

10-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari

Respublika hududlari	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln so‘mda)	
	2021	2022
Toshkent shahri: 1 zona 2 zona 3 zona 4 zona 5 zona	 208,2 166,5 124,9 83,3 41,6	 220 175 135 90 45
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	26,2	28
Andijon viloyati	33,0	35
Buxoro viloyati	26,7	29
Jizzax viloyati	26,7	29
Qashqadaryo viloyati	26,7	29
Navoiy viloyati	26,7	29
Namangan viloyati	33,0	35
Samarqand viloyati	33,0	35
Surxondaryo viloyati	23,5	25
Sirdaryo viloyati	20,8	22
Toshkent viloyati	27,6	30
Farg‘ona viloyati	26,7	29
Xorazm viloyati	26,7	29

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa — ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31-dekabriga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi. Yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlari ushbu soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazishlari kerak.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Yagona ishtirokchilari nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalaridan iborat bo‘lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil etadigan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondi mehnatga haq to‘lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan egallangan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkalariga 0,25 koeffitsiyent qo‘llaniladi.

Quyidagilar egallagan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,3 koeffitsiyent qo‘llaniladi:

elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat koʻrsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, erga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

umumiy foydalanishdagi temir yoʻllar, shu jumladan tuproq koʻtarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yoʻl binolari, temir yoʻl aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yoʻl qurilmalaridan iborat temir yoʻl stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yoʻl transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yongʻinga qarshi va avariyaga qarshi stansiyalar, quvurlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, quvurlarni tozalash qurilmalari hamda shunga oʻxshash inshootlar band etgan yerlar;

samolyotlarning uchish-qoʻnish maydonlari, erda boshqarish yoʻlkalari va toʻxtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr yoritish uskunalari egallagan yerlar;

Oʻzbekiston Respublikasining rivojlantirish Davlat dasturlariga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning normativ muddati davrida;

konservatsiyaga qoʻyilishi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar — ularning konservatsiyasi davrida.

Ushbu moddaning beshinchi va oltinchi qismlari belgilangan tartibda yuridik shaxslarga ajratilgan yer uchastkalariga nisbatan qoʻllaniladi.

Bunda ushbu modda oltinchi qismining ikkinchi — beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan respublikaning har bir tumani va shahari bo‘yicha o‘rtacha belgilangan soliq stavkasiga 0,3 koeffitsiyent qo‘llaniladi. Har bir tuman va shahar bo‘yicha o‘rtacha soliq stavkasi qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari tomonidan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari belgilagan soliq stavkalari asosida aniqlanadi hamda ular har yili 5-yanvarga qadar soliq to‘lovchilar e’tiboriga yetkaziladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan erning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo‘lgan bonitent balidan kelib chiqkan holda to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati bo‘yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to‘lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to‘lanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar egallagan yer uchastkalari uchun, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq ikki baravar soliq stavkalari bo‘yicha to‘lanadi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan maydonlar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, samarali foydalanilmayotgan baliq yetishtirish (o‘stirish) uchun mo‘ljallangan sun’iy suv havzalari joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin. Bunday yer uchastkalariga soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi.

Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatli bo‘lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi.

Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining to‘rt baravari miqdorida belgilanadi.

Konlar va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,1 koeffitsiyent, lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun esa — 0,05 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanadi.

Lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun soliq tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan 0,3 koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanadi, bundan ushbu moddaning o‘n to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 430-moddasiga muvofiq kalendar yil soliq davridir.

20.4. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 431-moddasida Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi keltirilgan.

Soliq har bir soliq davrining 1-yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — joriy soliq davrining 10-yanvariga qadar;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — joriy soliq davrining 1-mayiga qadar.

Soliq to‘lovchilar soliqni Soliq kodeksining 427-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq bazasi (hisoblab chiqarilgan soliq summasi) soliq davri mobaynida o‘zgarish bo‘lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida soliq organiga aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlari bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi.

Soliq kodeksi 426-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar joriy soliq davrining 10-yanvariga qadar mazkur obyektlarning joylashgan eri bo‘yicha soliq organlariga soliq solish obyekti hisoblanmaydigan, yuridik shaxsda mavjud bo‘lgan yer uchastkalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomani taqdim etadi.

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Soliqni to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 432-moddasiga muvofiq qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

aylanmadan soliq to‘lovchilar uchun − yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha;

aylanmadan soliq to‘lovchi bo‘lmagan soliq to‘lovchilar uchun − yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha.

Soliq davri davomida soliq to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to‘lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1-sentabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1-dekabriga qadar — soliqning qolgan summasi.

Qisqacha xulosalar

Tabiiy resurslar zaxiralaridan ya’ni yer resurslari, er osti va ustki qismlaridagi tabiiy boyliklaridan oqilona va unumli foydalanish, ularni tartibga solish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tabiiy zaxiralardan ishlab chiqarishda, faoliyatida va qayta ishlashda samarali foydalanish, tabiiy resurslar zaxiralarini chegaralanganligi, ularni kelgusida ham etkazish muxim ahamiyat kasb etadi. Soliq tizimi boshqaruv omili sifatida, davlat soliq siyosati orqali bu resurslardan foydalanishni nazorat qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 425-moddasiga muvofiq Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar (bundan buyon ushbu bobda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi) deb e’tirof etiladi.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijaraga (lizing) berilgan (olingan) ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ijaraga oluvchi (lizing oluvchi) soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi.

Mol-mulk solig‘iga nisbatan yer solig‘i bo‘yicha tushumlarning 176,5%ga sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda, barcha soliqlar

bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida soliqning ulushi o‘sib bormoqda. Uning tushumlari dinamikasiga soliq stavkalarini yillik indeksatsiya qilish bilan bir qatorda yer solig‘i va yagona yer solig‘ini birlashtirish ta’sir ko‘rsatdi. Bunda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq solinadigan baza (yagona yer solig‘ida bo‘lganidek) - yer uchastkalarining normativ qiymati saqlanib qoldi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining huquqiy asoslari bo‘lib qaysi hujjatlar hisoblanadi?
2. Kimlar yer solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadilar?
3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini solish obyekti nimalardan iborat?
4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
5. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlardan kimlar foydalanadi?
6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi qanday amalga oshiriladi?

Testlar

1. Yer solig‘ini joriy etishdan maqsad nima?

A) Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash

B) Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash va yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

C) Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

D) Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash.

2. Yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?

A) Egaligida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

B) Foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

C) O‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

D) O‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar.

3. Soliqqa tortishning kadastrli usulining o‘ziga xos xususiyati nimada?

A) Soliqqa tortish obyektining kam yoki ko‘pligiga bog‘liq bo‘ladi;

B) Soliqning to‘lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog‘liq bo‘lmaydi;

C) Soliq stavkalarining pastligida;

D) Soliq imtiyozlarining nisbatan ko‘pligida.

4.Yer solig‘i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan

B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

C) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan

D) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi qarori bilan

5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar

A) Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilaridir.

B) Soliq huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilaridir.

C) Moliya huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilaridir.

D) Bank huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu

jumladan O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilaridir.

6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i solish obyekti

A) Moliya huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

B) Soliq huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

C) Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

D) Bank huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

7. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi

A) Yer solig‘i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va yer solig‘ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

B) Yer solig‘i har bir soliq davrining 10 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va yer solig‘ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi bankga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

C) Yer solig‘i har bir soliq davrining 15 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va yer solig‘ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi moliya organiga hisobot yilining 25 fevraliga qadar taqdim etiladi.

D) Yer solig‘i har bir soliq davrining 18 yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va yer solig‘ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi statistika organiga hisobot yilining 16 fevraliga qadar taqdim etiladi.

8. Yer solig‘i stavkalari 2022 yil uchun necha martaga indeksatsiya qilindi?

A. 1,3 B. 1,5 C. 2 D. 1,2

9. Yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?

A. Egaligida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar

B. Foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar

C. O‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar

D. O‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.
5. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.- 123-132-betlar.

21-MAVZU. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I

21.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Yer solig‘i to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 1993 -yil 6 mayda qabul qilingan qarori bilan yer solig‘ini 1994-yil 1 yanvardan e’tiboran joriy etish belgilandi. Jamoa xo‘jaliklari, davlat xo‘jaliklari, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari etishtirishga aloqador tash-kilotlardan esa bunday soliq 1995- yil 1- yanvardan boshlab undiriladigan bo‘ldi.

Bu kechiktirish zamirida qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtiruv-chilarining moliyaviy ahvolini engillashtirish muddaosi yotar edi. O‘sha kezlari qishloq xo‘jalik yerlaridan soliqning asoslantirilgan stavkalari yo‘qligi ham bir jihatdan shunday ish tutilishiga sababchi bo‘ldi. Mazkur Qonunda "Yer to‘g‘risida"gi Qonunda mujassam etilgan asosiy tamoyillar saqlab qolindi, binobarin yer solig‘i to‘lovchilari, bunday soliq stavkalarini tamoyillari, yer solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi, ushbu soliq bo‘yicha imtiyozlar belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda yer solig‘i stavkalarini yer uchastkalari tuman, shahar va qo‘rg‘on hududida joylashganligini inobatga olgan holda belgilash tamoyillarini ishlab chiqdi. Qishloq xo‘jaligi ixtiyorida bo‘lmagan yerlar hamda fuqarolarning tomorqa yerlari muhandislik kommuni-katsiyalari bilan ta’minlanganlik darajasiga, joylashuviga, tumanlarning va shaharchalarning hududida infratuzilma mavjudligiga qarab iqtisodiy zonalarga bo‘lindi.

Masalan, Toshkent shahri hududi 14 ta, viloyat markazlari va yirik shaharlar hududi 4 ta, o‘rta shaharlar hududi 3 ta, kichik shaharlar va qo‘rg‘onlar hududlari ikkita iqtisodiy zonaga bo‘lindi. Qishloq

joylardagi yerlar ikkita yirik zonaga, ya’ni sug‘oriladigan hamda lalmi-yaylov yerlar zonasiga bo‘lindi.

Yer solig‘i joriy etilgach, davlat soliq xizmati organlari shaharlar va qo‘rg‘onlarda yerlarni hisobga olish ishi olib borilmaganligi sababli, yerdan foydalanuvchilarni hamda ular egallab turgan yer maydonlarini aniqlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keldilar.

Bu muammoni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 31 dekabrda "O‘zbekiston Respublikasida yerlardan foydalanishni yalpi inventarizatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risida"gi 636-sonli Qarorini qabul qildi. Bu ish ko‘p jihatdan yerdan foydalanuvchilarning to‘liq hisobi yuritilishini va ayniqsa, ularning shahar va qo‘rg‘onlarda yer solig‘i to‘lashga jalb etilishini ta’minladi.

Xalq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar olib borilishi munosabati bilan "Yer solig‘i to‘g‘risida"gi Qonun takomillasha bordi, unga bir qancha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, 1995 yildagi belgilanganiga ko‘ra, soliq bo‘yicha imtiyozlar mo‘ljallangan maqsadda foydalanilmagan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydigan bo‘ldi. Bu me’yor “Yer to‘g‘risida”gi Qonunga asoslangan bo‘lib, Qonunga ko‘ra yerlar qaysi maqsadda foydalanish uchun berilgan bo‘lsa, ulardan aynan shu maqsadda foydalanilishi shart qilib belgilandi.

Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi o‘zgarishlar qatorida yana bir muhim bir o‘zgarish shuki, 2008 yil, shuningdek 2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida belgilangan imtiyozlar bevosita mo‘ljallangan maqsadda foydalanilmayotgan yer uchastkalarigagina emas, balki yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari bo‘lmagan yer uchastkalariga ham tatbiq etilmaydi.

Shu munosabat bilan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarga ega bo‘lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar yer uchastkasiga bo‘lgan o‘z huquqlarini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishlari zarur.

2020-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 17-moddasida mahalliy soliqlar, shu jumladan yer solig‘i amal qilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i singari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining ulushi ham yuqori ulushga ega emas. 2019-2021-yillarda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining tushumi bilan birgalikda ushbu jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqli daromadlarida mos ravishda 2,1; 1,8; 2,5 foizni, resurs soliqlari tarkibida esa 17,5; 16,0; 14,0 foizni tashkil etayotganligini quyidagi jadval ma’lumotidan ko‘rishimiz mumkin (21-jadval):

21- jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimida yer solig‘ini tutgan o‘rni[66]

	2019 yil		**2020 yil**		**2021 yil**		**O‘sish 2021/ 2019**
	summa	Sal-mog‘i %da	summa	Sal-mog‘i %da	summa	salmog‘i %da	**%da**
Davlat budjeti daromadlari	**112 165**		**132 938**		**164 681**		**146,8**
shu jumladan:							
3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i	19 681	17,5	21 257	16,0	23 036	14,0	117,1
3.2. Yer solig‘i	2 313	2,1	2 387	1,8	4 083	2,5	176,5

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022 yilda davlat budjetining daromadlar qismida resurs to‘lovlari va mol-mulk soliqlari 25690,4 mlrd. so‘mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Shundan, yer

[66] http://www.mf.uz –O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari

solig‘i 4119,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, uning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 2,05 foizni, resurs to‘lovlari va mol-mulk soliqlari tarkibida esa 16,0 foizni tashkil etishi bashorat qilingan.

21.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 433-moddasiga muvofiq yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar;

2) shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi yer solig‘iga tenglashtiriladi.

Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Uy-joy, yashash uchun mo‘ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo‘yicha o‘tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o‘tgan yer uchastkalari uchun yer solig‘i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo‘rlardan undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 434-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti hisoblanadi:

1) dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo‘yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalari;

6) qonunchilikda belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘lmaydi (tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari va ko‘p kvartirali uylarda joylashgan yashsash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari bundan mustasno).

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 435-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq solinadigan bazasi bo‘lib ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma’lumotlari hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq bazasi Soliq kodeksi 428-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi va jamoa garajlari egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo‘yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo‘yicha soliq solinadigan baza o‘z xodimlariga yer uchastkalari bergan

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi.

21.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 436-moddasiga muvofiq yer solig‘idan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadilar:

1) «O‘zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘limining yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnash-chilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg‘iz pensionerlar. Yolg‘iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg‘iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar. Ota va onadan biri yoki ota-onasi vafot etgan ko‘p bolali oilalar soliq solish maqsadida

boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining ma’lumot-nomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar — qayta tiklanadigan energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e’tiboran uch yil muddatga. Mazkur imtiyoz energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida energiya ta’minoti tashkilotlari tomonidan berilgan ma’lumotnoma asosida beriladi.

436-moddaning birinchi qismida belgilangan soliq imtiyozlari, bundan 5-bandda ko‘rsatilgani mustasno, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organda ro‘yxatdan o‘tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Bunda mazkur soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining tanlovi bo‘yicha faqat bitta yer uchastkasiga berilishi mumkin, bundan 436-modda birinchi qismining 7-bandida ko‘rsatilgan shaxslar mustasno.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

21.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq 2022 yilda respublika hududlari kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari mustasno):

Respublika hududlari	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)
Toshkent shahri: 1 zona 2 zona 3 zona 4 zona 5 zona	 1280 1085 890 700 500
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	260
Andijon viloyati	320
Buxoro viloyati	260
Jizzax viloyati	260
Qashqadaryo viloyati	260
Navoiy viloyati	260
Namangan viloyati	320
Samarqand viloyati	320
Surxondaryo viloyati	234
Sirdaryo viloyati	205
Toshkent viloyati	270
Farg‘ona viloyati	260
Xorazm viloyati	260

Soliq stavkalarini aniq miqdori quyidagi tartibda belgilanadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi

qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga Toshkent shahri uchun esa — ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31 dekabriga qadar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarga soliq stavkasi qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari uchun soliq jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha undiriladi hamda ushbu Kodeksning 436-moddasida ko‘rsatilgan imtiyozlar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bo‘sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek normativ muddatida qurilishi tugallanmagan obyektlar joylashgan yer uchastkalariga nisbatan qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo‘li bilan yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab

chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘lanadi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq uch baravar miqdorda to‘lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining uch baravari miqdorida belgilanadi.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi turar joy qurish va obodonlashtirishga berilgan tomorqa yer uchastkalariga yakka tartibdagi uy-joy qurishga berilgan yer uchastkalari uchun belgilangan stavka qo‘llaniladi.

21.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 438-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq davri bo‘lib kalendar yil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 439-moddasiga muvofiq soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchining yashash joyidan qat’i nazar, yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning ma’lumotlari asosida, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha esa — qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarning normativ qiymatini aniqlovchi organning ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari har yili 1 martdan kechiktirmay soliq summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasini jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshiradi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o‘zgarganda va imtiyozlarga bo‘lgan huquq yuzaga kelganda (tugatilganda) soliq organlari mazkur o‘zgarishlardan keyin bir oy ichida soliqni qayta hisob-kitob qilishi hamda soliq to‘lovchiga soliq summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan yangi yoki qo‘shimcha to‘lov xabarnomasini taqdim etishi kerak.

Ko‘p kvartirali uylarda joylashgan turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha soliq turar joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektining qavatlar soniga bo‘lingan maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 440-moddasiga muvofiq yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e’tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliqni to‘lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e’tiboran tugatiladi (kamaytiriladi).

Soliq bo‘yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyozga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan e’tiboran to‘lanmaydi. Soliq bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquq tugatilgan taqdirda, bu soliq mazkur huquq tugatilgan oydan keyingi oydan e’tiboran to‘lana boshlaydi.

Soliq davri uchun soliqni to‘lash jismoniy shaxslar tomonidan 15 aprel va 15 oktyabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i mahalliy soliqlardan biri bo‘lib, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i 1994 yil 1 yanvardan, jamoa xo‘jaliklari, davlat xo‘jaliklari, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari etishtirishga aloqador tashkilotlardan esa 1995 yil 1 yanvardan boshlab joriy etildi.

Mol-mulk solig‘iga nisbatan yer solig‘i bo‘yicha tushumlarning 176,5%ga sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida soliqning ulushi o‘sib bormoqda. Uning tushumlari dinamikasiga soliq stavkalarini yillik indeksatsiya qilish bilan bir qatorda yer solig‘i va yagona yer solig‘ini birlashtirish ta’sir ko‘rsatdi. Bunda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq solinadigan baza (yagona yer solig‘ida bo‘lganidek) - yer uchastkalarining normativ qiymati saqlanib qoldi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i soliq solish obyektiga nimalar kiradi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i soliq solinadigan bazasi qanday aniqlanadi
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qanday soliq imtiyozlari belgilangan?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?
6. To‘lov xabarnomasi qaysi muddatgacha uchastka soliq inspektorlari tomonidan soliq to‘lovchilarga etkaziladi?
7. Yer solig‘idan qaysi toifadagi jismoniy shaxslar ozod etiladi?
8. Yillik hisoblangan yer solig‘i qaysi muddatda budjetga to‘lanadi?
9. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkasini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash tartibi qanday?

Testlar

1. O‘zbekistonda jismoniy shahslardan olinadigan yer solig‘i qachondan joriy qilingan?

A) 1994 yil 1 yanvardan

B) 1992 yil 1 yanvardan

C) 1993 yil 1 yanvardan

D) 1991 yil 1 yanvardan

2. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri mahalliy soliq hisoblanadi?

A) Yer solig‘i

B) Aksiz solig‘i

C) Suv resurslaridan foydalanganlik soliq

D) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliq

3. Yer solig‘ini joriy etishdan maqsad nima?

A) Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

B) Davlat budjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash

C) Mol mulklaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish

D) Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash.

4. Soliqqa tortishning kadastrli usulining o‘ziga xos xususiyati nimada?

A) Soliqning to‘lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog‘liq bo‘lmaydi;

B) Soliqqa tortish obyektining kam yoki ko‘pligiga bog‘liq bo‘ladi;

C) Soliq stavkalarining pastligida;

D) Soliq imtiyozlarining nisbatan ko‘pligida.

5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

A) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar,

shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini to‘lovchilardir

B) egaligida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar

C) foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar

D) o‘z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yer solig‘ini to‘lovchilardir

6. Ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq solish obyekti bo‘ladimi?

A) ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘lmaydi

B) ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘ladi

C) Vazirlar Mahkamasining qarori asosida ayrim ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘ladi

D) Davlat soliq qo‘mitasining qarori asosida ayrim ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘ladi

7. Jismoniy shaxslarga yer solig‘ini to‘lash haqidagi to‘lov xabarnomasini taqdim etish muddati qaysi satrda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

A) joriy yilning 1 martgacha

B) joriy yilning 1 mayigacha

C) joriy yilning 15 iyunigacha

D) joriy yilning 5 yanvarigacha

8. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari qanday me’yoriy hujjat bilan tasdiqlanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

B) Vazirlar Mahkamasi qarori

C) Moliya vazirligi qarori

D) mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori

9. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan mahalliy soliqlar tarkibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i

B) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

C) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

D) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, qat’iy belgilangan soliq

10. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘idan ozod etilmagan?

A) yolg‘iz bo‘lmagan, boquvchisi bor pensionerlar

B) uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar

C) II guruh nogironlari

D) Sovet Ittifoqi Qaxramoni

11. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solinadigan bazasi to‘g‘ri berilgan?

A) yer uchastkalarining maydoniga doir ma’lumotlar

B) yer uchastkalarining inventarizatsiya qiymati

C) yer uchastkalarining bozor qiymati

D) yer uchastkalarining me’yoriy qiymati

12. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini budjetga to‘lash muddatini ko‘rsating

A) hisobot yilining 15 aprel, 15 oktyabriga qadar

B) hisobot yilining 15 iyuli, 15 noyabriga qadar

C) hisobot yilining 15 iyunigacha, 15 dekabrigacha

D) hisobot yilining 15 dekabrigacha

13. To‘langan jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i summasi belgilangan tartibda qaysi budjetga tushadi?

A) mahalliy budjetga

B) Respublika budjetiga

C) pensiya jamg‘armasiga

D) yo‘l jamg‘armasiga

14. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash ma’suliyati kimga yuklatilgan?

A) soliq inspektsiyasiga

B) moliya bo‘limiga

C) soliq to‘lovchi jismoniy shaxsga

D) iqtisodiyot bo‘limiga

15. Yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar tadbiq etiladimi?

A) tadbiq etiladi

B) qisman tadbiq etiladi

C) tadbiq etilmaydi

D) pasaytiruvchi koeffitsientlar qo‘llaniladi

16. Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan?

A) I va II guruh nogironlari

B) madaniyat va xalq ta’limi xodimlari

C) yolg‘iz bo‘lmagan, boquvchisi bor pensionerlar

D) og‘ir mehnat sharoitida ishlovchilar

17. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining soliq solinadigan obyekti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari

B) ko‘p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari

C) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yer uchastkalari

D) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yer uchastkalari

18. Yer solig‘i stavkalari qanday mezon va xususiyatga qarab belgilanadi?

A) yerni maydoniga

B) yerda necha shaxs yashashiga

C) yerdan foydalanish darajasiga

D) yer maydoni joylashgan zonaga

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Xudoyqulov S., Yusupov O., Agzamov A. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2012.- 236 bet

22-MAVZU. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

22.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning huquqiy asoslari va uning davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq respublikada joriy qilingan soliq tizimining eng oson va nisbatan takomillashgan shaklidir. Respublikamizda suvga doir munosabatlarni tartibga solish, aholi va xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suv obyektlarining holatini yaxshilash kabi vazifalardan kelib chiqqan holda 1993 yil 6 mayda O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan bu soliq turi 1993 yilda suv to‘lovi sifatida joriy etilgan edi. Respublikamizda suv tanqisligini hisobga olgan holda va suv resurslaridan tejamkorlik va oqilona foydalanish maqsadida 1995 yildan e’tiboran suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq deb joriy etildi.

1998 yildan boshlab esa, O‘zbekiston Respublikasining ilk Soliq kodeksi joriy qilingandan keyin, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq deb yuritila boshlandi.

Respublikamizda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 2020 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq undiriladi va huquqiy tartibga solinadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq Soliq kodeksining XVII bo‘lim, 63-bob, 441-448-moddalari bilan tartibga solib turiladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri soliq deb yuritiladi, chunki u faqat ishlatilgan suv hajmi uchun olinadigan soliqdir va shu bois uning to‘lovchisi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki biror xizmat bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmadir.

Davlat budjeti daromadlarini tashkil etishda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ahamiyati xilma-xildir.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 441-moddasiga muvofiq, Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan birlamchi foydalanishni yoki suvni iste’mol qilishni amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasalari orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar;

suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;

dehqon xo‘jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta’minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o‘z ehtiyojlari uchun foydalanadigan suv uchun soliqni to‘lovchilar deb e’tirof etiladi.

22.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 442-moddasiga muvofiq, Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo‘lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

2) sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog‘ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa’riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostansiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sho‘rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho‘rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

8) kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 443-moddasiga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni soliq solinadigan bazasi bo‘lib foydalanilgan suvning hajmi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 444-moddasiga muvofiq Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (dastlabki) hisobi hujjatlarida aks ettirilgan suv o‘lchagich asboblar ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o‘lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suvni iste’mol qilishning texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda yashil daraxtzorlarni sug‘orish normalaridan yoki ma’lumotlarning to‘g‘riligini ta’minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog‘idagi suvdan foydalanilganda, soliq bazasi manbaning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog‘iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlarining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga joriy soliq davrining 15-yanvariga qadar

taqdim etishi kerak. Soliq organlari uch kun ichida ushbu ma’lumotlarni soliq to‘lovchilar e’tiboriga yetkazishi lozim.

Issiq suv hamda bug‘ xos il qilinishi bo‘yicha soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o‘zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Binolarning bir qismi, alohida inshootlar ijaraga berilganda soliq bazasi suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida inshootlarni ijaraga olgan va suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq bazasini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to‘lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko‘rish jarayonida olingan suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmining farqini solishtirish amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta’mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to‘lovchilar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to‘lamaydi. Ta’mirlash-qurilish ishlarini va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxslar soliq to‘laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonchasida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti soliq to‘laydi.

Suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ har yili joriy soliq davrining 10-dekabridan kechiktirmay qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliqchilik xo‘jaligida, suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga, dehqon xo‘jaliklari bo‘yicha esa — hisobot davri uchun kelgusi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish joyi bo‘yicha soliq organlariga — soliq bazasini aniqlash uchun ular tomonidan ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmini taqdim etadi.

Dehqon xo‘jaliklari uchun soliq bazasi soliq organlari tomonidan suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ taqdim etgan ma’lumotlar asosida aniqlanadi.

Sun’iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo‘jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun’iy suv obyektlaridan olingan va ushbu suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladiganlar mustasno, o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste’molining normativlariga ko‘ra aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to‘lovchilar soliq bazasini tabiiy suv obyektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi.

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirgan taqdirda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, soliq bazasi qaysi faoliyat bo‘yicha soliq to‘lash sof tushumning umumiy hajmida nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘sha faoliyatdan olinadigan sof tushumning solishtirma hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulot va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste’mol idishidagi tayyor mahsulotga to‘g‘ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Soliq solish obyekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo‘lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va tegishli soliq stavkalari bo‘yicha soliq to‘lashlari shart.

22.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq bo‘yicha belgilangan imtiyozlar

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2022 yilda belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi (11-jadval):

11-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

T/r	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	1 kub. m uchun soliq stavkasi, (so‘mda):	
		yer usti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (bundan 2 va 3-bandlarda ko‘rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	240	290
2.	Sanoat korxonalari	520	620
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	80	100
4.	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari	40	40
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	2 190	2 190
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	27 700	27 700

Ushbu modda birinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan soliq stavkasi 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda, suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo‘llaniladi.

Suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda, bunday ortiqcha qism bo‘yicha soliq stavkalari belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

Suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda, shuningdek avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foyda-lanilganda soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining besh baravari miqdorida belgilanadi.

22.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va budjetga to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 446-moddasiga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq davri bo‘lib kalendar yil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 447-moddasiga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan soliq stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo‘jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.

Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari mustasno — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari

bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 20-yanvarigacha.

Soliq organlari soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasini dehqon xo‘jaliklariga soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 448-moddasiga muvofiq Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarni to‘laydi (bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo‘jaliklari mustasno).

Bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining 20-yanvarigacha, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyidagi soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan (foydalaniladigan suv hajmidan) va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan bo‘nak to‘lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko‘proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar mustasno) — har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida;

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar bo‘lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

tomonidan — har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to‘rtdan bir qismi miqdorida to‘lanadi.

Soliq davri davomida mo‘ljallanayotgan soliq bazasi o‘zgarganda, soliq to‘lovchi soliq summasi to‘g‘risida aniqlashtirilgan ma’lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun bo‘nak to‘lovlarga soliqning o‘zgargan summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davri uchun bo‘nak to‘lovlar hisobga olingan holda soliqni to‘lash soliq to‘lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo‘jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davri uchun bo‘nak to‘lovlar summasi soliq hisobotida ko‘rsatilgan budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, soliq organi bo‘nak to‘lovlarni soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisob-kitob qiladi.

Dehqon xo‘jaliklari tomonidan soliqni to‘lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

Mavzuga doir masala. Sanoat korxonasi hisobot davrida 20000 kub.metr suv resurslaridan foydalangan bo‘lib, shundan suvning 72 foizi yer ustidagi va qolgan qismi esa yer osti manbalaridan olingan.

Korxona 2022 yilda davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanganligi uchun o‘tkazishi lozim bo‘lgan soliq summasini hisoblang.

Hisoblanishi:

20000*72%=14400 kub.m suv yer usti manbasidan kelib tushgan

20000*28%=5600 kub.m suv yer osti manbasidan kelib tushgan

14400 kub.m* 520 sum= 7488000 so‘m

5600 kub.m* 620 sum=3472000 so‘m

Jami 10960000 so‘m 2022 yilga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi

Qisqacha xulosalar

Suv resurslari mamlakatimizning katta boyligi hisoblanib, undan samarali foydalanish har bir O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi hisoblanadi. Shuning uchun suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash mexanizmi qanchalik mukammal bo‘lmasin uni suv tanqisligi sharoitida qayta ko‘rib chiqish zarurdir. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashda soliq to‘lovchilarni iqtisodiy holati va hududiy joylashishiga qarab o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilash lozim.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat solig‘i hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq 2005 yildan boshlab Davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining barcha darajalardagi mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas’uliyatini oshirish, mahalliy budjetlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida mahalliy budjetga o‘tkaziladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 2021 yilda soliqlarning umumiy massasida soliqning salmog‘i atigi 0,4%ni tashkil etsa-da, uning tushumlari yuqori dinamikaga ega – 217,6%. Dinamika soliq stavkalarini har yili indeksatsiya qilish bilan ta’minlanadi, bunda ayrim tarmoqlar uchun - 30% miqdorida oshirilgan indeksatsiya bilan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq qaysi budjetga o‘tkaziladi va davlat budjeti daromadlarida qanday o‘rin tutadi?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiga nimalar kiradi?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning 2022 yilgi stavkalari haqida ma’lumot bering?

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi qanday?
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash muddatlari qanday?

Testlar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

A) umumdavlat solig’i;

B) umumiy soliq;

C) hududiy soliq;

D) mahalliy soliq.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – bu:

A) bevosita soliq;

B) bilvosita soliq;

C) progressiv soliq;

D) regressiv soliq.

3. Quyida keltirilganlarning qaysilari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to‘lovchilari hisoblanadi?

A) notijorat tashkilotlari;

B) o‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar;

C) aylanmadan soliq to‘lovchilari;

D) barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektini aniqlang?

A) yer usti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari;

B) yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari;

C) yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari;

D) sog‘liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari.

5. Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

A) daryolar, ko‘llar;

B) artezian quduqlari;

C) skvajinalar;

D) vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlar.

6. Suv resurslarining yer osti manbalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

A) daryolar, ko‘llar;

B) kanallar va hovuzlar;

C) skvajinalar;

D) suv omborlari.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.
5. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.- 123-132-betlar.

23-MAVZU. YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UChUN SOLIQ VA FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLGANLIK UChUN MAXSUS RENTA SOLIG‘I

23.1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning huquqiy asoslari va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlarning joriy etilishi tabiatdan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish, turli xil tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish, tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish uchun pul fondlarini shakllantirish kabi maqsadlarni ko‘zlaydi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlarning muhim ko‘rinishi, ulardan foydalanish bilan bog‘liq maqsad uchun joriy etilgan soliqlardir. Ular erdan, suv obyektlaridan, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish samarasini oshirishga, mineral-xom ashyo resurslarini qazib olish va ulardan oqilona foydalanishga ijobiy ta’sir etishga qaratiladi.

Davlatning tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq siyosati ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar joriy etish;

- imtiyozli soliqqa tortish va soliqdan ozod qilish.

Mamlakatimiz soliq tizimida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarga: yer solig‘i, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi. Joriy etilgan maxsus soliqlar orkali tabiiy resurslardan foydalanish muayyan darajada tartibga solinsa, imtiyozli soliqqa tortish orqali esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tabiatni muhofaza qilish tadbirlari rag‘batlantiriladi. Shuningdek, ayrim tabiiy resurslardan me’yoridan ortiq foydalanganlik uchun iqtisodiy jazo choralari ham belgilangan.

Tabiiy resurs soliqlari tarkibida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yer qa’ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqning mexanizmi borasida

to‘xtaladigan bo‘lsak, respublikamizning mustaqillikka erishishi natijasida uning hududidagi er osti boyliklarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish mexanizmida ham keng qamrovli o‘zgarishlar amalga oshirildi va O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq 1995 yildan e’tiboran yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning xajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to‘lay boshladilar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mazko‘r soliq mexanizmida ham keng qamrovli o‘zgarishlarga erishildi va ularning huquqiy bazasi mustahkamlandi. Jumladan, respublikamizda mineral xom-ashyoga bo‘lgan talabni hamda boshqa extiyojlarni qondirish uchun yer qa’ridan oqilona, kompleks foydalanishni, yer qa’ri, atrof tabiiy muhit muhofaza qilinishini ta’minlash kabi vazifalardan kelib chiqqan holda 2002 yil 13 dekabrda “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va mazkur qonunning asosiy vazifasi qilib yer osti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Respublikamizda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq hamda Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 449-454 (454^{1-7})-moddalariga muvofiq undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Soliq kodeksiga ko‘ra yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta’minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral xos ilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa’ridan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Davlat budjeti daromadlarini tashkil etishda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning ahamiyati xilma-xildir.

Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri soliq, budjet tarkibiga ko‘ra resurs solig‘i hisoblangan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ulushi oshib bormoqda.

Resurs soliqlari bo‘yicha daromadlarning asosiy ulushi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqqa to‘g‘ri keladi - 68,6%. O‘sish dinamikasi - jami 107,6%, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida soliqning salmog‘i kamayib bormoqda. Ushbu soliqdan asosiy tushumlar (74%) yana “NKMK” AJ va “OKMK” AJ hissasiga to‘g‘ri keladi. Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- qimmatbaho, rangli, nodir metallar, shuningdek, neftь, tabiiy gaz va gaz kondensati uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 2021 yil 1 yanvardan (shuningdek, 2022 yil 1 yanvardan ham kamaytirish) kamaytirish;

- boshqa tomondan, soliq stavkalarining kamayishi oltin va mis narxlarining o‘sishi, ularni ishlab chiqarish hajmining oshishi, shuningdek ayirboshlash kursining o‘zgarishi hisobiga soliq tushumini muvozanatlashtirdi;

- soliq tushumlariga 2022 yil boshidan qimmatbaho va rangli metallar bo‘yicha soliq solinadigan bazani aniqlash bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirishlar ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, uning hisob-kitobida tan olingan xalqaro metall birjalarida belgilangan o‘rtacha arifmetik narxdan kelib chiqiladi;

- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning amal qilishi bilan bir qatorda unga yaqin soliq - tijoratbop topilma bonusi undiriladi, uni hisoblab chiqarish uchun baza bo‘lib yana foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati hisoblanadi. Bonus stavkasi - foydali qazilmalarning qazib olinadigan hajmi qiymatining 0,1%ini tashkil qiladi. 2022 yildan qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib oluvchi, shuningdek uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar uchun renta solig‘i joriy etiladi. Soliq solish obyekti

bo‘lib renta daromadi - qazib olingan (ajratib olingan) metallarni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar hamda ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Ya’ni ayni bir soliq solish obyekti bo‘yicha bir-biriga yaqin uchta soliq amal qilmoqda.

23.2. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ining to‘lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi

1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 449-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida yer qa’ridan foydali qazilmalarni qazib olishni va (yoki) texnogen mineral xos ilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi.

Qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo‘yicha soliq to‘lovchilar bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 450-moddasiga muvofiq yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti bo‘lib foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi hisoblanadi.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning hajmi qazib olish (ajratib olish), birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashishning butun texnologik sikli doirasida yuzaga keladigan texnologik yo‘qotishlarni hisobga olgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida, bunday normalar mavjud bo‘lmaganda esa — soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida aniqlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) va foydali qazilmalarga birlamchi ishlov berishning (ularni qayta ishlashning)

texnologik sikli doirasidagi yo‘qotishlar texnologik yo‘qotishlar deb e’tirof etiladi, xususan:

foydali qazilmalarni qazib olish chog‘idagi yo‘qotishlar, shu jumladan ularning qoldiqlari (ajratib olib bo‘lmaydigan zaxiralari);

uglevodorodlarni dastlabki sanoat maqsadida qayta ishlash chog‘idagi yo‘qotishlar;

qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni yopiq texnologik sikl doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi.

Soliq solish obyekti foydali qazilmaning har bir turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo‘lmaydi:

soliq to‘lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida qazib olingan (ajratib olingan) hamda shaxsiy xo‘jalik va maishiy ehtiyojlari uchun foydalanilgan, keng tarqalgan foydali qazilmalar. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxati qonunchilikda belgilanadi;

qonunchilikda belgilangan tartibda daryo o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarni mustahkamlash ishlari natijasida qazib olingan (ajratib olingan) noruda foydali qazilmalar, bundan realizatsiya qilingan foydali qazilmaning hajmi mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 451-moddasiga muvofiq soliq bazasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga nisbatan aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davri boshlanganidan e’tiboran o‘sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma hajmining qiymati soliq bazasidir.

Agar 451-moddaning to‘qqizinchi — o‘n birinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma hajmining qiymati soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisob-kitob qilinadi.

Soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo‘yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo‘shilgan qiymat

solig‘ini va aksiz solig‘ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo‘lish orqali alohida aniqlanadi.

Agar qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmadan shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun qisman foydalanilsa, soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning butun hajmi hisobida, ushbu foydali qazilmaning o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi soliq (hisobot) davrida foydali qazilmani realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib olish (ajratib olish) boshlanganidan buyon ular realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq bazasi soliq (hisobot) davrida mazkur foydali qazilmalarni qazib olishning (ajratib olishning) 20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to‘lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan birinchi hisobot davrida hisoblangan soliq summasiga hisobot davrida shakllangan o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmadan to‘laligicha shaxsiy ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaning 20 foizga oshirilgan ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi qazib olingan tabiiy gazni va (yoki) neftni mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida qayta ishlashni amalga oshirgan hollarda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib, ularga soliq to‘lovchi tomonidan sarflangan dastlabki ishlov berish, ularni qayta ishlash va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Agar Soliq kodeksining 451^1 moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni,

shuningdek nodir elementlarni hamda nodir yer elementlarini qazib olishda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalarni realizatsiya qilishning o‘rtacha olingan narxidan kelib chiqqan, ularga ishlov berish (ularni boyitish), ularni qayta ishlash va (yoki) transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarning ayrim turlariga nisbatan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 451^1 moddasida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 451^1-moddasiga muvofiq metallarning ayrim turlarini qazib olish (ajratib olish) chog‘ida soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan.

Oltin, kumush, platina, palladiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin va molibden (bundan buyon ushbu moddada metallar deb yuritiladi) bo‘yicha soliq bazasi ruda, konsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibidagi har bir metallga nisbatan aniqlanadi.

Metallarni qazib olish (ajratib olish) chog‘ida quyidagilar soliq bazasi bo‘ladi:

1) agar ushbu qismning 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, rudani (konsentratni) realizatsiya qilish chog‘ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning qiymati, ushbu qiymat rudaning (konsentrantning) tarkibida mavjud bo‘lgan metall hajmiga nisbatan qo‘llaniladigan o‘rtacha arifmetik birja bahosi va o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o‘rtasida olingan yuqoriroq narx bo‘yicha hisob-kitob qilinib, unga ishlov berish (uni boyitish), uni qayta ishlash (affinaj) va (yoki) transportda tashish xarajatlari chegirib tashlanadi;

2) oltin va misni realizatsiya qilish chog‘ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning qiymati, ushbu qiymat ruda, konsentrat va (yoki) qayta ishlashning yakuniy mahsuloti (tayyor mahsulot) tarkibida mavjud bo‘lgan metall hajmiga nisbatan qo‘llaniladigan soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha arifmetik birja bahosi va o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o‘rtasida olingan yuqoriroq narx bo‘yicha hisob-kitob qilinib, unga ishlov berish (uni boyitish), uni qayta ishlash

(affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlanmaydi. Bunda soliq to‘lovchi oltin va mis bo‘yicha soliq bazasini ushbu xarajatlarni chegirib tashlagan holda belgilashga haqli;

3) mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida ajratib olingan kumushni, platinani, palladiyni, ruxni, qo‘rg‘oshinni yoki molibdenni realizatsiya qilish chog‘ida — qazib olingan (ajratib olingan) metallning qiymati, ushbu qiymat soliq (hisobot) davrida o‘rtacha arifmetik birja bahosi va o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi o‘rtasida olingan yuqoriroq narx bo‘yicha hisob-kitob qilinib, soliq to‘lovchi tomonidan unga ishlov berish (uni boyitish), uni qayta ishlash va (yoki) transportda tashish uchun qilingan xarajatlar chegirib tashlanadi.

Agar ajratib olingan kumush, platina, palladiy, rux, qo‘rg‘oshin yoki molibden rudadagi asosiy metall bo‘lmasa yoki ularni ajratib olish oltin va (yoki) mis ajratib olinayotgan (boyitilayotgan, qayta ishlanayotgan) ishlab chiqarish quvvatlarida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, soliq to‘lovchi soliq bazasini ularga ishlov berish (ularni boyitish), ularni qayta ishlash (affinaj) va transportda tashish xarajatlarini chegirib tashlamagan holda aniqlashga haqli.

Kumushni, platinani, palladiyni, ruxni, qo‘rg‘oshinni yoki molibdenni ajratib olish chog‘ida ushbu metallar rudadagi asosiy metallar bo‘lsa, boshqa metallar, shu jumladan oltin va mis bo‘yicha soliq bazasi ularga ishlov berish (ularni boyitish), ularni qayta ishlash (affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchi metallar bilan birga boshqa qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, shuningdek ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan nodir elementlarni va nodir yer elementlarini ajratib olayotgan bo‘lsa, boshqa metallar (elementlar) bo‘yicha soliq bazasi ularga ishlov berish (ularni boyitish), ularni qayta ishlash (affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda, o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi bo‘yicha aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchi rudadagi asosiy metallar bilan birga boshqa metallarni, shu jumladan texnogen chiqindilardan (chang, shlak, kek,

shlam va boshqalardan) metallarni ajratib olsa, ushbu metallar (elementlar) bo‘yicha soliq solinadigan baza ularga ishlov berish (ularni boyitish), ularni qayta ishlash (affinaj) va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda o‘rtacha olingan (o‘rtacha arifmetik birja) realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib aniqlanishi mumkin.

Soliq (hisobot) davri uchun oltin, kumush, palladiy va platina bo‘yicha o‘rtacha arifmetik birja narxi soliq organlari tomonidan London qimmatli metallar bozori uyushmasining (London Bullion Market Association) ertalabki fiksingi asosida, boshqa metallar bo‘yicha esa London metallar birjasining (London Metal Exchange) ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha arifmetik birja narxi narxlar qaysi valyutada belgilangan bo‘lsa, shu valyuta bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan valyuta kursiga ko‘paytirilgan metallar narxlarini qo‘shishda xos il bo‘lgan summani ko‘rsatilgan narxlar belgilangan kunlar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Soliq (hisobot) davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda, Soliq kodeksi 451-moddasining to‘rtinchi qismida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Soliq organlari har oyda, soliq (hisobot) davridan keyingi oyning o‘ninchi sanasidan kechiktirmay, o‘zlari ushbu moddaning yettinchi va sakkizinchi qismlariga muvofiq hisob-kitob qilgan har bir metall turi uchun o‘rtacha arifmetik birja narxini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

2. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga kiritilgan asosiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-741-sonli Qonuni bilan **2022 yil 1 yanvardan** foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454^1-moddasiga muvofiq foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i

to‘lovchilari bo‘lib Qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib oluvchi va (yoki) ularni texnogen mineral xos ilalardan ajratib oluvchi, shuningdek uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliq kodeksi 452-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan foydali qazilmalarning tegishli guruhlaridagi foydali qazilmalar jumlasiga qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari kiradi.

Tabiiy gaz, gaz kondensati va neft uglevodorod xomashyosi jumlasiga kiradi.

Soliq kodeksining 69-bobiga muvofiq faoliyatini mahsulot taqsimotiga oid bitimlar doirasida amalga oshiruvchi yuridik shaxslar soliq to‘lovchi hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454^2-moddasiga muvofiq foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini solish obyekti bo‘lib Soliq kodeksining 454^3-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadigan, qazib olingan (ajratib olingan) metallni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan **renta daromadi** hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454^3-moddasiga muvofiq qazib olingan (ajratib olingan) metallarni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan, Soliq kodeksining 176-moddasi talablari hisobga olingan holda bahoga qo‘shimcha qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini kiritmay aniqlanadigan, bitim taraflari tomonidan qo‘llanilgan bahodan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan daromadlar hamda ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farq renta daromadi deb e’tirof etiladi.

Renta daromadi birlamchi ishlov berishdan (sanoat yo‘sinida dastlabki qayta ishlashdan, rudani boyitishdan) o‘tgan va realizatsiya qilish uchun yaroqli bo‘lgan metallarni yoki uglevodorod xomashyosini qazib olish (ajratib olish) faoliyati doirasida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454^4-moddasiga muvofiq foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini soliq

bazasi bo‘lib renta daromadining summasi soliq bazasi hisoblanadi (renta zarari mavjud bo‘lganda esa soliq bazasi nolga teng deb e’tirof etiladi).

Soliq bazasi Soliq kodeksining 454^3-moddasida o‘ziga nisbatan renta daromadini aniqlash nazarda tutilgan yer qa’rining har bir litsenziyalangan uchastkasi (litsenziyalangan uchastkalar guruhi) bo‘yicha alohida hisoblab chiqariladi.

23.3. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ining stavkalari

a) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2022 yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

12-jadval

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

T/r	Foydali qazilmalar guruhi	Soliq solish obyektining nomi	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Energiya manbalari	Neft, tabiiy gaz, gaz kondensati	10
		Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo‘yicha	5
		Yer ostiga joylashtirilgan gaz	2,6
		Ko‘mir, yonuvchi slanslar	4
2.	Qimmatbaho metallar	Oltin, kumush, palladiy, platina va platina guruhi, osmiy va boshqa qimmatbaho metallar	7
3.	Rangli metallar	Mis, qo‘rg‘oshin, rux, molibden, nikel, kobalt, qalay, surma, simob, alyuminiy	7
		Boshqa rangli metallar	10
4.	Radioaktiv	Uran, toriy, radiy	8

	metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	Volfram	2,7
		Reniy, selen, tellur, indiy, vismut, tantal, niobiy, berilliy, litiy, rubidiy, seziy, galiy, titan, sirkoniy, gafniy, talliy, kadmiy	8
		Lantan va lantanoidlar, ittriy, skandiy	8
		Boshqa radioaktiv metallar, nodir elementlar va nodir yer elementlari	8
5.	Nodir tosh xomashyosi	Feruza, listvenit, rodonit, zmeyevik, marmar yo‘l-yo‘l aqiq, kaxolong, yashma, xalsedon, aqiq, gematit va boshqa qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	10
6.	Qora metallar	Temir	5
		Titan, marganets, xrom, vanadiy va boshqa qora metallar	4
7.	Kon-kimyo xomashyosi	Mineral pigmentlar	5,5
		Yod	4,8
		Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o‘g‘itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xomashyosi	3,5, biroq 5 000 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
8.	Kon-ruda xomashyosi	Eruvchan shpat, dala shpati xomashyosi, kvars va kvarsit, kaolin (realizatsiya qilingan hajmi bo‘yicha), tabiiy grafit	7,9
		Shisha xomashyosi, kvars qum, brusit marmar	3
		Talk va talk toshi, talkli magnezit, vollastonit, asbest, barit, vermikulit, qoliplash xomashyosi, felzit	4

		Serpentinit va boshqa kon-ruda xomashyosi	5
9.	Noruda qurilish materiallari	Sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari tsement xomashyosi	5
		Sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktosh	22 500 so‘m/tonna*
		Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xar-sangtosh, gips toshi, gips va angidrid, ganch, marmar, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granitlar, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xomashyosi, travertin	5, biroq 5 000 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
		G‘isht-cherepitsa xomashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi	5, biroq 3 750 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan
		Ohak ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktosh, farfor xomashyosi, keramzit xomashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, gliyej, andezibazalt, temir tarkibli qo‘shimchalar, magnetit — gematitli jinslar va boshqa noruda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan	5

		foydali qazilmalar	
10.	Texnogen mineral xos ilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar		Asosiy foydali qazilmani qazib olganlik uchun soliq stavkasining 50 foizi

* Belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq sement ishlab chiqaruvchi zavodlar, shuningdek ularga sement xomashyosi — ohaktoshni realizatsiya qiladigan soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadi. Sement ishlab chiqarish uchun faqat ko‘mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Agar 2021-yilning 1-sentabriga qadar kuchga kirgan bitimlar va shartnomalarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, uglevodorodlarni, qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi, shuningdek mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiruvchi, davlat ulushi ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarga, agar 452-moddaning uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha oshirilgan stavkalarni belgilashi mumkin.

452-moddaning birinchi qismida belgilangan soliq stavkalari 2022-yil 1-yanvardan keyin qazib olish boshlangan yer qa’ri uchastkasida uglevodorodlarni, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi, davlat ulushi ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

b) Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454^5-moddasiga muvofiq foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i minimal soliq stavkasi, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, soliq bazasiga nisbatan 25 foiz miqdorida belgilanadi.

Yer qa’ri uchastkasidan geologik jihatdan o‘rganish uchun foydalanish yoki ahamiyatli tijorat salohiyatiga ega bo‘lgan, avval qidiruv o‘tkazilgan yer qa’ri uchastkasida alohida obyektlar bo‘yicha metallarni yoxud uglevodorod xomashyosini qazib olish huquqi tanlov savdolariga qo‘yilganda, tanlov savdolarining tashkilotchisi yoki tanlov savdolarining ishtirokchilari soliq stavkasining oshirilgan miqdorini taklif qilishga haqli. Bunda soliq to‘lovchi soliqlarni oshirilgan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

23.4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 453-moddasiga muvofiq Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq uchun Soliq davri va Hisobot davri belgilangan.

Quyidagilar soliq davridir:

yuridik shaxslar uchun — chorak;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

Quyidagilar hisobot davridir:

yuridik shaxslar uchun — bir oy;

jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454-moddasiga muvofiq Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi belgilangan.

Soliq to‘lovchilar ushbu soliqni Soliq kodeksining 451 va 451[1]–moddalariga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda, mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Foydali qazilmalarning alohida turlari bo‘yicha soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan, lekin belgilangan soliq summasidan kam bo‘lmagan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq hisoboti har bir hisobot va soliq davri tugagandan keyin soliq hisobida turgan joydagi, noruda qurilish materiallari bo‘yicha esa — qazib olish amalga oshirilgan joydagi soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik shaxslar tomonidan — soliq davri boshlanganidan e’tiboran ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash quyidagicha amalga oshiriladi:

yuridik shaxslar tomonidan — har oyda keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan — soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

2. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i bo‘yicha.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 454[7]-moddasiga muvofiq foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi belgilangan.

Soliq to‘lovchilar ushbu soliqni mustaqil ravishda, Soliq kodeksining 454[4]–moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi. Bunda chet el valyutasida ifodalangan soliq bazasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining soliq hisobotini taqdim etish sanasida belgilangan kursi bo‘yicha milliy valyutada qayta hisob-kitob qilinadi.

Soliq hisoboti soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga soliq to‘lovchi tomonidan har bir hisobot va soliq davri tugaganidan keyin quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

renta zarari mavjud bo‘lgan davrda — yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay;

soliq bazasi mavjud bo‘lgan davrda — har chorakda, ortib boruvchi yakun bilan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay.

Soliqni to‘lash har chorakda keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i belgilangan.

Soliq kodeksiga ko‘ra yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta’minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Resurs soliqlari bo‘yicha daromadlarning asosiy ulushi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqqa to‘g‘ri keladi - 68,6%. O‘sish dinamikasi - jami 107,6%, barcha soliqlar bo‘yicha 146,8%ga nisbatan. Bundan tashqari, soliqlarning umumiy tushumida soliqning salmog‘i kamayib bormoqda. Ushbu soliqdan asosiy tushumlar (74%) yana “NKMK” AJ va “OKMK” AJ hissasiga to‘g‘ri keladi.

Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- qimmatbaho, rangli, nodir metallar, shuningdek, нефть, tabiiy gaz va gaz kondensati uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 2021 yil 1 yanvardan (shuningdek, 2022 yil 1 yanvardan ham kamaytirish) kamaytirish;

- boshqa tomondan, soliq stavkalarining kamayishi oltin va mis narxlarining o‘sishi, ularni ishlab chiqarish hajmining oshishi,

shuningdek ayirboshlash kursining o‘zgarishi hisobiga soliq tushumini muvozanatlashtirdi;

- soliq tushumlariga 2022 yil boshidan qimmatbaho va rangli metallar bo‘yicha soliq solinadigan bazani aniqlash bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirishlar ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, uning hisob-kitobida tan olingan xalqaro metall birjalarida belgilangan o‘rtacha arifmetik narxdan kelib chiqiladi;

- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning amal qilishi bilan bir qatorda unga yaqin soliq - tijoratbop topilma bonusi undiriladi, uni hisoblab chiqarish uchun baza bo‘lib yana foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati hisoblanadi. Bonus stavkasi - foydali qazilmalarning qazib olinadigan hajmi qiymatining 0,1%ini tashkil qiladi.

2022 yil 1 yanvardan foydali qazilmalarni (qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib oluvchi, shuningdek uglevodorod xomashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslar) qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i joriy qilindi.

Soliq solish obyekti bo‘lib renta daromadi - qazib olingan (ajratib olingan) metallarni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar hamda ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Ya’ni ayni bir soliq solish obyekti bo‘yicha bir-biriga yaqin uchta soliq amal qilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini to‘lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini soliqqa tortish obyektlariga nimalar kiradi?

3. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘i bo‘yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblash hisoblash tartibi qanday?
5. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini to‘lash muddatlari qanday?

Testlar

1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

A) 1994 yil; B) 1992 yil; C) 1995 yil; D) 1996 yil.

2. Quyida keltirilganlarning qaysilarini yer qa‘ridan foydalanuvchilar to‘laydilar?

A) maxsus renta solig‘i;

B) imzoli va tijoratbop bonuslar;

C) yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq;

D) yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq, qo‘shimcha foyda solig‘i va bonuslar.

3. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang.

A) qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma hajmining qiymati;

B) jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi;

C) jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida o‘zining xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi;

D) foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik shaxslarning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi.

4. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

A) Oliy Majlis senati tomonidan;

B) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

C) Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

D) Oliy Majlis qonunchilik palatasi tomonidan.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. . – T.: «Adolat», 2022- y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: Xalq so‘zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 b.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T:.Moliya, 2019.
4. Almardonov M., Yusupov O. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: TDIU, 2019.
5. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To‘xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.- 158-160-betlar.

24 - MAVZU. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ

24.1. Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar

O‘zbekistonda 2005 yildan buyon amalda bo‘lgan yagona soliq to‘lovi o‘rniga “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599-sonli Qonuni (30.12.2019 yil)ga asosan 2020 yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar deb quyidagilar e’tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar — qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni mavjud bo‘lsa;

4) benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha;

7) bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shasxlarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta’mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga;

9) alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo‘yicha turg‘un savdo shaxobchalariga;

10) bozorlarga va savdo komplekslariga;

11) soliq maslahatchilarining tashkilotlariga;

12) auditorlik tashkilotlariga;

13) notijorat tashkilotlariga, shu jumladan budjet tashkilotlariga.

24.2. Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 462-moddasida aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq to‘lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli.

Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to‘lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o‘tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tish uchun soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida soliq hisobida turgan

joyidagi soliq organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o‘n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshganda, agar ushbu moddaning to‘rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tadi.

Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko‘rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so‘mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi.

Bildirishnoma ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashni Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun va bir vaqtning o‘zida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasidan boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga ixtiyoriy ravishda o‘tgan soliq to‘lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo‘yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga kamida o‘n ikki oydan keyin qayta o‘tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro‘y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo‘lingan va ro‘yxatdan o‘tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo‘lgan kunlar soniga ko‘paytirilganda bir milliard so‘mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro‘yxatdan o‘tilgan yildan keyingi yildan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo‘yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslar, ularni samarasiz foydalanayotganligi bo‘yicha xulosa chiqarilgan oydan

keyingi oyning sanasidan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qurilishi tugallanmagan obyektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo‘lgan yuridik shaxslar, investitsion loyihaning amalga oshirilmaganligi to‘g‘risida xulosa berishga vakolati bo‘lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobidan obyektlar qurilishini (bundan joriy va kapital ta’mirlash mustasno) bajaruvchi yuridik shaxslar bunday qurilishga doir shartnoma tuzilgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qaysi sana oldinroq kelishiga qarab import shartnomasi tuzilgan yoki tovarlar olib kirilgan (import qilingan) sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Soliq kodeksi 461-moddasi ikkinchi qismining 2, 4, 5, 9 va 11-bandlarida nazarda tutilgan shaxslar tegishli ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) olgan yoki o‘z faoliyatini boshlaganligi to‘g‘risida vakolatli organni xabardor qilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarda yigirma besh gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari mavjud bo‘lgan taqdirda, ular ko‘rsatilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni yoki ushbu yer uchastkasining maydoni o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs bo‘lgan oddiy shirkat ishtirokchisi oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha oddiy sheriklik

shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Bozorlar va savdo komplekslari, notijorat tashkilotlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan e’tiboran, budjet tashkilotlari esa tashkil topgan sanadan e’tiboran qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik xizmatlari ko‘rsatish uchun shartnoma tuzilgan sanadan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hamda foyda solig‘ini to‘lashga o‘tadi.

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash soliq to‘lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

Soliq kodeksi bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

agar Soliq kodeksida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, hisobvaraq-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

24.3. Aylanmadan olinadigan soliqni soliq solish obyekti va soliq bazasi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 463-moddasiga muvofiq Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti bo‘lib yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi va uning hududidan tashqaridagi manbalardan hisobot (soliq) davri mobaynida olingan jami daromadlari hisoblanadi (Soliq kodeksining 43-bobiga muvofiq aniqlanadigan jami daromad soliq solish obyektidir, bundan Soliq kodeksining 304-moddasiga muvofiq, ushbu moddada nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda soliq solish chog‘ida inobatga olinmaydigan daromadlar mustasno).

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj,

ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi;

vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun — agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog‘lomlashtirish hamda xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

notijorat tashkilotlarining Soliq kodeksi 318-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilmagan daromadlari.

Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti bo‘lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo‘lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to‘lash hisobidan yoki dividend to‘lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa;

4) ko‘p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo‘lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo‘lsa, berish.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e’tirof etiladi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha daromadlar Soliq kodeksining 303-moddasida nazarda tutilgan tartibda jami daromad tarkibiga kiritiladi.

Balansning valyuta hisobvaraqlarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o‘rtasidagi saldo soliq solish obyekti deb e’tirof etiladi. Kursdagi salbiy farqning summasi kursdagi ijobiy farq summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq bazasini kamaytirmaydi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoxud qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i to‘lash davrida aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tguniga qadar olingan daromadlar jami daromadga kiritilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 464-moddasiga muvofiq **Aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi bo‘lib** Soliq kodeksining 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan jami daromad hisoblanadi.

Bundan quyidagilar mustasno:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo‘lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko‘p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo‘lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo‘shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular shakllangan davrdagi qonunchilikka muvofiq soliqlar bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun — turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga.

24.4. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 465-moddasiga ko‘ra Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasi bo‘lib Soliq kodeksi 463-moddasiga muvofiq hisoblab chiqilgan, uning tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda o‘zining yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish holatining o‘zidan yaqqol kelib chiqmasa, ko‘rsatishi shart.

Soliq solishda yakka tartibdagi tadbirkorning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan, uning tadbirkorlikni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkini sotishdan olingan daromadlari hisobga olinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 466-moddasiga muvofiq Daromadlarga tuzatish kiritish belgilangan.

Hisobot soliq davrida soliq bazasini ko‘paytirish yoki kamaytirish daromadlarga tuzatish kiritish deb e’tirof etiladi.

Daromadlarga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;

2) bitim shartlari o‘zgarganda;

3) narxlar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovlardan foydalanganda;

4) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

466-moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromadlarga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

466-moddaga muvofiq daromadlarga tuzatish kiritish ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (xizmatlarni) sotuvchi tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadga tuzatish kiritishni Soliq kodeksining 257-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Daromadlarga 466-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Daromadlarga tuzatish kiritish soliq to‘lovchi umumbelgilangan soliq solish tartibidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tgan hollarda ham amalga oshiriladi, bundan tuzatish kiritiladigan daromadlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash hollari mustasno.

24.5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari. Alohida-alohida hisob yuritish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 467-moddasiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Soliq to‘lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to‘lovchilar, bundan 2 — 14-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2.	Bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3.	Lombardlar	25
4.	Konsert-tomosha ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar	5
5.	Brokerlik idoralari (6-bandda ko‘rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar, shu jumladan telekommunikatsiya operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar	25
6.	Sug‘urta agentlari, shuningdek sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar bozori va tovar-xomashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar, shuningdek rieltorlik faoliyatini amalga oshiruvchi ko‘rsatuvchi shaxslar	13
7.	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8
8.	Umumiy ovqatlanish korxonalari	
	joylashgan joyiga qarab:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	8
	boshqa aholi punktlarida	6
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	4
	shundan	
	umumta’lim maktablari, maktab-internatlar, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75%i

	umumiy ovqatlanish korxonalari	
9.	Chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchilar	
9.1.	joylashgan joyiga qarab:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
9.2.	joylashgan joyidan qat’i nazar, tamaki mahsulotlari realizatsiyasidan tovar aylanmasi bo‘yicha:	4
10.	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari (11-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari)	4
11.	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	1
12.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar aylanmasining 4%i yoki yalpi daromadning 25%i
13.	Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar	2
14.	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, “Nuroniy” jamg‘armasi va “O‘zbekiston Chernobilchilari” assotsiatsiyasi bo‘lgan, umumiy sonida nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va 1941 — 1945-yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo‘lmagan va nogironligi bo‘lgan shaxslar, urush va 1941 — 1945-yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to‘lash fondi umumiy mehnatga haq to‘lash fondining 50 foizidan kam bo‘lmagan soliq to‘lovchilar	0

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 468-moddasiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliq stavkalari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish belgilangan.

Turli soliq solish obyektlari va (yoki) soliq stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan soliq to‘lovchilar bunday faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda soliq

to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha soliqni to‘lashi shart.

468-modda birinchi qismining qoidalari chakana savdo sohasidagi mustaqil yuridik shaxs bo‘lmagan turli aholi punktlarida joylashgan bir qancha savdo nuqtalariga ega soliq to‘lovchilarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Soliq kodeksi 297-moddasi uchinchi qismining 4, 5, 6, 10, 11, 12, 13, 14, 17, 18, 21, 22, 23, 25 va 27-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlarga, shuningdek foizlar tarzidagi daromadlarga soliq to‘lovchining hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha umumiy jami daromadlaridagi ulushi ustunlik qiladigan faoliyat turi uchun belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha soliq solinadi.

Hisobot (soliq) davrida Soliq kodeksi 467-moddasining 2 — 14-bandlarida ko‘rsatilgan faoliyat turlari mavjud bo‘lmaganda, 468-moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlarga Soliq kodeksi 467-moddasining 1-bandida belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

24.6. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 469-moddasiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliqning soliq davri kalendar yil, hisobot davri esa bir oydir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 470-moddasiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi belgilangan.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Agar 470-moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, hisobot davri yakunlari bo‘yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo‘yicha — hisobot davridan keyingi oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo‘yicha — soliq davridan keyingi davrning 15-fevralidan kechiktirmay;

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha soliqni to‘lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

So‘nggi uch yil ichida ushbu soliqdan tushumlar (YaST o‘rniga joriy etilgan) sezilarli darajada kamaydi. O‘sish dinamikasi salbiy - 82,9%. Bundan tashqari, soliqning umumiy tushumdagi salmog‘i 1%gacha kamaydi. Aylanmadan olinadigan soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatmoqda:

- soliq islohoti boshlanishi bilan aylanmasi yiliga 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan kichik korxonalarni (ilgari YaST to‘laganlarni) QQS va boshqa umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazish. Bu umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar sonining jiddiy o‘sishiga (o‘sish 19,4 baravar) va soddalashtirilgan tizim bo‘yicha soliq to‘lovchilar sonining nisbatan yuqori bo‘lmagan (1,9 baravar) o‘sishiga olib keldi;

- soliq islohoti boshlanishi bilan yuridik shaxslar - 50 gektar (2022 yildan - 25 gektar) va undan ortiq sug‘oriladigan yer maydoni mavjud qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini yagona yer solig‘i to‘lash o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq to‘lashga o‘tkazish ham aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar sonining jiddiy oshishiga olib keldi;

- aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar soni qariyb ikki baravarga – 160 mingtadan 299 mingtaga oshganiga qaramay, har bir korxonaga o‘rtacha tushum sezilarli darajada kamaydi – 2019 yilda bir korxonaga o‘rtacha 12,5 mln so‘m aylanmadan olinadigan soliq to‘g‘ri keldi, 2021 yilda – 5,5 mln so‘mgacha kamaydi. Albatta, 2020 yilda

boshlangan pandemiya aylanmadan olinadigan soliq tushumiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ammo aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar sonining o‘sishi va ushbu soliqdan tushumlarning sezilarli darajada kamaygani, bir tomondan, to‘lovchilarning bir qismi soyaga kirib, o‘z daromadlarini ko‘rsatmayotganini, boshqa tomondan, umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilarning bir qismi ularni to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida o‘z aylanmalarini kamaytirish va ko‘rsatmaslikka hamda aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishga intilishlarini ko‘rsatadi. Yuqoridagi holatga Prezident Farmoni (2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son) bilan belgilangan 1 mlrd so‘mlik aylanma miqdorini qayta ko‘rib chiqilmagani ta’sir etadi, Farmon bilan inflyatsiya darajasi va umuman respublikaning iqtisodiy ahvolini hisobga olgan holda ushbu miqdorni uch yilda kamida bir marta oshirish nazarda tutilgandi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Aylanmadan olinadigan soliqni soliq solish obyekti nima?
2. Aylanmadan olinadigan soliqni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?
3. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq to‘lovchilari kimlar hisoblanadi?
4. Aylanmadan olinadigan soliq solish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Aylanmadan olinadigan soliqdan kimlar ozod qilinadi?
6. Aylanmadan olinadigan soliqni stavkalari va ularni qo‘llash tartibi qanday?
7. Alohida-alohida hisob yuritishni mohiyatini tushuntirib bering?
8. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi qo‘shilgan qiymat solig‘ini ham to‘lasa bo‘ladimi?
9. Aylanmadan olinadigan soliq stavkasi kim tomonidan belgilanadi?
10. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash qanday amalga oshiriladi?

Testlar

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar ko‘rsatilgan to‘gri javobni belgilang?

A. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar

B. Aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar

C. Lotoreyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

D. Jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan yuridik shaxslar

Aylanmadan olinadigan soliq tatbiq etilmaydigan soliq to‘lovchilar to‘g‘ri keltirilgan javobni tanlang?

A. Aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga

B. Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar

C. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar

D. Yakka tartibdagi tadbirkorlar

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga 50 gektar va undan ortiq sug‘oriladigan ekin maydoni mavjud bo‘lsa qaysi soliq turi tatbiq etilmaydi?

A. Aylanmadan olinadigan soliq

B. Daromad solig‘i

C. Qo‘shilgan qiymat solig‘i

D. Ijtimoiy soliq

Aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A. 4 foiz

B. 15 foiz

C. 6 foiz

D. 10 foiz

Lombard xizmatlarini ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A. 25 foiz

B. 12 foiz

C. 20 foiz

D. 18 foiz

Aholisi soni yuz ming nafar va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A. 3 foiz

B. 5 foiz

C. 6 foiz

D. 13 foiz

Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash muddatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

A. Tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

B. Tegishli soliq davri uchun soliq hisoboti taqdim etilgandan so‘ng 5 ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

C. Tegishli soliq davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan o‘n kundan so‘ng amalga oshiriladi.

D. Tegishli soliq davri uchun soliq hisobotini taqdim etish kunidan keyingi kundan so‘ng amalga oshiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

A. 5 foiz.

B. 16 foiz.

C. 20 foiz.

D. 33 foiz.

Borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda joylashgan chakana savdo korxonalari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A. 1 foiz.

B. 10 foiz.

C. 15 foiz.

D. 33 foiz.

Elektron tijorat subyektlarining Milliy reyestriga kiritilgan soliq to‘lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A. 2 foiz.

B. 5 foiz.

C. 7 foiz.

D. 4 foiz

25-MAVZU. SOLIQ TO‘LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

25.1. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 475-moddasiga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim shartnoma bo‘lib, bu shartnomaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi haq olish asosida hamda muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko‘rsatilgan yer qa’ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish uchun mutlaq huquqlar beradi.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimda quyidagilar nazarda tutiladi:

hisob yuritish va hisobot berish tartibi;

soliq solish va boshqa to‘lovlarni to‘lash shartlari;

chet ellik investorning ulushini olib chiqish tartibi.

Chet ellik investor, bundan mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno, mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilish muddati mobaynida ushbu Kodeksning 17-moddasida nazarda tutilgan soliqlarni to‘laydi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar, agar mahsulot taqsimotiga oid bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Chet ellik investorga soliq solish quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

1) foyda solig‘i mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromad bo‘yicha va faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha olingan daromad bo‘yicha alohida-alohida to‘lanadi. Bitim shartlariga binoan chet ellik investorga tegishli bo‘lgan, chegirmalar qilinmagan holda foydaga qolgan mahsulotning qiymati

mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarish chog‘ida olingan daromadlar bo‘yicha foyda solig‘i solish obyektidir;

2) mineral xomashyoni kavlab olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foizli nisbatda mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlariga muvofiq belgilanadigan va pul shaklida yoki kavlab olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to‘lanadigan yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Agar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yuridik shaxslar birlashmasi investor sifatida ish yuritayotgan bo‘lsa, bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biri yoki mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajaruvchi operator soliq majburiyatlarini bajaruvchi bo‘ladi. Bunda yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma olgan investor bir oylik muddatda soliq organini mazkur birlashmadan soliq majburiyatini bajaruvchi bo‘lib ish yuritadigan ishtirokchi to‘g‘risida xabardor etishi shart.

25.2. Advokatlar hay’atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 477-moddasiga muvofiq Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari faoliyatning notijorat tashkilotlar sifatida advokatlar tomonidan huquqiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq qismi bo‘yicha soliqlar va yig‘imlar to‘lashdan ozod qilinadi, bundan quyidagilar mustasno:

bojxona to‘lovlari;

ijtimoiy soliq;

to‘lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar.

Advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda (yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan) soliqlar va yig‘imlar tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 478-moddasiga muvofiq Advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun olinadigan gonorarlar summalariga ushbu moddada nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda, Soliq kodeksining XIII bo‘limida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solish obyektidir.

Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun olingan summa bilan advokatlar hay’atlarini, advokatlik firmalarini va advokatlik byurolarini saqlab turish uchun o‘tkaziladigan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi advokatning daromadidan uning daromadida hisobga olinadigan ijtimoiy to‘lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

25.3. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 479-moddasiga muvofiq Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar ushbu bobda nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliqlarni to‘lovchilar hisoblanadi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar mehnatga haq to‘lash tarzida olinadigan daromadlar bo‘yicha belgilangan stavkalar bo‘yicha ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘laydi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius zimmasiga xodimlarning mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini va ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lash majburiyati yuklatiladi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar notarial xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

25.4. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning foydasiga soliq solish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 480-moddasiga muvofiq Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar foyda solig‘ini Soliq kodeksida belgilangan stavka bo‘yicha to‘laydi. Bunda foyda solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va to‘lash yiliga bir marta, hisobot davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi Soliq kodeksning 43-bobida nazarda tutilgan daromadlarning barcha turlari notariuslarning daromadlari deb e’tirof etiladi.

Notarial faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar chegiriladigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi. Bunda chegirilmaydigan xarajatlar Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

Foyda solig‘i to‘langanidan keyin xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning tasarrufida qolgan foyda soliq solish maqsadida dividendlarga tenglashtiriladi.

25.5. O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 480^1-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlarida Soliq kodeksining 480^2-moddasida belgilangan maxsus soliq stavkalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi soliq solishning alohida tartibi belgilanishi mumkin.

Soliq solishning alohida tartibiga ega O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlari quyidagilardan iborat: Farg‘ona viloyatining So‘x tumani, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara mahallasi, shuningdek Farg‘ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Xos ilot mahallasining Toshtepa — 2 ko‘chasi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 480^2-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

1) foyda solig‘i bo‘yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq organida hisobda turgan va ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan faoliyatdan daromadlar olayotgan soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi;

2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirish chog‘ida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i har chorakda yigirma besh ming so‘m miqdorida to‘lanadi;

3) ijtimoiy soliq bo‘yicha:

yuridik shaxslar uchun (bundan budjet tashkilotlari mustasno) — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to‘lash fondiga nisbatan qo‘llaniladi;

O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida;

4) aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha — 1 foiz. Mazkur soliq stavkasi soliq to‘lovchilarga nisbatan ular tushumining O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida amalga oshirilayotgan faoliyatidan olinadigan qismiga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining alohida hududlarida joylashgan ko‘chmas mulk obyektlariga va yer uchastkalariga, shuningdek ushbu

hududlarda foydalaniladigan suv resurslariga nisbatan mazkur Soliq kodeksining 415, 422, 429, 437 va 445-moddalarida belgilangan mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 0,1 koeffitsiyent qo‘llaniladi.

25.6. Alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarish

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 481-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yilning alohida sharoitlarida quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga haqlidir:

1) Soliq kodeksida va “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va yig‘imlar (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno) stavkalarini o‘zgartirish;

2) Soliq kodeksida belgilangan soliqlar, shu jumladan ular bo‘yicha bo‘nak va joriy to‘lovlar hamda yig‘imlarni to‘lash muddatlarini uzaytirish;

3) soliq, moliyaviy hisobotlarni va (yoki) soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni, shuningdek ularni taqdim etmaganlik (o‘z vaqtida taqdim etmaganlik) uchun javobgarlikni qo‘llamaslik asoslari va (yoki) shartlarini taqdim etish muddatlarini uzaytirish;

4) soliqlar, penyalar va jarimalarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish, shuningdek ularni berish tartibi va shartlarini qayta ko‘rib chiqish;

5) soliqlar, yig‘imlar, penyalar va jarimalarni to‘lash to‘g‘risidagi talabnomalarni jo‘natish va ijro etish muddatlarini, shuningdek soliqlar, yig‘imlar, penyalar, jarimalarni undirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish muddatlarini uzaytirish;

6) soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno) soliq imtiyozlarini berish;

7) soliqlar, penyalar va jarimalarni majburiy undirish choralarini to‘xtatib turish.

481-moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi davrida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha foizsiz to‘lashni kechiktirishning yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashni qo‘llashning va alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarishning vaqtinchalik tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 482-moddasiga muvofiq Soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari bo‘yicha foizsiz kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati quyidagilar bo‘yicha beriladi:

Soliq kodeksi 17-moddasi birinchi qismining 6, 7 va 8-bandlarida ko‘rsatilgan soliqlar bo‘yicha — mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, agar ushbu qismning uchinchi xatboshisida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa. Ko‘rsatilgan soliqlarga nisbatan kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati 2020-yil 31-dekabrga qadar soddalashtirilgan asosda, olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga berilishi mumkin;

Soliq kodeksi 17-moddasi birinchi qismining 6 — 9-bandlarida ko‘rsatilgan soliqlar va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha — o‘z faoliyatini to‘xtatgan va (yoki) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan tushumlar miqdori 2020-yilning birinchi choragida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi o‘rtacha oylik ko‘rsatkichga nisbatan 50 foizdan ko‘proqqa kamayadigan mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga. Bunday soliqlarga nisbatan ushbu moddaning beshinchi qismida

belgilangan tartibda 2020-yil 31-dekabrga qadar kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyati berilib, kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyati berilgan soliqlar summalari keyinchalik to‘lanadi.

Soliq kodeksining 11-bobida nazarda tutilgan soliqlarni to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish tartibi soliqlarni to‘lash bo‘yicha foizsiz kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berishning ushbu moddada nazarda tutilgan tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha foizsiz kechiktirish va bo‘lib-bo‘lib to‘lashning:

1) ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan imkoniyati — soliq to‘lovchining arizasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining xulosalari asosida, boshqa hujjatlar talab qilib olinmagan holda beriladi;

2) ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida ko‘rsatilgan imkoniyati — mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ular soliq organlariga quyidagilarni taqdim etgan taqdirda qo‘llaniladi:

soliq solish obyekti joylashgan joy bo‘yicha — mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha kechiktirishni (bo‘lib-bo‘lib to‘lashni) qo‘llash to‘g‘risidagi bildirishni Soliq kodeksi 417-moddasining oltinchi qismida, 432-moddasining birinchi qismida va 448-moddasining uchinchi qismida belgilangan soliqni, soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovini to‘lash muddatlaridan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan esa mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha kechiktirishni (bo‘lib-bo‘lib to‘lashni) qo‘llash to‘g‘risidagi bildirishni;

soliqqa doir hisobga olish joyi bo‘yicha — aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliq bo‘yicha kechiktirishni (bo‘lib-bo‘lib to‘lashni) qo‘llash to‘g‘risidagi bildirishni soliq hisobotini taqdim etish uchun belgilangan muddat bilan bir vaqtda.

Soliq to‘lovchilar tomonidan ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida ko‘rsatilgan soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha kechiktirishni (bo‘lib-bo‘lib to‘lashni) soliq organlarini xabardor qilmagan holda qo‘llanilganligiga soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lamaganlik sifatida qaraladi. Mazkur hollarda bunday soliq to‘lovchilarni aniqlagan soliq organlari to‘lanmagan soliqlarning, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarining summasiga Soliq kodeksining 110-moddasida belgilangan tartibda penya hisoblaydi.

Ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida ko‘rsatilgan, kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) imkoniyati berilgan soliqlarga nisbatan soliqning, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarining summalarini to‘lash amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soliq bo‘yicha — olti oy davomida teng ulushlarda, Soliq kodeksi 407-moddasining beshinchi qismida va 408-moddasining to‘rtinchi qismida belgilangan soliqni to‘lash muddatlaridan kechiktirmay;

2) quyidagilar bo‘yicha o‘n ikki oy davomida teng ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha — Soliq kodeksi 417-moddasining oltinchi qismida belgilangan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash muddatidan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa har oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay;

yuridik shaxslarning yer solig‘i bo‘yicha — Soliq kodeksining 432-moddasi birinchi qismida belgilangan soliqni to‘lash muddatidan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa — har oyning o‘n beshinchi sanasidan kechiktirmay;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha — Soliq kodeksi 448-moddasining uchinchi qismida belgilangan soliq bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash muddatidan kechiktirmay;

aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha — har oyning o‘n beshinchi kunidan kechiktirmay.

Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq mol-mulk va yer solig‘ining 2020-yil 31-dekabrdagi holatiga ko‘ra kechiktirilgan hamda to‘lanmagan summalarini to‘lash 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga oshiriladi. Bunda mahalliy davlat hokimiyati organlari ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisiga muvofiq kechiktirilgan soliq summasi keyinchalik to‘lanadigan, biroq ikki yildan ko‘p bo‘lmagan muddatni mustaqil ravishda belgilashga haqli.

Soliqlarni, soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilgan davrda soliq to‘lovchi tugatilgan taqdirda kechiktirilgan (bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilgan) to‘lov summasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda budjet tizimiga to‘lanadi.

2020-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash 2020-yil 15-oktabrga qadar amalga oshiriladi.

2020-yilda foyda solig‘ining soliq to‘lovchisi joriy hisobot davri birinchi oyining yigirmanchi kunigacha joriy hisobot davri uchun foyda solig‘i bo‘yicha har oylik bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga mo‘ljallanayotgan foydadan kelib chiqqan, foyda solig‘ini o‘tgan chorak natijalari asosida hisoblab chiqarishning belgilangan talabi bekor qilingan holda taqdim etishga haqlidir. Foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari summasini kamaytirish holatlari aniqlangan taqdirda, soliq organlari har oylik bo‘nak to‘lovlari summasini qayta ko‘rib chiqishga haqli.

Soliq kodeksining 393-moddasida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha soliq to‘lovchilar 2019-yil uchun jami yillik daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi soliq organiga 2020-yil 1-avgustga qadar taqdim etadi. 2019-yil uchun jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya ma’lumotlariga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini to‘lash bunday deklaratsiyani taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalariga aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2021-yil 15-avgust holatiga ko‘ra yuzaga kelgan qarzdorlikni, shuningdek barcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha jarimalar hamda penyalarni 2022-yil 1-yanvardan 1-iyulga qadar bo‘lgan davrda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormasdan, soliq organlarini xabardor qilgan holda foizlarni to‘lamasdan, teng ulushlarda kechiktirib (bo‘lib-bo‘lib) to‘lash huquqi beriladi.

Vaqtinchalik soliq imtiyozlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga muvofiq 2020-yil 1-oktabrgacha bo‘lgan davr uchun foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda tijorat banklari tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning kreditlari bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirish imkoniyati berilgan davrda hisoblangan va kechiktirilgan foizlar summasi jami daromad tarkibiga kiritilmaydi.

2020-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda:

1) turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi subyektlar, “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalari, “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiga kiruvchi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar shaklidagi xalqaro aeroportlar, shuningdek “O‘zaeronavigatsiya markazi” davlat unitar korxonasi:

yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

2) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi oyiga bir milliard so‘mdan oshmaydigan, elektron hisob-fakturalarni qo‘llovchi qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘ini

har choraklik asosda, Soliq kodeksining 37-bobida belgilangan tartibda hisoblab chiqarishga va to‘lashga haqli;

3) foyda solig‘ini hamda aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda jami daromad tarkibiga Soliq kodeksi 299-moddasining to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan daromadlar kiritilmaydi;

4) qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini va ijtimoiy soliqni hisoblashni hamda to‘lashni Soliq kodeksning 392 va 408-moddalarida ko‘rsatilgan, karantin tadbirlari davrida o‘z faoliyatini majburiy tarzda to‘xtatib turgan soliq to‘lovchilarga nisbatan to‘xtatib turish faoliyatni amalga oshirish joyidagi soliq organlariga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida yuboriladigan faoliyatning vaqtinchalik to‘xtatib turilishi to‘g‘risidagi bildirish asosida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi faoliyati tiklangan taqdirda faoliyatni amalga oshirish boshlanguniga qadar bu haqida faoliyatni amalga oshirish joyidagi soliq organlarini shunga o‘xshash tartibda xabardor qilishi shart;

5) koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha tibbiyot va karantin obyektlarini qurish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan qurilish materiallari va boshqa tovarlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini va aksiz solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi;

6) Soliq kodeksi 415-moddasining uchinchi qismida, 422-moddasining oltinchi qismida, 429-moddasining to‘qqizinchi qismida va 437-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan, shu jumladan 2020-yil 1-aprelga qadar aniqlangan obyektlarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha oshirilgan soliq stavkalari, shuningdek ular bo‘yicha penya hisoblash va qarzdorlikni majburiy undirish choralari qo‘llanmaydi.

2021-yil 1-maydan 2022-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi hududiga o‘simlik yog‘i, kungaboqar va zig‘ir urug‘i, shuningdek soya danagini olib kirish;

o‘simlik yog‘ini (paxta yog‘idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma.

2022-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda 2020-yil 31-dekabrdagi holatga ko‘ra soliq qarzini majburiy ravishda undirish, shuningdek quyidagilar bo‘yicha penya hisoblash choralari ko‘rilmaydi:

faoliyatni turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohasida amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha;

2020-yilda hisoblangan va vaqtincha qiyinchiliklar munosabati bilan yuridik shaxslar tomonidan to‘lanmagan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha;

2020-yil 15-maydagi holatga ko‘ra qarzdorligi mavjud bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga soliqlar, penyalar va soliq to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun hisoblangan jarimalar bo‘yicha.

2021-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari:

foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi.

Quyidagilar mol-mulk solig‘ini, yer solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalarini to‘lashdan ozod qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasining har bir shahari va tumani uchun “o‘sish nuqtasi” deb belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan yangidan tashkil

etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxtako‘pir, Bo‘zatov va Shumanay tumanlarida joylashgan, yangidan tashkil etilgan sanoat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari — 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga. Soliq to‘lovchilarning mazkur toifasi foyda solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilangan soliq stavkasidan 50 foiz pasaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan aniqlangan ro‘yxat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan va og‘ir sharoitlardagi 45 ta mahalla va ovullarda joylashgan, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari — 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan muddatga. Tadbirkorlik subyektlarining mazkur toifasi foyda solig‘idan ham ozod qilinadi.

“Hunarmand” uyushmasining a’zolariga berilgan soliq imtiyozlari “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasining a’zolari bo‘lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan 2023-yil 1-martga qadar bo‘lgan davr uchun tatbiq etiladi.

Orolbo‘yida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan O‘zbekiston Respublikasida o‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan ilmiy-laboratoriya asbob-uskunasi, reagentlar va sarflash materiallari 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

2021-yilning 10-oktabridan 2022-yil 30-aprelga qadar bo‘lgan davrda tovuq go‘shtini, muzlatilgan baliqni va tirik parrandani, 2021-yil 10-oktabrdan 2022-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda esa go‘shtni (mol go‘shtini, qo‘y go‘shtini), tirik hayvonlarni (molni va qo‘yni) hamda ularni so‘yishdan olingan mahsulotlarni, kartoshkani realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek ularni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi.

2021-yil 1-sentabrdan 2021-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda umumiy ovqatlanish korxonalari yuridik shaxslardan olinadigan yer

solig‘ini va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan ozod etiladi.

Respublika tumanlarida (bundan Toshkent shahri mustasno) faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 1-yanvarga qadar bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida qo‘llaniladi.

Surxondaryo viloyatining Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlarida, tog‘li hududlarida va yer maydonlari sho‘rlangan hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu tumanlarda (hududlarda) o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, aylanmadan olinadigan soliqni, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summasini to‘lashdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ozod qilinadi.

Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida va yer maydonlari sho‘rlangan hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu hududlarda o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) 2021-yil 10-sentabrdan 2024-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

Ushbu moddaning o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan tog‘li hududlarning hamda yer maydonlari sho‘rlangan hududlarning ro‘yxati xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida favqulodda hodisa oqibatida zarar ko‘rgan baliqchilik, chorvachilik hamda parrandachilik xo‘jaliklari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lashdan 2020-yil 1-maydan 2022-yil 1-noyabrga qadar ozod qilinadi.

Bunda zarar ko‘rgan baliqchilik, chorvachilik va parrandachilik ho‘jaliklarining ro‘yxati xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2022-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari:

foyda solig‘ini, aylanmadan olinadigan soliqni, ijtimoiy soliqni va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini 1 foiz miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi.

Bo‘yalgan matoni, bo‘yalgan gazlamani va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari (shu jumladan komissioner (ishonchli vakil) orqali eksport qilgan tadbirkorlik subyektlari) 2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Ushbu moddaning o‘n yettinchi qismida nazarda tutilgan imtiyoz bo‘yalgan mato, bo‘yalgan gazlama va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotini eksport qilishdan olingan tushumi barcha tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumining kamida 80 foizini tashkil etadigan soliq to‘lovchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

MUNDARIJA

KIRISH 3
I-bo‘lim. Moliyaning ijtimoiy – iatisodiy mohiyati va moliyaviy munosabatlar..... 7
I-bob. Moliyaning mohiyati va funksiyalari…….. 7
1.1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari…… 7
1.2. Moliyaning funksiyalari ……. 15
1.3. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishda moliyadan foydalanishning obyektiv shart-sharoitlari va imkoniyatlari…… 20
1.4. Moliya geneziyasi (taraqqiyoti)…….. 28
Asosiy adabiyotlar..... 40
2-mavzu. Moliya tizimi..... 41
2.1. Moliya tizimining mazmun mohiyati…….. 41
2.2. Moliya tizimining uning soha va bo‘g‘inlari……. 45
2.3. Etakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi…… 55
Asosiy adabiyotlar..... 60
III-bob. Soliq siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari..... 61
3.1. Soliq siyosati tushunchasi va huquqiy nazariy asoslari..... 61
3.2. Hozirgi davrda soliq siyosatini ishlab chiqish va unda davlatning roli…….. 65
3.3.Soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish yo‘nalishlari..... 67
3.4. Moliyaviy tizim tufayli resurslarning birlashishi va kapitaldagi ishtirok ulushining bo‘linishi ……. 69
3.5. Moliyaviy tizim tomonidan informatsion qo‘llab-quvvatlash (axborot ko‘magi)…….. 70
3.6. Moliyaviy tizim yordamida stimullashtirishning psixologik muammolarini yechish 73
Asosiy adabiyotlar..... 80
4-MAVZU: MOLIYAVIY QARORLAR……. 82
4.1. Uy xo‘jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar…… 82
4.2. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar…….. 84
Asosiy adabiyotlar ro‘yxati ……... 88
5-MAVZU: MOLIYAVIY SIYOSAT ……. 90
5.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari…….. 90

5.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari)…….. 102
5.3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o‘ziga xos xususiyatlari…… 109
Asosiy adabiyotlar ro‘yxati..... 114
6-MAVZU: MOLIYAVIY BOSHQARUV……... 116
6.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati……. 116
6.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari……. 118
6.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish …… 123
Asosiy adabiyotlar ro‘yxati 128
7-MAVZU: MOLIYAVIY NAZORAT……. 130
7.1. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, obyekti, predmeti, tizimi, vazifalari, printsiplari……. 130
7.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakllari va metodlari ……... 136
7.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari 141
7.4. Nodavlat moliyaviy nazorati …….. 150
Asosiy adabiyotlar ro‘yxati..... 157
8 - MAVZU: DAVLAT BUDJETI..... 158
8.1. Davlat budjetining mohiyati..... 158
8.2. Davlat budjetining funksiyalari..... 171
8.3. Davlat budjetining ahamiyati 176
Asosiy adabiyotlar ro‘yxati..... 177
9-MAVZU: MOLIYAVIY BOZORLAR……. 179
9.1. Moliyaviy bozorining mazmun-mohiyati va ahamiyati…….. 179
9.2. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati va o‘rni…… 186
9.3. Moliyaviy bozorlarning tarkibiy qismlari……... 199
Asosiy adabiyotlar ro‘yxati..... 202
10 - MAVZU. SUG`URTA…… 204
10.1. Sug‘urta tushunchasi va uning mohiyati..... 204
10.2. Sug‘urtaning funksiyalari..... 212
II-BO‘LIM. SOLIQQA TORTISH NAZARIYASI…….. 219
11. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI, SOLIQ TIZIMI VA SIYOSATI..... 219
11.1. Soliqlarning obyektiv zarurligi va o‘ziga xos xususiyatlari 219
11.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro munosabati……. 223

11.3. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari..... 224
11.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari..... 229
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 236
Testlar 236
Asosiy adabiyotlar..... 239
12-MAVZU. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO‘NA-
LISHLARI…….. 240
12.1. Soliq siyosati tushunchasi va huquqiy nazariy asoslari……. 240
12.2. Hozirgi davrda soliq siyosatini ishlab chiqish va unda
davlatning roli …… 244
12.3. Soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish
yo‘nalishlari ……... 247
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 252
Testlar 252
13-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA
UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI..... 255
13.1. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati……. 255
13.2. Soliq tizimini guruhlashning o‘ziga xos jihatlari..... 257
13.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bo‘linishi..... 258
13.4. Soliqlarning budjetga tushishiga ko‘ra bo‘linishi..... 260
13.5. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va
rivojlanish bosqichlari ……... 268
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 272
Testlar..... 272
Asosiy adabiyotlar..... 274
14-MAVZU. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I..... 275
14.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha, uning iqtisodiy
mohiyati va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o‘rni 275
14.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish
obyekti va soliq solinadigan bazasi…… 280
14.3. Soliq solinadigan bazani aniqlash 300
14.4. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq stavkalari 307
14.5. Soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi. Soliq hisobotini
taqdim etish tartibi …… 313
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 319

Testlar 320
15-MAVZU. AKSIZ SOLIG‘I..... 322

15.1. Aksiz solig‘ining soliq tizimidagi ahamiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni..... 322
15.2. Aksiz solig‘ining vazifalari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.... 323
15.3. Aksiz solig‘i to‘lovchilar tarkibi, soliqqa tortish obyekti va soliq solinadigan baza..... 326
15.4. Aksiz solig‘i stavkalari va soliqdan belgilangan imtiyozlar..... 332
15.5. Aksiz solig‘ini soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to‘lash tartibi…… 337
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 339
Testlar 340
Asosiy adabiyotlar..... 341
16-MAVZU. FOYDA SOLIG‘I…… 342
16.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar..... 342
16.2. Soliq munosabatlarining subyektlari..... 343
16.3. Foyda solig‘i to‘lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi…….. 346
16.4. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi..... 349
16.5. Yuridik shaxslarning xarajatlarini guruhlash..... 360
16.6. Foyda solig‘i stavkalari 390
16.7. Foyda solig‘ini hisoblash chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to‘lash tartibi 394
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 399
Testlar 399
Asosiy adabiyotlar..... 401
16-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I 402
16.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi..... 402
16.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi..... 408
16.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari..... 422

16.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq stavkalari…… 432
16.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va ushlab qolish tartibi …….. 436
Qisqacha xulosalar..... 443
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 444
Testlar..... 445
Asosiy adabiyotlar..... 447
17-MAVZU. IJTIMOIY SOLIQ…… 448
17.1. Ijtimoiy soliqni to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi..... 448
17.2. Ijtimoiy soliq stavkalari, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi……... 450
17.3. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lashning o‘ziga xos xususiyatlari …….. 451
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 455
Testlar 455
Asosiy adabiyotlar..... 457
18-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ 458
18.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni 458
18.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq bazasi 459
18.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari, soliqdan belgilangan imtiyozlar 463
18.4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi 465
Qisqacha xulosalar..... 467
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 468
Testlar 468
Asosiy adabiyotlar..... 469
19-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG‘I…… 470

19.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati, me’yoriy-huquqiy asoslari va davlat budjeti daromadlaridagi salmog‘i..... 470
19.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi..... 473
19.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari..... 474
19.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi..... 479
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 481
Testlar..... 482
Asosiy adabiyotlar..... 487
20-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I..... 488
20.1. Yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni..... 488
20.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza..... 491
20.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari va soliq stavkalri..... 494
20.4. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi..... 501
Qisqacha xulosalar..... 503
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 504
Testlar..... 504
Asosiy adabiyotlar..... 507
21-MAVZU. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I..... 508
21.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni..... 508
21.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi..... 511
21.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari..... 513

21.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari..... 515
21.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi…….. 517
Qisqacha xulosalar..... 518
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 519
Testlar..... 520
Asosiy adabiyotlar..... 524
22-MAVZU. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ..... 525
22.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning huquqiy asoslari va uning davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni..... 525
22.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi..... 526
22.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq bo‘yicha belgilangan imtiyozlar..... 530
22.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va budjetga to‘lash tartibi..... 531
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 534
Testlar..... 535
Asosiy adabiyotlar..... 536
23-MAVZU. YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ VA FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLGANLIK UCHUN MAXSUS RENTA SOLIG‘I..... 537
23.1. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning huquqiy asoslari va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni..... 537
23.2. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilma-larni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ining to‘lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi..... 540
23.3. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilma-larni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ining stavkalari..... 547
23.4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi..... 551
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 554
Testlar..... 555

Asosiy adabiyotlar..... 556
24 - MAVZU. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ…… 557
24.1. Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar…… 557
24.2. Aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari…….. 558
24.3. Aylanmadan olinadigan soliqni soliq solish obyekti va soliq bazasi……. 562
24.4. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari…….. 565
24.5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari. Alohida-alohida hisob yuritish tartibi…… 567
24.6. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi …….. 569
Nazorat va muhokama uchun savollar:..... 571
Testlar……. 572
25-MAVZU. SOLIQ TO‘LOVCHILARNING AYRIM TOIFA-LARIGA VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSU-SIYATLARI ……. 575
25.1. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari…….. 575
25.2. Advokatlar hay’atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari.. 576
25.3. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari…… 577
25.5. O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari…… 578
25.4. Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning foydasiga soliq solish……. 578
25.6. Alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarish……. 580

B.K.TUXLIYEV, A.T.AGZAMOV,
B.A. RAXMATULLAYEV

MOLIYA VA SOLIQLAR

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik

Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2022

Muharrir:	N. Abdullayeva
Texnik muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M. Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 21.11.2022.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 38,0. Nashriyot bosma tabog‘i 37,5.
Tiraji: 50. Buyurtma № 206.

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.